

MOLIYA *V4* SOLIQLAR



DARSLIK

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**B. A. XASANOV, A. A. XASHIMOV, A. B. MUXAMETOV, A. A.
ABDUVOXIDOV, J. M. URAZMATOV, G‘. B. AKRAMOV, M. A.
NARBAYEVA, D. B. ESHPULATOV**

MOLIYA VA SOLIQLAR

Darslik

Toshkent 2022

Moliya va soliqlar: oliy ta’limning 60310100 - “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo’yicha)”, 60411200-“Menejment (tarmoqlar va sohalar bo’yicha)” bakalavriat ta’lim yo’nalishlari uchun darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvohidov, J.M.O‘razmatov, G‘.B.Akramov, M.A.Narbayeve, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2022. – 770 b.

Mualliflar:

Xasanov Bahodir Akramovich – TDIU i.f.d., professor
Xashimov Akrom Abdievich – TDIU, i.f.d., professor
Muxametov Abubak Baboevich – GulDU i.f.n., dotsent Abduvohidov Akmal Abdulazizovich – GulDU dotsent O‘razmatov Jonibek Musurmonovich – GulDU katta o‘qituvchi Akramov G‘olibjon Bahodir o‘g‘li – TDIU tayanch doktorant Narbayeve Muxlisa Akrom qizi – TDIU bosh mutaxassisi Eshpulatov Dostonbek Bahodir o‘g‘li-GulDU tayanch doktoranti

Mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar chuqurlashayotgan davrda, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi moliya sohasida ham chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Moliya – davlatning o‘z funktsiya va vazifalarini bajarishi hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shartlarini ta’minlash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanilishi va foydalanilishi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimini qamrab olib, hozirgi sharoitda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya va soliq fanining mohiyati va funktsiyalari, moliyaviy siyosat, moliya tizimi va uning bo‘g‘inlari, moliya bozori va instrumentlari, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish va prognozlashtirish, moliyaviy nazorat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi, davlat moliyasi, davlat byudjeti, uy xo‘jaliklari moliyasi, xalqaro moliya, soliqlarning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari, O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi, soliq siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i, Aksiz solig‘i, foyda solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, aylanmadan olinadigan soliq, soliq nazorati va uning shakllari, davlat soliq xizmati organlarida qo‘llanilayotgan dasturiy mahsullar va soliq to‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlar yetarli darajada bayon etilgan.

Darslik 60310100 - “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo’yicha)”, 60411200-“Menejment (tarmoqlar va sohalar bo’yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarini talabalari, magistrantlar va o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, kitob amaliyotchi moliyachilar, buxgalterlar, iqtisodchilar, tadbirkorlar va korxona rahbarlari uchun ham foydali bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Taqrizchilar:

Xudoyqulov X.X. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya” kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Qo‘ziyev I.N. – Toshkent moliya instituti “Audit” kafedrasi mudiri iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 429-sonli buyrug‘iga asosan chop etishga tavsiya etilgan (ro‘yxatga olish raqami № 429-8.

KIRISH

Yangi O'zbekiston iqtisodiy farovon davlat, keng iqtisodiy imkoniyatlar mamlakatidir. Bu-har bir fuqaro boy bo'lsa- davlat boy bo'ladi, har bir oila farovon bo'lsa-mamlakat farovon bo'ladi, demakdir.

Yangi O'zbekistonni halol mehnat qilib, muvaffaqiyatga erishishni orzu qiladigan, tadbirkorlik orqali o'z va oilasi farovonligini ta'minlashga intiladigan, Vatani va xalqiga sidqidildan xizmat qilishni istaydigan barcha fuqarolar uchun keng imkoniyatlar mamlakatiga aylantirishimiz shart va zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev

Mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq. Shu bois oxirgi to'rt yilda ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilar mavqeini yuksaltirish bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Endi mamlakatimiz yangi davrga qadam qo'ymoqda. O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda inson kapitali investitsiyalar mikro va makro darajada raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida ko'riladi. Inson kapitalining jamg'arilishini va boyitilishini ta'min etish, insonlarning butun hayotiy faoliyati davomida uzluksiz ta'lim asosida o'zlarining kasbiy ko'nikma va tajribalarini takomillashtirib borishga qaratilgan strategiyani izchillik asosida joriy etishga qaratilgan faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan jarayonlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida nisbat o'zgarayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Jahon banki dunyoning "141 ta davlat misolida global milliy boylik tarkibini tadqiq etish davomida inson kapitalining uning umumiy qiymatidagi ulushi 64 %ni tashkil etishi va so'nggi 20 yil davomida uning xajmi 55 %ga o'sgani ma'lum bo'lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 %ni tashkil etgan bo'lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41 %ga to'g'ri keldi". Aynan inson kapitalidagi farqlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholi turmush farovonligi va umuman, inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda, xususan, "mamlakatlar o'rtasida aholi

jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30 % aynan inson kapitali bilan izohlanishi" ma'lum bo'lmoqda. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda iqtisodiy o'sish omillari o'zgarmoqda. An'anaviy omillar (mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati) kabi omillar o'rniga fan va ta'lim, ya'ni umumlashtirib aytilganda millatning intellekti bo'lgan omillar birinchi o'ringa chiqmoqda.

Har qanday milliy iqtisodiyotda inson kapitali – ishlab chiqarishning hal qiluvchi omili, milliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va uning raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Aynan shu sababli ham, bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda inson kapitaliga iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Iqtisodiy o'sishning xomashyo manbalaridan innovatsion manbalariga o'tish milliy boylikni ko'payishini ta'minlovchi, qo'shimcha qiymat yaratishning asosiy resursiga aylanayotgan inson kapitalini birlamchi omil sifatida yuzaga chiqarmoqda. Inson kapitalining jamg'arilishi va boyitilishini ta'minlash, insonlarning butun hayotiy faoliyati davomida uzluksiz ta'lim asosida o'zlarining kasbiy ko'nikma va tajribalarini takomillashtirishga qaratilgan strategiyani izchillik asosida joriy etishga qaratilgan faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Jahon banki mutaxassislarining fikriga ko'ra dunyoning barcha mamlakatlarining milliy boyliklari tarkibida jismoniy kapitalning ulushi o'rtacha 16 % ni, tabiiy kapital - 20 % ni, inson kapitali - 64 % ni tashkil etadi. (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya singari bunday mamlakatlarda inson kapitali ulushi 80% ga etadi). O'zbekistonda bu ko'rsatkich 62 % ga teng bo'lsada uning ulushi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda pastroqdir.

Hozirda jahon miqyosida inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini aniqlash, milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish, undan samarali foydalanish, to'liq namoyon etish uchun shart-sharoitlarni yaratish masalalari mamlakatlarning xalqaro hamjamiyatdagi o'zni, aholining munosib hayot kechirishi va barqaror rivojlanishini ta'minlash jihatidan

ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada ilmiy tadqiqotlarda inson kapitali rivojlanganlik darajasining iqtisodiy o‘lishga ta‘sirini tadqiq etish, inson kapitali tarkibiy unsurlarining o‘zaro munosabatini baholash, innovatsiyalarning joriy etilishi va tarqalishiga ta‘sirini aniqlash, inson kapitalini rivojlantirishning samarali usullarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida 52-maqсад sifatida: “Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish” -belgilab berilishining o‘ziyiq, innovatsion iqtisodiyotni qaror toptirish masalasi milliy iqtisodiyot uchun naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda har qanday davlatda mamlakatning o‘ziga xos va yetarlicha samarali bo‘lgan milliy innovatsion tizimini barpo qilish muhim vazifa hisoblanadi. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tishimiz lozimki, innovatsion taraqqiyotning yangi modeliga o‘tish birdaniga to‘planib qolgan salbiy jarayonlarni engib o‘tish va iqtisodiy o‘lishni tezlashtirish imkonini bermaydi. Yangi innovatsion taraqqiyot modeliga o‘tishda innovatsion salohiyatdan foydalanishni jadallashtirish, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, innovatsion xo‘jalik tizimlarining samarali faoliyat ko‘rsatishiga imkon beruvchi yangi xo‘jalik mexanizmlarini barpo qilishga alohida e‘tibor qaratish talab qilinadi. Hozirda jahonda biznes, fan va hukumatning o‘zaro aloqalariga asoslangan innovatsion taraqqiyotning to‘rtta modeli mavjud bo‘lib, mamlakatlar muayyan shart-sharoit va omillarni hisobga olgan holda, u yoki bu modelni tanlashni ma‘qul ko‘radilar. Mavjud innovatsion taraqqiyot modellarining afzalliklarini taqqoslash va ularni o‘rganish asosida universitet, sanoat va davlatning o‘zaro munosabatlariga asoslanuvchi, “uchlamchi spiral”

modeli katta qiziqish uygʻotadi. Mazkur modelda innovatsion iqtisodiyot asoslarini shakllantirishda oliy taʼlim muassasalariga katta eʼtibor qaratiladi.

Bugungi kundagi globallashuv jarayonlarini hisobga oladigan boʻlsak, XXI asrning asosiy qimmatbaho aktiviga aylangan, muvaffaqiyat sari intiluvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning dolzarbligi muqarrar boʻladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan “Moliya va soliqlar” nomli darslik iqtisodiyot sohasida malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi, deb oʻylaymiz.

Mamlakat boyligi faqatgina, uning tabiiy resurslari asosida shakllanmaydi, ularsiz ham mamlakatni boy mamlakatga aylantirish mumkin. Boylikning eng muhim manbai inson hisoblanadi. Davlat insonlarning iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlarni ta'min etishi lozim.

M. Tetcher

1 - BOB. MOLIYANING MOHIYATI VA FUNKTSIYALARI

1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.

2. Moliyaning funktsiyalari.

3. Takror ishlab chiqarish va moliya.

4. Moliya genezisi (taraqqiyoti).

1.1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

O'zining lug'aviy ma'nosi jihatidan "moliya" so'zi "daromad" yoki "to'lov" degan ma'nolarni anglatadi. Moliya davlatning vujudga kelishi va uning resurslarga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi bilan doimiy (uzluksiz) tovar-pul munosabatlari sharoitida paydo bo'ldi. Davlatning mavjudligi yaratilayotgan iqtisodiy (moddiy) ne'matlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha oliy hokimiyat organi (shaxsi) sifatida davlat va takror ishlab chiqarish munosabatlarning boshqa ishtirokchilari (subyektlari) o'rtasida ma'lum bir munosabatlarning o'rnatilishini taqozo etadi. Xususan, ana shu munosabatlar "moliya" tushunchasi orqali ifodalangan.

Natural munosabatlar ustunlik qilgan jamiyatlarda taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari natural soliqlar va turli ko'rinishdagi shaxsiy to'lanmalar tavsifiga ega bo'lgan. Tovarpul munosabatlarining rivojlanishi taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlari shakllarining o'zgarishiga olib keldi – ular ko'proq ravishda pul tavsifiga ega bo'ldi. Biroq bu munosabatlarning mazmun-mohiyati tamoyilial jihatdan keskin o'zgarmay qolaverdi.

Zamonaviy tasavvurdagi "moliya" tushunchasini davlat xazinasining alohidalashuvi va Davlat byudjetining vujudga kelishi bosqichiga kiritish mumkin.

Korporativ tipdagi (ustav kapitalining hissali aksionerlik shaklidagi) milliy va transmilliy tashkilotlarning vujudga kelishi bilan bog'liq holda tovar ishlab chiqarishning shirik masshtablarda rivojlanishi takror ishlab chiqarish

jarayoninning turli ishtirokchilari o'rtasida pul mablag'larini jalb qilish, ulardan foydalanish va ularni taqsimlash usullari hamda usullarining takomillashuviga olib keldi. Tovarlar harakatidan alohidalashgan (ajralgan) pul mablag'larining harakati masalalari bu taqsimlash jarayonlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular bir tomondan, kreditning turli shakllari va ikkinchi tomondan, turli subyektlar o'rtasida YaIM qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va funktsiyalari bilan belgilanadi. Tarixiy kategoriya sifatida ham moliyaning vujudga kelishi jamiyatning sinflarga bo'linishi va davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta'minlash hamda davlatning funktsiyalari va vazifalarini bajarish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarga moliya deyiladi.

Moliyaviy munosabatlarning farqli belgisi YaIMni qayta taqsimlash jarayoni oldindan ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan turli pul mablag'lari fondlarini yaratishdan iboratdir. Davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari darajasida tuziladigan pul mablag'lari fondlari markazlashtirilgan fondlar, xo'jalik subyektlari darajasida tuzilgan pul fondlari esa markazlashtirilmagan pul fondlari deyiladi.

Xo'jalik subyektlarining turli faoliyatlaridan olingan daromadlar hisobidan maxsus pul mablag'lari fondlari shakllantiriladi. Ularni shakllantirish qattiq ravishda reglamentatsiya qilinish (tartibga solinish) tavsifiga egaki, bu narsa moliyaviy munosabatlarning yana bir farqlanuvchi tavsifli belgiga ega ekanligini ko'rsatadi.

YaIMni taqsimlashda aholi ham ishtirok etib, ish haqi, tadbirkorlik (ishbilarmonlik) daromadi, dividendlar va qayta taqsimlashning boshqa shakllari ko'rinishidagi o'z hissalarini (ulushini) oladi. Bundan tashqari majburiylik

tavsifiga ega bo'lgan soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lash orqali (vositasida) aholi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirishda ishtirok etadi. Aholi daromadlari va xarajatlarini shakllantirish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlarining bu tizimi ham moliyaviy munosabatlarning alohida sohasini tashkil etadi.

Shu tariqa, quyidagilar moliyaning o'ziga xos belgilari hisoblanadi:

- qiymatning tovar shaklidagi harakatiga bog'liq bo'lmasdan, aksincha, real pullarning harakatiga bog'liq bo'lgan, huquqiy normalar yoki biznesni yuritish etikasiga asoslangan munosabatlarning taqsimlash tavsifiga egaligi;
- pul mablag'lari harakatining, odatda, bir tomonlama yo'nalishga ega ekanligi;
- markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini yaratish (vujudga keltirish).

Moliya pul munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham uning o'рни va ahamiyati pul munosabatlarining iqtisodiy munosabatlar tizimida qanday o'rin tutishiga bog'liq. Bir vaqtning o'zida moliya puldan o'zining mazmuni va bajaradigan funktsiyalari bo'yicha farqlanadi. Agar pul umumiy ekvivalent bo'lib, uning yordamida yaxlit ishlab chiqaruvchilarning mehnat xarajatlari o'lchansa, moliya esa yalpi ichki mahsulot (YaIM) va milliy daromad (MD)ni taqsimlash va qayta taqsimlashning iqtisodiy dastagi, pul mablag'lari fondlarini shakllan-tirish va ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish qurolidir. Pul daromadlari va fondlarini shakllantirish yo'li bilan faqatgina davlat va korxonalarning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash emas, balki moliyaviy resurslarning sarflanishi ustidan nazoratni ham amalga oshirish moliyaning nima uchun mo'ljallanganligini belgilab beradi.

Moliya quyidagilar o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini ifodalaydi:

- tovar-moddiy boyliklarni sotib olish, mahsulot va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonida korxonalar o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- markazlashtirilgan pul mablag'lari fondlarini yaratish va ularni taqsimlash borasida korxonalar va ularning yuqori organlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- byudjet tizimiga soliqlarni to'lash va xarajatlarni byudjetdan moliyalashtirish davomida korxona va davlat o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- soliqlar va boshqa ixtiyoriy to'lovlarni to'lash jarayonida davlat va fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- to'lovlarni amalga oshirish va resurslarni olish jarayonida korxonalar, fuqarolar va nobyudjet fondlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- byudjet tizimining alohida bo'g'inlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- sug'urta badallarini to'lash va zararlarni qoplash, sug'urta hodisasi ro'y bergan paytda aholi, korxonalar hamda mulkiy va shaxsiy sug'urta organlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- korxona fondlarining doimiy doiraviy aylanishiga xizmat qiluvchi pul munosabatlari.

Pul daromadlari va fondlarining asosiy moddiy manbai bo'lib mamlakatning MD hisoblanadi. MDning hajmi umumdavlat ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini aniqlab beradi. Aynan MD va uning alohida qismlari - iste'mol va jamg'arish fondlari - hajmini hisobga olgan holda, iqtisodiyotning rivojlanish nisbatlari va tarkibiy tuzilmasi aniqlanadi.

Moliyaning ishtirokisiz MDni taqsimlab bo'lmaydi. Moliya MDni yaratish va undan foydalanishning ajratib bo'lmaydigan bog'lovchi bo'g'ini hisoblanadi. Moliya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'molga ta'sir etib, obyektiv tavsifga ega.

U ishlab chiqarish munosabatlarining ma'lum bir sohasini ifoda etib, bazis kategoriyasiga mansubdir.

Zamonaviy iqtisodiyot davlat moliyasisiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Moliya alohida olingan mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasini va ularning xo'jalik hayotidagi makroiqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Mamlakat iqtisodiyotining holati moliyaviy vaziyatni belgilab beradi. Muttasil iqtisodiy o'sish, YaIM va MD ko'payishi (oshib borishi) sharoitida moliya o'zining muntazamliligi va barqarorligi bilan tavsiflanadi. U ishlab chiqarishning yanada rivojlanishini va mamlakat fuqarolari hayotining sifat darajasini yanada ortishini rag'batlantiradi.

Iqtisodiy tanazzul, ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlikning ortishi sharoitida moliyaviy holat keskin yomonlashadi. Bu narsa, o'z navbatida, davlat ichki va tashqi qarzlarini hisobidan moliyalashtiriladigan byudjet defitsitining kattaligida, pul emissiyasida, davlat qarzining ortishi va unga xizmat qilish bo'yicha xarajatlarning ko'payishida namoyon bo'ladi. Bularning barchasi inflyatsiyaning kuchayishiga, xo'jalik aloqalarining buzilishiga, o'zaro noto'lovlarning ortishiga, pul surrogatlarining paydo bo'lishiga, barterli bitimlarning ko'payishiga, soliqlarni byudjetga undirish borasida qiyinchiliklarning kelib chiqishiga, davlat xarajatlarning o'z vaqtida moliyalashtirilmaligiga, aholi keng qatlamlari turmush darajasining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarda real ishlab chiqarish sohasining holati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

O'zining moddiy mazmuniga ko'ra moliya pul mablag'larining maqsadli fondlarini ifoda etib, ularning jami (yig'indisi), oxir oqibatda, mamlakatning moliyaviy resurslarini tashkil etadi. Mamlakat moliyaviy resurslari o'sishining asosiy sharti MDning ortishi (ko'payishi)dir. Bir vaqtning o'zida, "moliya" va "moliyaviy resurslar" teng kuchli bo'lmagan tushunchalar hisoblanadi. Moliyaviy resurslar o'zicha moliyaning mohiyatini aniqlab bermaydi, uning ichki mazmuni

va ijtimoiy mo'ljallanganligini ochib bera olmaydi. Moliya fani resurslarning o'zini emas, balki resurslarni shakllantirish, taqsimlash va foydalanish asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Bu fan moliyaviy munosabatlarning taraqqiyot qonunlarini tadqiq etadi.

Moliya bazis kategoriya hisoblansa-da, ko'p jihatdan u hukumat tomonidan amalga oshiriluvchi va hayotga izchil tatbiq etiluvchi moliyaviy siyosatga ham bog'liq bo'ladi.

Moliya – bu, eng avvalo, taqsimlash kategoriyasi. Uning yordamida MDning ikkilamchi taqsimlanishi yoki qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi.

Moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati “davlat kimning hisobidan moliyaviy resurslarni oladi va kimlarning manfaat-lari uchun bu mablag'larni sarflaydi?” degan savolga javob izlashda namoyon bo'ladi.

Taqsimlash jarayonlari faqatgina moliya orqali emas, balki boshqa iqtisodiy kategoriyalar, jumladan narx, kredit, soliq va h.k.lar orqali ham amalga oshiriladi.

Tovar qiymatining pulda ifodalanishi narxni ifoda etadi. MDning taqsimlanishidan avval tovar va xizmatlar realizatsiya qilinishi lozim. Narx mulkdorlarga mahsulot realizatsiyasidan kelib tushishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining o'lchamini aniqlaydi va navbatdagi taqsimlash jarayonlari uchun boshlang'ich asos sifatida maydonga chiqadi. Narx tovarlarga bo'lgan talab va taklifni tartibga soladi va shu orqali takror ishlab chiqarishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx pensiya, nafaqa va hatto eng kam ish haqi miqdorini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkich hisoblanadi. Agar davlat narxni tartibga solmasa, ijtimoiy to'lovlar tarkibi va tuzilmasini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Narx, shuningdek bojxonaviy tartibga solishda va bojxona daromadlarini undirishda davlat tomonidan foydalaniluvchi dastak hisoblanadi. Masalan, ayrim mamlakatlarda bojxona bojlari ko'plab tovar guruhlarini bo'yicha sotib olish olish narxi bo'yicha emas, balki amaldagidan keskin farq qiluvchi normativ narxlar bo'yicha undiriladi. Shunga mos ravishda (boshqa

sharoitlar teng bo'lgan taqdirda) byudjetning daromadlari va mamlakat ichki bozoridagi narxlar o'sadi.

Moliya va kredit mustaqil iqtisodiy kategoriyalar sifatida bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ular hamkorlikda kengaytirilgan tartibda korxonalar pul fondlarining doiraviy aylanishiga xizmat qiladi. Kredit bank tizimi va maxsus moliya-kredit institutlari tomonidan amalga oshiriladigan ssuda fondining harakatini ifodalaydi. Bank krediti sifatida sof ko'rinishda tushuniladigan kredit davlatga bevosita bog'liq emas. Takror ishlab chiqarish jarayonida uning o'zni yetarli darajada aniqlashtirilgani holda, u daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik uzilishni qoplash usuli, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish ehtiyojlarini qoplash usuli va shu kabilarni ifoda etadi. Biroq, bir vaqtning o'zida, kredit - byudjet defitsiti va byudjet-kassa uzilishini (navbatdagi daromadlar kelib tushgunga qadar byudjet xarajatlarini qoplash uchun bank xizmatlari zarur bo'lgan paytda) qoplashning muhim shakli. O'z navbatida, agar byudjet mablag'lari tijorat banklarining hisob varaqlarida saqlanayotgan bo'lsa, bu banklar uchun muhim ssuda manbaidir. Kredit moliyadan (moliyalashtirishdan) o'zining qaytariluvchanligi va to'lovliyligi bilan farqlanadi. Bir vaqtning o'zida, har ikki holatda ham ular pul mablag'larining harakatlanishini ifodalaydi hamda kredit va moliya pul munosabatlarining chegarasidan chetga chiqmaydi.

1.1-jadval.

Moliya va kredit iqtisodiy kategoriyalarining o'zaro farqli jihatlari

Kredit	Moliya
Qaytariluvchi qayta taqsimlash amalga oshiriladi	Taqsimlash jarayonlariga qaytarib berilmaslik xos
Kredit munosabatlarida pul va qarz mablag'larining mulkdorlari emas, balki ulardan foydalanuvchilar o'zgaradi	Moliyaviy munosabatlarda pul va qarz mablag'laridan foydalanuvchilarning o'zgarigi yuz beradi
Kredit munosabatlarida qarz mablag'lari vaqtinchalik foydalanishga beriladi	Qarz mablag'lari muddatsiz foydalanishga beriladi
Kredit munosabatlarida pul mablag'lari va shu jumladan milliy boylikning bo'sh turgan qismi ishtirok qiladi	Yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad moliyaviy munosabatlarning obyekti hisoblanadi
Mablag'larni foydalanishga berish pullik asosda amalga oshiriladi	Mablag'larni foydalanishga berish tekin asosda amalga oshiriladi

Hatto, tovar krediti ham pul asosi va shakliga ega. Banklar korxonalar va aholining bo'sh pul mablag'larini to'playdilar va ularni ta'minlanganlik, qaytaruvchanlik, to'lovlilik va muddatlilik asosida ularga ehtiyoj sezgan korxonalarga beradilar. Agar moliya qiymatning bir tomonlama va qayta tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan shakldagi hara-katini ifodalasa, kredit esa kreditorga belgilangan muddatda oldindan o'rnatilgan foizlarni to'lagan holda qaytarilishi kerak (1.1-jadval).

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha kategoriyalar pul tavsifiga, pul tabiatiga ega bo'lib, ularga ikki va undan ortiq kategoriyalarning belgilari xosdir. Masalan, ish haqi yetarli darajada asoslangan tarzda pulli to'lanma, ya'ni pul deb atalishi mumkin. Biroq, bu oddiy pul bo'lmasdan sarflangan mehnatga muvofiq olingan pul hisoblanadi.

Soliq ham biz tomonimizdan amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda davlatga tekinga berilayotgan puldir. Qonunga rioya etmaslik jazo choralarining qo'llanishini taqozo etadi. Biroq, bundan tashqari, soliq bizga tegishli bo'lgan daromad va ish haqining bir qismidir. O'z navbatida, pul emissiya qilish bo'yicha operatsiyalar ham davlat daromadlarining manbai hisoblanadi.


1.2. Moliyaning funktsiyalari

Moliyaning mohiyati uning funktsiyalarida o'z ifodasini topadi. Shu paytgacha olimlar moliya ikkita katta funktsiya: taqsimlash va nazorat funktsiyalarini bajaradi, deb hisoblab kelgan bo'lsalar, bugungi kunga kelib, moliya bajaradigan funktsiyalar qatoriga tartibga solish; barqaror-lashtirish; fiskal va rag'batlantirish funktsiyalarini kiritish zarurati paydo bo'ldi (1.1-rasm).

Bu funktsiyalar moliya tomonidan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Har qanday (bir) moliyaviy operatsiya YaIM va MDni taqsimlash va shu taqsimlash ustidan nazoratning amalga oshirilishini anglatadi.

Moliyaviy munosabatlarning asosiy tavsifi ularning taqsimlash tavsifiga ega ekanligi uchun, shunga muvofiq ravishda moliyaning bosh yoki asosiy funktsiyasi taqsimlashdir. Moliya yordamida amalga oshirilishi lozim bo'lgan taqsimlash

jarayoni murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Moliya YaIMni taqsimlashning turli bosqichlariga xizmat qilib, uni birlamchi taqsimlashda va qayta taqsimlashda ishtirok etadi.



1.1-rasm. Moliyaning funktsiyalari

Moliyaviy usul orqali taqsimlash iqtisodiyotni boshqarishning turli darajalarini (mamlakat, uning alohida olingan mintaqalari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari miqyosida) qamrab oladi. Avvalo, moliyaning taqsimlash funktsiyasi MDni taqsimlashda, "asosiy yoki birlamchi daromadlar" ni yaratishda namoyon bo'ladi. Ularning yig'indisi MD ni tashkil qiladi. Asosiy daromadlar MDni moddiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash jarayonida shakllanadi. Ular ikki guruhga bo'linadi:

1) moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan ishchi va xizmatchilarning ish haqi, fermer va h.k.larning daromadlari;

2) moddiy ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarning daromadlari.

Biroq, bunda birlamchi daromadlar milliy xo'jalik ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, mamlakat mudofaa qudratini ta'minlash, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy pul fondlarining shakllanishini ta'minlay olmaydi.

1.2-jadval.

Moliya atamasining talqini

Atamaning talqini	Manba
Moliyaning funktsiyalari uning uch funktsiyasida namoyon bo'ladi: 1.jamiyatning milliy daromad tuzilmasini o'zgartiruvchi, qayta taqsimlash funktsiyasi; 2.rivojlanishning u yoki bu bosqichida jamiyat maqsadlariga erishish borasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning motivatsiyasini o'zgartiruvchi tartibga solish funktsiyasi; 3.qayta taqsimlash ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida qayta taqsimlangan pul mablag'laridan samarali foydalanilishini taqqoslash va baholashga xizmat qiluvchi nazorat funktsiyasi	Finanso':uchebnik/pod red. G. B. Polyaka.-3-e izd., pererab. i dop.- YuNITI-DANA,2008-703 s.
Moliyaning ikkita asosiy funktsiyasi ajratib ko'rsatiladi: 1.YaIM, tashqi iqtisodiy faoliyatdan daromadlar va milliy boylikning bir qismini taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan taqsimlash funktsiyasi; 2.uning yordamida taqsimlash jarayonlari davomida tarkib topgan jarayonlar va takror ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi nazorat qilinuvchi nazorat funktsiyasi	Finanso': uchebnik/pod red. A. G. Gryaznovoy, E. V. Markinoy.- M.:Finanso' i statistika, 2009.-504 s.
Moliyaning mohiyati uning uchta funktsiyasida namoyon bo'ladi: -taqsimlash; -nazorat; -tartibga solish	Finanso': uchebnik/pod red. V. V. Kovalevoy. 2-e izd. pererab.i dop.- M.:TK Velbi: Prospekt, 2010.-640 s.
Moliyaning ikkita asosiy funktsiyasi ajratib ko'rsatiladi: 1.YaIM va uning asosiy qismi milliy daromadni taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan taqsimlash funktsiyasi; 2. pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish nazorat qilinuvchi nazorat funktsiyasi	Finanso': uchebnik/pod red. A. M. Kovalevoy.- M.:Finanso' i statistika, 2009.-512 s.
Moliyaning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat: 1.pul mablag'lari fondlarini yaratish, xo'jalik yurituvchi subyektlarda daromad va jamg'armalar borasida iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulotni taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan taqsimlash funktsiyasi; 2. markazlashgan va markazlashmagan pul mablag'lari fondlarini yaratish va ulardan foydalanish, ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlash va uni qayta taqsimlash jarayonlari ustidan nazoratni amalga oshirishga xizmat qiluvchi nazorat funktsiyasi	Finanso': ucheb.posobie.-2-eizd., ispr.i dop.-Kabantseva N.G.M.: ID «Dashkov i K ⁰ »,2012.-452 s.

Buning uchun quyidagilar bilan bog‘langan holda MDni yanada taqsimlash va qayta taqsimlash zarur:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar daromadlari va jamg‘armalaridan eng samarali va oqilona foydalanish maqsadida mablag‘larni tarmoqlararo va hududiy qayta taqsimlash bilan;
- ishlab chiqarish sohasi bilan bir qatorda noishlab chiqarish sohasining (maorif, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta‘minot, boshqaruv va h.k.) ham mavjudligi bilan;
- aholining turli ijtimoiy qatlamlari o‘rtasida daromadlarni qayta taqsimlash bilan.

Yuqoridagi qayta taqsimlashlar natijasida ikkilamchi yoki “kelib chiquvchi” daromadlar tashkil topadi. Bunday daromadlarga noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida olingan daromadlar, soliqlar (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va boshqalar) kiradi. Ikkilamchi daromadlar MDdan foydalanish borasidagi yakuniy nisbatlarni shakllan-tirish uchun xizmat qiladi.

Moliya MDni taqsimlash va qayta taqsimlashda faol ishtirok etib, MDni birlamchi taqsimlashda vujudga kelgan nisbatlarni ularning yakuniy foydalanish nisbatlariga o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunday qayta taqsimlash natijasida yaratiladigan daromadlar moddiy va moliyaviy resurslar, eng avvalo, bir tomondan pul fondlarining o‘lchami va ularning tarkibiy tuzilmasi, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarish vositalari va iste’mol buyumlarining hajmi va tuzilmasi o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashi talab qilinadi.

Odatda, har bir mamlakat doirasida MDni qayta taqsimlash milliy iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini (qishloq xo‘jaligi, transport, energetika va h.k.) rivojlantirish maqsadida, aholining kam ta’minlangan qatlamlari (pensionerlar, talabalar, yolg‘iz va ko‘p bolali onalar va h.k.) foydasiga amalga oshiriladi.

Shunday qilib, MDni qayta taqsimlash milliy xo‘jalikning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, mamlakatning

alohida mintaqalari, mulkchilik shakllari va aholining ijtimoiy guruhlarini o'rtasida sodir bo'ladi.

Moliya yordamida amalga oshiriladigan YaIM va MDni taqsimlash va qayta taqsimlashning pirovard maqsadi ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, iqtisodiyotning bozor tarkibiy tuzilmasini shakllan-tirish, davlatni mustahkamlash, aholi turmush darajasini yaxshilashdan iboratdir. Bu jarayonlarda moliyaning roli kam xarajat qilib eng yuqori natijalarga erishish, moliya-xo'jalik faoliyatini yanada yaxshilashda xo'jalik yurituvchi subyektlar har bir xodimi va jamoasining moddiy manfaatdor-ligi va qiziquvchanligini oshirish vazifalariga bo'ysundirilgan.

Moliyaning taqsimlash funktsiyasi yordamida davlat faqatgina MDni qayta taqsimlashga emas, balki ishlab chiqarishga, kapitalning jamg'ari-lishiga, iste'mol sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu ma'noda, moliya iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarini, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani, ilmiy-texnika taraqqiyotini va h.k.larni rivojlantirishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi.

Umuman, moliyaning taqsimlash funktsiyasi:

- xo'jalik subyektlari, aholi, davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari darajasida maqsadli pul mablag'lari fondlarini shakllantirishga;
- xo'jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo, shuningdek, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, aholi ijtimoiy guruhlarini o'rtasida qayta taqsimlashni sodir etishga;
- xo'jalik subyekti va davlat darajasida zahiralar yaratishga, fuqarolar tomonidan jamg'arishni amalga oshirishga imkoniyat va shart-sharoit yaratib beradi.

Pul daromadlari va fondlarini shakllantirish hamda foydalanish vositasi sifatida moliya taqsimlash jarayonining amalga oshirilishini obyektiv ravishda o'zida aks ettiradi. Uning nazorat funktsiyasi YaIMni tegishli fondlarga taqsimlash va ularning maqsadga muvofiq sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, moliyaning taqsimlash va nazorat funktsiyalari yagona iqtisodiy jarayonning ikki tomonidir.

Moliya nazorat funktsiyasining asosini moliyaviy resurslarning harakati tashkil etadi. Mazkur harakatning tavsifidan kelib chiqqan holda, jamiyat pul mablag'larini taqsimlashda qanday nisbatlarning vujudga kelayotganligi, xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyoriga moliyaviy resurs-larning o'z vaqtida kelib tushishi qanday ta'minlanayotganligi xususida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Agar moliyaning nazorat funktsiyasi amaliyotda amalga oshirilmasa, moliya taqsimlash funktsiyasining samaradorligini baholashning ham iloji yo'q, bu o'z navbatida har ikki funktsiyani o'zaro muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida moliyaning nazorat funktsiyasi ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarishning dinamik rivojlanishini ta'min-lashga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, milliy xo'jalikning barcha bo'g'inlarida ish sifatini uzluksiz yaxshilashga yo'naltirilgan. U ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarini to'liq qamrab oladi. Iqtisodiy rag'batlantirishni oshirish, moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar va tabiiy boyliklardan oqilona va tejamkor foydalanish, noishlab chiqa-rish xarajatlari va yo'qotishlarni qisqartirish, xo'jasizlik va isrofgar-chilikning oldini olish moliya nazorat funktsiyasining maqsadlaridandir.

Moliya nazorat funktsiyasining eng muhim vazifalaridan biri moliya-viy masalalar bo'yicha qonunchilikning aniq bajarilishini, byudjet tizimi, soliq xizmati, banklar oldidagi moliyaviy majburiyatlar, shuningdek hisob-kitoblar va to'lovlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro majburiyatlari bajarilishining o'z vaqtidaligi va to'liqligini tekshirish hisoblanadi.


1.3. Takror ishlab chiqarish va moliya

Kishilik jamiyati takror ishlab chiqarishsiz mavjud bo'la olmaydi. Sayyoramiz aholisining o'sishi va urbanizatsiya darajasining ortishi, mamlakatlar ichidagi va ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishi, ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishi va boshqa bir qancha omillar bilan "hayot kechirish"ni yoki "yashash"ni takror ishlab chiqarish kishilik jamiyati mavjudligining muhim sharti bo'lib qoladi. Xalqaro mehnat taqsimoti yuqori texnologiyali ishlab

chiqarishlarning notekis taqsimlanishiga, eng boy-badavlat sanalgan mamlakatlarda moliyaviy kapitalning mujassamlashuviga olib kelmoqda. Qashshoq mamlakatlar esa xomashyoni qazib chiqarish va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, har qanday sharoitda ham takror ishlab chiqarish jarayonining mazmuni o‘zgarimasdan qoladi, bunda faqatgina, qo‘shimcha mahsulotning mujassamlashuv joyi o‘zgaradi. Moliya, bank va narx mexanizmlari orqali foydaning asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarda “cho‘kib qoladi” va ularga kelgusida ham taqsimlashni o‘z foydalariga hal qilishga imkon yaratadi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- ishlab chiqarish;
- almashuv;
- taqsimlash;
- iste’mol.



1.2-rasm. Takror ishlab chiqarish jarayonida moliyaning o‘rni

Takror ishlab chiqarish uchun bu bosqichlar, albatta, majburiy yoki shart bo‘lib, hatto ularning birisiz takror ishlab chiqarish jarayoni uziladi. Uning har bir bosqichiga bir yoki bir necha iqtisodiy kategoriyalar xizmat qiladi. Kategoriyalarning takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi bevosita va bilvosita shakllarda bo‘lishi mumkin. Masalan, baho kategoriyasi tovar

kategoriyasi singari almashuv bosqichida markaziy o'rinni egallaydi. Biroq, baho kategoriyasining ta'siri, takror ishlab chiqarishning bu bosqichida boshqa kategoriyalar xizmat qilishiga qaramas-dan, iste'mol bosqichida bevosita namoyon bo'ladi. Davlat moliyasining ijtimoiy mo'ljallanganligidan (davlatning o'z funktsiyalarini bajarishini ta'minlaydigan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish) kelib chiqiladigan bo'lsa, taqsimlash bosqichida ularning roli nisbatan kattaroq ekanligi yaqqol ko'rinadi. Takror ishlab chiqarish jarayonining bu bosqichida (taqsimlashda) barcha ijtimoiy manfaatlar va shunga muvofiq ravishda, jamiyatning barcha qarama-qarshiliklari namoyon bo'ladi (1.2-rasm).

Iste'mol qilinuvchi jami ijtimoiy mahsulot (JIM)dan, birinchi navbatda, takror ishlab chiqarishning avvalgi siklida foydalanilgan mehnat qurollari va predmetlarini tiklash uchun mo'ljallangan qismi ajratiladi. Bu qism takror ishlab chiqarishning yangi siklida ham uning shu hajmda takrorlanishini ta'minlaydi. Qolgan qism vositalar (mablag'lar)ning egasi va ishchilar o'rtasida taqsimlanadi. Taqsimlash nisbatlari asrlar davomida shakllanib, unda ishtirokchilarning har biri o'ziga tegishli bo'lgan qismni ko'paytirish maqsadida bir-birlari bilan doimiy qarama-qarshilikda bo'ladilar. Shunday qilib, jamiyatda yangidan yaratilgan qiymat birinchi taqsimlash bosqichini va undan so'ng esa almashuv va iste'mol bosqichlarini bosib o'tadi. Takror ishlab chiqarish jarayonining har bir ishtirokchisi o'ziga tegishli bo'lgan daromadni quyidagi ikki qismga bo'ladi:

- iste'mol fondi;
- jamg'arish fondi.

Lekin bu bosqichga qadar taqsimlash jarayoniga davlat aralashib, soliqlar, qarzlar, sug'urta kabi iqtisodiy vosita va dastaklardan foydalangan holda yakka tartibdagi va jamiyat daromadlaridan o'zining ulushini ajratib oladi.

Moliya nazariyasida takror ishlab chiqarish jarayonida davlat ishtirokining qiyosiy samaradorligi xususidagi bahslar hali-hamon to'xtaganicha yo'q. Har bir davlat uchun ma'lum bir davrda mamlakat aholisi (alohida shaxslar emas, balki aholining keng qatlami) qancha boy bo'lsa, davlatning o'zi ham shuncha boy

bo'ladi, degan tushunchadan kelib chiqib, aniq tavsiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Chunki daromadning yuqori darajasi yuqori iste'mol talabi va sog'lom iqtisodiyotni vujudga keltiradi. Shunga mos ravishda soliqqa tortiladigan baza o'sadi va jamg'ar-malar ulushi ortadi. Jamg'armalar ssuda kapitalining asosini tashkil etib, o'z navbatida, ular kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va ilmiy-texnika taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Taqsimlash jarayoniga davlat aralashuvining muvozanatlashgan chegaralari buzilsa, butun takror ishlab chiqarish jarayoni izdan chiqadi. Agar ijtimoiy portlashlarning oldini olish maqsadida davlat aholi kambag'al qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha ravishda majburiyatlarni o'z zimmasiga olsa, bu ham sog'lom takror ishlab chiqarish jarayonlarining buzilganligidan darak beradi.


Iste'molning darajasiga texnologiya darajasi, kommunikatsiyalar, davlat tuzilmasi, partiya va harakatlarning mavqei va boshqa shu kabi ko'plab omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jamg'arish fondi va iste'mol fondi o'rtasidagi nisbatlarning tendentsiyasini aniqlashning iloji yo'q. Iste'mol fondining yetarli yuqori darajasida noishlab chiqarish sektorida jamg'arishning hissasi ortadi (ya'ni, shaxsiy jamg'armalar o'sadi). Agar MDda iste'molning nisbiy hissasi kamroq bo'lsa, korporativ jamg'armalar o'sadi.

O'z navbatida, istemol fondi quyidagi ikki tarkibiy qismdan iborat:

- ijtimoiy iste'mol fondlari;
- shaxsiy iste'mol fondlari.

Alohida olingan mamlakatlar bo'yicha ular o'rtasidagi nisbat davlat tuzilmasiga, an'analarga va h.k.larga bog'liq. Hokimiyat tepasida kommunistik yoki sotsialistik partiyalar turgan mamlakatlarda ijtimoiy iste'mol fondlari iste'mol fondlarining umumiy hajmida asosiy o'rinni egallaydi. Chunki ijtimoiy iste'mol fondlari orqali davlat ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonlarini moliyalash-tirishni tashkil etadi. Ijtimoiy iste'mol fondlarining salmog'i boshqa mamlakatlarda ham nisbatan yuqori bo'lib, bu fondlar orqali boshqaruv xarajatlari, mudofaa, sanoat, qishloq xo'jaligi va h.k.larni

moliyalashtirish qo‘llab-quvvatlanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, ijtimoiy iste’mol fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishni moliyasiz tasavvur etib bo‘lmaydi.



1.3-rasm. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida moliya tizimining o‘rni
Ijtimoiy iste’mol fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning bevosita jarayoniga faqat moliya xizmat qiladi (1.3-rasm).

Ijtimoiy iste'mol fondlarining asosiy qismi davlat byudjeti orqali amalga oshiriladi. Bu fondlarning bir qismi ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot fondlarini shakllantirishga sarflanadi. Bozor iqtisodiyoti xos bo'lgan dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot fondlarini shakllantirishda ish beruvchilar va yollanma ishchilar ham ishtirok etadilar. Ijtimoiy iste'mol fondini shakllantirishga shaxsiy iste'mol fondining bir qismi yo'naltiriladi. Shaxsiy iste'mol fondining qolgan qismi quyidagi ikki qismga bo'linadi:


- shaxsiy jamg'arma fondlari;
- iste'mol fondlari.

Aynan shaxsiy iste'mol fondining ana shu ikki qismi tovar mexanizmining faoliyat ko'rsatishi uchun tegishli sharoitni yaratadi.

Iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi nisbat hamda ularning tabiiy ko'lamini bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning rivojlanish sur'atini belgilab beradi. Agar davlat soliqlar ko'rinishida birlamchi daromadlarning katta qismini olib qo'ysa, u shu yo'l bilan iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu yerda hamma narsa boshqaruv organi sifatida davlatning xususiyatiga borib taqaladi – uning xarajatlari yo ortiqcha (davlat apparati xarajatlarini moliyalashtirish to'g'risida gap ketayapti), yo nosamarali (iqtisodiyotga qilinadigan xarajatlar qismi) yo nooqilona (ijtimoiy soha xarajatlari haddan ziyod qimmat bo'lib, ishchi kuchining takror ishlab chiqarilishini rag'batlantirmaydi) bo'lishi mumkin.


1.4. Moliya genezisi (taraqqiyoti)

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar bir-biridan ishlab chiqarish munosabat-lari bilan farqlanadi. O'z navbatida, yangi ishlab chiqarish munosabat-lari ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasidan kelib chiqadi. Yangi ishlab chiqarish munosabatlariga davlat tuzilmasi ham mos kelishi kerak (1.4-rasm).



1.4-rasm. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum mohiyati

Alohida olingan davlatda o'zgarishlar yuqoridagidek ketma-ketlikda va bog'liqlikda sodir bo'lmasligi mumkin. Lekin bu jarayondagi umumiy qonuniyat xususiy holatlarga bog'liq bo'lmaydi. Har bir ijtimoiy tuzum va shunga muvofiq ravishda, shu tuzumdagi davlatga ma'lum bir moliyaviy tuzilma javob beradi (1.5-rasm).




1.5-rasm. Moliya kategoriyasining genezisi

Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda moliyaning farqlanishi quyidagi sabablar bilan belgilanadi:

- har qanday ijtimoiy tuzumga jamiyatning o'z sinfiy tuzilmasi mos keladi. Bunda moliya MDni taqsimlash munosabatlarini hisobga olib, ularning davlat foydasiga qayta taqsimlanishini tashkil qiladi;
- har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda moliya hukmron sinf-ning manfaatlarini himoya qiluvchi davlatning maqsadlari va vazifalariga bo'ysunadi;
- ishlab chiqarishning yangi usuli xo'jalik munosabatlarining yangi tizimini vujudga keltiradi. Masalan, quldorlik va feodal tuzum-larda natural munosabatlar xos bo'lgan bo'lsa, shunga mos ravishda davlat daromadlarini shakllantirish ham natural tavsif kasb etgan. Kapitalistik xo'jalik tovar-pul munosabatlariga tayanadi. Shunga muvofiq davlat daromadlarini shakllantirish ham pul shaklida amalga oshiriladi;
- agar davlat boshqaruv organi sifatida tarkib topgan ishlab chiqarish munosabatlari va sinfiy tuzumning vazifalariga xizmat qilsa, shu vazifalarga moliya ham xizmat qiladi;
- aniq sinflarga bo'lingan davlat mavjud bo'lmaydi;

- turli ijtimoiy tuzilmaga ega bo'lgan davlatlar bir tarixiy davrda bo'lishi mumkin;
- bir ijtimoiy-tarixiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish asrlar davomida sodir bo'lishi mumkin;
- faqat ijtimoiy tuzilma va texnologiyalarning emas, balki moliyaning ham eksport qilinish ehtimoli mavjud.



1.6-rasm. Moliya kategoriyasi rivojlanishining tarixiy zamini

Moliyaning tarixiy tavsifga ega ekanligi har qanday davlat o'z funktsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanishning tizimini yaratadi, degan xulosani chiqarishga imkon beradi (1.6-rasm).

Ilk bor “moliya” atamasini ilmiy muoamalaga kiritgan muallifni aniqlash mushkul. Bu atamaning birinchi muallifi sifatida 1577 yilda “Respublika xususida olti kitob” asarini nashr ettirgan frantsuz olimi J.Bodenni hisoblash mumkin¹. Undan so'ng bu atama dunyoning barcha boshqa tillariga kirib borgan. Biroq ayrim adabiyotlarda bu atamaning lotin tilidan olinganligi to'g'risida isbotlanmagan qarashlar ham mavjud. Bu nashrda “moliya” atamasi davlat va

¹ Пушкарёва В.М. История финансовой мысли и политики налогов – М.: Финансы и статистика, 2008.

takror ishlab chiqarish munosabatlarining boshqa subyektlari o'rtasidagi munosabatlar tizimini ifodalash uchun foydalanilgan. Hozirgi nuqtai-nazardan bu munosabatlarni moliyaga kiritish maqsadga muvofiq emas. Chunki ular pulli tavsifga ega bo'lmagan. Biroq, natural munosabatlar ustuvorlik qilgan iqtisodiy tuzumlardagi natural soliqlar va shaxsiy to'lanmalarning iqtisodiy mohiyati tovar-pul munosabatlari rivojlangan iqtisodiy tuzumlardagi pulli soliqlarning iqtisodiy mohiyati bilan bir xildir.

Ksenofont (eramizdan avvalgi 430-355 yillar) o'z asarlarida moliya masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Uning shu xususdagi asari "Afina respublikasining daromadlari to'g'risida" deb nomlangan. Aristotelning (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) moliya sohasidagi qarashlari uning "Afina davlat tuzilmasi" deb nomlangan asarida bayon qilingan². Eramizning 948 yilida soliqlar to'g'risida asar yozgan Qadam ismli arab olimining nomi ham fanda ma'lum. Moliya muammolari bilan shug'ullangan yevropalik olimlarning uzoq ro'yxatini F.Akvinskiy³ (1225-1274 yillar) boshlab beradi. U ilk marta qirolning soliqlarni undirish borasidagi huquqini asoslashga uringan.

Moliya bo'yicha ishlarning birinchi mualliflari qatoriga F.Petrarka, D. Karaf, Bernardo, F. Gvichardini, Dj.Botero, N.Makiaveli va boshqa italiyaliklarni kiritish mumkin⁴.

XVII asrda moliya nazariyasining rivjlanishiga ingliz iqtisodchilari katta hissa qo'shgan. Ularning orasidan T.Men, Dj.Lokk, T.Gobbs, Gauton-larni alohida ajratib ko'rsatish kerak.

L.Fon Sekendorf, S. Pufendorf, I. Yusti va I. Sonnenfels kabi nemis olimlari XVII-XVIII asrlarda moliya fanini boyitishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Ular adabiyotlarda kameralistikaning nemis maktabi vakillari sifatida kiritilgan. I. Yusti 1746 yilda nashr etilgan "Moliya mohiyatining tizimi" asarida

² *Иваницкий, В. Л.* История экономических учений : учебник для вузов / В. Л. Иваницкий. — Москва : Издательство Юрайт, 2021. — 282 с.

³ <http://econteor.ru/hste/opebr.php?pg=1xx5>

⁴ История экономических учений : учебник / С. А. Бартенев. — 2-е изд., перераб. и доп. - М. : Магистр : ИНФРА-М, 2013. — 480 с.

moliya to'g'risidagi kameralistik maktab vakillarining qarashlarini umumlashtirdi. Bu asarda birinchi marta moliya fani va moliyaviy siyosat ajratilib ko'rsatilgan (chegaralangan)⁵.

Fiziokratlar maktabi vakillari va ularning izdoshlari ham iqtisodiyotni o'rganish masalalariga katta e'tibor qaratadilar. Ularning asarlarida moliyaning turli jihatlarini tahlil va tadqiq qilingan. Bunday mualliflar qatoriga T. Gobbs, Dj. Lokk, D. Yum, V. Petti, G. Baugilber, S. Voban, Dj. Styuartlarni ko'rsatish mumkin. Aynan V. Petti (1623-1687 yillar) o'zining "Soliqlar va yig'imlar xususida traktatlar" asari bilan burjua siyosiy iqtisodining ilk namoyandasi (boshlovchisi) hisoblanadi⁶.

Mumtoz siyosiy iqtisodning vujudga kelishi (tug'ilishi) va rivojlanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. Bu maktabning vakillari moliyani siyosiy iqtisoddan ajratmaganlar va uni mustaqil fan sifatida e'tirof etmaganlar. Bu maktab mualliflari (frantsuzlar – A.Tyurgo, F.Kene va V.Mirabo, inglizlar – A.Smit va D.Rikardo)⁷ ishlarining darajasi, hajmi va uslubi xilma-xil bo'lishiga qaramasdan mumtoz maktab vakillarining moliya to'g'risidagi ta'limotlarini quyidagi to'rtta asosiy yo'nalishga keltirish mumkin:

- davlat kerak, chunki u "tabiiy tartib"ni hasaddan va tajovuzlardan himoyalaydi;
- davlatni saqlash (ushlab turish) arzon bo'lmog'i lozim, chunki davlatning boshqaruv xarajatlari noishlab chiqarish tavsifiga ega;
- davlat "tabiiy tartib"ni, ya'ni mulkchilik va raqobat huquqini, buzmasligi, cheklovchi bojxona bojlari va monopoliyalarni o'rnatish yo'li bilan ham mamlakatning xo'jalik hayotiga aralashmasligi kerak;
- davlat soliqqa tortishning quyidagi asosiy tamoyillariga qat'iy rioya etmog'i lozim:

⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-predstavleniya-o-suschnosti-finansovoy-sistemy-1>

⁶ История экономических учений : учебник для вузов / под ред. И. Н. Шапкина, А. С. Квасова. - М. : Издательство Юрайт, 2019. — 492 с. — (Серия : Бакалавр. Базовый курс).

⁷ https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/smit/smit_1.pdf

- o‘z daromadlariga muvofiq ravishda barcha soliq to‘lashi kerak (bu qoida ruhoniylar va aslzodalarning soliq immunitetiga qarshi yo‘naltirilgan);
- soliqni oldindan aniq belgilash (aniqlash) zarur;
- soliqni soliq to‘lovchi uchun qulay bo‘lgan vaqtda undirish lozim;
- soliqlarning undirilishi (olinishi) arzon bo‘lishi kerak (3-jadval).

Kapitalistik tizimning feodalizm ustidan g‘alabasi yangi ishlab chiqarish munosabatlarini u yoki bu darajada himoya qiluvchi iqtisodiy maktablar va qarashlarning vujudga kelishiga olib keldi. Bu maktabning yetakchi namoyandalaridan biri “Siyosiy iqtisod asoslari” deb nomlangan o‘z asarini 1848 yilda chop etgan Dj.Mil⁸ hisoblanadi.

XIX asrning dastlabki o‘n yilliklarida nashr etilgan nemis olimlaridan Soden (1811 yil), Yakob (1821 yil), Malxus (1830 yil) va Shenlarning (1832 yil) moliya to‘g‘risidagi asarlari alohida mashhurlikka ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, lekin bu ishlar “moliya” tushunchasining tarkibiga birinchi marta mahalliy moliyani kiritgan L.fon Shteyn va moliya fanining mumtozi A.Vagnerlar (uning “Moliya to‘g‘risidagi fan” asari 1880 yilda nashr etilgan) dunyoqarashlarining shakllanishida katta rol o‘ynadi. XIX asr oxirlarining yetakchi moliyachi-olimlari qatoriga avstriyalik E.Saksni, italiyalik F.Nittini, AQShlik E.Seligmanni va nihoyat, “Moliya fani asoslari” deb nomlangan asari 1869 yilda (1900 yilda – rus tilida) nashrdan chiqqan italiyalik olim L.Kossni kiritish mumkin. XX asr moliyachilarining qarashlari maxsus adabiyotlarda yetarli darajada bayon qilingan. Biz uchun esa, ba’zi bir obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra, rus iqtisodiy (moliyaviy) adabiyotida “moliya” tushunchasining genezisini (taraqqiy etishini) ko‘rib chiqish ham ma’lum bir ahamiyatga egadir (1.3-jadval). Moliya sohasida izlanish olib borgan rus olimlari orasida I.S.Peresvetov⁹ni alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. U davlatning harbiy qudratini kuchaytirish maqsadida

⁸ Милль, Джон Стюарт (1806-1873). Основы политической экономии с некоторыми приложениями к социальной философии / Джон Стюарт Милль ; [пер. с англ.: В. Б. Бобров и др.]. - Москва : Эксмо, 2007.

⁹ https://knowledge.allbest.ru/history/3c0b65635b3ac68b4d53b89421206c37_0.html

xazina daromadlarini ko‘paytirish va davlat resurslarini markazlashtirishning tarafdori bo‘lgan.

XVII asrdan bizgacha Yu.Krijanich va G.Kotoshixinlarning moliya xususidagi asarlari ham etib kelgan. Yu.Krijanich o‘z asarlarida yevropalik mualliflarning iqtisod va moliyaga oid qarashlari va mulohazalaridan keng foydalanadi, ularni Rossiyaning ehtiyojlariga “bog‘laydi”. U davlatning boyishi usullariga (masalalariga) jiddiy e‘tibor qaratib, ularni ikki guruhga – boyishning “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” usullariga bo‘ladi va bu narsalarning dunyoda allaqachan ma’lum ekanligi va ularning yangilarini o‘ylab topmaslik kerak deb hisoblaydi.

1.3-jadval.

Moliya kategoriyasining klassik va neoklassik talqini

Moliyaning klassik nazariyasi	Moliyaning neoklassik nazariyasi
Moliyaviy munosabatlar	
Ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash borasidagi iqtisodiy munosabatlarning bir qismi	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning aktiv-lari yoki majburiyatlarida o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keluvchi turli xo‘ja-lik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar
Moliyaviy resurslar	
Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayon-lariga xizmat qiluvchi, davlat va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar mulkida yoki tasarru-fida bo‘lgan jamg‘armalar, tushumlar va pul daromadlari	Subyekt ularning ko‘magida investitsiyaviy-moliyaviy tavsifga ega bo‘lgan masalalarni hal etuvchi aktivlar.Moliyaviy resurslar quyidagi ikki namunaviy jarayonlarni qorishtirish yo‘li bilan shakllantiriladi: -moliyalashtirish manbalarini topish va safarbar qilish; -investitsiyalash, ya’ni jalb qilingan mablag‘larning hajmi va yo‘nalishlarini aniq-lashtirish
Moliyaviy vosita va dastaklar	
Monetar siyosat vositalaridan foydalani-ladi: -narxni davlat tomonidan tartibga solish; -bank foizlarini davlat tomonidan tar-tibga solish; -davlat soliq siyosati; -milliy valyuta kursi.	Odatda, hujjat shaklida bozorda muoama-lada bo‘luvchi moliyaviy majburiyat va huquqlar. Bundan tashqari, moliyaviy vositalarga quyidagilar kiritiladi: -aktivlarni baholash; -mulkni tan olish; -aktivlarning asosiy tavsiflarining o‘zga-rishini bashoratlash; -vositalar va bitimlarni loyihalash va boshq.

XVIII asrning boshlarida moliya nazariyotchilarining yirik vakili I.Pososhkov¹⁰ hisoblanadi. Uning moliya sohasidagi taklifini quyidagicha ifodalash mumkin: boqimandani undirayotgan paytda uning to'lovchisini xonavayron qilmasdan, to'lovchidan to'lovni amalga oshirish muddatlari xususida yozma ravishda majburiyatni olmoq lozim.

XVIII asrning ikkinchi yarmida moliya nazariyasiga oid bir necha asarlar paydo bo'ldi. Ularning orasida yaqqol ko'zga tashlangani A. Polenovning "Rossiya dehqonlarining krepostnoylik holati xususida"¹¹ deb nomlangan asaridir. Bu asarda Rossiyada birinchi bo'lib "soliq" atamasi ishlatilgan, mulkiy sug'urtaning zarur ekanligi isbotlangan, Rossiyaning amaldagi soliq tizimi tanqidiy nuqtai-nazardan tahlil qilingan.

Rossiyada "moliya" atamasining paydo bo'lishi XVIII asrga borib taqaladi. Bu atama rus tiliga frantsuz tilidan kirib kelgan bo'lib, qariyb yarim asr mobaynida "xazina" atamasi bilan yonma-yon ishlatilgan. Birinchi marta Rossiya adabiyotida "moliya" ilmiy tushunchasi 1767 yilda Moskva universiteti tomonidan nashr etilgan "Ensiklopediyadan tarjimalar" kitobining so'zboshisida ishlatilgan. Bu yerda "moliya" tushunchasi "davlat daromadlariga tegishli bo'lgan ish" deb talqil qilingan. Uni ilmiy muomalaga birinchi marta Moskva universitetining huquq bo'yicha professori S. Desnitskiy¹² kiritgan. 1802 yilda Moliya vazirligining tashkil etilishi bilan bu atama ilmiy muomalalarda mustahkam o'rin egallay boshladi. Biroq 1835 yilga qadar, ya'ni rus universitetlarida "Moliyaviy huquq" kursi paydo bo'lgan qadar moliya mustaqil fan sifatida emas, balki siyosiy iqtisodning tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Amaliyotda esa, ko'proq "xazina" atamasi ishlatilgan.

A. Radishev o'zining "Jon yig'imi xususida" deb nomlangan asarida birinchi marta soliqlarning mohiyatini, iqtisodiy tabiatini, turlarini tadqiq etgan¹³.

¹⁰ У истоков российской экономической мысли. К 290-летию «Книги о скудости и богатстве» И.Т. Посошкова / под ред. Р.М. Нуреева и Ю.В. Латова: монография.- М.: Финансовый университет, 2015

¹¹ http://az.lib.ru/p/polenow_a_j/text_1767_o_krepostnom_sostoyanii.shtml

¹² <https://cyberleninka.ru/article/n/proekt-gosudarstvennyh-preobrazovaniyv-trudah-s-e-desnitskogo>

¹³ https://rvb.ru/18vek/radishev/01text/vol_3/03descript/048.htm

Kapitalizm ilk davridagi Rossiya moliya fani akademik I.Yanjul¹⁴ning asarlarida o'z ifodasini topgan. Uning fikricha, moliya fanining predmeti davlatning moddiy ehtiyojlarini eng yaxshi qondirish usullarini tadqiq etish hisoblanadi.

Sobiq Ittifoq davrida moliya fanining taraqqiy etishida etishida V.Dyachenko¹⁵, A.Aleksandrov, A.Birman, E.Voznesenskiy, V.Chantladze, B. Boldirev, V. Rodionova, P. Nikolskiylar¹⁶ o'ziga xos tarzda yondashganlar. Ularning asarlari hozirgi kunda o'z talabiga ega bo'lmasa-da, bizning fikrimizcha, keyingi yillar tadqiqotchilari uchun ular qiziqarli mavzu bo'lishi, shubhasiz.

Moliya fanining taraqqiyotida va uning nazariy masalalarini tadqiq etishda mamlakatimiz olimlari tomonidan ham salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligini e'tibrdan chetda qoldirmasligimiz lozim, xususan bu borada prof. A.Vahobov, prof. T. Malikov¹⁷, prof. H. Sobirov, prof. O. Olimjonov, , prof. N. Haydarov, prof. O. Iminov, prof. A. Jo'raev, prof. M. Almardonov, prof. S. Xudoyqulov¹⁸, dots. M. Tursunova¹⁹ va boshqalarning qarashlari ham o'z o'rniga ega.

Bob bo'yicha xulosalar

Davlatning paydo bo'lishi, boshqa narsalar qatori, oliy hokimiyat shaxsida va takror ishlab chiqarish munosabatlarning boshqa subyektlari o'rtasida yaratilgan iqtisodiy ne'matlarni taqsimlash va qayta taqsimlash borasida muayyan munosabatlarni o'rnatishni nazarda tutadi. Aslida, mazkur aloqalar "moliya" tushunchasi bilan izohlanadi.

Ayni chog'da jamiyatda yaratilgan iqtisodiy ne'matlarni har qanday qayta taqsimlash jarayonlarni moliya bilan bir xil o'rinda ko'rish unchalik ham to'g'ri emas. Aslida "moliya" tushunchasi o'zining zamonaviy ifodasida davlat xazinasi-

¹⁴ <https://lib.lunn.ru/KP/Classiki/yanjul.pdf>

¹⁵ Дяченко В. и др. Финансы СССР.учебник для студентов финансово-экономических институтов. Государственное финансовое издательство, 1933.

¹⁶ Александров, Александр Михайлович. Финансы социализма [Текст] : Учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности "Финансы и кредит" / А. М. Александров, Э. А. Вознесенский. - Москва : Финансы, 1974. - 334 с.

¹⁷ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik /Toshkent Moliya instituti. — Toshkent: "Noshir", 2011. 712-bet.

¹⁸ Худойкулов С. К. Молия ва солиқлар, дарслик. Т.: "Иқтисодиёт"-2020 й.

¹⁹ Tursunova M.R. Moliya va soliqlar (soliqlar va soliqqa tortish). O'quv qo'llanma. — Toshkent, 2019. — 210 b

ning alohidalashuvi davlat byudjetining paydo bo'lishi bilan bog'liq, deb hisoblashimiz mumkin.

Aytish mumkinki, dastlab "moliya" tushunchasi birgina shakllanish nuqtai nazaridan qarab chiqilgan bo'lsa, keyinchalik davlat ehtiyojlarini qondirish borasida pul mablag'laridan foydalanish jihatidan o'rganila boshlangan. Keyinchalik bu iqtisodiy kategoriya "davlat moliyasi" deb atala boshlandi, hozirgi kunda mazkur kategoriya davlat moliyasi va mahalliy moliyani o'z ichiga oladi.

Davlat moliyasi uchun quyidagi jihatlar xos:

- munosabatlarning pul bilan bog'liqligi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi tomonidan davlat va mahalliy byudjetlarga, shuningdek byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarning beg'araz va qaytarilmasligi;
- davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi bilan pul munosabat-larining majburiy shakli (davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy hujjatlar shaklida belgilangan tartib buzilgan taqdirda ushbu subyektlarga majburiy to'lovlar va ta'sir choralari tizimini o'rnatadi);
- avval taqsimlangan yalpi ijtimoiy mahsulotni pul shaklida qayta taqsimlash munosabatlari.

Korporativ (ustav kapitalining aksionerlik shakliga tayanuvchi) tipdagi milliy va transmilliy tashkilotlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamli tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi takror ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari o'rtasida mablag'larni safarbar qilish, ulardan foydalanish, taqsimlash usullarini takomillashtirishga olib keldi.

Mazkur qayta taqsimlash jarayonida tovarlar oqimidan alohidalashgan pul mablag'larining harakati muhim ahamiyat kasb etadi. Ular kreditning turli shakllari, shuningdek, yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatini turli subyektlar o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgani holda, ularning har biri ishlab chiqarilgan mahsulotning muayyan bir ulushini amaldagi huquqiy

me'yorlarga yoki biznes amaliyotiga muvofiq olishga da'vograllik qiladi, aynan mana shu narsa moliyaviy munosabatlar sohasi hisoblanadi.

Moliyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, yalpi ijtimoiy mahsulotni qayta taqsimlash jarayoni maqsadli turli pul mablag'lari fondlarini yaratish bilan birga amalga oshadi.

Davlat va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari darajasida yaratilgan pul mablag'lari fondlari markazlashtirilgan fondlar deb atalsa, xo'jalik yurituvchi subyektlar va uy xo'jaliklari darajasida yaratiluvchi pul mablag'lari fondi esa markazlashtirilmagan fondlar deb yuritiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning turli xil faoliyatidan olingan daromadlardan amortizatsiya ajratmalari, ish haqi bo'yicha qarzlar, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlar, shuningdek foyda shakllantiriladi, ularning bir qismi esa soliq tizimi orqali davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ixtiyoriga kelib tushadi, undan qolgan qismi esa takror ishlab chiqarish, jamg'arishga yo'naltiriladi va tadbirkorlik daromadlari, dividendlar sifatida taqsimlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur fondlarni shakllantirish qat'iy tartibga solinadi, bu esa moliyaviy munosabatlarning yana bir o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Yalpi ijtimoiy mahsulotni taqsimlashda aholi ham ishtirok etadi, aholi mazkur jarayonlarda o'z ulushini ish haqi, tadbirkorlik daromadi, dividendlar va taqsimlashning boshqa ko'rinishlari shaklida oladi. Bundan tashqari, aholi majburiy bo'lgan soliq va boshqa to'lovlarni to'lash orqali mablag'larning markazlashgan fondlarini shakllantirishda ishtirok etadi. Aholining daromad va xarajatlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlarining ushbu tizimi ham moliyaviy munosabatlar sohasi hisoblanadi.

Moliyaning o'ziga xos belgilari quyidagilardan iborat: 1) huquqiy me'yorlar yoki ishbilarmonlik etikasiga asoslangan munosabatlarning taqsimlovchi xususiyati tovar ko'rinishidagi qiymat harakatidan qat'i nazar, real pul harakati

bilan bog‘liq; (2) bir tomonlama (bir yo‘nalishli), qoida tariqasida, pul oqimining tabiati; (3) markazlashtirilgan va markazlashmagan fondlarni yaratish.

Aholining, tadbirkorlik subyektlarining, davlat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining pul daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromad hisoblanadi. Uning hajmi va taqsimlash tavsifi iqtisodiyotni rivojlantirish, jamiyat a‘zolarining ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga bog‘liq.

Moliyaviy munosabatlar xilma-xildir. Ular:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida mahsulot sotish, xizmatlar ko‘rsatish, tovar-moddiy boyliklarni sotib olish jarayonida;

jamg‘armalarning qo‘shma fondlarini yaratish va ulardan foydalanishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yuqori tashkilotlar o‘rtasida;

byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirishda tadbirkorlik subyektlari bilan davlat, mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘rtasida;

mablag‘larning maqsadli jamg‘armalarini shakllantirish va ulardan foydalanishda tadbirkorlik subyektlari tarkibida;

aloqida byudjetlar, byudjetdan tashqari jamg‘armalar o‘rtasida;

byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirishda fuqarolar va davlat, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari bilan bog‘liq.

Aholining, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ixtiyorida bo‘lgan mablag‘lar yig‘indisi moliyaviy resurslar hisoblanadi. Moliyaviy mablag‘lar manbalari quyidagilardir:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar darajasida: foyda, amortizatsiya, qimmatli qog‘ozlarni sotish, bank krediti, foizlar, boshqa emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha dividendlar;

aholi darajasida: ish haqi, mukofotlar, ish haqiga qo‘shimchalar, ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan ijtimoiy to‘lovlar, sayohat xarajatlari; tadbirkorlik faoliyatidan, foydada ishtirok etishdan, shaxsiy mulk bilan

operatsiyalardan, kredit va moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlar; ijtimoiy transfertlar, shu jumladan pensiyalar, nafaqalar, stipendiya-lar; iste'mol krediti;

davlat, mahalliy davlat hokimiyati organlari darajasida: davlat va munitsipal korxonalardan olinadigan daromadlar, davlat va munitsipal mulkni xususiy lashtirishdan olingan daromadlar, tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar, soliq daromatlari, davlat va munitsipal kreditlar, qimmatli qog'ozlarni emissiya qilishdan daromad va pul emissiyasi.

Moliya ilmiy yo'nalish sifatida moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash yoki ulardan foydalanish asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, moliyaviy munosabatlarning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati quyidagi savollarni o'rganish va ularga javob berishdan iborat: u yoki bu xo'jalik yurituvchi subyekt, fuqaro, davlat, mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z moliyaviy resurslarini kim yoki nima hisobidan shakllantiradi va bu pul mablag'lar qanday va kimning manfaatlariga sarflanadi.

Moliyaning mohiyati uning funktsiyalarida namoyon bo'ladi: taqsimlovchi, nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi, rag'batlantiruvchi, fiskal.

Moliyaviy munosabatlarning asosiy jihati sifatida uning taqsimlovchi jihati namoyon bo'ladi, shu bois, moliyaning asosiy funktsiyasi taqsimlash funktsiyasi hisoblanadi. Moliya yordamida amalga oshiriladigan taqsimlash jarayoni murakkab va ko'p qirralidir. Moliya umumiy ijtimoiy mahsulotni taqsimlashning turli bosqichlariga xizmat ko'rsatadi, uni birlamchi taqsimlashda ham, qayta taqsimlashda ham ishtirok etadi.

Moliyaviy taqsimlash usuli iqtisodiy boshqaruvning turli darajalarini qamrab oladi: mamlakat, mintaqaviy (mamlakat subyektlari darajasida), mahalliy (mahalliy boshqaruv organlari darajasida). U ko'p bosqichli tavsifga ega bo'lib, bu

taqsimlashning kabi **xo‘jalik ichidagi, tarmoq ichidagi, tarmoqlararo, hududlararo** turlarini vujudga kelishiga olib keladi.

Moliya orqali davlat nafaqat milliy daromadning qayta taqsimlanishiga, balki ishlab chiqarishga, kapital to‘planishiga, iste’molga ham ta’sir ko‘rsatadi. Moliya iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarini, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani, fan-texnika taraqqiyotini va boshqalarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Milliy daromadni taqsimlash ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o‘rtasida ham, shuningdek, mazkur sohalar doirasida ham sodir bo‘ladi. Davlat moliyaviy mexanizm yordamida iqtisodiyotning ayrim sohalarida olingan daromadlarning bir qismini olib, boshqalarga, jumladan, ijtimoiy sohaga ham yo‘naltiradi. Milliy daromadni qayta taqsimlash jarayoni davlat moliyaviy siyosatining tabiati, mamlakatdagi siyosiy kuchlarning bir-biriga mos kelishi bilan oldindan belgilanadi.

Umuman olganda, **moliyaning taqsimlash funksiyasi quyidagilarga imkon beradi:** (1) xo‘jalik yurituvchi subyektlar, aholi, davlat va mahalliy hokimiyat organlari darajasida maqsadli mablag‘lar fondlarini yaratish; 2) iqtisodiyot, tarmoq ichidagi, tarmoqlararo, hududlararo, shuningdek ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari hamda ijtimoiy guruhlar o‘rtasida qayta taqsimlashni amalga oshirish; 3) xo‘jalik yurituvchi subyekt va davlat darajasida zahiralar yaratish, shuningdek fuqarolar tomonidan jamg‘armalarni shakllantirish.

Moliyaning asosiy funksiyalariga taqsimlash funksiyasi bilan bir qatorda nazorat funksiyasi ham kiradi. Taqsimlash va nazorat qilish funksiyalari bir xil iqtisodiy jarayonning ikki tomonidir. Moliyaning nazorat funksiyasining asosini moliyaviy resurslar harakati tashkil etadi. O‘sha harakatning xususiyatidan kelib chiqib, jamiyat mablag‘larni taqsim-lashda nisbatlar qanday shakllanganligini va xo‘jalik yurituvchi subyektlar ixtiyoriga moliyaviy resurslarning o‘z vaqtida kelib tushishi qanday amalga oshayotganini bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar moliyaning nazorat funksiyasi amaliyotda ro‘yobga oshirilmagan bo‘lsa, unda

taqsimlash funktsiya-sining samaradorligini baholash ham mumkin bo'lmaydi, bu esa ushbu funktsiyalarni amalga oshirishda muvofiqlashtirish zarurati bilan bog'liq masalalarni keltirib chiqaradi.

Moliyaning taqsimlovchi funktsiyasi o'z-o'zidan emas, balki huquqiy normalarga muvofiq amalga oshiriladi. Normalar, qoidalar, qonunlar, huquqiy hujjatlar majmui moliyaviy faoliyatni tartibga solish va shu orqali takror ishlab chiqarish jarayonini tartibga solish uchun mo'ljallangan. Shunday qilib, moliyaning uchinchi funktsiyasi - **tartibga solish** funktsiyasi haqida fikr yuritishimiz mumkin.

Moliyaning tartibga solish funktsiyasi nafaqat davlat, xo'jalik yurituvchi subyektlar darajasida, balki moliyaviy munosabatlarni to'g'ri tashkil etishda, uni qurish ierarxiyasida ham namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda ijtimoiy tizimning o'zgarishi muqarrar ravishda jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni hisobga olgan holda doimiy ravishda o'zgarib turadigan yangi moliyaviy munosabatlar tizimiga o'tishga olib keldi.

Moliyaning rag'batlantiruvchi funktsiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi: soliq stavkalarini, imtiyozlarni, jarimalarni manevr qilish, soliqqa tortish shartlarini o'zgartirish, ba'zi soliqlarni joriy etish va boshqa soliqlarni bekor qilish orqali davlat sanoatning ayrim tarmoqlari va ishlab chiqarishini jadal rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, jamiyat uchun dolzarb bo'lgan muammolarni hal qilishga hissa qo'shadi. Soliqlar, imtiyozlar, sanksiyalar yordamida davlat texnologik taraqqiyotni, ish o'rin-lari sonini ko'paytirishni, ishlab chiqarishni kengaytirishga kapital qo'yilmalarni, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyatni rivojlantirish va boshqalarni rag'batlantirishi mumkin.

Yaxshi moliyaviy boshqaruvning asosiy sharti - bu turli xil vositalar yordamida aholi turmush farovonligini yaxshilashga ko'maklashishdan iboratdir. O'ziga to'q insonlar davlatga katta daromad keltiradilar, kambag'allarning bor budini tortib olish, xuddi mevali daraxtning tagiga bolta urish bilan barobardir.

Egor Kankrin (1823-1844 yillarda Rossiya imperiyasining Moliya vaziri)

2-BOB. MOLIYAVIY SIYOSAT

1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari.

2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari).

3. Hozirgi bosqichdagi moliya siyosati va uning o'ziga xos xususiyatlari.

2.1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari

Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanadi. Shu bois, moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruv tizimida asosiy unsur hisoblanadi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyatidir. Mazkur faoliyat davlatning u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga qaratilgan.

Ijtimoiy rivojlanish deyilganda faqatgina ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanishi tushunilmasdan, shu bilan bir qatorda, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi ham tushuniladi.

Moliyaviy siyosat o'z-o'zini bosib turuvchi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Siyosat, siyosiy ta'sir va siyosiy rahbarlik quyidagi uch unsurdan tarkib topadi:

- bosh maqsadni aniqlash va qo'yish hamda jamiyat hayotining ma'lum bir davriga xos qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun echilishi zarur bo'lgan istiqboldagi va yaqin kunlardagi vazifalarni aniqlashtirish;

2.1-jadval.

Turli mualliflar tomonidan moliyaviy siyosatga berilgan ta'riflar

Mualliflar	Moliyaviy siyosatning ta'rifi
1988 yilda nashr qilingan moliya-kredit lug'ati ²⁰	Moliyaviy siyosat iqtisodiy siyosatning ajralmas qismidir; uning funktsiyalari va vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va undan foydalanish bo'yicha davlat choralari to'plami; moliyaviy resurslarni safarbar qilish shakl va usullari tizimi, ularni aholi qatlamlari va ijtimoiy guruhlari, faoliyat sohalari va mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash, moliyaviy qonunchilikda, davlat daromadlari va xarajatlari tarkibida namoyon bo'ladi.
M.K. Shermeniyov ²¹	Moliyaviy siyosat-moliyadan foydalanish sohasida davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Moliyaviy siyosat - moliyaning mujassamlashgan ifodasidir.
I.V.Levchuk ²²	Moliyaviy siyosat moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanishni markazlashtirilgan va demokratik boshqarish-ning to'g'ri kombinatsiyasini yaratishga mo'ljallangan.
V.M. Rodionova tahriri ostidagi "Moliya" darsligi ²³	Moliyaviy siyosat-sotsialistik davlatlarning moliyadan foydalanish borasidagi faoliyati.
I.T. Balabanov ²⁴	Moliyaviy siyosat – bu davlatning iqtisodiy, harbiy, ekologik va ijtimoiy sohadagi salohiyatini mustahkamlash borasida moliyadan foydalanish borasidagi faoliyati
L.A. Drobozina tahriri ostidagi "Moliya" darsligi ²⁵	Moliyaviy siyosat-bu doimiy takror ishlab chiqarish jarayoni uchun moliyaviy resurslarni ta'minlash va takror ishlab chiqarishning muayyan ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayo-niga yo'naltirilgan maqsad va vazifalarni aniqlashtirishdir.
A.G. Gryaznova, E.V. Markina tahriri ostidagi "Moliya" darsligi ²⁶	Moliyaviy siyosat-davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish uchun moliyaviy asos yaratish bo'yicha eng samarali chora-tadbirlarni aniqlashtirish borasida davlatning moliyaviy boshqaruv sohasidagi maqsadli chora-tadbirlari majmui.
A.V. Vaxobov, T.S. Malikov ²⁷	Moliyaviy siyosat o'z-o'zini bosib turuvchi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu yerda uning iqtisodiyot, ijtimoiy soha, harbiy islohotlar yoki xalqaro munosabatlar bo'lishi jiddiy ahamiyatga ega emas. Moliyaviy siyosat, eng avvalo, moliyaviy resurslarning maksimal hajmini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Chunki aynan moliyaviy resurslar har qanday o'zgarishlarning moddiy asosini tashkil etadi.

- ularning yordamida qo'yilgan maqsadlarga qisqa muddatlarda erishiladigan, joriy va istiqboldagi vazifalar esa oqilona tartibda hal qilinadigan munosabatlarning usullari, vositalari va aniq shakllarini ishlab chiqish;

²⁰ Финансово-кредитный энциклопедический словарь. М.: Финансы и статистика, 2002г. С. 1045.

²¹ Финансы СССР. Учебник под ред. М.К. Шермеева. М.: 1977 г. С. 13-14

²² Левчук И.В. Денежное обращение и кредит в СССР. М.: Финансы и статистика. 1986 г. С. 16.

²³ Финансы. Учебник под ред. В.М. Родионовой. М.: Финансы и статистика. 1992 г. С. 61.

²⁴ Балабанов И.Т. Финансовый менеджмент. М.: Финансы и статистика. 1994 г. С. 30.

²⁵ Дробозина Л.А. Финансы. М.: ЮНИТИ. Финансы. 2000 г. С. 21.

²⁶ Финансы: Учебник/Под ред. А.Г. Грязновой, Е.В. Маркиной. – М.: Финансы и статистика, 2004. С. 65.

²⁷ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik /Toshkent Moliya instituti. — Toshkent: "Noshir", 2011 712—bet.

- qo'yilgan vazifalarni yechishga qodir bo'lgan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularning bajarilishini tashkil qilish.

Demak, takror ishlab chiqarishning alohida ehtiyojlarini qondirish va uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlariga yo'naltiriladigan maqsad va vazifalarning echilishini aniqlashga moliyaviy siyosat deyiladi.


Moliyaviy siyosatga boshqacha ta'rif ham berish mumkin, xususan: moliyadan foydalanishning usullari, uni tashkil qilishning amaliy shakllari va uslubiy tamoyillarining moliyaviy siyosat deyiladi. Ayrim hollarda moliyaviy siyosat davlatning o'z funktsiyalarini bajarishi uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan davlat organlarining ma'lum bir faoliyati sifatida talqin qilinadi. Bunday talqin o'zida bir necha xavfni mujassam etadi. Buning boisi shundaki, milliy xo'jalik taraqqiyotida davlatning o'zni to'g'risidagi jamiyatda hukmron bo'lgan tasavvurlarga muvofiq ravishda davlatning vazifalari va funktsiyalari ham o'zgarishga yuz tutadi. Masalan, mamlakat iqtisodiyotiga davlatning aralashuvi, aholi turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini tenglashtirish va shunga o'xshash davlatning funktsiyalari va vazifalarini aniqlaydigan boshqa bir qancha masalalar hamon munozaraligicha qolmoqda. Buning ustiga, moliyaviy siyosatdan faqat davlatning funktsiyalarini bajarish vositasi sifatida foydalanish davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari bilan moliya tizimining boshqa subyektlari, ya'ni aynan mamlakatning aholisi va xo'jalik yurituvchi subyektlari manfaatlari o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida bayon qilinganlardan quyidagi uch mantiqiy xulosa kelib chiqadi:

- birinchidan, moliyaviy siyosat faqat o'z manfaatlarini ko'zda tutadigan hokimiyat organlarining u yoki bu maqsadlarga erishish vositasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etish vositasi bo'lishi kerak;

- ikkinchidan, davlatning moliyaviy siyosati faqat davlat hokimiyat organlarining emas, balki moliya tizimi barcha subyektlarining manfaatlarini hisobga olishi lozim;
- uchinchidan, davlat moliyaviy siyosati va davlat hokimiyat organlarining moliyaviy siyosatini farqlash zarur.

Shunday qilib, davlat moliyaviy siyosatini mamlakat moliya tizimi-ning barcha bo‘g‘inlarida moliyaviy resurslarning o‘shishi mutanosibligini ta’minlash bo‘yicha davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining bir qismi sifatida qarash kerak (1-jadval). Xorijiy tajribalarning ko‘rsatishicha, moliyaviy resurslarning muvozanatlashgan holda o‘shishining zarurligini inkor etish mamlakat moliya tizimining o‘zini tarqoqlashuviga, iqtisodiyotning xonavayron bo‘lishiga olib keladi (2.1-rasm).



2.1-rasm. Moliyaviy siyosatning mazmuni


Moliyaviy siyosatning o‘ziga xos bo‘lgan asosiy jihati shundan iboratki, bu siyosat mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga va iqtisodiy siljishlarga muttasil ta’sir ko‘rsatib turishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bunday siyosat aholining turmush farovonligi ta’minlab va davlat daromadlarining manbaini ko‘paytirib, moliyaviy xo‘jalikka nisbatan eng yuqori natijalarni berishi

mumkin. Moliyaviy siyosatning ana shunga yo‘naltirilganligi orqali uning quyidagi eng asosiy maqsadini aniqlash mumkin: jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi turmushining darajasi va sifatini oshirish uchun moliyaviy sharoitlarni yaratish moliyaviy siyosatning eng asosiy maqsadidir.

Agar gap korxonalarning moliyaviy siyosati xususida ketadigan bo‘lsa, bu narsa korxona moliyaviy menejerlarining biznesni yuritish maqsad-lariga erishish borasidagi maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini anglatadi (2.2-rasm).

Korxona moliyaviy siyosatining maqsadi quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- raqobat kurashi sharoitida korxonaning sog‘lom hayot kechirishiga (faoliyat ko‘rsatishiga) erishish;




2.2-rasm. Korxonaning moliyaviy siyosatini shakllantirish

- yirik moliyaviy muvaffaqiyatsizliklar va kasodga uchrashdan qochib qutilish;
- raqobatchilar bilan kurashda yetakchilikka erishish;
- korxonaning bozor qiymatini maksimallashtirish;
- korxona iqtisodiy salohiyatining o‘shish sur‘atlarini barqarorligini ta‘minlash;
- ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish;
- foydani maksimallashtirish;

- xarajatlarni minimallashtirish;
- faoliyat ko'rsatish rentabelligiga erishish;
- va boshqalar.

Korxona moliyaviy siyosatining u yoki bu maqsadlaridagi ustuvorlik, eng avvalo, biznes yuritish maqsadlariga muvofiq ravishda aniqlanadi. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun tegishli moliyaviy mexanizm va tamoyillardan foydalaniladi (2.3-rasm).



2.3-rasm. Tashkilotning moliyaviy siyosatini tashkil etish tamoyillari


Dunyoning barcha mamlakatlarida moliyaviy siyosat moliya tizimi orqali amalga oshirilib, uning faoliyati quyidagi tamoyillar asosida quriladi:

- moliya tizimi bo'g'inlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini inobatga olib moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish;
- barcha moliyaviy muassasalar funktsiyalarining umumiyligi;
- barcha quyi boshqaruv organlarining faol ishtirokida markazdan umumiy boshqarish.

Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy uslubiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- pirovard maqsadga bog‘liqlik;
- xo‘jalik barcha tarmoqlarining makroiqtisodiy muvozanati;
- jamiyat barcha a‘zolarining manfaatlariga mos kelishi;
- real imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish.

Moliyaviy siyosat orqali davlat o‘z funktsiyalari va dasturlarini (uzoq, o‘rta va qisqa muddatli) amalga oshirish maqsadida moliyaviy resurslarni jalb qilish, ularni taqsimlash va qayta taqsimlashga yo‘naltirilgan davlat tadbirlarining majmuini amalga oshiradi.



2.4-rasm. Moliyaviy siyosat maqsadlari.

Hukumatning moliyaviy siyosatiga baho berish uchun va uni o‘zgartirish bo‘yicha tavsiya berish uchun, birinchi navbatda, butun jamiyat manfaatlari va aholining alohida guruhlari manfaatlarini ajratgan (taqsimlagan) holda jamiyat taraqqiyotining aniq dasturiga, echilishi lozim bo‘lgan masalalarning muddatlari va usullarini aniqlagan holda istiqboldagi va yaqin yillardagi vazifalarning tavsifiga

ega bo'lish lozim. Faqat ana shunday sharoitdagina moliyaviy siyosatni amalga oshirishning aniq mexanizmini ishlab chiqish va unga xolis baho berish mumkin.

Agar moliyaviy siyosat ijtimoiy taraqqiyotning ehtiyojlarini, jamiyat butun qatlamlarining va alohida guruhlarining manfaatlarini, aniq tarixiy sharoitni va hayotning o'ziga xos xususiyatlarini qanchalik hisobga oladigan bo'lsa, uning natijaviyligi shuncha yuqori bo'ladi (2.4-rasm).

Moliyaviy siyosat, eng avvalo, moliyaviy resurslarning maksimal hajmini shakllantirishga yo'naltirilgan (qaratilgan) bo'lishi kerak. Chunki aynan moliyaviy resurslar har qanday o'zgarishlarning moddiy asosini tashkil etadi. Shunga muvofiq ravishda moliyaviy siyosatni aniqlash va uni shakllantirish uchun davlatning moliyaviy ahvoli to'g'risida ishonchli ma'lumotlar zarurdir. Huquqiy demokratik davlatda moliyaviy statistikaning ko'rsatkichlari keng jamoatchilikka ham tegishli bo'lishi kerak. Moliyaviy hisobotlar esa doimiy, o'z vaqtida beriladigan, hamma olishi mumkin bo'lgan va eng asosiysi ishonchli bo'lmog'i lozim.

Moliyaviy siyosatning mazmuni u qamrab olishi mumkin bo'lgan moliyaviy munosabatlar rivojlanish yo'nalishlarining umumiy majmui bilan belgilanadi. Ularning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

- moliyaviy siyosatning umumiy kontseptsiyasini ishlab chiqish;
- makro va mikrodarajada iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi, bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga mos bo'lgan dinamik moliya mexanizmini shakllantirish;
- markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan resurslar va moliyaviy oqimlarning samarali boshqarilishini oshirish bo'yicha choralar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ijtimoiy takror ishlab chiqarish va iqtisodiyotni istiqbolli restrukturizatsiya qishlashdagi rolga muvofiq ravishda ijtimoiy iqtisodiy tizimning barcha darajalari va sohalari bo'yicha moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlashni tashkil qilish;

- iqtisodiy o‘rishning joriy va istiqboldagi moliyaviy salohiyatini shakllantirish.


Moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlashning negizida quyidagilarning yotishi tamoyilial ahamiyatga egadir:

- taqsimlash munosabatlarning subyektlarini tanlash, ya’ni moliyaviy resurslarning egalari va taqsimlovchilarini tanlash;
- yuridik shaxslar va aholining o‘z ehtiyojlarini qondirishdagi mustaqillik darajasi va davlatning funktsiyalariga bog‘liq ravishda davlat ixtiyoridagi moliyaviy resurslarning markazlashtirilish darajasini aniqlash;
- birinchi darajali ijtimoiy ehtiyojlar va ularni qondirish choralarini aniqlash va shularga mos ravishda moliyaviy resurslardan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;
- moliyaviy resurslarni shakllantirishning manbalari va usullarini tanlash.

2.2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo‘nalishlari)

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo‘nalishlari) quyidagilardan iborat:

- byudjet siyosati;
- soliq siyosati;
- pul siyosati;
- kredit siyosati;
- narx siyosati;
- investitsion siyosat;
- ijtimoiy moliyaviy siyosat;
- boj siyosati.




2.5-rasm. Davlatning iqtisodiy siyosati

O'z navbatida, moliyaviy siyosat davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning vositasi bo'lib hisoblanadi va shu ma'noda yordamchi vazifasini o'taydi (2.5-rasm). Bir vaqtning o'zida davlat siyosatining boshqa – milliy, geosiyosat, harbiy – yo'nalishlari ham mavjudligini esdan chiqarmaslik kerak. Ana shu barcha besh yo'nalishning (iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, geosiyosat, harbiy) yig'indisi (majmui) davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatida xizmat qiladigan moliyaviy siyosatni aniqlab beradi.


Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi sifatida davlatning byudjet siyosati, eng avvalo, har bir mamlakatning Konstitutsiyasi va byudjet jarayonida hamda

qonun ijodkorligida alohida hokimiyat organlarining funktsiyalarini belgilovchi boshqa qonunlar majmuiga muvofiq aniqlanadi. O'zining hajmi va muhimligi jihatidan eng katta ish bo'lishiga qaramasdan byudjet siyosatini faqat byudjet jarayoniga tegishli deb hisoblash maqsadga muvofiq emas (2.6-rasm).



2.6-rasm. Moliyaviy siyosat turlari

Qonun byudjet jarayonida hokimiyatning qonunchilik va ijroiya organlari funktsiyalarini, mamlakat subyektlari funktsiyalarini, byudjet federalizmi tamoyillarini, byudjet jarayoni subyektlarining huquq va majburiyatlarini va boshqalarni aniq belgilashi kerak. Biroq byudjet siyosati shu bilan cheklanmaydi. Byudjet siyosati byudjetda jamlanadigan YaIM ulushini aniqlashda, davlat boshqaruvi yuqori va quyi organlarining o'zaro munosabatlarida, byudjet xarajatlar qismining tarkibiy tuzilishida, turli darajadagi byudjetlar o'rtasida xarajatlarni taqsimlashda, davlat qarzini boshqarishda, byudjet kamomadini qoplash yo'llarini aniqlashda va boshqakarda ifodalanadi.



2.7-rasm. Moliyaviy siyosat unsurlari

Demokratik davlatda byudjet qonun tarzida tasdiqlanadigan hujjat hisoblanadi. Unda davlatning o'z funktsiyalarini bajarish maqsadida davlat qo'lida jamlangan pul mablag'larining harakati o'z ifodasini topadi. Davlat siyosati aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini yo'naltirish byudjet siyosatining ustuvorligini tashkil etadi. Agar maqsadga erishish milliy iqtisodiyot ta'minlaydigan mablag'lardan ko'p mablag' talab etsa, davlat qo'shimcha daromadlarni shakllantirishning quyidagi favquloddagi usullarini qo'llashga majbur bo'ladi: ichki va tashqi kreditlar, milliy boylikni sotish, boylik va mol-mulkni ijaraga berish va kontsessiyalar. Byudjetning daromadlar qismini

to'ldirishning favquloddagi choralari iqtisodiy mustaqillikning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Buni hisobga olgan holda hokimiyatning qonunchilik organlari qarz olishning chegarasini oldindan belgilaydi.

Soliq siyosati moliyaviy siyosatning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. Besh yuz yildan ortiqroq vaqt mobaynida zamonaviy moliya fani soliqlarga nisbatan munosabatini aniq belgilash imkoniga ega bo'lgan. Bu munosabatlar quyidagilardan tashkil topadi:

- soliqlarsiz davlatning faoliyat ko'satishi mumkin emas;
- solikli undirish qat'iy o'sish tendentsiyasiga ega;
- oqilona soliq ostonasidan o'tilganidan so'ng tabiiy takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi – iqtisodiyotning o'z-o'zidan izdan chiqishi yuz beradi;
- tanazzul davrida soliqlar mumkin qadar minimal darajada o'rnatilmog'i lozim. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy mexanizmi ichki investitsion salohiyatni safarbar etish hisobidan tiklanadi;
- soliqning yuqori ostonasi kapitalning chetga chiqib ketishiga olib keladi;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kerak, albatta. Biroq, pirovard o'lchovlarda sof daromadning 30%dan ortiq qismining undirilishida mamlakatning iqtisodiy o'sishi to'xtaydi;
- soliq imtiyozlari ochiqlik tavsifiga ega bo'lishi va barcha takror ishlab chiqarish subyektlari uchun teng bo'lishi kerak;
- soliq tizimi konfiskatsion tavsifga ega bo'lmasligi lozim. Faqat, jumladan, individual daromadlarning o'sishida ifodalangan milliy boylikning o'sishi soliqqa tortiladigan bazaning (asosning) barqaror o'sishini ta'minlashi mumkin;
- qonunlar va qoidalarining barqarorligini davlat kafolatlagan iqtisodiy tizimda soliqlarning summar o'lchovi barqaror o'sish tendentsiyasiga ega bo'ladi. Barqarorlik kafolati sifatida davlat o'zining majburiyatlarini buzishni boshladimi,

kapital xufyona iqtisodiyotga yoki xorijga o'tishni boshlab, byudjetning daromadlar bazasini qisqartiradi;

- soliq tizimi oddiy, ochiq va samarali bo'lmog'i lozim. Soliqlar sonini, soliqqa tortish obyektlarini ko'paytirish, ko'p bosqichli soliqlarni joriy etish soliqlarni undirish bo'yicha xarajatlarning ortishiga, boqimanda va jarimalarning o'sishiga va pirovardida, mulkka ta'qiq qo'yish, soliq to'lovchini to'lovga layoqatsiz deb e'lon qilish va shu kabi yo'llar orqali iqtisodiyotning tanazzuliga olib keladi;

- soliqqa tortish egri (bilvosita) tizimining ustuvorligi byudjet daromadlarini shakllantirish nuqtai-nazaridan qulay hisoblanadi. Lekin bu narsa, oxir oqibatda, mamlakat aholisi asosiy qismining qashshoqlanishiga olib keladi. Chunki bunday soliqlarning yuki tovarlar va xizmatlarning yakuniy (oxirgi) iste'molchisi gardaniga (zimmasiga), ya'ni yashash minimumi darajasida yoki ijtimoiy tirikchilik darajasida daromadga ega bo'lgan aholining 80-90% qismiga yuklanadi;

- egri (bilvosita) soliqlar tizimining xavfliligi shundaki, bu tizimda aholining asosiy qismidan jamg'armalar olib qo'yiladi va bu o'z navbatida, kredit tizimi va ikkilamchi moliyaviy bozor tizimining asoslarini buzadi;

- egri (bilvosita) soliqlarni sog'liq uchun zararli bo'lgan tovarlar, zebuziynat buyumlari, ayrim hollarda import qilinadigan tovarlar va xizmatlar va boshqa bir qancha o'ziga xos bo'lgan maxsus holatlarga nisbatan joriy etish zarur;

- daromad va mol-mulkdan olinadigan soliqlar soliq bazasining asosiysi bo'lib hisoblanishi (xizmat qilishi) kerak. Ularni proportsional soliqqa tortish tamoyillariga asosan qurish lozim.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlaridan (yo'nalishlaridan) yana biri pul siyosatidir. Agar muomaladagi pul miqdori tovarlar massasi miqdoriga (pulning aylanish tezligini hisobga olgan holda) mos kelmasa, pul massasining yetmagan qismi qog'oz pullar (pullarning surrogati) hisobidan yoki xorijiy valyuta hisobidan to'ldiriladi (tiklanadi). Va aksincha, agar pul massasi unga bo'lgan talabdan ortiq

bo'lsa, yo pul massasining mamlakatdan chetga chiqishi (oqishi) yoki milliy valyutaning qadrsizlanishi sodir bo'ladi.

Emissiya siyosati va milliy valyutaning barqarorligi pul siyosatining tarkibiy qismidir. Emission siyosat muomala uchun zarur bo'lgan pulning miqdorini aniqlashdan tashqari yana boshqa bir yo'nalishga ega. Bu yo'nalish byudjet daromadlarini ko'paytirishdir. Ana shu yo'nalish alohida ehtiyotkorlikni talab etadi. Chunki ma'lum bir miqdoriy chegaradan o'tilganidan so'ng pul tizimi inflyatsiyaga moyil (ta'sirchan) bo'lib qoladi, ya'ni byudjet daromadlarining real qadrsizlanishi sodir bo'lishi mumkin. Agar qandaydir bir sabablarga ko'ra davlat o'z pul tizimini tartibga solishga qodir bo'lmasa, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga putur etadi. Chunki bunday sharoitda mamlakatning milliy valyutasi boshqa kuchli valyutalarning ekspansiyasiga qarshi tura olmaydi va milliy boylikdan mahrum bo'lib qolish mumkin (o'zaro hisobga olishlar, aktsiyalarni sotib olish va h.k.lar orqali).

Kredit siyosati ham moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo'nalishi) bo'lib, uning namoyon bo'lishi mamlakatning krediti tizimi orqali amalga oshiriladi. Kredit tizimi ssuda kapitalining faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. O'z navbatida, ssuda kapitali takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishning muhim sharti hisoblanib, aylanma mablag'larni to'ldirish va investitsiyalar uchun mablag'larning qarzga olinishini ta'minlaydi. Iqtisodiyotning kredit sektori o'rtacha foyda normasini tenglash-tirish uchun ham xizmat qiladi. Foiz stavkasining darajasi jamiyatdagi iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. U asossiz darajada yuqori bo'lsa, quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- kreditlarning qaytarilmasligi;
- ishlab chiqarish sektori va xizmatlar sektorida mahsulotlar narxining o'sishi;
- qarzga oluvchilar rentabellik darajasining pasayishi va buning oqibatida soliqqa tortiladigan bazaning qisqarishi;
- ishlab chiqarishning qisqarishi;

- takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining pasayishi natijasida ichki iste'mol bozorining torayishi.

Aksincha, kreditning arzonlashuvi ishlab chiqarishning sog'lomlashi-shiga, tovarlar massasining ortishiga, tovarlar va xizmatlar narxining pasayishiga, buning natijasida esa, takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining oshishiga, soliqqa tortish bazasining kengayishiga va o'z navbatida byudjet daromadlarining ko'payishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo'nalishi) sifatida davlatning narx siyosati monopol tovar va xizmatlar narxi va tariflarning o'zgarishida ifodalanadi. Yer, osti boyliklari, suv havzalari, temir yo'llar, elektr uzatish tarmoqlari, neft va gaz quvurlari davlatning monopol egaligidadir. Bu tarmoqlar tovarlari va xizmatlari bahosining o'sishi milliy xo'jalikning boshqa sektorlarida narxning o'sishiga olib keladi.

Investitsiya siyosati moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotining real sektoriga o'z va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlarni yaratish bo'yicha tadbirlar majmuidan iborat. Bu siyosat davlat boshqaruvi va xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishning turli darajalarida amalga oshiriladi. Investitsion siyosatning asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotiga investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni kiritish (joylashtirish), mamlakatdan kapitalning "qochib" ketmasligi va aksincha, mamlakatga xorijiy kapitallar oqimining kirib kelishi uchun sharoitlarni yaratish orqali ifodalanadi.

Ijtimoiy moliyaviy siyosat Konstitutsiyaga muvofiq mamlakat aholisi huquqlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq. Hozirgi paytda bu siyosat, o'z navbatida, pensiya siyosati, immigratsion siyosat, aholi ayrim ijtimoiy guruhlariga moliyaviy yordam ko'rsatish siyosati va boshqa siyosatlarni o'z ichiga oladi.

Boj siyosatini moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo'nalishi) sifatida qarash bilan birgalikda uni soliq va baho siyosatlarining ham bir qismi sifatida

e'tiborga olish kerak. Chunki soliqlar va bojlar (boj yig'implari) tovar va xizmatlarning bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida boj siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos bo'lgan usuliga ham egadir. Usulning o'ziga xosligi shundaki, bu siyosat bir tomondan, mamlakat ichki bozoriga import qilinayotgan tovarlar va xizmatlarni kengaytirishi yoki cheklashi, ikkinchi tomondan esa, mamlakatdan tovarlar va xizmatlar eksportini rag'batlantirishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin.


Har qanday mamlakatning boj siyosati "bumerang" tavsifiga egaligi bilan ajralib turadi. Chunki boj undirishning cheklovchi yoki rag'batlantiruvchi stavkalarining joriy etilishi xuddi shunday javob choralarining qo'llanilishi bilan kuzatiladi. Boj siyosati yo'nalishining tanlanishi mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga mos kelishi lozim.

Xullas, moliyaviy siyosat va uning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari) ilmiy jihatdan asoslangan, ma'lum bir maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan, muvofiqlashtirilgan, takror ishlab chiqarish subyektlarining manfaatlariga zid bo'lmaydigan bo'lishi kerak (2.7-rasm). Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat ichki va tashqi qarzlarining kamayishiga, davlatning oltin-valyuta zahiralarining ortishiga, inflyatsiyani jilovlashga, byudjet defitsitining kamayishiga, YaIM ko'payishiga, mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligining kuchayishiga olib kelmog'i lozim.

2.3. Hozirgi bosqichdagi moliya siyosati va uning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosiy ustuvor vazifa etib belgilab kelindi. Ma'lumki, makroiqtisodiy barqarorlik mamlakatning YaIM da namoyon bo'ladi va u davlatning iqtisodiy qudratiga baho beradi. **2017–2021 yillarda** O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va uning samarali ijro etilishi orqali iqtisodiy islohotlarning yuqori natijalariga erishildi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy- iqtisodiy siyosati tubdan o'zgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq,

iqtisodiy rivojlanish, avvalo aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga o'tdi. 2021 yilda dunyo bo'yicha ayrim mamlakatlarning iqtisodiyotlarida tiklanish jarayoni boshlangan bo'lsa, ba'zi davlatlar pandemiya sababli yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozdan hali ham chiqib keta olganlari yo'q. Global miqyosda davom etayotgan pandemiya hamda iqtisodiy vaziyat bilan bog'liq mavhumliklar saqlanib qolayotgan shunday sharoitida, O'zbekiston iqtisodiyoti o'z vaqtida muvofiqlashtirilgan fiskal va monetar siyosat natijasida 7,4 foiz o'sishni qayd etib, jadal ravishda tiklanishda davom etdi. Shuningdek, 2021 yil yakunlari bo'yicha e'lon qilingan Jahon banki hisobotiga ko'ra, O'zbekistonning yirik iqtisodiy hamkor davlatlarining iqtisodiyotlarida o'sish qayd etilgan. Xususan, Rossiya Federatsiyasining iqtisodiyoti 2020 yilda 3,0 foizga qisqarganidan so'ng, 2021 yilda 4,3 foizga o'sganligi hisoblangan (2.8-rasm).




2.8-rasm. Dunyoning ayrim mamlakatlarida 2019-2021 yillar mobaynida iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari

Xalqaro valyuta jamg'armasining yanvardagi hisoboti bo'yicha ushbu ko'rsatkich 4,5 foizga etgan. Shu bilan birga, Xitoy iqtisodiyoti 2020 yilda 2,2 foizga sekinlashgandan so'ng, 2021 yilda, Jahon bankiga ko'ra 8,0 foizga va Xalqaro valyuta jamg'armasiga 8,1 foizga o'sgan. Bundan tashqari, Jahon bankiga

ko'ra, 2021 yilda Qozog'iston iqtisodiyoti 3,5 foizga va Turkiya iqtisodiyoti 9,5 foizga o'sganligi qayd etilgan.

2021 yilda YaIMning nominal hajmi 734,6 trln. so'mni yoki 69,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, qishloq ho'jaligi YaIMning 25,0 foizini yoki 183,5 trln. so'mni, xizmatlar 35,7 foizini yoki 262,5 trln. so'mni, sanoat 25,8 foizini yoki 189,6 trln. so'mni, qurilish 6,2 foizini yoki 45,8 trln. so'mni va eksport import mahsulotlariga sof soliqlar 7,2 foizini yoki 53,2 trln. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2021 yilda YaIM tarkibida sanoatning ulushi 0,4 foizga ko'paygan. Bungacha, 2020 yilda koronavirus inqirozi sababali sanoatning ulushi 25,7 foizdan 25,4 foizgacha kamaygan edi.


Bundan tashqari, yalpi qo'shilgan qiymat 2021 yilda 7,5 foizga ko'payib, 681,4 trln. so'mni tashkil qildi. 2020 yilda yalpi qo'shilgan qiymatning o'sishi 1,9 foizgacha sekinlashgan va 557,8 trln. so'mga teng bo'lgan.



2.9-rasm. 2019-2021 yillarda YaIM hajmi va tarkibi

Shu bilan bir qatorda, 2021 yilda iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sanoat va xizmatlar sohasi bo'lib, mos ravishda 9,2 va 8,7 foizga o'sgan. Bundan tashqari, 2021 yilda qishloq xo'jaligi 4,0 foizga hamda qurilish sohasi 6,8 foizga

o‘sgan (2.9-rasm). Shuningdek, YaIMning 7,4 foizlik o‘shishining 3,3 foiz bandi xizmatlar va 2,2 foiz bandi sanoat sohasi hisobiga to‘g‘ri keladi. 2020 yilda pandemiya sababli, mazkur sohalarining iqtisodiy o‘shisdagi ulushi eng ko‘p kamaygan sohalar bo‘lgan. Qishloq ho‘jaligi iqtisodiyot o‘shishining 1,0 foiz bandini ta‘minlagan bo‘lsa, sof soliqlar va qurilishga o‘shishning mos ravishda 0,5 foiz band va 0,4 foiz bandi to‘g‘ri keladi (2.10-rasm). Milliy iqtisodiyotni rivojlan-tirishda kelgusi besh yilda aholi jon boshiga YaIMni 1,6 baravarga (1750 AQSh dollaridan 2800 dollargacha) ko‘paytirish, 2030 yilga borib aholi jon boshiga daromadlarni 4000 AQSh dollaridan oshirish va O‘zbekistonni “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kiritish yetakchi maqsad sifatida belgilandi.



2.10-rasm. 2019-2021 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarining YaIMo‘shidagi hisssasi va dinamikasi.

Bunga erishish uchun “O‘rta muddatli daromadlar strategiyasi”ni ishlab chiqish rejalashtirilgan. Strategiyada makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va yillik inflyatsiya darajasini bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish maqsad qilingan. Buning uchun joriy yilda xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan makro-iqtisodiy prognoz, shuningdek, iqtisodiy o‘shish darajasining o‘rtacha 6,5 foizdan yuqori bo‘lishini va inflyatsiyani 2024 yildan 5 foiz target ko‘rsatkichi darajasida ushlab turishni nazarda tutuvchi 2023-

2025 yillarga mo'ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, yil davomida inflyatsiyaning monetar omillarini pasaytirish, jumladan, iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari o'sish sur'atlarini (16-18%) YaIM nominal hajmi o'sish sur'atlariga mutanosib darajada ushlab turish hamda 2-3 foizlik real ijobiy foiz stavkalari shakllanishini ta'minlash bo'yicha choralar ko'riladi. Monopoliyaga qarshi siyosat, shuningdek, respublika hududlarida savdo infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ham inflyatsiyaning jilovlashga qaratiladi va bu raqobatni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishini cheklash maqsadida har yili ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha hududiy ma'muriyatlarning uni ta'minlash bo'yicha vazifalari aniq belgilab berilgan "Yo'l xaritasi" tasdiqlanadi. Shuningdek, tashqi qarzning o'sish darajasini yiliga 4,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida ushlab turish ham makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ko'mak beradi. Bunga o'rta muddatli istiqbolda davlat qarzi YaIMga nisbatan 60 foizdan oshmasligini nazarda tutuvchi davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini berish tartibini takomillashtirish orqali erishiladi va bu ish joriy yilda amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida "2020-2024 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilingan.

2020 - 2024 yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

soliq-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi "natijaga yo'naltirilgan byudjet" tizimini joriy etish;

makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va byudjet jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;

byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;

fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;

byudjet hisobi standartlarini unifikatsiya qilish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;

byudjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;

byudjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

O'zbekiston Respublikasida davlatning strategik maqsadlariga erishish uchun yo'naltirilgan islohotlarni davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirishga asoslangan holda amalga oshirish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi va shaffofligini hamda fuqarolarning byudjet jarayonidagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilayotganligi, shu jumladan Davlat byudjeti Parlament tomonidan tasdiqlanishi, "Fuqarolar uchun byudjet" axborot nashri chop etilishi, Openbudget.uz axborot portali ishga tushirilishi, Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar milliy hamda Xalqaro valyuta jamg'armasining Davlat moliyaviy statistikasi (GFS) standartlariga muvofiq e'lon qili-nishiga qaramasdan, davlat moliyasini boshqarishni yanada takomillashtirishni talab etadigan bir qator yo'nalishlari mavjud.

Jumladan:

davlat moliyasini boshqarish tizimida davlatning o'rta va uzoq muddatli maqsadlariga erishish borasida strategik o'rta muddatli istiqbollarini belgilash;

byudjet tashkilotlari va muassasalari hamda davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarning hisobini alohida yuritish, shuningdek, vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari mablag'larini konsolidatsiyalashgan byudjetda aks ettirish;

mahalliy byudjetlarni mustaqil ravishda belgilash imkonini beradigan byudjetlararo transfertlarni hisoblashning shaffof uslubiyatini ishlab chiqish;

davlat xaridlari va investitsiyalarini boshqarish samaradorligini oshirish, davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish, davlat aktivlari va majburiyatlarini boshqarish uchun mavjud tavakkalchiliklarni baholashning samarali tizimini joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa xalqaro moliya institutlari ko'magida aniq maqsadlar, vazifalar va asosiy yo'nalishlarni belgilovchi 2020 - 2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi ishlab chiqildi²⁸.

Strategiyani amalga oshirish davri 2024 yilgacha mo'ljallangan bo'lib, quyidagi muhim maqsadlarni o'z ichiga oladi:

soliq-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi "natijaga yo'naltirilgan byudjet" tizimini joriy etish;

makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va byudjet jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;

byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;

fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;

byudjet hisobi standartlarini birlashtirish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;

²⁸ <https://lex.uz/uz/docs/4966572>

byudjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;

byudjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Strategiya maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

uzoq muddatli davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan strategik o'rta muddatga mo'ljallangan soliq-byudjet siyosatini yuritish;

makroiqtisodiy cheklovlar va vazifalarni nazarda tutuvchi byudjetlashtirishning "yuqoridan pastga" yondashuvini joriy etish yo'li bilan soliq-byudjet nazoratini kuchaytirish va barcha byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi va hisobdorligini oshirish;

byudjet mablag'lari taqsimlovchilari uchun ajratiladigan byudjet mablag'larini dasturlar kesimida tasdiqlash va natijadorligini baholash tizimiga bosqichmabosqich o'tish;

fiskal tavakkalchiliklarini baholash hamda zamonaviy makroprognozlashtirish modullarini qo'llashni joriy etish;

byudjet jarayonining shaffofligi va byudjet ma'lumotlarining ochiqligini oshirib borish, jumladan davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni Parlamentga taqdim etish jarayonini takomillashtirish va shaffofligini oshirish;

byudjetlararo munosabatlarni isloh qilish, mahalliy boshqaruv organlarining mustaqilligini va javobgarligini oshirish hamda byudjetlararo transfertlar taqdim etish qoidalari asosida ularni ajratishning shaffof mexanizmini joriy etish.

Strategiyaning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Soliq-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi "natijaga yo'naltirilgan byudjet" tizimini joriy etish;

2. Makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va byudjet jarayoni ishtirokchilarining mas'u-liyatini oshirish;

3. Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hoki-miyati organlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;

4. Fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majbu-riyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;

5. Byudjet hisobi standartlarini birxillashtirish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkam-lash hamda byudjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

6. Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro stan-dartlarga mosligini ta'minlash.

Strategiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar:

davlat moliyasi to'g'risida ishonchli, shaffof, dolzarb va muddatli kompleks ma'lumotlar mavjud bo'ladi;

o'rta muddatli byudjetni rejalashtirish to'laonli tatbiq etiladi;

o'rta muddatli istiqbolda makrofiskal prognozlash va tahlil qilishning barqaror va bashorat qilinadigan tizimi yaratiladi;

mahalliy byudjet parametrlarini shakllantirish va tasdiqlash jarayonida vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimliklarning byudjet sohasidagi vakolatlari va mustaqilligi kengaytiriladi va o'z navbatida ularning mas'uliyati sezilarli darajada oshiriladi;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda byudjet mablag'larini taqsimlash samaradorligi oshiriladi, soliq-byudjet siyosati-ning maqsadlariga erishishning samaradorligi va natijadorligini baholashning son va sifat ko'rsatkichlari joriy etiladi;

Davlat byudjeti ijrosi jarayonida samaradorlikka va natijadorlikka erishiladi;

davlat investitsiyalarining samaradorligi va boshqarilishi yaxshilanadi;

davlat moliya tizimining barqarorligi mustahkamlanadi, soliq-byudjet tavakkalchiliklari ishonchli baholanadi va minimallashtiriladi;

davlat qarzini samarali boshqarish tizimi joriy etiladi;

byudjet jarayonida jamoatchilik va fuqarolar ishtirokini keng faollashtirish uchun byudjet ma'lumotlarining oshkoralik darajasi oshiriladi;

samarali elektron davlat xaridlari tizimi joriy etiladi;

xalqaro moliya institutlarining reyting va indekslarida O'zbekistonning o'rni yaxshilanadi.

Bundan tashqari, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023 yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash, har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini "Fuqarolar byudjeti" dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish, davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollari-dan oshib ketmasligini ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

2020 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni²⁹ qabul qilindi.

Farmon bilan 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi-ning bank tizimini isloh qilish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" hamda strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Mazkur Strategiya Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda mamlakat bank tizimining joriy holatini o'rganish natijalari bo'yicha asosiy xulosalar va tavsiyalar, shuningdek xorijiy davlatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi hamda moliya sohasidagi xalqaro tendentsiyalarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi.

Strategiyada bank tizimida hozirgi kunda saqlanib qolayotgan muammo va dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan:

²⁹ <https://lex.uz/docs/4811025>

bank tizimida davlatning yuqori darajadagi ishtiroki natijasida moliyaviy va inson resurslaridan samarasiz foydalanilayotganligi, ularda korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;

davlat ishtirokidagi banklarning ustuvor dasturlar, sohalar va davlat ulushiga ega korxonalarga bozor stavkalaridan kam bo'lgan stavkalarda kreditlar ajratuvchi an'anaviy "taraqqiyot banklari" vazifasini bajarishi;

kreditlashning yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligi va buning natijasida banklarning barqarorlik darajasini ifodalovchi likvidlilik va kapital yetarlilik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etayotganligi;

imtiyozli kreditlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi natijasida moliya bozorida narx signallarining noto'g'ri shakllanishi, shuningdek pul-kredit siyosatining transmission mexanizmlarining ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi;

yuqori darajadagi dollarlashuv, shuningdek kredit va depozitlarning yirik korxonalar va iqtisodiyotning alohida sohalarida jamlanganligi natijasida bank tizimining valyuta, kredit va likvidlilik xatarlariga bardoshliligining zaifligi;

davlat ishtirokidagi banklar biznes-modellarining asosan korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilganligi, nobank moliya tashkilotlarining roli sustligi, shuningdek innovatsiyalar va axborot tizimlarining yaxshi rivojlanmaganligi sababli moliyaviy ommaboplik darajasining pastligi tizimda tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Mazkur Strategiyaning ishlab chiqish jarayonidagi Jahon banki bilan hamkorlik, xususan, islohotlar jarayonidagi asosiy tavakkalchiliklar va ularni minimallashtirishga qaratilgan choralarni ishlab chiqish maqsadida boshqa davlatlarda amalga oshirilgan bank tizimidagi islohotlarning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganishga qaratildi va natijada muhim xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, bank tizimida davlat ulushining qisqartirilishi bank tizimini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Ikkinchidan, davlat ishtirokidagi banklarni xususiylashtirish jarayoni ilg'or texnologik echimlar va bank ishining ilg'or tajribasi, shuningdek yetarli moliyaviy imkoniyatlarga ega nufuzli va sifatli aktsiyadorlarga yo'l ochishi lozim.

Uchinchidan, islohotlar muvaffaqiyatining asosiy shartlaridan biri bu – banklarni qisman emas to'liq xususiylashtirishdir.

To'rtinchidan, davlat ishtirokidagi banklar va real sektor korxonalarini parallel ravishda isloh qilish iqtisodiy islohotlarning samaradorligida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga davlat ishtirokidagi korxonalarni restrukturizatsiya qilish va xususiylashtirish ularning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirib, banklar faoliyatiga davlat aralashuvini keskin qisqartiradi.

Beshinchidan, islohotlar davrida davlat ishtirokidagi korxonalarning kreditlashga bo'lgan talabini cheklab qo'ymaslik hamda moliyaviy ommaboplikni ta'minlash uchun ayrim banklarda davlat ulushini saqlab turish maqsadga muvofiq.

Strategiya doirasida keyingi besh yillikda bank-moliya tizimini isloh qilish va rivojlantirishning to'rtta ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Jumladan:

1. Bank tizimining samaradorligini oshirish banklarni iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini kuchaytiradi. Bunda:

- bank tizimiga zamonaviy yechimlarni joriy qilishga, moliyaviy va inson resurslari samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan moliyaviy barqaror va nufuzli investorlarni jalb qilish;

- imtiyozli va subsidiyalashgan kreditlarni qisqartirish, kreditlashni pul-kredit siyosati signallari asosida faqat bozor shartlarida amalga oshirishga o'tish;

- kredit resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsadida banklarning davlat mablag'lariga bo'lgan qaramligini pasaytirish;

- banklarning samarali infratuzilmasini yaratish, bank faoliyatida zamonaviy texnologik yechimlarni keng joriy etish nazarda tutiladi.

2. Banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish rejalashtirilgan islohotlar muvaffaqiyatining hamda bank tizimiga ishonchni saqlab turishning asosiy omili hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda xususan:

- xalqaro standartlar va ilg'or tajribani qo'llagan holda banklarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish;

- kreditlashning mo'tadil darajada o'sishini ta'minlash va kredit portfeli sifatini yaxshilash;

- bank nazoratini va banklarda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish, shu jumladan riskka asoslangan nazorat tizimini tatbiq etish ishlari amalga oshiriladi.

3. Bank xizmatlari ommabopligini oshirish aholi va tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan yetarli darajada xizmat ko'rsatilmaydigan (past daromadli jismoniy shaxslar, qishloq aholisi, mikrofirma va kichik korxonalar) qatlamning bazaviy bank xizmatlariga bo'lgan talabini qondirishni nazarda tutadi. Moliyaviy ommaboplik:

- Jahon banki bilan hamkorlikda moliyaviy ommaboplikni oshirishning aniq yo'nalishlari va chora-tadbirlarini belgilovchi moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

- davlat ishtirokini aholi va kichik biznes subyektlarining yetarlicha xizmat ko'rsatilmaydigan va zaif qatlamlariga yo'naltirish;

- mavjud bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida moliyaviy vositachilik ekotizimini rivojlantirish hisobiga ta'minlanadi.

4. Bank tizimida davlat ulushini qisqartirish tizimni tubdan isloh qilishning eng muhim komponentidir. Ushbu maqsadda:

- shaffof tanlov asosida banklardagi davlat ulushini nufuzli xorijiy investorlarga sotish;

- xususiylashtirilayotgan banklarda davlat ishtiroki va aralashuvidan to'liq voz kechish;

- bank tizimini transformatsiya qilish va xususiylashtirish davrida hosil bo'ladigan iqtisodiy bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida davlat ishtirokini uchta bankda saqlab turish nazarda tutilmoqda.

Strategiya doirasida banklarning biznes modellarini o'zgartirish orqali faoliyatlarini tijoratlashtirish va mijozga yo'naltirilganligini oshirish, ularning korporativ boshqaruv va risk-menejment tizimlarini takomillashtirish, xizmatlar sifatini va ko'lamini oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va sohaga ixtisoslashgan konsultantlarni jalb etgan holda davlat ishtirokidagi barcha banklar faoliyati transformatsiya qilinadi.

Bank tizimini isloh qilish davrida barcha aholi qatlamlarining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish, bank xizmatlarining hududiy qamrovini ta'minlash va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirish maqsadida davlat ishtiroki uchta bankda– Milliy bank, Agrobank va Mikro kreditbankda saqlab qolinadi.

Milliy bank faoliyati ustuvor ravishda strategik korxonalar va investitsion loyihalarga bozor shartlarida xizmat ko'rsatuvchi, shuningdek keng qamrovli bank mahsulotlarini taqdim etuvchi tizimli ahamiyatga molik bank sifatida belgilandi.

Agrobank va Mikro kreditbank filiallari tarmog'ining hududiy qamrovini inobatga olgan holda, ularning faoliyati aholi, kichik biznes subyektlari hamda qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan kredit orqali qo'llab-quvvatlashga, hududlarda, shu jumladan moliyaviy xizmatlar ko'rsatish qiyin bo'lgan olis tumanlarda jismoniy shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatish orqali barcha hududlarda bank xizmatlari ommabopligini oshirishga yo'naltiriladi.

Ipoteka-bank, O'zsanoatqurilishbank, Asaka bank, Aloqabank, Qishloq qurilish bank va Turonbankdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, bunda birinchi bosqichda banklar faoliyatini xalqaro moliya institutlari ko'magida transformatsiya qilish, ikkinchi bosqichda esa davlat aktsiyalari paketini strategik investorlarga sotish nazarda tutilgan.

Mazkur Strategiyani amalga oshirish doirasida Xalq banki va Aziya alyans bank davlat aktsiyalari paketini xorijiy strategik investorlarga sotish rejalashtirilgan.

Shunga muvofiq, Xalq bankini xususiylashtirishga tayyorlash jarayo-nida jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini boshqarish Moliya vazirligiga o'tkaziladi.

Bundan tashqari, O'zagroeksportbank va Poytaxt bankning faoliyati qayta ko'rib chiqiladi.

Bank tizimini isloh qilish va xususiylashtirishga tayyorlashda Markaziy bankning bank tizimining regulyatori sifatidagi rolini kuchaytirish orqali lozim darajadagi prudentsial nazoratning amalga oshirilishi moliya tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim komponenti hisoblanadi.

Strategiya doirasida amalga oshiriladigan islohotlar natijasida:

- davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlarining bank tizimi jami aktivlaridagi ulushini joriy 16 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 60 foizgacha oshirish;

- banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlarining umumiy majburiyatlardagi ulushini joriy 28 foizdan 2025 yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;

- davlat ulushiga ega kamida uchta bank kapitaliga 2025 yilga qadar yetarli tajriba, bilim va obro'ga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;

- umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlarining ulushini joriy 0,35 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 4 foizgacha oshirish;

- banklar depozitlarining majburiyatlariga nisbatini joriy 41 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 50 foizga oshirish;

- banklarning xorijiy valyutadagi majburiyatlarining jami majburiyatlardagi ulushini joriy 58 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 40 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan.

Mamlakat bank-moliya sektori rivojlanish darajasi va barqarorligini baholash maqsadida 2024 yilning yakuniga qadar Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining dasturi (FSAP) asosida moliyaviy sektor holatini baholash nazarda tutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan “2021-2023 yillarga mo‘ljallangan Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasi”³⁰ tasdiqlangan.

Ushbu hujjat Xalqaro moliya korporatsiyasining mamlakatda moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ommaboplik darajasini kompleks hamda xolisona baholash maqsadida aholi bilan o‘tkazgan so‘rovnomasi natijalarini inobatga olgan holda Jahon banki ekspertlari ko‘magida tayyorlangan.

Undan ko‘zlangan asosiy maqsad, aholining barcha qatlamlari, shu jumladan, yetarli darajada moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olinmagan kam daromadga ega, qishloqlarda istiqomat qilayotgan fuqarolar hamda kichik biznes subyektlari uchun sifatli moliyaviy mahsulot va xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan dinamik, innovatsion va inklyuziv moliya tizimini yaratishdan iborat.

Milliy strategiya doirasida kelgusi yillarda banklarning xizmat ko‘rsatish nuqtalarini kengaytirish, bank xizmatlarini yetkazishning muqobil yo‘llarini joriy etish va bank agentlari tarmog‘ini yaratish orqali bazaviy moliyaviy xizmatlar qamrovini oshirish, bozorga yangi fintex kompaniyalarning kirib kelishiga qulay shart-sharoitlar yaratish, masofadan identifikatsiya qilish tizimini yo‘lga qo‘yish belgilangan. Shu bilan birga, milliy to‘lov tizimini modernizatsiya qilish orqali raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish, tadbirkorlar loyihalarini moliyalashtirishga mo‘ljallangan turli moliyaviy vositalarni rivojlantirish va nobank kredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish orqali kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishni kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, moliyaviy mahsulot va xizmatlar to‘g‘risidagi ma’lumot-larning ochiqqligi va shaffofligini ta’minlash, shikoyatlar va nizolarni hal qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish orqali moliyaviy xizmatlar iste’molchilari huquqlarining himoyasini kuchaytirish belgilangan. Qolaversa, OAV orqali aholining moliyaviy xizmatlardan xabardorligini oshirish, umumta’lim muassasalarida va noiqtisodiy yo‘nalishdagi ta’lim muassasalarida “Moliyaviy savodxonlik” o‘quv dasturini joriy

³⁰ <https://cbu.uz/oz/about/open-activity/work-plan/542768/>

etish, shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish orqali aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligi oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi tasdiqlandi. Strategiya Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Minimal ijtimoiy himoya darajalari to'g'risida"gi 202-son tavsiyasiga muvofiq barcha fuqarolar uchun minimal ijtimoiy himoya darajasini kafolatlash tizimini yaratishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy himoya strategiyasi ushbu sohadagi to'rt yo'nalishni qamrab olgan. Xususan, Strategiyada ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy yordam va bandlikka ko'maklashish dasturlarida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan o'zgarishlar belgilab berilgan. Shuningdek, beshinchi yo'nalish sifatida sohadagi vazirlik va idoralarning mas'uliyat va vazifalarini qayta ko'rib chiqishga oid bob qo'shilgan.

Birinchi yo'nalish bo'yicha, ya'ni ijtimoiy xizmatlar sohasida, amalga oshiriladigan chora bu ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasiga tushirishdir.

Ikkinchi yo'nalish, ya'ni ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilish sohasida, shu yilning avgust oyida Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi shakllantirilishi ko'zda tutilgan. Ushbu jamg'armaga mablag'lar Davlat byudjetidan ajratiladi. Keyinchalik esa, Moliya vazirligining hisob-kitoblariga asosan Jamg'armaning qo'shimcha manbalari aniqlanadi.

Uchinchi yo'nalish bo'yicha, ya'ni ijtimoiy yordam sohasida kam ta'minlangan oilalarga to'lab kelinayotgan bolalar nafaqasini ijtimoiy shartnoma tuzish orqali to'lash tizimi yo'lga qo'yilishi ko'zda tutilgan.

To'rtinchi yo'nalish, ya'ni bandlikka ko'maklashish sohasida, asosiy maqsad aholini doimiy daromad manbai bilan ta'minlashga qaratiladi.

Bob bo'yicha xulosalar

Moliyaviy siyosatni **ta'sir obyektlari, hududiy jihatlari vaqt omiliga** ko'ra tasniflash mumkin.

Hududiy mezonga ko'ra, **umumdavlat, hududiy va mahalliy moliyaviy siyosat turlari** ajratib ko'rsatiladi. Boshvaruvning har bir darajasida moliyaviy siyosatni ishlab chiqish umumiy trazda davlatni ham va shuningdek, hududiy va ma'muriy tuzilmalarni rivojlantirish borasida moliyaviy asos yaratishga imkon beradi.

Vaqt mezoniga ko'ra moliyaviy siyosat **moliyaviy strategiya va moliyaviy taktikaga** bo'linadi.

Moliyaviy strategiya butun jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatadigan, amalga oshirilishi har doim uzoq muddatli tavsifga ega bo'lgan moliyaviy siyosatning keng ko'lamli maqsadlari va vazifalarini o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda moliyaviy strategiya soliq islohoti, byudjet islohoti, davlat qarzlarini boshqarish sohasidagi siyosat, pensiya islohoti, ta'lim islohoti va boshqa ijtimoiy sohalarni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy taktika iqtisodiy rivojlanishning ma'lum bir bosqichiga taalluqli va ma'lum bir moliyaviy davrda amalga oshirilishi kerak bo'lgan moliyaviy siyosatning vazifalari va faoliyatini birlashtiradi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini pasaytirish, davlat ijro hokimiyati organlarining byudjet jarayonidagi vazifalarini tartibga solish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan qatlamlariga manzilli ijtimoiy nafaqalar va kafolatlarni joriy etish moliyaviy taktikaga misol bo'la oladi.

Ta'sir obyektlariga qarab, **tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish** sohasidagi moliyaviy siyosat va **davlat, hududiy tuzilmalar moliyasi sohasidagi** moliyaviy siyosat farqlanadi. Davlat moliyasining bir qismi sifatida **byudjet siyosati va ijtimoiy sug'urtasi sohasidagi** davlatning siyosatini ajratib ko'rsatish mumkin.

Davlatning byudjet siyosati moliyaviy siyosatning asosiy tarkibiy qismidir, chunki u byudjetlarning daromad bazasini shakllantirishda, byudjet xarajatlari jarayonida, byudjetlararo munosabatlarni tashkil etishda moliyaviy munosabatlarni tashkil etish shartlari va tamoyillarini belgilaydi.

Byudjet siyosati davlat tomonidan markazlashtirilgan moliyaviy resurslarning hajmi va nisbatlariga bevosita ta'sir qiladi va nafaqat byudjet xarajatlarining joriy tuzilishini, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun byudjet mablag'laridan foydalanish istiqbollarini ham belgilaydi. Bundan tashqari, byudjet siyosati soliq siyosatini, davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda, ustuvor tarmoqlar va faoliyatga nisbatan byudjet siyosatini ishlab chiqishda: tadbirkorlik subyektlari va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishni tartibini belgilab beradi.

Davlat ijtimoiy siyosatining maqsad va vazifalarini ishlab chiqishda davlat ijtimoiy sug'urtasi sohasida boshqaruvning bozor sharoitlariga mos tamoyillar asosida siyosat ishlab chiqishga muhim o'rin beriladi. Shu bilan birga, davlat tadbirkorlik subyektlarining uni amalga oshirishda ishtirok etishining mumkin bo'lgan darajasini baholaydi, aholiga ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirish uchun o'zining moliyaviy imkoniyatlarini baholaydi, hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda, davlat ijtimoiy sug'urtasini rivojlantirish yo'nalishlarini, mablag'larni jalb qilish usullarini va byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlarni davlat ijtimoiy sug'urtasiga sarflash shakllarini belgilaydi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi sohasidagi siyosat aholining mehnat qobiliyatiga ta'sir qiluvchi salbiy omillarning ta'sirini yumshatish, xavfsiz yashash va mehnat sharoitlarini yaratishni rag'batlantirish, millat sog'lig'ini yaxshilash va bozorning ijtimoiy muhofazaga aholi qatlamlariga salbiy ta'sirini yumshatish imkonini beradi.

Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish sohasidagi moliyaviy siyosat davlatning amortizatsiya siyosati, ustuvor faoliyatni rivojlantirish, davlatning iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga muvofiq tadbirkorlik subyektlarining tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish sohasidagi asosiy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy siyosatning maqsad va vazifalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida uning samaradorligiga quyidagi omillar (tamoyillar) ta'sir ko'rsatadi:

- davlatning iqtisodiy rivojlanish shartlariga, iqtisodiy sikl bosqichiga va moliya fanining qoidalariga javob berishi kerak bo'lgan moliyaviy siyosat kontseptsiyasini ishlab chiqish borasidagi ilmiy yondashish, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish;

- kelajak va joriy davr uchun moliyadan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashda va moliyadan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishning aniq usullarini ishlab chiqishda taklif qilingan chora-tadbirlarni amalga oshirishning mumkin bo'lgan oqibatlarini prognoz qilish. Mamlakat rivojlanishining moliyaviy masalalari bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar va kelgusi qarorlarning amal qilish muddati nafaqat moliyaviy siyosatning maqsad va vazifalarini amalga oshirish bo'yicha davlat xarajatlarning umumiy qiymatini aniqlashga, balki ularning moliyaviy oqibatlarini baholashga imkon beradigan tegishli hisob-kitoblar bilan qo'llab-quvvatlanishi lozim;

- moliyaviy siyosatning ijobiy natijalarini va davlat iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini aniqlash uchun o'tgan davrda moliyaviy siyosatni amalga oshirish jarayonida to'plangan tajribani hisobga olish;

- natijalarga yo'naltirilgan moliyaviy siyosatni amalga oshirishni nazarda tutuvchi moliyaviy siyosat samaradorligini baholash uchun asos bo'lib xizmat qilishi lozim bo'lgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning aniq belgilab olish;

- byudjetlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan milliy va geografik xususiyatlarni hisobga olish va mintaqaviy va munitsipal darajada byudjet xarajatlari sohasidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini tanlash;

- byudjet siyosatining maqsad va vazifalarini, davlat ijtimoiy sug'urtasi sohasidagi siyosatni, tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish sohasidagi

moliyaviy siyosatni, ularning munosabatlarini muvofiqlashtirishni o'z ichiga olgan moliyaviy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga kompleks yondashuv. Shu bilan birga, moliyaviy siyosatning barcha tarkibiy unsurlari iqtisodiy rivojlanishning umumiy maqsadiga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi va moliyaviy siyosatning o'zi davlat iqtisodiy siyosatining boshqa tarkibiy qismlari - pul-kredit siyosati, narx siyosati, sug'urta siyosati, davlatning valyuta siyosati bilan muvofiqlashtirilishi va o'zaro bog'liq bo'lishi lozim;

- iqtisodiyotning amalda faoliyat ko'rsatishi sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda amalga oshiriluvchi moliyaviy siyosatning ko'p qirraliligi. Zamonaviy sharoitda moliyaviy prognozlash va o'rta muddatli moliyaviy rejalashtirishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, ular ilmiy bashorat qilish, variantlarni tahlil qilish, moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda qo'shimcha ma'lumot olish vositasi sifatida qaraladi;

- iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini belgilaydigan davlatning ichki holati va xalqaro pozitsiyalarini hisobga olish. Davlatning moliyaviy siyosati jahon bozorlaridagi raqobatga asoslanadi, o'z ishlab chiqaruvchilari va eksportchilarini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi, chet eldagi milliy kompaniyalar manfaatlarini himoya qilinadi va davlat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati ta'minlanadi.

Arximedning soʻzi bilan aytganda, moliya-bu butun dunyoni oʻgʻirishga imkon beruvchi tayanch nuqtadir.

Kardinal Risheli

3- BOB. MOLIYA TIZIMI VA UNING BOʻGʻINLARI

- 1. Moliya tizimining soha va boʻgʻinlari.**
- 2. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi.**

3.1. Moliya tizimining soha va boʻgʻinlari

Mamlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi va tamoyilial jihatdan butunlay yangi boʻlgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi moliya tizimining sohalari va boʻgʻin-lariga nisbatan obyektiv ravishda yangicha yondoshuvni taqazo etdi. Unga muvofiq ravishda, dastlab, moliya tizimi quyidagi ikki sohaga boʻlinadi:

- davlat moliyasi va mahalliy moliya;
- xoʻjalik yurituvchi subyektlar moliyasi.


Oʻz navbatida, moliya tizimining har bir sohasi pul fondlari va daromadlarni shakllantirishning aniq shakl va usullariga bogʻliq ravishda bir necha boʻgʻin-lardan tashkil topadi. Masalan, davlat moliyasi va mahalliy moliya quyidagi boʻgʻinlardan tashkil topishi mumkin:

- davlat byudjeti;
- byudjetdan tashqari maqsadli jamgʻarmalar;
- davlat krediti.

Shuningdek, xoʻjalik yurituvchi subyektlar moliyasi quyidagi boʻgʻinlardan iborat:

- tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi;
- moliyaviy vositachilar moliyasi;
- notijorat tashkilotlari moliyasi.

Yuqorida keltirilganlarni chizma koʻrinishda quyidagicha ifodalash mumkin (3.1-rasm):



3.1-rasm. Moliya tizimining tuzilishi

Moliya tizimining alohida sohalar va bo'g'inlarga bo'linishi YaIMni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, daromadlarni shakllantirish va ulardan foydalanishda iqtisodiy munosabatlar subyektlarining bir-birlaridan farqli ravishda ishtirok etishi bilan belgilanadi. Moliya tizimining har bir sohasi va bo'g'iniga pul fondlari va daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning o'ziga xos bo'lgan shakllari va usullari tegishlidir. Masalan, korxonalar moliyasi moddiy ishlab chiqarishga, YaIMni yaratishga, uni korxonalar o'rtasida taqsimlashga va YaIM bir qismining byudjet va nobyudjet fondlariga qayta taqsimlashga xizmat qiladi. Davlat byudjeti orqali resurslar davlatning markazlashgan fondiga jalb qilinadi va ular hududlar, tarmoqlar va aholining ijtimoiy guruhlari o'rtasida qayta taqsimlanadi.

Moliya tizimi “Davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining alohida bo'g'ini sifatida Davlat byudjeti O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga muvofiq, quyidagi darajadagi byudjetlarni o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari.

O‘z navbatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasiga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlaridan tarkib topadi. Viloyatning byudjeti esa viloyat byudjetini va viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, tumanlarga bo‘linadigan shaharning byudjeti shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlaridan iborat. Va nihoyat, tumanga bo‘ysunadigan shaharlari bo‘lgan tumanning byudjeti tuman byudjetidan va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar byudjetidan tashkil topadi³¹.

Hozirgi sharoitda Davlat byudjeti o‘z oldida turgan quyidagi muammolarni hal etishi kerak:

- daromadlar bazasini (asosini) mustahkamlash asosida byudjet kamomadini qisqartirish;
- mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha byudjet xarajatlarini qayta ko‘rib chiqish va restrukturizatsiya qilish;
- byudjet yordamida tartibga solish mexanizmini takomillash-tirish;
- byudjet ajratmalaridan samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish.

Davlat maqsadli jamg‘armalari va tashkilotlarning byudjetdan tashqari fondlari oldindan belgilangan ma’lum muddatlarda tuzilishi yoki doimiy ravishda mavjud bo‘lishi mumkin. Bu fondlarning vujudga kelishi davlat byudjetining qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligidan qat’iy nazar mablag‘lar maqsadli manbaining zarurligi bilan belgilanadi. Birinchi navbatda, bu ijtimoiy ta’minot, bepul tibbiy xizmat, ishsiz-likni kamaytirish va boshqa xuddi shunday bir qancha muhim ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga tegishlidir (3.1-jadval).

Bu jamg‘armalar mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish davlat tomonidan o‘ziga xos bo‘lgan shakllar va usullar yordamida amalga oshiriladi.

³¹ <https://lex.uz/docs/2304138>

3.1-jadval.**O‘zbekiston Respublikasida 2022 –moliya yilida amalda bo‘lgan davlat maqsadli jamg‘armalari**

Davlat maqsadli jamg‘armalari	2022 yil davlat byudjetidan transfertlar (mln. so‘m)
“El-yurt umidi” jamg‘armasi	170 000,0
Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha markazlashtirilgan jamg‘arma	500 000,0
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi	14 000 000,0
Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi	940 000,0
Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi	-
Jamoat ishlari jamg‘armasi	300 000,0
Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi	150 000,0
Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasi	50 000,0
Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg‘armasi	-
Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi	-
Byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi	605 000,0
Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi	500 000,0
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi	-
Turizm va sportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi	12 000,0
Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kafolat jamg‘armasi	-
Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi	91 000,0
Byudjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiyashtirish jamg‘armasi	-
Baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasi	-
Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi	1 124 785,9
Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi	1 000 000,0
Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armasi	4 820 400,0
Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	1 000 000,0
Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi	636 919,0
O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	-

Mablag‘lardan foydalanishning maqsadli yo‘naltirilganligi belgisi bo‘yicha davlat maqsadli jamg‘armalarini quyidagi ikki guruhga birlashtirish mumkin:

- ijtimoiy tavsifga ega bo‘lgan davlat maqsadli jamg‘armalari;
- tarmoqlararo va tarmoq tavsifiga ega bo‘lgan davlat maqsadli jamg‘armalari;

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrda O‘RQ-742-son “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘ri-

sida”gi Qonunining 3-ilovasida davlat maqsadli jamg’armalari keltirib o‘tilgan (3.1-jadval)³².

Shu bilan bir qatorda, mahalla instituti imkoniyatlaridan keng foydalanish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori³³ bilan byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg’armasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanmaydigan Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg’armasi tashkil qilindi.

Qarorda ko‘rsatib o‘tilganidek, quyidagilar jamg’armalar mablag‘larini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

mahalladagi hududi 2 000 kvadrat metrgacha bo‘lgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimi yordamchisining onlayn-buyurtmanomasiga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag‘lar, baholash va sotish xarajatlari chegirilgan holda;

mahallaning mol-mulkini belgilangan tartibda ijaraga berishdan olinadigan mablag‘lar;

xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlariga asosan mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar;

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimi yordamchisi tavsiyasi asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar;

³²<https://lex.uz/uz/docs/5801127>

³³ https://uza.uz/uz/posts/mahalla-institutining-zhamiyat-hayotidagi-rolini-mustahkamlash-va-moliyaviy-imkoniyatini-yanada-kengaytirish-chora-tadbirlari-togrisida_399486

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xorijiy (xalqaro) moliya institutlari va boshqa xorijiy tashkilotlarning texnik ko‘mak mablag‘lari (kredit, grant, beg‘araz yordam va boshqalar);

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar;

Shu bilan birgalikda, qarorda jamg‘arma mablag‘laridan moliyalashtiriladigan asosiy yo‘nalishlar ko‘rsatib o‘tilgan:


mahalla hududidagi ichki yo‘llar, elektr energiyasi va tabiiy gaz tarmoqlari, ichimlik va oqova suv tizimini ta‘mirlash va tiklash;

mahalla binosi, mahalla hududida joylashgan sport maydoni, nuroniylar choyxonasi, yoshlar markazi, bolalar maydonchasi, kutubxona, madaniyat markazini qurish, mukammal va joriy ta‘mirlash hamda ularni inventar, mebel, kompyuter texnikasi va boshqa uskunalar bilan jihozlash;

mahalla hududida infratuzilmani rivojlantirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta‘minlangan oilalarga moddiy ko‘maklashish hamda ularning turar joylarini ta‘mirlash va jihozlash.

Davlat maqsadli jamg‘armalarida katta miqdordagi mablag‘larning to‘planishi sharoitida davlat moliyaviy nazoratining susayishi bu mablag‘lardan samarasiz foydalanishga va turli su‘istemol qilish holatlarining sodir etilishiga olib kelishi mumkin.



3.2-rasm. Moliya tizimini o'zaro bog'liqligi

Shuning uchun ham davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida ularni davlat byudjetida konsolidatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda konsolidatsiya qilingan jamg'armalarning maqsadli yo'nalishi o'zgartirilmasdan saqlanib qolishi ta'minlanishi lozim.

Davlat krediti moliya tizimi "Davlat moliyasi va mahalliy moliya" sohasining o'ziga xos bo'g'ini hisoblanadi. Uning o'ziga xosligi davlatning markazlashtirilgan fondlariga mablag'larni jalb qilish bo'yicha moliya-kredit munosabatlarining alohida shakllari bilan belgilanadi. Davlat krediti davlat, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi pul munosabatlarining o'ziga xos alohida shaklidan iboratdir. Bunda davlat, asosan, mablag'larni qarzga oluvchi va shuningdek, kreditor va kafil sifatida ham maydonga chiqadi (3.2-rasm).

Davlat kreditida miqdoriy jihatdan mablag'larni qarz oluvchi sifatida davlatning faoliyati ustunlik qiladi.

Hozirgi sharoitda davlat kreditining zarurligi davlat xarajatlarining davlat o'z daromadlari bazasini kengaytirish imkoniyatlariga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi bilan bog'liq bo'lib, bu narsa byudjet kamomadi sharoitida rejalashtirilgan byudjet xarajatlarining qoplanishini ta'minlaydi. Moliya tizimi va moliyaviy siyosatning samaradorligini oshirishda mamlakat Markaziy banki tomonidan amalga oshiriluvchi pul-kredit siyosatidan o'zaro uyg'unlikda foydalanish maqsadga muvofiq, hisoblanadi.

Iqtisodiyotda narxlar barqarorligining ta'minlanishi aholi turmush darajasini oshirish va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilishining fundamental asoslaridan hisoblanadi. Mamlakatda ichki narxlarning barqarorligi aholi daromadlari va jamg'armalarining xarid qobiliyatini saqlash, biznes vakillari uchun esa uzoq muddatli davrga mo'ljallangan rejalarni tuzishlari uchun qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Past va barqaror darajadagi inflyatsiya mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik va tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan aholining ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab quvvatlashga muhtoj, o'rtacha ko'rsatkichlardan past daromad oluvchi va narx o'zgarishlariga ta'sirchan bo'lgan qatlami inflyatsiyadan katta zarar ko'radi, chunki iste'mol narxlari oshgani sari ularning iste'mol hajmi qisqarib boradi. Ushbu qatlam iste'mol savatidagi mahsulotlar asosan birlamchi zaruriy iste'mol mahsulotlaridan iborat bo'lib, ularni boshqa mahsulotlar bilan almashtirishning iloji bo'lmaydi.

Inflyatsiyaning yuqori darajasi, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytirish uchun amalga oshiriladigan investitsiyalar hajmiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadbirkorlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar asosida investitsion maqsadlar uchun yo'naltirilayotgan mablag'lardan kelajakda olinadigan daromadlarning xarid quvvati o'zgarmasligi kabi tamoyillar yotadi.

Bunday sharoitda uzoq muddatli jamg'armalar va investitsion resurslarning tanqisligi kuzatiladi. Bu, o'z navbatida, loyihalarni moliyalashtirishda davlat va

markazlashgan xarajatlarga ehtiyojlarning (og'irlik yukining) oshib borishiga olib keladi.

Iqtisodiyotda inflyatsion jarayonlar aksariyat holatlarda talab omillari natijasida, ya'ni iqtisodiyotda tovar va xizmatlarga bo'lgan talabning ishlab chiqarish hajmlariga nisbatan tezroq sur'atlarda o'sishi natijasida yuzaga keladi. Yalpi talabning o'sishi esa, asosan, davlat byudjeti xarajatlari va iqtisodiyotga yo'naltirilgan kreditlar hajmining o'sishi, aholi va tadbirkorlik subyektlari daromadlarining oshishi hisobiga ro'y beradi.

Pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash orqali Markaziy bank yalpi talab hajmiga ta'sir etadi va shu orqali iqtisodiyotda inflyatsion bosimni pa-saytiradi. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, amalga oshirilayotgan ishlar va mos ravishda kommunikatsion siyosat aholi va tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalarini shakllantiruvchi omil sifatida inflyatsion jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi bo'yicha hamda pul-kredit sharoitlarini belgilash bo'yicha qarorlari banklararo pul bozoridagi foiz stavkalarining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni ushbu bozordagi qisqa muddatli moliyaviy resurslar narxini belgilaydi.

O'z navbatida, pul bozoridagi foiz stavkalari darajasi tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli pul resurslari, ya'ni jalb qilinadigan depozitlar va beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining shakllanishiga asos bo'ladi. Depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalari bevosita ishlab chiqarish, iste'mol va investitsion jarayonlarda foydalaniladigan moliyaviy resurslarning narxini belgilab beradi.

Ushbu jarayon pul-kredit siyosatining transmissiyasi (o'tkazma kanallari) orqali iqtisodiy agentlarning ishlab chiqarish, jamg'arish va iste'mol bo'yicha qarorlariga ta'sir o'tkazadi.

Bunda, pul-kredit siyosati sohasidagi chora-tadbirlar asosan iqtisodiyotni qisqa muddatli tartibga solish, mavsumiy va davriy tebranishlarni muvozanatlash hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining mamlakat iqtisodiy salohiyatidan og'ib

ketishining oldini olishga qaratilgan bo'lib, umuman olganda qisqa muddatli ta'sirga ega bo'ladi.

Pul-kredit siyosati choralari iqtisodiy jarayonlarga (ko'rsatkichlarga) qarorlar qabul qilingan paytdan ma'lum bir vaqt kechikish va surilishlar bilan ta'sir qiladi. Shu bois Markaziy bank qarorlar qabul qilishda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning joriy dinamikasiga emas, aksariyat hollarda kelgusi davrda kutilayotgan o'zgarishlar va prognozlarga asoslanadi.

Shu sababli samarali va ta'sirchan qarorlar qabul qilish Markaziy bankda kuchli tahliliy va prognozlash salohiyati mavjud bo'lishini taqozo etadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning keng qamrovli tahlili, prognozlari va kelajakdagi dinamikasi to'g'risida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish va bu boradagi salohiyatni rivojlantirib borish orqali pul-kredit siyosatida qabul qilinayotgan qarorlardagi xatoliklar kamayib boradi.

Umuman olganda, iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash, aholi va biznes vakillarining inflyatsion kutilmalarini ijobiy shakllantirish orqali Markaziy bank mamlakatdagi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlab boradi.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiyotning mustahkam rivojlanishi ko'p jihatdan fundamental va tarkibiy islohotlarga bog'liq bo'lib, faqatgina Markaziy bankning pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash orqali ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirishga yoki texnologik rivojlanishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilib bo'lmaydi.

Shuningdek, ma'lum bir tarmoqlarni faqatgina kreditlar bilan qo'llab-quvvatlash va markazlashgan investitsiyalarni yo'naltirish mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun yetarli emas. Iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish, mehnat unumdorligi va energiya iste'moli samaradorligini oshirib borish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, biznesni tashkil etish va yuritishni yengillashtirishga qaratilgan davomli tarkibiy islohotlar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillar bo'lib hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi moliya tizimining mustaqil sohasidir. Uni boshqacha nomda mulkchilikning turli shaklidagi korxona va tashkilotlar moliyasi deb ham atash mumkin. Moliya tizimining ana shu sohasida daromadlarning asosiy qismi shakllanadi va ular, oxir oqibatda davlat tomonidan o‘rnatilgan qoidalarga muvofiq ravishda qayta taqsimlanib, barcha darajadagi byudjetlar va nobyudjet fondlarining daromadlarini shakllantiradi. Bir vaqtning o‘zida byudjet (moliyaviy) mablag‘larining katta qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri byudjetdan moliyalashtirish, byudjet ssudalari va davlat kafolatlari shaklida korxonalarning joriy va investitsion faoliyatlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, moliya tizimining bu sohasi tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi, moliyaviy vositachilar moliyasi va notijorat tashkilotlar moliyasi kabi bo‘g‘inlardan tashkil topadi. Bu guruhga kiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy munosabatlari tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, daromadlar va xarajatlarni shakllantirish, mulkka egalik qilish, o‘z zimmlariga olgan majburiyatlarini bajarish shakllariga bog‘liq ravishda o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarga egadir. Bir vaqtning o‘zida, tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi muhim ahamiyat kasb etib, aynan shu yerda moliyaviy resurslarning asosiy qismi shakllantiriladi. Mamlakatning umumiy moliyaviy holati ana shu korxonalar moliyasining ahvoli bilan belgilanadi. Bu soha korxonalari real moliyaviy mustaqillikka ega, mahsulotni sotishdan olingan tushumni ularning o‘zi mustaqil ravishda taqsimlaydi, o‘zlarining ixtiyoriga ko‘ra foydani tasarruf qiladilar, ishlab chiqarish va ijtimoiy fondlarni shakllantiradilar, moliyaviy bozorning resurslari – bank kreditlari, obligatsiyalar emissiyasi, depozit sertifikatlari va moliyaviy bozorning boshqa instrumentlaridan foydalangan holda investitsiyalash uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni qidirib topadilar.

Notijorat tashkilotlari yuridik shaxs hisoblansalarda, foyda olish ularning asosiy maqsadi hisoblanmaydi, olingan foyda ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlanmaydi. Ularning qatoriga ijtimoiy, xayriya, madaniy, ma‘rifiy, ilmiy, boshqaruv,

sogʻliqni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, fuqarolar va tashkilotlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni yechish, yuridik xizmatlar koʻrsatish va shunga oʻxshash boshqa maqsadlarga erishish uchun tashkil etilgan tashkilotlar kiradi.

Turli mamlakatlar iqtisodiyotida tarixiy anʼanalar va iqtisodiy taraqqiyot bosqichlariga muvofiq ravishda notijorat sektor faoliyatining koʻlami bir-biridan farq qiladi.

Turli mamlakatlarda notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tuzilmasi turlichadir. Masalan, koʻpgina rivojlangan mamlakatlarda yakka tartibdagi xayriya ulushi miqdori 1%dan (Yaponiyada) 20%gacha (AQShda) tebranadi va oʻrtacha 11%ni tashkil etadi. Hukumat ajratmalarining salmogʻi esa 26%dan (Germaniya) 71%gacha boʻlib, uning oʻrtacha darajasi 48%ga tengdir. Notijorat tashkilotlarining oʻzlari tomonidan ishlab topilgan mablagʻlarning salmogʻi 23%dan (Vengriya) 71%gacha tebranadi, uning oʻrtacha darajasi 41% ni tashkil qiladi.

Notijorat faoliyatni moliyaviy jihatdan tartibga solishning shakllari, ularning davlat va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorligi har bir mamlakatning tegishli qonunlari asosida amalga oshiriladi. Ularni moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlash toʻgʻridan-toʻgʻri (bevosita) va egri (bilvosita) tavsifga ega boʻlishi mumkin.

Notijorat sektorni davlat tomonidan toʻgʻri (bevosita) qoʻllab-quvvatlashning uch asosiy shakli mavjud:

- toʻgʻridan-toʻgʻri (bevosita) byudjet investitsiyalari;
- hamkorlikda moliyalashtirish;
- davlat ijtimoiy buyurtmasi.

Notijorat sektorni egri (bilvosita) moliyalashtirish shakli, yaʼni notijorat tashkilotlarini davlat va mahalliy hokimiyat organlari oldidagi toʻlovlari va boshqa shunga oʻxshash majburiyatlardan ozod qilish shaklidan ham amaliyotda tez-tez

foydalaniladi. Egri (bilvosita) moliyalashtirishning asosiy ko‘rinishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- soliqsiz imtiyozlarni taqdim etish;
- solikli imtiyozlar taqdim qilish.

Bu yerda, o‘z navbatida, soliqsiz imtiyozlar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- notijorat tashkilotlarining faoliyati uchun binolarni ijaraga olish, yer maydonlarini ajratish;
- litsenziyalashning soddalashtirilgan tizimini o‘rnatish;
- aloqa xizmatlari va kommunal xizmatlarni to‘lashda imtiyozli tariflardan foydalanish;
- va boshqalar.

Shuningdek, solikli imtiyozlar quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- hadya etuvchilar uchun imtiyozlar;
- homiylik qiluvchi yuridik shaxslar uchun imtiyozlar.


Davlat organlari notijorat tashkilotlarining faoliyatiga aralashish, agar ularning sarflanishi tashkilotning maqsadlariga mos kelayotgan bo‘lsa, xarajatlarning yo‘nalishiga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.03.2021 yildagi PQ-5012-son “Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, bugungi kunda mamlakatimizda notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash borasida bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratilgan. Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organni xabardor qilgan (ma’lumot uchun) holda xorijiy manbalardan olinadigan pul mablag‘lari va mol-mulkning bir kalendar yilidagi jami summasi bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan yuz baravarigacha oshirildi; nodavlat notijorat tashkilotini qayta ro‘yxatdan hamda uning ramzini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish muddati bir oydan

o‘n besh kungacha qisqartirildi; nogironligi bo‘lgan shaxslar, faxriylar, nuroniylar, xotin-qizlar, bolalar jamoat birlashmalari ramzlarini davlat ro‘yxatidan (qayta ro‘yxatdan) o‘tkazish uchun davlat boji undirilmaydi; nodavlat notijorat tashkilotining alohida bo‘linmasi yuridik shaxs hisoblanadi, bunda alohida bo‘linmalarni hisobga qo‘yish tartibi bekor qilindi³⁴.

3.2. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi

Ayrim mamlakatlar moliyaviy tizimlarining institutsional tuzilishi - bu iqtisodiyotning moliyaviy sektorida faoliyat ko‘rsatuvchi tashkilot va korxonalar to‘plamini ifoda etadi. 3.3-rasmda har qanday mamlakat uchun qo‘l keladigan institutsional tuzilmaning umumiy ko‘rinishi keltirilgan.



3.3-rasm. Mamlakat moliya tizimining institutsional tuzilmasi

Iqtisodiyotning moliyaviy sektorini keng va tor ma'noda talqin qilishimiz mumkin.

Birinci holatda, u moliya institutlarini, shuningdek, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlarni, shu bilan bir qatorda moliyaviy uyushmalarni o‘z ichiga oladi.

Moliya tizimidagi tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlarning asosiy vazifasi uning barqaror ishlashini ta'minlash, davlat tomonidan o‘rnatilgan tartib-qoidalarni amalga oshirish va moliya institutlari faoliyatini bevosita nazorat qilishdan iborat.

³⁴ <https://lex.uz/ru/docs/5317637>

Moliyaviy uyushmalarning asosiy maqsadi moliya institutlari guruh-larining manfaatlarini davlat va jamoatchilik oldida ifodalash va himoya qilishdir.

Batafsil aytganda, moliyaviy uyushmalarning funksiyalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- manfaatlarni lobbilash funksiyasi (qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarga taklif va o'zgartirishlar kiritish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat organlarida vakillik qilish yo'li bilan amalga oshiriladi);

- bevosita tegishli moliya institutlariga ko'rsatiladigan xizmat vazifalari (masalan, qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish, audit, konsalting va boshqalar);

- marketing funksiyalari: ommaviy axborot vositalari orqali jamoat-chilik fikrini shakllantirish (public relation);

- uyushmalar doirasida moliya institutlari manfaatlarini muvofiqlashtirish, xususan, narxlash sohasida, raqobat usullari va shu kabilar borasida umumiy me'yorlar yoki tavsiyalar ishlab chiqish.

Moliya sektoridagi moliya institutlariga bank tizimiga tegishli tashkilotlar, shuningdek bankdan tashqari moliyaviy vositachilar kiradi.

O'z navbatida Markaziy bank bank tizimida alohida o'rin tutadi.

Mamlakatda pul-kredit siyosatini olib borish va banknotlar va boshqa kredit pullarini chiqarish uchun mas'ul bo'lgan Markaziy emission bank, shuningdek ma'lum bank guruhlari doirasida tartibga soluvchi funksiyalarni bajaradigan Markaziy banklar mavjud bo'ladi.

Banklarning eng katta guruhini tijorat banklari tashkil etadi, ularni o'z navbatida moliya-bank tizimining o'zagi deb hisoblash mumkin. Ikkala guruh banklarining funksiyalari, tashkil etish tamoyillari va vakolatlari turli omillarga qarab mamlakatga qarab farq qiladi, biz ularni quyida ko'rib chiqamiz.

Nobank yoki boshqa moliyaviy vositachilar sifatida faqat ma'lum bank yoki "bankka o'xshash" funksiyalarni bajaradigan muassasalarning katta guruhi

mavjud. Ushbu guruh institutlarining xilma-xilligi ko'pincha mamlakat moliya tizimining rivojlanish belgilaridan biri sanaladi.

To'liqroq tushunish maqsadida shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda an'anaviy ravishda moliyaviy tizimining ikki asosiy - segmentlashgan va universal turi mavjud bo'ladi.

Universal moliya tizimida banklarning bank bilan bog'liq bo'lmagan moliyaviy xizmat operatsiyalarini bajarishlari qonun yo'li bilan cheklan-maydi. Bu universal tizimning asosiy jihati hisoblanadi. Bunday tizim-ning klassik namunasi sifatida Germaniya tizimini keltirishimiz mumkin. Ba'zan, universalizmning teskari tomoni sifatida nobank tashkilotlarning bank funksiyalarini bajarish imkoniyatini ko'rsatishadi.

Bu fikrga to'liq qo'shilishning imkoni yo'q, chunki ham universal va hamda segmentlashgan tizimga ega bo'lgan mamlakatlarda muayyan bir bank operatsiyalarini bajarishga ruxsat berilgan tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning dastlabkisi-amaldagi nobank kredit tashkilotlari hisoblanadi.

Shunday qilib, milliy moliyaviy tizimlarning turini aniqlash uchun qaysi operatsiyalar qonunan bankka tegishli yohud tegishli emasligini va banklar boshqa operatsiyalarni bajara oladimi yoki yo'qligini bilish muhimdir.

Bank operatsiyalari odatda muayyan bir ryxat asosida tartibga solinadi va mazkur ro'yxat qonunchilik hujjatlarining o'zgarishi asnosida qayta ko'rib chiqiladi.

Masalan, Germaniyada, 1961 yilda qayta tahrir qilingan Kredit to'g'risidagi qonunga muvofiq, quyidagilar bank operatsiyalari ro'yxatiga kiritilgan: a) muayyan bir haq yoki to'lovsiz uchinchi shaxslarning pul mablag'larini jalb qilish; b) naqd ko'rinishda va aktseptlangan kreditlar taqdim etish; v) veksel va cheklarni xarid qilish; g) boshqa shaxslardan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish; d) boshqa shaxslarning qimmatli qog'ozlarini saqlash va boshqarish (depozitar operatsiyalar); e) qarzlar bo'yicha majburiyatlarni ularning muddati tugagunga

qadar o'z bo'yniga olish; j) kafolatlar va kafilliklar berish; z) naqd pulsiz pul aylanmasi va hisob-kitoblarni amalga oshirish va shu kabilar.

Shu bilan birga, nobank moliya institutlariga depozitlarni qabul qilish, to'lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirish va kafolatlar berish ta'qiqlanadi. Qat'iy segmentlashgan moliya tizimida banklar nobank funktsiyalarni bajara olmaydilar.

Bunda yana bir qo'shimcha jihat mavjudki, u mutloq tavsifga ega bo'lmasada, ayrim operatsiyalar va faoliyat sohalarini qat'iy cheklanishida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, segmentlashgan tizimda depozitlarni qabul qilish va kreditlar berish bo'yicha bank operatsiyalari ishlab chiqarish korxonalarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish va joylashtirish operatsiyalari va boshqa bir qator xizmat turlaridan (sug'urta, ko'chmas mulk operatsiyalari, trast operatsiyalari) qonuniy ravishda alohidalashtiriladi.

Segmentlashgan tizim AQSh, Yaponiya va buyuk Britaniyada uzoq vaqt davomida hukmronlik qildi.

Bugungi kunda moliya tizimlarini segmentlashgan va universal tizimlarga ajratish mutloq tavsifga ega emas.

Birinchidan, har bir milliy moliya tizimi o'zining rivojlanishi davomida bir necha bosqichlaridan o'tadi va u mazkur jarayonda u yoki bu darajada universal yohud segmentlashgan modelga moyilligini namoyon qiladi.

Ikkinchidan, so'nggi o'n yilliklarda aksariyat rivojlangan mamlakat-larda moliyaviy tizimlarining universallashtirish jarayoni sodir bo'lmoqda.

Shu bois, zamonaviy sharoitda qat'iy segmentlangan tizimlar haqida emas, balki aralash moliyaviy tizimlar yoki universallashtirish unsurlari bo'lgan segmentlangan tizimlar haqida to'xtalish maqsadga muvofiq, sanaladi.

AQSh moliya tizimi federal va shtat darajasida qat'iy tartibga solingan tizimlardan biri hisoblanadi.

Banklar faoliyatini tartibga solishda AQSh Federal zahira tizimi, Pul muomalasi Nazoratchisi va depozitlarni sug'urtalash bo'yicha Federal korporatsiya muhim o'rin tutadi.

Pul muomalasini Nazorat qiluvchi-bu AQSh Prezidenti tomonidan tayinlanuvchi va milliy banklar faoliyatini tartibga solish va ularni tekshirishlar orqali nazorat qilish uchun javobgar shaxsdir.

AQSh Federal zahira tizimi Markaziy banklarning o'ziga xos noyob tizimi bo'lib, ularning soni 12 tani tashkil etadi. Ular Federal zahira banklari (FZB) deb nomlanadi va AQShning eng muhim sanoat va biznes markazlarida bir qator filiallarga ega. Pul-kredit siyosati asoslarini Federal zahira tizimi boshqaruvchilari kengashi ishlab chiqadi

Federal zahira banklarining asosiy funktsiyalari zahira fondlarini (valyuta, oltin) saqlash va boshqarish, depozit muassasalari va AQSh davlat G'aznachiligining depozitlari bo'yicha kliring operatsiyalarini bajarish, federal banknotalarni muomalaga chiqarish, depozitlarni yaratish va depozit muassasalariga kredit berish jarayonlarini nazorat qilishdan iboratdir.

Federal zahira banki federal zahira tizimiga a'zo banklar, bank xoldinglari, Qo'shma Shtatlardagi banklarning filiallari va xorijiy vakolatxonalari faoliyatini nazorat qiladi va tekshiradi. Ular tijorat banklariga oxirgi instantsiya sifatida kredit berishadi. Va nihoyat, Federal zahira banki bir qator moliyaviy xizmatlarni, xususan naqd pul berish va qabul qilish, pul o'tkazmalari va boshqalarni taqdim etadi.

Federal zahira tizimi AQSh federal hukumatidan mustaqil tarzda faoliyat ko'rsatadi va u o'z faoliyatida AQSh kongressiga buysunadi.


FZT ga a'zo bo'lgan banklar o'zlarining aktsionerlik kapitaliga bog'liq holda, federal zahira banklarining muayyan bir aktsiyalari miqdorini sotib olishlari shart. Dividendlar ushbu aktsiyalar bo'yicha hisoblanadi, ammo ularning miqdori cheklangan bo'ladi. Federal zahira banki faoliyatidan olingan foydaning asosiy

qismi AQSh davlat xazina-siga o'tkaziladi, chunki FZT uchun tijorat faoliyati birlamchi hisob-lanmaydi.

XX asrning 50-80-yillari davrida ko'plab banklar Federal zahira tizimi yurisdiksiyasidan chiqib ketishdi, chunki Federal zahira tizimi a'zolariga, ayniqsa zahira me'yorlarini belgilash, shuningdek depozit va kredit foiz stavkalarining yuqori chegaralarini belgilash sohasida juda qattiq talablar qo'ya boshladi.

Ushbu eskirgan qoidani bartaraf etish maqsadida 1980 yilda depozit muassasalari faoliyatini tartibga solishni cheklash va pul muomalasini nazorat qilish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning asosiy qoidalarida tijorat banklari uchun yagona zahira qoidalar; o'zaro jamg'arma banklari, jamg'arma va kredit uyushmalari va boshqa kredit tashkilotlari, shuningdek zahira talablarini yumshatish yoki olib tashlash (masalan, muddatli hisobvaraqlar uchun) nazarda tutilgan.

Hozirgi vaqtda AQShda bank sektori muassasalarining turli ko'rinishlari faoliyat ko'rsatadi (3.4-rasm). Quyida ularning qisqacha tavsifini keltirib o'tamiz.



3.4-rasm. AQSh bank tizimi tuzilmasi (kredit institutlari)

AQShda tijorat banklari guruhi eng ko'p sonli bo'lib, ular moliya bozorlarida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu o'rinda, asosan, resurslar manbalari asosan depozitlar (talab qilinguncha) bo'lgan depozit banklari haqida to'xtalib o'tamiz.

Tijorat banklari savdoni qisqa muddatli moliyalashtirish, to'lov aylanmasi, shu jumladan cheklar va kredit kartalar bilan operatsiyalar, ishonchli xizmatlar

(mulkni boshqarish) kabi xizmatlarni ko'rsatadilar. Bundan tashqari, mijozlar hisobidan va ularning ko'rsatmalariga binoan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat beriladi, bu esa ayrim moliya institutlarining faoliyat turlari chegarasining tendentsiyasini aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda, uzoq muddatli kreditlarning o'sib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Tijorat banklari orasida ikki turdagi muassasalar farqlanadi: birinchidan, ko'plab filial va bo'linmalarga ega banklar (Branch Banks); ikkinchidan, umuman filiallariga ega bo'lmagan yoki zaif rivojlangan banklar (Unit Banks). Ushbu banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar bir xil turli bo'lsada, ular faqatgina o'zlarining tashkiliy tuzilmasi, menejerlarning funktsiyalarida farqlanadi xolos.

Qo'shma Shtatlarda investitsiya banklarining faoliyati uchta yo'nalishga bo'linadi: a) broker va dilerlar sifatida qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanish; b) kapital manbalarini izlayotgan shaxslar uchun anderrayter vazifasini bajarish; v) birlashish, sotib olish, foydali investitsiyalar va boshqalar bo'yicha konsalting xizmatlari ko'rsatish.

Agar biz bankning ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, investitsiya banki aslida bank sanalmaydi, chunki u bankka xos bo'lgan umumiy funktsiyalarni bajarmasada, u depozitlarni qabul qilish va kreditlash kabi bankka xos bo'lgan funktsiyalarni bajaradi. AQShda investitsiya banklari faoliyatini nazorat qilish Federal zahira tizimi kengashi tomonidan emas, balki fond bozorlari va qimmatli qog'ozlar bo'yicha Komissiya (Securities and Exchange Commission, SEC) tomonidan amalga oshiriladi.

Investitsiya banklari faqat kichik miqdordagi kapital egalari yoki institutsional investorlar, ba'zi hollarda esa ikkalasiga ham xizmat qiladi. Investitsiya banklari asosan institutsional investorlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida dunyoning eng mashhur moliyaviy savdo maydonchalarida ishtirok qilishga intilishadi.

Jamg'arma va kredit uyushmalari o'z faoliyatini federal yoki shtat darajasida amalga oshirish uchun ruxsat olishadi. Birinchi holda, ular kooperativ asosda tashkil etiladi, ikkinchi holatda esa ularning aktsionerlik shakli kuzatiladi. Ularning passivlari asosan jamg'arma va muddatli omonatlardan tashkil topadi. Aktiv operatsiyalar ipoteka kreditlarini taqdim etish bilan cheklanadi.

O'zaro jamg'arma banklari oltita asosiy jihat bilan farqlanadi: 1) tashkil qiliish uchun ruxsat olish shtat darajasida amalga oshiriladi; 2) kooperatsiya tabiati; 3) ko'chmas mulk operatsiyalarini moliyalashtirish va omonatlarni tashkil qilishning jamg'arish shakliga ixtisoslashuv; 4) kapital qo'yilmalar borasida nisbatan keng imkoniyatlar; 5) kapital omonatchilariga nisbatan qarzdorlik majburiyati; 6) geografik mujassam-lashuv (asosan AQShning shimoli-g'arbiy qismi).

Kredit uyushmalari (shirkatlar) ham federal, ham shtat darajasida tashkil qilinishi mumkin. XX asrning 80-yillarida kredit uyushmalarini yaratishda portlash yuz berdi, bu ularning faoliyatini shunchalik kengaytirdiki, ko'plab sohalarda (masalan, cheklar, kredit kartalar, iste'mol va ipoteka kreditlari bilan operatsiyalar) ular tijorat banklari uchun jiddiy raqobatchi sifatida ko'rila boshlandi. AQSh moliya tizimini universal-lashuvi borasidagi ijobiy siljishlar XX asrning 80-yillari oxirida kuzatila boshlandi. Xususan, 1989 yil yanvar oyida Federal zahira tizimi banklarga bank xoldinglari sho'ba korxonalarining qimmatli qog'ozlari masalalari bo'yicha kafolatlar berish huquqini berdi. AQShning bir qator moliya institutlari vaqti-vaqti bilan banklarga qo'yilgan cheklovlarni chetlab o'tishga harakat qilishadi. Shu tariqa, XX asrning 70-yillarida "bankdan tashqari banklar" deb ataluvchi cheklangan xizmatlar ko'rsatuvchi (limited-service bank) paydo bo'ldi.

Tijorat banklaridan farqli o'laroq, ular ikkita asosiy bank operatsiyalaridan faqat bittasini-omonatlarni qabul qilish yoki kredit berish huquqiga ega edilar. Bunday tashkilotlarni yaratish Federal zahira tizimi va boshqa nazorat organlarining qat'iy nazoratidan qochishga qaratilgan edi.

Bank sektori muassasalarining alohida turi-bu AQShda faoliyat yurituvchi boshqa davlatlarning banklari hisoblanadi.

Buyuk Britaniyaning birinchi xususiy banklari XVII asrda paydo bo'lgan. XIX asrning 30-yillaridan boshlab depozit (kliring) banklari faoliyat ko'rsata boshlagan.

Buyuk Britaniyada bunday banklar sirasiga o'z operatsiyalari turlarini depozitlar jalb qilish (passiv bitimlar), lombard kreditlar berish bilan bog'liq qisqa muddatli operatsiyalar (qimmatli qog'ozlar garovi ostida), veksellarni hisobga olish, qoplanmagan kontokorrekt kreditlarni taqdim qilish bilan cheklovchi banklar kiradi.

Shu tariqa, buyuk Britaniyaning depozit banklari o'z mohiyatiga ko'ra, ixtisoslashgan tashkilotlar hisoblanadi, bundan tashqari ular faoliyati xatar bilan bog'liq tashkilotlar sirasiga mansub.

Eng mashhur savdo tijorat banklari, shuningdek, jamg'arma kassalari XIX asrning o'rtalaridan sal avvalroq paydo bo'lgan (shuni ta'kidlash lozimki, dastlabki kassa 1804 yilda Tottenxemda paydo bo'lgan).

1826 yildan keyin Londonning chekkasida bir qator banklar paydo bo'ldi, ular depozitlarni qabul qilish bilan bir qatorda, banknotlarni muoamalaga chiqarib, qisqa muddatli savdo kreditlarini bera boshladilar.

1834 yilda Londonda dastlab, London va Vestminster banklari o'z faoliyatini boshlagan. Ushbu banklar xususiy bank uylaridan farqli o'la-roq, depozitlar bo'yicha foiz hisoblashni yo'lga qo'ydilar va shu bilan ular ustidan raqobatdosh ustunlikka erishdi.

XIX asrning oxiriga qadar aktsiyadorlik banklarning ustun ahamiyat kasb etishi sababli, ko'plab xususiy bankirlar o'z uylarini aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirdilar. Shu tariqa, 20 ta xususiy bankni birlash-tirgani holda, taniqli bank Barclays Bank Ltd paydo bo'ldi.

Birinchi Jahon urushidan avval, birlashishlar to'liqini "katta beshlik"ning shakllanishiga olib keldi (1968 yilda Barclays Bank, Midland Bank, Lloyds Bank

va National Westminster Bank “katta to‘rtligi” vujudga keldi). Bu Germaniya banklari bilan kuchli raqobat sharoitida haqiqatda o‘zini oqladi.

Birinchi Jahon urushidan oldin Britaniya bank tizimi turli xil savdo segmentlarini moliyalashtirishga, ayniqsa koloniyalar bilan savdo qilishga ixtisoslashgan edi.

Buyuk Britaniyadagi investitsiyalar faqat bank tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lmagan investitsiya kompaniyalari orqali amalga oshirib kelingan. Bundan tashqari o‘sha davrda bir yildan ortiq muddatga investitsiya kreditlarini beradigan kredit tashkilotlari umuman yo‘q edi.


1918-yildan keyin kapitalning yangi manbalariga ehtiyoj seza boshlangan sanoat korxonalarining o‘z-o‘zini moliyalashtirish imkoniyatlari ancha pasaydi. Shuning uchun asta-sekin ingliz banklari nemis banklari yo‘lidan borib, banklarning sanoat korxonalari kapitalidagi ishtiroki orqali kartellar yaratdilar.

1934 yilda kichik korxonalarni uzoq muddatli moliyalashtirish maqsadida investitsion kompaniyalarning o‘ziga xos turi- Credit for Industry Ltd. investitsiya tresti (Investment trust)ni ifoda etuvchi institut tashkil etildi. Sug‘urta kompaniyalari va qurilish jamiyatlari sanoatni uzoq muddatli moliyalashtirish uchun kichik investorlarning mablag‘larini to‘playdilar. Kapitalning maqbul tuzilmasi va likvidlikni mohirona bosh-qarish tufayli Britaniyaning aksariyat banklari global iqtisodiy inqiroz davrida omon qolishga muvaffaq bo‘lishdi. Faqat ayrim banklar xorijiy kontragentlar oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun qimmatli qog‘oz-larni sotishdan zarar ko‘rishga majbur bo‘ldilar.

1973-1974 yillarda Britaniya moliya tizimida to‘lovlar inqirozi yuz berdi, ammo bu kliring banklariga ta’sir qilmadi. Bu o‘z navbatida banklarning tashqi nazorati kuchayishiga olib keldi. Jumladan, 1979 -1987 yillarda qabul qilingan bank hujjatlari (Banking Acts) omonatlarini qabul qiluvchi tijorat banklarini tashkil etish tartibini kuchaytirdi, unga ko‘ra endilikda Angliya bankidan ruxsat olish uchun zarur qilib belgilandi. Bundan tashqari, qonunchilikda kredit

tashkilotlari faoliyati ustidan nazorat o'rnatildi, omonatlarni jalb qilish va omonatchilarni himoya qilish tamoyillari belgilandi.

1986 yilda qabul qilingan moliyaviy xizmatlar to'g'risidagi Akt (Financial Services Act) asosida omonatlarni sug'urtalash fondi tashkil qilindi, bu esa navbatida bank tizimiga bo'lgan ishonchning ortishiga olib keldi.



3.5-rasm. Buyuk Britaniya bank tizimi

Britaniya kredit tashkilotlarini uchta katta blokga bo'lish mumkin:

- 1) milliy va asosan pirovard mijozlar (firmalar, jismoniy shaxslar) bilan ishlaydigan chakana banklar;
- 2) milliy bo'lsada, asosan banklararo bozorda faoliyat ko'rsatuvchi ulgurji banklar;
- 3) xorijiy banklar.

Umumiy holatda, Buyuk Britaniya bank tizimining tuzilishi 3.5-rasmda ko'rsatilgan. Quyida ayrim turdagi moliya institutlarini batafsil ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Chakana banklar sirasiga depozit va jamg'arma banklari kiradi.

Depozit banklari xususiy mijozlarga xizmat ko'rsatishda ustunlik qiladi va filial va bo'linmalarning keng tarmog'iga ega. Kliring banklarining asosiy vazifasi to'lov aylanmasini amalga oshirishdir; bundan tashqari, ular depozit va kredit operatsiyalarini faol ravishda amalga oshiradilar, xalqaro moliya bozorlarida

faoliyat yuritadilar. Dastlab, ushbu banklar, ta'kidlanganidek, deyarli kredit siyosatini qisqa muddatli lombard va chegirmali kreditlar bilan ta'minlash bilan chekla-nishgan. Biroq, keyinchalik uzoq muddatli kreditlashni oshirish tendentsiya-si kuzatila boshlandi.

Jamg'arma banklari o'z majburiyatlarini asosan jismoniy shaxslarning jamg'arma omonatlari hisobiga shakllantiradi. XX asrning 70-yillariga qadar olingan mablag'lardan foydalanish qat'iy tartibga solindi va faqat 70-yillarning oxirlarida ularga avval jismoniy shaxslarga (1976), so'ngra firmalarga (1979) kredit berishga ruxsat berildi. 70-yillarning o'rtalarida ushbu banklarning katta birlashishi sodir bo'ldi; ular xususiylashtirildi va shundan buyon TSB Group tarkibida yirik tijorat banklari sifatida faoliyat yuritmoqdalar.

Jamg'arma banklari buyuk Britaniyada keng tarqalgan filiallar tarmog'iga ega (13000 dan ortiq filial va bo'limlar). Ushbu banklar misolida Britaniya moliya tizimida mujassamlashish va markazlashtirish tendentsiyasi yaqqol ko'zga tashlanadi. TSB Group ga mansub banklar odatiy bank operatsiyalarini amalga oshiradilar va sug'urta xizmatlarini ko'rsatadilar, xolding tuzilmalari tarkibida yirik kompaniyalarga sarmoya kiritadilar.

Ko'rib chiqilayotgan muassasalar guruhiga odatda nobank, ammo foizlar bo'yicha xususiy mablag'larni jalb qiladigan depozit banklari bilan raqobatlashadigan qurilish birlashmalari ham kiradi.

Ulgurji banklar qatoriga sadov banklari, emission va aktsept uylari kiradi.

Ulgurji banklar orasida dastlab tijorat banklari vujudga kelgan. Ularning birlamchi vazifasi savdo veksellerini to'lash va ularni rivojlantirish orqali tovar va xizmatlar aylanmasini moliyalashtirishdan iborat edi. Bugungi kunda tijorat banklari o'rta va yirik korxonalarga keng ko'lamli moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va maslahat xizmatlari bilan shug'ullanadilar.

Bundan tashqari, ular pensiya fondlari va sug'urta kompaniyalari uchun investitsiya banklari sifatida faoliyat ko'rsatadilar, birlashish va sotib olishni

moliyalashtiradilar, aktsiya va shu kabi qimmatli qog'ozlar bilan savdo qiladilar, qisqa va o'rta muddatli kreditlar taqdim qiladilar.

Savdo banklari tijorat banklari uchun mablag'larni o'tkazish yoki omonatlarni qabul qilish va aholiga kreditlar berish bo'yicha odatiy operatsiyalarni amalga oshirmaydilar. Buyuk Britaniya tijorat banklari yevro-valyuta bozorlarida (yevrokredit va yevro-depozit operatsiyalari), shuningdek, fyuchers bozorlarida (moliyaviy fyucherslar, optsionlar, svoplar va boshqalar) yetakchi o'rin tutadi.

Ulgurji banklarning alohida guruhini tashqi va ichki savdoda aktsept kreditlarini beradigan aktsept uylari tashkil qiladi, ammo so'nggi paytlarda bunday kreditlar jahon savdosida kamdan kam qo'llanilmoqda. Aktsept kreditlashning mohiyati shundaki, aktsept uylari jo'natilgan tovarlar uchun avvaldan tanish bo'lmagan to'lovchilarning o'tkazma veksellarini qabul qiladi va to'lab beradi. Aktsept uylari depozit banklari bilan birgalikda amalda kontokorrent kreditlaridan ham foydalanadilar.

Va nihoyat, ulgurji banklarning so'nggi guruhi - emission uylar hisoblanadi, ular faoliyatining asosiy maqsadi qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va ularni bozorda joylashtirish hisoblanadi.

Xorijiy banklar guruhiga buyuk Britaniyada o'z qarorgohiga ega bo'lgan, lekin chet elda o'z operatsiyalarining asosiy doirasini amalga oshiruvchi Britaniya banklari hamda buyuk Britaniyada filiallari bo'lgan boshqa mamlakatlar banklari kiradi. Chet elda banklarning keng tarmog'i tufayli buyuk Britaniya uzoq vaqtdan beri global moliya tizimida ustun o'rinni egallab keladi, ingliz funt sterlingi xalqaro savdoning asosiy valyutalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi o'n yilliklarda xorijiy banklar tomonidan Buyuk Britaniyada o'z filiallari va vakolatxonalarini joylashtirishning teskari jarayoni yuz bermoqda. Ular orasida Yaponiya, AQSh, Shveytsariya kabi mamlakatlar banklari bor. Bugungi kunda Buyuk Britaniyada 100 dan ortiq yirik banklarning mavjudligi mamlakatning xalqaro moliya tizimida ustun mavqega ega ekanligini ko'rsatadi.

Yaponiya bank tizimining oyoqqa turishi 1868 yildan boshlanadi. Yaponiyaning o‘z-o‘zini ixtiyoriy cheklash davri tugagandan so‘ng, iyena milliy valyuta sifatida muomalaga kiritildi. Mustamlaka hokimiyatining ekspansionistik intilishlaridan himoya qilishni ta‘minlovchi mamlakat iqtisodiy tizimining muhim qismlaridan biri sifatida Yevropa modeli asosida yaratilgan bank tizimiga ehtiyoj sezilar edi. Bunda turli mamlakatlar bank tizimi unsurlaridan keng foydalanilgan. Tashkil qilingan banklar davlat iqtisodiy siyosatining vositasi sifatida qo‘llanilgan. O‘sha paytda korxonalar guruhlarini oilaviy klanlarga tegishli edi (zaibatsu) va har bir guruh ichida bitta bank muvofiqlashtirish va moliyalashtirish funksiyalarini bajargan.

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin AQSh hukumati tomonidan ushbu iqtisodiy guruhlarini 1947 yildagi monopoliyaga qarshi qonunga muvofiq, mayda guruhlariga ajratib yuborish maqsadida qilingan urnishlari muvaffaqiyatsiz tugaydi. Alohida oilalar qo‘lida bo‘lgan aktsiyalar paketi sotilgandan so‘ng, ko‘p tomonlama ishtirok etish orqali yangi iqtisodiy guruhlar (keiretsu) paydo bo‘lsada, baribir ularning asosini banklar tashkil qilar edi.

Yaponiya iqtisodiyotining oyoqqa turishi asnosida, yaponlar o‘zlari uchun bank tizimining Amerika segmentlashgan tizimini asos qilib oldilar, buning natijasida “tijorat banklari”, “investitsiya banklari”, “uzoq muddatli kreditlash banklari” va “trast operatsiyalarini bajaruvchi banklar” sektorlari paydo bo‘ldi.

Biroq, 1981 yilda bank qonunchiligidagi o‘zgarishlar davrida mazkur institutsional guruhlar o‘rtasidagi chegaralar yo‘qolib bordi.

1993 yil aprel oyidan boshlab ayrim tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan muassasalar boshqa tarmoqlardagi muassasalar funksiyalarini bajaradigan yoki shunga o‘xshash muassasalarni biriktiradigan sho‘ba korxonalar tuzish huquqiga ega bo‘lishdi. Ba’zi hollarda Moliya vazirligidan litsenziya olish ham talab qilinardi.

“Sovun ko‘pigi iqtisodiyoti” deb nomlangan davrda Yaponiya bank tizimida inqiroz yuzaga keldi, bu o‘z navbatida yirik moliyaviy institutlar foydasiga kontsentratsiya jarayonlari va tarkibiy o‘zgarishlarga olib keldi.

Yaponiya banki 1882 yilda Belgiya banki modeli asosida tashkil topgan va uning zamonaviy tuzilmasiga 1949 yilda asos solingan. Yaponiya bankiga emission huquq 1884 yilda berilgan.

Pul-kredit va valyuta siyosati bilan bir qatorda operativ bank nazoratini amalga oshirishga mas’uldir va mamlakatning emitent banki vazifasini bajaradi. Bank boshqaruvi, uning yuqori organi tarkibiga moliya vazirligi va rejalashtirish organlari rahbarlari bilan bir qatorda yirik va mintaqaviy banklar, shuningdek savdo, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalari vakillari kiradi.


Davlat moliya institutlari davlat investitsiya va kreditlash dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadilar.

Yaponiya banki va davlat moliya institutlaridan tashqari, Yaponiya bank tizimiga tijorat banklari, uzoq muddatli kreditlash banklari, investitsiya banklari, trust banklari va kooperativ banklar kiradi.

Ushbu muassasalar va muassasalar guruhlar bilan bir qatorda Yaponiya moliya tizimiga hayotni sug‘urtalash jamiyatlari, kichik kredit jamiyatlari, qimmatli qog‘ozlarni moliyalashtirish jamiyatlari, shuningdek uy-joylarni moliyalashtirish jamiyatlari va boshqalar kiradi.

Umuman olganda, Yaponiya moliya tizimining tuzilmasini quyidagicha ifodalash mumkin (3.6-rasm). Yaponiya moliya tizimining segmentlangan tabiati uzoq muddatli kreditlash banklari, investitsiya uylari va ishonchli banklar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Uzoq muddatli kreditlash banklariga passiv va aktiv uzoq muddatli operatsiyalarni o‘tkazishga ruxsat beriladi. Ularning birinchisi yirik korxonalarga uzoq muddatli kreditlar berishdan iborat bo‘lsa, ikkinchisi - asosan uzoq muddatli qarz majburiyatlarini chiqarish orqali resurslarni shakllantirishdan iboratdir.

Yevropa Ittifoqining moliya tizimi uch turdagi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi: Yevropa Ittifoqi shartnoma tizimining qoidalari, ikkilamchi Qonunchilik va idoralararo kelishuv qoidalari. Oxirgi tartibga solish vositasi byudjet jarayoniga tegishli hisoblanadi.



3.6-rasm. Yaponiya moliya tizimi

Byudjetni tartibga solish bo'yicha Yevropa Ittifoqi shartnomalari tizimida Yevropa hamjamiyatini tashkil etuvchi shartnoma doirasida moliyaviy masalalarni tartibga soluvchi qoidalarni o'rganish qiziqish uyg'otadi.

Ushbu qoidalar byudjet jarayonlarini boshqarishning umumiy tamoyillari, byudjet daromadlari va xarajatlari shakllantirish, byudjet jarayonining bosqichlari, byudjet ijrosini ta'minlash va nazorat qilish, shuningdek, moliyaviy masalalar bo'yicha shartnoma ijrosiga doir qo'shimcha qoidalar: o'z resurslarini shakllantirish, moliyaviy nazoratchilarning javobgarligini belgilash kabilarni aniqlashtiradi.

1992 yildagi Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi shartnoma asosida umumiy tashqi xavfsizlik siyosati doirasidagi moliyaviy operatsiyalar, shuningdek odil sudlov va ichki ishlar sohasidagi hamkorlik (jamiyatning ikkinchi va uchinchi asoslari) to'g'risidagi qoidalar kiritildi. Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi shartnomaning 44-moddasida Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan jarayonlar, mexanizmlar va institutlarni tartibga solish uchun maxsus shartlar belgilangan.

Jamiyatning moliyaviy masalalarini tartibga soluvchi ikkilamchi Qonunchilik tizimiga o'z resurslari tizimiga oid qabul qilingan qarorlar, shuningdek ushbu sohada qabul qilingan boshqa vositalar kiradi. Qabul qilish usuliga ko'ra, ushbu qarorlarni birlamchi Qonunchilik tizimiga kiritish mumkin.

Moliyaviy masalalar bo'yicha Yevropa Ittifoqi qonunchiligining muhim ikkinchi darajali unsuri-bu moliyaviy reglament bo'lib, u Yevropa Ittifoqi byudjeti jarayonining asosiy tamoyillarini, byudjet tuzilishi tamoyillarini, Yevropa Ittifoqi byudjetini boshqarish qoidalarini, shuningdek jarayon ishtirokchilarining o'rnini belgilaydi. Yevropa Ittifoqini ta'sis qilish to'g'risidagi shartnomaning 279-moddasiga muvofiq, moliyaviy qoidalar parlament bilan maslahatlashilgandan va auditorlar yig'ili-shining rasmiy roziligi olinganidan keyin kengash tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Yevropa Ittifoqi tuzish to'g'risidagi shartnomaning 269-moddasiga binoan, Yevropa Ittifoqi umumiy byudjetining daromadlari o'z resurslari va boshqa manbalardan iborat. Biroq, byudjet xarajatlarining aksariyati 21 aprel 1970 yilda qabul qilingan Yevropa Ittifoqining 70/243/ECSC qarori asosida o'z resurslari tizimi tomonidan moliyalashtiriladi.

Hozirgi vaqtda o'z resurslari tushunchasiga quyidagi uch toifa kiritiladi: an'anaviy o'z resurslari, QQS daromadlari va a'zo davlatlarning YaIMdan ulush sifatida taqdim qiluvchi daromadlari.

An'anaviy tarzda o'z resurslari 1970 yilda joriy qilingan bo'lib, u bojxona bojlari, iqtisodiy bitimlar bo'yicha undiriluvchi va EI nomidan a'zo davlatlar tomonidan yig'iluvchi bojlarni o'z ichiga oladi. An'anaviy xususiy resurslar "tabiiy" xususiy resurslar hisoblanadi, chunki ular hamjamiyat siyosati doirasida to'planadi va a'zo mamlakatlarning badallaridan olinadigan daromad hisoblanmaydi.

QQS hisobiga shakllanuvchi xususiy resurslari har bir Yevropa Ittifoqiga a'zo davlat uchun QQS foiz stavkasini uyg'unlashtirilgan qoidalarga muvofiq belgilash asosida shakllanadi. 1970 yilgi Kengash qarori bilan QQS yig'imining

maksimal stavkasi umumiy bazaning 1 foizida belgilandi. Ispaniya va Portugaliya-ning qo'shilishi bilan qo'shilish xarajatlarini qoplash uchun stavka 1,4% gacha ko'tarilgani. 2000 yilda o'z resurslari to'g'risidagi qaror bilan maksimal stavka yig'ilgan QQS daromadining 0,5% darajasigacha tushirildi. 2007 yildan 2013 yilgacha QQS daromadlaridan yig'im foizi stavkasi 0,3% etib belgilandi, shuningdek, bir qator mamlakatlar, xususan Avstriya uchun 0,225%, Germaniya uchun 0,15% va Gollandiya va Shvetsiya uchun 0,10% gacha qisqartirildi.

1988 yilda Yevropa Ittifoqi Kengashi yalpi milliy mahsulot (YaMM) asosida byudjet daromadlarining "to'rtinchi manbai" ni joriy etishga qaror qildi va u QQSdan olinadigan daromad manbasini almashtirishga mo'ljallangan edi. 1988 va 1999 yillarda YaMMning ajratiladigan ulushi darajasi mos ravishda 1,14% va 1,27% qilib belgilandi. 1995 yilda Yevropa Milliy hisoblar tizimi tomonidan (European System of National and Regional Accounts, ESA, 1995) ajratmalar YaMMdan emas, balki yalpi milliy daromaddan (YaMD) amalga oshirilishi to'g'risida qoida joriy qilindi.

Hozirgi vaqtda a'zo mamlakatlar YaMDidan chegiriladigan ulushining aniq stavkasi har bir byudjet yili uchun belgilanadi va bu rejalashtirilgan byudjet xarajatlari va boshqa manbalardan olinadigan daromadlar o'rtasidagi farqqa bog'liq bo'ladi. Ishtirokchi mamlakatlarning YaMMdan ajratmalar byudjetga boshqa tushumlar hisobidan xarajatlarini qoplash imkonsiz bo'lsagina undiriladi. YaMM asosida shakllangan daromad uchun foiz stavkasini belgilashda cheklovlar mavjud emas, faqat o'z resurslari stavkasini belgilash bo'yicha cheklovlar bundan mustasno. Ushbu holatda barcha o'z resurslari hajmi Yevropa Ittifoqi YaMMning 1,24 foizidan oshmaydigan darajada belgilanadi.

Byudjet daromadlarining boshqa manbalariga uchinchi mamlakatlarning hamjamiyat dasturlariga badallari, belgilangan maqsadda ishlatilmagan jamiyat grantlari sifatida ajratilgan mablag'larni qaytarish, muddati o'tgan to'lovlardan olingan foyda, shuningdek o'tgan yillardagi qoldiqlar, Yevropa Ittifoqi muassasalari xodimlarining ish haqidan ajratmalar kiradi.

Byudjet tizimining moliyaviy daromadlarini shakllantirish tizimining muhim unsuri, shuningdek, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning umumiy byudjetga qo'shgan hissasini kamaytirishga imkon beradigan tuzatish mexanizmi hisoblanadi.

Jamiyatning o'z resurslarini yig'ish tartibi o'z resurslari tizimi to'g'risidagi qarorning 8-moddasi bilan tartibga solinadi. Ushbu moddaga muvofiq, a'zo mamlakatlar jamiyatning umumiy talablari doirasida bo'lishi kerak bo'lgan milliy qonunchilikka muvofiq resurslarni yig'ish uchun javobgardir. O'z resurslarini yig'ish ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun o'z soliq va bojxona organlariga ega bo'lmagan jamiyat nomidan harakat qiladigan a'zo mamlakatlarning ijro etuvchi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yig'ilgan resurslar komissiyaga uning nomidan mamlakatlar g'aznasida ochilgan hisobvaraqlar orqali taqdim etiladi.

Yevropa Ittifoqi moliyaviy daromadlarining diversifikatsiyalangan tizimi an'anaviy va boshqa turdagi daromadlarning muvozanatli oqimini saqlashga, barqaror byudjet daromadlarini ta'minlashga imkon beradi. Ko'pgina milliy byudjetlar singari, yagona Yevropa Ittifoqi byudjeti ham Hamjamiyat moliyaviy qoidalarida belgilangan ma'lum tamoyillarga muvofiq shakllantiriladi va boshqariladi. Yevropa Ittifoqi byudjetini boshqarishning to'qqizta asosiy tamoyillari mavjud: birlik tamoyili (the principle), aniqlik tamoyili (the principle of the accuracy), universallik tamoyili (the principle of universality), muntazamlilik tamoyili (the principle of annuality), muvozanatlilik tamoyili (the principle of equilibrium), alohidalik tamoyili (the principle of specification), yagona hisob yuritish tamoyili (the principle of the unit of account), transparentlik tamoyili (the principle of transparency), barqaror moliyaviy boshqaruv tamoyili (the principle of the sound financial management).

Bob bo'yicha xulosalar

Moliyaviy munosabatlar favqulodda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, moliyaviy munosabatlarning bunday xilma-xilligi unsurlarning oddiy yig'indisini emas, balki barcha tarkibiy bo'linmalari o'zaro bog'liq bo'lgan

va o'zaro ta'sir qiluvchi unsurlarning tashkiliy to'plami bo'lgan yaxlit tizimni tashkil qiladi.

Moliya tizimining har bir unsuri nisbatan mustaqil bo'lgani holda, ularning har biri o'ziga xos bo'lgan funktsiyalarni bajaradi, shu bilan bir qatorda, barcha unsurlar bir-biri bilan ham, boshqa tizimlar bilan ham o'zaro ta'sir qiladi.

Moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismlarini ajratib olish jarayonida ularni ilmiy mezonlarga muvofiq tarkibiy guruhlariga, kichik guruhlariga bo'lish uchun to'g'ri tasniflash belgisini topish kerak.

Unga ko'ra butun moliyaviy munosabatlar uning tarkibiy qismlariga bo'linadigan birinchi tasniflash xususiyati, bu subyektning ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi o'рни bo'lib, unga ko'ra barcha moliyaviy munosabatlar moliyaviy tizim sohalari deb ataladigan ikkita katta guruhga bo'linadi, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi, shuningdek, davlat va hududiy tuzilmalar moliyasi.

Moliya tizimida bu sohalarning mavjudligi obyektiv ravishda belgilanadi, chunki har qanday jamiyatda bozorni tovar va xizmatlar bilan ta'minlaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar mavjud va har qanday davlat o'z funktsiyalarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarga muhtoj.

Moliya tizimining har bir sohasi, o'z navbatida, tarkibiy unsurlarga ega bo'lgani holda, bo'g'inlarga ham ajratiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi moliya tizimining boshlang'ich sohasi bo'lib, aynan shu sohada birlamchi moliyaviy resurslarning shakllanishi sodir bo'ladi va qiymatni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari boshlanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi doirasidagi moliyaviy munosabatlarni keyingi guruhlash moliya resurslarini shakllantirish manbalariga, mablag'lardan foydalanish tartibiga ta'sir ko'rsatadigan subyekt faoliyatining xususiyatiga qarab amalga oshiriladi.

Ba'zi tashkilotlar o'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida foydani ko'rishadi, bunday tashkilotlar tijorat tashkilotlari hisoblanadilar. Jamiyatning me'yorda faoliyat yuritishi uchun tijorat tashkilotlaridan tashqari aholining ta'lim, madaniy, ilmiy, xayriya va boshqa ijtimoiy zaruriy imtiyozlarga bo'lgan ehtiyojlarini

qondirish uchun tashkilotlar ham zarur. Bunday tashkilotlar, qoida tariqasida, o'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida foyda olishni ko'zlamaydi va olingan foydani ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanmaydi; ular o'zlarining ustav faoliyatini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarga muhtoj va shunga ko'ra, bunday tashkilotlar (notijorat) ishtirok etadigan moliyaviy munosabatlar tarkibiga ham ta'sir qiladi.

Yuridik shaxslardan tashqari, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar ham tovar ishlab chiqarish ishtirokchilari sifatida chiqishlari mumkin.

Shunday qilib, moliya sohasi doirasida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining xususiyatiga ko'ra moliyaviy munosabatlar guruhlar ajratiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi sohasi quyidagi bo'g'inlarga bo'linadi: tijorat tashkilotlari moliyasi, notijorat tashkilotlari moliyasi, yakka tartibdagi tadbirkorlar moliyasi.

Tadbirkorlik subyektlari qonun hujjatlarida mustahkamlangan muayyan tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil qilinadi va faoliyat yuritadi. Tashkiliy-huquqiy shaklning o'ziga xos xususiyatlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish, ma'lum moliyaviy fondlarni shakllantirish tartibida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, tijorat tashkilotlarining moliyasi bilan bog'liq holda tashkiliy-huquqiy shakl ustav kapitalini shakllantirish tartibiga, foydani ishtirokchilar o'rtasida taqsimlashga, boshqa subyektlar oldidagi moliyaviy javobgarlik darajasiga va boshqalarga ta'sir qiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari moliyani tashkil etishga ham ta'sir qiladi, masalan, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi, a'zolik badallari, byudjet mablag'larining mavjudligi, qarz mablag'laridan foydalanish huquqi va boshqalar.

Tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra tijorat tashkilotlari moliyasi quyidagilarga bo'linadi: aktsiyadorlik jamiyatlari moliyasi (ochiq va yopiq), xo'jalik shirkatlari moliyasi, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar moliyasi, ishlab chiqarish kooperativlari moliyasi, davlat unitar korxonalar moliyasi.

Ular orasida davlat va mahalliy davlat hokimiyatiga qarashli unitar korxonalarning moliyasi alohida o‘rin tutadi. Unitar korxonalarning moliyaviy resurslari davlat va mahalliy davlat hokimiyatiga qarashli mulkda bo‘lib, unitar korxona ularni faqat xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tasarruf etadi.

Notijorat tashkilotlari moliyasi tarkibida tashkiliy-huquqiy shakliga ko‘ra muassasalar moliyasi, iste’mol kooperativlari moliyasi, jamoat va diniy tashkilotlar (birlashmalar) moliyasi, jamg‘armalar moliyasi va boshqalar ajratiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari moliyasi bo‘g‘inida alohida o‘rinni byudjet muassasalarining moliyasi egallaydi, chunki bu, birinchi navbatda, ta’lim, sog‘liqni saqlash va hokazolarda aholiga zarur ijtimoiy xizmatlarni taqdim etadigan byudjet muassasalaridir.

Zamon shiddat bilan o'zgarmoqda. Agar siz boy bo'lishni istasangiz, pul va investitsiyalar borasidagi qarashlaringizni ham zamonga mos tarzda o'zgartirishingiz lozim.

Robert Kiyosaki

4-BOB. MOLIYA BOZORI VA MOLIYA BOZORI INSTRUMENTLARI

- 1. Moliya bozorining mohiyati va iqtisodiyotda tutgan o'rni.**
- 2. Moliya bozorining tuzilmasi va tarkibiy qismlari.**
- 3. Moliya bozoridagi bitim va operatsiyalar mazmuni, ularning turlari.**

4.1. Moliya bozorining mohiyati va iqtisodiyotda tutgan o'rni

“Moliya bozori” tushunchasi bugungi kunda har bir insonga yaxshi tanish.

Moliya bozorini aniqlashtirish borasida ikkita yondashuv mavjud. Birinchisi, moliya bozorining takror ishlab chiqarish va kapital jarayonidagi rolga asoslanadi va moliya bozorini kapital bozori deb hisoblaydi. Ikkinchi yondashuv esa, moliya bozorining umuman moliya sektori bilan o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Quyida ularni batafsil ko'rib chiqamiz. Bozor iqtisodiyotida bozorlarning uch turi mavjud: tovarlar va xizmatlar bozori, mehnat bozori va moliya bozori yoki kapital bozori (bu o'z navbatida moliya bozoriga takror ishlab chiqarish nuqtai nazaridan yondashishni ifoda etadi). U bir xil yoki ortib borayotgan hajmda takror ishlab chiqarish jarayonini doimiy ravishda qayta tiklashda tovar va xizmatlar, mehnat va kapitalning pul shaklidagi turlicha o'rnini aks ettiradi. Darhaqiqat, biznesni moliyalashtirishni jalb qilishda, masalan, yangi loyihani amalga oshirishda qanday imkoniyatlar mavjud? Siz o'z mablag'laringizdan, shu jumladan to'plangan foydadan foydalanishingiz, bank kreditini olishingiz yoki o'z qimmatli qog'ozlaringizni - aktsiyalar va obligatsiyalarni joylashtirishingiz mumkin.

Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzluksiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallashtirib borayotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlar va institutlar majmui sifatida namoyon bo'luvchi murakkab tizim ekanligi ko'zga tashlanadi.


4.1-jadval.

Moliya bozorlariga berilgan turli ta'riflar

Mualliflar	Ta'rif
Abramova M.A. Tendentsii razvitiya denejnoj sistemo'. M.: Finakademiya, 2008. S 123	Moliya bozori umumiy tarzda pul, kredit, bank va fond bozorlarining birligini ifoda etadi.
Kovalev V.V. Finansovo'y analiz. Upravlenie kapitalom. Vo'bor investitsiy: nauch. izd. / V.V. Kovalev. - M. : Finanso' i statistika, 1999. - 432 s.	"Moliya bozori moliyaviy vositalar savdosining uyushgan yoki norasmiy tizimidir. Ushbu bozorda pul ayriboshlash, kapital jalb qilish va kredit berish jarayonlari amalga oshadi".
Mixaylenko, M. N. Finansovo'e ro'nki i instituto' : uchebnik i praktikum dlya prikladnogo bakalavriata / M. N. Mixaylenko; pod red. A. N. Jilkinoy.- M. : Izdatelstvo Yurayt, 2015.- 303 s.	Moliya bozori- moliyaviy aktivlarni sotib olish va sotish, moliyaviy xizmatlar bilan bog'liq bitimlar ishtirokchilari (sotuvchilar, xaridorlar, vositachilar) o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmui.
Nikitina T.V., Repeta-Tursunova A.V. Finansovo'e ro'nki i finansovo-kreditno'e instituto' : uchebnoe posobie / T. V. Nikitina, A. V. Repeta-Tursunova. – SPb. : Izd-vo SPbGEU, 2014. – 115 s.	Moliya bozori-bu kapitalni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlashga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar tizimi; tovarlar bozorlaridan farqli o'laroq, kapital sotiladigan barcha bozorlar moliya bozorlarini iofda etadi.
Smirnov I.E., Zolotarev A.N. Valyutno'y kurs kak vajneyshee ponyatie sistemo' «Valyutno'y ro'nok». SPb.: Izd-vo SPBGUEF, 2007. S. 72.	Moliya bozori–bu bozorlar o'rtasida kapitalning erkin harakatlanishi sharti asosida iqtisodiyotda to'plangan jamg'armalarni investitsiyalarga samarali ravishda aylanishiga imkon beruvchi o'zaro bog'liq bozorlarning murakkab, ochiq, maqsadli, rivojlanayotgan tizimi.
Tepliyakova N.A. Finanso' i finansovo'y ro'nok. Minsk: Tetra Sistems, 2010. S. 160.	Moliya bozori iqtisodiy kategoriya sifatida turli soha va bozorlarda har xil subyektlar o'rtasida moliyaviy resurslarni safarbar qilish va qayta taqsimlash mexanizmining ishlashini ta'minlovchi bozor iqtisodiy munosabatlari va institutlari to'plamidir.
Yanov V.V. Finansovo'e ro'nki i instituto' : uchebnoe posobie / V.V. Yanov, E.Yu. Inozemtseva.- M.: KNORUS, 2016. - 352 c.	Moliya bozori (angl. financial market)-barcha harakatdagi moliyaviy resurslarning o'ziga xos yig'indisidir. Moliya bozori-bu moliyaviy aktivlarning oldi-sotdisi amalga oshiriladigan institutlari majmuidir.
Sh. Shoh'azamiy va boshq. Moliya bozori. O'quv qo'llanma. Toshkent - .ILM ZIYO. – 2012	Moliya bozori - oldi- sotdi obykti pul (pulga tenglashtirilgan qog'ozlar) bo'lgan bozor. Bu bozorda moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlar; pul mablag'larining uni jamg'arganlardan qarzga oluvchilarga o'tishini ta'minlaydigan bozor institutlari. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari o'z moliyaviy resurslarini mablag'larga muhtoj subyektlarga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auktsionlarda o'tkaziladi.

Moliya bozorini, umuman olganda, quyidagicha ta'riflash mumkin: moliya bozori – bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq tashkillashgan iqtisodiy - huquqiy mexanizm bilan

ta'minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot subyektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo'luvchi tizim. Ushbu tizim mexanizmi iqtisodiyotning barcha subyektlari tomonidan ularni har birining alohida manfaatli maqsadlari doirasida harakatga keltiriladi.



4.1-rasm. S. Kovalev bo'yicha moliya bozori tuzilmasi³⁵


Boshqa sohalardan farqli moliya bozori esa ushbu imkoniyatni beruvchi, uning uchun zaruriy shart - sharoitlarni yaratuvchi muhit, alohida iqtisodiy - huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan, institutlari (qatnashchilari) va ularning moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq munosabatlari majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi tizimdir.

³⁵ Ковалев В. В., Ковалев Вит. В. Финансы организаций (предприятий): учеб. — М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. — 352 с.

Aynan shu va yuqorida aytilganlar bilan moliya bozori boshqa turdagi bozorlardan keskin farq qiladi.

Moliya bozori o'z ichiga quyidagi segmentlarni (hususiy bozorlarni) oladi:

- pul - kredit (bank va boshqa kredit tashkilotlari kapitallari) bozori;
- qimmatli qog'ozlar (fond, kapitallar) bozori;
- valyuta va unga tenglashtirilgan avuarlar (qimmatbaho metallar, nodir toshlar, san'at asarlari va h.k.) bozori;
- sug'urta va pensiya fondlari bozori, lotereya o'yinlari instrumentlari (4.1-rasm).



4.2-rasm. Moliya bozorining iqtisodiy tizimdagi o'rni

Moliya bozorining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun quyidagilar mavjud bo'lishi lozim:

- samarali mulkchilik tizimi;
- investitsiya uchun mo'ljallangan yetarli jamg'armalar (moliyaviy resurslar, mablag'lar) va iqtisodiy - huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan moliyaviy instrumentlar;
- talab va taklifning o'zaro mutanosibligi;
- moliya bozori infratuzilmasining samarali faoliyati;
- bozor qonunlari, tamoyillari va qonunchiligining amalda bo'lishi;
- moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlik va xavfsizlik, risklarni oldindan bashorat qila olish.

Moliya bozorida moliyaviy resurslar jarg'armachilardan iste'molchi-larga tomon va aksincha yo'nalishda harakat qiladi. Bunda jamg'armalar investitsiyalarga transformatsiyalanadi (4.2-rasm).

Moliya bozorida resurslar harakati quyidagi omillarga bog'liq:

- bozorning daromadlilik darajasi;
- soliqqa tortish shart - sharoitlari;
- kapitalni yo'qotish yoki ko'zda tutilgan foydani ololmaslik xatari;
- bozorning samarali institutsional tuzilmasi;
- bozorning nazorat qilinishi;
- moliyaviy instrumentlarning real bazis bilan ta'minlanganligi va shu asosda iqtisodiyot va moliya bozorining o'zaro nisbati;
- mamlakatning taraqqiyot modeli;
- makroiqtisodiy barqarorlik;
- tashqi kuchlar va hodisalarning bozorga ta'siri va boshqalar.

Moliya bozorining yuqori darajada tashkillashganligi uning alohida faoliyat mexanizmi bilan belgilanadi. Bu mexanizm iqtisodiyotning qonun va kategoriyalarini to'liq amal qilishi negizida va davlatning tartibga solish siyosati asosida moliya bozorining barcha qatnashchilarini bevosita ishtiroki natijalari bilan

belgilanadi, davlat va iqtisodiyot subyektlari tomonidan birgalikda harakatga keltiriladi.

Moliya bozorining o'ziga xos jihatlari quyidagilardan kelib chiqadi:

- moliyaviy instrumentlar va ular bo'yicha iqtisodiy - huquqiy munosabatlarni ta'minlovchi tashkillashgan murakkab infratuzilmaga (institutsional va funktsional tuzilmaga) va faoliyat mexanizmiga ega dinamik tizim;

- ochiqlik, teng imkoniyat, erkin raqobat, obyektiv bozor bahosi, risklilik, omillar va voqelik (jarayon)arning o'lchamliligi (tahlil qilish, baholansh va bashoratlash mumkinligi);

- moliyaviy instrumentlarning monetizatsiyalashgan real bazis va sifat bilan ta'minlanganligi, standartlashganligi va unifikatsiyalanganligi;

- bozor va uning qatnashchilarining ochiqligi;

- moliyaviy instrumentlarning maqbul ko'lami va baholarini obyektiv talab va taklifdan kelib chiqqan holda shakllanishi;

- moliyaviy instrumentlarning erkin muomalasiga xizmat qiluvchi bozor infratuzilmasining mavjudligi va shu kabilar.

Moliya bozorining muhim jihatlari quyidagilar kiradi: bozor geografiyasi, bozorning tashkiliy modeli o'lchamlari, bozorning raqobatbarshlilik va xavfsizligi darajasi, bozorning risklilik darajasi, bozorning jozibadorligi, bozorning moslashuvchanlik darajasi, bozorning omillarga ta'sirchanlik darajasi va shu kabilar.

Moliya bozorining bozor munosabatlari tizimidagi ahamiyati u tomonidan quyidagi qulay shart-sharoitlarni ta'minlanishi bilan bog'liq asosiy vazifalari asosida belgilanadi:


- iqtisodiyotning real sektoriga investitsion moliya resurslarni samarali jalb qilish;

- kapitalni samarasiz tarmoqdan samaralisiga qayta taqsimlash;

- davlat byudjetiga xizmat ko'rsatish, uning kamomadini qoplash uchun pul mablag'larini samarali jalb qilish;

- iqtisodiyotning holatini aniq bozor indikatorlari yordamida baholash;

- inflyatsiya sur'atlari va valyuta kurslari o'zgarishiga operativ ta'sir ko'rsatish;
- davlatning byudjet –soliq va pul-kredit siyosatining o'zaro muvofiqligini ta'minlash;
- mulk huquqining ishonchliligini ta'min etish;
- jahon iqtisodiyotiga milliy iqtisodiyotni samarali integratsiya qilish.



4.3-rasm. Moliya bozorining funktsiyalari

Moliya bozori orqali iqtisodiyotning barcha subyektlari o'zaro bog'langan bo'lib, ularning har biri o'zining manfaati maqsadida moliyaviy instrumentlar

yordamida iqtisodiy -huquqiy munosabatlarni amalga oshiradi. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi funktsiyasi asosida uning oʻrni va rolini makroiqtisodiy jihatdan qarab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Bu ayniyatlar mamlakatda daromadlar va xarajatlar oʻrtasidagi ichki makroiqtisodiy nisbatlarning tashqi nisbatlar bilan bogʻliqligini bildiradi. Ikkala nisbat ham jamgʻarma va investitsiyalar oʻrtasidagi nisbatga olib keladi, demak, ular iqtisodiy oʻsishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Bunda moliya bozorining qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishni taʼminlashdagi oʻrni beqiyosdir. Chunki aynan moliya bozori yordamida jamgʻarmalar shakllanadi va ular samarali investitsiyalarga aylanadi.

Qisqa davr ichida iqtisodiy oʻsish moliya bozori orqali mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hisobiga erishiladi. Ammo uzoq muddatli davrda iqtisodiy oʻsish ishlab chiqarish qimmatlarini investitsiyalar hajmini kengaytirish yoʻli bilan modernizatsiyalashuvi va oshirilishini talab etadi. Makroiqtisodiy barqarorlik sharoitida investitsiyalarga boʻlgan talab moliya institutlari yordamida ichki va tashqi jamgʻarmalar hisobiga qoplanadi.

Bundan ayon boʻladiki, moliya bozori moliyaviy resurslarni (jamgʻarmalarni) iqtisodiyotda samarali taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasini amalga oshiradi va iqtisodiy holatning “barometri” vazifasini bajaradi.

Moliya bozorining asosiy maqsadi – iqtisodiyotda kapitalning erkin oqimi hamda samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi uchun yetarli va zarur sharoitlar yaratishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagilar taʼmin etilishi lozim:

- bozor iqtisodiyoti qonunlarig toʻliq amal qiluvchi mexanizm;
- samarali hususiy mulkchilik tizimi;
- monetizatsiyalashgan va real investitsion asosga ega boʻlgan moliyiy instrumentlar va ularning sifati;

- moliyaviy instrumentlarning erkin savdosini ta'minlovchi rivojlangan savdo tizimi;

- investorlarning haq-huquqlari himoyasini yuqori darajada ta'minlovchi bozor tizimi;

- moliya bozorining shaffofligi.

Moliya bozori bir qator funktsiyalarni bajaradi. Ularni to'rt guruhga ajratish mumkin: makroiqtisodiy, umumbozor, maxsus (ixtisoslashgan) va global funktsiyalar (4.3-rasm).

Makroiqtisodiy funktsiya jamg'armalarni investitsiyalarga samarali transformatsiyasini ta'minlab berishdan iborat.

Umumbozor funktsiyasi, odatda, har bir milliy bozorga mansub. Maxsus funktsiya esa uni boshqa turdagi bozorlardan farqlaydi.

Umumbozor funktsiyalarga quyidagilar kiradi:

- tijorat funktsiyasi, ya'ni bozorda daromad olishni ta'minlash funktsiyasi;
- narx funktsiyasi;
- axborot bilan ta'minlash funktsiyasi;
- tartiblashtirish (muvofiglashtirish va nazorat qilish) funktsiyasi.

Moliya bozorining maxsus funktsiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasi. Uni o'z navbatida to'rt kichik funktsiyaga ajratish mumkin: 1) moliyaviy resurslarni tarmoqlar va bozor faoliyati sohalari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash; 2) jamg'armalarni, ayniqsa aholi jamg'armalarini, noishlab chiqarish shaklidan ishlab chiqarish shakliga o'tkazish (transformatsiyalash); 3) noinflyatsion asosda davlat byudjetini moliyalashtirish; 4) pul massasini boshqarish;

- narx va moliyaviy risklarni oldini olish funktsiyasi, yoki hosilaviy qimmatli qog'ozlarni (f'yucherslar, opsiyonlar, svop, forvard va h.k.) xedjirlash.

Moliyaning globallashtirish funktsiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- moliyaviy resurslarni umumjahon miqyosida globallashtirish iqtisodiyot doirasida samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi;

- milliy moliya bozorlarini o‘zaro integratsiyalashuvi;
- moliya bozorlarini baynalmilallashuvi;
- jahondagi globallashuv jarayonlarini tezlashtirish vositasi.

Moliya bozorining asosiy funktsiyalaridan biri – moliyaviy instrumentlarning obyektiv bozor kursini (narxini) shakllantirishdir. Bunday kurs qanchalik tez shakllansa, bozorda kapital shunchalik samara bilan joylashtiriladi.

Moliya bozori vazifalarini asosiy va qo‘shimchalarga ajratish mumkin. Asosiy vazifalari uning bozor munosabatlari tizimidagi ahamiyati va qulay sharoitlarni ta’minlashi bilan ifodalanadi (ular yuqorida sanab o‘tilgan).

Moliya bozorining qo‘shimcha vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- emitentning moliya oqimlarini maqbullashtirish;
- bozor qatnashchilarining ijobiy imidjini shakllantirish;
- emitentning iqtisodiy manfaatlarini himoyalash;
- biznesni rivojlantirish va qo‘shimcha ish joylarini yaratish;
- jahon moliya tizimiga integratsiyalashish;
- siyosiy huruj, moliyaviy va iqtisodiy qiyinchilik, moliyaviy repressiya va valyutaviy interventsia vositasi sifatida ta’sir ko‘rsatish;
- investorlarning huquqlarini himoyalash va maqsad - manfaatlarini ta’minlash.

Zamonaviy moliya bozori jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining tobora kuchayishi sharoitida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir qator vazifalarni bajaradi:

1. “Iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni o‘ziga xos ko‘rsatkichlar yordamida baholash va ehtimoliy xatarlarni yo‘otishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoni beradi;

2. Moliyaviy resurslarni bozor kon’yunkturasi asosida iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida tartiblashgan tarzda samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishida vositachi vazifasini bajaradi. Bunda bozor fiskal va monetar siyosatlar yordamida tartibga solinadi;

3. "Iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish katalizatori" sifatida ilmiy - texnikaviy taraqqiyot va innovatsiyalarni rag'batlantiradi;
4. "Bozor qatnashchilari tarkibini baynalmilallashtiruvchi" sifatida iqtisodiy jarayonlarning globallashtiruvini jadallashtiradi;
5. "Moliyaviy instrumentlar va ular bilan bog'liq operatsiyalarni andozachisi" sifatida moliyaviy globallashtiruv jarayonini rivojlantiradi;
6. "Iqtisodiyot subyektlarining investitsion faolligini rag'batlantiruvchisi" sifatida iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Investitsion faollik moliya bozorida investorlarning haq - huquqlarini himoyalanganlik darajasi va risklar sharoitida moliyani samarali boshqarishga bog'liq;
7. "Bozor iqtisodiyoti sharoitida g'alayonli jarayonlarni tartibga soluvchi". Bunday jarayonlar ma'lum ko'rsatkichlar yordamida baholanib, ularning chegaraviy qiymatlarini bilgan holda ma'lum regulativ vositalar yordamida tartibga solinadi;
8. "Bozor narxlarini barqarorlashtiruvchi" sifatida bozor savdosini barqarorlashtiradi, talab va taklif muvozanatini ta'minlaydi;
9. "Iqtisodiyotni tartiblashgan faoliyatini ta'minlovchi algoritmik protsessor" sifatida barcha moliyaviy munosabatlarni bozor qatnashchilari tomonidan maqsadli strategik tarzda amalga oshirilishiga ko'maklashadi;
10. "Aktivlar sek'yurizatori" sifatida samarasiz real aktivlarni qimmatli qog'ozlarga transformatsiyalaydi, ularni qayta faol investitsion jarayonga kiritadi;
11. "Iqtisodiyot subyektlari informatori" sifatida ularning risklarini pasaytirishga (yoki boshqarishga) ko'maklashadi;
12. "Innovatsion moliyaviy vositalar (mahsulotlar va operatsiyalar) sintezatori" sifatida raqobatbardoshlik va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydi;
13. "Moliyaviy vositalarning maxsus industriyasi" sifatida bozor qatnashchilari uchun moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq faoliyat bo'yicha ishlab chiqarish jarayonini tashkillashtiradi;

14. “Iqtisodiyotning investitsion muhiti sifati va muammolari darajasini analizatori” ;

15. “Bozor qanashchilariga o‘z muammolarini anglashga, baholashga va hal qilishga ko‘maklashadigan mexanizm”ni taqdim qiladi;

16. “Ekvivalent ko‘zgu” sifatida barcha bozor qatnashchilarining faoliyat natijalari sifatini bevosita va bilvosita aks ettiradi hamda kelajakdagi strategiyalarini maqsadli qurishga ko‘maklashadi;

17. “Spekulyativ operatsiyalar totalizatori” sifatida bozor qanashchilarini kutilajak, ammo riskli, manfaatlar tomon chorlaydi. Bunda emitentlar qimmatli qog‘ozlari sifatini spekulyativ investorlarning orzuli maqsad-manfaatlarini kerakli (spekulyativ) darajada ta‘minlashga majburlar, aks holda investorlardan mahrum bo‘ladilar;

18. “Moliya bozori qatnashchilarini yaxlit infratuzilmaviy tizimga birlashtiruvchi” sifatida har bir qatnashchining o‘z o‘rni, maqsad va vazifalari, funktsiyalari, bir-biri bilan bog‘liqlikdagi tartibli faoliyatini ta‘minlaydi;

19. “Moliyaviy mahsulotlar (instrumentlar), resurslar va xizmatlar gipermarketi” sifatida barcha bozor qanashchilarini ularning tovarlarini obyektiv narxlarda almashinuvi borasida uchrashtiradi va manfaatlarini qondirish uchun kerakli sharoitlarni yaratadi;

20. “Bozor muhiti” sifatida bozorda erkin iqtisodiyot qonunlarining amal qilishi, iqtisodiyotning monetizatsiyalashuvi, kapital aylanmasi va transformatsiyasi, aktivlar sek’yuritizatsiyasi tamoyillarini ta‘minlaydi;

21. “Moliyaviy globalashtiruvchi” sifatida yuqorida keltirilgan rollar asosida milliy iqtisodiyotlar birlashuvini ta‘minlaydi, bozor qatnashchilarining xalqaro darajada faoliyat chegaralari va ta‘sirini kengaytiradi, davlatning tartibga soluvchi o‘rnini cheklaydi, resurslar oqimi geografiyasini kengaytiradi va samaradorligini oshiradi;

22. “Moliyaviy instrumentlarning obyektiv kurslarda konvertori” sifatida valyutalarni va qimmatli qogʻozlarni erkin bozor baholarida va hajmlarida raqobatli almashinuvini taʼminlaydi.

Moliya bozori, jumladan qimmatli qogʻozlar bozori, faoliyat koʻrsatishining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- barcha potentsial investorlar oʻz mablagʻlarini foydali tarzda joylash-
tirishlari uchun ularga teng shart-sharoitlar yaratib berish;
- bozorda tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligi;
- erkin raqobat yoʻlidagi toʻsiqlarni bartaraf etish;
- narxlarni real tarkib topadigan talab va taklif asosida belgilash;
- bozor toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga barcha qatnashchilarning rioya
etishi;
- birja va birjadan tashqari operatsiyalar, kotirovkalar, emitentlarning
moliyaviy holati toʻgʻrisidagi axborot oshkor etilishining shartligi;
- oʻz faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirayotgan barcha
investorlar va emitentlar uchun bozordan foydalanish mumkinligi;
- moliyaviy instrumentlar (qimmatli qogʻozlar) va ularning emitentlariga
doir axborotning toʻla oshkor etilishi, oshkoralik va bu axborotdan barcha
qatnashchilar foydalana olishini taʼminlash;
- investorlar va emitentlarning manfaatlarini himoya qilish;
- bozorda tovlamachilik va boshqa noqonuniy faoliyatni taʼqiqlash hamda
taʼqib qilish.

Moliya va qimmatli qogʻozlar bozori faoliyat koʻrsatishining asosiy tamoyillariga rioya etilishi davlatning tartibga solishga oid chora-tadbirlari bilan birga fond birjalari va bozor qatnashchilarining birlashmalari (uyushmalari) ishlab chiqqan qoidalarini uygʻunlashtirish asosida taʼminlanadi.


4.2. Moliya bozorining tuzilmasi va tarkibiy qismlari

Zamonaviy moliya bozori koʻp qirraliligi bilan iqtisodiyotda alohida ahamiyat kasb etadi. Uning oʻziga xos jihatlarini tushunib olish uchun uni

tasniflash katta ahamiyatga ega. Chunonchi tasniflash bu boradagi tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini, uning hossalari va hususiyatlarini, uni tashkiliy asoslarini, undagi jarayonlar va qonuniyatlarni iqtisodiyot bilan bog‘liqligini chuqurroq ochib berishga va tushunishga xizmat qiladi.

Moliya bozori atamasi juda keng tushunchadir. U haqiqatdan ham keng ma’noli va murakkab iqtisodiy toifani tashkil qiladi hamda muayyan moliya muassasalari orqali o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilari o‘rtasidagi munosabatni tasvirlaydi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti uchun moliya bozori o‘ziga xos “asab markazi” hisoblanadi, uning rivojlanish darajasiga qarab mamlakat iqtisodiyotining “ahvoli” haqida fikr yuritish mumkin, chunki moliya bozoriga ta’sir ko‘rsatish asnosida, jamiyatning iqtisodiy faolligini boshqarish mumkin.

Moliya bozori - jamiyatdagi moliya xizmatlari bozori; moliya mablag‘larini vaqtincha haq to‘lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo‘lgan munosabatlar. Banklarda, fond birjasida va auktsionlarda o‘tkaziladi. Moliya bozori tarkibi murakkab, unga qimmatli qog‘ozlar bozori, valyuta bozori, sarmoya bozori kabilar kiradi. Moliya bozorida aktsiya, obligatsiya, sertifikat, valyuta oldi-sotdi qilinganda ular sotuvchi mulkidan haridor mulkiga aylanadi. Ular pul o‘rnida bozorda foydalanib turish uchun beriladi, bo‘sh turgan mablag‘ni xo‘jalik oborotiga tushirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni valyuta bilan ta’minlash kabi muhim vazifa-larni ado etadi. U bozor iqtisodiyotining infratuzilmasi faoliyati orqali yuzaga chiqadi. Moliya bozorlari va ularga faoliyat ko‘rsatadigan moliya muassasalari mamlakatning moliya tizimini tashkil qiladi.



4.4-rasm. Moliya bozorining tarkibiy tuzilishi

Har qanday iqtisodiyotda jamg'armalardan samarali foydalanish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixida ulardan foydalanishning eng keng tarqalgan ikki usuli ma'lum: naqd pullarni saqlash ("gilam tagiga tashlab qo'yish" yoki omonat banklariga qo'yish) yoki qimmatli qog'ozlar sotib olish. Jamg'armalarning asosiy qismini uy xo'jaliklari va oilalar ta'min etsalar, investitsiyalarni aksariyat hollarda xo'jalik yurituvchi subyektlar amalga oshiradilar. Iqtisodiyotning tadrijiy taraqqiyoti davomida bu pul oqimlarining birinchisidan ikkinchilariga o'tishni tartibga solib turadigan muassasalar, vositalar to'plamiga ega muayyan mexanizm ishlab chiqilgan. Moliya bozori ana shunday mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Hozirgi zamon moliya bozorining asosini ko'p sonli moliya muassasalari yoki vositachilar tashkil qiladi.

Shu bilan birga, moliya bozorlari pul mablag'lari jamg'armalarning egalalaridan qarz oluvchilarga boradigan ko'plab turli-tuman yo'llar bilan ta'minlanib turadi. Iqtisodiy adabiyotda ular ikki asosiy guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhga pul mablag'lari bevosita jamg'armalarning egalaridan qarz oluvchilarga boradigan mablag' bilan bevosita moliyalash yo'llari kiradi. Ular o'z navbatida ikki turga bo'linadi: kapital moliyalash- unga muvofiq tadbirkor mablag'ni mulkning bir qismiga almashtirish hisobiga oladi (oddiy aksiyalar) va qarz olish yo'li bilan moliyalash - unga muvofiq firma mablag'ni oldindan kelishilgan foiz bo'yicha keyin to'lash va firmaga egalik qilish huquqini olmaslik sharti bilan oladi (obligatsiyalar). Bu barcha qimmatli qog'ozlar qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishini belgilaydi.

Ikkinchi guruhga bilvosita mablag' bilan ta'minlashga omonatchilarning mablag'larini moliya muassasalariga: tijorat banklari, sug'urta va trast kompaniyalari, nafaqa fondlari va hokazolarga qo'yishga doir barcha operatsiyalar kiradi. Masalan, moliya muassasalari mayda va yirik omonatchilarning mablag'laridan foydalanib, turli-tuman loyihalarni mablag' bilan ta'minlaydi. Mablag' bilan ta'minlashning "bilvositaligi" shundaki, omonatchilarning o'zlari mablag'larini ushbu loyihalarga bevosita qo'ymaydilar.


Jismoniy va yuridik shaxslarning uzoq muddatli pul omonatlari moliya vositachilari tomonidan investitsiya kreditlari sifatida berish uchun foydalaniladi, investitsiya kreditlari uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bilan birga sarmoyalar bozorida oldi-sotdi qilinadi. Omonatlarni faqat uzoq muddatli investitsiyalarga qo'yish shart emas, ularga umri qisqa qimmatli qog'ozlar- qisqa muddatli xazina majburiyatlari, veksellar va hokazoni sotib olish mumkin.

Sarmoya (kapital) bozori, ssuda kapital bozori- iqtisodiy munosabatlar tizimi, bo'sh turgan pul vositalarini to'plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so'ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari o'rtasida qayta taqsimlash

munosabati. O'z vazifasi, xizmat ahamiyatiga ko'ra kapital bozori pul bozori (qisqa muddatli) va kapital bozoriga bo'linadi. Pul bozori aksariyat aylanma kapital harakatiga xizmat ko'rsatadi, kapital bozori esa asosiy kapital harakatini va uni kengaytirish imkoniyatlarini ta'minlaydi. O'rta muddatli (2-10 yil) va uzoq muddatli (10 yildan ortiq) bank kreditlari berish bilan amalga oshiriladi. Manbalari va kiritilgan sohalariga qarab, xalqaro va milliy kapital bozorlari farqlanadi.

Ssuda – moddiy boyliklar garovi hisobiga foiz olish sharti bilan muayyan muddatga beriladigan qarz. Pul paydo bo'lgach uning asosan pul shakli keng qo'llanildi. Aksariyat banklar korxonaning maqsadlari bo'yicha ya'ni muayyan maqsadlarni moliyalash uchun maqsadli ssuda beradi. Qisqa (1 yilgacha) va uzoq (bir necha yilga) muddatli ssudalar bor. Ssuda muddatida qaytarilmasa, bank garov mulkni avaxta qilishi va uni sotib, ssuda bo'yicha uzilmagan qarzni qoplashi mumkin. Qimmatli qog'ozlarni ham garovga qo'yib, ular evaziga ssuda olish uchraydi. Qarz to'langach, qog'ozlar qaytarib beriladi.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning qisqa muddatli omonatlari hamda pul massasining boshqa unsurlari bilan birga ular pul bozorini tashkil qiladi. Pul bozori Markaziy bankning pul-kredit siyosatini joriy qilish obyekti hisoblanadi. U kredit muassasalarining aktivlari bilan savdo qilish uchun mo'ljallangan; bu aktivlar Markaziy bankda kredit muassasalarining eng muhim likvid mablag'lari zahiralar bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, aktivlarni qimmatlashtirib yoki arzonlashtirib, ko'paytirib yoki kamaytirib, Markaziy bank banklarning kredit siyosatiga va kredit bozoridagi vaziyatga ta'sir ko'rsatadi.



4.5-rasm. Qimmatli qog'ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozori

Pul mablag'lari bilan bevosita naqd pul tushishini ta'minlaydi va firma yoki jismoniy shaxsga o'zlarining vaqtinchalik bo'sh mablag'laridan daromad olishga imkon beradi. Pul bozorisiz to'liq ma'nodagi moliya bozori bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 03 iyundagi O'RQ-387-son "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunining 3-moddasiga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bozori- bu jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularning muomalada bo'lishi va so'ndirilishi bilan bog'liq munosabatlari tizimidir³⁶.

³⁶ <https://lex.uz/docs/2662539>

Har qanday bozorlarning birinchisida kapital yetkazib beruvchilar - bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lgan va ularni saqlash hamda ko'paytirishni istovchi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlat turadi. Ikkinchisida esa - yangi ishlab chiqarishni boshlash, ishlar, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlab turgan quvvatlarni zamonaviylashtirish, kengaytirish, qayta ta'mirlash uchun zarur bo'lgan boshlang'ich yoki qo'shimcha kapitalga muhtoj bo'lgan bozor subyektlari turadi. Kapitalning iste'molchilari sifatida korxonalar, tashkilotlar, aholi, shuningdek, davlat ham ishtirok etishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozori tashkiliy jarayon nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi:

- qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozoriga;
- qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozoriga;
- shaklan esa qimmatli qog'ozlarning birjaviy bozoriga;
- qimmatli qog'ozlarning nobirjaviy bozoriga (4.5-rasm).

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori-bu qimmatli qog'ozlar emissiyasini va birlamchi joylashtirilishini amalga oshirish, ya'ni qimmatli qog'ozlarni emitent yoki uning vakili tomonidan dastlabki sarmoyadorga sotish bozoridir. Emitent tomonidan qimmatli qog'ozlarning takroriy chiqarilishi (masalan, ustav fondini oshirish maqsadida) yoki ikkilamchi emissiyasi ham birlamchi bozor doirasiga kiradi. Birlamchi bozorning eng muhim tavsifi, emitentlar tomonidan axborotning oshkor etilishidir. Bunda emitent haqida to'liq ma'lumotlar beriladigan emissiya prospektini yoki qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilishdan tortib, to fond bozori sohasida nazorat vazifalarini amalga oshiruvchi maxsus davlat idoralariga taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish haqidagi hisobotgacha oshkor etiladi.

Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori-bu ilgari chiqarilgan va hech bo'lmaganda bir marta harid qilingan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi (muomalasi) amalga oshiriladigan bozordir.

Aynan qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorining rivojlanish darajasiga qarab, ushbu mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorining taraqqiy etish darajasi to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. Ikkilamchi bozorining asosiy ko'rsatkichlaridan biri likvidlilik hisoblanadi. Bozorning likvidliliigi-bu ma'lum vaqt oraliig'ida bozor narxlarining kam miqdorda o'zgarib turgani holda qimmatli qog'ozlarning katta qismini yuqori sur'atda aylanishini ta'minlash imkoniyatidir.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozori-bu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi sohasi bo'lib, unda qimmatli qog'ozlar operatsiyalari ushbu bitimlar ishtirokchilari uchun qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan belgilangan tadbirlar va shartlar bilan tartibga solingan.

Qimmatli qog'ozlarning uyushmagan bozori-bu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi sohasi bo'lib, unda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar savdolar tashkilotchilarining ushbu bitim predmeti va uning ishtirokchilariga nisbatan qo'ygan talablariga rioya etilmagan xolda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozorlari ham mavjud. Qimmatli qog'ozlarning birja bozori - bu qimmatli qog'ozlar bilan fond bozori doirasida uyushgan tarzda savdo qilish sohasidir. Fond birjasi qimmatli qog'ozlar bilan fond birjasi doirasida savdo qilish uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi alohida muassasa bo'lib, unda savdo faqat qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan maxsus qoidalar bo'yicha olib boriladi.

Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari bozori - bu fond birjasidan tashqarida qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish sohasidir.

Mamlakatimizda Fond bozorining institutsional rivojlanishi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- 1) davlat korxonalarini xususiylashtirish va xususiylashtirilgan korxonalar aktsiyalarini muomalaga chiqarish;
- 2) davlat ishtirokisiz yangi aktsiyadorlik jamiyatlarini yaratishda ustav kapitalini shakllantirish;

3) to'lovga layoqatsizlik muammosi va bu borada muomalada o'ziga xos moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi–veksellar;

4) O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti kamomadini noinflyatsion usullar bilan moliyalashtirish amaliyotini ishlab chiqish;

5) korxona va tashkilotlarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish va ularni shakllantirishning noan'anaviy manbalaridan foydalanish uchun o'z aylanma mablag'lari manbalarining yetishmasligi–korporativ obligatsiyalar;

6) bank rivojlanishining yuqori sur'atlari va bank majburiyatlarini shakllantirish uchun o'ziga xos bank qimmatli qog'ozlarini chiqarish – depozit va omonat (omomat) sertifikatlari;

7) korxona, tashkilotlar va aholi jamg'armalarining jamg'arish darajasini oshirish, ularni ko'paytirishga intilish;

8) O'zbekistonga xorijiy kapital oqimini ko'paytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi PF-6207-son "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni³⁷ da mamlakatimizda fond bozorini rivojlantirish borasidagi qator kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan, xususan:

kapital bozorini rivojlantirish sohasida davlatning strategik rejalashtirish tizimi mavjud emas;

erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan ulushi past (0,3 foiz);

fond bozorida amalga oshirilayotgan bitimlarning yuqori qismi (birjadagi hajmlarning 70 foizidan ortig'i) davlat ishtirokidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda;

qimmatli qog'ozlar bozorining likvidligi past, davlat qimmatli qog'ozlari ikkilamchi bozorini rivojlantirish zaruriyati mavjud, amaliyotga joriy etilgan moliyaviy mahsulotlar turlari yetarli emas, davlat aktsiya paketlari "bitta aktsiya

³⁷ <https://lex.uz/ru/docs/5371091>

bitta lot” tamoyili asosida sotilmaydi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qimmatli qog‘ozlar bozorida mablag‘ jalb qilishga bo‘lgan qiziqishi past;

kapital bozoriga uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ega yirik institutsional investorlarni jalb qilish bo‘yicha ishlar sust olib borilmoqda;

bozor infratuzilmasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan yetarli darajada ta‘minlanmagan, shuningdek, ushbu sohada mahalliy tizimlarning imkoniyatlaridan samarasiz foydalanilmoqda;

mintaqaviy darajada kapital bozori infratuzilmasi mutlaqo rivojlanmagan;

kapital bozori sohasida bozor kapitallashuvini oshirish choralari faol ravishda ilgari surish va amalga oshirishga imkon beradigan yuqori malakali mutaxassislar etishmaydi;

sohani nomutanosib tartibga solishni nazarda tutuvchi hamda zamonaviy bozor talablariga va xalqaro standartlarga javob bermaydigan huquqiy hujjatlar ko‘p;

korporativ munosabatlar zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilmagan.

Ushbu kamchiliklar kapital bozorining ulkan salohiyatidan foydalanishga, uning kapitallashuvi va likvidligini lozim darajada ta‘minlashga, investitsiyalarni samarali jalb etishga, iqtisodiyot hamda davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalari rivojiga to‘sqinlik qilmoqda.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2021-2023 yillarda kapital bozorini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, dasturda 2023 yilgacha bo‘lgan muddatda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

investorlar uchun jozibador mexanizmlarni joriy qilish hisobiga kapital bozorining raqobatbardoshligini oshirish va uning kapitallashuvini 2023 yil yakuniga qadar 45 trln so‘mga yetkazish, bank tomonidan kreditlashning samarali muqobil mexanizmini yaratish;

xalqaro moliya bozorlari bilan faol integratsiyalashuv, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish va xorijda muvaffaqiyatli

sinovdan o'tgan ilg'or yondashuvlardan foydalanish orqali barcha toifadagi investorlar uchun kapital bozorining qulayligini oshirish;

aholi, tadbirkorlar va iqtisodiyotning investitsiyaviy talablarini maksimal darajada qanoatlantirish maqsadida kapital bozorining uyg'un faoliyati va uning barcha segmentlari rivojlanishini ta'minlash orqali 2023 yil yakuniga qadar respublika va hududiy investitsiya dasturlari doirasida loyihalarning qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali moliyalashtirilgan qismini 5 foizga yetkazish;

ilg'or xalqaro amaliyotni joriy qilish, ortiqcha to'siqlar, cheklovlar va sohaning haddan tashqari tartibga solinganligini bartaraf etish orqali fond bozorida rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni faol moliyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

tegishli xalqaro mezonlar va tajribalarni joriy qilgan holda, kapital bozorini tartibga solishning yaxlitligini, tizimli tavakkalchiliklarning oldini olishni ta'minlovchi zarur qonunchilik bazasini ishlab chiqish;

kapital bozorini zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar bilan ta'minlashning barqaror tizimini rivojlantirish, istiqbolli, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish uchun jozibador shart-sharoitlarni yaratish;

kapital bozori uchun mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tizimli yo'lga qo'yish;

minoritar investorlar, kapital bozorining boshqa ishtirokchilari hamda aholi keng qatlamlarining bilimlari, ko'nikmalari va moliyaviy savodxonligini oshirishni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida 2023 yil yakuniga qadar 40 ming nafar aholini qamrab olish.


4.3. Moliya bozoridagi bitim va operatsiyalar mazmuni, ularning turlari

Moliyaviy bitim – odatda ikki tarafning moliyaviy instrument bo'yicha mulkiy huquqni o'tishi yoki moliyaviy xizmat ko'rsatish to'g'risidagi ihtiyoriy kelishuvi bo'lib, o'zida taraflarning kelishilgan predmeti bo'yicha huquqlari, majburiyatlari, javobgarliklari, o'zaro hisob-kitob shartlari, bajarish muddatlari va boshqa qo'shimcha shartlarni ifodalaydigan yuridik hujjat hisoblanadi. Moliya

bozorlari ishtirokchilari va moliyaviy bitim tomonlari jismoniy va yuridik shaxs bo'lishlari mumkin (4.6-rasm).

Moliyaviy bitim predmeti doirasida quyidagilar operatsiyalarni amalga oshirish uchun asos bo'lishi mumkin: sotish va sotib olish, mulkka egalik huquqini berish, xizmat ko'rsatish va h.k.

Shartnoma bo'yicha moliyaviy instrument bilan bog'liq operatsiya yoki xizmat – bu taraflarning kelishuvi asosida belgilangan tartibda bajaradigan hatti-harakatlari kema-ketligi majmuasi.



4.6-rasm. Moliya bozorlarining asosiy ishtirokchilari

Bitimni quyidagi jihatlar (aspektlar) nuqtai nazaridan ko‘rish mumkin:
tashkiliy-texnik, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy-etik.

Shartnomada quyidagilar bo‘lishi lozim:

- shartnomaning nomi, raqami, sanasi, tuzilish joyi;


Moliya bozorlaridagi bitimlar

Muzokarali (manzilli) bitim	REPO bitim (lombard bitimi), teskari REPO bitim	Kassa va muddatli bitim (muddati kechiktirilgan)
Birjali (manzilsiz) bitim, tashkillashtirilgan bozor bitimi	Birja bitimi (professional ishtirokchilar bilan bitim, birja terminallarida hisoblanadi)	Marjinallashtirilgan bitim, kredit yelkasidan foydalaniluvchi bitim
Sotib olish (uzun pozitsiya)	Qoplanmagan sotish (qisqa pozitsiya)	Meros, ehson
Huquqlarni berish	Egalik huquqini qayd qilish va hisoblash	Hisob-kitob netting (o‘zaro majburiyatlarni hisobga olish)

4.7-rasm. Moliya bozoridagi bitimlar

- shartnoma taraflarining nomi, uni tuzishga mas’ul shaxslar va asos;
- shartnoma predmeti va obyekti;
- iqtisodiy ko‘rsatkichlar (obyekt soni, hajmi, narxi va boshqa ko‘rsatkichlari);

- shartnomani bajarish muddati, o‘zaro hisob-kitob sharti, muddati va shakli;
- taraflarning huquq va majburiyatlari, shartnomani bajarmaslik yoki belgilanganidek, bajarilmasligi uchun javobgarlik;
- alohida va qo‘shimcha shartlar;
- taraflarning yuridik adreslari, rekvizitlari va muhrlari bilan tasdiqlangan imzolari (4.7-rasm). Shartnoma yuridik tasdiq yoki hulosaga ega bo‘lishi shart. Ma’lum holatlarda notarial tasdiqlanishi mumkin. O‘zaro shartnomalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki vositachi orqali tuzilishi mumkin.



4.8-rasm. Moliyaviy operatsiyalar

Hozirgi paytda O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayoni moliya bozoridagi operatsiyalarni tartibga soladigan, fond bozorini rivojlantirishni yo‘lga qo‘yadigan barqaror faoliyat yurituvchi iqtisodiy tizimni vujudga keltirishni ko‘zda tutadi.

Moliya bozoridagi operatsiyalarni bajarish va ular hajmini oshirishdan maqsad qimmatli qog'ozlar va pul bozorini rivojlantirish, kapital bozori orqali ishlab chiqarishni takomillashtirish va respublikamizning eksport salohiyatini oshirish, xorij kapitalni jalb qilishdan iboratdir (4.8-rasm).

Yuqorida zikr etilgan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida investor ham, emitent hamda moliya bozorining boshqa ishtirokchilari ham moliyaviy xatarlar bilan to'qnash kelishlari tabiiydir. Shunday ekan moliya bozoridagi operatsiyalarning daromadlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, unga ta'sir etuvchi xatarlarning paydo bo'lishi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Moliya bozori ishtirokchilarining ba'zi birlari faoliyati xatarni yuza keltirish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi bir toifa borki, yuzaga kelgan xatarlar darajasini eng past darajaga tushirishga harakat qiladilar. Zimmaga olinadigan xatar va moliya bozori faoliyatidan ko'zlangan daromad o'rtasida muayyan aloqa mavjud. Katta daromad olish yuqori xatar bilan bog'liq bo'lgani holda, xatarlarning past darajasida yuqori daromad olish ehtimoli shuncha past bo'ladi.

Moliya bozoridagi operatsiyalar bir necha bosqichda amalga oshiriladi, ularning asosiylari quyidagilar:

- bitim tuzish;
- tuzilgan bitim ko'rsatkichlarini solishtirib chiqish;
- kliring;
- bitimni ijro etish, ya'ni to'lovlarni amalga oshirish.

Bitimning birinchi bosqichi shartnoma tuzishdir. Biz qimmatli qog'ozlar borasida tuziladigan bitimlarning eng keng tarqalgan turi oldi-sotdi shartnomasi haqida gap yuritamiz, chunki har qanday bitim bosqichlari texnik jihatdan oldi-sotdi bitimining asosiy bosqichlaridan farq qilmaydi. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlarga doir barcha bitimlarning bir - biridan asosan tegishli shartnomaning tuzilish usuli, joyi va tartibi bilangina farqlanadi.

Qimmatli qog'ozlarning oldi - sotdi shartnomasi shu qog'ozlarning egalari bo'lgan investorlar o'rtasida bevosita tuziladi. Biroq, ko'pincha, qimmatli

qog'ozlarga doir oldi-sotdi ishlari moliya bozorining professional ishtirokchilari – brokerlar ko'magida amalga oshiriladi. U yoki bu mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq, malakali brokerlik firmalari, ixtisoslashgan investitsiya banklari, universal tijorat banklari, fuqarolar brokerlik bilan shug'ullanishlari mumkin. Bitim birinchi bosqichning yakuni ishtirokchilarining har qaysisi tomonidan bitim tuzilganligi va uning asosiy ko'rsatkichlarni aks ettiradigan ichki hisobga olish hujjatlarini tuzish hisoblanadi.

Bitimlar tuzish texnikasiga qarab, bu hujjatlar oldi-sotdi shartnomalarining imzolangan blankalari, operatsiyalar jurnallaridagi yozuvlar, brokerlik va maklerlik yozuvlari, treyderlarning "bildirgilari", ijro etilgan ariza blankalaridagi belgilar, bitimlar bo'yicha kontragent-larning yozuvlari, hisobot komp'yuter fayllari va ularning qog'ozga tushirilgan ko'rinishlari bo'lishi mumkin. Faqat hozirgi elektron texnika-sigina bitimning barcha bosqichlarini qisqa muddatda o'tishini tezlashtirish mumkin. Hozirgi zamon elektron birjalarda va kliring tashkilot-larida bitimning barcha bosqichlari bir kunda o'tadi, ba'zan esa bitimni tuzish va kliring tadbirlari bir kunning o'zida amalga oshiriladi. Lekin ko'p narsa birjalar va kliring tashkilotlarining elektron hujjat aylanishi u yoki bu mamlakatdagi pul hisob-kitoblari va qimmatli qog'ozlarni yetkazib berish tizimlari bilan uyg'unlashishiga bog'liq..

Shartnomalarda quyidagi operatsiyalar nazarda tutilishi mumkin: birjaviy, birjadan tashqari, ulgurji, chakana, yirik, mayda, ichki, tashqi, kassaviy, muddatli, to'liq, bo'lingan, martta ko'paytirilgan, oddiy, murakkab, tezkor, muddati cho'zilgan, uzoq muddatli, bog'liq, bir martalik, qarama-qarshi, to'g'ridan-to'g'ri, teskari, yordamchi va h.k. Shartnomalar faoliyat (xizmat) turlari, maqsadlari, moliyaviy instrumentlar bo'yicha farqlanishi mumkin.

Har bir operatsiya qonunchilikda belgilangan tartibda, muddatda, hajmda va narxda bajariladigan maqsadli hatti-harakatlarning ma'lum kema-ketligi (me'yorlangan algoritmi) to'plamidan iborat bo'ladi.

Operatsiyani bajarish algoritmi – bu maqsadga erishish borasidagi tartibli hatti-harakatlarning kema-ketligi.

Shartnomani bajarish algoritmi – bu shartnomaning maqsadiga erishish bo'yicha taraflarning bajaradigan operatsiyalarining me'yorlangan tartibi.

Moliya bozori instrumentlari mazmun - mohiyati ularning bozori bilan hamohang birlikda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan instrumentariy (terminologiya) va usulologiya bilan aniqlanadi. Bunda ularning turlari, jihatlari, chiqarish va muomala jarayonlaridagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar, bajaradigan funktsiyalari ifodalanadi.

Moliyaviy instrumentlarning mazmun - mohiyatini ochib berish uchun uning instrumentariysini tashkil etuvchi jahon moliya bozori nazariyasi va amaliyotidagi mavjud zamonaviy kontseptual tushunchalarga tayanish lozim.

Shu tariqa, moliyaviy instrumentning zamonaviy tushunchasini avvalgilarga asoslanib, lekin hozirgi zamon jahon moliya bozorining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagicha ta'riflash mumkin: moliyaviy instrument – bu, umuman olganda, monetizatsiyalashgan real bazisga ekvivalent qiymat va jihatlarga ega bo'lgan, maxsus iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan, moliya bozori-dagi munosabatlarni belgilovchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlovchi, muayyan hollarda ma'lum shakllarda daromad keltiruvchi vosita sifatida har hil turlarda, shakl va mazmunlarda namoyon bo'ladigan ham investitsion kapital (aktiv, jamg'arma), ham to'lov vositasi va ayni paytda, alohida moliyaviy tovaridir.

Moliyaviy instrumentlar yordamidagi resurslar harakati quyidagi omillarga bog'liq:

- moliyaviy instrumentlarning daromatlilik va risk darajasi;
- moliyaviy instrumentlarni soliqqa tortish shart-sharoitlari;
- moliyaviy instrumentlarning real asos bilan ta'minlanganligi va shu asosda iqtisodiyot va moliya bozorining ekvivalentligi;
- jamiyatning mentaliteti va tanlab olgan rivojlanish modeli;

- makroiqtisodiy barqarorlik;
- tashqi omil va jarayonlarning moliyaviy instrumentlar bozoriga ta'siri va boshqalar.

Moliyaviy instrumentga xos quyidagi belgilarni keltirish mumkin:

- har bir turga mos maqsad va vazifalar, moliyaviy instrumentlar bozori va uning muomala mexanizmi;
- har bir moliyaviy instrumentning mos rekviziti, shakli, muddati, soni va narxi;
- monetizatsiyalashgan real asos bilan ta'minlanganligi;
- har bir moliyaviy instrumentning bozor indikatorlari;
- har bir moliyaviy instrumentni muomalaga chiqarish shartlari va h.k.

Ushbu atributlarning oxirgi uchasi moliyaviy instrumenning o'z bozoridagi quvvat potentsialini belgilaydi.

Moliyaviy instrumentning mazmuni va uning funktsiyalari u bilan bog'liq iqtisodiy-huquqiy munosabatlar asosida belgilanadi. Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqqan holda moliyaviy instrumentlarning quyidagi funktsiyalarini ta'kidlash mumkin:

- o'ziga xos bozor orqali moliyaviy resurslarni iqtisodiyot subyektlari o'rtasida samarali taqsimlash va qayta taqsimlash;

- pul bilan bir qatorda, muayyan bir vaziyatlarda kvazipullardan to'lov vositasi sifatida foydalanish;

- bir vaqtda iqtisodiy va yuridik mazmunni o'zida mujassamlashtirgan holda uning egasi, emitenti va davlat o'rtasidagi iqtisodiy - huquqiy munosabatlarni belgilash;

- o'z egalariga kapitalga egalik huquqi bilan birga boshqa ma'lum qo'shimcha huquqlarni (masalan, ovoz berish, boshqaruvda ishtirok etish, ma'lumotga ega bo'lish, kreditorlik mavqei va h.k.) berish;

- alohida tovar sifatida muomalada bo'lish, bozor kon'yunkturasi va biznes sifatini belgilash; emitent va bozor holati to'g'risida axborot bilan ta'minlash;

- investitsion aktiv va jamg'arma sifatida xizmat qilish;
- risk sharoitida kapital bo'yicha daromad olishni, kapitalni qaytarilishini ta'minlash va shu kabilar.

Zamonaviy moliya bozorida turli moliyaviy instrumentlar mujassamlashgani holda, ularni bir necha belgilar asosida tasniflash talab qilinadi.

Muomalaga chiqarilish maqsadi – to'lov va pul aylanmasi uzluksizligini ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish va ular bo'yicha daromad olish bo'yicha, mos ravishda: kredit-pul siyosatini amalga oshirishning qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi moliyaviy instrumentlar (davlat va bank instrumentlari), qarz (davlat va korporativ maqsadda) va ulush (korporativ maqsadda) munosabatlarni ifodalovchi investitsion moliyaviy instrumentlar.

Moliya bozorining u yoki bu segmenti bo'yicha: pul, kredit, valyuta, sug'urta, lotereya o'yinlari, qimmatli qog'ozlar (fond, kapital) bozorlari instrumentlari.


Bazisiga ko'ra: pul, valyuta, sug'urta, tovar (jumladan xomashyo), ko'chmas mulk, foizli, qimmatli qog'oz bazisli moliyaviy instrumentlar.

Iqtisodiyotning u yoki bu subyektiga ko'ra: davlat boshqaruvi va hokimiyatlari, banklar-kredit muassasalari, sug'urta tashkilotlari, birjalar, nomoliya tashkilotlari (korporativ) instrumentlari.

Chiqarilish muddati bo'yicha: qisqa, o'rta va uzoq muddatli moliyaviy instrumentlar.

Iqtisodiy-huquqiy mazmuni bo'yicha: qarz va ulushli hamda hosilaviy bo'lgan (bazis, muddat, huquq va majburiyatlarni mujassamlash-tiruvchi) moliyaviy instrumentlar.

Iqtisodiy-huquqiy jihatlariga ko'ra moliyaviy instrumentlarni bazaviy va bazisli moliyaviy instrumentlar guruhiga ajratish mumkin. Bazaviy instrumentlarga ulush va qarz munosabatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi emissiya qilinuvchi (derivativlardan tashqari) va emissiya qilinmaydigan qog'ozlar kiradi. Bazisli moliyaviy instrumentlarga esa derivativlar (hosilaviy qimmatli qog'ozlar) kiradi.



4.9-rasm. Moliyaviy instrumentlar

Chiqarilish va muomala doirasi bo'yicha: alohida mamlakat, hudud va halqaro miqyosda chiqariluvchi va muomalada bo'luvchi moliyaviy instrumentlar ajratiladi.

Shaxslarga nisbatan cheklashlar bo'yicha: barchaga va cheklangan shaxslarga sotiladigan moliyaviy instrumentlar farqlanadi.

Shakli bo'yicha: maxsus blanklar ko'rinishida va elektron hisoblarda yuritiluvchi moliyaviy instrumentlarga ajratiladi.

Vazifalari bo'yicha: subyektlarning ichki va tashqi iqtisodiy maqsad-manfaatlarini qoniqtiruvchi moliyaviy instrumentlar mavjud bo'ladi.

Funktsiyasi bo'yicha: investitsion instrumentlar (qimmatli qog'ozlar), banklarning moliyalashtirish instrumentlari (kredit, depozit, seleng, plastik kartochkalar, cheklar va h.k.), riskni moliyalashtirish instrumentlari (sug'urta polislari), to'lov instrumentlari (milliy va xorijiy valyuta, halqaro valyuta, kvazivalyuta (psevdovalyuta), birja kotrovkasiga ega bo'lgan valyuta sifatida o'tuvchi oltin, platina, kumush, kamyob unsurlar, qimmatbaho toshlar va h.k.), tovar taqsimlovchi instrumentlar (tovar varranti, konosament, ombor guvohnomasi va shu kabilar), garov qog'ozlari, lotereyalardan amalda keng foydalaniladi.

Ro'yxatdan o'tkazilishi bo'yicha: emissiya qilinuvchi (aktsiya, obligatsiya, derivativlar) va emissiya qilinmaydigan (bank sertifikatlari, cheklar, xususiylashtirish jarayonida qo'llaniladigan vaucher va kuponlar, veksellar, ombor guvohnomalari, konosament, garov qog'ozlari va h.k.) instrumentlar mavjud.

Muomalaga chiqaruvchining tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra: davlat, munitsipal va korporativ moliyaviy instrumentlar amalda bo'ladi.

Egalik huquqini belgilash bo'yicha: taqdim etuvchiga tegishli, egasining ismi yozilgan, orderli moliyaviy instrumentlar farqlanadi.

Daromad turlariga ko'ra: dividend beruvchi, belgilangan va suzuvchi foiz stavkali, kuponsiz (diskontli), yutuqli moliyaviy instrumentlar ajratiladi.

To'lov muddati bo'yicha amalda spot va muddatli bozor instrument-laridan foydalaniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, moliyaviy instrumentlar vaqt va makon bo'yicha tavsiflash mumkinligini ko'rish mumkin.

Bob bo'yicha xulosalar

Korxonalar va firmalar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy resurslarni to'plash va joylashtirish jarayoni bevosita moliya bozorlarining faoliyati bilan bog'liq.

Moliya bozori (iqtisodiy nuqtai nazardan) uning ishtirokchilariga moliyaviy aktivlarni: qimmatli qog'ozlarni, tovarlarni va tranzaktsiya xarajatlari past bo'lgan boshqa obyektlarni sotib olish va sotish imkonini beradigan iqtisodiy mexanizmdir.

Moliya bozorida kapitalni safarbar qilish, kredit berish, birjada pul muomalalarini amalga oshirish va moliyaviy resurslarni ishlab chiqarishga joylashtirish amalga oshiriladi. Turli mamlakatlarning kreditorlari va qarz oluvchilarining kapitalga bo'lgan talab va taklifining uyg'unligi esa jahon moliya bozorini tashkil qiladi.

Barcha moliyaviy bozorlarni bir qator xususiyatlariga ko'ra tasniflash mumkin. Tashkil etilish darajasiga ko'ra quyidagilarga ajratiladi:

Fond bozori (Qimmatli qog'ozlar bozori (Stock Market) - moliyaviy vositalar bilan tashkillashtirilgan savdo joyidir. Birja moliya bozorida savdo tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Birjalar tufayli moliyaviy vositaning likvidligi oshadi. Birjalarda kotirovka ro'yxatiga kiritilgan va birjada rasmiy savdoga kirish huquqini olgan qimmatli qog'ozlar muomalada bo'ladi.

Birjadan tashqari bozor (Over-the-Counter Stock Market) - birja bozorlarining hosilalariga aylangan moliyaviy bozorlar. Birjadan tashqari bozorlar ma'lum bir joyga bog'lanmagan. Ularning quyidagi turlari mavjud:

tashkil etilgan - avtomatlashtirilgan elektron savdo tizimlari (ECN – Electronic Commercial Nets):

FOREX - birjadan tashqari valyuta bozori,

NASDAQ, EASDAQ, RTS - birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozori)

tashkillashtirilmagan – moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar savdo tashkilotchilarini chetlab o'tib, professional bozor ishtirokchilari orqali amalga oshiriladigan bozorlar.

Birjalarda kotirovka qilinmagan qimmatli qog'ozlar birjadan tashqari bozorlarda muomalada bo'ladi. Birjadan tashqari bozor juda katta hajmga ega bo'lishi mumkin. Masalan, 2000 yilda Qo'shma Shtatlarda NASDAQ³⁸ birjadan tashqari bozorda 4734 kompaniyaning aksiyalari sotildi va umumiy bozor kapitallashuvi 3,8 trillion dollarni tashkil etdi (taqqoslash uchun: dunyodagi eng

³⁸ National Association of Securities Dealers Automated Quotation Systems

yirik Nyu-York fond birjasida (NYSE) ro'yxatga olingan kompaniyalarning umumiy bozor kapitallashuvi 2000 yilda 11,2 trillion dollarni tashkil etgan).

Valyuta bozori - chet el valyutasini o'zbek so'miga yoki boshqa chet el valyutasiga sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalar amalga oshiriladigan va xorijiy valyutadagi to'lov hujjatlari aylanadigan bozor. Valyuta bozorining obyekti chet el valyutasida ifodalangan qisqa muddatli moliyaviy vositalardir. Bozor subyektlari: tijorat banklari, valyuta birjalari, eksport-import qiluvchi korxonalar, investitsiya institutlari, O'RMB.

Oltin bozori - sanoat iste'moli uchun ham, oltin zahirasini to'plash yoki to'ldirish maqsadida ham oltinni muntazam ravishda sotib olish va sotish amalga oshiriladigan bozor. Mamlakatimizda oltinni qazib olishdan tortib to sotishgacha bo'lgan aylanma davlat nazorati ostida amalga oshiriladi.

Sug'urta bozori - bu risk ixtisoslashgan kompaniyaga muayyan haq evaziga o'tkaziladigan bozor. Sug'urta mumkin bo'lgan xavfning ijtimoiy xarajatlarini kamaytiradi.

Sug'urtalovchi - sug'urta hodisasi sodir bo'lgan taqdirda yo'qotish xavfini o'z zimmasiga oladigan tashkilot.

Sug'urta qildiruvchi yo'qotish xavfini o'tkazuvchi va bu riskni to'laydigan shaxsdir.

Sug'urtalangan shaxs - sug'urta obyekti bo'lgan shaxs (sug'urtalangan shaxs). Sug'urtalangan bilan bir xil yoki farqli bo'lishi mumkin (masalan, kompaniya o'z xodimlarini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urta qilganda).

Sug'urta turlari:

hayot va sog'liq sug'urtasi;

mulkiy va fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish;

pensiya sug'urtasi;

tibbiy sug'urta.

Sug'urta bozorida narx belgilash sug'urta stavkasini aniqlashga asoslanadi, bu sug'urta hodisasi yuz berganda yo'qotishlarni qoplash, ma'muriy xarajatlarni to'lash va foyda olish imkonini beradi. Buning uchun zarar ehtimoli va sug'urta hodisasi ehtimolini hisoblashga katta ahamiyat beriladi. Shu bilan birga, sug'urta tarifi sug'urtalangan shaxs uchun iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lishi kerak.

Sug'urta kompaniyalari va pensiya jamg'armalari moliya bozorining asosiy institutsional investorlari bo'lib, sug'urta fondlarida to'plangan ulkan moliyaviy resurslarga egalik kiladilar, ular ushbu mablag'larni investitsiyalashdan qo'shimcha foyda oladilar. Shu bilan birga, agar iqtisodiyotda foiz stavkalari pasaysa, u holda investitsiya daromadlari kamayadi va sug'urta stavkalari o'sishni boshlaydi. Bunga teskari holatda esa, sug'urta kompaniyalari yuqori foiz stavkasi bo'yicha investitsiyalar uchun qo'shimcha resurslarni jalb qilishdan manfaatdor bo'lib, sug'urta tariflari pasaytiriladi.

Kapital bozori - bu ssuda kapitaliga talab va taklif shakllanadigan, vaqtincha bo'sh pul kapitali to'planib, tadbirkorlar va investorlar o'rtasida qayta taqsimlanadigan iqtisodiy munosabatlar sohasi hisoblanadi. Kapital bozorining subyektlari tijorat banklari, moliya institutlari, emitentlar, investorlar, investitsiya fondlaridir.

Bank kreditlari bozori - bu korxonalar va jismoniy shaxslarning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan bozor. Bu eng keng tarqalgan bozor bo'lib, unda investorlarning vaqtincha bo'sh mablag'lari bank depozitlari bo'yicha depozitlar shaklida to'planadi va turli shartlarda (% , muddat) kreditlar beriladi.

Bank kreditlari bozorlari uchun foiz arbitrajining ishlashi odatiy holdir.

Foiz arbitraji - ma'lum foizda va ma'lum muddatga kredit bo'yicha pul olish va boshqa foizda va boshqa muddatga kredit berish.

Qimmatli qog'ozlar bozori (fond bozori) - qimmatli qog'ozlar muomalasi bilan bog'liq bo'lgan, kapitalning harakatlanishini ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar majmui. Qimmatli qog'ozlar bozori pul kapitalini shakllantirishga

xizmat qiladi, bu esa real tovar yaratishga investitsiya kiritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fond bozorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori (primary market) - qimmatli qog'ozlarni chiqarish va qimmatli qog'ozlarni dastlabki joylashtirish bo'yicha operatsiyalar amalga oshiriladigan bozor. Aynan shu bozor real iqtisodiyot sektorini moliyalashtirish uchun investorlarning pullarini jalb qiladi. Moliyaviy vositachilar orqali aksiyalarni dastlabki joylashtirish - anderryaiting (underwriting).

Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori (secondary market) - qimmatli qog'ozlar bilan erkin operatsiyalar (sotib olish va sotish) amalga oshiriladigan bozor. Bu bozorning vazifasi moliyaviy vositalarni likvidligini ta'minlashdan iborat.

Oddiy ishlab chiqarish va tijorat firmasining moliyaviy menejeri uchun qimmatli qog'ozlar bozorlari katta qiziqish uyg'otadi, chunki birinchidan, kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari bilan asosiy bitimlar shu yerda amalga oshiriladi; ikkinchidan, bu kompaniyaning qimmatli qog'ozlarining ushbu bozordagi o'rnini investorlar tomonidan uning faoliyati muvaffaqiyatining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi; uchinchidan, qimmatli qog'ozlar bozori kompaniya faoliyatini qo'shimcha moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi.

Moliyaviy faoliyat-bu aqlli va xudbin insonlar hatti-harakatlarining umumiyligidan iborat bo'lgan o'ziga xos san'atdir.

Teodor Drayzerning "Moliyachi" asaridan

5-BOB. MOLIYAVIY BOSHQARUV

- 1. Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati.**
- 2. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari.**
- 3. Moliyaviy oqimlarni boshqarish.**

5.1. Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati


Dunyo iqtisodchi olimlari tomonidan jahon xo'jaligida mamlakat-larning raqobatbardoshligi bo'yicha olib borilgan so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning yuqori natijalarga erishishida boshqaruv sifati favqulodda muhim o'rin tutadi. "Boshqaruv" atamasi umumiy tarzda obyektни rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida unga ongli ravishda ta'sir ko'rsatishni anglatadi. Moliya tizimi doirasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash har doim muayyan bir maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mamlakatni iqtisodiy jihatdan taraqqiyotini ta'minlashda savodli moliyaviy boshqaruvning o'rnini baholash nihoyatda mushkul. Shiddatli raqobat va voqealar rivojini oldindan bashorat qilish juda qiyin bo'lgan bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy boshqaruv sohasida amaliy tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ilmiy asos yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, moliyaviy boshqaruvga ilmiy yondashuv iqtisodiyot tarmoqlari va tashkilotlarini barqaror moliyalashtirishga, aholining moddiy farovonligini oshirishga, korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati jarayonida noqulay holatlarning oldini olish va oqibatlarini yumshatish, pirovardida esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi..

Moliyaviy sohada boshqaruv obyektlari turli xil moliyaviy munosabatlar bo'lganligi sababli, moliyaviy boshqaruv- davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarning zimmlariga yuklangan vazifalarni amalga oshirishlari borasida turli xil ta'sir ko'rsatish chora va tadbirlari ko'magida moliyaviy munosabatlar, ularga tegishli bo'lgan moliyaviy resurslarga ta'sir ko'rsatish jarayonini ifoda

etadi. Davlat moliyasini boshqarish: a) davlatning iqtisodiy institutlari, yuridik va jismoniy shaxslarning o'zaro muzonati; b) kamomadsiz davlat byudjetini; v) moliyaviy munosabatlarning asosiy unsuri sifatida milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Moliyaviy boshqaruv murakkab jarayon bo'lib, boshqariladigan (obyektlar) va boshqaruvchi (subyektlar) tizimlarning yaxlitligini tashkil qiladi. Boshqaruvchi tizim, bu yerda moliyaviy institutlarning (tashkilotlarning) majmuidan iborat bo'lgan moliya tizimini nazarda tutsa, boshqariladigan tizim esa pul munosabatlari majmuidan iborat bo'lgan moliya tizimini o'z ichiga oladi. Bunda moliyaviy boshqaruv jarayoni bir xil tarzda bo'lmasdan, u bir tomondan, faqat obyektlarni boshqarishni emas, balki ikkinchi tomondan, boshqaruv subyektlarini tashkil qilishni va ular faoliyatini takomillashtirishni ham o'z ichiga oladi.


Moliyaviy boshqaruv haqida so'z borar ekan, boshqaruv obyekti va subyektlarini aniqlashtirish talab qilinadi. Ta'kidlab o'tganimizdek, moliya obyektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, uni faqat shu kategoriyaning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlarini o'rganish va bilish orqaligina boshqarish mumkin. Faqat moliyaviy munosabatlarni, moliya kategoriyasining namoyon bo'lishining o'ziga xos shakllarini boshqarish orqali iqtisodiyotning samarali rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin (5.1-rasm). Ushbu holatda moliya boshqaruv obyekti sifatida maydonga chiqadi. Boshqaruv obyektlari turli xil moliyaviy munosabatlardir. Moliyaviy munosabatlarni sohalar bo'yicha tasniflaydigan bo'lsak, odatda boshqaruv obyekti sifatida qabul qilinadigan uchta asosiy guruh mavjud: korxona, muassasa va tashkilotlar moliyasi, sug'urta munosabatlari va davlat moliyasi farqlanadi. Moliyaviy boshqaruv subyektlari haqida so'z borar ekan, an'anaviy tarzda moliya fanida moliyani bevosita boshqarishda ishitrok qiladigan tashkiliy tuzilmalar to'plami tushuniladi: a) korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning moliyaviy xizmatlari, b) sug'urta organlari va v) moliya organlari va soliq inspeksiyasi. Ushbu xizmatlar odatda moliyaviy apparat ham deb yuritiladi.



5.1 – rasm. Moliyani boshqarish tizimi unsurlari

Davlatning xo'jalik yurituvchi subyektlar va uy xo'jaliklari bilan moliyaviy munosabatlar sohasidagi o'zaro munosabatlari soliq tizimi, kredit munosabatlarini tartibga solish, moliya bozorini tartibga solish, davlatning qo'llab-quvvatlash tizimi, pensiya ta'minoti tizimi, ishlovchi aholining daromadlarini tartibga solish mexanizmi va h.k.lar orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy boshqaruvning maqsadi makroiqtisodiy muvozanat, byudjet profitsiti, davlat qarzining kamayishida, milliy valyutaning barqarorligi va nihoyat, davlat va jamiyat barcha a'zolari iqtisodiy manfaatlarining mushtarakligida namoyon bo'ladigan moliyaviy barqarorlik va moliyaviy mustaqillikni ta'minlashdir.



5.2-rasm. Moliyaviy boshqaruv tizimi.

Umumiy ko‘rinishda moliyaviy boshqaruv tizimini quyidagicha tasvirlash mumkin (5.2-rasm).

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, moliyaviy boshqaruv uchun quyidagi uslubiy tamoyillar tegishli degan xulosaga kelamiz:

- yakuniy maqsadga bog‘liqlik;

- milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy muvozanatga erishish;
- jamiyat a'zolarining manfaatlarini to'laqonli aks ettirish;
- iqtisodiy qonunlardan foydalanish;
- real imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish.

Moliyaviy boshqaruvning aniq usullari va shakllari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- moliyaviy rejalashtirish;
- bashoratlash (prognozashtirish);
- dasturlash;
- moliyaviy tartibga solish;
- moliyaviy nazorat;
- moliyaviy qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish;
- moliyaviy resurslarni jalb qilish usullari tizimi.

Moliyaviy rejalashtirish moliyaviy boshqaruv tizimida muhim o'rin tutadi. Bu moliyaviy resurslar holatini, ularni ko'paytirish imkoniyatini, shuningdek ulardan foydalanishning eng samarali usullarini baholashga imkon beradi. Moliyaviy rejalashtirish moliyaviy axborotni tahlil qilishga asoslangan bo'lib, u o'z navbatida buxgalteriya, statistik va operativ hisobot ma'lumotlariga asoslanadi. U iqtisodiyot, uning alohida tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarining joriy va istiqbolli rivojlanishini ilmiy asoslash uchun ishlatiladi. Moliyaviy rejalashtirish alohida olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotining mutanosib va muvozanatli tarzda faoliyat ko'rsatishiga xizmat qiladi.

Moliyaviy prognozlash jarayonida prognoz davridagi mumkin bo'lgan moliyaviy holat o'rganiladi, tegishli moliyaviy rejalarning ko'rsatkichlari asoslanadi, moliyaviy resurslarni safarbar qilishning mumkin bo'lgan miqdori, ularni shakllantirish manbalari va foydalanish yo'nalishlari aniqlanadi. Moliyaviy prognozlar tizimi mamlakat yoki tadbirkorlik subyektini rivojlantirish borasida

moliyaviy kontsepsiyani ishlab chiqishga yordam beradi. Prognozlar moliyaviy boshqaruv organlariga moliya tizimini rivojlantirishning turli variantlarini belgilash, moliyaviy siyosatni amalga oshirish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Operativ boshqaruv- bu joriy moliyaviy vaziyatni tahlil qilish va moliyaviy resurslarni tegishli ravishda qayta taqsimlash asosida minimal xarajatlar bilan maksimal samaraga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish jarayonini ifoda etadi.

Moliyaviy dasturlash—bu aniq belgilangan maqsadlar va ularga erishish vositalariga asoslangan dasturga yo‘naltirilgan yondashuvni o‘z ichiga olgan moliyaviy rejalashtirish usuli. Dasturlash joylarda davlat xarajatlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, davlat mablag‘larini sarflash samaradorligini oshirish va muqobil imkoniyatlardan foydalangan holda moliyalashtirishni to‘xtatish yoki davom ettirishni o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy tartibga solish-bu moliya institutlarini moliya tizimining barqarorligi va yaxlitligini saqlashga qaratilgan muayyan talablar, cheklovlar va ko‘rsatmalarga bo‘ysundiradigan tartibga solish yoki nazorat qilish shakli. Moliyaviy tartibga solishda hukumat ham, nodavlat tashkilotlar ham ishtirok qiladilar. Moliyaviy tartibga solish mavjud moliyaviy mahsulotlarning xilma-xilligini oshirish orqali bank sektori tarkibiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Moliyaviy nazorat - bu boshqariladigan obyektning haqiqiy moliyaviy holati va boshqaruv qarorlarining samaradorligi to‘g‘risida ma’lumot to‘plash va tahlil qilish uchun davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va moliyaviy xizmatlar tashkilotlarining maxsus faoliyat yo‘nalishidir. Ushbu nazorat operativ moliyaviy boshqaruv bosqichida amalga oshiriladi. Bu moliyaviy resurslardan foydalanishning haqiqiy natijalarini rejalashtirilgan natijalar bilan taqqoslashga, shuningdek moliyaviy resurslarning o‘sishi zahiralarini aniqlashga va ulardan samarali foydalanish usullarini aniqlashga yordam beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatning bozor munosabatlariga

o'tishi bilan moliyaviy nazoratning maqsadi tubdan o'zgardi. Bugungi kunda rejaning markazlashgan rejali iqtisodiyotda bajarilishini nazorat qilishdan qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish tizimiga o'tildi.

5.2. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari

Moliya tizimini umumiy boshqarish mamlakatning oliy hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Umumdavlat miqyosida moliyaviy boshqaruv tizimi quyidagi boshqaruv organlaridan tashkil topishi mumkin:

- Prezident va Prezident adminstratsiyasi;
- Oliy Majlis va uning tegishli qo'mitalari;
- Vazirlar Mahkamasi;
- Hisob palatasi;
- Moliya vazirligi va uning quyi (joylardagi), jumladan, G'aznachilik tizimi organlari;
- Markaziy bank;
- Davlat soliq qo'mitasi;
- Davlat bojxona qo'mitasi;
- va boshqalar.

Mamlakat Prezidenti (Prezident adminstratsiyasi) moliya tizimining faoliyatini tartibga soladi, Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonunni imzolaydi, Parlament tomonidan qabul qilingan moliyaviy qonunlarni Parlamentga qayta ko'rib chiqish uchun qaytarish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 36-moddasiga³⁹ muvofiq, Davlat maqsadli jamg'armalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga muvofiq tashkil qilinadi. Byudjet kodeksining 47- moddasida belgilab qo'yilganidek: "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini boshqarish Kengashi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining yuqori boshqaruv organi

³⁹ <https://lex.uz/docs/2304138>

bo‘lib, uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi⁴⁰.

Byudjet kodeksining 68-moddasida ko‘rsatilgan tartibda, O‘zbekiston Respublikasining beg‘araz yordam ko‘rsatishi to‘g‘risidagi qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi⁴¹. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturlari doirasida tijorat banklari uchun chet el valyutasida ochiladigan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish va amalga oshirish borasida Farmon va Qarorlar qabul qilishi ham mazkur hujjatda ko‘rsatib o‘tilgan (O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 49-moddasi).

Byudjet kodeksida belgilab qo‘yilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti favqulodda holat sharoitlarida favqulodda Davlat byudjetini qabul qilish to‘g‘risida Qaror qabul qilish huquqiga ega.

Byudjet kodeksining 118-moddasiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasidagi tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki u vakolat bergan organ tomonidan belgilanadi⁴².

Davlat kafolatlarini berish borasida ham, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muayyan vakolatlarga ega hisoblanadi, xususan Byudjet kodeksining 155-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra beriladi”-deb ko‘rsatib o‘tilgan⁴³.

Bundan tashqari Prezident O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va mamlakat moliyaviy qonunchiligiga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishga haqli ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim.

⁴⁰ <https://lex.uz/docs/2304138>

⁴¹ <https://lex.uz/docs/2304138>

⁴² <https://lex.uz/docs/2304138>

⁴³ <https://lex.uz/docs/2304138>

Ikki palatadan (Senat va Qonunchilik) iborat bo'lgan Oliy majlis soliqlar, yig'ımlar, soliqsiz to'lovlarni belgilaydi (o'rnatadi), Davlat byudjetini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi, shuningdek, Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni ham tasdiqlaydi, moliyaviy qonunlarni (masalan, Soliq kodeksi va boshqalar) qabul qiladi. Bir vaqtning o'zida davlat ichki va tashqi qarzining tegishli (chegaraviy) darajasini belgilash (o'rnatish) ham Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 169-moddasida "Tegishli hisobot davri uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'mitalarida ko'rib chiqilganidan keyin tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida ko'rib chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining, Senatining qarori bilan tasdiqlanadi"⁴⁴-deb ko'rsatib o'tilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, moliyaviy nazoratni amalga oshirish, byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishda Oliy Majlisning o'rnı beqiyosdir.

Moliyaviy boshqaruvning umumiy boshqaruv organi sifatida Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetini ko'rib chiqadi, moliyaviy boshqaruvning yagona umumiy markazi sifatida maydonga chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining 10.12.2019 yildagi O'RQ-591-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi Qonunining 10-moddasida⁴⁵ Vazirlar Mahkamasining byudjet, moliya, pul-kredit siyosatini amalga oshirish sohasidagi vakolatlari ko'rsatib o'tilgan, unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi:

⁴⁴ <https://lex.uz/docs/5220748>

⁴⁵ <https://lex.uz/docs/4636594>

byudjet, moliya, pul-kredit siyosati sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, respublikani iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlantirish prognozlari va eng muhim dasturlarini inobatga olgan holda soliq hamda byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilishini va bajarilishini tashkil etadi;

xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlash choralarini amalga oshiradi;

samarali fiskal siyosat olib boradi, soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligi tizimining sifati va samaradorligini oshirish choralarini ko'radi;

pul-kredit siyosatini takomillashtirish, valyuta siyosatini liberallashtirish, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, shuningdek milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash choralarini ko'radi;

bank tizimining barqarorligini ta'minlaydi, ushbu tizimning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, shuningdek sug'urta, lizing va boshqa moliya institutlarini rivojlantirish bo'yicha choralarni amalga oshiradi.

Davlat moliyaviy nazorat organi sifatida Hisob palatasi moliyaviy boshqaruvga oid quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hajmi va maqsadga mo'ljallanganligi bo'yicha Davlat byudjeti va nobyudjet fondlari daromadlar va xarajatlarning o'z vaqtida ijro etilishi ustidan nazoratni tashkil qilish va amalga oshirish;

- davlat mablag'larining sarflanish va davlat mulkidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini aniqlash;

- Davlat byudjeti va nobyudjet fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanishga ta'sir ko'rsatadigan yoki xarajatlarning Davlat byudjeti hisobidan qoplanishini ko'zda tutayotgan davlat hokimiyatining qonunlari va normativ-huquqiy aktlarini moliyaviy ekspertiza qilish;

- Davlat byudjetining ijrosi va amalga oshirilayotgan nazorat tadbirlarining natijalari to'g'risida Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga doimiy ravishda ma'lumotlarni taqdim etish;

- va boshqalar.

Moliyaviy boshqaruvning markaziy organi Moliya vazirligi va uning joylardagi organlari hisoblanadi. U mamlakat miqyosida yagona moliyaviy, byudjet, soliq va valyuta siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2017 yildagi PQ-2847-son "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida Respublika moliya organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining soliq-byudjet siyosatiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda ijtimoiy sohani barqaror, mutanosib va jadal rivojlantirish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan vazifalari, funktsiyalari, ish shakllari va uslublarini qayta ko'rib chiqish maqsadida Moliya vazirligining ustuvor vazifalari hamda yo'nalishlari belgilab berilgan⁴⁶:

iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlarini, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning moliyaviy mutanosibligini ta'minlashda, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarishda, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda moliya organlarining rolini oshirishga yo'naltirilgan yagona davlat soliq-byudjet siyosatini amalga oshirish;

iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, mineral-xomashyo, yer-suv hamda boshqa resurslar va uskunalardan oqilona foydalanishda soliq hamda boshqa majburiy to'lovlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish yo'li bilan soliq tizimini izchil takomillashtirib borish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliqlar hamda

⁴⁶ <https://lex.uz/docs/3145558>

boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lash tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq yig'ilishini ta'minlash maqsadida ularning stavkalarini optimallashtirish;

byudjetlararo munosabatlarni tubdan takomillashtirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromad bazasini barcha choralar bilan kengaytirish, viloyatlar va tumanlarni subventsiyadan chiqarib, ularning mutanosibligi va o'zini o'zi qoplay olishini ta'minlash, hududlar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrini kompleks va intensiv rivojlantirish asosida Davlat byudjetiga qo'shimcha manbalar jalb etish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish, tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan yanada to'liq va samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;

moliyaviy resurslarni iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor yo'nalishlariga, ijtimoiy sohani, ayniqsa qishloq joylarida, jadal rivojlantirishga, maqsadli investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga, belgilangan me'yorlarga muvofiq ularni real moliyalashtirish manbalari bilan mustahkamlashga, ushbu asosda kreditorlik va debitorlik qarzlarni kamaytirishga jamlash;

iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali usul va mexanizmlarini joriy etish, tovarlar va xizmatlarning ayrim turlariga narx va tariflar belgilash tartibini takomillashtirish hamda to'lov intizomini mustahkamlash;

byudjet tizimidagi byudjet mablag'laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, qat'iy iqtisod qilish, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirish, nobudgarchilik va talon-torajlikni, maqsadga nomuvofiq chiqimlarni tugatish yuzasidan vazirliklar, idoralar, xo'jalik subyektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda keng qamrovli profilaktika ishlarini olib borish;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa valyuta nazorati organlari bilan birgalikda valyuta-moliya siyosatining asosiy tamoyillari va usullarini shakllantirish, davlatning valyuta resurslarini ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan uning zimmasiga yuklangan vazifalar va funktsiyalar, xususan pensiyalar hamda boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va o'z vaqtida to'lash bo'yicha o'rnatilgan qoidalarining qo'llanilishini muvofiqlashtirish hamda ularni nazorat qilish;

sug'urta tashkilotlarining sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatini nazorat qilish, buxgalterlik hisobi va hisobotining yagona metodologiyasini shakllantirish va amalga oshirish, auditorlik faoliyatini tartibga solish, mamlakatning moliya bozorlarini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

davlat moliya siyosati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish, Moliya vazirligi, uning markaziy apparati hamda tarkibiy bo'linmalarining ish shakllarini va usullarini tubdan takomillash-tirish, moliya organlari faoliyatida byurokratizm va sansalorlik hollariga yo'l qo'ymaslik, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga o'z vaqtida e'tibor qaratish, zimmaga yuklatilgan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun moliya organlari xodimlarining mas'uliyatini oshirish;

iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga

qarshi kurashish bo'yicha choralarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

qimmatli qog'ozlar bozori, bukmekerlik va lotereyalarni tashkil etish faoliyatini tartibga solish, shuningdek, korporativ boshqaruvni rivojlantirish.

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qaroriga ko'ra⁴⁷, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibidagi Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari negizida Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tashkil etildi.

Inspeksiya moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini, O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining maqsadli sarflanishini, moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan byudjet qonunchiligiga, shuningdek, byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat moliyaviy nazorat organi hisoblanadi.

Inspeksiyaga byudjet qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha byudjet tashkilotlari bilan birgalikda tizimli ravishda profilaktika ishlarini olib borish;

masofaviy nazoratni faol qo'llash va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali faoliyat samaradorligini oshirish;

davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

Inspeksiya tizimida korruptsiya va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olish bo'yicha choralarni ko'rish, shuningdek, ularni aniqlash, tahlil qilish va yuzaga keltiruvchi omillarini bartaraf etish va Inspeksiya faoliyatiga oid ma'lumotlar va nazorat tadbirlari natijalari yuzasidan hisobotlarni keng jamoatchilikka yetkazib borish vazifasi yuklatilgan.

⁴⁷ <https://lex.uz/docs/6143603>

Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Moliya vazirligining muhim tarkibiy qismi G'aznachilik tizimi bo'lib, u davlat byudjetining kassa ijrosini ta'minlashda mas'uldir. Moliyaviy boshqaruvga bevosita dahldor bo'lgan G'aznachilik tizimining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi⁴⁸:

Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan tushadigan daromad-larni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan, Davlat byudjeti Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarish;

byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari mablag'lari hisobiga tuzilgan shartnomalarini xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan summalar doirasida hamda belgilangan maqsad-larga muvofiq tuzilganligi ustidan nazorat qilish asosida majburiy ro'yxatdan o'tkazish;

byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

⁴⁸ <https://lex.uz/ru/docs/1145689>

davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini yaratish va doimiy ravishda yangilab borish, davlat xaridlarini amalga oshirishda narxni shakllantirish jarayonini nazorat qilish;

xarajatlar smetalarida va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan hamda ularning topshirig'i bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilarning hisobvaraqlariga to'lovlarni bevosita amalga oshirish orqali to'lov intizomiga rioya etilishini ta'minlash;

Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish;

O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari, shu jumladan nomoddiy shakldagi vosita-lar to'g'risidagi axborotlarni to'plash va ishlash.

byudjet tashkilotlarining chet el valyutasidagi daromadlari va xarajatlari hisobini yuritish hamda maqsadli ishlatilishini ta'minlash;

byudjet tashkilotlari uchun chet el valyutasidagi shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish va yopish;

valyuta mablag'lari hisobidan jalb qilingan xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari qarzlari va kreditlarini qaytarish hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asosan Moliya vazirligi tomonidan to'lovlari amalga oshiriladigan xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlarga a'zolik badal-larini to'lash;

valyuta mablag'larini boshqarish, chet el valyutadagi mablag'larni depozitlarga joylashtirish va byudjet ssudasi va subsidiyalarini ajratish.

Mamlakatning Markaziy banki moliyaviy siyosat va uning tarkibiy qismi bo'lgan pul-kredit siyosatini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi, u g'aznachilik

tizimi organlari bilan birgalikda byudjetning kassa ijrosini ta'minlaydi va boshqa kredit institutlarining faoliyatini nazorat qiladi.

Moliyaviy boshqaruv tizimida Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari ham muhim rol o'ynaydi, ular yordamida soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, ularning tegishli byudjetlarga to'liq va o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan nazorat amalga oshiriladi. Shunga muvofiq ravishda moliyaviy boshqaruv sohasida Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- byudjetga va byudjetdan tashqari fond va jamg'armalarga soliqlar, yig'imlar va to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida o'tkazilishi masalalari bo'yicha moliyaviy qonunchilikka qay darajada rioya etilayotganligini nazorat qilish;

- soliq to'lovchilarni hisobga olish va ularni tekshirish;

- moliya organlariga va g'aznachilikka soliqlar va boshqa to'lovlarning haqiqatdagi tushumlari to'g'risida har oyda ma'lumot taqdim etish;

- ortiqcha to'langan soliq summalarini va soliq to'lovchilardan noto'g'ri undirilgan jarima va penyalarni egalariga qaytarish bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirish;

- va boshqalar.

Davlat bojxona qo'mitasi va uning tegishli organlari moliyaviy bosh-qaruv tizimida o'ziga xos bo'lgan o'ringa ega. Ular bojxona bojlarining o'z vaqtida tushishi uchun mas'ul hisoblanadi va bu borada quyidagi asosiy vazifalar ular zimmasiga yuklatiladi:

- bojxona organlari tomonidan undiriladigan boj va yig'imlar bo'yicha tekshiruvlarni amalga oshirish;

- bojxona organlari tomonidan undiriladigan boj va yig'imlarni hisoblash vato'lash bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni tekshirish;

- bojxona qonunchiligini buzganligi yoki unga to'liq rioya qilma-ganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankdagi operatsiyalarini to'xtatib turish;

- qonunchilikda koʻzda tutilgan jarima va boqimandalarni undirish;
- va boshqalar.

5.3. Moliyaviy oqimlarni boshqarish

Korxonalarning jamgʻarmalari, daromadlari hamda markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy resurslar fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonidagi pul mablagʻlarining miqdoriy va sifat jihatidan harakatiga moliyaviy oqim deyiladi. Moliyaviy oqimlarning hajmi ular asosida shakllanishi lozim boʻlgan moliyaviy resurslar fondlarining oʻlchamiga bogʻliq. Mamlakatning iqtisodiy (moliyaviy) salohiyati qancha kuchli boʻlsa, uning oʻsishiga xizmat qiluvchi moliyaviy resurslar fondi va moliyaviy oqimlar hajmi shuncha salmoqli boʻladi.

Moliyaviy oqimlarning sifat jihatdan tavsifi ular shakllantiruvchi moliyaviy resurslar fondining nimaga moʻljallanganligi bilan bevosita bogʻliq. Masalan, solikli moliyaviy oqim bilan korxonaning tushumini shakllantiruvchi moliyaviy oqim sifat jihatidan bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun ham ularni boshqarish usullari ham turlichadir. Oʻzining sifat mazmuniga koʻra quyidagilarni farqlash maqsadga muvofiq:

- byudjetli-soliqli moliyaviy oqimlar - barcha darajalardagi byudjetlarning mablagʻlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida vujudga keladi;
- tijorat (tijoriy) moliyaviy oqimlari – tadbirkorlik xoʻjalik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi;
- nobyudjet moliyaviy oqimlar – notijorat tashkilotlarining fondlarini shakllantiradi;

Moliyaviy oqimlarni boshqarishning funktsiyalari quyidagilardan iborat:

- qonunchilik - Oliy Majlisning vakolatida;
- nazorat (tartibga solish) - Hisob palatasi va mamlakatning boshqa nazorat organlari (Moliya vazirligi, Soliq va Bojxona qoʻmitalari va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi;

- boshqarish - korxona va korporatsiyalar, banklar, soliq organlari, G'aznachilik apparati va Moliya vazirligining hisob-kitob-kassa va boshqa xizmatlarining vakolatida;

- hakamlilik - korxonalarning moliyaviy jihatdan kasodga uchragan-ligigi to'g'risidagi ishlarni ko'radigan va bu holda moliyaviy oqimlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi arbitrajlik sudlari tomonidan bajariladi.

Moliyaviy oqimlarni boshqarish bo'yicha yuqoridagi organlarning funktsiyalari bir-biri bilan qo'shilib ketadi, ularni har doim ham ajratib bo'lmaydi.

Agar moliyaviy oqimlar moliyaviy resurslar aylanishining qonuniyatlariga muvofiq ravishda, ko'zda tutilgan tartibda va rejada aks ettirilgan hajmda, ishlab chiqarish va ijtimoiy vazifalarni samarali hal qilish uchun kerak bo'lgan tartibda va takror ishlab chiqarish siklini pul mablag'lari bilan to'liq ta'minlash tarzida amal qilsa, bularning barchasi, moliyaviy oqimlarning samarali ekanligidan dalolat beradi.

Moliyaviy oqimlarning samaradorligi pul mablag'larining yetarli bo'lmagan hajmi va o'z vaqtida tushmaganligida pasayadi. Moliyaviy oqimlar maromiy-ligining buzilishi resurslarning doiraviy aylanishi va daromadlarning olinishida uzilishlarning bo'lishiga, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatda jiddiy yo'qotishlarning kelib chiqishiga olib keladi. Moliyaviy oqimning samaradorligini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$K_s = H_{mo} / R_{mo}$$

Bu yerda: K_s – moliyaviy oqim samaradorligining koeffitsienti;

H_{mo} – davriy koeffitsientga o'zgartirilgan haqiqatdagi moliyaviy oqim;

R_{mo} - rejadagi moliyaviy oqim.

Moliyaviy oqimlar moddiy resurslarning kesishma harakatini o'zida aks ettiradi. Ular orqali iqtisodiyotning makro- va mikrodarajasida mulkdan foydalanishning holati, dinamikasi va samaradorligi nazorat qilinadi.

Tushumlar va boshqa pul mablag'lari oqimini aks ettiruvchi moliyaviy oqimlar ijobiy oqimlar deyiladi. Aksincha, pul mablag'larining oqib ketishini

tavsiflaydigan moliyaviy oqimlar salbiy oqimlar deyiladi. Korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlash uchun ijobiy moliyaviy oqimlar salbiy moliyaviy oqimlardan ancha yuqori bo'lishi kerak. Bunday sharoitda korxonaning ixtiyorida qoluvchi pul mablag'larining o'lchamini aks ettiruvchi sof moliyaviy oqimning bo'lishi ta'minlanadi. Sof moliyaviy oqim korxona moliyaviy salohiyatining o'sish, ular daromadlarining kapitalizatsiyalashuvi darajasini aniqlash, investitsion va innovatsion imkoniyat-larining manbai bo'lib hisoblanadi.

Korxona va korporatsiyalar sof moliyaviy oqimining o'sishi ular rentabelligi va investitsion samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tavsiflaydi hamda moliyaviy ahvolini mustahkamlashning muhim shart-sharoiti hisoblanadi.

Makrodarajada moliyaviy ahvolni tavsiflovchi bir qator ko'rsatkichlar mavjud:

- bir ishlovchi to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan YaIMning miqdori;
- inflyatsiya darajasi va dinamikasi;
- davlat byudjetining ahvoli (defitsit, profitsit);
- oltin valyuta zahiralarining miqdori va dinamikasi.

2021 yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda YaIM hajmi 734,6 trln so'mni yoki 69 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2020 yilga (59,885 mlrd dollar) nisbatan 7,4 foizga o'sgan. Aholi jon boshiga YaIM esa 2020 yilga nisbatan 5,3 foizga o'sgan.

2021 yilda YaIM deflyator indeksi 13,6 foizni tashkil etdi. Tarmoqlar kesimida deflyator indeksining yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (116,7%), qurilishda (114,2%) hamda sanoatda (113,8%) qayd etildi. Respublikaning o'rtacha darajasidan (113,6%) past bo'lgan deflyator indeksi tashish va saqlash, axborot va aloqada (106,5%), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (112,8%) hamda boshqa xizmat tarmoqlarida (112,6%) kuzatildi. Shu bilan birga, mahsulotlarga sof soliqlarning deflyator indeksi 112,3 foizni tashkil etdi. Ushbu indeks 2020 yilda 11,6 foiz, 2019 yilda esa 17,9 foizni tashkil etgan.

2021 yilda O‘zbekistonda iste’mol narxlari indeksi (INI) 2020 yilga nisbatan 10,8 foizga oshdi. Tovarlar bo‘yicha INI 11,6 foizga, xizmatlar bo‘yicha esa 8,2 foizga oshdi. Kuzatilayotgan davrda, 2020 yil bilan taqqoslaganda, oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 14,3 foizga, nooziq-ovqat tovarlar narxi esa 8,3 foizga o‘tdi.

2021 yilda davlat byudjetining kamomadi 3,9 trln.so‘m, yoki mamlakat YaIMning 3,3%ini tashkil qilgani holda, konsolidatsiyalashgan byudjet kamomadi YaIMning 5,8 %i darajasida bo‘ldi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning rasmiy oltin-valyuta zahiralarini 35,0 milliard dollardan oshiqroqni tashkil etmoqda. Xalqaro me‘yorlarga muvofiq, mamlakatning oltin-valyuta zahiralarini kamida 3 oylik import hajmini qoplashi kerak bo‘ladi. Hozirda mamlakatning barqaror oltin-valyuta zahiralarini xorijiy mamlakatlarning O‘zbekistonga bo‘lgan ishonchini ortishiga xizmat qilmoqda⁴⁹.

Davlatning moliyaviy ahvoli mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy majmui faoliyatining natijasidir.

Jahon taraqqiyoti tendentsiyalarining ko‘rsatishicha, hozirgi sharoitda davlat moliyaviy ahvolini mustahkamlashning asosiy joriy va istiqboldagi zahirasi ijtimoiy kapitalning jamg‘arish va undan iqtisodiy o‘rnatishning innovatsion-investitsion strategiyasida foydalanish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy tavsifdagi muammolarni (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va boshqalarni) hal etish, turmush darajasini yaxshilash bilan bir qatorda, iqtisodiy taraqqiyotning kuchli omili, kelgusida mamlakatning salohiyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendentsiyalaridan biri sifatida globallashtirish jarayonlari maydonga chiqmoqda va bu jarayonlar tobora tezlashmoqda. Jahon xo‘jaligining globallashtirishi milliy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning o‘ziga xos imkoniyatidir. Globallashtirish milliy iqtisodiyot uchun qator ijobiy imkoniyatlarni taqdim etishi bilan bir qatorda, u mamlakat iqtisodiy

⁴⁹ <https://cbu.uz/oz/statistics/intlreserves/658564/>

xavfsizligiga putur yetkazuvchi tahdid manbaiga ham aylanishi mumkin. O'zbekistonning zamonaviy jahon iqtisodiyotiga izchil integratsiyalashuvi jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining milliy iqtisodiyotga ta'sirini hisobga olish zarurligini nazarda tutadi. So'nggi yillarda tashqi qarz muammosi global tavsifga ega bo'lib bormoqda. Davlat tashqi qarziga xizmat ko'rsata olish qobiliyati mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. Qarz muammosini hal etishning tabiati mamlakat byudjet salohiyatiga, valyuta zahiralarining holatiga va shuningdek, milliy valyutaning barqarorligiga, foiz stavkalari daraja-siga, investitsiya muhitiga va ichki moliya bozori barcha segmentlarining hatti-harakatlariga bog'liq. Hozirda pandemiya tufayli butun dunyo mamlakatlari uchun o'sib borayotgan tashqi qarz xosdir. Xususan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yil yakunida butun dunyo mamlakatlarining mutloq ifodadagi qarzi 89,6 trln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011 yilda qariyb ikki barobar kam bo'lgan yoki 44,65 trln. dollarni tashkil qilgan. 2006 yilda esa dunyo mamlakatlarining jami tashqi qarzi 26,58 trln. dollarga teng bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, keyingi 15 yil ichida dunyo mamlakatlarining davlat qarzi 3,37 martaga oshgan. 2018 yilning so'ngida butun dunyo mamlakatlarining davlat qarzi dunyo yalpi ichki mahsulotining 82,3 foizi tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020 yilga kelib 97,6 foizga yetgan. Ko'rinib turibdiki, butun dunyo mamlakatlarida davlat qarzining muttasil o'sib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Xuddi shuningdek, bu jarayonlar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham xosdir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi joriy yil boshiga nisbatan 16 foizga yoki 5,4 mlrd. dollarga oshib, 2022 yil 1 yanvar holatiga 39,6 mlrd. dollarni (2021 yilning 1 yanvar holatiga 34,2 mlrd. dollar) tashkil qildi. Xususan, 2021 yil boshiga nisbatan davlat tashqi qarzi 11 foizga yoki 2,4 mlrd. dollarga o'sib 23,7 mlrd. dollarni, davlat tomonidan kafolatlanmagan tashqi qarz esa 24 foizga yoki 3,0 mlrd. dollarga o'sib 15,8 mlrd. dollarni tashkil etdi. 2021 yil yakunlariga ko'ra, mamlakatda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmi

salkam 70 mlrd.dollarni tashkil etgani holda, davlat tashqi qarzining YaIMga nisbatan ulushi 57 foizni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, 10 yildan ortiq muddatga jalb qilingan qarzlarning ulushi jamiga nisbatan 61,4 foizni tashkil etishi jalb etilgan mablag'lardan samarali foydalanish hisobiga iqtisodiy imkoniyatlarni o'nglab olish imkonini beradi.

Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilda davlatning jami qarzi 26,3 milliard dollarni tashkil etadi. Shundan 2,7 milliard dollari ichki qarz, 23,6 milliard dollari tashqi qarz hisoblanadi.

Tashqi qarzning iqtisodiy tarmoqlar kesimida taqsimlanishi quyidagicha:

- 5,9 milliard dollari davlat byudjetini qo'llab-quvvatlashga;
- 3,1 milliard dollari elektr-energiya tarmog'iga;
- 2,9 milliard dollari energetika (neft-gaz);
- 2,6 milliard dollari transport va transport infratuzilmasiga;
- 2,4 milliard dollari qishloq va suv xo'jaligiga;
- 2,1 milliard dollari uy-joy va kommunal sohaga;
- 1,2 milliard dollari tijorat banklariga;
- 1,2 milliard dollari kimyo sanoatiga;
- 0,7 milliard dollari ta'lim va sog'liqni saqlash sohasiga;
- 0,2 milliard dollari telekommunikatsiya tarmog'iga;
- 1,3 milliard dollari boshqa yo'nalishlarga.

Davlat qarzi kontsepsiyasi bilan davlat byudjeti kontsepsiyasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. ularning birinchisi, davlat qarzini tahlil qilishning asosiy vositalari bo'lgan bir qator byudjet tushunchalaridan foydalanadi. Byudjet taqchilligi davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishini anglatadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi aksariyat hukumatlar xarajatlarni daromad bilan qoplay olmaydilar va pirovardida davlat byudjetida kamomadning vujudga kelishiga sababchi bo'ladilar. Shu sababli ham davlat byudjetini shakllantirishda hukumat mamlakat uchun davlat qarzining maqbul miqdorini nazarda tutishi kerak. Qisqa va uzoq muddatda byudjet taqchilligining

ichki iqtisodiyotga ta'sirini hamda byudjet taqchilligini moliyalashtirish yo'llarini hisobga olish shart.

Korxonalar, firmalar va korporatsiyalar darajasida moliyaviy ahvol to'lovga qobillilik bilan, ya'ni bozor iqtisodiyotining boshqa subyektlari va soliq organlari oldida moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida uzish imkoniyati bilan tavsiflanadi. To'lovga qobillik bu korxona barcha pul aktivlari (P_a) va to'lov muddati kelgan (yoki o'tgan) moliyaviy majburiyatlar (M_m) o'rtasidagi nisbat demakdir. Sog'lom ishlayotgan korxonalar uchun to'lovga qobillik koeffitsienti (T_{qk}) doimo birdan yuqori bo'lishi kerak:

$$T_{qk} = P_a / M_m$$

Korxonaning moliyaviy holatini aniqlash uchun likvidlilik, aylanma aktivlarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ma'lum bir aniq sanada va iqtiqbolda korxona to'lov majburiyatlari va uning moliyaviy imkoniyatlari o'lchamini muvozanatlashning asosiy usuli moliyaviy oqimlar balansidir. U o'z ichiga korxona ixtiyoriga kelib tushadigan pul mablag'lari va korxona tomonidan sarflanadigan pul mablag'larini oladi. Bu narsa doimiy ravishda korxona pul mablag'larining harakatini nazorat qilish, ular dinamikasini baholash va bashoratlash imkonini beradi. Ana shunday byudjet asosida korxonaning to'lovga qobilligini boshqarish amalga oshiriladi.

Moliyaviy oqimlar byudjeti bu korxona to'lovga qobilligining kengaytirilgan koeffitsienti, demakdir. Agar uning chap tomoni (daromadlar qismi) o'ng tomoniga teng yoki undan katta bo'lsa, unda korxona to'lovga qobildir. Agar uning o'ng tomoni (xarajatlar qismi) chap tomonidan oshsa, u holda korxona to'lovga qobil emas hisoblanadi. Moliyaviy oqimlar balansi pul mablag'larining tushumlari va ularni sarflash yo'nalishlari bo'yicha bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan reja-istiqbolli hisob-kitoblar tizimidan iborat bo'lib, u byudjetlashtirish tizimiga asoslanadi.

Moliyaviy oqimlarning miqdor va sifat tavsifi orqali korxonaning faoliyati ifodalanadi. Ular ishlab chiqarish barcha omillari harakatining qiymatdagi ifodasini tashkil qiladi. Menejmentda sifat jihatdan farqlanuvchi boshqaruv tizimi - korxonani moliyaviy boshqarish tizimi shakllandiki, bu narsa moliyaviy oqimlar orqali ishlab chiqarish, mahsulot realizatsiyasi, resurslarning aylanuvchanligi, xarajatlar, rentabellik va boshqa jarayonlarning boshqarilishini ko'zda tutadi.

Moliyaviy oqimlar byudjeti bu haqiqatda turli davriy muddatlarda hisoblanadigan korxonaning moliyaviy rejasidir. Turli davrlar uchun (kunlik, dekadalik, oylik, choraklik, yillik va uzoq istiqboldagi) moliyaviy oqimlarning bashoratli byudjetlarini tuzish korxonaning to'lovga qobillik darajasini oshirishga imkon beradi va kelajakda uning moliyaviy holati barqarorligini ta'minlaydi.

Bob bo'yicha xulosalar

Davlatning moliyaviy holati, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tartibga solish, davlat byudjeti tizimi darajalari o'rtasida mablag'larni taqsimlash va qayta taqsimlashning turli vositalaridan foydalaniladi.

Uzluksiz va muntazam takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash uchun davlat hokimiyati boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar hozirgi sharoitda moliyaviy-xo'jalik faoliyati barqarorligini ta'minlash uchun moliyaviy munosabatlarga ta'sir ko'rsatish maqsadida moliyaviy mexanizmning turli vositalaridan foydalanadilar, ya'ni ular moliyaviy oqimlarni ham makro darajada, ham alohida tashkilot doirasida boshqaradilar.

Shu bilan birga, boshqaruv deyilganda, qo'yilgan maqsadga yoki aniq natijaga erishish uchun obyektga maqsadli ta'sir ko'rsatish usul va vositalari to'plami tushuniladi. Moliyaviy sohada turli xil moliyaviy munosabatlar boshqarish obyekti bo'lganligi bois, moliyaviy boshqarish -bu hukumat idoralari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning funktsiyalarini amalga oshirish, ularning faoliyatidan kelib chiqqan holda, turli-tuman vazifalarni hal qilishga xizmat qiluvchi moliyaviy

resurs va moliyaviy munosabatlarga maxsus texnika va usullar ko‘magida maqsadli ta’sir ko‘rsatish jarayonini ifoda etadi. Moliyani boshqarish jarayonida ular boshqaruv obyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni ushbu yondashuv asosida tahlil qilar ekanmiz, shuni yodda tutish kerakki, ular obyektiv iqtisodiy kategoriya hisoblanadi, shuning uchun ularni bilish, ushbu toifaning o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini o‘rganish orqali boshqarish kerak.

Ayni chog‘da, moliyaviy munosabatlarni samarali boshqarishni yo‘lga qo‘ymay turib, moliya kategoriyasining o‘ziga xos shakl va ko‘rinishlarini tashkillashtirmasadan, mamlakat iqtisodiyotini samarali rivojlantirish mumkin emas. Fanda moliyani boshqarish subyektlari deyilganda, an’anaviy tarzda boshqaruvni bevosita amalga oshiruvchi tashkiliy tuzilmalar yig‘indisi tushuniladi.

Makro darajada bunday tuzilmalarga davlat va mahalliy hokimiyat organlari, byudjet jarayonining boshqa ishtirokchilari kiradi.

Tijorat va notijorat tashkilotlarda (mikro darajada) moliyaviy boshqaruv moliya bo‘limlari yoki xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Tashkilot moliyaviy boshqaruv organlarining tuzilishi uning hajmiga (xolding, o‘rta, kichik korxona va boshqalar), faoliyat turiga (sug‘urta, investitsiya, bank va boshqalar), ayrim hollarda tashkiliy-huquqiy shaklga bog‘liq (masalan, byudjet muassasasi, unitar korxona) bog‘liq bo‘ladi. Moliyani boshqaruvchi barcha tashkiliy tuzilmalar yig‘indisi moliyaviy boshqaruv organlari deb ataladi.

Mazkur organlarning faoliyati ko‘p qirraliligi va o‘ta murakkabligi bilan ajralib turadi, chunki moliyaviy boshqaruvning obyekti davlat moliya tizimining sohalari va bo‘g‘inlarini, ya’ni har bir sohani tashkil etuvchi moliyaviy munosabatlar va tegishli moliyaviy resurslar turlaridan tarkib topadi, ya’ni bunda moliya tizimining har bir bo‘g‘ini va sohasi moliyaviy boshqaruv obyekti hisoblanadi.

Moliyani boshqarish jarayonining mazmuni moliyaviy rejalashtirish va prognozlash, operativ boshqarish va moliyaviy nazoratni o‘z ichiga oluvchi funktsional unsurlarda namoyon bo‘ladi.

Moliyaviy rejalashtirish va prognozlash iqtisodiyotning joriy va istiqbolli rivojlanishini, ma'lum bir davrda uning alohida tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarining o'sish sur'atlaridagi o'zgarishlarni ilmiy asoslash, moliyaviy resurslarning shakllanishi va ulardan foydalanish ustidan dastlabki nazoratni ta'minlashda foydalaniladi.

Moliyaviy bashoratlash jarayonida bashorat qilinayotgan davrdagi mumkin bo'lgan moliya holati o'rganiladi, tegishli moliyaviy rejalarning ko'rsatkichlari asoslanadi, moliyaviy resurslarni safarbar qilishning haqiqiy mumkin bo'lgan miqdori, ularni shakllantirish manbalari va foydalanish yo'nalishlari aniqlanadi.

Moliyaviy bashoratlar tizimi mamlakat yoki tadbirkorlik subyektini rivojlantirish uchun moliyaviy kontseptsiyani ishlab chiqishga yordam beradi, chunki u makro va mikrodarajalarda ilmiy bashorat qilish, variantlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishda qo'shimcha ma'lumot olish vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Moliyaviy bashoratlar moliyaviy boshqaruv organlariga moliya tizimini rivojlantirishning turli variantlarini aniqlash, moliyaviy siyosatni amalga oshirish shakllari va usullarini oldindan bilish imkonini beradi. Moliyaviy bashoratlashda moliyaviy jarayonlarga ta'sir etuvchi turli omillarga bog'liq holda ma'lum darajada ehtimollik bilan ko'rsatkichlar dinamikasini tavsiflovchi iqtisodiy modellardan foydalaniladi.

Moliyaviy bashorat ko'rsatkichlari asosida moliyaviy resurslar harakati va ma'lum bir davr uchun tegishli moliyaviy munosabatlardagi o'zgarishlarni ilmiy asoslash maqsadida moliyaviy rejalashtirish amalga oshiriladi. Moliyaviy rejalashtirish yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektining ham, yaxlit iqtisodiyotning ham mutanosib va muvozanatli faoliyat ko'rsatishiga va rivojlanishiga yordam beradi.

Rejalashtirish jarayonida tadbirkorlik subyektlari va davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlari o'zlarining moliyaviy holatini baholaydilar, moliyaviy resurslar hajmini oshirish imkoniyatlarini va ulardan eng samarali foydalanish yo'nalishlarini aniqlaydilar. Rejalashtirish buxgalteriya, statistik va operatsion

hisobotlarda mavjud bo'lgan moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi, ular yetarli darajada to'liq va ishonchli bo'lishi kerak.

Operativ boshqaruv-bu joriy moliyaviy vaziyatni tahlil qilish va moliyaviy resurslarni tegishli ravishda qayta taqsimlash asosida minimal xarajatlar bilan maksimal samaraga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi.

Bunday boshqaruvga bo'lgan ehtiyoj tadbirkorlik subyektlari tomonidan moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish sharoitidagi hozirgi o'zgarishlar, turli sabablarga ko'ra mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishidagi tendentsiyalar bilan bog'liq bo'lib, ular qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- moliya fanining rivojlanish darajasi, rejalashtirish va prognozlash usullari, iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish va boshqa omillardan kelib chiqqan holda, moliya tizimining rivojlanishini ilmiy oldindan ko'rish imkoniyatlari chegarasining mavjudligi;
- moliya organlari, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash, tashkilotning moliyaviy oqimlarini boshqarish, moliyaviy resurslarni makro darajada taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq noto'g'ri harakatlari natijasida yuzaga keladigan subyektiv omillar;
- alohida korxonalar, shu bilan birga yaxlit iqtisodiyotda ham ishlab chiqarishning rivojlanish sur'ati yoki ritmining buzilishiga olib keluvchi moliyaviy rejani amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan kutilmagan holatlar (ya'ni moliyaviy munosabatlarni tashkil etish sharoitidagi o'zgarishlar, masalan, soliq to'lovlarini amalga oshirish tartibidagi o'zgarishlar) ;
- iqtisodiy rivojlanishni bashorat qilishda ilgari hisobga olinmagan va moliyaviy faoliyatni beqarorlashtirishi mumkin bo'lgan yangi ilmiy-texnik kashfiyotlar;
- ishlab chiqarish maromini buzadigan va jamg'arilgan moddiy qimmatliklarning yo'qotilishiga olib keladigan tabiiy va texnogen favqulodda

vaziyatlar, bu ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun moliyaviy zahiralaridan foydalanishni yoki qo'shimcha moliyaviy resurslarni safarbar qilishni talab qiladi;

- moliya bozori yordamida davlat xarajatlarini ko'paytirish va qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish zaruratini keltirib chiqaradigan xalqaro maydondagi vaziyatlarning chigallashishishi bilan bog'liq kutilmagan hodisalar;

- mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi asnosida, uning rivojlanishidagi ma'lum bir g'ayri oddiyliklar tufayli, iqtisodiyotning amalda bo'lishini bashoratlash qiyin bo'lgan ba'zi bir holatlar.

Moliyaviy nazorat - bu boshqariladigan obyektning haqiqiy moliyaviy holati va boshqaruv qarorlarining samaradorligi to'g'risida ma'lumot to'plash va tahlil qilish uchun davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va moliyaviy xizmatlar tashkilotlarining maxsus faoliyat yo'nalishini ifoda etadi.

Moliyaviy nazorat jarayonida joriy va rejalashtirilgan moliyaviy ko'rsatkichlar taqqoslanadi, moliyaviy resurslardan manzilli va maqsadli foydalanish tekshiriladi, moliya xodimlari va tegishli boshqaruv darajasida moliyaviy resurslarni taqsimlashda bevosita ishtirok etadigan tashkilotlar, vazirliklar va idoralar rahbarlarining harakatlarining qonuniyligi baholanadi.

Shu tariqa, bozor munosabatlariga o'tish bilan moliyaviy nazoratning maqsadi o'zgardi - markazlashgan rejali iqtisodiyotda rejaning bajarilishini nazorat qilish moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi sanalgan bo'lsa, bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy resurslardan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat, shuningdek, moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash chog'ida, moliyaviy bashorat va moliyaviy rejalar tuzilganda, taklif etilayotgan o'zgarishlar, dasturlar, qonunlar, investitsiya loyihalarining moliyaviy natijalari baholanganda, iqtisodiyot, uning alohida tarmoqlari va tashkilotlarini rivojlan-

tirishning uzoq muddatli salbiy tenden-tsiyalari kuzatilganda, o'z vaqtida tezkor choralar ko'rish va turli xil og'ishlarning oldini olish maqsadida ham amalga oshiriladi.

Moliyani boshqarishni tavsifi va davri bo'yicha ham tasniflash mumkin, unga ko'ra strategik (umumiy) moliyaviy boshqaruv va operativ moliyaviy boshqaruv farqlanadi.

Strategik moliyaviy boshqaruv oliy qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan davlat, mamlakat va hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish bashoratlari, alohida tarmoqlarni rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadli dasturlarini tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlash paytida amalga oshiriladi.

Strategik moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish jarayonida moliyaviy siyosatning asosiy yo'nalishlariga muvofiq belgilangan nisbatlarda takror ishlab chiqarishni ta'minlashi kerak bo'lgan moliyaviy resurslarning manbalari va hajmi aniqlanadi; davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslari o'rtasidagi maqbul nisbat o'rnatiladi; ularning o'sishi uchun moliyaviy resurslar va zahiralardan foydalanishning eng samarali usullari aniqlanadi.

Operativ moliyaviy boshqaruv markazlashgan va markazlashmagan darajalarda moliyaviy rejalarni amalga oshirishda bevosita ishtirok etadigan vazirliklar, xizmatlar, idoralar, idoralar va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Strategik va operativ moliyaviy boshqaruvni amalga oshirishda moliyaviy prognozlash va rejalashtirish uslubiyotini asoslash, moliyaviy resurslarni tezkor boshqarishni tashkil etish, boshqaruvning zamonaviy bozor sharoitlariga mos keladigan moliyaviy nazorat usullari va vositalarini ishlab chiqishda ilmiy yondashuvga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda izchillikka rioya qilish muhimdir.

Bu moliyaviy oqimlarni tartibga solishning yangi vositalarini ishlab chiqishga, moliyaviy rivojlanishning ayrim sohalarining afzalliklarini aniqlashga imkon beradi, moliyaviy boshqaruv jarayonida bevosita ishtirok etadigan moliyaviy mexanizmni rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratadi.

Moliyaviy boshqaruv sohasida aniq amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ilmiy asos yaratish, ayniqsa, iqtisodiy subyektlarning faoliyati qattiq raqobat ta'siri ostida bo'lgan va iqtisodiyotning ishlashi o'z-o'zidan paydo bo'lishining ko'plab unsurlarining namoyon bo'lishi bilan ajralib turadigan bozor iqtisodiyotida juda muhimdir.

Hamisha shuni yodda tuting, rejalashtirishga sarflangan har bir daqiqa sizga kelgusida yuzlab daqiqalarni tejash va tog‘dek yumushlardan xalos bo‘lish imkonini beradi.

Brayn Traysi

6-BOB. MOLİYAVIY REJALASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH

1. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solish.

6.1. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash

“Rejalashtirish” tushunchasining ma’no-mazmunini yanada umumiyroq bo‘lgan va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirishning obyektiv zarurligi va imkoniyatini anglatuvchi “rejalilik” orqali aniqlash mumkin. Haqiqatdan ham rejalashtirish amaliyotda rejalilikni amalga oshirishni, ya’ni muvozanat va mutanosiblikka erishish bo‘yicha ongli faoliyatni bildiradi. Shu ma’noda, moliyaviy resurslarning muvozanati va mutanosibligini ta’minlashga qaratilgan faoliyatga moliyaviy rejalashtirish deyiladi.

Bunda muvozanatlilik davlatning ixtiyorida bo‘lgan moliyaviy resurs-lar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ixtiyorida qolgan daromadlar o‘rtasidagi maqbul nisbatni bildiradi. Mutanosiblik esa korxonalar, xo‘jalik tarmoqlari, hududlar va davlat subyektlari bo‘yicha daromadlarning soliq to‘languncha va soliq to‘langandan keyingi miqdorlari o‘rtasidagi oqilona nisbatdan iborat. Ana shu nisbatni ko‘paytirish yoki kamaytirish orqali davlat ularning rivojlanishini rag‘batlantirish yoki cheklab qo‘yishi mumkin.

Umumiy va oddiy ko‘rinishda, moliyaviy rejalashtirish deyilganda moliyaviy rejalarni tuzish va amalga oshirish jarayoni nazarda tutiladi. Moliyaviy rejani, xuddi uni ishlab chiqish, yaratish yoki tuzish jarayoni kabi moliyaviy ko‘rsatkichlarni ijodiy tahlil qilish, umumlashtirish va o‘zaro bog‘lash tizimi sifatida qarash kerak. Amaliyotda tez-tez foydalaniladigan rejalashtirish ma’lumotlarini, masalan, korxona faoliyatining shakliy modelini ishlab chiqish va shu asosda moliyaviy ko‘rsatkichlarning rejali tizimini aniqlashni, moliyaviy rejalashtirishning ishchi sxemasi sifatida qarash mumkin.

Moliyaviy rejalashtirish tamoyillari


№	Tamoyillar	Tamoyilning mazmuni
1.	Sinxronlik	Pul mablagʻlarining kirimi va chiqimi belgilangan muddatlarda amalga oshishi lozim
2.	Integratsiya	Moliyaviy reja- korxona umumiy rejasi tizimining bir qismi hisoblanadi
3.	Toʻlovga qobillik	Har qanday davrda majburiyatlarni qoplash uchun likvid mablagʻlarning yetarliligi
4.	Talab	Bozor koʻlami, raqobatchilarning hatti-harakatlarini hisobga olish
5.	Xatarlarning muvozanatlashganligi	Oʻz mablagʻlari hisobiga uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish
6.	Daromadlilikni maqbullashtirish	Xatarlarni kamaytirish, daromadlilikni oshirish
7.	Byudjetlashtirish	Korxona va uning boʻlinmalari uchun joriy moliyaviy rejalar tuzish
8.	Moslashish	Oʻzgaruvchan muhitga moslashish va xarajatlarni toʻlaonli hisobga olish

“Moliyaviy rejalashtirish” tushunchasi oʻz ichiga quyidagilarni oladi:

- taraqqiyotning asosiy tendentsiyalarini aniqlash va moliyaviy tahlil qilish;
 - jalb qilingan mablagʻlar va vaqtincha boʻsh turgan mablagʻlarni joylashtirish menejmenti;
 - firma ichidagi moliyaviy natijalar va pul mablagʻlarini rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilish texnologiyasi;
 - investitsion boshqarish;
 - kapitalni boshqarish;
 - faoliyatning boshqa koʻrinishlari (trast, faktoring, lizing va boshqalar).
- Quyidagilar moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:
- ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyatlarni kerakli boʻlgan moliyaviy resurslar bilan taʼminlash;
 - pul mablagʻlarini iqtisod qilish, tejamli foydalanish hisobidan korxonaning foydasini oshirish boʻyicha ichki zahiralarini qidirib topish;
 - kapitalni samarali joylashtirish yoʻllarini aniqlash, undan oqilona va samarali foydalanishni baholash;

- hamkorlar (sheriklar) bilan maqbul moliyaviy munosabatlarni oʻrnatish;
- korxonaning moliyaviy ahvoli, toʻlovga qobilligi va kreditga layoqatliligi ustidan nazorat oʻrnatish (6.1-rasm).

Bozor munosabatlari qaror topgunga qadar moliyaviy rejalash-tirishning mazmuni korxonalarda sof operativ vazifalarni – markazlashgan iqtisodiyot tartib-tamoyillarini amalga oshirish, yuqoridan quyiga tartibda tuziluvchi rejalarni bajarishga qaratilgan edi. Bozor iqtisodiyotida moliyaviy xizmatlarning oʻrni tubdan oʻzgardi.



6.1-rasm. Moliyaviy rejalashtirish mazmuni

Ular korxona rivojlanishini belgilaydi va bu borada taʼsirchan choralar koʻradi, bir vaqtning oʻzida, korxonani rivojlantirish borasida qoʻyilgan maqsadlarga erishilishini nazorat qiladi. Hozirgi sharoitda moliyaviy rejalashtirish barcha zaruriy harakatlarni oldindan koʻzda tutish emas, balki bu boradagi ishlarni amalga


oshirish jarayonida yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday kutilmagan holatlarni ko'ra olish qobiliyati hamdir. Albatta, xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatidagi barcha risklarga barham bera olmasada, bunday risklarni muayyan darajada boshqara oladi (6.2-rasm).

Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida quyidagi asosiy usullardan foydalaniladi:

- iqtisodiy tahlil usuli;
- normativ usul;
- balansli hisob-kitob va pul oqimlari usuli;
- ko'p variantlilik usuli;
- iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli;
- va boshqa usullar.

Moliyaviy rejalashtirish jarayonining quyidagi asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:


- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalarini tadqiq etish;



6.2-rasm. Moliyaviy rejalashtirish ko'lam

- operativ rejalarning o'zgarishi asosida moliyaviy hisobotlarning bashorat variantlarini ishlab chiqish;
 - reja topshiriqlarning bajarilishini ta'minlash uchun xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarga bo'lgan aniq ehtiyojlarini aniqlash;
 - moliyalashtirish (o'z va tashqi) manbalari va ularning tarkibiy tuzilishini bashoratlash;
 - xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarish tizimini yaratish va uni qo'llab-quvvatlash;
 - shakllantirilgan rejalarni operativ o'zgartirish tartibini ishlab chiqish.
- Moliyaviy rejalashtirishni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:
- strategik moliyaviy rejalashtirish;

- joriy moliyaviy rejalashtirish (6.3-rasm).



6.3-rasm. Moliyaviy rejalashtirish turlari

Strategik moliyaviy rejalashtirish istiqbolda tijorat tashkilotlari moliyasini rivojlantirishning mumkin bo'lgan yo'llarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bu korxonani rivojlantirishning strategik maqsadlarini amalga oshirishning asosiy shakli hisoblanadi. Strategik moliyaviy rejalashtirish yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishni ta'minlaydi, bu moliyaviy resurslar va daromadlarning o'sishi, ulardan oqilona foydalanish, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini mustahkamlashda namoyon bo'ladi.

Strategik moliyaviy reja, hech bo'lmaganda, quyidagi savollarga aniq javob bermog'i lozim:

- xo'jalik yurituvchi subyekt uchun talab qilinadigan kapitalning o'lchami qanday, u qaysi manbalar hisobidan va qanday muddatlarda jalb qilinadi?
- bu kapitaldan qanday qilib foydalaniladi?

- o‘z kuchiga ishongan holda xo‘jalik yurituvchi subyekt rivojlanishi mumkinmi? Agar yo‘q bo‘lsa, moliyaviy resurslarni jalb qilishning manbalari qanday?

- xo‘jalik yurituvchi subyekt pul mablag‘lari tushumi, ishlab chiqarishning rentabelligi va investitsiyalar daromadligining qanday darajalariga chiqishi mumkin va qay muddatlarda?

O‘z navbatida, joriy moliyaviy rejalashtirishning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish, investitsion, marketing, ilmiy-loyihaviy va qidiruv faoliyatlarini hamda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarning hajmi va ularning manbalarini aniqlash;


- mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish tannarxini rejalashtirish;

- pul oqimlarini rejalashtirish;

- butun xo‘jalik yurituvchi subyekt doirasida foydani rejalashtirish (bashoratlash);

- investitsiyalarning daromadliligini rejalashtirish.


Moliyaviy rejalashtirish mamlakat milliy xo‘jaligini rejalashtirishning tarkibiy qismi bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejasining ko‘rsatkichlariga tayanadi, moliya tizimi barcha organlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirishga yo‘naltiriladi. Moliya tizimi alohida bo‘g‘inlarining nisbiy mustaqilligi quyidagilarni o‘zida aks ettiruvchi moliyaviy rejalarning ishlab chiqilishi zarurligini belgilab beradi:



6.4-rasm. Moliyaviy rejalashtirish jarayoni.

- pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish shakl va usullarining o'ziga xosligi;

- moliyaviy resurslarni tarmoqlar va hududlar bo'yicha qayta taqsimlash.



6.5-rasm. Jamlanma moliyaviy rejalar tuzilmasi

Moliyaviy rejalar tizimi markazida byudjet rejasi turadi, unda byudjet fondining harakati, daromadlar va xarajatlarni shakllantirish va ulardan foydalanishning shakllari va usullari, daromad va xarajatlarning tarkibiy tuzilishi va tuzilmasi o'zining miqdoriy ifodasini topadi.

Moliyaviy rejalashtirishning umumdavlat va hududiy darajalariga istiqbolli moliyaviy rejalar, moliyaviy balanslar va shuningdek, aholi daromadlari va xarajatlari harakatining balansini ishlab chiqish va amalga oshirishlar kiradi.

Istiqbolli moliyaviy rejalashtirish iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot hamda moliyaviy siyosatni muvofiqlashtirish, amalga oshiriluvchi islohotlarning

moliyaviy oqibatlarini kompleks tarzda bashoratlash, uzoq muddatli salbiy holatlarni kuzatish va ularga nisbatan tegishli choralarni o'z vaqtida qabul qilish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Odatda, istiqbolli moliyaviy rejalar kelgusi uch yil uchun ishlab chiqiladi, uning birinchi yilida byudjet tuziladi, navbatdagi ikki yil reja davri hisoblanib, ular davomida e'lon qilingan iqtisodiy siyosatning haqiqiy natijalari kuzatiladi. Istiqbolli moliyaviy rejalar mamlakat, uning ma'muriy-hududiy tuzilmalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining aniqlashtirilgan o'rta muddatli bashoratining ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda har yili o'zgartirilishi va tuzatishlar kiritilishi mumkin. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish nisbatlari va muvozanatini ta'minlash, pul muomalasini tartibga solishda davlatning yig'ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) va har bir ma'muriy-hududiy tuzilmalarning daromadlar - xarajatlar balansi muhim o'rinni egallaydi. Davlatning yig'ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) mamlakat, uning subyektlari, mahalliy-hududiy tuzilmalari, ma'lum hududda faoliyat ko'rsatayotgan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha daromadlari va xarajatlari yig'indisidan iboratdir. U o'tgan yilgi davlatning hisobot yig'ma moliyaviy balansi asosida va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining bashorat ko'rsatkichlariga muvofiq ravishda tuziladi hamda byudjet loyihalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu moliyaviy rejalar (hujjatlar) Moliya vazirligi va moliya tizimining boshqa bo'linmalari faol ishtirokida Iqtisodiy taraqqiyot va kamabag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi. Balansda byudjet, byudjetdan tashqari jamg'armalar, sug'urta jamg'armalari, kredit fondi, korxona va tashkilotlarning pul mablag'lari va nihoyat, fuqarolarning pul mablag'lari tarkibida rejalashtirilayotgan resurslarning shakllanishi, ulardan foydalanish aks ettiriladi. Moliyaviy rejalashtirishning balans usuli mamlakat, uning ma'muriy-hududiy tuzilmalari va mahalliy ma'muriyatlari ko'lamida moliyaviy resurslar defitsitini aniqlashga, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida mablag'larni samarali va asosli qayta taqsimlashga imkon beradi. Davlatning yig'ma moliyaviy balansi

(moliyaviy resurslar balansi) mavjud barcha moliyaviy rejalarni yagona tizimga birlashtiradi. Uning ko'rsatkichlari byudjet va boshqa moliyaviy rejalarni tuzishda asos sifatida qabul qilinadi.

Boshqa bir sintetik balans – aholi daromadlari va xarajatlarining balansi - davlatning yig'ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) bilan bevosita bog'liq. Unda naqd pulli va naqd pulsiz shakllardagi aholi pul resurslarining harakati o'z ifodasini topadi. Balansda aks ettirilayotgan aholining pul daromadlari o'zining manbasiga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi:

- ish haqi va ish haqiga ustamalar, mukofotlar, safar xarajatlari uchun mo'ljallangan mablag'lar, yollanma ishchilarga (xodimlarga) ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy tavsifdagi to'lovlar;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, korxonalarning foydasida ishtirok etish, shaxsiy mulk bilan operatsiyalar va moliya-kredit operatsiyalaridan olinadigan daromadlar;
- ijtimoiy transfertlar - davlat pensiyalari, nafaqalar, stipendiyalar va boshqalar.

Xuddi shuningdek, balansda aks ettirilayotgan aholining pul xarajatlari ham quyidagi guruhlardan iborat bo'ladi:

- iste'mol xarajatlari;
- soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va ixtiyoriy badallar;
- pul jamg'armalari.

Muayyan bir muddatni qamrab olishidan kelib chiqqan holda, moliyaviy rejalar ikki guruhga bo'linadi:

- uzoq muddatli moliyaviy rejalar;
- qisqa muddatli moliyaviy rejalar.

Uzoq va qisqa muddatli moliyaviy rejalar bir-birlaridan nafaqat o'zining qamrab olish ko'lamini bo'yicha, balki rejalashtirish maqsadlariga ko'ra ham farqlanadi. Agar uzoq muddatli moliyaviy rejalarining (rejalashtirishning) bosh maqsadi moliyaviy barqarorlik nuqtai-nazaridan firma kengayishining yo'l


qo'yilishi mumkin bo'lgan sur'atlarini aniqlash bo'lsa, qisqa muddatli moliyaviy rejalarning (rejalashtirishning) bosh maqsadi firmaning doimiy to'lovga qobilligini ta'minlashdan iboratdir.

Alohida olingan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy rejasi unga tegishli bo'lgan biznes-rejaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda marketing, operativ faoliyat, mulkka egalik huquqi va korxona faoliyat ko'rsatishining boshqa yo'nalishlari (jihatlari) qiymat ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Moliyaviy reja korxona butun faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlashning vositasi sifatida maydonga chiqadi va bir vaqtning o'zida, mazkur faoliyatning moliyaviy natijalarini tavsiflaydi. Biznes-rejaning tarkibida moliyaviy reja quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqiladi:

- bozorlar va ko'zda tutilayotgan sotish hajmini o'zlashtirishning loyihaviy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;
- tannarxning turli ko'rinishlarini (to'liq, ishlab chiqarish, to'g'ri va boshqalar) hisob-kitob qilish. Bu yerda marketing tadqiqotlari, reklama, bozorlarni o'zlashtirish xarajatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi;
- pul mablag'larining yillik oqimini loyihalash va moliyaviy natijalarni aniqlash. Bu tushumlarning kelib tushishi, debitorlik va kreditorlik qarzlarning o'zgarishi, moliyaviy to'lovlarni maqbullash-tirish kabilarni taqozo etadi;
- zaruriy investitsiyalar, ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha moliyaviy resurslarning hajmi, ularning samaradorligi va foydaga ta'sirini aniqlash;
- va boshqalar.

Umuman olganda, moliyaviy rejalarning ko'rsatkichlari davlatning moliyaviy ahvolini tahlil qilish uchun boshlang'ich material hisoblanadi, istiqbolli rejalashtirishning axborot asosi bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy rejalar tizimi moliyaviy resurslar manbalarining (jismoniy va yuridik shaxslar daromadlari) tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarning obyektiv ravishda o'zaro bog'liqligi va uzoq

muddatli tendentsiyalarini, shuningdek kelajakda bu tendentsiyalar rivojlanishiniga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlashga imkon beradi (6.6-rasm).




6.6-rasm. Moliyaviy rejalar tizimi

Moliyaviy rejalashtirishni moliyaviy bashoratlashsiz tasavvur etib bo'lmaydi. U yoki bu davr mobaynida davlatning mumkin bo'lgan moliyaviy holatini oldindan ko'ra bilish va moliyaviy rejalarning ko'rsatkichlarini asoslashga moliyaviy bashoratlash deyiladi. Nazariya va amaliyotda moliyaviy bashoratlash ikkiga ajratiladi:

- o'rta muddatli (5-10 yillik) moliyaviy bashoratlash;
- uzoq muddatli (10 yildan ortiq) moliyaviy bashoratlash.

Moliyaviy bashoratlash moliyaviy rejalarni tuzishdan avval amalga oshiriladi. Unda jamiyatning ma'lum bir davrdagi taraqqiyotiga bag'ishlangan moliyaviy siyosatning kontseptsiyasi ishlab chiqiladi. Moliyaviy bashoratlashning

bosh maqsadi bashoratlanayotgan davrda haqiqatda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarning real hajmi, ularni shakllantirish manbalari va ulardan foydalanishni aniqlashdan iborat. Moliyaviy bashoratlar moliya tizimi organlariga moliya tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning, moliyaviy siyosatni amalga oshirish shakllari va usullarining turli-tuman variantlarini belgilashga imkon beradi. Shu ma'noda, moliyaviy bashoratlar moliyaviy siyosatni ishlab chiqishning zaruriy unsuri va bir vaqtning o'zida muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. Ular yordamida moliya tizimining barcha subyektlari oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechishning (hal qilishning) turli stsenariyalari ishlab chiqiladi (6.7-rasm).



6.7-rasm. Rejalashtirish va bashoratlashning o'zaro bog'liqligi

Moliyaviy bashoratlash turli usullarning qo'llanilishini taqozo etadi. Ularning eng asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiy jarayonlarni aniqlashtiruvchi omillarga asoslangan holda, moliyaviy reja ko'rsatkichlarining dinamikasini tavsiflovchi ekonometrik model yaratish;
- korrelyatsion-regression tahlil;
- bevosita ekspertli baholash usuli.

Asosini aniq shakllantirilgan maqsad va unga erishishning vositalari tashkil etuvchi moliyaviy rejalashtirish usuli sifatida moliyaviy dasturlashtirish quyidagilarni koʻzda tutadi:

- davlat xarajatlarining ustuvor yoʻnalishlarini belgilash;
- davlat mablagʻlari sarflanishining samaradorligini oshirish;
- tanlangan muqobil variantga mos tarzda, moliyalashtirish tartibiga tuzatish va oʻzgartirishlar kiritish.

Dastur variantining tanlanishi, eng avvalo, iqtisodiy omillarga (resurslarga) bogʻliq. Bunda faqat maqsadga erishish koʻlami, ahamiyati va murakkabligi emas, balki mavjud zahiralarining hajmi, kutilayotgan pirovard samara, maqsadga erishilmagan taqdirda potentsial yoʻqotishlar ham hisobga olinadi. Moliyaviy siyosat sohasidagi uzoq va qisqa muddatli maqsadlar va choralarni muvofiqlashtirishning muhim usuli sifatida dasturlashtirishdan moliyaviy rejalashtirishning hozirgi amaliyotida faol foydalanish maqsadga muvofiqdir.

6.2. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solish


Oʻzbekistonda iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy oʻsishni taʼminlash asosiy ustuvor vazifa etib belgilab kelindi. Maʼlumki, makroiqtisodiy barqarorlik mamlakatning YaIM da namoyon boʻladi va u davlatning iqtisodiy qudratiga baho beradi. Global pandemiya dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga, shu jumladan, boshqa Markaziy Osiyo davlatlari qatori Oʻzbekistonga ham salbiy taʼsir koʻrsata boshladi. Shu sababdan, Oʻzbekistonda ushbu taʼsirlarni kamaytirish va iqtisodiy inqirozni yumshatishga qaratilgan tezkor choralar koʻrildi, Prezidentimizning 20 ga yaqin farmon va qarorlari qabul qilindi. Inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan, iqtisodiy choralarning dastlabki va ikkinchi toʻplamlari jami qiymati 32,3 trln. soʻmdan ortiqni tashkil etdi. Jumladan, Inqirozga qarshi kurashish jamgʻarmasi tashkil etilib, mazkur mablagʻlar koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash boʻyicha tadbirlarga yoʻnaltirildi.

Makroiqtisodiy barqarorlik – bu barqaror narhlar darajasi, ishsizlikning past darajasi, milliy valyutani barqarorligi, kapitalning erkin harakati. Uzoq muddatli davrda inflyatsiyani past darajasida davlat tomonidan investitsiya va jamg'armalarni oshirishga sharoit yaratishdir.

O'zbekistonda hukumatimiz tomonidan ko'rilgan choralar orqali makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga erishildi. Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblik ta'minlanib, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlar takomillashtirildi, Soliq va soliqqa tortish tizimi soddalashtirildi, hamda soliq ma'muriyatchiligi ta'minlandi. Ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirildi, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga erishildi. Bank tizimini isloh qilish chuqurlashtirildi va barqarorligi ta'minlandi, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish yo'lga qo'yildi.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalar kengaytirildi, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirilib jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir. Bunda iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va tartibga solish mexanizmlari zarur hisoblanadi.



6.8-rasm. Mamlakatni hududiy jihatdan rivojlantirishning moliyaviy mexanizmi unsurlari

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlabqolish uchun ustuvor vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash;

- xarajatlarning ijtimoiy yoʻnaltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni taʼminlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish va tegishli ragʻbatlantiruvchi choralarni kengaytirish;

- ilgʻor xalqaro tajribada qoʻllaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini taʼminlash.

Oʻzbekiston iqtisodiyotida tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish boʻyicha ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini taʼminlash, uning tarkibida sanoat, xizmat koʻrsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini koʻpaytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

xizmat koʻrsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning oʻrni va ulushini oshirish, koʻrsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan oʻzgartirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

6.1-jadval.

2016–2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti soliqli daromadlarining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2016 yil		2017 yil		2018 yil		2019 yil		2020 yil	
	mlrd., so‘m	foizda	mlrd., so‘m	foizda	mlrd., so‘m	Foizda	mlrd., so‘m	foizda	mlrd., so‘m	foizda
Davlat maqsadli jamg‘armalar daromadlarisiz- jami	40505,8	100	44469,6	100	62229,5	100	102627,6	100	128460	100
Bevosita soliqlar	9338,5	23,0	10674,2	24,0	12805,4	20,6	29125,5	28,4	40719,1	31,7
Foyda solig‘i	1266	3,1	1291,1	2,9	2510,9	4,0	15 980,0	15,6	22051,1	17,16
Yagona soliq to‘lovi (2020 yildan AOS)	1237,9	3,1	1622,8	3,6	2110,5	3,4	1192,1	1,2	2599,9	2,02
Daromad solig‘i	4040,4	10,0	4476,1	10,1	5198,8	8,4	11 367,4	11,1	16068,0	12,5
Qat’iy belgilangan soliq	742,5	1,8	831,7	1,9	1077,6	1,7	586,0	0,6	0,1	
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilma solig‘i	668,5	1,7	839,3	1,9	–	–	–	–	–	–
Bilvosita soliqlar	22298,1	55,1	24285,4	54,6	33404,3	53,7	47 029,8	45,8	58244,2	45,3
QQS	12505	30,8	13422,1	30,2	22019,4	35,4	35 993,5	35,1	44193,2	34,4
Aksiz solig‘i	6480	16,0	6870,8	15,5	8343,8	13,4	9 017,5	8,8	11339,0	8,8
Bojxona boshlari	1717,4	4,2	1632,2	3,7	1415,3	2,3	2 018,8	2,0	2712,0	2,1
Transport vositalariga benzin va dizel yoqilg‘isi ishlatganlik uchun soliq	1595,7	4,0	1940,3	4,3	1323,2	2,1	–	–	–	–
Mol-mulk solig‘i va resurs to‘lovlari	5806,5	14,3	6049,5	13,7	9714,5	15,6	16 906,0	16,5	20690,4	16,1
Mol-mulk solig‘i	1874	4,6	1988,8	4,5	2158,9	3,5	1851,1	1,8	2410,3	1,8
Yer solig‘i	873,5	2,1	1102,5	2,5	1266,6	2,0	1834,3	1,8	2315,8	1,8
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2874,6	7,1	2746,3	6,2	6203,1	10,0	12 952,1	12,6	15616,6	12,1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	184,4	0,5	211,9	0,5	85,9	0,1	268,5	0,3	347,7	0,3
Qo‘shimcha foyda solig‘i	390,2	1,0	723,2	1,6	1367,7	2,2	130,0	0,1	–	–
Boshqa daromadlar	2672,5	6,6	2737,3	6,1	4937,6	7,9	9 436,3	9,2	8806,5	6,8

yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Xalqaro ekspertlar tomonidan mamlakat miqyosida makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanganlik darajasi quyidagi omillar yordamida baholanadi:


- iqtisodiy o'sish;
- to'la bandlik;
- ichki narxlarining barqarorligi (past darajada inflyatsiya);
- milliy valyutaning barqarorligi;
- barqaror to'lov balansi;
- davlat byudjeti defitsiti Yal Mga nisbatan 3 foiz dan oshmaganligi;
- mamlakat aholisi orasida daromadlarning odil taqsimlanish darajasi va boshqalar.

Mamlakat miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulotni taqsimlash jarayonida moliyaviy instrumentlarning keng arsenalini ishtirok etib, soliqlar davlat ixtiyorida shakllantiriladigan markazlashtirilgan fondlar moliyaviy resurslarini shakllantirish instrumenti hisoblanadi. Soliqlar milliy daromadni asosiy taqsimlovchi kategoriyalardan biri sifatida ijtimoiy manfaatlarning moliyaviy asosini o'zida ifodalovchi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish instrumenti hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini va investitsion faolligini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi.

Imtiyozlar yordamida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va hokazo. Shuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablag'larning eng kam miqdori davlat vazifasi bajarilishiga tegishli eng kam xarajat hajmi bilan bog'liq bo'ladi va shu hajm bilan chegaralanadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha *Harakatlar strategiyasi* asosida amalga oshirilayotgan islohotlarda “Soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish”⁵⁰ hamda “Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta‘minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish” bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar asosida O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi qabul qilingan. Ushbu kontseptsiyada “... soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to‘lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to‘lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi”⁵¹ e’tirof etilgan.



6.9-rasm. Davlat byudjeti daromadlari tuzilmasi

Natijada, 2019 yildan, ish haqi fondidan ko‘p bosqichli soliqqa tortish tizimini qisqartirish va yangi tartibni kiritish bilan bog‘liq islohotlarni amalga oshirilishi, shuningdek “fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak”⁵²ligi ko‘zda tutilgan edi. Davlat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini mablag‘ bilan ta‘minlashning asosiy

⁵⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони Тошкент ш., 2017 йил 7 февраль, 1-илова.

⁵¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида”ги ПФ-5468-сон Фармони. Тошкент шаҳри, 2018 йил 29 июнь.

⁵² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига йўллаган мурожаатномаси. Тошкент шаҳри, 28 декабр, 2018 йил.

manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir (6.1-jadval).

Iqtisodiy erkinlashtirish orqali davlat zimmasidagi bir qator vakolatlar va vazifalarning quyi bo'g'inlariga ya'ni, o'z-o'zini boshqarishga asoslangan hokimiyat bo'g'inlariga o'tkazilishi, davlatning tegishli organlari tomonidan jamiyat a'zolariga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning ayrim turlari bo'yicha muqobil tarzda davlat organlari bilan birga ushbu xizmatlarni amalga oshiruvchi subyektlarning yuzaga kelishi, qolaversa, korxonalar, tashkilotlar va aholi tomonidan bunday xizmatlarning ba'zilarini ularning o'zlari tomonidan moliyalashtirish tashabbuslarining bildirilishi oxir oqibat nafaqat davlat byudjeti daromadlarini, shuningdek, byudjet xarajatlarini ham erkinlashtirishga pirovardida esa soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishga moddiy asos yaratilishiga olib keldi. 6.1-jadval va 6.9-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bilvosita soliqlar soliq tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan soliqlardan hisoblanadi. Bilvosita soliqlar korxonalar faoliyatiga neytral (xolis) pozitsiyadadir, degan nazariyadan kelib chiqib, respublikamizda ularni fiskal ahamiyatiga qarab katta e'tibor berilmoqda, keyingi qariyb 20 yil mobaynida qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi o'zgarimasdan 20 foizni tashkil etdi (6.2-jadval).

6.2-jadval.

Yillar davomida QQS stavkasining o'zgarishi (%da)

Yillar	Soliq stavkasi (%)
1992 yil	30
1993–1994 yillar	25
1995 yil	18
1996 yil	17
1997 yil	18
01.01.1998-30.09.2019 yillar	20
2019 yildan to shu kungacha	15

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida bilvosita soliqlardan yana biri hisoblangan va davlat byudjeti daromadlarida katta ulushga ega bo'lgan Aksiz

solig'i bo'yicha aktsiz osti tovarlar miqdori kamaytirildi. Bilvosita soliqlarning stavkasini nisbatan pasaytirilishi mamlakatdagi to'lov tizimi va inflyatsiyani barqarorlashuviga ijobiy ta'sir etuvchi fiskal omillardan biri bo'ldi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, agar ta'sir darajasi ham, soliq yuki ham yuqori bo'lsa daromadlarni ko'proq yashirishga moyillik ortadi, daromad olishga bo'lgan qiziqishlar bir muncha so'nadi, aksincha, soliq yuki kam bo'lsa aks holat yuz beradi. shunga ko'ra mamlakatimizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari yillar davomida pasaytirilib kelindi va 2019 yilda mazkur soliqning progressiv stavkasidan voz kechildi (Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishni takomillashtirish maqsadida barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yagona stavkasi 12 foiz miqdorida joriy etildi).

Soliq stavkalarining pasaytirilishiga qaramay, ishchilar sonining legallashtirilishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishi hisobiga davlat byudjetida daromad solig'i o'ziga xos salmoqqa ega bo'lmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i daromad solig'i nafaqat jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida, balki barcha soliq turlari orasida byudjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq turi hisoblanadi.

Soliq tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar doirasida O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda gi O'RQ-599-son qonuni bilan Soliq kodeksining yangi tahriri qabul qilindi⁵³.

Yangi Soliq kodeksi soliq qonunchiligini maksimal darajada soddalashtirish (soliq va yig'im turlari va miqdorlarini optimallashtirish), qarama-qarshiliklar va nizolarni bartaraf etish (havolali normalar ning va qonunosti hujjatlarining cheklanishi), halol soliq to'lovchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, shuningdek, soliq nazorati mexanizmlarini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Yangi Soliq kodeksining asosiy hususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi:

⁵³ <https://soliq.uz/page/soliq-kodeksi-yangi-tahrirda?lang=latn>

1. Soliq imtiyozlarini berish qoidalari qayta ko'rib chiqilib, unga muvofiq soliqlarni to'lashdan to'liq ozod etish faqat Soliq kodeksi bilan taqdim etiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan soliq imtiyozlari (QQS, tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar) uchun Aksiz solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari) faqat belgilangan stavkani 50 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda pasaytirish shaklida, uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga berilishi mumkin.

2. Soliq qarzini soliq to'lovchining debitorlari mablag'lari hisobidan majburiy undirish chorasi bekor qilindi.

3. Soliq organlarining ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlarni o'z vaqtida qaytarilmaganligi uchun javobgarlik kuchayti rildi. Ortiqcha undirilgan soliq va moliyaviy sanksiyalar ushbu sum malarni undirish (to'lash) davrida amalda bo'lgan Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi asosida hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda qaytariladi.

4. Soliq majburiyati bajarilishini ta'minlashning mol-mulk garovi, bank kafolati va kafillik ko'rinishidagi yangi shakllari o'rnatildi.

5. Soliq organlariga tahlika-tahlil tizimiga asoslangan kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditini tayinlash huquqini beradigan soliq nazoratini o'tkazishning yangi tartibi nazarda tutilgan.

6. Soliq nizolarini sudgacha hal qilish tartibi aniqlashtirildi, shuningdek javobgarlik choralari soliq huquqbuzarligi turidan kelib chiqqan holda belgilanadigan bo'ldi.

7. Soliq to'lovchilarning alohida toifalari (yirik soliq to'lovchi-lar, eksportyorlar, bank kafolati taqdim etgan yoki soliq organlari bilan garov shartnomasi tuzganlar) uchun 7 kun davomida QQSni qaytarishning tezlashtirilgan tartibi belgilandi.

8. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan xorijiy diplomatik va unga tenglashtirilgan vakolatxonalariga amaldagi nol stavka o'rniga QQSni qaytarish tizimi joriy etildi.

9. Xorijiy sayyohlar uchun “Tax free” tamoyili bo'yicha QQS ni qaytarish tartibi joriy etilmoqda.

10. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari va soliq to'lovchilarning alohida toifalarini soliqqa tortish xususiyatlari inobatga olinib, unda soliq solish shartlari, shuningdek soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi batafsil aks ettirildi.

1. Transfert narxlarning shakllanishi va nazorat qilinadigan xorijiy kompaniyalar, shuningdek, soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun soliq solishning normalari kiritildi.

2. Elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi xorijiy yuridik shaxslarga soliq solish tartibi nazarda tutilgan.


Yagona ijtimoiy to'lov o'rniga ijtimoiy soliq, yagona soliq to'lovi o'rniga - aylanmadan soliq, qat'iy belgilangan soliq o'rniga - jismoniy shaxslarning daromadlariga, ularga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ilgari berilgan imtiyoz va soliqni hisoblash xususiyatlarini saqlab qolgan holda, qat'iy belgilangan miqdorda soliq joriy etildi.

Davlat byudjeti xarajatlarining asosiy maqsadi davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan iqtisodiyotni boshqarish, ijtimoiy sohani tartibga solish, ilmiy-texnik taraqqiyotni rag'batlantirish, mudofaa qobiliyatini va qonunchilik tizimini mustahkamlashni ta'min-lashga oid o'z faoliyati davomida byudjet mablag'laridan foydalanishida namoyon bo'ladi. shunga muvofiq davlat byudjeti xarajatlari tarkibiy o'zgarish dinamikasiga qarab, davlatning milliy iqtisodiyotda amalga oshirayotgan islohotlar ko'lamiga baho berish mumkin bo'ladi.

Qisqa tarixiy davr mobaynida, ya'ni 2017–2021 yillar Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarning kontseptual asoslari quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

1. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibidagi yuqori ulushga ega bo'lgan ijtimoiy soha xarajatlari manzilli va maqsadli sarflanishini ta'minlash, aholi turmush farovonligi va real daromadlarini oshirishda byudjet xarajatlarining ahamiyatini oshirish masalalari dolzarb masalasi belgilandi.

2. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari shakllantirishning amaldagi mexanizmlarini samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarda hududiy rivojlanishning barcha muammoli masalalari qamrab olish imkonini beradigan byudjet jarayonini takmillashtirish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. Xususan, Davlat byudjetidan qishloq joylardagi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish, shu jumladan, ularni ichimlik suvi bilan ta'minlash va qishloq yo'llarini qurish uchun yetarlicha mablag' ajratish mexanizmini ishlab chiqish va uni hayotga joriy etish bo'yicha 2018 yildan boshlab tizimli islohotlar olib borilmoqda.



6.10-rasm. Fiskal siyosat strategiyalari

3. Davlat byudjetini rejalashtirish jarayonida uning xarajatlarini taqsimlashdagi haddan tashqari yuqori darajadagi markazlashuvi tufayli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda mahalliy

boshqaruv organlarining shaxsiy mas'uliyat hissini oshirish maqsadida ularning vakolatlarini oshirish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va xarajatlarini sarflash sohasida ijro etuvchi boshqaruv organlari rahbarlarining aholi va xalq deputatlari kengashlari oldida hisobdorligini oshirish va partisipativ byudjetlashtirish mexanizmini joriy qilinishi natijasida davlat va mahalliy byudjet xarajatlarining sotsial va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarida sifat jihatidan sezilarli o'sish kuzatilmoqda.

4. Davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirishda o'rta muddatli fiskal siyosat strategiyalariga asoslangan holda rejalashtirish tizimi joriy qilindi (6.10-rasm).

O'rta muddatli fiskal siyosat yuritish amaliyotiga asoslangan byudjetlashtirishga o'tish o'rta istiqbolida byudjet daromadlari va xarajatlari o'zida mujassamlashtiruvchi fiskal siyosatining asosiy yo'nalishlari ni aniqlashtirishni ko'zda tutadi. O'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan fiskal siyosatning asosiy yo'nalishlarini o'z ichida mujassamlashtiruvchi hujjat – Fiskal strategiya qabul qilina boshladi. Fiskal strategiya vazirlik va idoralarga o'zlarining o'rta muddatli dasturlari va investitsiya loyihalarini rejalashtirish imkonini berib, investorlar va soliq to'lovchilarga o'zlarining biznes loyihalarini shakllantirishda mo'ljal sifatida xizmat qiladi

Ushbu uslubiyot makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, soliq-byudjet siyosatining oldindan ko'ra bilish nuqtai nazaridan yillik rejala shtirishning salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va oluvchilar o'zlarining istiqbolli rejalarini rejalashtirilgan yildan ortig'iga prognozlashtirish imko- niyatlariga ega bo'lmoqda.

5. 2020 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining asosiy parametrlari va xususan byudjet xarajatlarining reja ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Qonuni shaklida qabul qilina boshladi. Ushbu jarayon umummilliy moliyaviy manfaatlarni o'zida mujassam-

lashtiruvchi davlat byudjetini qabul qilish Parlament va keng jamoatchilik muhokamasiga asoslanishiga shart-sharoit yaratdi.

6. Davlat byudjeti xarajatlarini davlatning fuqarolik jamiyatidagi ijtimoiy soha, iqtisodiyot, boshqaruv organlarini saqlash, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish va boshqa funktsiyalari bo'yicha byudjet so'rovini ko'rib chiqish va jamlash asosidagi rejalashtirish amaliyoti sifat jihatidan yangi mexanizmga o'zgartirildi. Xususan, Parlament ajratmalari taqsimoti joriy etilishi davlat byudjeti mablag'laridan vazirlik va idoralar kesimidagi islohotlarni moliyalashtirish samaradorligini baholash, ularning vakolatlarini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

7. 2020 yildan oliy majlisning byudjet jarayonidagi rolini oshirish bo'yicha qator islohotlar olib borildi. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasiga byudjet mablag'larini taqsimlovchilari uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorini ma'lum bir miqdorda qayta ko'rib chiqish vakolatini berildi.

8. Mahalliy hokimiyat vakillik organlari vakolatlarini kengaytirildi. Xususan, mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari hajmlarini, byudjetdan ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorini, mahalliy byudjetlardan byudjet mablag'larini taqsimlovchilariga ajratiladigan byudjet mablag'larning miqdorini tasdiqlash bo'yicha vakolatlari kengaytirildi.

9. Davlat byudjeti xarajatlarini orqali siklik byudjet taqchilligini kamaytirish maqsadida xarajatlar sekvestri orqali boshqarish mexanizmi joriy etildi.

10. Byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligi ustidan ichki audit metodologiyasini joriy qilish va ularda kassa xarajatlarning rejali ko'rsatkichlarga muvofiqligi ustidan ichki nazorat tizimini kuchaytirish orqali byudjet intizomini mustahkamlashning bozor mexanizmini joriy qilish imkoniyatlari yaratildi.

O'rta muddatga mo'ljallangan jamlanma byudjetni shakllantirish, YaIM va milliy daromadda markazlashtirilgan fondlar ulushini hisoblashda yalpi fiskal yuk

ko'rsatkichiga asoslangan daromad va xarajatlarni shakllantirish, davlat byudjetida davlat qarzlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar jamlanma byudjetning asosiy parametrlari sifatida hisobga olinmoqda.

2021–2023 yillarga mo'ljallangan fiskal siyosatda xarajatlarni isloh qilish quyidagilarga yo'naltirilgan⁵⁴:

- byudjet tushumlari to'liqligini ta'minlash, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiya va nafaqalarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish hamda aholining kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini, investitsiyaviy jozi- badorlikni va ishbilarmonlik faolligini rag'batlantirishga qaratilgan soliq siyosati islohotlarini davom ettirish;
- Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish;
- Davlat qarzi barqarorligini ta'minlash va fiskal tavakkalchiliklarni boshqarish;
- vazirlik va idoralarning barcha byudjetdan tashqari hisoblarini qamrab olish orqali konsolidatsiyalashgan byudjet to'liqligini ta'minlash;
- byudjet barqarorligini ta'minlash, jumladan o'rta muddatli istiqbolda konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini YaIMga nisbatan 2 foizgacha pasaytirish kabilarga yo'naltirilishi belgilangan.

Bob bo'yicha xulosalar

“Rejalashtirish” tushunchasini ta'riflash borasida turli xil ta'rif va yondashuvlar mavjud. Biroq, mazkur faoliyatni tavsiflovchi bir qator xususiyatlar mavjudligini ta'kidlash lozim. Bular sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: 1) reglamentga solinganlik (tartiblashtirilgan jarayon); 2) axborotni qayta ishlash bilan bog'liq faoliyat; 3) muayyan maqsadlarga erishishga mo'ljall olish; 4) vaqtinchalik tavsifga egalik.

⁵⁴ https://www.mf.uz/media/file_uz/state-budget/pub/fuk_2021_loyixa.pdf

Rejalashtirish deyilganda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va qabul qilish, ularga erishishning eng samarali yo'llarini aniqlash jarayoni tushuniladi.

Rejalashtirish natijasi - reja yoki rejalar majmuasi (tizimi) hisoblanadi. Reja kelgusida maqsadlarga erishish ko'rsatkichlarining belgilab beruvchi tartiblashtirilgan jarayonningo'ziga xos natijasidir.

Rejalashtirish o'zgaruvchan tashqi va ichki muhitda muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish orqali belgilangan maqsadlarga erishishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Rejalashtirishning pirovard maqsadi noto'g'ri qarorlar qabul qilish xavfini kamaytiradigan vositalar va muqobillarni o'z vaqtida aniqlashdir.

Moliyaviy rejalashtirish xalq xo'jaligini rejalashtirish tizimining yakuniy bosqichidir. Moliya tizimining alohida bo'g'inlarining nisbiy alohidalashganligi har bir bo'g'in, moliya tizimining har bir subyekti uchun moliyaviy rejalar to'plamini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Moliyaviy rejalashtirishning asosiy obyekti moliyaviy tizimning alohida subyektlari o'rtasida qayta taqsimlanadigan moliyaviy resurslardir. Moliyaviy resurslar harakati moliyaviy rejalashtirishning yagona tizimini tashkil etuvchi tegishli rejalarda belgilanadi. Moliyaviy rejalar tizimida markaziy o'rin byudjetlarga (mamlakat, mamlakat subyektlari, mahalliy hokimiyat organlari) tegishli bo'lib, ularda davlat va mahalliy boshqaruv vazifalari va funktsiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'jallangan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va sarflash shakli o'z miqdoriy ifodasini topadi.

Umum davlat va hududiy miqyosda moliyaviy rejalashtirish tizimi uzoq muddatli moliyaviy rejalarini, moliyaviy balanslarni, shuningdek, aholi daromadlari va xarajatlari harakati balanslarini ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish va moliya siyosatini muvofiqlashtirishni ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqilgan

islohotlar, dasturlar, qonunlarning moliyaviy oqibatlarini har tomonlama oldindan ko'ra bilish, uzoq muddatli salbiy tendentsiyalarni kuzatish va o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlarni qabul qilishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Uzoq muddatli moliyaviy rejalar uch yilga ishlab chiqiladi, uning birinchi yili byudjet tuzilgan yil hisoblanadi; keyingi ikki yil - bu e'lon qilingan iqtisodiy siyosatning real natijalari kuzatiladigan rejalashtirish davridir.

Uzoq muddatli moliyaviy reja har yili O'zbekiston Respublikasi, uning subyektlari, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yangilangan o'rta muddatli prognozi ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda tuzatiladi; shu bilan birga, rejalashtirish muddati bir yil oldinga siljiydi.

Moliyaviy resurslar balansi - bu O'zbekiston Respublikasi, uning hududlari va muayyan bir hududdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha daromad va xarajatlari to'plamidir. Moliyaviy resurslar balansi tegishli hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognoziga muvofiq o'tgan yil uchun moliyaviy resurslarning hisobot balansi asosida tuziladi va byudjet loyihasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Davlatning konsolidatsiyalangan moliyaviy balansi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi. U xalq xo'jaligidagi moddiy va moliyaviy nisbatlarni bog'lash, moliya-kredit tizimining barcha bo'limlari ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirish, respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi prognozida belgilangan chora-tadbirlarni moliyalashtirish manbalarini aniqlash; qo'shimcha moliyaviy resurslar zahiralarini aniqlash, bashoratli moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish va moliya siyosatining yo'nalishini tuzatish imkonini beradi.

Aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi aholining naqd va naqd pulsiz shakldagi pul resurslarining harakatini aks ettiradi.

Aholining pul daromadlari uchta manbadan shakllanadi:

- ish haqi va ish haqiga ustamalar, mukofotlar, sayohat xarajatlari uchun mablag'lar, ish beruvchi tomonidan xodimlarga to'lanadigan ijtimoiy to'lovlar;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, korxonalar foydasida ishtirok etish, shaxsiy mulk bilan operatsiyalar va kredit-moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlar;
- ijtimoiy transfertlar (davlat pensiyalari, nafaqalar, stipendiyalar va boshqalar).

Xarajatlar quyidagilarga bo'linadi: 1) iste'mol xarajatlari; 2) soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va ixtiyoriy badallar; 3) pul yig'implari va jamg'armalari.

Moliyaviy rejalashtirish uchun kelgusidagi ishlarning holati to'g'risida tasavvur beradigan ma'lumotlar, ya'ni istiqbolli ma'lumotlar alohida ahamiyatga ega.

Ushbu ma'lumotni olish jarayoni prognozlash (bashoratlash) deb ataladi.

Bashorat-bu kuzatuvlar, nazariy umumlashmalar, taxminlar va cheklovlarga asoslangan kelajakdagi voqealarning ehtimoliy namoyishidir.

Moliyaviy prognozlash, avvalo, moliyaviy reja ko'rsatkichlarini asoslash, ma'lum bir davr uchun moliyaviy holatni bashorat qilishdir.

Nazariya va amaliyotda o'rta muddatli (5-10 yil) va uzoq muddatli (10 yildan ortiq) moliyaviy prognozlash mavjud.

Moliyaviy prognozlashning asosiy maqsadi prognoz davrida moliyaviy resurslarning haqiqiy mumkin bo'lgan miqdorini va ularga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlashdir. Moliyaviy prognozlar zaruriy tashkil qiluvchi va shu bilan birga moliyaviy siyosatni ishlab chiqish bosqichi hisoblanadi. Ular bizga moliya tizimining barcha subyektlari oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishning turli xil stsenariylarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Nazariya va amaliyotda turli xil prognozlash usullari qo'llaniladi.

Ular orasida biz quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

- ekspertli baholash usullari (Delfi usuli yordamida so'rov o'tkazish, respondentlar o'rtasida so'rov o'tkazish va boshqalar.);

- vaqt va makonni ifoda etuvchi umumiy ko'rsatkichlarga ishlov berish usuli;

- vaziyatni tahlil qilish va prognozlash usullari, shu jumladan imitatsion modellashtirish usullari, o'sish modellari;

- ishlab chiqarish funktsiyalari va xarajat funktsiyalarini o'z ichiga olgan ko'rsatkichlarning o'zaro mutanosib bog'liqlik usullari.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar darajasida rejalashtirishning shakl va usullari ularning tashkiliy-huquqiy shakli, sohaviy mansubligi va boshqa omillarga bog'liq.

Tijorat tashkilotlari uchun faoliyatning asosiy kutilayotgan moliyaviy natijasi foyda hisoblanadi.

Moliyaviy rejalarning har xil turlari mavjud: strategik va joriy, uzoq muddatli va qisqa muddatli. Iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy jarayonlarni, davlatning moliyaviy siyosatini, shu jumladan soliq, bojxona siyosati, moliya bozorlarining holati va rivojlanishi, investitsiyalar, inflyatsiya jarayonlari va boshqalarni hisobga olgan holda biznesni yuritish maqsadlariga asoslangan strategik moliyaviy reja ishlab chiqiladi. Odatda, strategik rejalar korxonaning tijorat siri hisoblanadi.

Strategik reja hech bo'lmaganda quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- kompaniya tomonidan talab qilinadigan kapital miqdori qancha, uni qaysi manbalardan va qaysi muddatda jalb qilish rejalashtirilgan;
- ushbu kapitaldan qanday foydalaniladi;
- kompaniya o'z-o'zidan rivojlanishi mumkinmi, buning imkoni bo'lmasa, moliyaviy resurslarni jalb qilishning mumkin bo'lgan manbalari qanday;
- korxona pul oqimi, ishlab chiqarish va investitsiyalarning rentabelligi borasida qanday darajaga erishish mumkin?

Joriy moliyaviy rejalar prognoz tendentsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va pirovardida korxonalarning kutilayotgan moliya-viy-iqtisodiy faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiruvchi daromadlar va xarajatlari balansi shaklini oladi, bunda eng yuqori rentabellikka erishish yo'llari, resurslarni samarali

joylashtirish yoʻnalishlari, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari aniqlashtiriladi.

Joriy rejalashtirishning asosiy funktsiyalari:

- ishlab chiqarish faoliyati; 2) investitsiya faoliyati; 3) marketing faoliyati; 4) ilmiy loyihalash va qidiruv faoliyati; 5) ijtimoiy loyihalarning moliyaviy resurslar miqdori va ularni amalga oshirish manbalarini aniqlash;
- mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini rejalashtirish;
- pul oqimlarini rejalashtirish;
- yaxlit tarzda korxona faoliyatidan olingan foydani rejalashtirish (prognozlash) ;
- investitsiyalar daromadlilikini rejalashtirish.

Har qanday mayda va keraksiz xarajatlardan qoching, zero kichik yoriqlar kuni kelib, katta kemalarni ham suvga cho'ktirib yuborishi hech gap emas.

Bendjamin Franklin

7-BOB. MOLİYAVIY NAZORAT

- 1. Moliyaviy nazoratning mazmuni, vazifa va tamoyillari.**
- 2. Moliyaviy nazorat turlari, shakl va usullari.**
- 3. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifalari va funktsiyalari.**
- 4. Nodavlat moliyaviy nazorat.**

7.1. Moliyaviy nazoratning mazmuni, vazifa va tamoyillari


Moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga xos bo'lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo'lishidir. Odatda, moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo'nalishda qoraladi:

- barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qattiq tartibga solingan faoliyati;
- moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini va maqsadga muvofiq-ligini ta'minlash maqsadida makro- va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas unsuri.

Moliyaviy nazoratning har ikki yo'nalishi bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lsa-da, nazoratning maqsadi, usuli va subyektlariga muvofiq ravishda farqla-nadi. Agar birinchi holda nazoratning huquqiy va miqdoriy tomonlari ustunlik qilsa, ikkinchi holda moliyaviy nazoratning tahliliy jihatlariga katta e'tibor qaratiladi.

Barcha iqtisodiy subyektlarning (davlat, korxona va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va turli darajadagi ijro hokimiyati organ-lari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiri-ladigan nazorat moliyaviy nazoratni ifoda etadi. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunchilikka rioya etilishi, moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining samaradorligini

baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo'lishini baholashni o'z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki u tahliliy yo'nalishga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi.



7.1-rasm. Moliyaviy nazoratning mazmuni

Moliyaviy nazorat qiymat ko'rinishida amalga oshiriluvchi nazorat bo'lganligi bois, u ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida amalga oshiriladi va pul fondlari harakatining barcha jarayonlarida, shu jumladan,

moliyaviy natijalarni aniqlashtirish jarayonida ham o'z o'rniga ega bo'ladi. Shuning uchun ham moliyaviy nazoratning obyekti pul munosabatlari hisoblanadi.

Moliyaviy nazoratning predmeti quyidagi moliyaviy ko'rsatkichlardan iborat:

- turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari;
- soliq to'lovlarining ko'lami (miqdorlari, o'lchamlari);
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromadlari;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning muomala xarajatlari;
- tannarx va foyda;
- uy xo'jaliklarining daromadlari va xarajatlari;
- va boshqalar.

Moliyaviy nazoratning predmeti hisoblangan yuqoridagi ko'rsatkich-larning aksariyati hisob-kitob qilinuvchi ko'rsatkichlar hisoblanganligi bois, ularni amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq ravishda hisoblanishining to'g'riligi va ishonchliligini tekshirish talab qilinadi.

Moliya funktsiyalarining amalga oshirilishi ko'p jihatdan moliyaviy nazoratga bog'liq bo'lib, u o'z navbatida davlat bilan bir qatorda, barcha iqtisodiy subyektlarning manfaat va huquqlarini ta'minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat, bir tomondan, o'zaro ta'sirchan va ikkinchi tomondan, alohidalashgan (mustaqil bo'lgan) ikki sohaga bo'linadi:

- davlat moliyaviy nazorati;
- nodavlat moliyaviy nazorati.

Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda muayyan boshqaruv organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining majmuaviy va maqsadga yo'naltirilgan tizimidir. Moliyaviy nazoratni tashkil etishda mamlakatning asosiy Qonuni (Konstitutsiyasi) hal qiluvchi o'rin tutadi.

MOLIYAVIY NAZORAT

Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini maxsus usullardan foydalangan holda nazorat qilish

Predmet	Obyekt
Moliyaviy ko‘rsatkichlar, masalan, foyda, daromad, soliqlar, rentabellik, tannarx, muomala xarajatlari, turli maqsadlar uchun airatmalar va fondlar va boshqalar.	Pul munosabatlari, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishdagi qayta taqsimlash jarayonlari

MOLIYAVIY NAZORAT VAZIFALARI

Moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj va pul daromadlari va milliy iqtisodiyotning mablag‘lari miqdori o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash

Davlat byudjeti oldidagi moliyaviy majburiyatlarning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta‘minlash

Moliyaviy resurslarni ko‘paytirish, shu jumladan xarajatlarni kamaytirish va rentabellikni oshirish uchun ichki ishlab chiqarish zaxiralarini aniqlash.

Korxonada moddiy boyliklar va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish hamda buxgalteriya hisobini to‘g‘ri olib borish

Amaldagi qonunlar va qoidalarga rioya qilishni ta‘minlash

7.2-rasm. Moliyaviy nazoratning vazifalari

Uning huquqiy asoslari davlatning tipi, uning ijtimoiy-siyosiy yo‘nal- tirilganligi, iqtisodiy tarqqiyot darajasi, mulkchilik shakllarining nisbatiga bog‘liq.

Davlat moliyaviy nazorati YaIM taqsimlanishining qiymat nisbatlarini kuzatishga qaratilgan. Bu nazorat davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish,

ularning to'liq va o'z vaqtida tushib turishi va ulardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq bo'lgan pul resurslari harakatining barcha kanallariga tegishli hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati davlatning moliya siyosatini amalga oshirishga va moliyaviy barqarorlik borasida tegishli shart-sharoitlarni ta'min qilishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu narsa, eng avvalo, barcha darajalardagi byudjetlar va nobyudjet fondlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish, korxona va tashkilotlar, banklar va moliyaviy korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni anglatadi. Agar umummilliy iqtisodiy manfaatlar taqozo etsa, davlat moliyaviy nazoratchilari ham davlat sektorida va ham xususiy hamda korporativ biznes sektorida taftish va tekshirishlarni amalga oshirish huquqiga egadir. Biroq iqtisodiyotning nodavlat sektorida davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat faqat soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bilan bir qatorda, davlat oldidagi pul majburiyatlarining bajarilishi sohalari, ularga ajratilgan byudjet subsidiyalari va kreditlarini sarflashda maqsadga muvofiqlilik va qonuniylikning rioya qilinishi va shuningdek, hukumat tomonidan o'rnatilgan (belgilangan) pul hisob-kitoblarini tashkil qilish, buxgalteriya hisobi va hisobotni yuritish qoidalariga rioya etilishini qamrab oladi.

Nodavlat moliyaviy nazorati ikkiga bo'linadi: ichki (firma ichidagi, korporativ) va tashqi (auditorlik).

Moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalari (ko'rinishlari, turlari) nazoratni amalga oshirish usullarining o'xshashligiga qaramasdan, o'zlarining pirovard maqsadlari bo'yicha bir-biridan tubdan farq qiladi. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslarni tushurishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish bo'lsa, aksincha nodavlat moliyaviy nazorat (ayniqsa, firma ichidagi moliyaviy nazorat)ning bosh maqsadi sarflangan kapitalning foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasiga ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirishdan iborat. Pul munosabatlari, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishdagi qayta taqsimlash jarayonlari, shu jumladan, barcha darajadagi va xo'jalikning

barcha bo'g'inlaridagi pul fondlari shaklidagi moliyaviy resurslar moliyaviy nazoratning obyekti hisoblanadi. Tekshiruvlarning bevosita predmeti sifatida foyda, daromad, rentabellik, tannarx, muomala xarajatlari kabi qiymat ko'rsatkichlari maydonga chiqadi. Puldan foydalanish orqali va ayrim hollarda pulsiz (masalan, barter bitimlari) amalga oshiriladigan opreatsiyalarning barchasi moliyaviy nazoratning sohasi hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat o'z ichiga quyidagi tekshiruvlarni oladi:

- iqtisodiy qonunlarning talablariga rioya etish (MDni taqsimlash va qayta taqsimlashning maqbul nisbatlari);
- byudjet rejasini tuzish va ijro etish (byudjet nazorati);
- korxona va tashkilotlar, byudjet muassasalariga tegishli bo'lgan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish;
- o'zaro soliq munosabatlari.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat tizimi, asosan, bir tipda bo'lib, quyidagi unsurlardan tashkil topadi:

- bevosita mamlakatning Parlamenti yoki Prezidentiga bo'ysunuvchi Hisob palatasi. Bu tashkilotning bosh maqsadi davlat mablag'larining sarflanishi ustidan umumiy nazoratni o'rnatishdir;
- asosan solikli daromadlarning davlat xazinasiga kelib tushishini nazorat qiluvchi va mamlakat Prezidenti, Hukumati yoki Moliya vazirligiga bo'ysunuvchi soliq muassasasi;
- quyi tashkilotlarini tekshiruvchi va taftish qiluvchi davlat tashkilotlarining tarkibidagi nazorat qiluvchi organlar;
- hisobot hujjatlarining ishonchliligi va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini tijorat asosida tekshiruvchi nodavlat nazorat xizmatlari;
- asosiy vazifasi xarajatlarni qisqartirish, moliyaviy oqimlarni maqbulashtirish va foydani oshirish bo'lgan ichki nazorat xizmatlari.

O'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat tizimi ba'zi bir maxsus organlarni ham qamrab oladi. Ana shunday organlar qatoriga Markaziy bank, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:


- pul fondlarining o'lchami va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi mutanosiblikka ta'sir ko'rsatish;
- davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash;
- moliyaviy resurslarni ko'paytirishning ichki xo'jalik zahira-larini ishga solish;
- va boshqalar.

Jahon hamjamiyati ko'p yillik tajriba asosida moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqanki, hozirgi paytda ularga rioya qilishga dunyoning har bir tsivilizatsiyalashgan davlati intiladi. Bu tamoyillar INTOSAI-ning Lima deklaratsiyasi⁵⁵da o'z aksini topgan. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mustaqillik;
- obyektivlik;
- kompetentlik;
- oshkoralik.

Moliyaviy nazoratning mustaqilligi nazorat organining moliyaviy jihatdan mustaqilligi, nazorat organlari rahbarlarining vakolat muddatlarining parlament muddatlaridan uzoqligi, shuningdek ularning konstitutsion tavsifi bilan ta'minlanishi kerak. Obyektivlik va kompetentlik nazoratchilar tomonidan amaldagi qonunchilikka so'zsiz itoat etilishini, taftish ishlarini amalga oshirishning belgilangan andozalariga qattiq rioya etish asosida nazoratchilar ishining yuqori kasbiy darajada bo'lishini taqozo etadi.

⁵⁵ <http://www.lomonosov-fund.ru/enc/ru/encyclopedia:0128248>



7.3-rasm. Moliyaviy nazoratni tashkil qilish tamoyillari

Oshkoralik davlat nazoratchilarining jamotchilik va ommaviy axborot vositalari bilan doimiy aloqada bo‘lishini ko‘zda tutadi.

Yuqoridagi tamoyillardan farqli tarzda, amaliy tavsif kasb etuvchi moliyaviy nazoratning quyidagi tamoyillari ham mavjud:

- natijaviylik;
- nazoratchilar tomonidan talab qilinuvchi talablarning aniqligi va mantiqiyliги;

- nazorat subyektlarining yon bosishga moyil emasligi, o'z qarashlarida qat'iyligi;
- tekshirish va taftish hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarning asoslanganligi va isbotlanganligi;
- preventivlik (ogohlantirish, oldini olishga yo'naltirilganlik);
- moliyaviy jinoyatda gumon qilinayotgan shaxslarning aybsizlik prezumtsiyasi;
- turli nazorat organlari faoliyatining muvofiqlashtirilganligi;
- va boshqalar.

Moliyaviy nazoratni tashkil qilish tizimiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi qonunlar qabul qila turib, har bir davlat, odatda, yuqoridagi tamoyillarga tayanadi. Bir vaqtning o'zida, har bir davlatda nazorat harakatlarining o'z reglamenti mavjud bo'lgani holda, bu narsa pirovardida moliyaviy nazoratning natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

7.2. Moliyaviy nazorat turlari, shakl va usullari

Moliyaviy nazoratning muvaffaqiyatli va samarali o'tkazilishi uning tashkil etilish darajasi, nazorat turlari, shakllari va uni o'tkazish usullariga bog'liq.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi subyektlarga ko'ra, uning quyidagi turlari mavjud:

- umumdavlat moliyaviy nazorati;
- idoraviy moliyaviy nazorat;
- xo'jalik ichidagi moliyaviy nazorat;
- jamoatchilik moliyaviy nazorati;
- mustaqil moliyaviy nazorat.

Umumdavlat moliyaviy nazorati davlat hokimiyat organlari (Prezident, Hukumat, Oliy majlis, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi. Bu turdagi moliyaviy

nazoratning bosh maqsadi daromadlar tushumi va davlat xarajatlarining sarflanishi bo'yicha davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlashdan iboratdir.

Idoraviy moliyaviy nazorat vazirliklarning nazorat-taftish boshqarmalari va boshqa tarkibiy tuzilmalari tomonidan amalga oshirilib, shu idoraga bo'ysunuvchi korxona, tashkilot va muassasalarning faoliyatini qamrab oladi.

Xo'jalik ichidagi moliyaviy nazorat korxona va tashkilotlarning iqtisodiy va moliyaviy xizmatlari tomonidan o'tkaziladi. Bu yerda moliyaviy nazoratning obyekti sifatida korxona, tashkilot va muassasalarning xo'jalik va moliyaviy faoliyati maydonga chiqadi.

Jamoatchilik moliyaviy nazorati nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Nazoratning obyekti uning oldiga quyilgan vazifalarga muvofiq ravishda aniqlanadi.

7.1-jadval.

Moliyaviy nazoratning asosiy shakllari

Moliyaviy nazoratning tasniflash belgisi	Moliyaviy nazorat shakllari
Nazoratni amalga oshirish muddati	Dastlabki, joriy, navbatdagi
Subyektning obyektga ta'sir ko'rsatish yo'nalishi	Tashqi, ichki
Nazoratni o'tkazish joyi	Kameral, joyida o'rganish
Tekshirilayotgan materialning to'liq qamrab olinishi	To'liq, tanlanma
Nazorat manbai tavsifi	Hujjatli, amalda
Nazoratni o'tkazish davriyligi	Tizimli, davriy, bir martalik
Tekshirilayotgan savollarning to'liq qamrab olinishi	Kompleks, tematik, o'zaro taqqoslash
Nazorat manbalarini o'rganishning takroriyligi	Birlamchi, ikkilamchi, qo'shimcha

Mustaqil moliyaviy nazorat maxsus organlar: auditorlik firmalari va boshqa xizmatlar tomonidan o'tkaziladi.

Moliyaviy nazoratning shakllarini quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflash qabul qilingan:

- amalga oshirilish reglamenti;
- o'tkazilish vaqti;
- nazoratning subyektlari;
- nazoratning obyektlari (7.1-jadval).

Amalga oshirilish reglamenti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- majburiy (tashqi);
- tashabbusli (ichki).


Yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan majburiy (tashqi) nazorat qonun asosida amalga oshiriladi. Bular, masalan, asosan tashqi, mustaqil nazoratchilar tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlari, byudjet resurslaridan maqsadli foydalanish ustidan nazorat, korxona va tashkilotlarning moliya-buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlarini majburiy auditorlik tasdiqlash va h.k.larga tegishli bo'lishi mumkin.

Tashabbusli (ichki) moliyaviy nazorat moliyaviy qonunchilikdan kelib chiqmasada, taktik va strategik maqsadlarga erishishda moliyaviy boshqaruv-ning ajralmas qismi hisoblanadi.

O'tkazilish vaqti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- dastlabki;
- joriy (operativ);
- navbatdagi (kelgusi, so'nggi).

Dastlabki moliyaviy nazorat moliyaviy operatsiyalarning sodir bo'lishidan oldin amalga oshiriladi va moliyaviy xatoliklarning oldini olish yoki ularni ogohlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag'larning samarasiz sarflanishining oldini olish borasida xarajatlarning moliyaviy jihatdan asoslangan bo'lishini ko'zda tutadi. Makrodarajada bunday nazoratga misol sifatida mamlakat iqtisodiy tarqqiyotining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bashoratlari asosida barcha darajadagi byudjetlarni va nobyudjet fondlarining moliyaviy rejalarini tuzish va tasdiqlash jarayonini ko'rsatish mumkin. Mikrodarajada esa ular moliyaviy rejalar va smetalar, kredit va kassa arizalari, biznes-rejalarning moliyaviy bo'limlari, bashorat balanslarini tuzish, hamkorlikdagi faoliyat to'g'risida shartnoma va h.k.lardan iborat bo'lishi mumkin.



7.4-rasm. Moliyaviy nazorat turlari

Joriy (operativ) moliyaviy nazorat pul bitimlari, moliyaviy operatsiyalar, ssuda va subsidiyalarni berish kabi jarayonlar vaqtida amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag'larni olish va ularni sarflash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklardan ogohlantiradi, moliyaviy intizomning mustahkamlanishiga va pul hisob-kitoblarining o'z vaqtida amalga oshirilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu holatda buxgalteriya xizmati katta o'rin tutadi.

Navbatdagi (kelgusi, so'nggi) moliyaviy nazorat moliyaviy hisobot va buxgalteriya hujjatlarini tahlil va taftish qilish yo'li bilan amalga oshirilib, uning bu shakli iqtisodiy subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalari, taklif etilgan moliyaviy strategiyani amalga oshirish samara-dorligi, moliyaviy xarajatlarni ularning bashoratlari bilan qiyosla-nishini va h.k.larni baholashga mo'ljallangan.

Nazoratning subyektlari bo'yicha moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari bo'lishi mumkin:

- Prezident moliyaviy nazorati;
- Qonun chiqaruvchi hokimiyat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari moliyaviy nazorati;
- ijroiya hokimiyat organlari moliyaviy nazorati;
- moliya-kredit organlari moliyaviy nazorati;
- firma ichki moliyaviy nazorati;
- auditorlik moliyaviy nazorati;
- va boshqalar.

Nazoratning obyektlariga muvofiq ravishda moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari mavjud:

- byudjet moliyaviy nazorati;
- byudjetdan tashqari fondlar ustidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- soliqlar bo'yicha amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- valyuta operatsiyalari ustidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- kredit operatsiyalari bo'yicha moliyaviy nazorat;
- sug'urta faoliyati bo'yicha moliyaviy nazorat;
- investitsion faoliyat bo'yicha amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- pul massasini nazorat qilish borasida moliyaviy nazorat;
- va boshqalar.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonida uning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

- tekshiruv;
- o'rganish;
- nazorat;
- moliyaviy holat tahlili;
- monitoring;

- taftish.


Tekshiruv hisobot, balans va xarajat hujjatlari asosida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatning alohida masalalari bo‘yicha amalga oshiriladi. Tekshiruv jarayonida moliyaviy intizomning buzilganligi aniqlanadi va ularni barham berish borasida choralar belgilanadi.

O‘rganish korxona va tashkilotlar faoliyatining ayrim tomonlarini qamrab oladi. O‘rganish jarayonida bajarilgan ishlar, material, yoqilg‘i va energiyalarning sarflanish hajmlari nazorat tarzida o‘lchanadi. Shuningdek, tadqiq etish so‘rash, kuzatish va inspektsiya qilish hollari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Nazorat moliyaviy faoliyatning ma’lum bir turiga (masalan, sug‘urta, investitsion, bank va boshqa faoliyatlar) litsenziya olgan iqtisodiy subyektlar ustidan nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratni anglatadi.

Iqtisodiy tahlil moliyaviy nazoratni amalga oshirish usuli sifatida xo‘jalik faoliyatining natijalari, moliyaviy holatning ahvoliga umumiy baho berish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslash maqsadida davriy yoki yillik moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarini detallashtirilgan tarzda o‘rganishni ko‘zda tutadi.

Taftish moliyaviy nazoratning ancha keng tarqalgan usuli sanalib, nazoratning haqiqiy va hujjatli usullarini qo‘llash yordamida amalga oshiriladigan korxona, tashkilot va muassasalar moliya-xo‘jalik faoliyatini o‘zaro bog‘liq kompleks tekshiruvdan iboratdir. Taftish taftish qilinayotgan obyekt faoliyatidagi kamchiliklar va buzilmalarni topish uchun, ya’ni sodir etilgan xo‘jalik operatsiyalarining maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi, iqtisodiy samaradorligini, moliyaviy intizomga rioya etilganligini, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlarining ishonchliligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.



7.5-rasm. Moliyaviy nazorat usullari

Subyekt xo'jalik faoliyatini qamrab olishning to'liqligiga qarab taftishning quyidagi turlari bo'lishi mumkin:

- to'liq;
- qisman;
- mavzuli;
- kompleksli.

To'liq taftish nazorat obyekti moliya-xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarini tekshirishni ko'zda tutadi.

Qisman taftish xo'jalik yurituvchi subyekt moliya-xo'jalik faoliyatining ayrim qismlari yoki tomonlarini tekshirish uchun o'tkaziladi.

Mavzuli taftish bir tipdagi korxona, tashkilot va muassasalarning faoliyati bo'yicha ma'lum bir mavzuga bag'ishlab o'tkaziladi, bu narsa ularga xos bo'lgan tipik kamchiliklar va nuqsonlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralarning qo'llanilishiga imkon beradi.

Kompleksli taftish tekshirilayotgan korxona, tashkilot va muassasa faoliyatining barcha tomonlarini qamrab oluvchi to'liq taftish bo'lib, u nazorat subyekting xo'jalik va moliya faoliyati, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarining butligi, ulardan samarali foydalanish masalalari, buxgalteriya hisobi va hisobotining holati, sifati kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Bunda tor texnikaviy va texnologik masalalarni tekshirish uchun tegishli mutaxassislar jalb qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, kompleksli taftish natijalarining to'liqligi va samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining qamralib olinishi darajasiga ko'ra taftishlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

- yoppasiga taftish;
- tanlanma taftish;
- aralash taftish.

Yoppasiga taftish butun tekshiriladigan davr mobaynida faoliyatning ma'lum bir qismidagi barcha operatsiyalarning tekshirilishini taqozo etadi.

Tanlanma taftish u yoki bu vaqt oralig'ida birlamchi hujjatlar bir qismini tekshirishdan iborat. Odatda, chorakdagi bir oyning natijalari tekshiriladi, kamchiliklar aniqlansa, yoppasiga tekshiruvga o'tiladi.

Aralash taftish bir qismni yoppasiga, boshqa bir qismni esa tanlanma usul bilan tekshirilishini nazarda tutadi. Bu narsa yuqori darajadagi hujjatlarning aylanishi bilan tavsiflanadigan va yirik xo'jalik operatsiyalarini amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatini taftish qilishga imkon beradi.

O'tkazilgan taftish natijalari hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi. Unda kamchiliklarni bartaraf etish, moddiy zararlarni qoplash va aybdorlarni javobgarlikka tortish choralari belgilanadi.

7.3. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifa va funktsiyalari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan hokimiyatni taqsimlash tamoyili Prezident va vakolatli hukumat organlari tomonidan ijro hokimiyati organlarining moliyaviy faoliyatini nazorat qilishni nazarda tutadi. Bunday nazorat, avvalambor, respublika va mahalliy byudjetlarni, davlat maqsadli byudjetdan tashqari jamg'arma-larning loyihalarini ko'rib chiqish va qabul qilishda hamda ularning ijrosi haqida hisobotlarni tasdiqlashda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 78-moddasining 8-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Vazirlar Mahkamasining taqdimoti bo'yicha mamlakat byudjetini qabul qiladi va uning ijrosi ustidan nazorat o'rnatadi⁵⁶. Shuningdek, Konstitutsiyaning 98-moddasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo'lishi mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari

⁵⁶ <https://constitution.uz/uz/clause/index#section23>

jamg'armalarni hosil qilish; xalq deputatlari Kengashlari ajratiladigan byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish hamda mahalliy byudjetlarning ijrosini nazorat qilishi belgilab qo'yilgan⁵⁷.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga davlat va ijroiya hokimiyat boshlig'i sifatida katta vakolatlar berilgan. Konstitutsiyaning 93-moddasi 12-bandiga muvofiq, Prezident "...Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi"⁵⁸.

O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi davlat tashqi auditi va moliyaviy nazoratining asosiy organi hisoblanadi⁵⁹. U mustaqil va obyektiv organ bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Hisob palatasi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, Hisob palatasi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:


O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun (bundan buyon matnda Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun deb yuritiladi) loyihasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarining ekspertizasini hamda o'rta muddatli davr uchun fiskal strategiya tahlilini o'tkazish;

qabul qilinayotgan davlat dasturlarining va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligi auditini amalga oshirish;

⁵⁷ <https://constitution.uz/uz/clause/index#chapter24>

⁵⁸ <https://constitution.uz/uz/clause/index#chapter25>

⁵⁹ <https://lex.uz/docs/4394324>



7.6-rasm. Davlat moliyaviy nazoratining asosiy tamoyillari

davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablarining to'g'ri qo'llanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

byudjet jarayonining ochiqqligini ta'minlash tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

byudjet tizimi byudjetlariga va belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalarga mablag'lar tushumlarining to'liqligini, shuningdek yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan choralarning amalga oshirilishini o'rganish hamda nazorat qilish;

byudjet tizimi byudjetlarining va belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning daromadlarini ko'paytirish zahiralarini aniqlash hamda safarbar qilish;

byudjet tizimi byudjetlarining va belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning amalga oshirilayotgan xarajatlari samaradorligi hamda qonuniyligini auditdan o'tkazish, bu xarajatlarni barcha darajalarda qisqartirish imkoniyatlarini aniqlash;

byudjet tizimi byudjetlari mablag'lari va davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining maqsadga muvofiqligi hamda asoslilikini baholash;

soliq, bojxona va byudjet to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishga, tizimli qoidabuzarliklar sabablarini, shuningdek xalqaro tajribani umumlashtirish hamda o'rganish orqali byudjetni rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etishga doir takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari o'rtasidagi nisbatning maqbulligi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining daromadlarga oid vakolatlari hamda xarajatlar bo'yicha majburiyatlari chegaralanishi to'g'riligini baholash, ularning o'zini o'zi moliyaviy jihatdan yetarlicha ta'minlashiga doir takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va topshiriqlari to‘liq hamda o‘z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasining pul-kredit va valyuta siyosatini, O‘zbekiston Respublikasining aktivlari hamda majburiyatlari holatini, oltin-valyuta zahiralarining boshqarilishini, shuningdek qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarni tashqi auditdan o‘tkazish;

davlat boshqaruv organlarida, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan muassasa va tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tizimini joriy qilishga, shuningdek uning samarali faoliyat ko‘rsatishiga doir choralarning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish⁶⁰.

O‘zbekiston Respublikasining “Hisob palatasi to‘g‘risida”gi Qonunining 4-bobida Hisob palatasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarining ekspertizasini hamda o‘rta muddatli davr uchun fiskal strategiya tahlilini o‘tkazish sohasidagi funktsiyalari (20-modda); Hisob palatasining qabul qilinayotgan davlat dasturlarining va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta‘minlanganligi auditini amalga oshirish sohasidagi funktsiyalari (21-modda); Hisob palatasining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish sohasidagi funktsiyalari (21¹-modda); Hisob palatasining byudjet jarayonining ochiqqligini ta‘minlash tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish sohasidagi funktsiyalari (21²-modda); Hisob palatasining byudjet tizimi byudjetlariga va belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg‘armalarga mablag‘lar tushumlarining to‘liqligini, shuningdek yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan choralarning amalga oshirilishini o‘rganish hamda nazorat qilish sohasidagi funktsiyalari (22-modda); Hisob palatasining byudjet tizimi byudjetlarining va belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg‘armalarning daromad-

⁶⁰ <https://lex.uz/docs/4394324>

larini ko'paytirish zahiralarini aniqlash hamda safarbar qilish sohasidagi funktsiyalari (23-modda); Hisob palatasining byudjet tizimi byudjetlarining va belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning amalga oshirilayotgan xarajatlari samaradorligi hamda qonuniyligini auditdan o'tkazish, bu xarajatlarni barcha darajalarda qisqartirish imkoniyatlarini aniqlash sohasidagi funktsiyalari (24-modda); Hisob palatasining byudjet tizimi byudjetlari mablag'lari va davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining maqsadga muvofiqligi hamda asoslilikini baholash sohasidagi funktsiyalari (25-modda); Hisob palatasining soliq, bojxona va byudjet to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishga, tizimli qoidabuzarliklar sabablarini, shuningdek xalqaro tajribani umumlashtirish hamda o'rganish orqali byudjetni rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etishga doir takliflar ishlab chiqish sohasidagi funktsiyalari (26-modda); Hisob palatasining O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari o'rtasidagi nisbatning maqbuliligini, mahalliy davlat hokimiyati organlarining daromadlarga oid vakolatlari hamda xarajatlar bo'yicha majburiyatlari chegaralanishining to'g'riligini baholash, ularning o'zini o'zi moliyaviy jihatdan yetarlicha ta'minlashiga doir takliflar ishlab chiqish sohasidagi funktsiyalari (27-modda); Hisob palatasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va topshiriqlari to'liq hamda o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish sohasidagi funktsiyalari (28-modda); Hisob palatasining O'zbekiston Respublikasining pul-kredit va valyuta siyosatini, O'zbekiston Respublikasining aktivlari hamda majburiyatlari holatini, oltin-valyuta zahiralarining boshqarilishini, shuningdek qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarni tashqi auditdan o'tkazish sohasidagi funktsiyalari (29-modda); Hisob palatasining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tizimini joriy etishga, shuningdek uning samarali faoliyat ko'rsatishiga doir choralarning amalga

oshirilishi ustidan nazorat qilish sohasidagi funktsiyalari (29¹-modda) keltirib oʻtilgan.

Koʻrsatilgan funktsiyalarni amalga oshirish uchun Hisob palatasiga quyidagi vakolatlar berilgan:

davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan, boshqa davlat organlaridan hamda oʻzga tashkilotlardan oʻz vakolatlariga kiruvchi masalalar boʻyicha materiallar, maʼlumotlar va tushuntirishlarni soʻrab olish;

oʻz zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun real vaqt rejimida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, shu jumladan banklarning maʼlumotlar bazasidan foydalanish;

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankidan davlat mablagʻlarining bank hisobvaraqlaridagi hamda yagona gʻazna hisobvaragʻidagi harakati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni soʻrab olish;

davlat organlarini va ularning vakillarini, nodavlat auditorlik xizmatlarini va ayrim mutaxassislarni nazorat oʻtkazish uchun oʻz vakolatlari doirasida jalb etish;

Davlat byudjeti daromadlari prognozining toʻgʻriligini baholash, soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning toʻliq yigʻilishini va soliq solish obyektlarining toʻliq hisobga olinishini taʼminlash boʻyicha amalga oshiriladigan nazoratga moliya, soliq organlarining hamda boshqa davlat organlarining xodimlarini jalb ettish;

oʻz zimmasiga yuklatilgan vazifalar va vakolatlar doirasida dastlabki va yakuniy nazoratni amalga oshirish;

siyosiy partiyalarga moliyaviy va boshqa mablagʻlarning kelib tushishi hamda bu mablagʻlardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

Davlat byudjeti toʻgʻrisidagi qonun loyihasi va oʻrta muddatli davr uchun fiskal strategiya, shuningdek Davlat byudjeti toʻgʻrisidagi qonunga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi boʻyicha Oʻzbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining loyihalari bo‘yicha tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga xulosa taqdim etish;

O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotning tashqi auditini va uni baholashni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larning qonuniy shakllantirilganligi, maqsadli hamda samarali sarflanganligi ustidan nazoratni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, shuningdek belgilangan tartibda tashkil qilingan boshqa jamg‘armalar mablag‘larining shakllantirilishi hamda ulardan foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining, uning tarkibiy bo‘linmalari va muassasalarining moliya-xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

nazorat natijalari bo‘yicha ko‘rsatmalar, taqdimnomalar, tahliliy ma’lumotlar va xulosalar kiritish;

nazorat o‘tkazish davrida jinoyat alomatlarini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar, shu jumladan korruptsiyaga doir huquqbuzarliklar alomatlari aniqlangan taqdirda, tegishli materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;

nazorat natijalari bo‘yicha davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va topshiriqlari, to‘liq va o‘z vaqtida ijro etilmaganligi, shu jumladan ularning ijro etilishi jarayoni to‘g‘risidagi axborot “ijro.gov.uz” axborot tizimi orqali to‘liq, haqqoniy tarzda va o‘z vaqtida taqdim etilmaganligi, shuningdek

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tizimining joriy etilishiga hamda samarali faoliyat ko'rsatishiga doir choralar o'z vaqtida amalga oshirilma-ganligi uchun vazirliklarning, davlat qo'mitalarining, idoralarning, mahalliy davlat hokimiyati organlarining va boshqa tashkilotlarning rahbarlarini javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritish;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan hamkorlikni, shu jumladan byudjet tashkilotlari, byudjetdan mablag' oluvchilar, boshqa davlat organlari hamda tashkilotlarni birgalikda nazorat qilishni rejalashtirish va amalga oshirish masalalari bo'yicha hamkorlikni tashkil etish;

Hisob palatasi bilan oldindan kelishib olinishi lozim bo'lgan barcha masalalar bo'yicha xulosa berish;

byudjet va smeta-shtat intizomini buzganlikda, shuningdek Hisob palata-sining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilganlikda aybdor shaxslarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish;

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlat boji to'lamasdan sudga murojaat qilish;

o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish⁶¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.08.2021 yildagi PF-6300-son "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan Hisob palatasiga qo'shimcha vakolat va vazifalar yuklatilgan⁶².

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-masi to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida Vazirlar Mahkamasining byudjet, moliya, pul-kredit siyosatini amalga oshirish sohasidagi vakolatlari keltirib o'tilgan bo'lib⁶³, unga ko'ra:

⁶¹ <https://lex.uz/docs/4394324>

⁶² <https://lex.uz/docs/5607471>

⁶³ <https://lex.uz/docs/4636594>

byudjet, moliya, pul-kredit siyosati sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, respublikani iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlantirish prognozlari va eng muhim dasturlarini inobatga olgan holda soliq hamda byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilishini va bajarilishini tashkil etadi;

xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlash choralarini amalga oshiradi;

samarali fiskal siyosat olib boradi, soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligi tizimining sifati va samaradorligini oshirish choralarini ko'radi;

pul-kredit siyosatini takomillashtirish, valyuta siyosatini liberallashtirish, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, shuningdek milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash choralarini ko'radi;

bank tizimining barqarorligini ta'minlaydi, ushbu tizimning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, shuningdek sug'urta, lizing va boshqa moliya institutlarini rivojlantirish bo'yicha choralarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 171-moddasida belgilab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir.

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining daromadlari qismi bo'yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi⁶⁴.

Davlat moliyaviy nazorati tizimida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi va ularning quyi organlari alohida o'rin tutadi. Moliya-kredit tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlarning mazmuni va maqsadi belgilangan vakolat doirasidagi amaliy ehtiyojlar bilan belgilanadi.

⁶⁴ <https://lex.uz/docs/2304138>

Moliya organlarining ko‘p qirrali nazorat faoliyati byudjetni rejalashtirish, moliyaviy rejalar va smetalar loyihalarini ko‘rib chiqish, byudjet barcha daromadlarini to‘plash, davlat byudjeti bilan tegishli moliya yili uchun nazarda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish jarayonida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zimmasiga davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish bo‘yicha quyidagi asosiy vazifa va funktsiyalar yuklangan:

1) respublika vazirliklari, qo‘mitalari, idoralari va korxonalari tomonidan respublika byudjetining ijro etilishi, Markaziy bank va boshqa banklar tomonidan byudjetning kassa ijrosi qoidalariga rioya etilishi hamda banklar tomonidan kapital qo‘yilmalar va byudjetdan ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladigan boshqa chora-tadbirlarning moliyalashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

2) qimmatli qog‘ozlar bozori shakllanishi, qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va harakatini nazorat etish, moliya bozorini shakllantirishga doir ishlarni muvofiqlashtirish;

3) respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladigan, shuningdek barcha ko‘rinishdagi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi hamda ulardan boshqa maqsadlar (jumladan eksport) uchun foydalanuvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini taftish qilish va tekshirish.

Prezidentning 14.02.2022 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi PQ-128-son qarori qabul qilindi⁶⁵.

Hujjat Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, byudjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida qabul qilindi.

⁶⁵https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/davlat_byudjeti_mablaglaridan_foydalanish_ustidan_nazorat_kuch_aytiriladi#

Moliya vazirligi tarkibidagi Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari negizida Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda – Inspeksiya) tashkil etiladi. U quyidagi tashkiliy tuzilmalardan iborat bo‘ladi:

- Qurilish obyektlarida nazorat o‘lchovini amalga oshirish boshqarmasi;
- Komplaens nazorati boshqarmasi.

Inspeksiya boshlig‘i moliya vazirining taqdimnomasiga binoan Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi va moliya vaziri o‘rinbosariga tenglashtiriladi. Uning o‘rinbosarlari Inspeksiya boshlig‘i bilan bir xil tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Hujjat bilan shunday tartib belgilandiki, unga muvofiq:

- 2022 yil 1 noyabrga qadar Inspeksiya xodimlari moliyaviy nazorat va ichki audit sohasidagi xalqaro tajribalar asosida maxsus o‘quv kurslarida o‘qitiladi;
- 2022 yil 1 noyabrdan boshlab Inspeksiya va ichki audit xizmatlarining xodimlariga malaka sertifikatini berish tizimi joriy etiladi;
- 2023 yil 1 sentyabrdan boshlab ichki audit bo‘yicha milliy malaka sertifikatiga ega bo‘lmagan shaxslarni Inspeksiya va ichki audit xizmatlarining xodimi lavozimiga ishga qabul qilishga hamda ularning ushbu tizimlarda faoliyat yuritishiga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan shaxslar mustasno.

2022 yil 1 apreldan boshlab davlat moliyaviy nazorati sohasida qoidabuzarliklar holatlari to‘g‘risida Inspeksiyaga “Davlat auditi” dasturiy kompleksi orqali xabar bergan jismoniy shaxslarga, ushbu ma’lumot asosida moliyaviy tekshiruvlar jarayonida aniqlanib, davlat foydasiga undirilgan mablag‘lar hisobidan mukofot to‘lanadi.

Hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- 2022 yilda Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish hamda moliyaviy nazorat faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”;

- qarorda belgilangan chora-tadbirlarni hududlarda tatbiq etish bo'yicha mas'ullar ro'yxati.

“Yo'l xaritasi”da belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash uchun mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlariga quyidagi rag'batlantirish va javobgarlik choralari qo'llaniladi:

- vazifalarning o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlagan rahbarlarni yarim yillik yakunlarga ko'ra o'rtacha oylik ish haqining 50%igacha bo'lgan miqdorda mukofotlash;

- vazifalarning o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlamagan rahbarlarga o'rtacha oylik ish haqining 30%i miqdorida jarima sanksiyalarini qo'llash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.10.2017 yildagi 870-son “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to'g'risidagi Nizomda bosh boshqarmaning vazifalari batafsil keltirib o'tilgan:

byudjet tashkilotlarida byudjet mablag'larini boshqarish va byudjet hisobini yuritish bo'yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish;

byudjet qonunchiligiga rioya etish bo'yicha byudjet tashkilotlari bilan tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish;

byudjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag'lari va moddiy boyliklarni talon-taroj qilish, kamomadlarga yo'l qo'yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va byudjet qonunchiligini boshqacha tarzda buzish holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

masofaviy nazoratni keng ko'lamda qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlar bazasi vositasida tekshirish obyektlari va maqsadlarini

aniqlash yo'li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda byudjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish;

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan foydalanishda byudjet qonunchiligiga hamda byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan), shuningdek insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi boshqa jamg'armalar mablag'laridan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

paxta tozalash korxonalarida hisobga olish va hisobotning haqqoniyligi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

o'z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash;

moliya inspektori lavozimi joriy etilgan tashkilotlarda Aksiz solig'ini to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan nazorat o'rnatish⁶⁶.

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda soliq organlari muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi 474-I-son "Davlat soliq xizmati to'g'risida" qonuni⁶⁷ soliq nazoratining asoslari, uni amalga oshirish bo'yicha soliq organlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Coliq nazorati soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat.

⁶⁶ <https://lex.uz/docs/3392654>

⁶⁷

Soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni, byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlarining moliyaviy nazoratga oid asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni ta'minlash;

soliqlarning soliq to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq hamda o'z vaqtida tushishini ta'minlash;

soliq to'lovchilarni va soliq solish obyektlari o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularning to'liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish;

soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta'sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig'ilishini oshirish bo'yicha choralarni amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlarga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni bajarish;

pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash;

soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan soliq to'lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga o'tish yo'li bilan amalga oshirish;

soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish;

soluqlarning ixtiyoriy ravishda to'lanishini ta'minlashga qaratilgan, soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ishlarni takomillashtirish;

xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini rag'batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferentsiyalar berishga doir qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan davlat byudjetini shakllantirish masalalari bo'yicha hamkorlik qilish;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioya etilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish;

kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali xodimlar bilan to'ldirish, korruptsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish faktlariga barham berish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlari yaratilishini ta'minlash.

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda Markaziy bank faoliyati

O‘zbekiston Respublikasining 11.11.2019 yildagi O‘RQ-582-son “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Qonuni bilan tartibga solinadi. Qonunga muvofiq, Markaziy bankning asosiy maqsadi narxlarning; bank tizimining; to‘lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta’minlashdan iboratdir⁶⁸.

7.4. Nodavlat moliyaviy nazorat


Milliy iqtisodiyotda bozor munosabatlarining izchil qaror topishi asnosida nazorat qiluvchi davlat idoralarining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriluvchi moliyaviy nazoratning o‘rni va ahamiyati ortib boradi. Yuqorida qayd etilgandek, moliyaviy nazoratning nodavlat turlarini ichki firmaviy (korporativ) nazorat, tijorat banklar tomonidan mijoz-tashkilotlar ustidan nazorat, auditorlik nazoratlari tashkil qiladi.

Ichki firmaviy moliyaviy nazorat korxona, muassasa, firma, korporatsiyalar o‘zining iqtisodiy xizmatlari, ya’ni buxgalteriya, moliya bo‘limi, moliyaviy menejment xizmatlari va boshqalar orqali o‘z korxonasi, filiallari va shu’ba tuzilmalarining moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Ichki nazorat xizmatlari doimiy ravishda pul mablag‘larini (shaxsiy, qarz, jalb etilgan) ishlatilishining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini kuzatadi, rejalashtirgan moliyaviy natijalar bilan haqiqiy moliyaviy natijalarni qiyoslab, tahlil qiladi, investitsion loyihalarning natijalariga moliyaviy baho beradi, korxonaning moliyaviy holatini nazorat qiladi.

Ichki nazorat kapitalni investitsiyalashning butun jarayonini kuzatib boradi. Ichki nazoratning ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan va “post-audit” nomini olgan nazorat biznes-rejaning moliya bo‘limidagi ishlab chiqarish-investitsiya faoliyatining har bir bosqichida rejashtirilgan moliyaviy natijani haqiqiy holat bilan taqqoslash, ularni nomuvofiq kelishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish, chiqimlarni kamaytirish va moliyaviy rejalashtirish usullarini yaxshilash yo‘llarini qidirishni anglatadi.

⁶⁸ <https://lex.uz/docs/4590452>

Shu bilan birgalikda likvidlikni qo'llab-quvvatlashning obyektiv zarurligi bankdan potentsial qarz oluvchi korxonalarning moliyaviy holati va kredit olishga layoqatliligini baholashni talab qiladi. Ssuda berilgan taqdirda bank o'rnatilgan muddatlarda tegishli foizlar bilan birgalikda ssudaning qaytarilish ehtimolini baholash maqsadida berilgan ssudaning ishlatilishini, mijozning to'lov qobiliyati va likvidligini nazorat qiladi. Bank tomonidan amalga oshiriladigan bunday nazorat kredit riskini boshqarishning muhim unsuri hisoblanadi.



7.7-rasm. Nodavlat moliyaviy nazorati

Auditorlik nazorati nodavlat moliyaviy nazoratining yangi turi bo'lib, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, O'zbekistonda ham rivojlana boshladi. Iqtisodiyotni tashkil qilishning bozor tamoyillariga o'tilishi va turli tijorat

tuzilmalarining paydo bo'lishi bilan ularning moliyaviy ishonchliligiga, shuningdek ular moliyaviy holatini obyektiv baholash borasida talablar keskin oshdi. Bugungi kunda mamlakatimizda auditorlik faoliyati qonun bilan tartib solinadi⁶⁹.

Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari buxgalterlik va moliyaviy hisobotning ishonchliligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini niqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy subyektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat.

“Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi Qonunning 33-moddasi belgilab qo'yilganidek, auditorlik tashkilotlari quyidagi turdosh xizmatlarni ko'rsatishi mumkin:

buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish;

yuridik shaxsning taftish komissiyasi (taftishchisi), investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish;

buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish masalalari bo'yicha maslahat berish;

auditorlik tashkilotining shtatida soliq maslahatchisi mavjud bo'lganda yohud shartnoma shartlari asosida uni jalb etgan holda, soliqqa oid qonunchilikni qo'llash, soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblar, deklaratsiyalar tuzish yuzasidan maslahatlar berish;

moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy rejalashtirish, shu jumladan biznes-rejalar tayyorlash, iqtisodiy, moliyaviy maslahat va boshqaruvga oid maslahat berish;

buxgalteriya hisobi, audit va moliyaviy hisobot, soliq solish, moliya-xo'jalik faoliyatini hamda moliyaviy rejalashtirishni tahlil qilishga doir seminarlar, konferentsiyalar o'tkazish;

⁶⁹ <https://lex.uz/docs/5307886>

buxgalteriya hisobini yuritishni avtomatlashtirish va moliyaviy hisobot tuzish, moliyaviy axborotning axborot xavfsizligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyati standartlarida nazarda tutilgan boshqa turdosh xizmatlarni ham ko'rsatishi mumkin⁷⁰.

Auditorlik tekshiruvi majburiy va tashabbusli bo'lishi mumkin. Agar tashabbusli tekshiruv iqtisodiy subyektning o'z qarori bo'yicha amalga oshiriladigan bo'lsa, majburiy audit uning xohish-irodasi va istagiga bog'liq bo'lmagan va qonunchilikda belgilangan hollarda majburiy tartibda o'tkaziladi. Har yili majburiy auditorlik tekshiruvi:

aktsiyadorlik jamiyatlari;

banklar va boshqa kredit tashkilotlari;

sug'urta tashkilotlari;

investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlovchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilari;

manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ajratmalaridan iborat bo'lgan xayriya, jamoat fondlari va boshqa fondlar;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlatga tegishli ulushga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat unitar korxonalari;

fond va tovar birjalari;

hisobot yili yakunlariga ko'ra quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari: aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridan ortiq, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ming baravari miqdoridan ortiq, xodimlarining o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiq bo'lsa⁷¹.

⁷⁰ <https://lex.uz/docs/5307886>

⁷¹ <https://lex.uz/docs/5307886>

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi sifatida xo‘jalik yurituvchi subyekt ishtirok etadi. Auditorlik tashkilotini tanlash mulk egasi, xo‘jalik yurituvchi subyekt qatnashchilari (aktsiyadorlari) umumiy majlisi bilan kelishiladi. Majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishidan bosh tortish xo‘jalik yurituvchi subyektdan eng kam ish haqining ellik barobari miqdoridagi jarima undirib olinishi hamda uning rahbarining qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi. Jarima to‘lash xo‘jalik yurituvchi subyektni majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishidan ozod etmaydi.

Auditning asosiy tamoyili uning mustaqilligi bo‘lib, bunda asosan tekshirilayotgan subyektning moliyaviy hisoboti to‘g‘risidagi kasbiy fikrini ifodalashda biror tomonning ta’siri ostida bo‘lishdan uning ozod ekanligini tushunish lozim. Shu bilan birga, yana shuni hisobga olish kerakki, audit barcha mamlakatlarda yetarli darajada qattiq tartibga solinadi.

Ayrim davlatlarda (masalan, Frantsiyada) bu jarayonga davlat aralashadi, u audit me‘yori va normativlarini belgilaydi, auditorlarni va auditorlik firmalarini ro‘yxatdan o‘tkazadi hamda ularning faoliyati ustidan nazorat o‘rnatadi. Auditni davlat tomonidan tartibga solishni tashkil etish qonunchilik va boshqa normativ hujjatlar vositasida amalga oshiriladi.

Ko‘pgina mamlakatlarda mustaqil Auditorlar palatalari faoliyat ko‘rsatadi. Ularning asosiy vazifalari auditorlik faoliyati va auditorlar axloq me‘yorlari bo‘yicha standartlarni ishlab chiqish, auditorlar ish-faoliyatining sifatini nazorat qilish, auditorlik faoliyati bo‘yicha bilimlarni attestatsiya qilish va hujjatlar berish hamda auditorlik me‘yorlarini buzgan shaxslarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash kabilardan iboratdir.

Ammo ayrim mamlakatlarda, masalan, Shvetsiyada, garchi Vakolatli auditorlar uyushmasi va Tasdiqlangan auditorlar uyushmasi faoliyat ko‘rsatsada, umumiy holatda auditorlik faoliyatini tartibga solish davlat tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatimizda O‘zbekiston Auditorlar palatasi faoliyat ko‘rsatadi va u davlat idoralari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunini amalga oshirish, auditorlik tekshiruvlarining roli va maqomini belgilash, soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan auditorlik xulosalari hisobini yuritishni ta'minlash maqsadida so'nggi vaqtlarda bizning mamlakatimizda auditorlik faoliyatini amalga oshirish tartibiga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi.

Xususan, belgilab qo'yildiki, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish ishlari auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mikrofirmalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan majburiy tarzda tegishli auditorlik tashkilotlari jalb etilgan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to'g'riligi uchun auditorlik tashkiloti javobgar hisoblanadi.

Soliq organlari va boshqa nazorat organlarining auditorlik xulosalari hisobini yuritish to'g'risidagi nizom bunday xulosalarning ikki turini belgilab bergan bo'lib, ulardan har biri muayyan huquqiy oqibatlarga olib keladi:

- ijobiy auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti to'g'risida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini to'g'ri aks ettiradi va xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq keladi, degan fikrlar mavjud bo'lgan hujjatdir.

- salbiy auditorlik xulosasi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotida tartibbuzarliklar mavjud bo'lib, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchini yanglishishga olib kelishi mumkin bo'lganligi to'g'risida fikr bildirilgan auditorlik tashkiloti hujjatidir.

Soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tekshiruv auditorlik xulosasi xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga muvofiq kelmasligini aniqlagan holda, ushbu auditorlik xulosasi shak-shubhasiz soxta deb hisoblanadi va auditorlik tashkiloti, shuningdek bunda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi. Bunda soliq va boshqa nazorat organlari o'n kunlik muddat

ichida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli auditorlik tashkiloti tomonidan amaldagi qonunchilik me'yorlari buzilganligi aniqlanganligi to'g'risida xabar berishi shart.

Majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishdan bosh tortganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlardan jarima undirib olish tartibi to'g'risida nizom qonunchilikka muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan amal qiladi.

Jarima solish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishdan bosh tortishi asos bo'ladi. Bunda yillik moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayiga qadar o'tkazilishi hamda auditorlik xulosasining yo'qligi qoidabuzarlik fakti deb topiladi.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining yillik moliyaviy yil uchun auditorlik tekshiruvini hisobot yilining 1 mayiga qadar o'tkazadi va auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kunlik muddat ichida tegishli soliq organiga auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim etadi.

Auditorlik xulosasining nusxasi belgilangan muddatda soliq organiga topshirilmagan holda, xo'jalik yurituvchi subyekt ushbu organga yozma ravishda auditorlik xulosasi yo'qligi sababini aks ettiruvchi tushuntirishni taqdim etishi shart.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bosh tortilganligi sababli auditorlik xulosasi yo'q bo'lgan taqdirda, soliq organi xo'jalik yurituvchi subyektga belgilangan tartibda jarima soladi.

Boshqa nazorat organi tomonidan majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazmagan xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan soliq organi tomonidan jarima solish chorasi qo'llanilmaganligi aniqlangan taqdirda, tegishli soliq organining mansabdor shaxslari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

Auditorlik faoliyati (auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlaridan tashqari) yangi qonunchilik bo'yicha auditorlik teshiruvini o'tkazish uchun faqat

maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (litsenziyalovchi organ) tomonidan amalga oshiriladi.

Bugungi kunda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mamlakatimiz fuqarolari byudjetni shakllantirish, byudjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishini nazorat qilishda bevosita ishtirok qilish imkoniyatiga ega, buning uchun "Fuqarolar uchun byudjet" loyihasi amalga oshirib kelinmoqda⁷².

Bob bo'yicha xulosalar

Boshqaruvning, jumladan, moliyaviy boshqaruvning eng muhim funktsiyalaridan biri bu nazoratdir. Moliyaviy nazorat moliyani nazorat qilish funktsiyasini amalda ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Amaliyot nuqtai nazaridan moliyaviy nazorat - bu barcha xo'jalik va boshqaruv subyektlari tomonidan moliyaviy qonunchilik va intizomga rioya etilishini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar majmui, shuningdek, moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va qilingan xarajatlarning maqsadga muvofiqligini baholashdir. Boshqacha qilib aytganda, moliyaviy nazorat nafaqat muayyan moliyaviy harakatlarning qonuniyligini baholashni o'z ichiga oladi, balki tahliliy jihatga ham egadir.

Moliyaviy nazorat, boshqa barcha moliyaviy kategoriyalar kabi, moliyaviy munosabatlarning rivojlanishi bilan o'zgarishga yuz tutgan. Tarixiy jihatdan u davlat g'aznasi mablag'larining sarflanishi ustidan davlat nazorati sifatida vujudga kelgan.

Moliyaviy munosabatlar sohasining kengayishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning chuqurlashishi, moliya bozorlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, biznesni tashkil etish shakllarining takomillashuvi moliyaviy nazoratni tashkil etishning tegishli shakl va usullarini o'zgartirish va qo'llashni taqozo etdi.

⁷² https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/Budjet_22_P_uz_11111.pdf

Hozirgi vaqtda davlat moliyaviy nazorati bilan bir qatorda nodavlat moliyaviy nazorat ham mavjud bo'lib, u: 1) korxona ichidagi nazorat; 2) tijorat banklari tomonidan tashkilotlar ustidan nazorat qilish; 3) mustaqil auditorlik nazorati.

Moliyaviy nazoratning barcha turlarining yakuniy maqsadi bir xil bo'lib, moliyaviy intizomga rioya qilishni ta'minlash, moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Shu bilan birga, davlat va nodavlat moliyaviy nazoratning vazifalari, shunga mos ravishda funktsiyalari ham farqlanadi.

Agar davlat nazoratining asosiy vazifasi moliya qonunchiligiga, moliyaviy intizomga rioya etilishini ta'minlash, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larining maqsadsiz sarflanishiga yo'l qo'ymaslik orqali davlatning moliya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga ko'maklashish bo'lsa, nodavlat tashkilotning asosiy vazifasi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligini ta'minlash hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat obyekti - moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish, shu jumladan pul mablag'larining markazlashtirilgan fondlari shakllarini taqsimlash jarayonlari hisoblanadi.

Moliyaviy nazoratning predmeti turli xil moliyaviy ko'rsatkichlar: turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari, soliq to'lovlari hajmi, tadbirkorlik subyektlarining daromadlari, ularni taqsimlash xarajatlari, tannarx va foyda, shuningdek, uy xo'jaliklarining daromadlari va xarajatlari va boshqalardan tarkib topadi.

Ko'pgina nazorat ko'rsatkichlari hisob-kitob qilinadi, bu esa ularni amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq hisoblashning ishonchliligi va to'g'riligini tekshirishni talab qiladi.

Moliyaviy nazorat doirasi barcha operatsiyalar, nafaqat pul oqimi, balki barter operatsiyalari, shuningdek, turli xil hisob-kitoblarni ham o'z ichiga oladi.

Moliyaviy nazoratning samaradorligi uning tashkil etilishiga, moliyaviy huquqbuzarliklarga nisbatan qo'llaniladigan sanksiyalarga bog'liq.

Jahon amaliyotida moliyaviy nazoratning ikkita asosiy modeli ishlab chiqilgan: anglo-sakson va frantsuz.

Anglo-Sakson modelida nazorat qiluvchi moliya organlari faqat har xil turdagi nazoratni amalga oshirish va ular bo'yicha hisobot tuzish bilan shug'ullanishsa, sanksiyalar masalasi esa ma'muriy va sud organlarining vakolati bo'lib hisoblanadi.

Frantsuz modelida esa moliyaviy huquqbuzarliklarda shaxslarning aybini aniqlashda, yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishda va hokazolarda alohida nazorat organlariga ba'zi sud funktsiyalarini berish imkoniyatini nazarda tutadi.

Jamiyat moliyaviy-iqtisodiy hayotining turli sohalarida moliyaviy nazoratga turli vazifalar qo'yilgan. Moliyaviy nazoratning samaradorligi ko'p jihatdan uni tashkil etish xususiyatiga bog'liq. Jahon hamjamiyati INTOSAI (Oliy audit institutlari xalqaro tashkiloti) ning Lima deklaratsiyasida belgilangan muayyan tamoyillarni ishlab chiqdi. Mustaqillik, xolislik, malakalilik, oshkoralik shular jumlasidandir.

Moliyaviy nazoratning amalda foydalaniluvchi turli shakllari mavjud , ular odatda ma'lum mezonlarga muvofiq tasniflanadi.

Majburiy nazorat davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Unga, xususan, soliq tekshiruvlari, alohida tashkilotlar, kompaniyalar yillik moliyaviy hisobotlarining majburiy auditi va boshqalar kiradi.

Tashabbusli nazorat xo'jalik yurituvchi subyektlarning tegishli organlari tomonidan belgilanadi va ular moliyaviy boshqaruvining ajralmas tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Dastlabki nazorat byudjetlar (davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar), xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy rejalari, byudjet tashkilotlari,

muassasalarining daromadlari va xarajatlari smetalarini ko'rib chiqish va qabul qilish bosqichida amalga oshiriladi.

Unda turli xil moliyaviy rejalar, shu jumladan barcha darajadagi byudjetlar ko'rsatkichlarining haqiqiylikini baholash ko'zda tutilgan. Nazoratning ushbu shakli amaldagi qonunchilik, qoidalar buzilishining oldini olish, qo'shimcha zahiralar va mumkin bo'lgan daromad manbalarini aniqlash, moliyaviy resurslardan samarasiz foydalanishning oldini olish va hokazolarga imkon beradi.

Joriy nazorat barcha darajadagi byudjetlarni, moliyaviy rejalarini va alohida dasturlarni ijro qilish paytida amalga oshiriladi. Nazoratning ushbu shakli nafaqat moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari jarayonida moliyaviy intizomga rioya qilishni ta'minlaydi, balki xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi.

Keyingi nazorat hisobot davri va umuman moliya yili yakuni bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini sarhisob qilgan holda byudjet ijrosi hisobotlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash chog'ida amalga oshiriladi.

Davlat nazorati davlat hokimiyati organlari (Prezident administratsiyasi, mamlakatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari, mahalliy davlat hokimiyati idoralari) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu nazoratning maqsadi davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirishda davlat va umuman jamiyat manfaatlariga rioya etilishini ta'minlashdir.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining nazorati tegishli moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi va eng avvalo mahalliy byudjetlar ijrosini monitoring qilish va tahlil qilishga qaratilgan.

Idoraviy nazorat vazirliklar va idoralarning korxonalar, tashkilotlar hamda ularga hisobdor muassasalarning maxsus bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday nazoratning maqsad va vazifalari bevosita vazirlik va idoralarning o'zlari tomonidan belgilanadi.

Ichki xo‘jalik nazorati korxona va tashkilotlarning moliyaviy-iqtisodiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu nazoratning maqsad va vazifalari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruv organlari tomonidan shakllantiriladi.

Mustaqil (auditorlik) nazoratini amaldagi qonunchilik va auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishni tartibga soluvchi qoidalarga muvofiq auditorlik firmalari, auditorlar amalga oshiradilar.

Moliyaviy nazoratning quyidagi usullari (usullari, yo‘llari) mavjud: tekshirish, o‘rganish, nazorat, moliyaviy holatni tahlil qilish, kuzatish (monitoring), audit.

Tekshirish buxgalteriya va xarajat hujjatlari asosida moliyaviy faoliyatning ayrim masalalari bo‘yicha amalga oshiriladi. Agar moliyaviy intizom buzilishi aniqlansa, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish choralari ko‘riladi.

O‘rganish korxona va tashkilotlarning moliyaviy holatini va rivojlanishning mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarini aniqlash uchun ularning faoliyatining ayrim jihatlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Nazorat - bu moliyaviy operatsiyalarni amaldagi qonunchilik tomonidan qo‘yiladigan normalar va talablarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi ustidan nazoratdir. Nazorat subyekti sheriklarining manfaatlarini buzishga olib keladigan me‘yorlar va talablarning tizimli va qo‘pol ravishda buzilishi ba‘zi hollarda sanksiyalarni qo‘llashga olib keladi, masalan, har qanday faoliyat turlarini (operatsiyalarni) bajarish uchun litsenziyani bekor qilish shaklida.

Kuzatish (monitoring) - nazorat subyektining moliyaviy resurslaridan foydalanish va uning moliyaviy holatini doimiy nazorat qilish. Nazorat subyekti-ning roziligi bilan kreditor tomonidan belgilanishi mumkin, shuningdek hakamlilik sudi tomonidan korxonaning moliyaviy to‘lovga layoqatsizligi (o‘z zimmasiga olgan moliyaviy majburiyatlarni bajarmaslik) belgilarini aniqlashda amalga oshirilishi mumkin.

Moliyaviy holatni tahlil qilish xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati natijalarini, uning kapitalidan foydalanish samaradorligini baholashni o‘z ichiga oladi.

Taftish moliyaviy nazoratning eng keng tarqalgan va keng qamrovli usuli sifatida ko‘riladi. Korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilishda qamrovining to‘liqligiga ko‘ra, to‘liq, qisman, tematik va kompleks taftish farqlanadi.

To‘liq taftish xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyatining barcha jihatlarini tekshirishni ko‘zda tutadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliya-xo‘jalik faoliyatining ayrim jihatlarini nazorat qilish maqsadida qisman taftish o‘tkaziladi.

Tematik taftish moliya-xo‘jalik faoliyatining ayrim masalalari bo‘yicha tipik kamchiliklar, huquqbuzarliklarni aniqlash maqsadida bir qator o‘xshash xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyatini kuzatishni o‘z ichiga oladi.

Kompleks taftish xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining barcha jihatlarini, shu jumladan ishlab chiqarish omillaridan foydalanish xavfsizligi va samaradorligi, moliyaviy intizomga rioya qilish, moliyaviy hisobotlarning sifati (ishonchliligi, o‘z vaqtida taqdim etilishi) masalalarini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Pullar ham o'g'itga o'xshaydi, sochmasang undan hech qanday navf yo'q.

Frenses Bekon

8-BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIVASI

- 1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslari va kapitali.**
- 2. Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi.**
- 3. Asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishining mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va samaradorligi.**
- 4. Korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi.**
- 5. Korxona balansining tarkibi va tuzilishini tahlil qilish.**
- 6. Korxona balansining likvidligi va to‘lov qobiliyatini tahlil qilish.**
- 7. Korxona moliyaviy barqarorlik va ish faolligi tahlili.**
- 8. Korxona foydasi va rentabelligi, hamda bozor faolligi tahlili.**

8.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslari va kapitali


Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning (XYuS) moliyaviy resurslari ularga tegishli resurslarning bir qismi bo‘lib, mazkur resurslar pul shaklida amal qiladi. Resurslarning pul shaklida amal qilishi moliyaviy resurslar tavsifining ajralmas qismi hisoblanadi, bu narsa ularni XYuSning boshqa resurslari ko‘rinishlaridan, xususan, ishlab chiqarish vositalari (asbob-uskunalar, mashinalar, xomashyo va materiallar, ishlab chiqarishga mo‘ljallangan binolar va shu kabilar)dan farqlaydi. Buni inobatga olgan holda, XYuS vositalarining “pul shakli” va “pul qiymati” tushunchalarini farqlash talab qilinadi. “XYuS vositalarining pul qiymati” tushunchasi, odatda, pul mablag‘larining o‘zini emas, balki turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan vositalar va fondlar (masalan, asosiy fondlar)ning qiymat jihatidan baholanishini anglatadi.

Pulga sotib olinganiga qaramasdan ishlab chiqarish vositalari - asbob-uskunalar, mashinalar, xomashyo va materiallar, ishlab chiqarishga mo‘ljallangan binolar va shu kabilar) haqiqatda pul hisoblanmaydi. Ishlab chiqarish fondlarini

qaytadan pul shakliga aylantirish uchun, avvalo, ular sotilishi lozim. Bu holda, o'z navbatida, mol-mulkning balansda aks ettirilgan qiymati baholari emas, balki haqiqiy bozor baholari harakatga tushadi. Moliyaviy qiyinchiliklar va bankrotlik xavfi ostida vujudga keladigan bunday vaziyatlar XYuSni yomon oqibatlarga, xususan, mablag'lar va resurslarning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Xolbuki, xalqaro amaliyotga ko'ra, bankrotga uchragan XYuS tugatilayotgan paytda unga tegishli bo'lgan aktivlar qiymatining 40%dan ortiq bo'lmagan qismini olishga muvaffaq bo'lishi mumkin. Shu bois, hatto, sog'lom bozor muhitida, ya'ni talabga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarilsa ham, u faqat sotilgandan so'nggina, pul mablag'iga aylanadi.

Ishlab chiqarish jarayonini yangidan boshlash va rivojlantirishga mo'ljallangan XYuSning moliyaviy resurslari bu ularning pul shaklidagi kapitalidir. Mehnat vositalari, predmetlari va natijalariga aylangan moddiy-buyumlashgan kapital, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining jismoniy va intellektual qobiliyatlaridan iborat bo'lgan inson kapitali kapitalning mavjudligi va harakatining pulsiz shakli hisoblanadi. O'z mohiyatiga ko'ra, takror ishlab chiqarish jarayonining doiraviy aylanishiga kiritilgan va uning egasiga daromad keltiruvchi har qanday mulkiy va intellektual boylik kapital bo'lishi mumkin.

Tijorat XYuSlarning moliyaviy resurslari dastlab ta'sis kapitalining bir qismini pul shaklida qo'yish, shuningdek, boshqa shaxslar va tashkilotlardan maqsadli moliyalashtirish va subsidiyalar ko'rinishida kelib tushgan pul mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Ta'sis kapitalining pulsiz qismi (sanoat va intellektual mulk obyektlari, ulardan foydalanish huquqlari va boshqalar) esa, xuddi maqsadli tushumlar singari, agar ular pul ko'rinishida qo'yilmagan bo'lsa, XYuSning moliyaviy resurslari tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq emas (8.1-rasm).



8.1-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi

Birlamchi kapitalning ishlab chiqarishga investitsiya qilinishi tovar-pul doiraviy aylanishi jarayonining kengayishiga xizmat qiladi. Uning pul shaklidagi natijasi sifatida XYuSning tushumlari maydonga chiqadi. O'z navbatida, tushum xarajatlarni moliyalashtirish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini davom ettirishni ta'minlovchi bir necha pul mablag'lari fondlariga bo'linadi. Formula orqali buni umumiy tarzda, quyidagicha ifodalash mumkin:

$$T = F_{aa} + F_{mxm} + F_{ih} + F_f$$

Bu yerda: T – tushum;

F_{aa} – asosiy ishlab chiqarish fondlarining jismoniy eskirishini tiklashga mo'ljallangan amortizatsiya ajratmalari fondi;

F_{mxm} – moddiy xarajatlarni (xomashyo, material yoqilg'i, elektr energiyasi va boshqalarni sotib olish) moliyalashtirish fondi;


F_{ih} – ish haqi fondi;

F_f – tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan foyda (solliqlar to‘languncha va foydadan boshqa to‘lovlar amalga oshirilguncha).

Ayrim iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida moddiy xarajatlar va mehnat haqini moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari Xyusning moliyaviy resurslari tarkibiga kiritilmaydi. Ularning ayrimlari tomonidan esa XYuSning moliyaviy resurslari tarkibiga hatto pul tushumlari ham kiritilmaydi. Bunday yondashuvlarning noto‘g‘ri ekanligiga shubha yo‘q (8.2-rasm).

Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyotida pul tushumi yalpi daromad tarzida talqin qilinadi. Bu narsa XYuS moliyaviy resurslari fondini shakllantirish va qayta yangilashda tushumning umumlashtirilgan ahamiyatini o‘zida aniqroq aks ettiradi. Moddiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan pul tushumlarining bir qismi, XYuSning real moliyaviy resursi mol yetkazib beruvchilar va kontragentlarning hisobvaraqlariga o‘tkazilmasdan, uning aylanmasida bo‘lgan paytda qo‘shimcha daromad keltiradi.

Amortizatsiya ajratmalari fondi XYuSlar moliyaviy resurslarining tarkibiy tuzilmasida muhim o‘rin tutadi. Chunki bunday ajratmalar pul tushumlaridan qancha ajratilganligi va ularning XYuS tegishli hisobvaraqlarida joylashganligiga qarab, XYuSlarning real moliyaviy resurslari hisoblanadi.



8.2-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyasini boshqarish

Ishlab chiqarishning rivojlanishi va tovar hamda moliya bozorlarida XYuS faoliyatining faollashuvi natijasida ularning moliyaviy resurslari tarkibiy tuzilmasida foyda hal qiluvchi o'rin tuta boshlaydi. Foyda XYuS o'z mablag'larining asosiy manbai bo'lib, ishlab chiqarishning yangilanishi, sifatning yaxshilanishi, chiqarilayotgan mahsulot assortimentining kengayishi va h.k.larni ta'minlaydi. Foyda hisobidan XYuSning zahira fondlari, maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar shakllantiriladi.

Foyda massasi va normasi, uning xarajatlarga nisbati XYuSning kreditga layoqatini va uning qarz mablag'larini jalb qilish imkoniyatini, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni olishni aniqlab beradigan muhim indikatorlardir. Qarz mablag'larining XYuS o'z mablag'lariga nisbati $\frac{1}{3}$ va undan yuqori darajaga

yetishi, subyektlarning to'lov layoqatiga kreditorlarda ham, hamkorlarda ham shubha tug'dirmaydi.

Tijorat XYuSlarning moliyaviy resurslarini shakllanish manbalariga ko'ra, quyidagilarga ajratish mumkin (8.3-rasm):



8.3-rasm. Moliyaviy resurs manbalari

- mahsulot realizatsiyasi tushumi hisobidan shakllanadigan moliyaviy resurslar (foyda, amortizatsiya ajratmalari fondi, ish haqi fondi, moddiy xarajatlarni tiklash fondi);

- boshqa realizatsiya (mol-mulk, asosiy faoliyatga daxldor bo'lmagan xizmatlar va boshqalar) hisobidan olinadigan moliyaviy resurslar;

- moliyaviy bozorda shakllanadigan moliyaviy resurslar (kreditlar va zayomlar, o'z aksiyalari va qimmatli qog'ozlarning boshqa ko'rinishlarini sotish,

boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va foizlar, sug'urta qoplamalari va boshqalar);

- kreditorlik qarzlari hisobidan tashkil topadigan moliyaviy resurslar (mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga; mehnat haqi bo'yicha; ijtimoiy sug'urtaga doir; byudjet oldidagi va boshqalar);

- badallar va maqsadli tavsifdagi tushumlar hisobidan shakllantiriladigan moliyaviy resurslar (boshqa tashkilotlar va jismoniy shaxslardan tushumlar, byudjet subsidiyalari va h.k.).

8.2. Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy resurslaridan

foydalanish samaradorligi

Iqtisodiy munosabatlarni takror ishlab chiqarish shakllaridan biri sifatida, XYuSlar moliyasining harakati minimal xarajatlarda maksimal natijalar olinishini nazarda tutuvchi samaradorlikning umumiy iqtisodiy mezoniga bo'ysunadi. Shundan kelib chiqqan holda, XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$S_{mr} = N_{mf} / X_{mr}$$

Bu yerda: S_{mr} – XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi;

N_{mf} – ma'lum davr (avvalgi yoki joriy) uchun XYuS faoliyatining moliyaviy natijasi;

X_{mr} – muayyan moliyaviy natijani qo'lga kiritish uchun XYuS tomonidan amalga oshirilgan (yoki rejalashtirilgan) moliyaviy resurslar xarajatlari.

XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda shuni yodda tutish lozimki, moliyaviy natija faqat moliyaviy emas, balki moddiy va mehnat resurslari xarajatlarining natijasi ham hisoblanadi. Shu sababli, mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan foydani hisobga olgan holda, buning natijasida faqat faoliyatning sof moliyaviy tomonini tavsiflovchi ko'rsatkichga ega bo'lamiz, deb hisoblash o'rinli emas. Bu XYuS moliyaviy xo'jalik faoliyati samaradorligini tavsiflovchi umumiy ko'rsatkichlardan biri sanaladi, u kengaytirilgan takror ishlab

chiqarish jarayonida moddiy ishlab chiqarish va moliyaviy oqimlarning uzviy bog'liqligi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar o'zida moliyaviy natija va moliyaviy xarajatlarni mujassam etuvchi va XYuS moliyaviy xo'jalik faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlarga ham to'laligicha ta'lluqli. Shunday bo'lsada, analitik maqsadlar uchun aynan XYuSning moliyaviy faoliyati, uning moliyaviy va narx siyosatining samaradorligini tavsiflovchi o'xshash ko'rsatkichlarni ajratish muhim sanaladi.

XYuS moliyaviy faoliyatining samaradorligini ifodalovchi o'xshash ko'rsatkichlar sirasiga fond, moliya-kredit va pul bozorlaridagi operatsiyalarning daromadlilik ko'rsatkichlarini kiritishimiz mumkin. Bu yerda, ma'lumki, pul (P') go'yo to'g'ridan-to'g'ri puldan (P) qilinadi. U holda moliyaviy samaradorlikni aniqlash formulasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$S_{mr} = (P' - P) / P$$

Bu yerda: S_{mr} – XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi;


$P' - P$ – bevosita moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida XYuS tomonidan olingan daromad.

Bevosita moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida XYuS tomonidan olingan daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

- XYuS tomonidan aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish asosida bozorda joylashtirishdan olingan daromadlar;
- boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlarini sotib olishdan olingan dividendlar va foiz daromadlari;
- banklardagi pul omonatlaridan olingan foiz daromadlari;
- XYuS foydasiga valyuta kurslari bo'yicha farqlar va boshqalar.

Real sektorda faoliyat ko'rsatuvchi XYuSlarda moddiy ishlab chiqarish moliyaviy resurslaridan foydalanishning samaradorligini sotish rentabelligi ko'rsatkichi (foydani mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushumga nisbati) aks ettiradi (8.4-rasm). Mazkur nisbatda surat va maxrajdagi qiymatlar pul

ifodasida bo'lganligi bois, ayrim holatlarni istisno qilgan holda, ushbu ko'rsatkichni sof moliyaviy ko'rsatkich sifatida e'tirof etishimiz mumkin. XYuSlar moliya xo'jalik faoliyatining samaradorligini tahlil qilish va baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar (masalan, tushum va foyda) moddiy aylanma mablag'larning aylanuvchanligi,



8.4-rasm. Real sektorda faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar

asosiy ishlab chiqarish fondlari va nomoddiy aktivlarning fond sig'imi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birgalikda ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqqan holda, umumlashtiruvchi moliyaviy ko'rsatkichlardan biri sifatida XYuSning iqtisodiy rentabelligi (biznesning rentabelligi) ko'rsatkichini quyidagi formula asosida hisoblashimiz mumkin bo'ladi:

$$R = F / (K + K + A)$$

Bu yerda: R – XYuSning iqtisodiy rentabelligi (biznes rentabelligi);

F – yillik foyda;

K – XYuS aylanma kapitalining miqdori (qiymat baholarida);

K – XYuS asosiy kapitalining miqdori (qiymat baholarida);

A – XYuS nomoddiy aktivlarining miqdori (qiymat baholarida).

XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda uning moliyaviy barqarorligi, to'lovga layoqatliligi va likvidli-ligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ushbu holatda ham, o'zining mazmuniga ko'ra sof moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Sof moliyaviy ko'rsatkichlar qatoriga mutloq va muddatli likvidlik koeffitsientlarini kiritish mumkin, ular yordamida XYuSning potentsial to'lov qobiliyati baholanadi:

$$K_a = (P + QQ)/M$$

$$K_m = (P + QQ + DQ) / M$$

Bu yerda: K_a – mutloq likvidlilik koeffitsienti;

K_m – muddatli likvidlilik koeffitsienti;

P – hisobvaraqlardagi va XYuS kassasidagi pullar;

QQ – likvidli qimmatli qog'ozlar;

DQ – mobilizatsiya qilingan debitorlik qarzlari;

M – XYuSning qisqa muddatli majburiyatlari.

XYuSning pul mablag'lari va moddiy resurslarining pulli (qiymat) bahosi aralashadigan ko'rsatkich joriy likvidlik koeffitsientidir (qoplash koeffitsienti). U quyidagicha hisoblanadi:

$$K_j = (PM + MAM)/ M$$

Bu yerda: K_j – joriy likvidlilik koeffitsienti;


PM – pullar va ularga tenglashtirilgan mablag' (likvidli qimmatli qog'ozlar va jalb qilingan debitorlik qarzlari);

MAM – XYuS moddiy aylanma mablag'larining qiymat bahosi;

M – XYuSning qisqa muddatli majburiyatlari.

8.3. Asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishining mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va samaradorligi

Umumiy ko‘rinishda asosiy kapital mehnat vositalariga (binolar, inshootlar, uzatish qurilmalari, mashinalar va asbob-uskunalar, transport vositalari va foydali foydalanish muddati 12 oydan oshadigan boshqa vositalar) joylashtirilgan avanslashtirilgan kapital qiymatining bir qismidir. XYuSning buxgalteriya balansida asosiy kapital aylanmadan tashqaridagi aktivlar sifatida aks ettiriladi. Uning asosini asosiy vositalar tashkil etadi.



8.5-rasm. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirish mexanizmi

Bu aktivlarning boshqa unsurlari, ya’ni nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish, moddiy boyliklarga daromadli joylashtirish, uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalar, bevosita yoki bilvosita asosiy kapitalni kengaytirilgan ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Mehnat va mahsulotni yaratish jarayonida asosiy kapital ishlab chiqarish omili va ishlab chiqarishning moddiy-texnik asosi shaklida amal qiladigan unumli kapitalning qismi sifatida maydonga chiqadi (8.5-rasm). Asosiy

kapitalning doiraviy aylanishi unga tegishli bo'lgan qiymatning quyidagi uch funktsional shakllarida harakat qilishini anglatadi:

- pullik;
- unumli;
- tovar.

Asosiy kapital qiymatining bu shakllarda amal qilishi foyda olishni va mehnat vositalarining takror ishlab chiqarilishini ta'minlaydi.

Kapitalning doiraviy aylanishi davomida aylanma kapitaldan farqli o'laroq asosiy kapital o'zining iste'mol shaklini birdaniga yo'qotmaydi, ya'ni davomli muddatda eskiradi. Yangidan yaratilayotgan mahsulotga u o'zining qiymatini asta-sekinlik bilan, eskirish darajasiga qarab o'tkazadi va to'liq qayta tiklangunga qadar ko'plab ishlab chiqarish sikllari davomida uni tiklab boradi. Bu jarayon amortizatsiya deb ataladi va u o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq ravishda har oyda hisoblanadi.

Ma'naviy eskirishini inobatga olgan holda mehnat vositalari boshlang'ich qiymatini to'liq tiklash vaqti amortizatsiya davri deb ataladi. Bu davr tugaganidan so'ng asosiy kapitalga avanslashtirilgan pulli qiymat o'z aylanishini tugatadi va yana mehnat vositasiga aylanadi. Bu fursatga etgunga qadar o'tkazilayotgan qiymat asta-sekinlik bilan va uzluksiz ravishda amortizatsiya fondi ko'rinishida jamg'arilib boriladi. So'ngra iste'mol qilingan kapitalni yangidan qayta tiklashga foydalaniladi.

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy kapitalni buyumlashgan shakli sifatida asosiy fondlar uzoq vaqt davomida natural iste'molli shaklda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan moddiy boyliklar yig'indisi maydonga chiqadi. Iqtisodiy mo'ljallanganligiga ko'ra asosiy fondlar quyidagilarga bo'linadi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlari;
- noishlab chiqarish asosiy fondlari.

Ishlab chiqarish jarayonida buyumlashgan-natural shaklda ishtirok etadigan va ko'plab ishlab chiqarish sikllari davomida o'zining qiymatini tayyor mahsulot-

ga qismlarga bo'lib o'tkazuvchi mehnat vositalariga asosiy ishlab chiqarish fondlari deyiladi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlarining tarkibiga XYuSning balansida bo'lgan va noishlab chiqarish maqsadlari uchun foydalanishga mo'ljallangan XYuSning mulklari kiradi. Ular bo'yicha amortizatsiya hisoblanadi. Bu fondlarning qiymati ularning eskirishi munosabati bilan XYuSning tannarxi yoki foydasi hisobidan takror ishlab chiqariladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibiy tuzilmasi tarmoq, texnologik, ishlab chiqarish va xizmat qilish muddati jihatidan bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayotgan mehnat vositalari turli ko'rinishlarining nisbatidan iborat bo'lib, investitsiyalarning texnologik ilg'orligi va ularning oqilona joylashtirilganligini aks ettiradi. Asosiy fondlarning xizmat qilish muddati jihatidan tarkibiy tuzilmasi ularning holatini yosh guruhlar va takror ishlab chiqarish sur'atlari bo'yicha ifodalaydi. Keyingi yillarda asosiy fondlarning yetarli darajada faol takror ishlab chiqarilmaganligi bois, ularning yoshi va eskirishi ortib bormoqda.

Asosiy fondlar pullik tarzda baholanadi va hisoblanadi hamda buxgalteriya hisobida asosiy vositalar sifatida aniqlanadi. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- binolar;
- inshootlar (neft va gaz qazib oluvchi, gidrotexnik, transport xo'jaligi inshootlari va boshqalar);
- uzatuvchi moslamalar (elektr uzatuvchi, aloqa, quvurlar va h.k.);
- ishchi va kuch mashinalari va asbob-uskunalar;
- o'lchovchi va tartibga soluvchi (o'zgartiruvchi) priborlar va qurilmalar;
- uy-joylar;
- hisoblash texnikasi va orgtexnika;
- transport vositalari;
- instrumentlar;
- ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari va buyumlari;

- ishchi va mahsuldor qoramollar;
- ko'p yillik o'simliklar.

Yuqoridagilardan tashqari asosiy vositalarning tarkibiga yana tashkilotning mulkida bo'lgan yer maydonlari, tabiatdan foydalanish obyektlari (suv, qazilma boyliklari va boshqa tabiiy resurslar), asosiy vositalarning ijaraga olingan obyektlari ham kiradi.

Ishchi va kuch mashinalari hamda asbob-uskunolari, o'lchovchi va tartibga soluvchi (o'zgartiruvchi) qurilmalar hamda priborlar, hisoblash texnikasi, transport vositalari, instrumentlar, ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari, odatda, asosiy fondlarning aktiv qismiga kiritilib, ular mehnat predmetlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning qolgan qismlari esa asosiy fondlarning passiv qismiga kiritiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy kapital aktiv qismining maksimal ravishda oshirilishi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy kapital doiraviy aylanishining samaradorligini tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- moliyaviy nuqtai nazardan asosiy kapitalning doiraviy aylanishi moliyaviy resurslar tegishli fondlarining tashkil etilishi bilan kuzatiladi. Bu bir vaqtning o'zida ham asosiy kapital, ham aylanma kapital aylanishiga to'liq tegishlidir;

- shu doiraviy aylanish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash muhim hisoblanadi;

Joriy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish va eskirgan asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilashning o'z vaqtida amalga oshirilishi samaradorligini baholash kerak.

XYuSning moliyaviy resurslari tarkibida o'z (xususiy) va jalb qilingan pul mablag'lari bo'lishi mumkin. Takror ishlab chiqarish jihatidan asosiy kapitalning doiraviy aylanishi iste'mol qilingan asosiy fondlarni almashtirish (yangilash) uchun amortizatsiya mablag'larining amortizatsiya fondida jamg'arilishini ko'zda tutadi. Hisobot davri davomida asosiy vositalar obyektlari bo'yicha amortizatsiya ajratmalari hisoblashni qo'llash usullariga bog'liq bo'lmagan holda har oyda

hisoblanadi. Mavsumiy ishlab chiqarishda ham asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi hisobot yilida tashkilotning ishlash davri davomida bir tekisda hisoblanadi. Agar asosiy vositalarning obyektlari rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishda bo'lsa, yoki ular uch oydan ko'proq muddatga konservatsiya qilishga o'tkazilgan bo'lsa, bunday holatlarda amortizatsiya ajratmalarini hisoblash tashkilot rahbarining qaroriga muvofiq to'xtatilishi mumkin.

Amortizatsiyalanadigan mol-mulklar o'zlarining foydali foydalanish muddatlariga bog'liq ravishda, soliq kodeksiga muvofiq, muayyan mortizatsiya guruhlariga birlashtiriladi.

Amortizatsiya guruhlariga kiritiladigan asosiy vositalarning tasnifini har bir mamlakat hukumati tomonidan belgilab beradi. Amortizatsiya guruhlarini ko'rsatilmagan asosiy vositalarning turlari bo'yicha ularning foydali foydalanish muddatlari ularni tayyorlagan tashkilotlarning tavsiyalari va texnik shart-sharoitlariga muvofiq, soliq to'lovchining o'zi tomonidan o'rnatiladi.

Hozirgi paytda amaliyotda amortizatsiya ajratmalarini hisoblashning to'rt asosiy usulidan foydalaniladi:

- amortizatsiyani teng maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash;
- amortizatsiyani bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash (ishlab chiqarish usuli);
- ikki karra amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;
- yillar summasi usuli (kumulyativ usul).

Amortizatsiyani teng maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya teng maromda, asosiy vositalarni foydali ishlatish muddati mobaynida ularning amortizatsiyalanadigan qiymatidan kelib chiqqan holda teng ulushlarda hisoblanadi.

Mazkur usulga ko'ra asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymati uning xizmat muddati davomida tegishli xarajatlarga teng maromda hisobdan chiqariladi (taqsimlanadi). Har bir davr uchun amortizatsiya ajratmalari summasi

amortizatsiyalanadigan qiymatni foydalanilgan hisobot davrlari soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Amortizatsiyani teng maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi asosiy vositalarning amortizatsiya qiymati va mazkur obyektning foydali ishlatilish muddatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Chiziqli usul qo'llanilganda bir oy uchun hisoblangan amortizatsiyaning summasi shu obyekt uchun aniqlangan amortizatsiya normasi va obyektning dastlabki (tiklash) qiymatiga nisbatan quyidagicha aniqlanadi:

$$N_a = (1/m) \times 100\%$$

Bu yerda: N_a – amortizatsiyalanayotgan mol-mulk obyektining boshlang'ich (tiklash) qiymatiga nisbatan amortizatsiya normasi (foizda);

m – amortizatsiyalanayotgan mol-mulk obyektining foydali foydalanish muddati (oyda).

Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usuli har bir muayyan yildagi asosiy vositalarning mahsulotlarini hisobga olishga asoslangan.

Mazkur usul bo'yicha amortizatsiyaning har yilgi qiymatini hisoblash uchun butun foydali ishlatish muddatidagi umumiy baholangan mahsulotlar yig'indisini va mazkur muayyan yildagi mahsulotlarni aniqlash lozim. Mahsulot sifatida ishlab chiqariladigan mahsulot birliklari soni, ishlangan soatlar soni, o'tib bo'lingan tonna-kilometrlar soni va boshqalar olinishi mumkin.

Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot davridagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmining natural ko'rsatkichidan hamda asosiy vositalarning amortizatsiya qiymatining asosiy vositalari butun foydali ishlatish muddatidagi nazarda tutilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga nisbatan mutanosibligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

$$A_m = (BQ - TQ) / IChH = 1 \text{ birlik ish hajmiga amortizatsiya summasi}$$

Bu yerda: A_m – 1 birlik ish hajmiga amortizatsiya summasi;

BQ – boshlang'ich qiymat;

TQ – tugatish qiymati;

IchH – butun foydali ish davomida ishlab chiqarish hajmi.

Keyin 1 birlik ish hajmiga amortizatsiya summasini oylik bajarilgan ish hajmiga ko'paytirib, oylik amortizatsiya summasini aniqlaymiz.

Ikki karra amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli amortizatsiyani hisoblash davrida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati kamayishini anglatadi.

Mazkur usulga ko'ra, teng maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usulidan ikki karra amortizatsiya me'yori mazkur hisobot davridagi asosiy vositaning tegishli qoldiq qiymatiga ko'paytiriladi. Ikki karra amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli bo'yicha amortizatsiyani hisoblashda faraz qilinayotgan tugatish qiymati boshlang'ich (tiklash) qiymatidan chegirilmaydi.

Ikki karra amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot yili boshidagi asosiy vositalar qoldiq qiymatidan va mazkur obyektni foydali ishlatish muddatiga bog'liq holda hisoblangan amortizatsiyaning ikki karra me'yoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Amortizatsiyaning ikki karra me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usulida asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash ushbu obyektlarning balans (qoldiq) qiymati ularning tugatish qiymatiga teng bo'lgan vaqtdan boshlab tugatiladi.

Yillar summasi usuliga (kumulyativ usulga) ko'ra har yili amortizatsiya me'yori amortizatsiya muddati oxiriga qadar qoladigan amortizatsiyalanadigan qiymatga ulush sifatida aniqlanadi. Ulush amortizatsiya ajratmalari tugaguniga qadar qoladigan to'liq yillar sonini amortizatsiya muddatini tashkil qiladigan yillar tartib sonlari summasiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yillar summasi usulida (kumulyativ usulda) amortizatsiya ajratmalari-ning yillik summasi asosiy vositalarning amortizatsiya qiymatidan hamda suratida obyektni foydali ishlatish muddatining oxiriga qadar qoladigan yillar soni,

maxrajida esa - obyektning foydali ishlatish muddati yillari soni summasining nisbatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Asosiy kapitalning doiraviy aylanish jarayonida vujudga keladigan o'z moliyaviy resurslarining tarkibiga, amortizatsiya fondidan tashqari, yana quyidagi daromadlar va turli tushumlar ham kiradi:

- foyda, shuningdek, moliyaviy operatsiyalar va boshqa tashkilotlarda hissali ishtirok etishdan olinadigan daromadlarni ham qo'shib hisoblagan-da tadbirkorlik faoliyatidan kelib tushuvchi pul mablag'lari;

- mulkni samarali boshqarish hisobidan olinadigan pul mablag'lari;

- XYuSga tegishli bo'lgan ijara haqi, lizing to'lovlari, aktsiyalardan dividendlar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar, realizatsiyadan tashqari boshqa daromadlar, asosiy fondlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

- ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hisobidan erishilgan foyda.

Ish tartibini o'zgartirish va asbob-uskunalarini yuklash koeffitsientining oshirilishi, intensiv foydalanishning o'sishi va asosiy vositalar tarkibiy tuzilmasidagi progressiv o'zgarishlar, kiritilgan quvvatlarning tez o'zlashtirilishi fond qaytimi va boshqalar ishlab chiqarish iqtisodiy ko'rsatkichlari qiymatini oshiradi.

Asosiy fondlarni shakllantirish uchun jalb qilinadigan pul mablag'larining manbalarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

- maqsadli moliyalashtirish va tushumlar;

- banklarning o'rta va uzoq muddatli kreditlari hamda XYuS tomonidan texnikaviy qayta qurollantirish va rekonstruktsiya qilish, yangi asosiy ishlab chiqarish fondlarini yaratish uchun milliy va xorijiy valyutada olingan qarzlarni.

Birinchi guruhning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- hukumat organlaridan subsidiyalar shaklida olingan pul mablag'lari;

- taraqqiyotning strategik yo'nalishini amalga oshiruvchi maqsadli dasturlar asosida investitsiyalar ko'rinishidagi byudjet ajratmalari;

- kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi byudjetdan tashqari fondlarning mablag'lari;

- hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi boshqa XYuS va tashkilotlardan moliyaviy tushumlar;

- va boshqalar.

Ikkinchi guruhga kiruvchi jalb qilingan moliyaviy resurslarning tarkibida kreditorlik qarzlari ham muhim o'rinni egallaydi.

Asosiy kapitalning doiraviy aylanishi jarayonida ishtirok etadigan moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligi olingan samara va uni qo'lga kiritish uchun sarf qilingan moliyaviy resurslar o'rtasidagi nisbat orqali ifodalanadi. Shu munosabat bilan moliyaviy resurslardan foydalanishning sifat natijasini quyidagi formula orqali ko'rish mumkin:

$$M_s = (\Delta F / M_r) \times 100\%$$

Bu yerda: M_s – moliyaviy samaradorlik;

ΔF – foydaning o'sgan qismi;

M_r – moliyaviy resurslar.

Asosiy kapitalning rivojlanishi va uning moliyaviy jihatdan ta'minlanishini boshqarishda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning samaradorligini baholash alohida ahamiyat kasb etadi, u o'z navbatida ko'p jihatlari bilan ajralib turadi.

Bu yerda, avvalo, davlat, mulkdorlar, boshqaruvchilar va xodim (ishchi)lar manfaatlarini birgalikda qarash jihatida juda muhimdir. Davlat manfaatlarini, bir tomondan, XYuSlarning soliq to'lovlarini maksimallashtirish maqsadida balans foydaning maksimallashtirilishini ko'zda tutadi. Ikkinchi tomondan esa, foydadan soliq to'lovlari foydaning kengaytirilgan ilmtalab takror ishlab chiqarishga qayta investitsiya qilinishini hisobga olgan holda maqbullashtirilishi lozim.

Juda ko'p holatlarda mulkdorlar va boshqaruvchilar manfaatlarini bir-biriga mos keladi. Mulkdorlar uchun ham, boshqaruvchilar uchun ham bir aktsiyaga

to'g'ri keluvchi foyda summasining o'sishi orqali aksionerlar daromadlarini maksimallashtirish maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda, daromadlarni maksimallashtirish ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish hisobidan erishiladi. U rentabellik va mehnat unumdorligi, fond qaytimining oshishi, xarajatlarning qisqarishi, aylanma mablag'lar aylanishining tezlashuvi, mahsulot sifatining oshishi, asosiy fondlarning yangilanishi, yangi texnologiyalar va boshqaruv usullaridan foydalanish bilan bog'liq.

Boshqaruv qarorlarida oqilona dividend siyosatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega, u sof foydani dividend to'lash va uni jamg'arishga yo'naltirishga oqilona taqsimlanishini nazarda tutadi.

XYuS xodim (ishchi)lari manfaatlari nuqtai nazaridan faqatgina moliyaviy natija emas, balki o'zining tarkibiga mehnat haqi va uning o'sishi, ijtimoiy dasturlar va mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan XYuS xarajatlari hisobidan vujudga keladigan moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishini qamrab oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy samara ham muhimdir.

Asosiy kapitaldan samarali foydalanishni baholashda XYuS moliya-xo'jalik faoliyatining natijaviyligini ochib beruvchi umumiy moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu yerda asosiy hal qiluvchi ko'rsatkich sifatida ishlab chiqarishning umumiy rentabelligi ko'rsatkichi maydonga chiqadi. U samaradorlikni baholashning mezoni bo'lib xizmat qiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R_u = (BF / F_{aa}) \times 100\%$$

Bu yerda: R_u – ishlab chiqarishning umumiy rentabelligi;

BF – balans foydasi (soliqqa tortilgunga qadar);

F_{aa} – asosiy ishlab chiqarish fondlari va normalashtirilgan aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qiymati.

Fond qaytimi ko'rsatkichi XYuS asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi darajasini tavsiflaydi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$F_q = (T / F_{aich}) \times 100\%$$

Bu yerda: F_q – fond qaytimi;

T – realizatsiyadan olingan sof tushum;

F_{aich} – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o‘rtacha qiymati.

Fond sig‘imi fond qaytimiga nisbatan teskari ko‘rsatkich hisoblanadi va bir so‘mlik realizatsiya qilingan mahsulotga to‘g‘ri keluvchi asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatini ko‘rsatadi. Shuning uchun bu ko‘rsatkichni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$F_s = (F_{aich} / T) \times 100\%$$

Bu yerda: F_s – fond sig‘imi;

F_{aich} – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o‘rtacha qiymati;

T – realizatsiyadan olingan sof tushum.

Asbob-uskunalar yoki asbob-uskunalar ishlashining smenalik koeffitsienti ulardan foydalanish va ularning yuklanganlik darajasini ifodalab, yil, chorak, oy va kun davomida har bir birlik dastgoh yoki asbob-uskunalarining necha smenada ishlaganligini ko‘rsatadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_s = H_k / D_u \text{ yoki } K_s = H_s / S_{max}$$

Bu yerda: K_s – smenalik koeffitsienti;

H_k – kun davomida haqiqatda ishlangan dastgoh (mashina)/soatlar;

D_u – dastgoh (mashina)larning umumiy soni;

H_s – bir smenada haqiqatda ishlangan dastgoh (mashina)/soatlar soni;

S_{max} – bir smenada maksimal ishlanishi mumkin bo‘lgan dastgoh (mashina)/soatlar soni;

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirish koeffitsienti yangidan yaratilgan mahsulotga o‘tkazilishi natijasida ular iste‘mol qiymatining kamayishi (yo‘qotilishi)ni tavsiflaydi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_e = (A_{qth} / F_{ichfb}) \times 100\%$$

Bu yerda: K_e – eskirish koeffitsienti;

A_{qth} – foydalanishda bo‘lgan davr mobaynida asosiy ishlab chiqarish fondlarining qayta tiklanishiga hisoblangan amortizatsiya ajratmalarining summasi;

F_{ichfb} – asosiy ishlab chiqarish fondlarining boshlang‘ich qiymati.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yangilanish koeffitsienti XYuS investitsion talabini qondirishning intensivligini ifodalaydi va u quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{ya} = (Q_{aichf} / Q_{baichf}) \times 100\%$$

Bu yerda: K_{ya} – yangilanish koeffitsienti;

Q_{aichf} – yil davomida kiritilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati;

Q_{baichf} – barcha asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil oxiridagi qiymati.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining chiqish koeffitsienti esa eskirgan ishlab chiqarish apparatining foydalanish (ekspluatatsiya qilish)dan chiqib ketish dinamikasini ifodalaydi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{ch} = (Q_{aichfl} / Q_{aichfb}) \times 100\%$$


Bu yerda: Q_{ch} – chiqish (chiqib ketish) koeffitsienti;

Q_{aichfl} – yil davomida likvidatsiya qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati;

Q_{aichfb} – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati.

Shunday qilib, asosiy kapital doiraviy aylanishining samaradorligi, ko‘p jihatdan, amortizatsiya ajratmalarining maqsadli foydalanilishini, ishlab chiqarish apparatining rivojlanishiga emission daromad va sof foydaning kerakli miqdorlarda qayta investitsiya qilinishini oldindan aniqlab beradi. Shu bilan birga, bu yerda, yangi texnologik tizimlardan foydalanish, mashina va asbob-uskunalarining yuklama darajasi, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘z vaqtida yangilanishi va chiqib ketishi, moliyalashtirishning mumkin bo‘lgan barcha manbalarini faol jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aylanma kapital: mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va foydalanish samaradorligi. Aylanma kapital XYuS aylanma (o‘zgaruvchan, mobil) aktivlariga avanslashtirilgan kapital qiymatini o‘zida ifodalaydi. Bu kapital XYuS balansining “Joriy aktivlar” deb nomlangan ikkinchi aktiv bo‘limida aks ettiriladi (8.6-rasm).



8.6-rasm. Xo‘jalik yurituvchi subyekt aylanma kapitali tarkibi

Odatda, aylanma kapital quyidagi bir necha asosiy guruhlariga tasniflanadi:

- takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishini hisobga olgan holda funktsional mo‘ljallanganligi bo‘yicha;
- shakllantirish va moliyalashtirish manbalariga ko‘ra;
- lividlilik darajasiga qarab;
- va boshqa belgilariga muvofiq.

Aylanma kapital juda ko‘p funktsiyalarni bajaradi. Ularning orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

- takror ishlab chiqarish;
- rag'batlantirish;
- taqsimlash;
- ishlab chiqarish va muomala sohasining yagonaligini ta'minlash;
- ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash;
- va boshqalar.

Aylanma kapital o'z funktsiyalarini ham pul, ham natural - buyum shakllarida amalga oshiradi.

Aylanma kapitalning tarkibiy tuzilmasini funktsional jihatdan quyidagi ikki tashkil etuvchisi belgilab beradi:

- aylanma kapitalning natural buyum shakllari yoki aylanma ishlab chiqarish fondlari;
- muomala fondlari.

Tarkibiy tuzilma jihatidan aylanma kapitalning natural-buyum shakllariga, eng avvalo, ishlab chiqarish zahiralaridan iborat bo'lgan quyidagilar kiradi:

- xomashyo va asosiy materiallar;
- sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar;
- yoqilg'i;
- qadoqlash va qadoqlash materiallari;
- joriy ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar;
- inventarlar va xo'jalik buyumlari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari;
- o'z ishlab chiqarishining yarim tayyor mahsulotlari;
- kelgusi davr xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Aylanma kapitalning tarkibiy tuzilmasini tashkil etuvchi muomala fondlarining tarkibi quyidagilardan iborat:

- tayyor mahsulot va qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar, ortib jo'natilgan tovarlar (debitorlik qarzlari);

- pul mablagʻlari – kassadagi pullar, hisob-kitob va valyuta hisobvaraqlaridagi pullar, bankdagi maxsus hisobvaraqlari (akkreditivlar va chek daftarchalari, depozit hisobvaraqlari, boshqa toʻlov hujjatlari);

- qisqa muddatli (bir yildan ortiq boʻlmagan muddatda) moliyaviy qoʻyilmalar – boshqa XYuSlar qimmatli qogʻozlariga investitsiyalar, davlat va mahalliy zayomlarning foizli obligatsiyalari, boshqa XYuSlarga berilgan zayomlar, aktsionerlardan oʻz aktsiyalarini sotib olish;

- debitorlik qarzlarining barcha koʻrinishlari, sotib oluvchilar va buyurtmachilarning qarzlari, olinuvchi veksellar, shoʻba va boʻysunuvchi jamiyatlarning qarzlari, ustav kapitaliga badallar boʻyicha taʼsischilar-ning qarzlari, berilgan avanslar, boshqa debitorlarning mablagʻlari.

Aylanma kapitalning boshqa qismi pulli koʻrinishda shakllantiriladi va aylanma fondlarning iqtisodiy unsurlariga pulli kapitalni doimiy avanslashtirish koʻrinishida doiraviy aylanishda boʻladi. Pul mablagʻlarining doiraviy aylanishi XYuS tomonidan ishlab chiqarishga zarur boʻlgan moddiy resurslar qiymatining toʻlanishi bilan boshlanadi va shu xarajatlarning mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum koʻrinishida qaytishi bilan tugallanadi.

Doiraviy aylanish jarayonida aylanma kapital doimiy qiymat kategoriyasi sifatida saqlanib qolsada, oʻz tarkibiy qismlarining funktsional shakllarini uzluksiz ravishda quyidagi ketma-ketlikda oʻzgartiradi: pul mablagʻlari – xomashyo va materiallar zahiralar – tayyor mahsulot – debitorlik qarzlari – tushum koʻrinishida tushadigan pul mablagʻlari. Bunda aylanma kapital kompaniya moliyaviy holatining oʻlchovi va tartibga soluvchisi hisoblanadi.

Aylanma mablagʻlar (kapital)ni shakllantirish va moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

- oʻz va unga tenglashtirilgan mablagʻlar;
- qarz va jalb qilingan mablagʻlar.

Oʻz navbatida, aylanma mablagʻlarni shakllantirish va moliyalashtirishning oʻz manbalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ustav kapitali;
- foyda;
- emission daromad (qo‘shilgan daromad).

Emission daromad, ayrim hollarda, ta’rischilik foydasi (nominaldan yuqori to‘langan kapital) deb ham yuritiladi.

O‘z mablag‘lariga tenglashtirilgan manbalar qat’iy passivlardan, ya’ni XYuS aylanmasida doimiy ravishda mavjud bo‘ladigan jalb qilingan mablag‘lardan iborat. Ish haqi va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha qarzlar, qadoq idishlarini qaytarish bo‘yicha garovlar, kelgusi davr xarajatlarini qoplash bo‘yicha zahiralar shu shaklda vaqtinchalik foydalanilishi mumkin.

Qarz mablag‘lari o‘z aylanma mablag‘larining yetmagan qismini to‘ldirishga mo‘ljallangan. Ularning tarkibiga:

- banklarning qisqa muddatli kreditlari;
- zayomlar;
- uzoq muddatli kreditlarning bo‘sh mablag‘lari kiradi.

Jalb qilingan mablag‘lar:

- mol yetkazib beruvchi va pudratchilarning kreditorlik qarzlari;
- to‘lanuvchi veksellar;
- “qiz” XYuSlar va bo‘ysunuvchi jamiyatlar hamda byudjet oldidagi qarzlar;
- olingan avanslar;
- va boshqa kreditorlar ko‘rinishida maydonga chiqadi.

Aylanma kapitalning foydalanish samaradorligini tavsiflovchi umumlash-tiruvchi ko‘rsatkichlar aylanma mablag‘lar aylanishining soni va aylanma mablag‘lar bir marta aylanishining uzoqligi hisoblanadi va ular quyidagicha aniqlanadi:

$$A_{am} = T / Q_o,$$

$$U_{1a} = K_s / A_{am}$$

Bu yerda: A_{am} – aylanma mablag‘larning aylanuvchanligi;

T – realizatsiyadan olingan tushum;

Q_o – aylanma mablag‘larning yillik o‘rtacha qoldig‘i;

U_{1a} – aylanma mablag‘lar bir marta aylanishining uzunligi;

K_s – tahlil davridagi kunlar soni.

Zahiralarning aylanuvchanligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$A_z = T_{sm} / Q_{zo}$$

Bu yerda: A_z – zahiralarning aylanuvchanligi;

T_{sm} – sotilgan mahsulot tannarxi;

Q_{zo} – zahiralarning o‘rtacha qiymati.

Debitorlik qarzlarini to‘lashning kunlardagi o‘rtacha davomiyligi sotib oluvchilarning hisobvaraqlar bo‘yicha to‘lash tezligini aks ettiradi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$DQ_{to'd} = DQ_s^- / T_k^-$$

Bu yerda: $DQ_{to'd}$ – debitorlik qarzlarini to‘lashning kunlardagi o‘rtacha davomiyligi;

DQ_s^- – debitorlik qarzining o‘rtacha summasi;

T_k^- – realizatsiyadan olingan kunlik o‘rtacha tushum.

Bu ko‘rsatkichning past darajasi XYuS debitorlardan pulni undirish bo‘yicha ishining samaradorligidan darak beradi. Biroq, ayrim hollarda, bu narsa XYuS kredit siyosatining haddan ziyod qattiqqligini ham ko‘rsatib, realizatsiya qilingan mahsulotlarning uncha katta bo‘lmagan qismi kreditga sotilganligini ham anglatadi.

XYuS moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini ta‘minlashda va moliyaviy tahlilda sof aylanma kapitalni monitoring qilish muhim rol o‘ynaydi. Umumiy ko‘rinishda sof aylanma kapital aylanma aktivlar va qisqa muddatli majburiyatlar o‘rtasidagi farqdan iborat. Qisqa muddatli passivlarning tarkibiy tuzilmasida kelgusi davr daromadlari ham kiritilib, ular XYuSning o‘zlik pul mablag‘lari hisoblanadi. Shuning uchun ham, sof aylanma kapitalni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$S_{ak} = AA - QP$$

Bu yerda: S_{ak} – sof aylanma kapital;

AA – aylanma aktivlar;

QP – qisqa muddatli passivlar (kelgusi davr daromadlaridan tashqari).

Sof aylanma kapitalni boshqarishning natijaviyligini sof aylanma kapitalning aylanish koeffitsienti tavsiflaydi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_a = T_s / S_{ak}$$

Bu yerda: K_a – sof aylanma kapitalning aylanish koeffitsienti;

T_s – realizatsiyadan olingan sof tushum;

S_{ak} – sof aylanma kapitalning o'rtacha qiymati.

Aylanma mablag'larni boshqarishda ularni likvidlilik darajasi bo'yicha tartiblash muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadlar uchun likvidlilikning quyidagi ikki ko'rsatkichidan keng foydalaniladi:

- joriy likvidlilik koeffitsienti;
- mutloq likvidlilik koeffitsienti.

Joriy likvidlilik koeffitsienti ma'lum bir sana uchun aniqlanib, uni aniqlash tartibi quyidagicha:

$$K_{jl} = A_a / QP \geq 2$$

Bu yerda: K_{jl} – joriy likvidlilik koeffitsienti;

A_a – aylanma aktivlar (balansning II aktiv bo'limi);

QP – qisqa muddatli passivlar (kelgusi davr daromadlarisiz).

Joriy likvidlilik koeffitsientining darajasi ikkidan kichik bo'lmazligi lozim. Shunday bo'lishiga qaramasdan, g'arb mamlakatlarida birdan kichik bo'lmagan holatgacha yo'l qo'yiladi.

Mutloq likvidlilik koeffitsienti yuqori likvidli aktivlarning (pullar va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar) qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi va uni formula orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K_{al} = (PM + MQ) / QM \geq 0,2$$

Bu yerda: K_{al} – mutloq likvidlilik koeffitsienti;

PM – pul mablag‘lari;

MQ – qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar;

QM – qisqa muddatli majburiyatlar (kelgusi davr daromadlarisiz).

Bu koeffitsientning maqbul darajasi $\geq 0,2$ dan iborat bo‘lib, biroq amaliyotda bu XYuSning moliyaviy siyosati va faoliyati samarador-ligiga bog‘liq hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aylanma kapitaldan foydalanishning samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq. U, eng avvalo, to‘lov intizomining holati, aylanma mablag‘larning turli funktsional unsurlariga joylashtirilgan qo‘yilmalari hajmi bilan belgilanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish sohasida aylanma kapitaldan samarali foydalanishga ishlab chiqarishning chiqitlarsiz yuqori texnologiyalarga asoslanganligi, materiallar narxining arzonlashishi, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini pasaytirish, ishlab chiqarish zahiralar va ularning harakatini oqilona tashkil qilish hamda natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv, albatta, o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Muomala sohasida bunday omillar qatoriga mol yetkazib beruvchilar va iste‘molchilar bilan aloqalarni yaxshilash, samarali xo‘jalik aloqalaridan foydalanish, zamonaviy marketingni yo‘lga qo‘yish, tayyor mahsulot zahiralarini kamaytirish va uni realizatsiya qilinishini tezlashtirish kabilar kiradi. To‘lov qobiliyatini ta‘minlash (mustahkamlash) va mablag‘larning aylanuvchanligini tezlashtirish maqsadida debitorlik qarzlari va pul oqimlarini boshqarishni yaxshilash ham bu o‘rinda alohida ahamiyat kasb etadi.

Aylanma mablag‘larni me‘yorlashtirish. Aylanma kapitalni rejalashtirish va undan foydalanishni tashkil qilish uchun unga nisbatan bo‘lgan ehtiyojni aniqlash usullari va rejalashtirish tizimini ishlab chiqish lozim. Moddiy resurslar va ular zahiralarining harakatini boshqarish tizimini avtomatlashtirish, aylanma kapital va uni shakllantirish manbalari bilan to‘g‘ri muomala qilish, materiallarning sarflanishi va ularning saqlanishi ustidan nazoratni ta‘minlash talab qilinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, aylanma mablag‘lar quyidagi ikki guruhga bo‘linadi:

me‘yorlashtiriladigan aylanma mablag‘lar;

me‘yorlashtirilmaydigan aylanma mablag‘lar.

Me‘yorlashtiriladigan aylanma mablag‘larga aylanma ishlab chiqarish fondlari va realizatsiya qilinmagan tayyor mahsulot zahiralar kiradi. Me‘yorlashtirilmaydigan aylanma mablag‘lar esa ombordagi tayyor mahsulot zahiralaridan tashqari muomala fondlarining barcha unsurlarini qamrab oladi. Aylanma kapitalning o‘lchamini maqbullashtirish uchun moddiy aylanma mablag‘larning rejalashtirilishi amalga oshiriladi.

Moddiy aylanma mablag‘larni rejalashtirishning asosini normativ usul tashkil etadi. Unga ko‘ra aylanma mablag‘larning normativi belgilanadi, transport, sug‘urta, tayyorgarlik, texnologik, joriy zahiralar ham qo‘shgan holda zahiralar normalashtiriladi, moddiy resurslarning barcha ko‘rinishlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi tayyor mahsulotga nisbatan xarajatlar me‘yori o‘rnatiladi.

Aylanma mablag‘larni me‘yorlashtirish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat. Dastlab, aylanma mablag‘larning har bir unsuri bo‘yicha ishlab chiqarish zahiralarining me‘yori ishlab chiqiladi. Ishlab chiqarish zahiralarining me‘yori ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlovchi ularning ilmiy asoslangan rejali hajmidan iborat bo‘lib, u eng avvalo, quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi XYuS ish sharoitiga bog‘liq:

- ishlab chiqarish siklining uzoq-yaqinligi;
- ishlab chiqarishga materiallarni kiritish davri;
- mol yetkazib beruvchilarning uzoqligi;
- mol yetkazib berish partiyalarining kompleksligi yoki hajmi;
- materiallar sifati;
- hisob-kitoblar tizimi va boshqalar.

Me‘yor me‘yorlashtiriladigan moddiy resurslarga (ularning har bir turi bo‘yicha) bo‘lgan o‘rtacha kunlik ehtiyoj (xarajat)larning hajmi va mol yetkazib

berishlar o'rtacha intervali uzunligini hisobga olgan holda, kunlik zahiralarda o'rnatiladi. Demak, agar mazkur oraliq, masalan, 24 kunga teng bo'lgan bo'lsa, shunga mos ravishda zahiralar shu kunlar oralig'ida ishlab chiqarish siklining normal (sog'lom) rivojlanishini ta'minlashga yetarli bo'lmog'i lozim.

Kunlarda ifodalangan zahiralar va ma'lum bir ko'rinishdagi tovar-moddiy boyliklar xarajatlarining me'yori asosida me'yorlashtiriladigan zahiralarini yaratish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larning hajmi aniqlanadi. Agar me'yor kunlarda aniqlansa, u holda aylanma mablag'larning normativi XYuSning normal faoliyat ko'rsatishi uchun minimal darajada zarur bo'lgan tovar-moddiy boyliklarning pulda ifodalangan rejalash-tirilgan zahiralaridan iborat.

Qandaydir bir resursning zahiralariga avanslangan aylanma mablag'lar normativining formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$N = E \times U \times B$$

Bu yerda: N – aylanma mablag'larning normativi;

E – aylanma mablag'larga bo'lgan kunlik ehtiyoj;

U – o'rtacha interval uzoqligi;

B – aylanma mablag' birligining bahosi.

Masalan, faraz qilaylik qandaydir bir xomashyoning zahira me'yori 15 kunga, kunlik ehtiyoj 10 tonnaga va bir tonnaning bahosi 2 mln. so'mga teng bo'lsa, u holda pulda ifodalangan normativning darajasi 300 mln. so'mga ($15 \times 10 \times 2\,000\,000$) teng bo'ladi.

Umuman olganda, aylanma mablag'lar normativi mol yetkazib berishlar o'rtasidagi o'rtacha intervalni hisobga olgan holda, quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$N = E \times (U_1 + U_2) / 2 \times B$$

Bu yerda: N – aylanma mablag'larning normativi;

E – aylanma mablag'larga bo'lgan kunlik ehtiyoj;

$U_1 + U_2$ – navbatdagi ikki muddatda mol yetkazib berishlarning kunlardagi uzunligi;

B – aylanma mablag‘ birligining bahosi.

Aylanma mablag‘larning har bir unsurlari bo‘yicha normativning alohida hisoblanishi natijasida xususiy normativlar vujudga keladi. O‘z navbatida, barcha xususiy normativlarni jamlash natijasida yig‘ma normativ hosil bo‘ladi.

Xomashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning alohida turlari bo‘yicha zahiralarining kunlik normasi quyidagi zahiralar summalarini inobatga olib o‘rnatiladi:

- transport zahirasi;
- tayyorlov zahirasi;
- texnologik zahira;
- joriy zahira;
- sug‘urta zahirasi.

Transport zahirasi yukning yo‘ldagi kunlari va shu yuk uchun hujjatlarni to‘lash va ularning harakatlanish kunlari sonini o‘z ichiga oladi. Tayyorlov zahirasi qabul qilishni rasmiylashtirish, navlarga ajratish, ortish-tushirish, butlash, moddiy resurslarni maxsus qayta ishlash va h.k.larga bog‘liq. Bu zahira me‘yor yoki haqiqatda sarflangan vaqt asosida o‘lchanadi. Texnologik zahira ishlab chiqarish texnologiyasiga bog‘liq va texnologik me‘yorlar asosida hisoblanadi.

Asos sifatida joriy maksimal ombor zahirasi olinadi. Chunki u materiallarni navbatdagi ikki yetkazib berish intervali o‘rtasida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlaydi. Maksimal joriy zahira materiallarga bo‘lgan o‘rtacha kunlik ehtiyoj va navbatdagi ikki mol yetkazib berish intervali o‘rtasidagi davomiylilikning ko‘paytmasiga teng. Mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmining o‘sishi joriy ombor zahirasi oshirilishini talab qiladi. Shuningdek, maksimal joriy zahira ishlab chiqarishning maromiyligini ta‘minlash uchun har doim biroz o‘zgartirilishi kerak. Sug‘urta zahirasi rezerv sifatida, odatda, joriy ombor zahirasi 50%i doirasida qabul qilinadi.

Shunday qilib, zahiraning kunlik me'yori transport zahirasi, tayyorlov zahirasi, texnologik zahira, joriy ombor zahirasi va sug'urta zahiralarining summasiga teng bo'lgan summalar yig'indisidan iborat.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma mablag'larni me'yorlashtirish buyumlarning guruhlari bo'yicha amalga oshiriladi va u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N = X_0 \times U \times K$$

Bu yerda: N – tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma mablag'larning normativi;

X_0 – mahsulotni ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlar;

U – ishlab chiqarish siklining uzoqligi (kunlarda);

K – xarajatlarning o'sib borish koeffitsienti.

Mahsulotni ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlar chorak davomida tannarx bo'yicha ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qiymatini tegishli chorakdagi 90 kunga bo'lib topiladi.

Ishlab chiqarish siklining davomiyligi quyidagilar bilan belgilanadi:


- bevosita ishlov berish jarayoniga tegishli vaqt (texnologik zahira);
- ishlov beriluvchi buyumlarning ish joylarida joylashishi (transport zahirasi);
- aylanma zahirasi (ishlov berish operatsiyalari oralig'idagi vaqtlar);
- sug'urta zahirasi (uzilishlar sodir bo'ladigan vaziyatlar uchun).

Xarajatlarning o'sib borish koeffitsienti tugallanmagan ishlab chiqarishdagi buyum o'rtacha tannarxining ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasiga nisbati bilan aniqlanadi.

8.4. Korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi


Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish tashkilotni boshqarishning muhim va ajralmas unsuri, moliyaviy tahlil tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lib, korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarining umumiy xususiyatlarini aniqlash,

hisobot davri uchun ularning dinamikasi va og‘ishlarni ko‘rsatib berish uchun mo‘ljallangan (8.7-rasm).



8.7-rasm. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati iqtisodiy tahlili

Korxonaning moliyaviy holati xo‘jalik faoliyatining eng muhim tavsifi hisoblanadi, u korxonaning moliyaviy resurslari va kapitalini shakllantirish, foydalanish jarayoni, shuningdek pul oqimlari holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi bilan ifodalanadi (8.8-rasm).



8.8-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarish

Korxonaning moliyaviy holati - bu ancha murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, u keng ma'noda tashkilotning o'z faoliyatini ma'lum bir vaqtda moliyalashtirish qobiliyatini anglatadi va "tuzilmalarning aktivlari va passivlari nisbati, ya'ni korxona mablag'lari va ularning manbalari bilan ifodalanadi".

Har qanday tashkilotning moliyaviy holati uning iqtisodiy faoliyati jarayonida shakllanadi va ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyat natijalariga bog‘liq sanaladi. Agar ishlab chiqarish va moliyaviy rejalar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, bu korxonaning moliyaviy holatiga ijobiy ta’sir qiladi. Va aksincha, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining pasayishi natijasida tannarxi oshishi, tushum va foyda summasi kamayishi kuzatiladi va buning natijasida korxonaning moliyaviy ahvoli, uning to‘lov qobiliyati yomonlashadi.

Korxonaning moliyaviy holati ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni ichki (korxona faoliyatiga qarab) va tashqi (uning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan) omillarga ajratishimiz mumkin.

Tashkilotning barqaror moliyaviy holatiga ta’sir qiluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- kapitalning moslashuvchan tuzilishining mavjudligi;
- kapital harakatini tashkil etish, to‘lov qobiliyatini saqlab qolish va rivojlanish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida daromadlarning xarajatlardan doimiy ortiqcha bo‘lishini ta’minlash;
- bozorda xaridorgir bo‘lgan arzon, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish;
- xo‘jalik va moliyaviy operatsiyalar samaradorligini ta’minlash va shu kabilar.

Korxonaning moliyaviy holatiga ta’sir qiluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- davlatning soliq, foiz, amortizatsiya siyosati;
- korxonaning bozordagi, shu jumladan moliyaviy mavqei;
- mamlakatdagi ishsizlik va inflyatsiya darajasi;
- mijozlarning moliyaviy holati va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining eng muhim belgilari korxonaning to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi bo‘lib, bu, birinchidan, uning uzoq muddatli istiqboldagi faoliyati barqarorligini aks ettirsa, ikkinchidan, tashkilotning qarz muddatini

to'lash vaqti kelish bilan o'z majburiyatlarini to'liq to'lash uchun moliyaviy imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Agar korxonaning to'lov qobiliyati uning moliyaviy holatining tashqi ko'rinishi bo'lsa, moliyaviy barqarorlik uning ichki tomoni bo'lib, u uzoq muddatli istiqbolda barqaror to'lov qobiliyatini ta'minlaydi, bu aktivlar va passivlar, daromadlar va xarajatlar balansiga, ijobiy va salbiy pul oqimlari ko'rsatkichlariga asoslanadi.

Tashkilotning moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy vazifalari:

- uning moliyaviy holati sifatini aniqlash;
- hisobot davrida moliyaviy holatning yaxshilanishi yoki yomonlashishi sabablarini o'rganish;
- korxonaning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

Ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish uchun ma'lumot manbalari bo'lib korxonaning yillik va choraklik buxgalterlik moliyaviy hisobotlari, shuningdek, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va sintetik hisobvaraqlar bo'yicha muomalalar va qoldiqlarning zarur analitik ma'lumotlari hisoblanadi.

Moliyaviy holatni tahlil qilishning asosiy usullari bo'lib, gorizontal, vertikal, trend, koeffitsient va faktorial usullar hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy unsurlari quyidagilardan iborat:

- aktivlarning tarkibi va tuzilishi (tashkilotning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati resurslari bo'lgan mulkiy, moddiy va nomoddiy qimmatliklar), ularning holati va dinamikasi;
- passivlarning (o'z va ssuda kapitali) tarkibi va tuzilmasi, ularning holati va dinamikasi;
- korxona moliyaviy barqarorligining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari va ulardagi o'zgarishlarni baholash;
- tashkilotning to'lov qobiliyati va balans aktivlarining likvidligi.

8.5. Korxona balansining tarkibi va tuzilishini tahlil qilish

Iqtisodiy adabiyotlarda korxona aktivlari va ularning shakllanish manbalarini tahlil qilish ilgari standart shakldagi balans ma'lumotlari asosida tuzilgan umumlashtirilgan (jamlangan) analitik balans bo'yicha amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Qiyosiy analitik balansda aktiv va passiv balansining faqat asosiy bo'limlari va moddalarini bir xillik asosida moddalarni guruhlagan va jamlangan holda ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Balansning bu shakli hisobot shaklining tuzilishini ham, alohida ko'rsatkichlar dinamikasini ham tavsiflaydi. Ushbu balansda keltirilgan ma'lumotlar gorizontal va vertikal tahlil usullari bilan qayta ishlanadi. Gorizontal tahlil hisobot davridagi ko'rsatkichlarning o'zgarishini, vertikal tahlil esa korxona balansidagi umumiy (valyuta) ko'rsatkichlarning ulushini tavsiflaydi.

Qiyosiy balans asosida korxona mulki tarkibini tahlil qilish amalga oshiriladi. Mulk qiymatining tuzilishi tashkilotning moliyaviy holati haqida umumiy tasavvur beradi. U har bir unurning aktivlardagi ulushini va ularni majburiyatlarda qoplaydigan qarz va o'z mablag'larining nisbatini ko'rsatadi. Aktivlar va passivlardagi o'zgarishlar tuzilmalarini taqqoslab, biz mablag'larning kamayishi sodir bo'lgan xarajatlar haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.

8-1-jadval.

“MBA” MChJ qiyosiy analitik balansi

Balans ko'rsatkichlari	Mutloq ko'rsatkich, mln.so'm		Qiyosiy vazn, jamiga nisbatan % da		Og'ish			
	o'tgan davri	hisobot davri	o'tgan davri	hisobot davri	mutloq, mln.so'm (+,-)	nisbiy, % (+,-)	o'tgan davr ko'rsatkichiga nisbatan (o'sish sur'ati),%	balans jami o'zgarishiga nisbatan, %
1	2	3	4	5	6 = (3) – (2)	7 = (5) – (4)	8 = (6) / (2)	9 q (6) / jami (6)
Aktiv								
I. Uzoq muddatli aktivlar								
1.1. Asosiy vositalar	78 478,5	142 336, 1	39,6	46,4	+ 63 857,5	+ 6,8	+ 81,4	+ 58,8
1.2. Nomodiy aktivlar	-	-						
1.3. Boshqa uzoq muddatli aktivlar	19 413,8	15 516,7	9,8	5,1	- 3 897,1	- 4,7	- 20,1	- 3,6
I bo'lim bo'yicha jami	97 892,3	157 852, 7	49,4	51,5	+ 59 960,4	+ 2,1	+ 61,3	+ 55,2
II. Joriy aktivlar								

2.1. Ishlab chiqarish zahiralar va xarajatlari	49 031,4	97 404,1	24,7	31,7	+ 48 372,7	+ 7	+ 98,7	+ 44,6
2.2 Debitorlik qarzlari	46 089,3	46 017,6	23,3	15,0	- 71,7	- 8,3	- 0,1	- 0,1
2.3. Pul mablagʻlari	5 114,5	5 419,6	2,6	1,8	+ 305,1	- 0,8	+ 5,9	+ 0,3
2.4. Qisqa muddatli investitsiyalar	-	-						
2.5. Boshqa joriy aktivlar	-	-						
II boʻlim boʻyicha jami	100 235,1	148 841,3	50,6	48,5	+ 48 606,2	- 2,1	+ 48,5	+ 44,8
BALANS AKTIVI BOʻYICHA JAMI	198 127,4	306 694,0	100	100	108 566,6	0	+54,8	100

8-1-jadval davomi

Balans koʻrsatkichlari	Mutloq koʻrsatkich, mln.soʻm		Qiyosiy vazn, jamiga nisbatan, %		Ogʻish			
	oʻtgan davr	hisobot davri	oʻtgan davr	hisobot davri	mutloq, mln.soʻm (+,-)	nisbiy, % (+,-)	oʻtgan davr koʻrsatkichiga nisbatan (oʻsish surʼati), %	balans jami oʻzgarishiga nisbatan, %
1	2	3	4	5	6 = (3) – (2)	7 = (5) – (4)	8 = (6) / (2)	9 = (6) / jami (6)
Passiv								
I. Oʻz mablagʻlari manbalari								
1.1. Ustav kapitali	8 146,0	8 146,0	4,1	2,6	0	- 1,5	0	0
1.2. Qoʻshilgan kapital	-	-	-	-	-	-	-	-
1.3. Rezerv kapitali	19 204,7	19 204,7	9,7	6,3	0	- 3,4	0	0
1.4. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan	40 250,2	38 354,1	20,3	12,5	- 1 896,1	- 7,8	- 4,7	- 1,7

zarar)								
I bo'lim bo'yicha jami	67 600,9	65 704,8	34,1	21,4	- 1 896,1	- 12,7	- 2,8	- 1,7
II. Majburiyatlar								
Uzoq muddatli majburiyatlar	19 954,2	7 317,9	10,1	2,4	- 12 636,3	- 7,7	- 63,3	- 11,6
2.1. Zaymlar va kreditlar	19 954,2	7 317,9	10,1	2,4	- 12 636,3	- 7,7	- 63,3	- 11,6
2.2. Kechiktirilgan soliq majburiyatlari	-	-	-	-	-	-		
2.3. Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar	-	-	-	-	-	-		
Joriy majburiyatlar	110 572,3	233 671,3	55,8	76,2	+ 123 099,0	+ 20,4	+ 111,3	+ 113,3
2.4. Zaymlar va kreditlar	58 288,5	124 447,1	29,4	40,6	+ 66 158,6	+11,2	+ 113,5	+ 60,9
2.5. Kreditorlik qarzlari	52 283,8	109 224,2	26,4	35,6	+ 56 951,6	+ 9,2	+ 108,9	+ 52,4
2.6. Boshqa joriy majburiyatlar	-	-	-	-	-	-	-	-
II bo'lim bo'yicha jami	130 526,5	240 989,2	65,9	78,6	+ 110 462,7	+ 12,7	+ 84,6	+ 101,7
BALANS PASSIVI BO'YICH A JAMI	198 127,4	306 694,0	100	100	+ 108 566,6	0	+ 54,8	100
Sof aylanma vositalar (Passiv I bo'lim – Aktiv I bo'lim)	- 30 291,4	+50 188,1	-	-	- 58 064,3	-	- 58,54	- 53,5

1-misol. “MBA” MChJ misolida korxonaning moliyaviy holati umumiy tahlilini o‘tkazamiz, uning qiyosiy analitik balans ko‘rsatkichlari 8-1-jadvalda keltirilgan.

8-1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tahlil qilingan davrda tashkilot mulkining qiymati, shu jumladan uzoq muddatli aktivlar qiymatining 55,2 foizga va joriy aktivlar qiymatining 44,8 foizga o‘sishi natijasida 108 566,6 million so‘mga (yoki 54,8 foizga) oshdi. Asosiy vositalar, shuningdek, tovar-moddiy zahiralar va xarajatlar va debitorlik qarzlari-ning umumiy qiymatidagi kapital ulushining oshishi bilan, hisobotdan keyin 12 oy ichida kutilayotgan to‘lovlar va shoshilinch moliyaviy qo‘yilmalar kompaniyaning pul mablag‘lari ulushini kamaytiradi.

Tashkilot mulkining o‘sishining asosiy omillari asosiy vositalarning 55,2%ga ko‘payishi, jami buxgalteriya balansining o‘zgarishi, tovar-moddiy zahiralar va xarajatlar + 44,6% ga oshishi, to‘lovlar hisobot sanasidan keyin 12 oy ichida kutilayotgan debitorlik qarzlari – 0,1 foizga kamayishi natijasida paydo bo‘ldi.

Tashkilot mulkining 1,7 foizga kamayishi o‘z mablag‘lari manbalarining kamayishi (xususan, taqsimlanmagan foyda) hisobiga sodiq bo‘ldi va 11,6 foizga korxonaning uzoq muddatli majburiyatlarining kamayishi (zayomlar va kreditlar hisobiga), qisqa muddatli majburiyatlari 113,3%ga o‘shish hisobiga ta‘minlandi, shu jumladan “Zayomlar va kreditlar” 60,9%ga, kreditorlik qarzlari 52,4%ga o‘sishi balans jami o‘zgarishiga olib keldi. Shu bilan birga, o‘z mablag‘larining ulushi hisobot davrida 34,1%dan 21,4%ga kamaydi.

Korxonaning moliyaviy holatiga umumiy baho berish uchun biz mulk qiymatining o‘zgarishini tashkilotning iqtisodiy faoliyatining moliyaviy natijalaridagi o‘zgarishlar bilan taqqoslaymiz, umumiy balansga o‘xshash foyda va zarar to‘g‘risidagi analitik hisobotni tuzamiz. (8-2-jadvalga qarang).

8-2 jadval.

“MBA” MChJ foyda (zarari) o‘zgarish dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	Mutloq qiymat, mln.so‘m		Qiyosiy vazn, tushumga nisbatan %da		Og‘ish		
	o‘tgan davr	hisobot davri	o‘tgan davr	hisobot davri	mutloq, mln.so‘m	nisbiy, %	o‘tgan davrga nisbatan (o‘sish sur‘ati),%
1	2	3	4	5	6 =(3) – (2)	7 = (5) – (4)	8 = (6) / (2)
1. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushim	156 281,2	203 484,5	100	100	+ 47 203,3	0	+ 30,2
2. Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	120 839,4	165 233,6	77,3	81,2	+ 44 394,2	+	+ 36,7
3. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (sitr 1 – sitr 2)	35 441,8	38 250, 9	22,7	18,8	+ 2 809,1	- 3,9	+ 7,9
4. Davr xarajatlari	9 271,4	12 936,0	5,9	6,4	+3 664,6	+ 0,5	+39,5
5. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	6 359,9	6 792,6	4,1	3,3	+432,7	- 0,8	Q 6,8
6. Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (sitr 3 - sitr 4 + sitr 5)	32 530,3	32 107,5	20,9	15,7	- 422,8	- 5,2	- 1,3
7. Moliyaviy faoliyatdan daromadlar	2 801,9	1 938,4	1,8	0,9	- 863,5	- 0,9	- 30,8
8. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	16 842,1	25 908,1	10,8	12,7	+ 906,6	+ 1,9	+ 5,4
9. Umumxo‘jalik faoliyatning foydasi (zarari) (sitr 6 +sitr 7 - sitr 8)	18 490,1	8 137,8	11,9	3,9	- 10 352,3	- 8,0	- 56,0
10. Favquloddagi foyda va zararlar	-	-	-	-	-	-	-
11. Daromad (foyda) solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) (sitr 9 +/- sitr10)	18 490,1	8 137,8	11,9	3,9	- 10 352,3	- 8,0	- 56,0
12. Daromad (foyda) solig‘i	2 347,2	1 719,0	1,6	0,7	- 628,2	- 0,9	- 26,8
13. Foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlar	-	-	-	-	-	-	-
14. Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (sitr 11 - sitr 12 - sitr 13)	16 142,9	6 418,8	10,3	3,2	- 9 724,1	- 7,1	- 60,2
15. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (sitr 14 q sitr 15)	16 142,9	6 418,8	10,3	3,2	- 9 724,1	- 7,1	- 60,2

8-2-jadvalda korxonaning hisobot davridagi operatsion foydasi 2 809,1million so‘mga oshganligini ko‘rsatadi. va ayni paytda sof foydasi 9 724,1 million so‘mga kamaygan. Korxonaning sof foydasining o‘tgan yilga nisbatan 60,2%ga kamayishi asosan mahsulot sotishdan tushgan tushumning 47 203,3 million so‘mga o‘shgan bo‘lsada, lekin mahsulot tannarxi 44 394,2 mln. so‘mga, davr xarajatlari 3 664,6 mln. so‘mga oshganligi va jadvalda ko‘rsatilgan boshqa omillar hisobiga 9724,1 mln. so‘m (60,2%)ga kamaydi.

Korxona mablag‘larini joylashtirishning to‘g‘riligini baholash uchun balans valyutasi dinamikasini mahsulot sotish hajmi dinamikasi va foyda dinamikasi bilan taqqoslaymiz. Buning uchun 8-1 va 8-2-jadval ma’lumotlaridan foydalanib, biz ushbu ko‘rsatkichlarning qiymatlarini 8-3-jadvalda umumlashtiramiz.

8-3 – jadval.

**“MBA” MChJ tushun, sof foyda va balans
valyutasi dinamikasi, mln. so‘m**

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan davr	Hisobot davri	Mutloq og‘ish	O‘sinh sur‘ati, %
1. Sof foyda	16 142,9	6 418,8	- 9 724,1	- 60,2
2. Mahsulotlarni sotishdan sof tushim	156 281,2	203 484,5	+ 47 203,3	+30,2
3. Balans valyutasi	198 127,4	306 694,0	+ 108 566,6	+ 54,8

8-3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hisobot davrida o‘tgan davrga nisbatan sotishdan tushum hajmi 30,2 foizga o‘sgan, lekin sof foyda esa 60,2 foizga kamaygan.

Ushbu korxona uchun sotishdan tushum, balans valyutasi va sof foydaning o‘sinh sur‘atlari nisbati $30,2 < 54,8 > 60,2$ (ya’ni $O'_t < O'_b > O'_f$). Mahsulot sotishdan sof tushum o‘sinh sur‘ati haqiqatan ham tashkilot mulkining o‘sinh sur‘atlaridan kamayib ketgan ($30,2 < 54,8$), ammo sof foydaning o‘sinh sur‘ati sof tushumning o‘sinh sur‘atlaridan ancha past ($60,2 < 30,2$), ya’ni hisobot davrida kompaniyaning iqtisodiy aktivlaridan foydalanish ko‘rsatkichlari hisobot davridagiga nisbatan juda ham yomonlashganidan darak beradi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, korxona balans valyutasi dinamikasini umumiy baholash va foyda, sof tushum va balans valyuta-sining o'sish sur'atlarini tahlil qilish natijasida uning iqtisodiy holatiga "yakuniy tashxis" qo'yish mumkin emas. Shuning uchun keyingi tahlilni chuqurlashtirish kerak, ya'ni balansning likvidligini, to'lov qobiliyatini va tashkilotning moliyaviy barqarorligini hisoblash va baholash kerak.

8.6. Korxona balansining likvidligi va to'lov qobiliyatini tahlil qilish

Korxonalar bilan kredit tashkilotlari, mahsulot xaridorlari, xomashyo yetkazib beruvchilar va boshqa kontragentlar o'rtasidagi munosabat-lar jarayonida qarz oluvchining to'lov qobiliyatini doimiy ravishda tahlil qilish zarurati mavjud.

To'lov qobiliyati - bu tashkilotning "moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishi, ya'ni bu kreditorlarning talablarini zudlik bilan qoplash uchun zarur bo'lgan bo'sh pul mablag'larining mavjudligini aks ettiruvchi korxonaning ma'lum bir lahzalik xususiyatidir". Boshqacha qilib aytganda, to'lov qobiliyati "tashkilotda zudlik bilan to'lashni talab qiluvchi kreditorlik qarzlarini to'lash uchun yetarli pul mablag'lari va ularning ekvivalentlariga ega" degan ma'noni anglatadi. Biroq, shu bilan birga, har qanday vaqtda to'lov qobiliyati ta'minlanishi kerak. Shuning uchun joriy va uzoq muddatli to'lov qobiliyatini farqlash kerak.

Joriy to'lov qobiliyati korxonaning tashqi majburiyatlarini qisqa muddatda (ya'ni, yaqin kelajakda) bajarish qobiliyatini, **tashkilotning uzoq muddatli to'lov qobiliyati** esa uzoq muddatli majburiyatlarini to'lash qobiliyatini anglatadi.

Umuman olganda, agar korxonaning aktivlari tashqi majburiyatlardan ortiq bo'lsa, to'lovga qodir hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, agar korxona o'z kapitaliga ega bo'lsa, rasmiy ravishda to'lovga qodir hisoblanadi.

Shu tariqa, to'lov qobiliyati quyidagi shartlar bilan tavsiflanadi:

a) tashkilotning joriy hisobvarag'idagi pul mablag'lari muddati etgan qisqa muddatli majburiyatlarni to'lash uchun yetarli;

b) tashkilotning qisqa muddatli majburiyatlari (masalan, kreditor-lik qarzlari), muddati o'tgan va to'lov muddati etgan majburiyatlari yo'q.

Tashkilotning to'lov qobiliyatini tahlil qilish jarayonida korxona aktivlarining likvidligi va balansi likvidligini aniqlash uchun hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Umuman olganda, **likvidlik** kompaniyaning qisqa muddatli majburiyatlarini (bir yil ichida to'lanishi kutilayotgan) aylanma mablag'lar hisobidan (yil davomida naqd pulga aylangan) to'lash qobiliyatining ko'rsatkichidir. Boshqacha qilib aytganda, likvidlik deyilganda kompaniyaning aktivlarini, uning qiymatliklarini naqd pulga aylantirish qobiliyati, aktivlarning harakatchanligi tushuniladi.

Shu bilan birga, likvidlikni ikki tomondan ko'rib chiqish mumkin:

- 1) aktivni naqd pulga aylantirish uchun zarur bo'lgan vaqt sifatida;
- 2) aktivni ma'lum bir narxda sotish ehtimoli sifatida.

Aktivlarning likvidligi ularni pulga aylantirish uchun zarur bo'lgan vaqtning o'zaro nisbatini anglatadi, ya'ni aktivlarni pulga aylantirish uchun qancha kam vaqt sarflansa, aktivlarning likvidlik tavsifi shuncha yuqori bo'ladi.

Buxgalteriya balansining likvidligi - bu "korxona majburiyatlarining uning aktivlari bilan qoplanish darajasi, uning pulga aylanish muddati majburiyatlarni bajarish muddatiga to'g'ri keladi. Buxgalteriya balansining likvidligiga korxona majburiyatlari va uning aktivlari o'rtasida tenglikni o'rnatish orqali erishiladi".

Korxonaning likvidligi - bu "o'z aktivlarini (mulklarini) tez va minimal darajada moliyaviy yo'qotishlar bilan pul mablag'lariga aylantirish qobiliyatidir, bu esa o'z vaqtida majburiyatlarning muddatiga to'g'ri keladi".

To'lov qobiliyati - bu korxona aktivlarining likvidligi, uning doimiy ijobiy foyda tendentsiyasiga asoslangan uzluksiz va foydali faoliyati, pul mablag'larini erkin boshqarish va shu kabilardir.

Umuman olganda, agar korxonaning joriy aktivlari joriy majburiyatlardan oshsa, korxona likvid hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, sof aylanma mablag'lar miqdori likvidlikning umumiy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun, shartli ravishda, korxona faqat sof aylanma kapitalga (SAK) ega bo'lganda likvidli hisoblanadi, ya'ni $SAK = JA - JM > 0$ (bu yerda JA - joriy

(joriy) aktivlar, JM - joriy majburiyatlar yoki qisqa muddatli majburiyatlar). Sof aylanma kapital korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun zarurdir, chunki aylanma mablag'larning qisqa muddatli majburiyatlardan oshib ketishi korxonaning nafaqat qisqa muddatli majburiyatlarini to'lashi, balki joriy faoliyatini kengaytirish uchun zahiraga ega ekanligini anglatadi.

Shu bilan birga, shuni yodda tutish kerakki, sof aylanma mablag'larning maqbul miqdori kompaniya faoliyatining xususiyatlariga, xususan, uning ko'lamiga, sotish hajmiga, tovar-moddiy zahiralar va debitorlik qarzlarning aylanish tezligiga bog'liq. Aylanma mablag'larning etishmasligi kompaniyaning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida to'lashga qodir emasligini ko'rsatadi. Sof aylanma kapitalning maqbul ehtiyojdan sezilarli darajada oshib ketishi korxona resurslaridan nooqilona foydalanishni ko'rsatadi. Masalan: aktsiyalar chiqarish yoki real ehtiyojdan ortiq miqdorda kreditlar olish.

8-4-jadval.

Korxona aktivlarining likvidlik darajasi bo'yicha tavsifi

Aktiv	Gurihlash alomati	Hisoblash formulasi (balans bo'yicha)	Shartli belgilar
A1	Likvidlik darajasi eng yuqori aktivlar	$A1 = PM + QMMQ = \text{satr 320} + \text{satr 370}$	PM — pul mablag'lari; QMMQ — qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar.
A2	Tez realizatsiya qilinadigan aktivlar	$A2 = DQ < 1 \quad QBOA = \text{satr 210} + \text{satr 380}$	$DQ < 1$ — qoplash muddati 1 yildan kam bo'lgan debitorlik qarzarlar; BOA — boshqa oborot aktivlar.
A3	Sekin realizatsiya qilinadigan aktivlar	$A3 = TMZ + QQS + UMDQ > 1 + UMKX > 1 + UMI - Kdx - Kx = \text{satr 140} + \text{satr 270} + \text{satr 110} + \text{satr 120} + \text{satr 030} - \text{satr 190} - \text{satr 200}$	TMZ — tovar-moddiy zahiralar; QQS — sotib olingan TMZlar uchun qo'shimcha qiymat solig'i; $UMDQ > 1$ - qoplash muddati 1 yildan ko'p bo'lgan debitorlik qarzarlar; $UMKX > 1$ - qoplash muddati 1 yildan ko'p bo'lgan kechiktirilgan xarajatlar; UMI — uzoq muddatli investitsiyalar; Kdx — kelgusi davr xarajatlari; Kx — kechiktirilgan xarajatlar.
A4	Qiyin realizatsiya qilinadigan aktivlar	$A4 = UMA - UMDQ > 1 - UMKX > 1 - UMI = \text{satr 130} - \text{satr 110} - \text{satr 120} - \text{satr 030}$	UMA — uzoq muddatli aktivlar.

Buxgalteriya balansi likvidligini tahlil qilishning texnik tomoni likvidlik darajasi bo'yicha guruhlangan va likvidligining kamayish tartibida joylashtirilgan aktivlarini ularning to'lov muddati bo'yicha guruhlangan va to'lov shartlarining ortib borayotgan tartibida solingan majburiyatlari bilan taqqoslashdan iborat.

Korxonaning barcha aktivlari likvidlik darajasiga ko'ra (ya'ni pulga aylanish tezligiga qarab) shartli ravishda 8-4-jadvalda keltirilgan to'rt guruhga bo'lingan.

Korxonaning barcha majburiyatlari (balans passiv moddalari) ham shartli ravishda to'rt guruhga bo'linadi va ularni to'lash muddatiga qarab taqsimlanadi (8-5-jadvalga qarang). Korxonaning likvidligi va to'lov qobiliyatining haqiqiy darajasini balans likvidligini tahlil qilish asosida, korxonaning aktivlar guruhlari va passiv guruhlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqqoslash va quyidagi ko'rsatkichlardan (mutloq qiymatlarda) foydalangan holda hisoblash mumkin:

8-5-jadval.

Korxona majburiyatlarning to'lash muddati qarab tavsiflash

Passiv	Guruhlash alomati	Hisoblash formulasi (balans bo'yicha)	Shartli belgilar
P1	Muddati eng uzoq majburiyatlar	$P1 = JM - ABQ - QMBK - QMQ = \text{satr } 600 - \text{satr } 620 - \text{satr } 730 - \text{satr } 740$	JM – joriy majburiyatlar; ABQ – ajratilgan bo'linmalarga qarz; QMBK – qisqa muddatli bank kreditlari; QMQ – qisqa muddatli qarzlar.
P2	Qisqa muddatli majburiyatlar	$P2 = QMQM = \text{satr } 620 + \text{satr } 730 + \text{satr } 740$	QMQM — qisqa muddati qarz majburiyatlari (qisqa muddatli kreditlar, qarzlar va boshqa qisqa muddatli majburiyatlar).
P3	Uzoq muddatli majburiyatlar	$P3 = UMM = \text{satr } 490$	UMM — uzoq muddatli majburiyatlar
P4	Doimiy majburiyatlar	$P4 = O'MM - Kdx - Kx = \text{satr } 480 - \text{satr } 190 - \text{satr } 200$	O'MM – o'z mablag'lari manbalari; Kdx — kelgusi davr xarajatlari; Kx – kechiktirilgan xarajatlar.

$$\begin{cases} A1 \geq P1; \\ A2 \geq P2; \\ A3 \geq P3; \\ A4 \leq P4. \end{cases}$$

Agar ushbu tizimning tengsizliklari qanoatlantirilsa, korxona balansi mutloq likvid deb hisoblanadi.

Og'ishlarni aniqlash uchun to'lov taqchilligi (-) yoki ortiqchaligi (+) tegishli aktivlar va majburiyatlar guruhlari o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Agar tizimning bir yoki bir nechta tengsizligi optimal variantga nisbatan qarama-qarshi belgiga ega bo'lsa, korxona balansining likvidligi mutloq qiymatdan dan farq qiladi.

Balansning mutloq aktivligining majburiy sharti birinchi uchta tengsizlikning bajarilishidir. Aktivlar va passivlarning dastlabki uch guruhini solishtirganda ortiqchaligi mavjudligini ijobiy, etishmasligini esa salbiy deb hisoblash kerak. Shunday qilib, aktivlar va majburiyatlarning birinchi va ikkinchi guruhlari bo'yicha to'lovning ortiqchaligi kompaniyaning likvidligini bildiradi, ya'ni hozirgi vaqtda to'lov qobiliyatiga ega. Uchinchi guruhdagi aktivlar va passivlarni taqqoslash istiqbolli likvidlikni aks ettiradi va tashkilotning to'lov qobiliyatining o'ziga xos prognozi hisoblanadi.

To'rtinchi guruhdagi aktivlar va passivlarni taqqoslash balanslash xususiyatiga ega bo'lib, bunda likvid mablag'larning ortiqchasi ($A_4 \leq P_4$) istalmagan holat sifatida qaraladi.

Shunday qilib, aktivlar va passivlarning dastlabki ikki guruhini taqqoslash joriy likvidlikni aniqlash imkonini beradi, ya'ni tahlil qilish vaqtida eng yaqin vaqt ichida korxonaning to'lov qobiliyati yoki to'lovga layoqatsizligini bildiradi. Joriy likvidlikni (JL) hisoblash formulasi quyidagicha:

$$JL = (A_1 + A_2) - (P_1 + P_2).$$

Uchinchi guruh aktivlari va passivlarini taqqoslash istiqbolli (uzoq muddatli) likvidlikni ifodalaydi, ya'ni korxonaning prognoz to'lov qobiliyati. Kelgusidagi likvidlikni (KL) hisoblash formulasi quyidagicha:

$$KL = A_3 - P_3.$$

Yuqoridagi uchta shartning bajarilishi ($A_1 \geq P_1$, $A_2 \geq P_2$, $A_3 \geq P_3$) har doim to'rtinchi balanslash tengsizligini ($A_4 \leq P_4$) bajarishga olib keladi, bu korxonaning o'z aylanma mablag'lariga ega ekanligini tasdiqlaydi va moliyaviy barqarorlikning belgilangan minimal sharti talablariga rioya qilishni anglatadi.

Birinchi uchta tengsizlikdan birini bajarmaslik korxona balansining likvidligi buzilganligini ko'rsatadi. Aktivlarning bir guruhidagi mablag'larning yetishmasligi boshqa guruhdagi ortiqcha mablag'lar bilan qoplanishi mumkin emas, chunki kompensatsiya faqat qiymatga asoslangan bo'lishi mumkin. Haqiqiy

vaziyatda, majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish zarur bo'lganda, kamroq likvidli aktivlar ko'proq likvidli aktivlarni almashtira olmaydi. Shuning uchun amalda mutloqo likvidli korxonalar kam. Bundan tashqari, aktivlarni likvidlik darajasiga ko'ra guruhlariga bo'lish juda shartli. Muayyan sharoitlarda yuqori likvidli aktivlar (A1) mutloqo likvid bo'lmasligi mumkin va aksincha (masalan, to'lovga qodir bo'lmagan bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar eng kam likvidga aylanadi). Bundan tashqari, aktivlar guruhlari o'rtasidagi chegaralar noaniq bo'lishi mumkin. Masalan, tayyor mahsulotlar va sotishga mo'ljallangan tovarlar, ularning qanchalik talabga ega bo'lishiga qarab, A2 va A3 ga ham tegishli bo'lishi mumkin. Oxirgi tengsizlikning bajarilishi juda muhim, chunki u korxonaning o'z aylanma mablag'lari qiymatini tavsiflaydi. Shu bilan birga birinchi tengsizlikning bajarilishi, ya'ni naqd pul va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar korxonalarda debitorlik qarzidan oshib ketganligi, juda kam uchraydi.

Buxgalteriya balansi likvidligini tahlil qilish va uning natijalarini taqdim qilishni soddalashtirish uchun balans likvidligini tahlil qilish jadvali tuziladi.

2-misol. "MBA" MChJ korxonasi likvid aktivlarini majburiyatlari bilan solishtirib, 8.1-jadvaldan dastlabki ma'lumotlarni olib, natijalarni 8-6-jadvalda guruhlash misolini ko'rib chiqamiz.

8.6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxona ma'lumotlari bo'yicha hisob-kitoblar natijalari shuni ko'rsatadiki, guruhlar natijalarini aktiv va passivlar bo'yicha taqqoslash quyidagi shaklga ega:

* *o'tgan davr:* $A1 < P1, A2 < P2, A3 > P3, A4 > P4;$

* *hisobot davri:* $A1 < P1, A2 < P2, A3 > P3, A4 > P4.$

Joriy likvidlikni tavsiflovchi ko'rsatkich:

* *o'tgan davr:*

$Jlo' = (A1 + A2) - (P1 + P2) = (5\,114,5 + 46\,089,2) - (52\,283,8 + 58\,288,6) = -59\,368,7 \text{ mln. so'm};$

* *hisobot davri:*

$$JLh = (A1 + A2) - (P1 + P2) = (5\,419,6 + 46\,017,6) - (109\,224,2 + 124\,447,1) = -182\,234,1 \text{ mln. so'm.}$$

Kelgusi likvidlikni tavsiflovchi ko'rsatkich iborat:

** o'tgan davr:*

$$Klo' = A3 - P3 = 66\,250,2 - 19\,954,2 = 46\,295,8 \text{ mln. so'm;}$$

** hisobot davri:*

$$KLh = A3 - P3 = 112\,909,7 - 7\,317,9 = 105\,591,8 \text{ mln. so'm.}$$

8.6 – jadval.

“MBA” MChJ balans likvidligi tahlili, mln.so'm

Aktiv	o'tgan davr	hisobot davri	Passiv	o'tgan davr	hisobot davri	To'lov ortiqchasi (+) yoki kamomadi(-)	
						o'tgan davr	hisobot davri
1	2	3	4	5	6	7 = (2) – (5)	8 = (3) – (6)
1. Yuqori likvidli aktivlar (A1)	5 114,5	5 419,6	1.Muddati eng uzoq majburiyatlar (P1)	52 283,8	109 224,2	- 47 169,3	- 103 804,6
2. Tez realizatsiya qilinadigan aktivlar (A2)	46 089,2	46 017,6	2. Qisqa muddatli majburiyatlar (P2)	58 288,6	124 447,1	- 12 199,4	- 78 429,5
3. Sekin realizatsiya qilinadigan aktivlar (A3)	66 250,0	112 909,7	3.Uzoq muddatli majburiyatlar (P3)	19 954,2	7 317,9	46 295,8	105 591,8
4. Qiyin realizatsiya qilinadigan aktivlar (A4)	80 639,0	142 336,1	4. Doimiy majburiyatlar (P4)	67 566,1	65 693,8	13 072,9	76 642,3
BALANS (1+2+3+4)	198 092,7	306 683,0	BALANS (1+2+3+4)	198 092,7	306 683,0	0	0

Aniqlik uchun natijalarni 8-7-jadvalda umumlashtiramiz.

Shunday qilib, 8.6 va 8.7-jadvallar bo'yicha majburiyatlarni aktivlar bilan qoplash darajasini tavsiflab, shuni ta'kidlash kerakki, korxona oldingi va hisobot davri uchun mutloq likvidlikka ega emas, chunki birinchi uchta tengsizlikdan birinchi va ikkinchi tengsizlik mavjud emas.

1) yuqori likvidli aktivlar miqdori eng qisqa muddatli majburiyatlar miqdoridan kam (to'lov etishmovchligi o'tgan davr uchun 47 169,3 million so'mni va hisobot davrida 103 804,6 million so'mni tashkil etdi). Mutloq likvidlik darajasi talab darajasiga umuman to'g'ri kelmaydi;

2) tez sotiladigan aktivlar miqdori qisqa muddatli majburiyatlar miqdoridan oldingi davr uchun 12 199,4 million so‘mga va hisobot davrida 78 429,5 million so‘m kam. Shu bilan birga, to‘lov etishmovchligi joriy kreditorlik qarzdorlarning tez sotiladigan aktivlarga nisbatan oshib ketishi tufayli yuzaga keldi. Tez likvidlik darajasi talab darajasidan umuman past;

8.7 – jadval.

“MBA” MChJ balans likvidligi bajarish sharti

Mutloq likvidlik sharti	Balans likvidligi		Hisoblash natijasi, mln.so‘m		
	o‘tgan davr	hisobot davri	hisoblash formulasi	o‘tgan davr	hisobot davri
$A1 \geq P1$	$A1 < P1$	$A1 < P1$	Joriy likvidlik (JL): $JL = (A1 + A2) - (P1 + P2)$	- 59 368,7	- 182 234,1
$A2 \geq P2$	$A2 < P2$	$A2 < P2$			
$A3 \geq P3$	$A3 > P3$	$A3 > P3$	Kelgusi likvidligi (KL): $KL = A3 - P3$	46 295,8	105 591,8
$A4 \leq P4$	$A4 > P4$	$A4 > P4$			

3) sekin harakatlanuvchi aktivlar, shu jumladan zahiralar va xarajatlar, shuningdek uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar uzoq muddatli majburiyatlar miqdoridan sezilarli darajada oshadi 295,8 46 million so‘m va 105 591,8 million so‘m mos ravishda. Tahlil qilinayotgan davr uchun uchinchi tengsizlikning bajarilishi kompaniyaning istiqbolli likvidligiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Lekin shuni ta’kidlash kerakki korxonaning tovar-moddiy zahiralar (tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi tayyor mahsuloy) davr boshidan 48 996,6 million so‘mdan hisobot davrida 97 393 million so‘m (ikki baravar)ga oshganligi yaxshidan ko‘ra yomon alomat hisoblanadi.

Oldingi va hisobot davrlari uchun sotilishi qiyin bo‘lgan aktivlar va doimiy majburiyatlarni taqqoslash natijasida olingan to‘lov ortiqchaligi tashkilotning moliyaviy barqarorligi uchun minimal shartning bajarilishini va joriy faoliyatni moliyalashtirish uchun o‘z aylanma mablag‘larining mavjudligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, tahlil qilingan davr uchun uchta tengsizlikdan birinchi va ikkinchi tengsizligi optimal variantda qayd etilgan belgilarga ega bo‘lmaganligi sababli, korxona balansining likvidligi mutloq emas.

8.7. Korxona moliyaviy barqarorlik va ish faolligi tahlili

Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish iqtisodchilarning (moliyachilarning) tahliliy faoliyati sohalarining eng dolzarb va ustuvor yoʻnalishlardan biri hisoblanadi, bu holat bozorda faoliyat yuritishning noaniqligi, turli tavsifdagi xatarlarning vujudga kelish xavfining yuqoriligi sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Har qanday xoʻjalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligi - bu korxonaning shunday iqtisodiy (va birinchi navbatda, moliyaviy) holatini tavsiflovchi murakkab tushuncha boʻlib, u resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida korxonalarning uzluksiz ishlashini va izchil rivojlanishini taʼminlaydi. Kafolatlangan toʻlov qobiliyati va kreditga layoqatliligi hamda tadbirkorlik tavakkalchiligi-ning minimal darajasini saqlab qolgan holda, pul va pulsiz shakldagi mol-mulk bilan oʻz va qarz kapitali oʻrtasidagi moliyaviy muvozanatni saqlash orqali tashkil etishdan iborat.

Taʼrifdan koʻrinib turganidek, moliyaviy barqarorlik nafaqat daromadlarining xarajatlardan muttasil tarzda yuqori boʻlishini anglatadi, balki xoʻjalik yurituvchi subyektning samarali va uzluksiz ishlashini taʼminlagan holda, foydaning oʻsishini ham taʼminlaydi. Bundan tashqari, tashqi tomondan, bu nafaqat korxonaning qarzlarni toʻlash qobiliyatida, balki uning oʻzini-oʻzi rivojlanishida yoki kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish qobiliyatida ham namoyon boʻladi.

Tashkilotning kafolatlangan toʻlov qobiliyati, shuningdek, korxona faoliyatining tavsifi va bozor konʻyunkturasining oʻzgarishi tufayli tadbirkorlik tavakkalchiligining maqbul darajasi sharoitida uning toʻlov qobiliyati va kredit layoqatini saqlab qolishni nazarda tutadi.

Tashkilot moliyaviy barqarorligining sharti quyidagilardan iborat:

- 1) aktivlar tarkibi va hajmi boʻyicha uni uzoq muddatli rivojlantirish vazifalariga mos keladigan boʻlishi;
- 2) ularni shakllantirishning ishonchli manbalari mavjud boʻlishi.

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish va baholashda har doim shuni yodda tutish kerakki, xo‘jalik yurituvchi subyekt asosan o‘z mablag‘lari hisobidan aktivlarga (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, aylanma mablag‘lar) qo‘yilgan mablag‘larni moliyalashtirish manbalari hisobidan qoplasa, asossiz kreditorlik va debitorlik qarzlariga yo‘l qo‘ymasa, qarzдорlik va barcha majburiyatlarini o‘z vaqtida to‘lasa, bunday xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy barqaror deb tan olinadi,. Shu bilan birga, aylanma mablag‘larni oqilona tashkil etish va ulardan foydalanish moliyaviy barqarorlikning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, korxonaning moliyaviy barqarorligi tashqi ta’sirlardan mustaqillik darajasi, birinchi navbatda kreditorlardan mustaqillik darajasiga bog‘liqdir.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlar tizimidan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlikning mutloq ko‘rsatkichlari - bu zahiralar va xarajatlarning holatini va ularning asosiy iqtisodiy asoslangan shakllanish manbalari bilan ta’minlanganlik darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar (qisqa muddatda moliyaviy barqarorlik). Moliyaviy barqarorlikning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi - bu zahiralar va xarajatlarni shakllantirish uchun mablag‘lar manbalarining ortiqcha (+) yoki etishmasligi (-) bo‘lib, u mablag‘lar manbalari va zahiralar hajmi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Korxonaning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq zahiralarini shakllantirish manbalarini tavsiflash uchun manbalar turlarining har xil darajada qamrab olinishini aks ettiruvchi uchta asosiy ko‘rsatkichni aniqlash kerak. Bularga quyidagilar kiradi:

1. O‘z aylanma mablag‘larining mavjudligi (O‘AM):

$$O'AM = PI - AI = KvaR - UMA = \text{satr 480} - \text{satr 130},$$

Bu yerda: PI - korxona balansi passivining I bobi “O‘z mablag‘lari manbalari”;

KvaR - korxona kapitali va zahirasining qiymati;

AI - korxona balansi aktivining birinchi bobi natijasi;

UMA - korxonaning uzoq muddatli aktivlari.

2. Zahira va xarajatlarning (yoki amaldagi kapitalning) o'z va uzoq muddatli qarz manbalarining mavjudligi (O'UMM):

$$\begin{aligned} O'UMM &= PI - AI + PIIUM = KvaR - UMA + UMM = \\ &= \text{satr 480} - \text{satr 130} + \text{satr 490}, \end{aligned}$$

bu yerda: PIIUM - korxona balansi II bobi majburiyatining uzoq muddatli majburiyatlar natijasi;

UMM - korxonaning uzoq muddatli (bir yildan ortiq) majburiyatlari qiymati.

3. Zahira va xarajatlarni shakllantirishning asosiy manbalarining umumiy qiymati (ZShAM):

$$ZshAM = (PI + PII) - AI = (\text{satr 480} + \text{satr 770}) - \text{satr 130},$$

Bu yerda: PI - korxona balansi passivining I bobi "O'z mablag'lari manbalari";

PII - korxona balansi passivining II bobi "Majburiyatlar";

AI - korxona balansi aktivining I bobi "Uzoq muddatli aktivlar".

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida zahiralar va xarajatlarning ularni shakllantirish manbalari bo'yicha ta'minlash ko'rsatkichlari hisoblanadi, bu esa moliyaviy barqarorlikning mutloq ko'rsatkichlari hisoblanadi:

1. O'z aylanma mablag'larining ortiqcha (+) yoki yetishmasligi (-) ($\Delta O'AM$):

$$\Delta O'AM = O'AM - ZX = (\text{satr 480} - \text{satr 130}) - \text{satr 140},$$

Bu yerda: ZX - korxonaning zahirolari va xarajatlari qiymati;

2. Zahiralar va xarajatlarni shakllantirishning o'z va uzoq muddatli qarz manbalarining ortiqcha (+) yoki yetishmasligi (-) ($\Delta O'UMM$):

$$\Delta O'UMM = O'UMM - ZX = (\text{satr 480} + \text{satr 490} - \text{satr 130}) - \text{satr 140};$$

3. Zahira va xarajatlarni shakllantirishning asosiy manbalari umumiy qiymatining ortiqcha (+) yoki yetishmasligi (-) ($\Delta ZXShAM$):

$$\Delta ZXShAM = ZXShAM - ZX = (\text{satr 480} + \text{satr 490} + \text{satr 600}) - \text{satr 130}) - \text{satr 140};$$

Mutloq ko'rsatkichlar yordamida korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish juda qulay, ammo, bu obyektiv emas va moliyaviy barqarorlikga ta'sir qiluvchi omillarning faqat tashqi tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

8.8 – jadval.

Korxonaning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari (koeffitsientlari)

Ko'rsatkichlar, ularni qisqacha tavsifi	Hisoblash usuli, shartli belgilar	Tavsiya etiladigan qiymatlar
1	2	3
I. MOLIVAVIY MUSTAQILLIK KO'RSATKICHLARI (KAPITAL TUZILISHI)		
1. Muxtorlik koeffitsienti (moliyaviy mustaqillik, umumiy to'lov qobiliyati) (K_a) – korxona aktivlarining qay darajada o'z mablag'lari hisobidan shakllantirilganligini anglatadi, u faoliyatni moliyalashtirishning tashqi manbalardan mustaqillik darajasini aks ettiradi. Koeffitsientning oshishi tashkilotning moliyaviy mustahkamligi, uning barqarorlik va tashqi kreditorlardan mustaqilligini ko'rsatadi.	$K_a = \frac{XK}{A (B_v)} = \frac{\text{s.480 (1-shakl)}}{\text{s.400 (1-shakl)}}$ <p>XK – xususiy capital summasi; A (B_v) – korxona aktivlari summasi (balans valyutasi)</p>	≥ 0,5
2. Xususiy kapital multiplikatori (M_{xk}) – korxona va uning xususiy kapitaliga (aktivlar) moliyalashtirilgan barcha mablag'larning nisbatini aks ettiradi. Ko'rsatkichning dinamikada o'sishi jami moliyalashtirish manbalari hajmida qarz mablag'lari ulushining oshishini bildiradi.	$K_a = \frac{A}{XK} = \frac{\text{s.400 (1-sh.)}}{\text{s.480 (1-sh.)}}$	1 – 2
3. Moliyaviy qaramlik koeffitsienti (qarz va o'z mablag'lari nisbati) – moliyaviy leverej (K_{mq}) – korxonaning qarzga bog'liqlik darajasini ko'rsatadi, va uni qay darajada tashqi moliyalashtirish manbalariga bog'liqligini tavsiflaydi, ya'ni 1 so'm o'z mablag'lari aktiviga korxona qancha qarz mablag'lari jalb qilganligini ko'rsatadi. Ko'rsatkichning o'sishi korxonani qarz mablag'idan ko'proq bog'liq ekanini ko'rsatadi.	$K_{mq} = \frac{M}{XK} = \frac{\text{s.770 (1-sh.)}}{\text{s.480 (1-sh.)}}$ <p>M – qisqa va uzoq muddatli majburuyatlar</p>	≤ 0,7
4. Moliyalashtirish koeffitsienti (moliyaviy barqarorlik) (K_m) – qancha majburiyatlar korxonani o'z mablag'lari hisobidan qoplanishini ko'rsatadi.	$K_{mq} = \frac{XK}{M} = \frac{\text{s.480 (1-sh.)}}{\text{s.770 (1-sh.)}}$	≥ 1

<p>5. Investitsiyalarni qoplash koeffitsientiti (barqaror moliyalashtirish) (K_{iq}) – korxona mulkining uzoq muddatli manbalari bilan bog‘liq moliyalashtirish ulushini tavsiflaydi.</p>	$K_{iq} = \frac{XK + UMM}{A (B_v)} = \frac{(s.480 + s.490) \text{ 1-sh.}}{s.400 \text{ (1-sh.)}}$ <p>UMM – uzoq muddatli majburiyatlar summasi</p>	<p>0,75 – 0.9 0,75 – qiymati kam bo‘lmasligi kerak</p>
<p>6. Qarzga olingan kapitalning kontsentratsiya koeffitsienti (K_{qkk}) – korxonaga qo‘yilgan jami mablag‘lar summasida qarz kapitali ulushini tavsiflaydi. Ko‘rsatkichning qiymati tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari va inflyatsiya darajasidan bog‘liq.</p>	$K_{qkk} = \frac{UMM + QMM}{A (B_v)} = \frac{(s.490 + s.600) \text{ 1-sh.}}{s.400 \text{ (1-sh.)}}$ <p>QMM – qisqa muddatli majburiyatlar</p>	<p>$\leq 0,4$</p>
<p>7. Uzoq muddatli jalb qilingan qarz mablag‘lari koeffitsienti (K_{umjqm}) – uzoq muddatli dasturlarni amalga oshirish uchun jami mablag‘larning umumiy hajmida korxona aktivlarini moliyalashtirish uchun jalb qilingan uzoq muddatli qarzlar ulushini tavsiflaydi. Ko‘rsatkichning o‘rish dinamikasi korxonada investitsion faollik o‘rishini uzoq muddatli kreditlar hisobidan ko‘rsatadi.</p>	$K_{umjqm} = \frac{UMM}{XK + UMM} = \frac{s.490 \text{ (1-sh.)}}{(s.480 + s.490) \text{ 1-sh.}}$	<p>Har bir korxonaga alohida</p>
<p>8. Mulkni immobilizatsiya qilish koeffitsienti (K_{miq}) – korxonani jami mablag‘lari summasida oborotdan tashqari aktivlarni (uzoq muddatli aktivlar) ulushini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa mulkdagi joriy aktivlar ulushi shunchalik past bo‘ladi, va aksincha. Ko‘rsatkichning pasayishi mulk harakatchanligining o‘rishini ko‘rsatadi.</p>	$K_{miq} = \frac{OTA}{A (B_v)} = \frac{s.130 \text{ (1-sh)}}{s.400 \text{ (1-sh.)}}$ <p>OTA – oborotdan tashqari aktivlar</p>	<p>Tarmoqni o‘ziga xos xususiyati bog‘liq va har bir korxonaga alohida</p>
<p>9. Asosiy vositalar va boshqa qo‘yilmalarni moliyalashtirish tuzilmasi koeffitsienti (K_{avm}) – asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlarning qaysi qismi uzoq muddatli qarzlar hisobidan moliyalashtirilganni ko‘rsatadi. Ko‘rsatkichning o‘rishi asosiy vositalar va aylanmadan tashqari mablag‘lar uzoq muddatli qarzlar hisobiga moliyalashtirish darajasi va korxonaning investitsion faolligi o‘rishini anglatadi.</p>	$K_{avm} = \frac{UMM}{OTA} = \frac{s.490 \text{ (1-sh.)}}{s.130 \text{ (1-sh.)}}$	<p>Har bir korxonaga alohida</p>
<p>10. Foizlarni qoplash koeffitsienti (K_{fq}) – olingan foyda kreditlar va qarzlar bo‘yicha foiz to‘lashini ta‘minlaydi ko‘rsatadi. Berilgan kreditlar uchun</p>	$K_{fq} = \frac{F_b Q \%}{\%} = \frac{(s.240 + s.180) \text{ 2-sh.}}{s.180 \text{ (2-sh.)}}$ <p>F_b – balans foydasi (soliq to‘jagunga qadar)</p>	<p>> 1 O‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichi bilan taqqoslash kerak.</p>

kreditorlarni foizlar to'lamaslikdan himoyalash darajasini ko'rsatadi.	foйда) % - kreditlar bo'yicha to'lanadigan foizlar	Agar o'rtacha tarmoq ko'satkichidan kam bo'lsa korxonani tahlikali qarzi borligini ko'rsatadi.
II. Korxona aylanma mablag'lari holati ko'rsatkichlari		
11. O'z kapitali harakatchanligi (manevrchanlik) koeffitsienti ($K_{o'kh}$) – eng harakatchan aktivlarga o'z kapitalining qaysi qismi moliyalashtirilganligini ko'rsatadi, ya'ni o'z kapitalini umumiy summasida oborot aktivlarga o'z kapitalining moliyalashtirilgan ulushini tavsiflaydi.	$K_{o'kh} = \frac{O'AM}{XK} = \frac{(s.480 - s.130) \text{ 1-sh.}}{s.480 \text{ (1-sh.)}}$ <p>O'AM – o'z aylanma (oborot) mablag'lari</p>	0,2 – 0,5 0,5 – maqbul qiymat
12. Funktsional kapitalni harakatchanlik (manevrchanlik) koeffitsienti (K_{fkh}) – o'z aylanma mablag'larining pul mablag'lari va tez realizatsiya qilinadigan moliyaviy qo'yilmalar (qimmatbaho qog'ozlar) ko'rinishidagi qismini tavsiflaydi.	$K_{fkh} = \frac{PM + QMMQ}{O'AM} = \frac{(s.320 + s.370) \text{ 1-sh.}}{(s.480 - s.130) \text{ 1-sh.}}$ <p>PM – pul mablag'lari QMMQ – qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar summasi</p>	0 – 1 normal faoliyat ko'rsatayotgan korxona uchun
13. O'z aylanma mablag'lari bilan oborot (joriy) aktivlarni ta'minlanish koeffitsienti ($K_{o'amt}$) – korxonani moliyaviy barqarorligini saqlash uchun o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlash darajani tavsiflaydi.	$K_{o'amt} = \frac{O'AM}{JA} = \frac{(s.480 - s.130) \text{ 1-sh.}}{s.390 \text{ (1-sh.)}}$	$\geq 0,1$ 0,1 – kritik qiymat
14. O'z aylanma mablag'lar qiymati bilan tovar-moddiy zahiralarni ta'minlash koeffitsienti (K_{tmzt}) - qay darajada tovar-moddiy zahiralari o'z mablag'lari manbalari qoplangan va qarz kapitalini jalb qilishga hojat yo'qligini ko'rsatadi. O'z mablag'lari manbalari hisobidan zahira va xarajatlarni moliyalashtirish darajasini aks ettiradi.	$K_{tmzt} = \frac{O'AM}{TMZ} = \frac{(s.480 - s.130) \text{ 1-sh.}}{s.140 \text{ (1-sh.)}}$	0,6 – 0,8, lekin 0,6 dan kam bo'lmashligi kerak
15. Harakatchan va harakatsiz (mobil va immobil) aktivlarning nisbiy koeffitsienti ($K_{oa/ota}$) – korxonani har bir so'm oborot aktivlariga qancha oborotdan tashqari aktivlar to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Ko'rsatkichning qiymati qanchalik baland bo'lsa, korxona aktivlari mobilligi shuncha yuqori bo'ladi.	$K_{oa/ota} = \frac{OA}{OTA} = \frac{s.390 \text{ (1-sh.)}}{s.130 \text{ (1-sh.)}}$	Har bir korxonaga alohida
16. Zahiralar va xarajatlarni shakllantirish nuqtai nazaridan moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (K_{mmzx}) – zahiralar va xarajatlarning qaysi qismi korxonaning o'z mablag'lari	$K_{mmzx} = \frac{XK}{TMZ} = \frac{s.480 \text{ (1-sh.)}}{s.140 \text{ (1-sh.)}}$	

hisobidan shakllantirilganligini ko'rsatadi.		
III. Korxona asosiy vositalar holati ko'rsatkichlari		
17. Doimiy aktivlar indeksi (I_{da}) - korxona o'z mablag'lari manbasida asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlar ulushini ko'rsatadi; uning oshishi manyevrlik koeffitsientini kamaytirish orqali va aksincha mumkin bo'ladi. Koeffitsientning maqbul qiymati xo'jalik faoliyati xususiyatiga bog'liq.	$I_{da} = \frac{OTA}{XK} = \frac{s.130 (1-sh.)}{s.480 (1-sh.)}$	$I_{da} + K_{o'kh} = 1$ (moliyalashtirish manbalarida uzoq muddatli qarzlar va kreditlar bo'lmagan sharoitda)
18. Mulkning haqiqiy qiymati koeffitsienti (K_{mhq}) – korxonani mulk qiymatida asosiy vositalar va moddiy aylanma mablag'lar ulushini tavsiflaydi, yoki uning ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan korxonalar uchun muhim.	$K_{mhq} = \frac{RA}{A(B_v)} = \frac{AV + TMQ}{A(B_v)} = \frac{s.130 + s.140}{s.400} = 1-sh.$ <p>RA – korxonaning real aktivlar summasi; AV – asosiy vositalar qiymati; TMQ – tovar-moddiy qiymatliklar.</p>	$\geq 0,5$ Bundan kam bo'lganda mulkni to'ldirish uchun qarz mablag'lar jalb qilinishini talab qiladi
19. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti (amortizatsiya jamg'armasi) (K_{ave}) – asosiy vositalarni almashtirish va yangilash amortizatsiya ajratmalari tufayli qay darajada moliyalashtirilishini ko'rsatadi. Kxrsatkichni hisoblashda asosiy vositalarning xizmat muddatini hisobga olish kerak, bunda tezlashtirilgan amortizatsiya qo'llashni ham inobatga olinadi.	$K_{AVE} = \frac{\sum A_{JA}}{AV_{bal}}$	Bir maromli amortizatsiya qo'llanilganda kritik qiymat 0,5 hisoblanadi

Tashkilotning moliyaviy barqarorligini chuqurroq baholash uchun nisbiy tahlil ko'rsatkichlari imkonini beradi - kapitalning tuzilishi va kompaniyaning kreditorlar oldidagi qarzlar darajasini aks ettiruvchi moliyaviy barqarorlik koeffitsientlari hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash algoritmi va ularning tavsiya etilgan qiymatlari 8.8 - jadvalda keltirilgan.

5-misol. “MBA” MChJ korxonasining asosiy moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini hisoblaymiz, 8.1-jadvaldan dastlabki ma'lumotlarni olib, natijalarni 8.9-jadvalda guruhlash va xulosalar chiqarish.

8.9-jadvalga ko'ra, “MBA” MChJning moliyaviy barqarorligi to'g'risida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1) Tahlil qilinayotgan davr uchun korxonaning avtonomiya koeffitsienti 0,34 dan 0,21 gacha, ya'ni – 0,13 ga kamaydi, standart qiymatga mos keladi. Bu shuni anglatadiki, korxonaning o'z mablag'lari miqdori 0,34 davr boshida va 0,21 davr oxirida va o'zining barcha joriy majburiyatlarini o'z mablag'lari hisobidan qoplashi mumkin;

8.9-jadval.

“MBA” MChJ moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash

Koeffitsient	Me’yor	Ko‘rsatkichni hisoblash va qiymati		Mutloq og‘ish
		o‘tgan davr	hisobot davri	
1	2	3	4	5 =(4) – (3)
1. avtonomiya	$\geq 0,5$	$K_a = \frac{XK}{A(B_v)} = \frac{67\,601}{198\,127} = 0,34$	$K_a = \frac{XK}{A(B_v)} = \frac{65\,705}{306\,694} = 0,21$	- 0,13
2. moliyaviy qaramlik	$\leq 0,7$	$K_{mq} = \frac{M}{XK} = \frac{130\,527}{67\,601} = 1,93$	$K_{mq} = \frac{M}{XK} = \frac{240\,989}{65\,705} = 3,67$	1,74
3. moliyalashtirish	$\geq 1,0$	$K_{mq} = \frac{XK}{M} = \frac{67\,601}{130\,527} = 0,52$	$K_{mq} = \frac{XK}{M} = \frac{65\,705}{240\,989} = 0,27$	- 0,25
4. qarzga olingan kapitalning kontsentratsiyasi	$\leq 0,4$	$K_{qkk} = \frac{M}{A(B_v)} = \frac{130\,527}{198\,127} = 0,66$	$K_{qkk} = \frac{M}{A(B_v)} = \frac{240\,989}{306\,694} = 0,79$	0,13
5. o‘z kapitali harakatchanligi (manyevrligi)	0,2 – 0,5	$K_{o'kh} = \frac{O'AM}{XK} = \frac{(67\,601 - 97\,892)}{67\,601} = - 0,45$	$K_{o'kh} = \frac{O'AM}{XK} = \frac{(65\,705 - 157\,853)}{65\,705} = - 1,40$	0,95
6. o‘z aylanma mablag‘lar qiymati bilan tovar-moddiy zahiralarni ta’minlash	0,6 – 0,8	$K_{tmzt} = \frac{O'AM}{TMZ} = \frac{- 30\,291}{48\,997} = - 0,62$	$K_{tmzt} = \frac{O'AM}{TMZ} = \frac{- 92\,148}{97\,393} = - 0,95$	0,33

2) hisobot davridagi moliyaviy qaramlik koeffitsienti oldingi davrga nisbatan ancha oshdi va 3,67ni tashkil etdi (me’yor 0,7 dan pastda va/yoki teng). Bu degani, bir so‘m uchun aktivlarga investitsiya qilingan o‘z mablag‘lariga, kompaniya 3,67 tiyin qarz mablag‘larini jalb qildi. Tavsiya etilgan qiymatlarni me’yordan ortiqcha ko‘rsatkichi va uning o‘sishi tashkilotning moliyaviy qaramligining tashqi moliyalashtirish manbalari hisobidan oshishini ko‘rsatadi;

3) Hisobot davrida moliyalashtirish koeffitsienti 0,25 punktga kamaydi va 0,27ni tashkil etdi (me’yor 1,0 dan yuqori va/yoki teng). Bu fakt kompaniyaning

o'z kapitali bilan qarz mablag'larini qoplash imkoniyatiga ega eemasligini va uning to'lovga layoqatli emasligini ko'rsatadi;

4) O'tgan va hisobot davridagi jalb qilingan kapitalning kontsentratsiya koeffitsienti 0,66 dan 0,79 punktgacha o'zgardi (me'yor 0,4 dan pastda va/yoki teng). Ushbu ko'rsatkich korxonaga investitsiya qilingan mablag'larning umumiy hajmida jalb qilingan qarz mablag'larining ulushini tavsiflaydi va 79 tiyin qarz mablag'larining bir s'm kapitaliga to'g'ri kelishini ko'rsatadi;

5) Hisobot davrida o'z kapitalining manevrlik koeffitsienti oldingi davrga nisbatan bir oz o'sdi va – 1,40 ni tashkil etdi (me'yor 0,2 - 0,5 nisbatda), bu tashkilotning moliyaviy holatini salbiy tavsiflaydi. Bu fakt shuni ko'rsatadiki, kompaniyaning o'z mablag'lari aylanma mablag'larga investitsiya qilishga etishmagan, hattoki uzoq muddatli aktivlardan ham kam, immobil shaklda bo'lib, ularni erkin manevr qilish imkoni yo'q, ya'ni korxona bozor sharoitlari o'zgarganda o'zini yo'naltirish uchun umuman imkoniyatga ega emas;

6) Tovar-moddiy zahiralarning o'z aylanma mablag'lari qiymati bilan ta'minlanish koeffitsienti korxonaning tovar-moddiy zahiralarning o'z moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatadi. Hisobot davrida uning qiymati oldingi davrga nisbatan 0,33 punktga oshdi va - 0,95 ni tashkil etdi (me'yor 0,6 - 0,8), ya'ni tovar-moddiy zahiralarning o'z manbalari hisobidan qoplanmagan, bu juda noqulay vaziyat.

Korxonaning moliyaviy barqarorligining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarini ko'rib chiqib, tashkilotning ishchan va bozor faoliyatini tahlil qilishni o'rganishga o'tamiz.

Korxonaning ishchan faolligi – uning faoliyati samaradorligining eng muhim ko'rsatkichidir. Moliyaviy jihatdan u, birinchi navbatda, o'z mablag'larining aylanish tezligida namoyon bo'ladi, ya'ni tashkilotning mulkiga qo'yilgan mablag'lar aylanmasida.

Ishchan faolligi koeffitsientlarini hisoblash algoritmi va ularning qisqacha tavsifi quyida keltirilgan.

1. Aktivlarning aylanma koeffitsienti (barcha kapitalni umumiy aylanmasi, jami aktivlar aylanmasi) (K_{aa}) – tashkilot kapitalining aylanmasi (yoki aylanmalar soni) tezligini aks ettiradi, daromad va foyda olish uchun uning jami aktivlarni foydalanish samaradorligini tavsiflaydi. Davr davomida korxona mulki qancha samarali foydalangan.

$$K_{AA} = \frac{T_S}{A_{o'}} \cdot \frac{s.010 (2-sh.)}{(s.400_{DB} + s.400_{DO} (1-sh))/2};$$

Bu yerda: T_S – sotishdan tushum;

$A_{o'}$ – davr davomida aktivlarni o'rtacha qiymati;

$B_{v_{o'}}$ – davr davomida balans valyutasini o'rtacha qiymati; DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

2. O'z kapitalini aylanish koeffitsienti ($K_{O'KA}$) - korxonaning o'z kapitalini aylanish tezligini ko'rsatadi. Koeffitsient qanchalik baland bo'lsa, u o'z kapitalini shuncha samarali foydalanadi.

$$K_{O'KA} = \frac{T_S}{O'Q_{o'}} \cdot \frac{s.010 (2-sh.)}{(s.480_{DB} + s.480_{DO} (1-sh))/2};$$

Bu yerda: $O'Q_{o'}$ – davr davomida o'z kapitalini o'rtacha qiymati; DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

3. Oborotdan tashqari aktivlarni aylanish koeffitsienti (fond qaytimi) (K_{OTAA}) - davr uchun tashkilotning immobilizatsiyalangan (oborotdan tashqari) aktivlarining aylanmasi tezligini ko'rsatadi.

Ko'rsatkichning qiymati faqat yaqin korxonalar asosiy vositalar tarkibiy jihatdan o'xshash bo'lgan tarmoq bo'yicha o'rtacha ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. Agar koeffitsient qiymati tarmoq o'rtacha ko'rsatkichidan past bo'lsa, u holda asosiy vositalarga ortiqcha qo'yilmalar kiritilganini nazarda tuting.

$$K_{OTAA} = \frac{T_S}{OTA_{o'}} \cdot \frac{s.010 (2-sh.)}{(s.130_{DB} + s.130_{DO} (1-sh))/2};$$

Bu yerda: $OTA_{o'}$ – davr davomida oborotdan tashqari aktivlarni o'rtacha qiymati; DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

4. Joriy (oborot) aktivlarning aylanma koeffitsienti (K_{AOA}) - tahlil qilina-yotgan davr uchun korxonaning barcha mobil aktivlarining aylanish tezligini ko'rsatadi. Aylanma aktivlar aylanmasini tezlashtirilishi mablag'larni ozod bo'lishiga olib keladi va sekinlashuvi qo'shimcha mablag'lar talab qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, tashkilot agar doimiy ravishda qarz mablag'laridan foydalanilsa, bundan kelib chiqadiki, hozirgi oborotni aylanma tezligi xarajatlarni qoplash va faoliyatni kengaytirish uchun yetarli pul mablag'larini jam qilishga qodir emas.

$$K_{AOA} = \frac{T_s}{Oao'} = \frac{s.010 (2-sh.)}{(s.390_{DB} + s.390_{DO} (1-sh))/2};$$

Bu yerda: Oao' – davr davomida oborot (joriy) aktivlarning o'rtacha qiymati; DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

5. Aylanmada vositalarni yuklash (bog'lash) koeffitsienti (K_{AVYu}) - 1 so'm sotilgan mahsulot uchun moliyalashtirilgan aylanma mablag'lar summasini tavsiflaydi. Ko'rsatkichni korxonaning har bir aylanma mablag'lari unsuri uchun hisoblash mumkin. Koeffitsient qanchalik kichik bo'lsa aylanma mablag'lardan shunchalik samarali foydalanyapti.

$$K_{AVYu} = \frac{OA_{o'}}{T_s} = \frac{(s.390_{DB} + s.390_{DO} (1-sh))/2}{s.010 (2-sh.)}.$$

6. Zahiralarini aylanmasi koeffitsienti (K_{ZA}) - tashkilotning zahiralarini aylanish tezligini ko'rsatadi va uning zahiralarining ortiqcha yoki kamligini aks ettiradi. Aylanish tezligi qanchalik yuqori bo'lsa ular shunchalik samarali foydalaniladi.

$$K_{ZA} = \frac{TN_M}{IchZ_{o'}} = \frac{s.020 (2-sh.)}{(s.150_{DB} + s.150_{DO} (1-sh))/2};$$

Bu yerda: TN_M – sotilgan mahsulot tannarxi;

$IchZ_{o'}$ – o'rtacha davr uchun ishlab chiqarish zahirolari qiymati.

7. Qisqa muddatli debitorlik qarzlari aylanma koeffitsienti (K_{QMDQA}) - tahlil qilingan davr uchun qisqa muddatli debitorlik qarzlari (bir yilgacha) qancha oborot qiladi va pulga o'tish tezligini ko'rsatadi, yoki debitorlik qarzlari har bir davrda necha marta undiriladi. Aylanmaning tezligi oshganda ko'satkichni qiymati pasayadi, bu hisob-kitoblarning yaxshilanganligini ko'rsatadi.

$$K_{QMDQA} = \frac{T_s}{QMDQ_{o'}} = \frac{s.010 \text{ (2-sh.)}}{(s.210_{DB} + s.210_{DO} (1-sh))/2};$$

Bu yerda: $QMDQ_{o'}$ – davr davomida qisqa muddatli debitorlik qarzlarni o'rtacha qiymati; DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

8. Qisqa muddatli kreditorlik qarzlari aylanma koeffitsienti (K_{QMKQA}) - tashkilotning o'z qisqa muddatli qarzlarning aylanmasi tezligini aks ettiradi. Kreditorlik qarzlari aylanmasini tezlashtirish kompaniyaning likvidligiga salbiy ta'sir qiladi. Kreditorlik qarzlari aylanmasi debitorlik qarzlarning aylanmasidan kam bo'lishi kerak.

$$K_{QMDQA} = \frac{T_s}{QMKQ_{o'}} = \frac{s.010 \text{ (2-sh.)}}{(s.600_{DB} + s.600_{DO} (1-sh))/2};$$

Bu yerda: $QMDQ_{o'}$ – davr davomida qisqa muddatli kreditorlik qarzlarni o'rtacha qiymati; DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

9. Moliyalashtirilgan (avanslangan) kapitalni (aktivlar) bir aylanishining davomiyligi (T_{MKA}) - barcha moliyalashtirilgan kapitalni bir aylanish davomiyligini tavsiflaydi. Qiymatni kamayishi moliyalashtirilgan kapitalni samarali foydalanishini ko'rsatadi.

$$T_{MKA} = \frac{n}{K_{AA}} = \frac{A_{o'} * n}{T_s};$$

Bu yerda: n – davr davomida kunlar miqdori (yil, chorak) (360, 90).

10. Debitorlik qarzlarni bir aylanmasi davomiyligi (aylanish davri) (T_{DQA}) – debitorlik qarzlarni undirish uchun zarur bo'lgan o'rtacha davrni

tavsiflaydi. Ko'rsatkich qiymatining pasayishi debitorlik qarzlarni undirish samaradorligini ko'rsatadi.

$$T_{DQA} = \frac{n}{K_{DQA}} = \frac{DQ_{O'} * n}{T_S};$$

11. Kreditorlik qarzlarni bir aylanmasi davomiyligi (aylanish davri) (T_{KQA}) – korxona kreditorlik qarzini to'lash uchun zarur bo'lgan o'rtacha davrni tavsiflaydi.

$$T_{KQA} = \frac{n}{K_{K+A}} = \frac{KQ_{O'} * n}{T_S};$$

12. Zahiralarining o'rtacha muddati (T_{ZA}) – pul mablag'lari korxonaning zahiralarida qancha vaqt bog'liqligini ko'rsatadi.

$$T_{ZA} = \frac{n}{K_{ZA}} = \frac{IChZ_{O'} * n}{TN_M};$$

13. Ishlab chiqarish davrni davomiyligi (D_{Ichd}) – korxonani ishlab chiqarishda foydalanish uchun oborot mablag'lari aylamasining umumiy kunlar miqdorini (o'rtacha) ko'rsatadi, ya'ni ishlab chiqarish zahirolari korxonaga kirim bo'lguncha va tayyor mahsulot chiqarguncha vaqtни o'z ichiga oladi.

$$D_{Ichd} = T_{ZA}$$

14. Moliyaviy siklning davomiyligi (D_{MTs}) - yil davomidagi pul mablag'lari joriy aktivlarga o'zgarishini (transformatsiya) o'rtacha davrini tavsiflaydi: $D_{MTs} = D_{Ots} - T_{K+A}$

15. Operatsion siklning davomiyligi (D_{OTs}) – ishlab chiqarish zahiralarini sotib olishdan to ularga to'lov qilishgacha o'tadigan umumiy kunlar miqdori (o'rtacha) ko'rsatadi.

$$D_{OTs} = D_{Ichd} + T_{DQA}$$

Ishbilarmonlik faolligi koeffitsientlarini hisoblash va tahlil qilishni ko'rib chiqamiz.

6-misol. “MBA” MChJ ishbilarmonlik faolligining asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz va tahlil qilamiz, boshlang‘ich ma’lumotlarni 8.1 va 8.2 – jadvallardan olamiz va 8.10 – jadvalda umumlashtiramiz.

8.10-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, korxonaning har xil turdagi aktivlari va resurslarining aylanish sur‘atlari asosan salbiy dinamikaga ega, xususan:

1) Hisobot davrida “MBA” MChJ aktivlarining umumiy aylanmasi o‘tgan davrga nisbatan -0,13 aylanmaga kamaydi va 0,66ni tashkil etdi, ya’ni korxona-ning barcha aktivlarining aylanish muddati taxminan 89 kunga oshdi va hisobot davri oxirida 545 kunni tashkil etdi. Bu mulkning umumiy resurs qaytimi samaradorligini kamayishidan dalolat beradi;

2) Aylanma mablag‘lar aylanmasi ham salbiy tendentsiyaga ega - uning qiymati o‘tgan davrga nisbatan kamaydi va yiliga 1,37 aylanmani tashkil etadi; ularning aylanma davri taxminan 32 kunga oshgan holda hisobot davrida 263 kunni tashkil etadi;

3) Korxonaning zahiralar aylanmasi hisobot davrida 1,1 punktga kamaydi va 2,09 aylanmani tashkil etdi, ya’ni kompaniyaning tovar-moddiy zahirolari sotib olingan kundan boshlab taxminan 59 kunga oshgan va 172 kun ichida sotilyapti, bu ulardan foydalanish samaradorligini pasayishini ko‘rsatayapti;

4) Ishlab chiqarish, operatsion va moliyaviy davrlarning oshishi ham korxona mulkini samarasiz boshqarishdan dalolat beradi.

Ijobiy tendentsiyaga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar - qisqa muddatli debitorlik qarzlarning aylanma koeffitsienti va o‘z kapitali aylanmasining tezlashishi hisoblanadi.

8.10 – jadval.

“MBA” MChJ ishbilarmonlik faolligi koeffitsientlarini hisoblash

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘tgan davr	Hisobot davri	Mutloq farq
1	2	3	4	5 = (4) – (3)
1	Mahsulot sotishdan tushum, mln.so‘m, 2-sh. (s.010)	156 281	203 484	+ 47 203
2	Balans valyutasining o‘rtacha qiymati,	198 127	306 694	+ 108 567

	mln.soʻm, 1-sh. (s.400 y.b. + s.400 y.o.)/2			
3	Oborot aktivlarning oʻrtacha qiymati, mln.soʻm, 1-sh. (s.390 y.b. + s.390 y.o.) /2	100 235	148 841	+ 48 606
4	Zahiralarning oʻrtacha qiymati, mln.soʻm, 1-sh. (s.140 y.b. + s.140 y.o.) /2	48 997	97 393	+ 48 396
5	Qisqa muddatli debitorlik qarzlarning oʻrtacha qiymati, mln.soʻm, 1-sh. (s.210 y.b. + s.210 y.o.)/2	46 089	46 018	- 71
6	Qisqa muddatli kreditorlik qarzlarning oʻrtacha qiymati, mln.soʻm, 1-sh. (s.600 y.b. + s.600 y.o.) /2	110 572	233 671	+ 123 099
7	Oʻz kapitalining oʻrtacha qiymati, mln.soʻm, 1-sh. (s.480 y.b. + s.480 y.o.) /2	67 601	65 705	- 1 896
8	Aktivlarning aylanish koeffitsienti (punkt 1/punkt 2)	0,79	0,66	- 0,13
9	Aylanma aktivlarning aylanish koeffitsienti (p.1/p.3)	1,56	1,37	- 0,19
10	Zahiralarning aylanish koeffitsienti (p.1/p.4)	3,19	2,09	- 1,1
11	Qisqa muddatli debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti (p.1/p.5)	3,39	4,42	+ 1,03
12	Qisqa muddatli kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti (p.1/p.6)	1,41	0,87	- 0,54
13	Oʻz kapitalining aylanish koeffitsienti (p.1/p.7)	2,31	3,10	+ 0,79
14	Aktivlarning aylanish davri, kunlar, (360/p.8)	456	545	+ 89
15	Aylanma aktivlarning aylanish davri, kunlar, (360/p.9)	231	263	+ 32
16	Zahiralarning aylanish davri, kunlar, (360/p.10)	113	172	+ 59
17	Qisqa muddatli debitorlik qarzlarni aylanish davri, kunlar, (360/p.11)	106	81	- 25
18	Qisqa muddatli kreditorlik qarzlarning aylanish davri, kunlar, (360/p.12)	255	414	+ 159
19	Oʻ kapitalining aylanish davri, kunlar, (360/p.13)	156	116	- 40
20	Ishlab chiqarish siklining davomiyligi, kunlar (= p.16)	113	172	+ 59
21	Operatsion siklning davomiyligi, kunlar (p.20 + p.17)	219	253	+ 34
22	Moliyaviy siklning davomiyligi, kunlar (p.21 - p.18)	- 142	- 161	+ 19

1) Hisobot davrida qisqa muddatli debitorlik qarzlari aylanmasi ortgan va 4,42 aylanmani (yoki 81 kun) tashkil etdi. Bu fakt jo‘natilgan mahsulotlar uchun mablag‘larni undirish uchun kutish muddati qisqarganligi va xaridorlar bilan hisob-kitoblar tizimining yaxshilanganligini ko‘rsatadi;

2) Hisobot davrida “MBA” MChJning o‘z kapitali aylanmasining tezlashishi (3,10 aylanma, oldingi davrda esa – 2,31) korxona va, ayniqsa, uning ta‘sischilari uchun ijobiy qiymatga ega, chunki bu ko‘rsatkich oshsa, kompaniyaning ishbilarmonlik faolligini oshiradi.

8.8. Korxona foydasi va rentabelligi, hamda bozor faolligi tahlili

Har qanday biznes muvaffaqiyatining eng muhim xususiyati uning egasiga foyda keltirish qobiliyatidir. Foyda korxonani o‘z-o‘zini moliyalashtirish, kapital egasi va tashkilot xodimlarining moddiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini beradi, daromad solig‘i asosida byudjet daromadlarini shakllantirish ta‘minlanadi. Demak, foyda korxona faoliyatining yakuniy natijasidir.

Shuning uchun tashkilot faoliyatining samaradorligini tavsiflash uchun daromadlar to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlarini tahlil qilish bilan bir qatorda nisbiy rentabellik ko‘rsatkichlari tizimi (ya‘ni foydalilik yoki rentabellik) qo‘llaniladi. Korxonaning moliyaviy holatining u yoki bu tomonini tavsiflovchi yuqorida ko‘rib chiqilgan koeffitsientlar guruhlaridan farqli o‘laroq, rentabellik ko‘rsatkichlari har tomonlama bo‘lib, korxonaning moliyaviy holatini va uning iqtisodiy faoliyatini boshqarish samaradorligini baholash imkonini beradi.

Rentabellikning asosiy ko‘rsatkichlari quyida keltirilgan. Bu ko‘rsatkichlarning barchasini har xil turdagi foyda bo‘yicha hisoblash mumkin: sotishdan olingan yalpi foyda, soliq to‘langunga qadar foyda, sof foyda. Sanab o‘tilgan rentabellik koeffitsientlari standart qiymatlarga ega emas, ular dinamikada o‘rganiladi va ularning o‘zgarish tendentsiyasiga ko‘ra, tashkilotning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini baholanadi.

I. Sotish rentabelligi ko‘rsatkichlari.

1. Yalpi foyda koeffitsienti (gross profit margin – GPM) – sotilgan mahsulotning pul birligida joylashgan yalpi foyda ulushini tavsiflaydi va korxona menejerlari uchun eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Sotilgan mahsulot tannarxini ayirgandan keyin qolgan summani aniqlash imkonini beradi, bu esa boshqa xarajatlarni qoplash uchun (tijorat, ma‘muriy, moliyaviy va boshqa) foydalanadi, shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlari va tashkilotning narx siyosatining asoslash uchun boshqaruv samaradorligini aks ettiradi. Ko‘rsatkichning o‘shishi korxonaning asosiy faoliyatini amalga oshirish samaradorligini va uning pasayishi mahsulotlarga talab kamayishi yoki narxlarning pasayishi yoki uni ishlab chiqarish uchun xarajatlarning ortib ketishini anglashini ko‘rsatadi.

$$GRM = \frac{GP}{SAL} = \frac{F_{Ya}}{T_s} = \frac{s.030 \text{ (2-sh.)}}{s.010 \text{ (2-sh.)}} \times 100\%;$$

Bu yerda: GP (F_{Ya}) – yalpi foyda qiymati (bu sotilgan mahsulot va uning tannarxi o‘rtasidagi farq);

SAL (T_s)– sotish (realizatsiya)dan tushum.

2. Sof foyda koeffitsienti (marjasi) (net profit margin – NPM) – tushumning pul birligidagi sof foydaning ulushini ko‘rsatadi, va tashkilotning sotishdan sof rentabelligini o‘lchaydi, uning ichki resurslar hisobidan mulk egalari to‘lash va rivojlantirish uchun mablag‘lar to‘plash qobiliyatini belgilaydi. Ko‘rsatkichning qiymati qanchalik baland bo‘lsa, korxona faoliyati shunchalik muvaffaqiyatli hisoblanadi.

$$NPM = \frac{NP}{SAL} = \frac{SF}{T_s} = \frac{s.270 \text{ (2-sh.)}}{s.010 \text{ (2-sh.)}} \times 100\%;$$

Bu yerda: NP (SF) – sof foyda qiymati (korxonada hamma soliqlarni to‘lagandan keyin qoladigan foyda).

3. Sotishning rentabellik koeffitsienti (sotilgan mahsulot) (return on sales – ROS) – sotilgan mahsulot birligiga qancha foyda bo‘ladi yoki har bir so‘m sotilgan mahsulotdan korxona qancha operatsion foyda olishini ko‘rsatadi. Boshqa

soʻzlar bilan aytganda, ishlab chiqarish va boshqa operatsion xarajatlarni qoplagandan keyin korxonada qancha mablagʻ qoladi. Koʻrsatkichning qiymati qanchalik yuqori boʻlsa, tashkilotning operatsion faoliyati shunchalik samarali boʻladi. Koeffitsientni oʻsishi - ishlab chiqarish xarajatlari oʻzgarmagan taqdirda narxlarning koʻtarilishi yoki ishlab chiqarish xarajatlari pasayishi natijasida narxlarning doimiyligi natijasidir. Uning pasayishi sabablari ishlab chiqarish va operatsion xarajatlarni oʻsishi, shuningdek, tushumning kamayishi boʻlishi mumkin.

$$ROS = \frac{EVIT}{SAL} = \frac{F_{OPER}}{T_S} = \frac{s.100 \text{ (2-sh.)}}{s.010 \text{ (2-sh.)}} \times 100\%;$$

Bu yerda: $EVIT$ (F_{OPER}) – operatsion foyda qiymati (sotishdan foyda) (bu yalpi foyda va tijorat va boshqaruv xarajatlari oʻrtasidagi farq).

4. Asosiy faoliyatning rentabellik koeffitsienti (mahsulotni sotish rentabelligi ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan) (R_{AF}) – mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining har bir soʻmiga tegishli sotishdan olingan foyda miqdorini tavsiflaydi. Foyda summasi qanchalik baland boʻlsa va maxraj qanchalik past boʻlsa tashkilotning faoliyati shunchalik rentabelligi boʻladi. Tashkilot moliyaviy strategiyaga mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini minimallashtirishga rioya qilishi kerak.

$$ROS = \frac{F_{OPER}}{TN_{TO'LIQ}} = \frac{s.100 \text{ (2-sh.)}}{(s.020 + s.040) \text{ 2-sh.}} \times 100\%;$$

Bu yerda: $TN_{TO'LIQ}$ – sotilgan mahsulotning toʻliq tannarxi (ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlaridan iborat).

II. Aktivlarning rentabellik koʻrsatkichlari.

5. Aktivlar rentabelligi koeffitsienti (korxonaning umumiy rentabelligi, umumiy kapitalni rentabelligi) (return on assets – ROA) – korxona asosiy faoliyat natijalarini baholashga imkon beradi, manbalarni jalb qilishdan qatʼi nazar aktivlarning (mulkning) foyda olish qobiliyatini koʻrsatadi. Ushbu

ko'rsatkich tashkilotning barcha mulkining samaradorligi va foydaligini belgilaydi va raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda foydalaniladi. Ko'rsatkich qiymatining o'zgarish sabablariga aktivlarning ko'payishi va foydaning pasayishini keltirish mumkin. Koeffitsientning kamayishi mahsulotlarga talabning pasayishi va kompaniya aktivlarining ortiqcha to'planishini bildiradi.

$$ROA = \frac{EVIT}{\bar{A}} = \frac{F_{OPER}}{A_{O'}} = \frac{s.100 \text{ (2-sh.)}}{((s.400_{DB} + s.400_{DO} (1-sh))/2)} \times 100\%;$$

Bu yerda: $A_{O'}$ – davr davomida korxonaning aktivlari (mulkini) o'rtacha qiymati;

DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

6. Iqtisodiy rentabellik (sof foyda bo'yicha aktivlar rentabelligi) (IR) – tashkilot o'zining mulkining pul birligidan kelib chiqqan holda sof foydaning qancha pul birligini oladi ko'rsatadi, ya'ni korxona mulkidan foydalanish samaradorligini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich darajasidan, masalan, aktsiyadorlik jamiyatlari aktsiyalari bo'yicha dividendlar miqdori bog'liq.

$$IR = \frac{SF}{A_{O'}} = \frac{s.270 \text{ (2-sh.)}}{((s.400_{DB} + s.400_{DO} (1-sh))/2)} \times 100\%$$

7. Sof aktivlarning rentabellik koeffitsienti (return on net assets – RONA) – sof aktivlarning pul birligi uchun kompaniya qancha foydaning pul birliklarni olishini ko'rsatadi.i. Chunki sof aktivlar har doim sof investitsiyalarga to'g'ri keladi, bu ayni paytda tashkilot tomonidan qo'yilgan investitsiya faoliyati samaradorligini umumiy o'lchovdir, qo'yilgan kapital qaytimini tavsiflovchi ko'rsatkichdir.

$$RONA = \frac{EVIT}{\bar{NA}} = \frac{F_{OPER}}{SA_{O'}} = \frac{s.100 \text{ (2-sh.)}}{((s.400_{DB} - s.770_{DB}) + (s.400_{DO} - s.770_{DO})(1-sh))/2} \times 100\%;$$

Bu yerda: $SA_{O'}$ – davr davomida sof aktivlarni o'rtacha qiymati;

DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

8. Oborotdan tashqari aktivlarning rentabellik koeffitsienti (return on fixed assets – ROFA) – korxonaning harakatiz (immobil) aktivlaridan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi. Harakatsiz aktivlarga qo'yilgan pul birligiga tegishli foyda miqdorini aniqlaydi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash va tahlil qilishda uzoq muddatli aktivlarning tashkilot balansida mavjud bo'lgan (chunki ularni bahosini kamaytirgan bo'lishi mumkin) haqiqiy qiymatini baholashi kerak; hamda ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi asosiy vositalar faol qismi ulushini va shunga mos ravishda foyda oluvchi qismini aniqlash kerak.

$$ROFA = \frac{NP}{FA^-} = \frac{SF}{OTA_{O^+}} = \frac{s.270 (2-sh.)}{((s.130_{DB} + s.130_{DO} (1-sh)))/2} \times 100\%;$$

Bu yerda: $FA^- (OTA_{O^+})$ – davr davomida oborotdan tashqari aktivlarni o'rtacha qiymati;

DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

9. Aylanma (joriy) aktivlarning rentabellik koeffitsienti (aylanma aktivlar) (return on current assets – ROCA) – tashkilotning joriy resurslardan foydalanish samaradorligi va foydaligini aks ettiradi. Aylanma aktivlarga qo'yilgan pul birligi hisobidan olingan tegishli foyda miqdorini aniqlaydi.

$$ROCA = \frac{NP}{CA^-} = \frac{SF}{OA_{O^+}} = \frac{s.270 (2-sh.)}{((s.390_{DB} + s.390_{DO} (1-sh)))/2} \times 100\%;$$

Bu yerda: $CA^- (OA_{O^+})$ – davr davomida oborot aktivlarni o'rtacha qiymati;

DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

III. Kapital manbalarining rentabellik ko'rsatkichlari.

10. O'z kapitalining rentabellik koeffitsienti (moliyaviy rentabellik) (return on equity – ROE) – tashkilotning o'z kapitalidan qanchalik samarali foydalanilganligini, ya'ni kompaniya o'z mablag'larining pul birligi hisobidan qanday daromad oliyapti ko'rsatadi. Investitsiya qilingan o'z resurslari miqdori va olingan foyda miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni belgilashga imkon beradi. Koeffitsientning barqaror o'sishi kompaniyaning barcha turdagi resurslar va

xarajatlarni boshqarishning yuqori samaradorligini tavsiflaydi. Shu bilan birga uning oʻrtacha tarmoq koʻrsatkichidan sezilarli darajada ogʻishi kapital tarkibidagi qarzni haddan tashqari koʻpligini va moliyaviy xavf ortayotganligini koʻrsatishi mumkin. Kapitalning past qiymati qarz mablagʻlariga nisbatan oʻz kapitalining ortiqchaligini koʻrsatadi, aksionerlar (taʼsischilar) nuqtai nazaridan kapitaldan qoniqarsiz foydalanilishi yoki kredit kapitalining yetarlicha jalb qilinmaganligini tasdiqlaydi.

$$ROE = \frac{NP}{E^-} = \frac{SF}{O'K_{O'}} = \frac{s.270 \text{ (2-sh.)}}{((s.480_{DB} + s.480_{DO} (1-sh)))/2} \times 100\%;$$

Bu yerda: $E^- (O'K_{O'})$ – davr davomida oʻz kapitalini oʻrtacha qiymati;
 DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

11. Investitsiya qilingan kapitalning rentabelligi (return on investment equity – ROIE) – oʻz kapitali va uzoq muddatga jalb qilingan kredit vositalaridan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi.

$$ROIE = \frac{NP}{I^-} = \frac{SF}{I+K_{O'}} = \frac{s.270 \text{ (2-sh.)}}{((s.480 + s.770_{DB}) + (s.480 + s.770_{DO} (1-sh)))/2} \times 100\%;$$

Bu yerda: $I^- (I+K_{O'})$ – davr davomida oʻz kapitali va uzoq muddatli qarz mablagʻlarini oʻrtacha qiymati;
 DB, DO – davr boshi, davr oxiri.

7-misol. “MBA” MChJ kompaniyasining asosiy rentabellik koʻrsatkichlarini hisoblaymiz va tahlil qilamiz, 8.1 va 8.2-jadvallardan dastlabki maʼlumotlarni olamiz, natijalarni 8.11-jadvalda jamlaymiz.

8.11-jadvalda koʻrsatilganidek, “MBA” MChJda hisobot davrida sof foyda va sotish rentabelligi koeffitsienti ancha pasaygan, jami aktivlar va oʻz kapitali-ning rentabelligi bor yoʻgʻi (mos ravishda 0,10% va 0,10%) tashkil etgan. Bu fakt korxona rahbariyatining samarasiz faoliyatini koʻrsatadi.

Korxonaning bozor faolligini tahlil qilish. Korxona moliyasini boshqarishning asosiy maqsadi tashkilotning bozor qiymatini maksimal darajada

oshirishdan iboratdir. XYuSning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar joriy yoki potentsial egalari yoki aksionerlar va boshqa toifadagi investorlar nuqtai nazaridan uning samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega.

8.11-jadval.

“MBA” MChJ rentabellik koeffitsientlarini hisoblash

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'tgan davr	Hisobot davri	Mutloq farq
1	2	3	4	5 = (4) – (3)
1	Mahsulot sotishdan tushum, mln.so'm, (2-sh. (s.010))	156 281	203 484	+ 47 203
2	Mahsulot sotishdan foyda, mln.so'm, (2-sh. (s.100))	32 530	32 108	- 422
3	Sof foyda, mln.so'm, (2-sh. (s.270))	16 143	6 419	- 9 724
4	Jami aktivlar (mulk)ning o'rtacha qiymati, mln.so'm, (1-sh. (s.400 _{DB} + s.400 _{DO})/2)	198 127	306 694	+ 108 567
5	O'z kapitalining o'rtacha qiymati, mln.so'm, (1-sh. (s.480 _{DB} + s.480 _{DO})/2)	67 601	65 705	- 1 896
6	Sof foyda koeffitsienti (NPM), % (punkt 3/punkt 1)	0,10	0,03	- 0,07
7	Sotish rentabelligi (ROS), % (punkt 2/punkt 1)	0,21	0,16	- 0,05
8	Jami aktivlarni rentabelligi (ROA), % (punkt 2/punkt 4)	0,16	0,10	- 0,06
9	O'z kapitali rentabelligi (ROE), % (punkt 3/punkt 5)	0,24	0,10	- 0,14

XYuSning bozor faolligi ko'rsatkichlarini tahlil qilish investitsiyalash borasida to'g'ri qarorlarni qabul qilish maqsadida amalga oshiriladi va XYuS rahbariyati, mulkdorlar, investorlarga uning investitsion jozibadorligini baholashga imkon beradi. Korxonaning bozor faolligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Bir aktsiyaga to'g'ri keladigan foyda (daromad) koeffitsienti (earning per share – EPS) – bitta oddiy aktsiyaga to'g'ri keladigan tuzatilgan foyda (hisobot davrining sof foydasi va imtiyozli aktsiyalar uchun to'langan dividendlar o'rtasidagi farq) ulushini ko'rsatadi:

$$EPS = \frac{NP}{NS} = \frac{SF}{M_A} = \frac{s.270 (2-sh.)}{Aktsiyalar miqdori};$$

Bu yerda: NP (SF) – korxonani sof foydasi;

NS (M_A) – muomaladagi oddiy aktsiyalarni umumiy yoki o‘rtacha miqdori.

Bir aktsiyaga to‘g‘ri keladigan foyda koeffitsienti korxona egalari uchun va boshqarish borasida samarali mezonlardan biridir. Koeffitsient qiymati qanchalik katta bo‘lsa, korxona o‘z egalariga qo‘yilgan kapital bo‘yicha shunchalik yuqori qaytim beradi. Ko‘rsatkichning o‘sish sur‘ati XYuS aktsiyalarining bozor qiymatiga ijobiy ta‘sir qiladi.

2. “Bir aktsiya bo‘yicha dividend” koeffitsienti (dividend per share – DPS) – bitta aktsiyaga to‘g‘ri keladigan dividend to‘lovi ulushini ko‘rsatadi.

$$DPS = \frac{\text{Div}}{NS} = \frac{\text{To‘lov}_{\text{divid}}}{\text{Aktsiyalar miqdori}};$$

Bu yerda: Div ($\text{To‘lov}_{\text{divid}}$) – dividendlar to‘lov summasi.

Oldingi ko‘rsatkichdan farqli o‘laroq, bu koeffitsient egalarga real to‘lovlarni aks ettiradi.

“Aktsiyaga to‘g‘ri keladigan dividend” koeffitsienti, ayniqsa, davriy daromad olishdan manfaatdor bo‘lgan institutsional (ulushli va pensiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari) va shu kabi aksionerlar uchun muhimdir.

3. Aktsiya qiymati koeffitsienti (foyda multiplikatori) (price earning ratio - P/E) – bir aktsiyaning bozor qiymati va foydasi nisbati:

$$P/E = \frac{P_M}{EPS} = \frac{Q_A}{F_A};$$

Bu yerda: P_M (Q_A) – oddiy aktsiyaning bozor qiymati (bozor kursi);

EPS (F_A) – bitta aktsiyaga to‘g‘ri keluvchi daromad (foyda).

Ushbu ko‘rsatkich kompaniyaning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aktsiyalarining kotirovkalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida, shuningdek har bir aktsiya uchun hisoblangan foyda ko‘rsatkichi bo‘yicha hisoblanadi.

Aktsiya bahosi koeffitsienti quyidagilarni ko‘rsatadi:

a) emitent tashkilot foydasi birligiga investorlar qancha summa to'lashga rozi;

b) aktsiyaga qo'yilgan investitsiyalarni qaytarish muddati.

Ko'rsatkich kapital bozorida korxonani baholashning eng mashhur vositasidir va tashkilotning investitsion jozibadorligi o'lchovi.

Ko'rsatkichning yuqori qiymati XYuSning rivojlanish istiqbol-larini investorlar yuqori baholashini, daromadlar va dividendlarning o'sishini kutishlarini anglatishi mumkin. Shu bilan birga, boshqa sharoitlar teng bo'lganda, egalarining farovonligi P/E qiymatiga to'g'ridan-to'g'ri mutanosib ravishda o'sadi.

4. Aktsiyalarning to'la daromadlilik koeffitsienti (earning yield - EY) formula bo'yicha topiladi.

$$EY = \frac{EPS}{P_M} = \frac{F_A}{Q_A};$$

Aktsiyalarning to'liq daromadlilik qiymati investorlarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan daromadlilik darajasini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkich, bir aktsiyaga foyda koeffitsientini kabi, aktsiyalarni potentsial daromadligini tavsiflaydi, ya'ni olingan sof foyda qisman yoki to'liq kapitallashtirilgan (korxonaning iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan) bo'lishi mumkin.

Aktsiyaning bozor qiymati oshishi bilan koeffitsientning qiymati kamayadi va aksincha.

5. Aktsiyaning dividend daromadlilik koeffitsienti (joriy daromad me'yori) (dividend yield - DY) - bitta oddiy aktsiya bo'yicha joriy daromad me'yorini tavsiflaydi va aktsiyadorlar dividendi daromadligining nisbiy o'lchovidir:

$$DY = \frac{DPS}{P_M} = \frac{Div_A}{Q_A};$$

Bu yerda: DPS (Div_A) – bir aktsiyaga dividend miqdori.

DPS kabi mazkur ko'rsatkich muntazam daromad olish istagida bo'lgan (masalan, sug'urta kompaniyalari, pensiya jamg'armalari) kabi investorlar guruhi uchun muhimdir.

6. Aktsiyalarning balans qiymati (o'z kapitali) (book value of equity – BV(E)) – bitta aktsiyaga to'g'ri keluvchi aktsionerlik kapitalining qiymatini ko'rsatadi. Ko'rsatkich quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$B = \frac{BV(E)}{NS} = \frac{A - D}{NS} = \frac{S_A}{A_M}$$

Bu yerda: BV(E) (S_A) – korxonaning sof aktivlari qiymati, ya'ni jami aktivlar va jami majburiyatlar o'tasidagi farq.

7. Aktsiya kotirovkasi koeffitsienti (balans qiymati multiplikatori) (market/book value – M/B yoki P/B)- aktsiya bozor narxining balans qiymatiga nisbati:

$$M/B = \frac{P_M}{B} = \frac{Q_A}{Q_{bal \cdot a}}$$

Bu yerda: B ($Q_{bal \cdot a}$) – aktsiyaning balans qiymati (oddiy aktsionerlik kapitalining muomaladagi oddiy aktsiyalar miqdori nisbatiga hisobla-nadi).

Hisoblangan qiymat multiplikatori korxonaning kapitallashuvini investitsiyalar egalari bilan bog'lash imkonini beradi.

M/B (P/B) ko'rsatkichining minimal ruxsat etilgan qiymati 1 ga teng. Agar u 1 dan kam bo'lsa, investitsiyalar egalari o'z qiymatining bir qismini yo'qotadilar va bu korxona faoliyatining samarasizligini ko'rsatadi. Agar u 1 dan katta bo'lsa, investitsiya samarali boshqariladi va ularning qiymatini oshiradi. Ushbu koeffitsientning qiymati qanchalik katta bo'lsa moliya bozori korxonaning rivojlanish salohiyatini yuqori baholaydi. Lekin uning qiymati juda baland bo'lsa moliya bozorining spekulativ tendentsiyalarini ham ko'rsatishi mumkin.

8. Qayta investitsiyalash koeffitsienti (retention ratio – RR) - biznesni rivojlantirish uchun yo'naltirilgan sof foyda ulushini ko'rsatadi:

$$RR = \frac{RE}{NP - Div_{PS}} = \frac{RE}{EAC};$$

Bu yerda: RE – qayta investitsiyalashgan (kapitallashtirilgan) foyda;

Div_{PS} – imtiyozli aktsiyalarga dividend;

EAC – oddiy aktsiyalar egalariga qo‘llariga tegishi mumkin bo‘lgan sof foyda.

Qayta investitsiyalash koeffitsientining yuqori qiymatlari foydani kapitallashtirish orqali kompaniyaning rivojlanishiga yordam beradi va uning egalarining biznesni faol ravishda kengaytirish istagidan dalolat beradi. Ko‘rsatkichning past qiymatlari odatda aktsiyadorlar tomonidan mablag‘larni olib qo‘yish siyosati va kompaniyaning hozirda amalga oshirishi uchun yaxshi loyihalari yo‘qligidan darak beradi.

Koeffitsientning maksimal ruxsat etilgan qiymati – 1. Bu holda olingan barcha foyda xo‘jalik faoliyatiga qayta investitsiya qilingan bo‘ladi, shu bilan birga egalari hech qanday to‘lovlarni olmaydilar. Qayta investitsiya koeffitsientining minimal ruxsat etilgan qiymati – 0. Bu holda barcha foyda korxona egalari orasida taqsimlanadi.

9. Dividendlarni to‘lash koeffitsienti (to‘langan dividendlar ulushi) (payout ratio – PR) – egalarga to‘lovga yo‘naltirilgan sof foyda ulushini ko‘rsatadi, qayta investitsiya koeffitsientiga teskari hisoblanadi:

$$PR = \frac{Div}{NP - Div_{PS}} = \frac{Div}{EAC} = 1 - RR$$

Ko‘rsatkichning maksimal qiymati – 1, minimal qiymati – 0.

10. Dividend to‘lash koeffitsienti (dividends/earning per share - K_{Div}) – bitta oddiy aktsiya uchun sof foydadan to‘lanadigan dividendlar ulushni ko‘rsatadi. U quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$K_{Div} = \frac{DPS}{EPS} = \frac{Div_C}{NP_C}$$

Ko'rsatkichning qiymati birdan oshmasligi kerak. Agar bu shart bajarilsa, u holda kompaniya hisobot davrida dividendlar to'lash uchun yetarlicha foyda olgan degan xulosa qilish mumkin.

11. Bitta aktsiyaga to'g'ri keluvchi foyda (EPS_{maydal}) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$EPS_{\text{maydal}} = \frac{NP}{NS_{\text{to'g' }}} = \frac{SF}{N_{\text{Oato'g' }}};$$

Bu yerda: $NS_{\text{to'g' }}$ ($N_{\text{Oato'g' }}$) – oddiy aktsiyalarni to'g'rilangan o'rtacha tortilgan miqdori.

Koeffitsient foydani kamaytirishning mumkin bo'lgan maksimal darajasini ko'rsatadi (zararni ortishi), aktsiyadorlik jamiyatining bitta oddiy aktsiyasiga tegishli: a) aktsiyadorlik jamiyatining barcha konvertatsiya qilinadigan qimmatli qog'ozlari oddiy aktsiyaga konvertatsiya qilingan taqdirda; b) oddiy aktsiyalarni emitentdan ularning bozor qiymati narxidan past narxda sotish va sotib olish bo'yicha barcha shartnomalar bajarilganda.

8-misol. Quyidagi jadvallarda hisobot davrida "MAB" AJning moliyaviy hisoboti keltirilgan. AJning bozor faolligi ko'satkichlarini hisoblash namunaviy shakllardan farq qiladi. Hisobotlar qisqartirilgan shaklda keltirilgan.

8.12-jadval.

"MAB" AJning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti, mln.so'm

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Hisobot davri
1	Mahsulot sotishdan sof tushum (SAL)	8 422
2	Sotilgan mahsulot tannarxi	5 726
3	Davr xarajatlari	1 752
4	Amortizatsiya	102
5	Foizlar va soliqlar to'laguncha foyda (EBIT)	842
6	Foiz shaklidagi xarajatlar (I)	98
7	Foyda solig'i to'langunga qadar foyda (EBT)	744
8	Soliqlar (Tax), 15%	112
9	Sof foyda (NP)	632
10	Dividendlar (Div)	252
11	Taqsimlanmagan foyda (RE)	380

8.13-jadval.

“MAB” AJning buxgalteriya balansi, mln.so‘m

AKTIV	Hisobot davri	PASSIV	Hisobot davri
Asosiy vositalar	632	Oddiy aktsiyalar	1 350
		Taqsimlanmagan foyda	634
Jami uzoq muddatli aktivlar	632	Jami o‘z kapitali	1 984
Tovar-moddiy zahiralari	1 348	Uzoq muddatli kreditlar	420
Debitorlik qarzlari	1 264	Jami uzoq muddatli majburiyatlar	420
Pul mablag‘lari va qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar	422	Kreditorlik qarzlari	892
		Qisqa muddatli kreditlar	370
Jami joriy aktivlar	3 034	Jami qisqa muddatli majburiyatlar	1 262
		Jami majburiyatlar	1 682
BALANS	3 666	BALANS	3 666

Agar hozirda 3 600 dona oddiy aktsiya muomalada bo‘lib, 556 000 so‘mdan sotilayotgan bo‘lsa, korxonaning bozor faolligining asosiy koeffitsientlarini hisoblash lozim.

Yechim: 8.12 va 8.13-jadvallardagi ma’lumotlarga asoslanib, biz “MAB” AJ bozor qiymatining asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz va natijalarni 8.14-jadvalda aks ettiramiz.

8.14-jadval.

“MAB” AJning bozor faolligi ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Hisobot davrida ko‘rsatkichlarning hisob-kitobi va qiymati
1	Bitta aktsiyaga foyda koeffitsienti, ming so‘m (EPS)	$\text{EPS} = \frac{\text{NP}}{\text{NS}} = \frac{632\,000\,000}{3\,600} = 175$
2	Bitta aktsiyaga dividend koeffitsienti, ming so‘m (DPS)	$\text{DPS} = \frac{\text{Div}}{\text{NS}} = \frac{252\,000\,000}{3\,600} = 70$
3	Aktsiya qiymati koeffitsienti (P/E)	$\text{P/E} = \frac{P_M}{\text{EPS}} = \frac{556\,000}{175\,000} = 3,18$
4	Aktsiyalarning to‘la daromadlilik koeffitsienti, % (EY)	$\text{EY} = \frac{\text{EPS}}{P_M} = \frac{175\,000}{556\,000} = 0,315 \text{ (yoki } 31,5\%)$
5	Aktsiyaning dividend daromadlilik	DPS

	koefitsienti (DY)	$DY = \frac{P_M}{556\,000} = 0,126 \text{ (yoki } 12,6\%)$
6	Aksiya kotirovkasi koefitsienti	$M/B = \frac{P_M}{B} = \frac{556\,000}{1\,350\,000\,000 : 3\,600} = 1,48$
7	Dividend to'lash koefitsienti	$K_{Div} = \frac{DPS}{EPS} = \frac{70\,000}{175\,000} = 0,4$

8.14-jadvalda ko'rsatilganidek, umuman olganda, "MAB" AJ ko'rsatkichlarining aksariyati ancha yuqori qiymatlarga ega, ularning egalari tomonidan mablag'larni qulay joylashuvini ko'rsatishi mumkin, xususan:

1. Hisobot davrida aksiyaga foyda koefitsienti bitta oddiy aksiyaga 175 ming so'mni tashkil qildi va har bir aksiyaga dividend koefitsienti bitta oddiy aksiyaga 70 ming so'mni tashkil qildi;

2. Aksiya qiymati koefitsienti 3,18 teng. Bu shuni bildiradiki, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari "MAB" AJ foydasining har bir so'mi uchun 3,18 so'm to'lashga tayyor;

3. Oddiy aksiyalarning to'la daromadlilik koefitsienti 31,5% ni tashkil etadi, bu ko'rsatadi investorlarni jalb qilish uchun ta'minlanishi kerak bo'lgan tegishli daromadlik darajasiga muvofiq;

4. Aksiyaning dividendlar daromadliliigi koefitsienti 12,6% ni tashkil qiladi. Bu oddiy aksiyalar egalari 12,6% muntazam daromadga umid qilishlari mumkinligini anglatadi;

5. "MAB" AJ oddiy aksiyalarining kotirovka koefitsienti 1,48 ga teng. Bu bozor ishtirokchilari ushbu kompaniyaning oddiy kapitali hajmini har bir aksiya uchun 1,48 baravarga balans qiymatidan qimmatroq baholashlarini bildiradi;

6. Dividendlarni to'lash koefitsienti 0,4. Ushbu ko'rsatkich asosida korxonaning dividend siyosati haqida xulosa qilish mumkin - kompaniya o'z foydasining 40%ni dividendlar sifatida taqsimlaydi, qolgan 60%ni taqsimlanmagan foyda sifatida jamg'aradi.

Bob bo'yicha xulosalar

Tijorat va notijorat tashkilotlarini o'z ichiga olgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyasi - bu tashkilotlarni tashkil etish jarayonida, mahsulot ishlab chiqarish va sotishda, ishlar va xizmatlar ko'rsatishda, aylanma va asosiy aktivlarni shakllantirishda, turli moliyalashtirish manbalarini jalb qilishda, jalb qilingan mablag'larni taqsimlash va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan pul shaklidagi iqtisodiy munosabatlardir.

Demak, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi umumiy moliya tizimining bir qismi sifatida yalpi ichki mahsulotni qiymat jihatidan yaratish, taqsimlash va undan foydalanish jarayonlarini qamrab oladi.

Korxona, tashkilot, muassasa va shunga mos ravishda ularning moliyaviy faoliyatini boshqarish jarayonida ularning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida belgilangan yuridik shaxs maqomi muhim rol o'ynaydi, ya'ni, ular shunday shaxslarki, ularning ixtiyorida alohida mol-mulk bo'lib, o'z majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'ladi, shuningdek, bu mol-mulk bilan o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi va amalga oshirishi, majburiyatlarni olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq korxona, tashkilot, muassasa yagona mulkiy majmua hisoblanadi. Shuningdek, ular xo'jalik faoliyati jarayonida xo'jalik munosabatlari kirishi mumkin bo'lgan, garov, ijara va mulkiy huquqlarni o'tkazish, belgilash, o'zgartirish va tugatish bilan bog'liq boshqa bitimlar obyekt bo'lishi mumkin. Bu korxona, muassasa, tashkilotning pul mablag'lari oqimida munosib tarzda namoyon bo'ladi.

Yuridik shaxs mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishi hamda qonun hujjatlarida belgilangan xo'jalik faoliyatini aks ettiruvchi moliyaviy hisobotlarni yuritishi shart.

Faoliyatning asosiy maqsadi sifatida foyda olish tijorat tashkilotining o'ziga xos belgisidir; notijorat tashkilot (muassasa) foyda olishni ko'zlamaydi va olingan foydani ta'sischi va ishtirokchilar o'rtasida taqsimlamaydi.

Hozirgi vaqtda tijorat tashkilotlari (korxonalari) quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllardan birida tashkil etiladi: xo‘jalik shirkatlari, ishlab chiqarish kooperativlari, davlat korxonalari.

Nodavlat notijorat tashkilotlari quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllarda tuziladi: jamoat va diniy tashkilotlar (birlashmalar); mulkdorlar tomonidan moliyalashtiriladigan muassasalar; xayriya va boshqa fondlar; uyushmalar va ittifoqlar; boshqa shakllar (notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari yanada moslashuvchan va ularning faoliyat yuritish shakliga qonunda nisbatan kam talablar qo‘yiladi).

Ustavda belgilangan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarning dastlabki shakllanishi tashkilot tashkil etilgan paytda, ustav fondi (tijorat tashkilotlari uchun) yoki ustav fondi (notijorat tashkilotlari uchun) shakllantirilganda sodir bo‘ladi. Ularni shakllantirish manbalari boshqaruvning tanlangan tashkiliy-huquqiy shakliga qarab, aktsiyadorlar, shirkat va kooperativ a‘zolarining mablag‘lari, byudjet mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning dastlabki badallari va xayriyalari hisoblanadi.

Moliyaviy resurslarning qo‘shimcha manbalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlari tashkilotning maqsadli va funktsional (nizom) faoliyati bilan belgilanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy munosabatlarining butun majmuasini quyidagi yo‘nalishlarda tizimlashtirish mumkin:

- xo‘jalik yurituvchi subyektning ustav fondini yoki ustav kapitalini shakllantirish bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlar; ustav kapitali (fond) dastlabki bosqichda ruxsat etilgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan dastlabki aktivlarni shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi;

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish, xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlar;

- qarz va emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar, qo'shma korxonalar tashkil etishda aktsiyadorlik ishtiroki;

- ular a'zo bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va uning alohida bo'linmalari (filial va vakolatxonalari), yuqori tashkilot (vazirlik yoki boshqaruvchi kompaniya), birlashmalar va ittifoqlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

- soliqlar va yig'imlarni hamda byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga boshqa to'lovlarni to'lash bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat moliya organlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

- moliyaviy hisob-kitoblar va pul mablag'larini saqlash, kredit olish va qaytarish, foizlarni to'lash, moliyaviy hisob-kitoblarni tezlashtirish uchun bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlar va moliya-kredit tashkilotlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi mulkni sug'urta qilish, tijorat shartnomalari va tijorat risklarini, korxona xodimlarini va boshqalarni sug'urta qilishdan kelib chiqadigan moliyaviy munosabatlar;

- xo'jalik yurituvchi subyekt, uning mulkdorlari, xodimlari va investorlar o'rtasidagi daromadlarni taqsimlash va ulardan foydalanish, haq to'lash, aktsiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar bo'yicha foizlarni to'lashdan kelib chiqadigan moliyaviy munosabatlar.

Ko'rinib turibdiki, moliyaviy munosabatlar pul munosabatlarining bir qismi bo'lib, asosan xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati natijasida pul mablag'larining real harakati jarayonida vujudga keladi. Olingan daromad miqdori uning keyingi rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligi uning faoliyatini tashkil etish samaradorligi, daromad va xarajatlarni muvofiqlashtirish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liq.

Korxonalarining moliyaviy munosabatlari ularning moliyaviy va moddiy resurslarni tasarruf etish erkinligini belgilaydigan va iqtisodiy faoliyat asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Iqtisodiy mustaqillik tamoyili. Ushbu tamoyil moliya sohasida mustaqilliksiz amalga oshirilmaydi. Uning amalga oshirilishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shaklidan qat’i nazar, foyda olish maqsadida o‘z xarajatlarini, moliyalashtirish manbalarini, mablag‘larni investitsiyalash yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilab olishi bilan ta’minlanadi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini ancha kengaytirdi, pul mablag‘larini investitsiyalashning yangi imkoniyatlari paydo bo‘ldi.

Qo‘shimcha foyda olish maqsadida korxonalar boshqa tijorat tashkilotlari, davlatning qimmatli qog‘ozlarini sotib olish, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav kapitalini shakllantirishda ishtirok etish, tijorat banklarining depozit hisobvaraqlarida mablag‘larni saqlash shaklida qisqa va uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Biroq, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularga tegishli mablag‘lardan foydalanish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘liq moliyaviy mustaqilligi haqida gapirish mumkin emas.

Davlat o‘z faoliyatining bir qator jihatlarini tartibga soladi; xususan, u mulkchilikning turli tashkiliy-huquqiy shakllari uchun ustav kapitalining minimal hajmini belgilaydi, faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalashni amalga oshiradi, mehnatni muhofaza qilish, korxona xodimlarini majburiy ijtimoiy va tibbiy sug‘urta qilish va eng kam ish haqi miqdorini belgilaydi.

Barcha mulkchilik shakllaridagi korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan stavkalarga muvofiq zarur soliqlarni to‘laydilar, byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirishda ishtirok etadilar. Amortizatsiya ham qonunda belgilangan normalar bo‘yicha hisoblanadi.

O‘z-o‘zini moliyalashtirish tamoyili. Ushbu tamoyilni amalga oshirish tadbirkorlik faoliyatining asosiy shartlaridan biri bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi

subyektning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. O'z-o'zini moliyalashtirish bank va tijorat kreditlari hisobidan, zarur bo'lsa, o'z mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishni rivojlantirish investitsiya, ishlab chiqarish va mahsulot sotish xarajatlarini to'liq qoplanishini anglatadi.

Moddiy manfaatdorlik tamoyili. Uning obyektiv zarurligi tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi - korxona egalari va uning xodimlarining farovonligini oshirish maqsadida foyda olish bilan belgilanadi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish aksiyalar va investitsiya qilingan birliklarning rentabelligini oshirish, munosib ish haqi, davlatning maqbul soliq siyosati, iste'mol va jamg'arish uchun sof foydani taqsimlashda iqtisodiy jihatdan oqilona nisbatlarga rioya qilish bilan ta'minlanishi mumkin.

Moliyaviy javobgarlik tamoyili. Bu korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari uchun muayyan javobgarlik tizimining mavjudligini anglatadi. Umuman olganda, har qanday tadbirkorlik subyekti uchun ushbu tamoyil jarimalar, jarimalar, shartnoma majburiyatlarini buzgan holda olinadigan jarimalar, soliq to'lovlari, shuningdek bankrotlik to'g'risidagi ishlarni qo'llash orqali juda samarasiz faoliyat holatlarida amalga oshiriladi.

Moliyaviy zahiralarni ta'minlash tamoyili. Moliyaviy zahiralarni shakllantirish zarurati tadbirkorlik faoliyatining mohiyatidan kelib chiqadi, bu sizga ma'lumki, har doim xavf bilan bog'liq. Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik riskining oqibatlari bevosita ishlab chiqarish faoliyatining ishlab chiqilgan dasturini ixtiyoriy va mustaqil ravishda o'z riski bilan amalga oshiruvchi korxonaga (aniqrog'i, uning egalariga) tushadi.

Sug'urta faoliyati investitsiya muhiti va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan davlatning moliya tizimining yuqori sifatli ishlashini ta'minlashning muhim unsurlaridan biridir.

Sug'urta faoliyati Moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Sugʻurta fuqarolar, korxonalar va davlatning mulkiy manfaatlarini himoya qilish tizimini yaratadi. Koʻzda tutilmagan tabiiy (zilzilalar, suv toshqinlari, koʻch-kilar va h.k.) va texnogen (yongʻinlar, avariylar, portlashlar va boshqalar.) hodisalar yuz bergan taqdirda zarar yetkazilgan mulkiy manfaatlarni tiklash kafolatlarini beradi.

Bozor sharoitida sugʻurta moliyaviy va kredit majburiyatlarining buzilishi, mijozlarning toʻlovga layoqatsizligi, foyda va daromadlarning yoʻqolishiga olib keladigan boshqa iqtisodiy omillarning taʼsiridan kelib chiqadigan zararni qoplaydi.

Mustaqil xoʻjalik yurituvchi subyektlar sifatida nodavlat notijorat tashkilotlari moliyasini tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari ustav faoliyatining maqsadli yoʻnalishi, uni moliyalashtirish tartibi va manbalari bilan belgilanadi.

Notijorat tashkilotlarga: jamoat va diniy tashkilotlar, notijorat shirkatlar, muassasalar, mustaqil notijorat tashkilotlar, ijtimoiy, xayriya va boshqa jamgʻarmalar, uyushmalar va birlashmalar, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa shakllardagi tashkilotlar kiradi.

Ishtirokchilarning notijorat tashkilotlariga badal oʻtkazishlari ixtiyoriydir. Notijorat tashkilotlarda biznes yuritish imkoniyati ustav hujjatlarida nazarda tutiladi va bunday uyushmalarning asosiy maqsadi moddiy va nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, ijtimoiy foydali faoliyat yuritish va jamiyat manfaatlarini himoya qilish ekanligidan kelib chiqqan holda, ularni yaratish maqsadlarini taʼminlashga xizmat qiladi.

Notijorat tashkilot uni taʼsis qilish va shuningdek, mavjud notijorat tashkilotni qayta tashkil etish natijasida tuzilishi mumkin.

Qonun hujjatlariga muvofiq nodavlat notijorat tashkiloti binolar, inshootlar, uy-joy fondiga, asbob-uskunalariga, inventarlarga, soʻmdagi naqd pulga va chet el valyutasiga, qimmatli qogʻozlarga va boshqa mol-mulkka egalik qilishi yoki ular-dan foydalanishi, shuningdek yer uchastkalariga muddatsiz egalik qilishi yoki foydalanishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti moliyaviy va moddiy resurslarni shakllantirish manbalari quyidagilar bo'lishi mumkin: 1) muassislar, ishtirokchilar, a'zolar tomonidan amalga oshiriluvchi muntazam va bir martalik tushumlar; 2) ixtiyoriy mulkiy ulushlar va xayriyalar; 3) tovarlar, ishlar, xizmatlar sotishdan tushgan tushum; 4) qimmatli qog'ozlar, omonatlar, tijorat tashkilotlarida ulushli ishtirok etishdan olingan dividendlar, daromad, foizlar; 5) notijorat tashkilot mulkidan tijorat maqsadlarida foydalanishdan olingan daromadlar.

Mamlakatning taraqqiyot darajasi avtomobil qiymatining soch oldirish qiymatiga nisbati bilan o'lanadi. Ushbu qiymatlar qanchalik bir-birlariga yaqin bo'lsa, mamlakat shunchalik rivojlangan bo'ladi.

Devons Semyuel


9-BOB. DAVLATNING BYUDJET-SOLIQ (FISKAL) SIYOSATI

- 1. Davlat byudjeti va uning iqtisodiy mazmuni.**
- 2. O'zbekistonda byudjet tuzilishi va byudjet tizimi.**
- 3. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tushunchalari va ularning tarkibi.**

9.1. Davlat byudjeti va uning iqtisodiy mazmuni

Byudjet – daromadlar va xarajatlarning hisob-kitob va chegaralovchi smetalari hamda ularning ma'lum bir muddatga tuzilgan ro'yxatini anglatuvchi umumiy terminning nomidir. Byudjet tegishli qaror bilan tasdiqlanib, individual yoki jamoa subekti tomonidan ijro qilinadi.

Davlat byudjeti moliya iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli davlat byudjeti iqtisodiy kategoriya – davlatning o'z vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan markazlashgan pul mablag'larining to'planishi, taqsimlanishi va sarflanishida yuzaga keladigan obektiv pul munosabatlari yig'indisi sifatida tavsiflanishi mumkin. Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlari uning shakli, moddiy mazmuni va mohiyati (iqtisodiy tabiati)da namoyon bo'ladi. Byudjet qonun chiqaruvchi hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjat shakliga ega. O'zbekistonda Davlat byudjeti bir yilga mo'ljallab qabul qilinadi. Byudjetni tayyorlashdan tortib byudjetni ijro etish to'g'risidagi hisobotni tasdiqlashgacha bo'lgan butun jarayon byudjet jarayoni deb ataladi.




9.1-rasm. O'zbekistonda byudjet jarayoni

Shakl jihatidan davlat byudjeti – bu davlatning asosiy moliyaviy rejasi bo'lib, unda byudjet pul munosabatlari tizimi sifatida miqdor jihatidan ifodalanadi. Binobarin, aynan byudjet rejasi mamlakatning muhim moliyaviy hujjati sifatida tuziladi, ko'rib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi. Unda pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanishga doir iqtisodiy munosabatlar aks etadi.

Moddiy mazmun jihatidan davlat byudjeti – davlatning byudjet rejasini ijro etish jarayonida tashkil topadigan va foydalaniladigan asosiy markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armasidir.

Mohiyat jihatidan davlat byudjeti – davlat boshqaruvining muhim vositasi bo'lib, uning yordamida davlat takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi, inson irodasiga bo'ysunmaydigan bozor kuchlarining salbiy ta'sirini bartaraf etadi.

Davlat tomonidan tartibga solish, soliqlar, byudjet mablag'lari va moliyaviy yordam, ijtimoiy kafolatlar, byudjet mablag'lari hisobiga maxsus jamg'armalar va iqtisodiyotning rivojlanishidagi nomutanosiblikning oldini olish zahiralari tashkil etish yordamida amalga oshiriladi.



9.2-rasm. Davlat byudjeti tushunchasi

Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – bu davlatning vazifa va funksiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etish va sarflashning qonun bilan belgilangan shaklidir.

Byudjet huquqiy akt shakliga ega bo'lib, vakolatli hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadi va shu sababdan qonuniy kuchga egadir. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq **Davlat byudjeti** – davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.


2. Har qanday iqtisodiy kategoriyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Davlat byudjeti moliya iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy bo'linmasi hamda byudjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangani uchun ularga pul shakli xosdir va ular taqsimlash (qayta taqsimlash) va nazorat funksiyalarini bajaradi.

Taqsimlash funktsiyasini soliq, zayom, davlat mulkidan tushgan daromadlar, qog‘oz pullar emissiyasidan tushgan daromadlarni o‘z ichiga oluvchi byudjet daromadlari amalga oshiradi. Bunda byudjet jamg‘armasi xo‘jalik subektlari (yuridik va jismoniy shaxslar) daromadlari hisobiga shakllanadi. Bu daromadlar sof milliy mahsulotning birlamchi taqsimoti (ishchi va xizmatchilarning ish haqi, yollanma ishchilarning daromadlari, tadbirkorlik foydasi, renta, foiz) natijasida yuzaga keladi.

Byudjet daromadlari tarkibi doimo bir xil emas, u har bir mamlakatning iqtisodiy shart-sharoitlariga bog‘liqdir. Byudjet daromadlari tarkibining o‘zgarishi iqtisodiy jarayonlar dinamikasi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni aks ettiradi. Shunday qilib, soliqlar va zayomlar o‘rtasidagi nisbatning zayomlar ulushi oshib borishi tomonga o‘zgarishi ishlab chiqarishning pasayganligi, jamiyatda iste‘mol va jamg‘arish o‘rtasidagi nisbat o‘zgarganligidan dalolat beradi.

Byudjetning **qayta taqsimlash funktsiyasi** aniq maqsadli byudjet xarajatlarga tegishlidir. Davlat umumiy xo‘jalik subekti sifatida faoliyat yuritib, takror ishlab chiqarish jarayoni barcha ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini hisobga oladi, shuning uchun ham byudjet xarajatlari xo‘jalikning hamma tarmoqlari va sohalarini qamrab oladi. Milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy mutanosibliklarga rioya qilishga ehtiyoj alohida tarmoqlar, ijtimoiy soha, iqtisodiy hududlar, mulkchilikning turli shakllari, alohida xo‘jalik subektlarini byudjetdan moliyalashtirish hajmlarini boshqarishni taqozo etadi.

Byudjetning **nazorat funktsiyasi** byudjet mablag‘larining o‘z vaqtida va to‘liq tushishi va ularning maqsadli ishlatilishi ustidan davlat nazorati o‘rnatilishini nazarda tutadi. Shunday qilib, taqsimlash funktsiyasi byudjet jamg‘armasi (byudjet daromadlari)ning vujudga kelishini ta‘minlaydi; qayta taqsimlash – byudjet jamg‘armasining sarflanishiga (byudjet xarajatlariga); nazorat – byudjetga mablag‘lar tushishi va undan foydalanish ustidan nazorat olib borilishiga sharoit yaratadi.



9.3-rasm. Davlat byudjeti funktsiyalari

3. Davlat byudjeti takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga faol ta'sir ko'rsatadi, milliy daromadni milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o'rtasida, shu jumladan moddiy ishlab chiqarish sohasidan nomoddiy sohaga (ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, jamiyatning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga, aholining kam ta'minlangan qatlami – pensionerlar, talabalar, ishsizlar, ko'p bolali kam ta'minlangan oilalar va boshqalarning turmush darajasini barqaror ushab turish uchun sharoitlar yaratadi) qayta taqsimlanishini ta'minlaydi; mahsulotlari va xizmatlari jamiyat uchun juda muhim va zarur bo'lgan, lekin barqaror past daromadli tarmoqlar (energetika, transport, aloqa va boshqalar)ni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi. Davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet daromadini shakllantirishning asosiy manbai hisoblangan soliqlar yordamida alohida tarmoqlarning, xo'jalik yurituvchi subektlarning va jismoniy shaxslarning iqtisodiy faolligini ular ixtiyorida qoladigan pul mablag'lari ulushini ko'paytirish yoki kamaytirish orqali, tiyib turish yoki rag'batlantirish siyosatini amalga oshirish yo'li bilan tartibga soladi va shu tariqa, iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, byudjet orqali byudjet tizimining darajalari o'rtasida daromadlar qayta taqsimlanadi (subvensiyalar, transfertlar), hududlarning

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini tenglashtirish imkoniyati yaratiladi (3-sxema).

Shunday qilib, davlat byudjeti **iqtisodiyotni samarali tartibga solish vositasi** bo'lib, u davlatga zarur bo'lgan moliyaviy resurslar hajmini aks ettiradi, mamlakatda soliq siyosatini belgilaydi, mablag'larni sarflash, milliy daromad va yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlashning aniq yo'nalishlarini qayd etadi.

Tarixning turli davrlarida davlat byudjeti milliy iqtisodiyotga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Kapitalistik taraqqiyot davrida davlat iqtisodiyotga faol aralashmas edi – davlat byudjeti orqali milliy daromadning 19% qayta taqsimlanardi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, davlat byudjeti makroiqtisodiy jarayonlarni boshqaruvchi kuchli vositaga aylandi – hozirgi vaqtda davlat byudjeti orqali milliy daromadning 30-50% qayta taqsimlanmoqda.


4. Davlat byudjetining faoliyatini alohida iqtisodiy shakllar hisoblangan daromadlar va xarajatlar ta'minlaydi.

Byudjet daromadlari – qonunchilikda belgilangan tartibga binoan davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari ixtiyoriga beg'araz va qaytarib bermaslik shartlari bo'yicha kelib tushayotgan pul mablag'laridir.

Jahon amaliyotida byudjetga pul tushumlarining uch asosiy yo'nalishi mavjud:

- yuridik va jismoniy shaxslardan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan soliqlar va yig'imlar ko'rinishida undiriladigan majburiy to'lovlar; foydalanish evaziga to'lovlar va badallar undiriladigan davlat mulki va umumdavlat resurslari;
- davlat zayomlari, boshqa qimmatli qog'ozlar, lotereyalar sotishdan tushgan daromadlar, davlat banklariga qo'yilgan omonatlarning qismlari va boshqalar ko'rinishida jalb qilingan resurslar.

Byudjet daromadlarining hajmi soliq solishning belgilangan soliq stavkalari bilan aniqlanadigan YaIMning o'sishi va soliq yukiga bog'liqdir. Daromadlarning asosiy vazifasi byudjet xarajatlarini ta'minlashdir.




9.4-rasm. Yalpi milliy mahsulotni byudjet orqali qayta taqsimlash

Byudjet xarajatlari – bu davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlarining vazifa va funktsiyalarini bajarish uchun yo'naltirilayotgan pul mablag'lari; davlat pul mablag'lari fondini taqsimlash va uni tarmoq, maqsadli va hududiy yo'nalishlarda foydalanish yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Byudjet xarajatlari kategoriyasi aniq xarajatlar turlari orqali namoyon bo'ladi va ularning har biri son va sifat jihatidan tavsiflab berilishi mumkin. Sifat tavsifi byudjet xarajati har bir turining iqtisodiy tabiati va ijtimoiy maqsadini belgilash imkonini bersa, son tavsifi ularning hajmini belgilaydi.

5. Byudjetning uch asosiy holati farqlanadi: taqchillik, profitsit va mutanosib holat. Byudjet xarajatlarining daromadlardan oshib ketishi (byudjetning salbiy saldosi) byudjet **taqchilligini** anglatadi.

Byudjet daromadlarining xarajatlardan oshib ketishi (byudjetning ijobiy saldosi) byudjet **profitsitini** anglatadi.



9.5-rasm. Byudjet tizimining holati

Mutanosib byudjet – xarajatlar va daromadlar summasi bir-biriga teng boʻladi. Iqtisodiy nazariyada byudjet taqchilligi yoki profitsiti umumiy xarajatlar hajmidan 1 foizga oshib ketmasa, bunday byudjet mutanosib deb hisoblanadi.

Byudjet taqchilligi – davlat uchun nomaqbul holat. Shunday boʻlsa-da, byudjet taqchilligini favqulodda, fojiali holatga yoʻyish notoʻgʻridir.

Chunki taqchillik tabiati turlicha boʻlishi mumkin. Davlat byudjeti taqchilligi YaIMga nisbatan 3 foizdan oshmagan holatda (Maastrixt mezonlari) uni nazorat ostida va iqtisodiyot uchun xavfli emas deb, hisoblash mumkin. Aks holda u pul, kredit tizimi va umuman iqtisodiyotning faoliyatiga taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Byudjet taqchilligining quyidagi **shakllari** farqlanadi:

tarkibiy byudjet taqchilligi – hukumatning iqtisodiy rivojlanishni amalga oshirish maqsadida davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni pasaytirish choralarining qoʻllanilishi natijasida yuzaga keladigan taqchillik boʻlib, u ijtimoiy jarayonlarning inqirozini ifodasi emas, balki davlatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish tarkibida progressiv siljishlarni amalga oshirishi natijasidir.

siklik byudjet taqchilligi – ishlab chiqarishning siklli pasayishi natijasida kelib chiqadigan va iqtisodiyotdagi inqiroz holatlarini, hukumatning moliyaviy holatni nazorat qila olmasligini ifoda etadigan taqchillik.

Byudjet taqchilligini **moliyalashtirish manbalari** bo‘lib ixtiyordagi va qarz mablag‘lari namoyon bo‘lishi mumkin. Ixtiyordagi mablag‘lar – qaytarmaslik xarakteriga ega bo‘lgan, davlat va mahalliy hokimiyat tasarrufidagi mol-mulkdan tushgan resurslar. Ichki va tashqi moliya bozorlarida qarz olish qaytarilish tavsifiga ega va davlat qarzining oshishiga olib keladi, ularga xizmat ko‘rsatishga foiz xarajatlari talab qilinadi.

6. Byudjet davlatning amal qilishi zaruratidan kelib chiqadi, chunki davlat amal qilishi va faoliyat yuritishi uchun ma’lum bir mablag‘larga ega bo‘lishi kerak. Feodalizm davrida davlat xarajatlari ikki turga bo‘lingan edi: doimiy (qirollik saroyi, davlat muassasalarini saqlash) va vaqtincha (yo‘llar va inshootlar qurish va boshqalar), uning daromadlar va xarajatlar qismini aks ettiruvchi va mujassamlashtiruvchi yagona hujjat mavjud emas edi. Xarajatning har bir turiga tegishli daromad turi pul yoki natural ko‘rinishda topilib biriktiriladi edi. Xarajatlar va ularga biriktirilgan daromadlar mustaqil smetalar ko‘rinishida rasmiylashtirilib, juda ko‘p hajmda to‘planar edi. Hamma xarajatlar hujjatlashtirilmas edi. Davlat rahbari davlatning barcha mablag‘larini nazoratsiz idora qilar, buning natijasida isrofgarchilik yuzaga kelar edi. Burjuaziya davri monarxlarning moliyaviy huquqlarini chegaralash, davlat xarajatlari ustidan nazorat o‘rnatish va soliqlarni tayinlash va bekor qilish huquqini chegaralash bilan xarakterlanadi. Shularning barchasi byudjetning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga sababchi bo‘ldi.

Davlatning xarajatlar va daromadlarini yagona umumiy smetaga (byudjetga) birlashtirishga birinchi urinish Angliyada XVII asr oxirida amalga oshirildi. “Budget” termini Angliyada o‘rta asrlarda “sumka, hamyon, pulli qop” mazmunini anglatar edi. Shu nom bilan Angliya g‘aznachiligi vazirining pul va hisobotlari solingan portfeli nomlanar edi. Vazir doimo lordlar palatasi oldida chiqish qilayotganda shu portfeli yonida bo‘lardi. Vaqt o‘tishi bilan bu termin bilan “g‘aznachilik

vazirining parlament oldidagi hisoboti” nomlana boshlandi. XVI-XVII asrlarda Angliyada quyi palata qirolga subsidiyalarni tasdiqlashda, majlis tugashi arafasida g‘aznachilik kantsleri tegishli qonun loyihasi saqlanayotgan portfelni ochar edi va bu byudjetning ochilishi deb nomlangan edi, keyinchalik portfelning nomi hujjatning o‘ziga ham berildi.

XIX asr boshiga kelib, dunyoning ko‘pgina mamlakatlari davlatning daromadlari va xarajatlari aks ettiriladigan byudjetlarni shakllantira boshladilar. O‘zbekistonda davlat byudjeti **1868** yilda paydo bo‘lgan deb hisoblash mumkin. Bunda xonning shaxsiy xarajatlari davlatnikidan ajratilgan edi.

Bu bilan Turkiston hududida mustaqil davlat byudjetining tashkil topishiga asos solindi. Rossiya Chor hukumati Turkiston general-gubernatorligi hududida Turkistonning davlat daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi nizomni (davlat byudjeti to‘g‘risidagi nizomni) ishlab chiqish va ijro etish vazifasini bajaruvchi moliyaviy qo‘mitani ta’ sis etdi.

1924 yilda O‘zbekiston SSR tashkil topishi bilan birga, Sovet hukumati qarori bilan O‘zbekiston SSRning birinchi davlat byudjeti shakllantirildi.

Ushbu byudjet 1924 yildan 1991 yilga qadar, SSSR davlat byudjeti tarkibiga kirgan.

1991 yilda O‘zbekiston suverenitetni e’lon qildi va **1992** yildan boshlab mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti shakllan-tirila boshlandi.

9.2. O‘zbekistonda byudjet tuzilishi va byudjet tizimi

Byudjet tuzilishi – bu byudjet tizimini tashkil etish, uni tuzish tamoyillari. Byudjet tuzilishi davlat byudjeti va mamlakat byudjet tizimining tashkil etilishini, uning alohida bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, byudjet tizimiga kiruvchi byudjetlarning faoliyat yuritishi huquqiy asoslarini, byudjetlarning tarkibi va tuzilishini, byudjet mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartib-tamoyillari va hokazolarni belgilaydi. Byudjet tuzilishi davlat byudjeti va mamlakat byudjet tizimining tashkil etilishini, ularning alohida bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, byudjetlarning tarkibini belgilaydi.

Byudjet tuzilishi davlat tuzilishi bilan belgilanadi. Mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi byudjet tizimlari bo'g'inlari sonini belgilaydi, har bir darajadagi davlat hokimiyati organiga tegishli byudjet konstitutsiyaviy yo'l bilan biriktirilgan bo'ladi. Mamlakatlarning davlat tuzilishidagi, hokimiyat turli darajalarining byudjet huquqlaridagi farqlar turli shakldagi va modeldagi byudjet tizimlarini mavjudligini belgilaydi.

Byudjet tuzilishining markazlashtirilgan, markazlashtirishdan chiqarilgan va aralash **modellari** mavjud. **Markazlashtirilgan** model barcha byudjetlar yagona davlat byudjetida markazlashtirilishi bilan tavsiflanadi, bunda har bir yuqori byudjetga boshqaruvchilik roli biriktirilgan bo'ladi (Frantsiya, Italiya, Qozog'iston, O'zbekiston).

Markazlashtirishdan chiqarilgan model byudjet tizimi markaziy va mahalliy byudjetlarining erkinligi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu byudjetlarning har biri ularning xarajatlarini ta'minlovchi o'z daromadlar manbalariga ega bo'ladi (AQSh).

Aralash model markaziy byudjetga mahalliy byudjetlarni tartibga solish roli biriktirilishi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu byudjetlarning har biri ularning xarajatlarini ta'minlovchi o'z daromadlar manbalariga ega bo'ladi (Rossiya Federatsiyasi).

O'zbekiston Respublikasining byudjet tuzilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi:

1) byudjetga doir huquqiy munosabatlarning ayrim masalalarini tartibga soluvchi, uzoq muddat amal qiluvchi hujjatlar – O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi va “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonunlari;

2) har yili qabul qilinadigan (navbatdagi moliya yili byudjeti to'g'risidagi va boshqa) hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq **byudjet tizimi** turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari

oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

Moliya yiliga mo'ljallangan barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi. Mamlakat byudjet tuzilishi davlat tuzilishi shakliga, uning ma'muriy- hududiy bo'linishiga bog'liqdir.

Davlat tuzilishi shakliga, ya'ni davlatning ma'lum bir qismlarga bo'linishi va ularni boshqarish bo'yicha hokimiyatning tegishli tarzda ajratilishi usuliga ko'ra davlat ikki xil – unitar va federativ bo'ladi.

1) **Unitar** davlatlar vertikal bo'yicha yagona davlat hokimiyati tizimi bilan boshqariladigan ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linadi. Unitar davlatlarda byudjet tizimi **ikki bo'g'indan** – davlat byudjeti va ko'p sonli mahalliy byudjetlardan iborat bo'ladi (Qozog'iston, Polsha, Turkmaniston va boshqalar). Unitar davlatlarda avtonom birlashmalar tashkil etilishi mumkin.

Unitar davlatlar byudjetning markazlashtirishdan chiqarilish darajasi, hududlar hukumat organlarining vakolatlari bilan belgilanadigan **ko'p darajali byudjet** tizimiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, markazlashtirishdan chiqarilgan unitar davlat – Frantsiya **to'rt darajali** byudjet tizimiga, mahalliy hokimiyatlarning soliqqa oid vakolatlari konstitutsiya bilan belgilangan markazlashgan unitar davlat – Shvetsiya **uch darajali** byudjet tizimiga ega.

2) **Federatsiya** tarkibiy qismlari keng ko'lamli davlat avtonomiyasiga ega bo'lgan yagona davlatni namoyon etadi. Ma'lum ma'noda bu davlat hokimiyatining vertikal bo'yicha taqsimlanish usulidir. **Federativ** davlatlarning byudjet tizimi **uch bo'g'indan** iborat: davlat byudjeti (federal byudjet yoki markaziy hukumat byudjeti), federatsiya a'zolari byudjeti va mahalliy byudjetlar (Avstriya, Germaniya, Kanada, Meksika, Rossiya, AQSh va boshqalar).

Jahon amaliyotida byudjet tizimlarining tuzilishi quyidagi **tamoyillarga** asoslanadi:

- **umumiylik** – huquqiy baza, pul tizimi, yagona byudjet tasnifidan va byudjet hujjatlari shakllaridan foydalanish, byudjet jarayoni tamoyillari, byudjet qonunchiligini buzganlik uchun sanksiyalarni, xarajatlarni moliyalashtirish va byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining buxgalteriya hisobini yuritish tartibining yagonaligini anglatadi;

- **to‘liqlik** – byudjet tizimi byudjetlarining va byudjetdan tashqari jamg‘armalar byudjetlarining daromadlar va xarajatlari ularda majburiy ravishda va to‘liq aks ettirilishi lozimligini anglatadi;

- **ishonchlilik** – tegishli hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognoz ko‘rsatkichlarining obektivligini hamda byudjet daromadlari va xarajatlari hisoblanishining realligini anglatadi;

- **oshkoralik** – byudjetning shaffofligini nazarda tutadi, bu o‘z navbatida erkin nashrda tasdiqlangan byudjetlar va ularning ijrosi bo‘yicha hisobotlar majburiy ravishda bosib chiqarilishini, taqdim etilayotgan axborotning to‘liqligini, jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun byudjet loyihalarini ko‘rib chiqish va qarorlar qabul qilishning ochiqqligini anglatadi;

- byudjet tizimi byudjetlarining **mustaqilligi**. Federal tipdagi va byudjet tuzilmasi markazlashtirishdan chiqarilgan va aralash modeli mamlakatlarga xosdir. Bu davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqaruv organlari mustaqil ravishda, byudjet jarayonini amalga oshirishlari, daromadlarning mustaqil manbalari mavjudligi va tegishli byudjetlar mablag‘larining xarajatlari yo‘nalishini belgilashni, davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining tegishli byudjetlarning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini mustaqil belgilash huquqini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi **byudjet tizimi** o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lib, uning **asosiy tamoyillari** O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi qonunida belgilab qo‘yilgan

byudjet tasnifi tizimi, hisob-byudjet hujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;

- byudjet tuzilishining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;

- turli darajadagi byudjetlarning o‘zaro bog‘liqligi;

- Davlat byudjeti balansliligi;

- davlat daromadlarini aniq manbalar bo‘yicha va xarajatlarini yo‘nalishlari (moddalari) bo‘yicha rejalashtirish;

- Davlat byudjeti xarajatlarini byudjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag‘lar doirasida va xarajatlar smetalarida ko‘rsatilgan maqsadlarda amalga oshirish;

- barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi.

O‘zbekiston Respublikasida **Davlat byudjeti** – davlat pul mablag‘larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat byudjeti respublika byudjetini va Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni o‘z ichiga oladi. Davlat byudjeti **tarkibida** davlat maqsadli jamg‘armalar jamlanadi.

Respublika byudjeti – Davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining byudjeti – Davlat byudjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori,

shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog'iston Respublikasi-ning respublika byudjetini hamda respublikaga (Qoraqalpog'istonga) bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o'z ichiga **Mahalliy byudjet** – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Viloyat byudjeti viloyat byudjetini, viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlarning byudjetlarini o'z ichiga oladi. Tumanlarga bo'linadigan **shaharning byudjeti** shahar byudjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini o'z ichiga oladi.

Tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan **tumanning byudjeti** tuman byudjetini va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar byudjetlarini o'z ichiga oladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari – Davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushish me'yorlari va shartlari, shuningdek, bu mablag'lardan qay maqsadlarda foydalanilishi mumkinligi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti umumdavlat soliqlari va majburiy to'lovlari hisobiga shakllantiriladi va umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishga ishlatiladi.

Davlat byudjeti **daromadlari** quyidagilar hisobiga shakllan-tiriladi:

- qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), Aksiz solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, alohida tadbirkorlik faoliyati

bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq, davlat boji va bojxona to'lovlari);

- davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar;
- qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa daromadlar.

Davlat byudjeti **xarajatlari** tasdiqlangan byudjetdan mablag' ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- byudjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;
- joriy byudjet transfertlari shaklida;
- kapital xarajatlar shaklida: asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga; chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mulk olishga; davlat ehtiyojlari uchun erga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga; davlat zahiralarini vujudga keltirishga;
- kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjet transfertlari shaklida;
- rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan byudjet ssudalari shaklida;
- davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari shaklida;
- davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;

• qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida. Respublika byudjetidan xarajatlarni **moliyalashtirish** qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

• fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublikaga bo'ysunadigan byudjet tashkilotlari bo'yicha);

• ijtimoiy ta'minot;

• mudofaa, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash;

• sudlar va prokuratura organlari faoliyatini ta'minlash;

• davlat zahirasi va safarbarlik zahirasini vujudga keltirish hamda ularni saqlash;

• davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish;

• davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari hamda missiyalari faoliyatini ta'minlash;

• iqtisodiyot turli tarmoqlarining respublikaga bo'ysunadigan byudjet tashkilotlarini saqlash;

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

• yer tuzish, meliorativ, tabiatni muhofaza qilish va epizootiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash;
- gidrometeorologiya, do'lga qarshi kurash chora-tadbirlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Respublika byudjeti taqchilligi davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag'larni jalb qilish, respublika byudjeti mablag'larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlari va qonunlarga muvofiq boshqa manbalar hisobiga **moliyalashtiriladi**.

Byudjet tizimining ikkinchi darajadagi byudjetlari: Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining byudjeti – Davlat byudjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasi-ning respublika byudjetini hamda respublikaga (Qoraqalpog‘istonga) bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o‘z ichiga **Mahalliy byudjet** – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar **daromadlari** quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga yo‘naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar (mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga soliq, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, alohida tovar turlarini chakana sotish va xizmat ko‘rsatish huquqini olish uchun yig‘imlar);

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga hamda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig‘imlari, bojlari va boshqa majburiy to‘lovlar;

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki obektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;

- yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari, byudjet subventsiyalari va byudjet ssudalari;

- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar **xarajatlari** tasdiqlangan byudjetdan mablag‘lar ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining joriy xarajatlari shaklida joriy byudjet transfertlari shaklida;

- kapital xarajatlar shaklida:

- asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;

- davlat ehtiyojlari uchun erga bo‘lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo‘ljallangan xarajatlar **moliyalashtiriladi**:

- fan, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo‘yicha);

- ijtimoiy ta’minot;

- aholini ijtimoiy himoya qilish;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta’minlash; iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjet tashkilotlarini saqlash;

- qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

O‘zbekiston Respublikasi byudjeti o‘zining **xususiyatlariga** ega, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti hamda mahalliy byudjetlar balansli daromadlar va xarajatlarga ega bo‘lishi kerak. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo‘l qo‘yilmaydi.

9.3. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tushunchalari va ularning tarkibi

Byudjet daromadlari – bu davlat byudjet tizimning byudjetlariga qonun hujjatlarida belgilangan beg‘arazlik va qaytarib bermaslik tartibida kelib tushadigan pul mablag‘lari. Byudjet daromadlari soliq va soliqsiz daromatlardan iborat, shuningdek ularga beg‘araz pul o‘tkazmalari ham kiradi.

Soliq – bu (davlat / mahalliy) byudjetga majburiy badal bo‘lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Soliqlar, o‘z moddiy mazmuniga ko‘ra, milliy daromadning xo‘jalik subektlaridan va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undiriladigan qismidir. **Soliqli daromadlarning** asosiy **manbasi** yangidan yaratilgan qiymat va uni birlamchi taqsimlash natijasida olingan daromadlar (foyda, ish haqi, qo‘shilgan qiymat, ssuda foizi, renta, dividendlar va boshqalar), shuningdek jamg‘armalardir.

Soliqlar quyidagi belgilarga qarab **tasniflanishi** mumkin (9.6-rasm):

- hokimiyat organlarining vakolat darajasiga ko‘ra (davlat, mahalliy soliqlar va yig‘imlar / federal, federatsiya subektlari va mahalliy soliqlar va yig‘imlar);

- zimmaga yuklanishiga ko‘ra (to‘g‘ri va egri soliqlar);

- to‘lanish manbasiga ko‘ra (tovar narxining oshishi, mahsulot tannarxining oshishi, moliyaviy natijalar, sof foydaga nisbatan soliqlar);

- undirilish davriyligiga ko‘ra (muntazam va nomuntazam soliqlar);


- soliq solish obektiga ko‘ra (daromad, kapital, yer, xo‘jalik oboroti,

alohida tovarlar);

– soliq to‘lovchilarga ko‘ra (jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar, yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar, shuningdek aralash – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadiga soliqlar);

– boshqa soliqlar.

Byudjetning **soliqsiz daromadlari** asosan davlatning iqtisodiy faoliyati va byudjet tizimining turli darajalarida olingan daromadlar qayta taqsimlanishi natijasida paydo bo‘ladi.



9.6-rasm. Soliqlarning tasnifiy belgilari va tasniflanishi

Ko‘pgina soliqsiz daromadlar doimiy fiskal xususiyatga ega emas va ularning qat’iy belgilangan stavkasi yo‘q.

Byudjetning **soliqsiz daromadlari** quyidagi belgilarga ko‘ra **tasniflanadi**:

– hududiy belgi, byudjetning belgilangan darajasiga o‘tkazish;

– jalb qilish va shakllantirish (majburiy va ixtiyoriy);

– soliqsiz tushumlarni shakllantiruvchi, to‘lovlarni undirish uchun asos yaratish (davlat mulkini sotishdan kelib chiqqan daromad).

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar byudjetining daromadlarida soliqlar ustuvor o‘ringa egadir. Hozir dunyoda soliqlar byudjet tushumlarining 80-90 foizni tashkil etadi va O‘zbekistonda ham bunday holatni kuzatish mumkin. Soliq kodeksiga muvofiq, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiladigan majburiy pul to‘lovlari soliq sifatida tushuniladi. **Boshqa majburiy to‘lovlar** deganda, davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy pul to‘lovlari, bojxona to‘lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan to‘lovchilarga nisbatan yuridik ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan yig‘imlar, davlat boji tushuniladi.

Har bir soliq yoki boshqa majburiy to‘lovga tatbiqan soliq to‘lovchilar va soliqlarning unsurlari belgilanadi.


Soliq solish **obekti** soliq to‘lovchida soliq yoki boshqa majburiy to‘lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to‘lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, faoliyat natijasidir.

Soliq solinadigan baza soliq solish obektining soliq yoki boshqa majburiy to‘lovning stavkasiga tatbiqan belgilangan ko‘rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.

Stavka soliq solinadigan bazaning o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliq va boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish tartibi **soliq davri** uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo‘lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to‘lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.



9.7-rasm. 2020-2022 yillarda soliq yuki va davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishi


Soliq davri u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir.

Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yohud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha **imtiyozlar** deb e'tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi **Davlat byudjeti daromadlari** ikki qismdan iborat: davlat maqsadli jamg‘armalari hisobga olinmagan daromadlar va davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlari.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqish va to‘lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.



9.8-rasm. O‘zbekistonda davlat byudjeti xarajatlarning asosiy bloklari

Davlat byudjeti **xarajatlari** – bu davlat o‘z funktsiyalari va vazifalarini bajarish uchun byudjetdan yo‘naltiradigan pul mablag‘lari oqimlari har qanday davlatda bo‘lganidek, O‘zbekistonning davlat byudjeti xarajatlari ham quyidagi asosiy **xarajatlar bloklarini** o‘z ichiga oladi: ijtimoiy maqsadlar xarajatlari; iqtisodiyot xarajatlari; ijtimoiy infratuzilma, qishloq xo‘jaligi va uy-joy kommunal sektorini rivojlantirishga yo‘naltiriladigan markazlashtirilgan investitsiyalarni

moliyalashtirish xarajatlari; boshqaruvga xarajatlar; milliy xavfsizlik va ichki huquq-tartibotni ta'minlash xarajatlari; tashqi iqtisodiy faoliyat uchun xarajatlar; davlat qarziga xizmat ko'rsatish xarajatlari (9.8-rasm).

Har qanday davlatning iqtisodiyot va siyosatidagi xususiyatlari uning xarajatlari ustuvorliklarida ham aks etadi. O'zbekistonda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishning ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda har yili mamlakatning soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilanadi va ular davlat byudjetini ishlab chiqishda asos sifatida xizmat qiladi. Mustaqil O'zbekistonning umumiy taraqqiyot davri davomida byudjet xarajatlari ustuvor darajada ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga sarflangan va sarflanib kelinmoqda.



9.9-rasm. Davlat byudjeti xarajatlarining tasniflanishi

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi nomidan va uning kafolati ostida jalb qilingan davlat qarzining summasi yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan 60%dan oshmasligi kerak.

2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi nomidan va uning kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo‘yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 4,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi.

Qonunga muvofiq quyidagi soliqlar bo‘yicha asosiy stavkalar o‘zgarishlarsiz qoldirildi:

- QQS – 15%;
- foyda solig‘i – 15%;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i – 12%;
- aylanmadan olinadigan soliq – 4%.

Foyda solig‘i stavkasi 15%, dividendlar tarzidagi foyda bo‘yicha soliq stavkasi 5% darajasida saqlanib qolindi.

Amortizatsiyaning yillik cheklangan normasi va investitsiyaviy chegirma miqdori o‘rtacha 2 baravarga oshiriladi.

Soliq to‘lovchilarga zarar summasini kelgusi davrlarga, zarar ko‘rilgan soliq davridan keyingi 10 yilga ko‘chirish huquqi beriladi. Bunda jami ko‘chirilayotgan zarar summasi joriy soliq davridagi soliq bazasining 60%idan oshmasligi lozimligi to‘g‘risidagi talab bekor qilinadi.


Tabiiy gazni eksport qilishda, shuningdek import qilingan gazni ichki bozorda realizatsiya qilishda Aksiz solig‘i stavkasi nolga tenglashtiriladi. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan suyultirilgan gazni realizatsiya qilish Aksiz solig‘idan ozod etiladi.

Bundan tashqari yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari neft va tabiiy gaz bo‘yicha 10%gacha, oltin va mis bo‘yicha – 7%gacha, volfram bo‘yicha – 2,7%gacha, uran bo‘yicha – 8%gacha pasaytirildi.

2022 yil uchun Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotning 3%i miqdorida belgilandi. 2022 yilda konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 254,6 trln so‘m yoki YaIMning 30,3%i miqdorida prognozlashtirilmoqda.

Davlat byudjeti daromadlari 200 trln so‘m yoki YaIMning 23,8%i miqdorida belgilandi. Ulardan soliq tushumlari 68,5 trln so‘m, shu jumladan foyda solig‘i – 43,7 trln so‘m, aylanmadan olinadigan soliq – 2,7 trln so‘m, JShDS – 22 trln so‘mni tashkil etadi.

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI TARKIBI, 2022 YIL UCHUN PROGNOZ



9.10-rasm. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil uchun davlat byudjeti daromadlari tarkibi


Bilvosita soliqlar bo‘yicha daromad summasi 73,2 trln so‘m, shu jumladan QQS – 53,3 trln so‘m, Aksiz solig‘i – 15 trln so‘m, bojxona boji – 4,8 trln so‘mni tashkil etadi. Resurs va mol-mulk solig‘i 25,7 trln so‘mni tashkil qiladi. Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari 280, 13 trln so‘mni tashkil etadi. Davlat byudjeti xarajatlari 188, 91 trln so‘m, davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari – 58, 18 trln so‘m, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining sarflanishi – 7, 73 trln so‘m miqdorida prognozlashtirilmoqda.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larining sarflanishi 14, 61 trln so‘m, tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar esa – 10,7 trln so‘mni tashkil etadi.

Byudjetni shakllantirishda barcha tumanlar va shaharlar byudjetlarining tasdiqlangan xarajatlarining 5%i jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Bundan tashqari, mahalliy byudjetlar qo‘shimcha manbalarining kamida 30%i jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Byudjetning **iqtisodiyotga** xarajatlariga alohida xo‘jalik subektlarini va milliy iqtisodiyot sektorlarini qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar, shu jumladan qishloq va suv xo‘jaligi; uy-joy ekspluatatsiya xo‘jaligi; shaharlarni obodonlashtirish, vodoprovod, kanalizatsiya va boshqalarga xarajatlar kiradi.



9.11-rasm. Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi

Boshqaruvga xarajatlar hokimiyatning barcha qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruvi va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, sudlar, prokuratura organlari va boshqa muassasalarning xarajatlarini moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Milliy xavfsizlik va ichki huquq-tartibotni ta‘minlash xarajatlari mudofaa kompleksiga (Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat chegarasini qo‘riqlash qo‘mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqalarni ta‘minlash xarajatlari), huquq-tartibot organlariga (Ichki ishlar vazirligi, Jazoni

ijro etish Bosh boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligining moddiy-texnika va harbiy ta'minot boshqarmasi, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalarni ta'minlash xarajatlari) va boshqalarga xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Davlat qarzig'a xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlarga tashqi va ichki qarz bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lash va boshqalar kiradi. Byudjet xarajatlari tranzit xususiyatiga ega. Byudjet xarajatlari orqali byudjetdan mablag' oluvchilar – byudjet mablag'larini oluvchi yoki taqsimlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tashkilotlari moliyalashtiriladi. Byudjetda sarf-xarajatlar moddalari bo'yicha byudjet xarajatlari belgilanadi, xarajatlarni esa byudjetdan mablag' oluvchilar amalga oshiradilar.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etish xususiyatiga qarab byudjet xarajatlari joriy va kapital bo'ladi.

Byudjetlarning **joriy xarajatlari** – davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, byudjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlash uchun, boshqa byudjetlar va iqtisodiyotning alohida tarmoqlari joriy faoliyatiga ajratmalar, dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar ko'rinishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish uchun byudjet xarajatlarining qismi. Joriy xarajatlar byudjet xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi.

Byudjetlarning **kapital xarajatlari** – innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlovchi byudjet xarajatlari qismi bo'lib, u tasdiqlangan investitsiya dasturiga binoan faoliyat yuritayotgan yoki yangi tashkil etilayotgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiyalash uchun mo'ljallangan xarajatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Byudjet mablag'larini sarflash quyidagi **usullar** yordamida amalga oshiriladi:

- byudjetdan moliyalashtirish (qaytarib berilmaydigan pul mablag'larini byudjetdan taqdim etish);
- byudjetdan kreditlashtirish va mablag'larni investitsiyalash;

- mablagʻlarni byudjet qarzi majburiyatlarini qoplashga yoʻnaltirish.

Byudjetdan mablagʻ oluvchilarga oʻz joriy faoliyatini amalga oshirish uchun byudjet mablagʻlarini taqdim etishning asosiy usuli **byudjetdan moliyalashtirish** hisoblanib, u quyidagi **tamoyillarga** asoslanadi:

- byudjet ajratmalaridan foydalanishning maqsadlilikligi. Byudjetdan mablagʻ oluvchilar belgilangan maqsadlar uchun tasdiqlangan byudjet asosida mablagʻ oladilar. Ushbu tamoyilga qatʼiy rioya qilish mablagʻlarni sarflashning samaradorligini taʼminlaydi;

- byudjetdan moliyalashtirishning tekinligi;
 - byudjetdan moliyalashtirishning qaytarilmasligi;
- minimal xarajatlar bilan maksimal samara olish;

- byudjet mablagʻlarini ishlab chiqarish va boshqa koʻrsatkichlarning bajarib borilishiga qarab va avvalgi ajratmalardan foydalanishni hisobga olgan holda taqdim etish. Bu tamoyil moliya organlariga byudjet mablagʻlarini oluvchilar faoliyati ustidan taʼsirchan va samarali nazoratni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Byudjetdan moliyalashtirish quyidagi **shakllarda** amalga oshiriladi:

- byudjetdan mablagʻ oluvchilarning joriy xarajatlariga (ishchilarga mehnat haqini toʻlash, davlatning byudjetdan tashqari jamgʻarmalariga sugʻurta badallarini oʻtkazish, byudjetdan mablagʻ oluvchilar tomonidan kommunal xizmatlar, safar xarajatlarini toʻlash va boshqalar), shuningdek hukumatning boshqa darajalariga oʻtkaziluvchi alohida davlat vakolatlarini amalga oshirishga; davlat xaridlariga va boshqalarga ajratmalar;

- transfertlar (aholiga beriladigan majburiy toʻlovlarni moliyalashtirish uchun byudjet mablagʻlari: stipendiyalar, nafaqalar, kompensatsiyalar, pensiyalar va boshqa ijtimoiy toʻlovlar);

- boshqa darajadagi byudjetlar va davlatning byudjetdan tashqari jamgʻarmalariga byudjet ssudalari, subventsionalari va dotatsionalari;

- byudjetlararo transfertlar;

- jismoniy va yuridik shaxslarga subventsiyalar va subsidiyalar;
- faoliyat yuritayotgan yoki yangidan yaratilayotgan yuridik shaxslarning ustav kapitaliga investitsiyalar;
- mulk shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxslarni byudjetdan kreditlash;
- qarz majburiyatlariga xizmat ko'rsatish (davlat organlarining kafolatlari bilan).

Bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Iqtisodiy nazariya davlat tomonidan byudjet-soliq (fiskal) siyosatini amalga oshirish usullari borasida turli qarashlar borasidagi juda ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Xususan, Keynschilik oqimining davomchilari an'anaviy tarzda iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish sifatida samarali yalpi talabni shakllantirishga e'tibor qaratadilar. Shu sababli, soliq imtiyozlari ular tomonidan yalpi talabning o'sishining asosiy omili sifatida qaraladi, bu esa o'z navbatida real mahsulot hajmining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, qisqa muddatli davr ichida byudjet daromadlarining qisqarishi kuzatiladi, shundan so'ng byudjet kamomadi shakllanadi yoki avvalgiga qaraganda o'sadi. "Taklif iqtisodiyoti" nazariyasi tarafdorlari soliq stavkalarining pasaytiri-lishini yalpi taklif o'sishining omili sifatida ko'rib chiqadilar. Diskretsion fiskal siyosat eng avvalo, hukumat qarorlariga asoslanadi.

U soliq stavkalarini yoki soliqqa tortish tartibini, shuningdek, davlat xarajatlari darajasini boshqaradi, bu yalpi taklifning shakllanishiga, bandlik darajasiga, milliy mahsulotning real hajmiga va narxlar darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy siklning bosqichlariga muvofiq, diskretsion fiskal siyosat cheklovchi yoki rag'batlantiruvchi siyosatga bo'linadi. Cheklovchi fiskal siyosat ortiqcha talab tufayli yuzaga keluvchi inflyatsiyani jilovlash maqsadida iqtisodiy tiklanish bosqichida amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi tadbirkorlik faoliyatini cheklash, yalpi milliy mahsulotning real hajmini uning potentsial darajasiga nisbatan kamaytirishdan iboratdir. Bunday siyosatni amalga oshirish mexanizmida da sof soliqlarning ko'payishi (hukumatning soliq yig'ishdan olgan daromadlari,

shuningdek davlat transfert to'lovlari o'rtasidagi farq), ularning o'sishi, davlat xarajatlarning qisqartirilishi bir o'rinda nazarda tutadi. Iqtisodiyotning xususiy sektorida bu yalpi talabning kutilayotgan tiklanishini qoplashga yordam beradi.

Haddan tashqari talab (inflyatsion o'sish) oqibatida kelib chiqadigan inflyatsiyaning mavjudligida cheklovchi diskretion fiskal siyosat quyidagilardan tashkil topadi: xarajatlarni qisqartirish; soliqni oshirish; davlat xarajatlarini qisqartirish va soliq solishni oshirish kombinatsiyasi (davlat soliqlarini kamaytirishning multiplikator samarasi soliqlarning oshishini aks ettiruvchi multiplikator samarasidan yuqori bo'ladi).

Rag'batlantiruvchi fiskal siyosatni amalga oshirish ijtimoiy ishlab chiqarishning pasayish davrlarida, ishsizlikning sezilarli darajasi mavjud bo'lgan davrda amalga oshiriladi. Bunday holda, sof soliqlarni kamaytirishga yoki sof soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Pasayish davrida diskretion fiskal rag'batlantirish siyosati soliqlarni qisqartirish, davlat xarajatlarini ko'paytirish, bir paytning o'zida davlat xarajatlarini ko'paytirish va soliq imtiyozlarini qisqartirishni o'z ichiga oladi.

Davlat xarajatlari va soliqlarning iqtisodiy rivojlanishga barqarorlashtiruvchi ta'siri ular multiplikatsion ta'sirga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Ular yalpi talabga, fuqarolarning bandligiga va milliy ishlab chiqarish hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Amaldagi davlat tomonidan tartibga solishning kontseptual modeli barqarorlashtirish siyosatining hukumat tomonidan amalga oshiriluvchi shakllari va choralarini tanlashni ko'zda tutadi. Davlatning nodiskret fiskal siyosati doirasida avtomatik stabilizatorlardan keng foydalaniladi.

Ular hukumat tomonidan qabul qilinuvchi qarorlardan qat'iy nazar iqtisodiyotda muvozanatlash vazifasini bajaruvchi davlat daromadlari doirasida muayyan bir jihatlarni ifoda etadi. Buni soliq tushumlari hajmi va davlat xarajatlari ulushining sezilarli darajada o'sishi xususiy sektor faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligi bilan izohlash mumkin. Soliq stavkalari milliy daromad oshgan taqdirda soliq tushumlari miqdori oshadigan tarzda amalga oshiriladi. Milliy

daromad hajmi pasayganda, aksincha, ularning pasayishi kuzatiladi. Shu qatorda, milliy daromad tebranishlariga bog‘liq bo‘lmagan ma’lum bir transfert to‘lovlari ham, muayyan darajada barqarorlashtiruvchi vazifasini bajaradi (masalan, bolalar uchun nafaqa va davolanish uchun to‘lov).

Shunga qaramay, transfertlarning katta ulushining o‘zgarishi (masalan, ishsizlik nafaqalari, qo‘shimcha to‘lovlar va boshqalar) biznes siklidagi tebranishlarga teskari bog‘liqlikda yuzaga keladi. Iqtisodiy tiklanish sharoitida ushbu turdagi to‘lovlar sezilarli darajada kamayadi va ishlab chiqarishning pasyish davrida esa o‘sadi. Soliqlar va davlat xarajatlarining nisbiy darajalarida ma’lum darajada zarur o‘zgarishlar avtomatik ravishda kiritiladi, bu avtomatik (o‘rnatilgan) barqarorlik deb ataladi.

Soliq tizimi SMMning qiymatiga mutanosib ravishda sof soliqlar-ning undirilishini ta’min qilgan holda, avtomatik (o‘rnatilgan) barqarorlikning yuza kelishiga sabab bo‘ladi

SMM ning o‘sishi asnosida soliq tushumlarining o‘sishi kuzatiladi, aksincha SMMning pasayishi sharoitida esa, barcha manbalar bo‘yicha soliq tushumlarining pasayishi kuzatiladi.

Moliya orqali dunyoni anglash juda ham hayratlanarli! U shunchaki pul banknotalarini o'zingiz tayyorlashingiz yoki ularni ko'paytirishingizga qaraganda maroqlidir. Chunonchi, siz bilmagan sohangizga shunchaki sarmoya kiritib olmaysiz. Men imkon qadar moliya dunyosini o'rganishga harakat qilaman. Ertaga biz yuqori texnologiyalarga sarmoya kiritamiz va o'zimiz istar-istamas sayyoramizda ilm-fanning rivojiga hissa qo'shamiz. Bu insonga huzur bag'ishlaydi...

Alisher Usmonov

10-BOB. UY XO'JALIKLARI MOLIVASI

- 1. Uy xo'jaliklarining iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni.**
- 2. Takror ishlab chiqarish jarayonida uy xo'jaliklarning funktsional vazifalari va faoliyat yo'nalishlari.**
- 3. Uy xo'jaliklarining yalpi daromad va xarajatlari bo'yicha tabaqalanishining hozirgi holati.**
- 4. Mamlakatda aholi o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.**

10.1. Uy xo'jaliklarining iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni

Uy xo'jaliklarining iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni va ularning mohiyati to'g'risidagi qarashlar asrlar davomida o'zgarib bordi. Uy xo'jaliklari borasidagi qarashlar eramizdan avvalgi (V-IV asrlar) yunon faylasuflari (Ksenofontning) ilk qarashlaridan, XX asrning so'nggi 50-60 yillarida vujudga kelgan oila borasidagi yangi iqtisodiy qarashlarga qadar transformatsiyalashib bordi.

Uy xo'jaligi haqidagi tarqoq fikrlarni umumlashtirish dastlab qadimgi Yunonistonda yuz bergan. Ksenofont muomalaga "Oykonomiya", ya'ni, "Xo'jalik yuritish" tushunchasini kiritgan.⁷³ U har bir fuqaro boy bo'lishi uchun oqilona xo'jalik yuritish vazifalarini to'g'ri taqsimlab, o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashi, zahira hosil etishi, turar joylarni qurish zarur, deb bilgan. Qadimgi dunyoda tovar-pul munosabatlari hali chuqur ildiz otmagani, natural iste'mol katta bo'lgani bois Ksenofont uy xo'jaligi pul to'plashi shart emas, deb hisoblagan. U xo'jalik

⁷³ История экономических учений : учебник и практикум для академического бакалавриата / под ред. С. А. Толкачева. — М. : Издательство Юрайт, 2015. — 511 с. — Серия : Бакалавр. Академический курс - С. 214-242.

yuritish bu orqadagi urf-odatlarga tayanishini ta'kidlagan. Xo'jalik yuritish jarayoni tabiiy jarayon hisoblangan. Chunki o'sha kezlarda hukmron bo'lgan an'anaviy tizimga xos munosabatlar urf-odatlar o'zgarishiga qarab yuz bergan.

Arastu uy xo'jaligini siyosiy va iqtisodiy tizimning asosi, deb baholagan va xo'jalik yuritish jarayonini oilaning hayot kechirish sharti sifatida qaragan.⁷⁴

Uy xo'jaligiga dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog'liq holda qarash o'rta asrga ham xos bo'lgan. Iqtisodiy qarashlarda hukmron va qaram xo'jaliklar bo'lingan, chunki uy (xonadon)lar shunday tabaqalarga ajralgan. Bunday qarashlar hunarmandchilik nizomlarida ham qayd etilgan. G'arbda tsex a'zolari kasbikoriga qarab, tsexga kiruvchi hunarmand xo'jaliklari faoliyatiga oid nizomlar bo'lgan. Bu nizomlarda tsex ichidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoida belgilangan. Sharqda, jumladan, O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik sanoati aslida uy sanoati hisoblanib, oilaviy xarakterga ega bo'lgan. Biroq, bu jabhada usta, xalifa va shogird kabilar toifasidagi kishilar mehnati ham qo'llanilgan. Ular o'rtasidagi munosabatlar maxsus nizom – risolalar talabiga binoan olib borilgan. Bunda oila a'zolarining mehnatidan ham foydalanilgan. Shu sababli oilaviy munosabatlar iqtisodiy mazmun kasb etgan. Ammo risolalarda bu munosabatlar qayd etilmagan.

Agar ilgari uy xo'jaliklariga an'anaviy tizimning tarkibiy qismi sifatida qaralgan, bo'lsa, keyinchalik ular bozor tizimi nuqtai-nazaridan o'rganildi. Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida paydo bo'lgach, uy xo'jaligiga oid tarqoq fikrlar kontseptual shakl olib, nazariya darajasiga ko'tarildi. Klassik va neoklassik nazariyada unga bozor munosabatining agenti sifatida qarala boshlandi.

Merkantilistlar savdo-sotiqqa urg'u berib, xonadonlarning asosiy vazifasi pul to'plab, boylik orttirish, deb hisoblashgan.⁷⁵


Klassik nazariya asoschilari A. Smit⁷⁶ va D. Rikardo⁷⁷ jamiyat boyligi taqsimlanishini va ishchilar xonadoni turli boylikka ega bo'lishini qayd etdilar. D.

⁷⁴ <https://iphlib.ru/library/collection/newphilenc/document>

⁷⁵ Экономическая теория / Под ред. Е. Н. Лобачёвой. — 2-е изд. — М.: Высшее образование, 2009. — 51 -С. 242.

⁷⁶ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. - М.: Эксмо. 2016. — С. 87.

Rikardo ishchilarning ahvolini real ish haqi belgilashini va bu pul daromadiga, iste'mol tovarlari narxiga bog'liq bo'lishini asosladi⁷⁸. U ishchi kapitalistlar va yer egasi, uy xo'jaliklari boylikning turli qismlarini o'zlashtirishiga tabiiy holat sifatida qaraydi.



10.1-rasm. Uy xo'jaliklari taraqqiyotining bosqichlari

Ilk neoklassik nazariya vakillari (marginalistlar) uy xo'jaliklari iste'moli naflilikning pasayib borishi qonuni ta'sirida bo'lishini asoslaydilar. E. Gossen tovarlar ko'plab xarid etilib, iste'mol to'ygan sari qo'shimcha tovarlar nafliligi

⁷⁷ https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/Maib/index.php

⁷⁸ Рикардо Д. Начало политической экономии и налогообложения. М.: Эксмо, 2016..Ст. 127.

pasayishiga moyil bo'lishini aytib o'tadi⁷⁹. Marjinalistlar xonadon iste'moli uchun tovarlarni tanlab olish zarur, shu sababli to'yingan bozorga nafliligi yuqori yangi tovarlar taklif etilishi zarur, deb bilishgan. Ular shunday bo'lganda iste'molchi xonadonlar va ishlab chiqaruvchi firmalar faoliyati uyg'unlashuvini qayd etdilar.

Turli nazariy qarashlarda uy xo'jaliklarining tabaqalanishiga e'tibor berilib, ularning turli toifalari tavsiflangan. Ingliz iqtisodchisi Ch. But oilaviy xo'jaliklar tasnifini ishlab chiqib, bunda ularni quyi, o'rta va yuqori sinflarga ajratadi, bu sinflarning byudjetlari o'rtasidagi farqlanishning xususiyatlarini ko'rsatadi. Frantsuz olimi F. Leple oila xo'jaligining o'zi o'tkazgan statistik tahlilida uning byudjet daromadlari va xarajatlarini o'rganadi, bu xo'jalik xarajatlari miqdori va tarkibini daromadlar belgilashini ko'rsatib beradi⁸⁰.

Oila byudjetini F. Lepledan so'ng avstriyalik iqtisodchi olim E. Engel atroflicha o'rgandi. U oila daromadlari miqdori bilan uning xarajatlari tarkibi o'rtasidagi aloqadorlikni asoslab beradi. Uning bu boradagi nazariyasi mujassamlashgan qonun keyinchalik nazariy "Engel qonuni" nomini oldi.⁸¹

Zamonaviy iqtisodiy tafakkur uy xo'jaligini bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni va inson kapitalini takror ishlab chiqarishni ta'minlovchi, o'z ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga intiluvchi, mustaqil tarzda qarorlar qabul qiluvchi, tarkibida bir yoki bir necha shaxslar bo'lgan iqtisodiy birlik sifatida talqin etadi.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida iqtisodiy tizimlar doirasida uy xo'jaligi alohida institut sifatida: turli tashkiliy shakllarga egaligi, mamlakat xo'jaligida ma'lum bir vazifani bajarishi, ichki va tashqi vositalar ko'magida tartibga solinishi bilan ajralib turadi.

Uy xo'jaligining tadrijiy taraqqiyoti jarayonida uning quyidagi asosiy rivojlanish bosqichlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin (10.1-rasm).

⁷⁹ https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/Maib/index.php

⁸⁰ Довбенко М. В., Осик Ю. И. Современные экономические теории в трудах нобелиантов. М.: Академия Естествознания. 2011. С.347.

⁸¹ <https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/bpt6k61559g/f139.pagination>

Uy xo'jaliklari taraqqiyotining turli bosqichlarida ularning jamiyat iqtisodiyotidagi o'rnini aniqlashtirish ayrim xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Birinchidan, uy xo'jaligi o'zida rasmiy va norasmiy xulq-atvor qoidalari majmuini aks ettirgan holda, doimo milliy iqtisodiyotning asosiy subyektlaridan biri bo'lib kelgan.

Ikkinchidan, uy xo'jaligi iqtisodiy faolligini rag'batlantiruvchi asosiy kuch oilaning farovon hayot kechirishi va oilaning asosiy funktsiyalarini samarali tarzda ro'yobga chiqarilishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Uchinchidan, insoniyat jamiyati rivojlanishining har bir bosqichida uy xo'jaligi o'ziga xos tashkiliy shakllarda, xususan an'anaviy iqtisodiy tizimda u ibtidoiy jamoa va sal keyinroq esa alohida oila; qadimgi dunyoda esa quldorlik xo'jaligi, erkin fuqarolar; o'rta asrlarda- feodal xo'jalik, krepostnoy dehqon xo'jaligi, erkin dehqon, hunarmand, savdogar, sudxo'r; bozor iqtisodiy tizimida esa- tadbirkor xo'jaligi, yollanma ishchi, erkin dehqon, hunarmand, savdogar kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, uy xo'jaligi faoliyatining asosiy mahsuloti va tovari muayyan bir tarixiy sharoitlarda uy xo'jaligining o'zida va undan tashqarida u yoki bu ko'rinishda foydalaniluvchi ishchi kuchidir.

Beshinchidan, uy xo'jaligi iste'molchi sifatida o'z ehtiyojlarini qondirishi uchun zaruriy ne'matlar manbaiga ega bo'lishi kerak. An'anaviy iqtisodiyotda bu tovarlar xo'jalikning o'zida yaratilgan va natural shaklda iste'mol qilinganligi bois, bunday xo'jalik boshqalardan alohida mavjud bo'lishi mumkin edi. Bozor iqtisodiyotida esa iste'mol qilinuvchi tovarlarning aksariyat qismi xo'jalikdan tashqarida xarid qilinadi va albatta bunda pul mablag'lari talab etiladi.

Oltinchidan, an'anaviy iqtisodiy tizimda yaxlit tarzda jamiyat iqtisodiyotining negizini tashkil etuvchi va ayni paytda uning tarkibiy qismi sanaluvchi uy xo'jaliklari asrlar davomida turlicha shart-sharoitlarda shakllangan tartib-qoidalar, urf-odatlar va insonlarni hayot tarzi asosida tartibga solib kelingan.

Bunda har bir xo‘jalik, asosan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayangani holda, o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga intilganlar.

Uy xo‘jaliklarini tadqiq qilishning murakkabligi shundaki, uning faoliyat ko‘rsatishi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy va institutsional xulq omillari majmuiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shuning uchun ham, uy xo‘jaligini tadqiq etishda boshqa iqtisodiy subyektlarda qo‘llaniluvchi iqtisodiy instrument va kategoriyalar o‘zining samarali natijasini bermaydi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanida iqtisodiy kategoriya sifatida “uy xo‘jaligi”ning umum qabul qilingan ta’rifi mavjud emas. Uy xo‘jaliklari borasida keltirilgan ta’rif va tushunchalarning o‘ziga xosligi shundan iboratki, mazkur tushuncha bizga g‘arb iqtisodiy adabiyotlaridan⁸² kirib kelgan. Shuning uchun istiqomat qilish, mulkchilik, umumiy daromad, uy xo‘jaligi a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, shu jumladan, jinslar nisbati, qarindosh-urug‘chilik munosabatlarning ijtimoiy maqomi kabi tushunchalar mohiyatini anglab etishda ma’lum bir qiyinchiliklar mavjud. Shu munosabat bilan uning mohiyatiga oydinlik kiritish borasida mavjud bo‘lgan qarashlarning ba’zi birlarini ko‘rib chiqamiz. Masalan, milliy hisoblar tizimida uy xo‘jaligiga birgalikda istiqomat qiluvchi, o‘z daromadlari va boyliklarini to‘lig‘icha yoki qisman birlashtiruvchi, ma’lum bir tovar va xizmatlarni, asosan uy-joy va oziq-ovqat mahsulotlarini birga iste’mol qiladigan “insonlarning uncha katta bo‘lmagan kichik guruhi deb baho berilgan. Uy xo‘jaligi bir yoki bir-necha kishidan tashkil topgan bo‘lib, uy-joy va daromaddan o‘zaro hamjihatlikda foydalanish va xarajatlarni birgalikda amalga oshirish ma’lum insonlar guruhini yagona bir uy xo‘jaligi sifatida tan olish uchun yetarli hisoblanadi”⁸³ – deb, ta’rif beriladi.

“Uy xo‘jaligi” kategoriyasiga berilgan ta’rifdan uning ikki jihatiga urg‘u berilganligini ko‘rish mumkin. Birinchidan, o‘z daromad va boyliklarini qisman yoki to‘laligicha birlashtiruvchi insonlarning uncha katta bo‘lmagan kichik guruhi,

⁸² Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Эксмо, 2016 - С. 91.

⁸³ Национальные счета: практический вводный курс. Организация Объединенных Наций. Нью-Йорк, 2006 г. — С.91

ikkinchidan, uy xo‘jaligi a‘zolarining ma‘lum bir tovar va xizmatlarni, asosan uy-joy, oziq-ovqat mahsulotlarini jamoaviy tarzda iste‘mol qilishlarini alohida qayd etuvchi – iste‘mol jihati ajratib ko‘rsatiladi.

Bugungi kunda uy xo‘jaliklari ishlab chiqarish-xo‘jalik aloqalarining faol ishtirokchisi hisoblanadi, ya‘ni, uning a‘zolari nafaqat uy xo‘jaligining o‘zida iste‘mol qilinuvchi, shu bilan bir qatorda iste‘moldan ortiqcha qismini bozorda sotish maqsadida tashkil etiluvchi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadilar. Shu sababli uy xo‘jaliklarining ishlab chiqarish funksiyasi o‘ta muhim bo‘lmasada, har holda katta ahamiyat kasb etadi. Uy xo‘jaligi kategoriya-sini aniqlashtirishda uni albatta hisobga olish zarur.

K. Makkonel va S. Bryular uy xo‘jaligini iqtisodiyotni resurslar bilan ta‘minlovchi va mazkur resurslar hisobiga olingan pul daromadlarini insonning moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi tovar va xizmatlar sotib olish uchun sarflovchi, umumiy byudjet va yashash joyiga ega bo‘lgan bir yoki bir necha shaxslardan iborat bo‘lgan xo‘jalik birligi sifatida talqin qiladilar. Uy xo‘jaligi tushunchasi ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan va band bo‘lmagan shaxslarni, ishlab chiqarish vositalari, yer, yirik va mayda kapital egalari, yollanma ishchilar va barcha iste‘molchilarni o‘z ichiga qamrab oladi⁸⁴. Uy xo‘jaligi borasida keltirilgan ushbu ta‘rifning quyidagi jihatlariga e‘tibor qaratish talab etiladi:

- birinchidan, uy xo‘jaligi umumiy tashkil etuvchilari bilan birlashgan yagona byudjet va umumiy yashash joyiga ega bo‘lgan umumdavlat xo‘jalik tizimining agenti hisoblanadi;


- ikkinchidan, uy xo‘jaligi - resurslar ta‘minotchisi (ishlab chiqaruvchi) va ayni vaqtda tovar va xizmatlarning iste‘molchisi, ya‘ni ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining faol ishtirokchisidir;

- uchinchidan, uy xo‘jaligi-oddiy iste‘molchi, yollanma ishchi yoki yer, mehnat, kapital kabi resurslarning katta yoki kichik mulkdori bo‘lgan, insonlardir;

- to‘rtinchidan, uy xo‘jaligiga nafaqat ijtimoiy takror ishlab chiqarish

⁸⁴ Макконел К.Р., Брю С.П. Экономикс: Принципы, проблемы и политика/ в 2х томах-М.:Инфра-М, 2003.-С.386.

jarayonida band bo‘lganlarni, balki, unda band bo‘lmaganlarni ham o‘z ichiga oladi.



10.2-rasm. Uy xo‘jaligi iqtisodiy subyekt sifatida

Iqtisodiy subyekt sifatida uy xo‘jaliklarini tadqiq etish uning obyektlari, subyektlari va iqtisodiy aloqalari doirasini aniqlashtirib olishni talab etadi (10.2–rasm). Uy xo‘jaliklari eng birinchi navbatda, mehnat, moliyaviy, axborot va shu kabi resurslarga egalik qiluvchi individlar o‘rtasidagi aloqalarni aks ettiradi. Mazkur resurslar alohida individlar va uy xo‘jaliklari tomonidan eng avvalo, o‘zlarining hayotiy ehtiyojlarini ta‘min etishda foydalanilishi bilan bir qatorda, inson kapitalining kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishini ta‘minlash maqsadida iqtisodiyotning boshqa subyektlari o‘rtasida ayirboshlash obyekti sifatida ham xizmat qiladi.

Uy xo‘jaligining subyektlari bo‘lib, uning ishtirokchilari hisoblanadi. Bunday ishtirokchilar qarindosh–urug‘chilik rishtalari va shu kabi o‘zaro yaqin-

lashtiruvchi munosabatlar (o'rtoqlik, o'zaro yordam ko'rsatish) bilan bog'langan shaxslardir. Uy xo'jaligining amalda mavjud bo'lishi (qarindosh –urug'chilik va o'zaro yaqinlik munosabatlarida bo'lgan oilalardan farqli ravishda) birgalikda xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi, resurslarni taqsimlash, ularni iste'mol qilish borasida hamjihatlikda qarorlar qabul qilinishini ko'zda tutadi.

Uy xo'jaliklarining obyektlari bo'lib, turli ishlab chiqarish omillari (resurslar) hisoblanadi.


Uy xo'jaliklarining resurslariga: moddiy (kapital, yer, moddiy ashyolar, ko'chmas mulk), mehnat (inson kapitali, intellektual qobiliyat va tadbirkorlik layoqati), moliyaviy, axborot, ijtimoiy va shuningdek o'ziga xos maxsus (farzand ko'rish va uni parvarishlash, vaqt byudjeti, liderlik sifatlari) kiradi. Uy xo'jaligi subyektlariga uning o'zida va xuddi shuningdek, unga nisbatan tashqi iqtisodiy subyektlar – boshqa uy xo'jaliklari, firmalar va davlat o'rtasida resurslarni yaratish, taqsimlash, foydalanish (iste'mol qilish) va ayirboshlash borasidagi faoliyat xosdir. Shunday qilib, uy xo'jaligi - bir yoki bir necha shaxsdan iborat bo'lgan, inson kapitalining kengaytirilgan takror ishlab chiqarishini ta'minlash maqsadida o'z ixtiyorlaridagi resurslarini ayirboshlash yuzasidan boshqa iqtisodiy subyektlar bilan o'zaro aloqalarga kirishuvchi iqtisodiy subyektdir.

Uy xo'jaliklariga rasmiy tashkilotlar (masalan, firmalar)ga xos bo'lmagan afzallik va kamchiliklar xosdir (10.3-rasm).

Uy xo'jaligi subyektlari o'rtasida mavjud barcha resurslardan foydalanish yuzasidan o'zaro munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Moddiy resurslardan foydalanish borasidagi o'zaro munosabatlarda uy xo'jaligi manfaatlaridan kelib chiqib, mazkur resurslardan qay yo'sinda unumli foydalanish va samaradorlikni yanada oshirish yo'llarini izlab topish muhim hisoblanadi.

Mehnat resurslari borasida uy xo'jaligi kimning mehnat resursi (salohiyati) mehnat bozorida likvid ekanligini, foydani maksimallashtirish nuqtai nazaridan kim o'z mehnatini davlat yoki firmalarga taklif etishi, kim o'z vaqtini uy yumushlarini bajarish va bola tarbiyasiga ajratishini aniqlashtirib olishi zarur. Uy

xo‘jaligi a‘zolarining aqliy salohiyati ularga iqtisodiy qarorlar qabul qilish borasida turli tuman axborotlarni tanlab olish va tahlil qilish imkonini beradi. Qabul qilinayotgan qarorlarning sifatiga ta’lim darajasi, ishonchli axborot manbalarining mavjudligi va bunday axborotlarni qayta ishlash borasida yetarlicha ko‘nikmalarning mavjudligi ta’sir ko‘rsatadi.



10.3-rasm. Uy xo‘jaligining afzallik va kamchiliklari

Moliyaviy resurslar iste’mol va jamg‘arish funktsiyalariga bog‘liq sanaladi, shu bois ham uy xo‘jaliklari uchun mavjud vaziyat yoki strategik maqsadlardan kelib chiqqan holda, u yoki bu ehtiyojlar uchun yo‘naltirilayotgan pul mablag‘larining maqbul nisbatlarini aniqlashtirish muhim hisoblanadi. Jamg‘arish

nuqtai-nazaridan uy xo'jaligining kredit siyosati bo'yicha qarorlar qabul qilishi kerak.

Axborot resurslariga yillar davomida to'plangan va uning iqtisodiy xulqining asosiy jihatlarini belgilab beruvchi uy xo'jaligi faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oluvchi qat'iy shakllangan tajriba va ko'nikmalarni kiritamiz. Uy xo'jaliklari bu hayotiy tajribadan foydalangan holda, o'zlarini turli tahlikali qarorlar va vaziyatlardan himoya qiluvchi xulqiy strategiyani ishlab chiqadi. Jamiyatda globalizatsiya jarayonlari natijasida yuz bergan turli ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar davrini muvaffaqiyatli tarzda o'z boshidan o'tkazgan uy xo'jaliklari shubhasiz katta ko'lamdagi axborot resurslariga hayotiy tajribaga ega bo'ladilar.

Uy xo'jaliklarining ijtimoiy resurslariga ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va ularni rivojlantirish layoqati, uning a'zolarining siyosiy va boshqa tashkilotlarda ishtirok etishlari bilan bog'liq ijtimoiy maqomini kiritishimiz mantiqan o'rinli bo'ladi. Uy xo'jaligida inson kapitali, axborot va ijtimoiy resurslarining umumiy-ligini uning barcha a'zolari tomonidan, istiqbolda esa – farzandlarining uy xo'jaligidagi faoliyatining asosi sifatida foydalaniluvchi moslashuvchan resurslar deb, atashimiz mumkin. O'ziga xos resurslarning mavjudligi uy xo'jaligi, uning har bir ishtirokchisining vazifalarini tabaqalashtirish imkonini bergani holda, uy xo'jaligida ularning maqomini ham belgilab beradi.

Amalga oshirilgan tahlillar asosida iqtisodiy kategoriya sifatida uy xo'jaligi mol – mulkdan birgalikda foydalanish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish, o'z hayotiy faoliyatining shart-sharoitlarini va unda inson kapitalini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishini ta'min etish uchun boshqa iqtisodiy subyektlar (firmalar, davlat) bilan mavjud resurslarni ayirboshlash yuzasidan o'zaro aloqalarga kiritishuvchi, ko'p funktsional, iqtisodiy jihatdan alohidalashgan va ommalashgan iqtisodiy subyektdir deb baholash mumkin.

An'anaviy jamiyatlarda uy xo'jaliklarining faoliyati ijtimoiy me'yorlar va qoidalarga bog'liq bo'lsa, bozor iqtisodiyotida – ularning faoliyati iqtisodiy

qonunlar va ijtimoiy – iqtisodiy institutlarning hatti –harakatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

10.2. Takror ishlab chiqarish jarayonida uy xo‘jaliklarning funktsional vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari

Bozor iqtisodiyotida jami iqtisodiy subyektlar orasida eng ko‘p ommalashgani bu-uy xo‘jaliklari hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarining rivojlanganligi ko‘p jihatdan uy xo‘jaliklarining o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarning qanchalik darajada samarali bajarishlariga bog‘liqdir.

Uy xo‘jaligining iqtisodiy mazmunini tahlil etishda, uning ikki jihati: xo‘jalik yuritish turi va takror ishlab chiqarish tuzilmasi sifatida qarab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xo‘jalik yuritish turi sifatida– unga yuklatilgan asosiy vazifa uy xo‘jaligi a‘zolarining ehtiyojlarini qondirishni maqsad qilib olgan iqtisodiy munosabat va jarayonlarning mustaqil ishtirokchisidir. Takror ishlab chiqarish tuzilmasi sifatida uy xo‘jaligi iqtisodiyotda iqtisodiy resurslar, birinchi navbatda inson kapitalini takror ishlab chiqarish jarayonning uzluksizligini ifoda etadi. Mazkur nuqtai nazar asosida tahlil etilganda uy xo‘jaligi o‘ziga xos takror ishlab chiqarish usulini va yaxlit holda uy xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar tizimining qayta takror hosil bo‘lish mexanizmini ifoda etadi.

Uy xo‘jaliklarining barcha funktsiyalari u yoki bu darajada bir – biri bilan bog‘liq va ayni paytda ular bir-birini taqozo qiladi. Bunda uy xo‘jaliklarining funktsiyalari o‘zining yo‘nalishiga bog‘liq holda, ikki: uy xo‘jaliklarining ichki ehtiyojlariga va tashqi jihatlarga, jamiyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Uy xo‘jaliklari bajaradigan funktsiyalarni mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy funktsiyalarga bo‘lish maqsadga muvofiq. Ular bajaradigan mikroiqtisodiy funktsiyalarga iste‘mol, jamg‘arish, investitsiya va shuningdek, mehnat va mehnatsiz ishlab chiqarish funktsiyalari mansub bo‘lsa, makroiqtisodiy funktsiyalariga pirovard iste‘mol, kapital jamg‘arish va milliy ishlab chiqarishga hissa qo‘shish kabilarni kiritamiz (10.4-rasm).



10.4-rasm. Uy xo'jaliklarining funktsiyalari tizimi

Uy xo'jaligi doirasida eng muhim iqtisodiy resurslardan biri – ishchi kuchining takror ishlab chiqarish jarayoni amalga oshuvchi yagona iqtisodiy subyektdir. Aynan uy xo'jaliklari doirasida inson kapitalining shakllanishi va jamg'arilishi amalga oshadi. Uy xo'jaliklarining takror ishlab chiqarish funktsiyasi tabiiy ishlab chiqarish (farzand ko'rish va parvarishlash) va inson kapitalini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Bu kapitalning yaratilishini, dastlabki kapital jamg'arish, deb qarash mumkin va uning asosiy xarajatlari uy xo'jaliklari zimmasiga tushadi.

Dastlabki jamg'arishdagi kapital – yaratilgan, ishchi kuchida gavdalangan kapital bo'lib, uni mehnat resurslari, ya'ni mehnat yoshiga etganlarning o'sishini tavsiflaydi. Dastlabki kapitalning shakllanishi bolalarni tug'ilgach, parvarishlanishi, ta'lim-tarbiya berilib, voyaga yetkazilishi davomidagi xarajatlar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bu xarajatlar ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlarning xarajatlariidan iborat. Biroq, ularning tarkibida ota-onalarning xarajatlari salmoqli ulushga ega.

Inson kapitalining dastlabki jamg'arilishida faqat uy xo'jaliklar emas, balki davlat ham ishtirok etadi, ya'ni u bolalarga o'z hisobidan bepul ta'lim-tarbiya

beradi va tibbiyot xizmatlarini ko'rsatadi. Bu xizmatlar xarajati bolalarga tatbiqan alohida hisoblanmaydi, lekin bolalarni ulardan bahra olishi aniq.



10.5-rasm. Uy xo'jaliklarining takror ishlab chiqarish bilan bog'liq funktsiyalari

Shuni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining ta'lim xarajatlari YaIMning 10-12 %ni tashkil etmoqda.

Uy xo'jaliklarining tabiiy takror ishlab chiqarish (reproduktiv funktsiya), farzand tarbiyalash va ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish (ijtimoiylashtirish funktsiyasi), faoliyat ko'rsatayotgan ishchi kuchining ma'naviy va jismoniy jihatdan takror ishlab chiqarilishi (oilalar boqish, rekreatsion funktsiya), uy xo'jaligining mehnatga layoqatsiz a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlash va ruhiy qo'llab-quvvatlash (patronaj funktsiyasi), yuqorida sanab o'tilgan funktsiyalarning amalda to'liq bajarilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish (o'zini-o'zi ta'minlash funktsiyasi) kabilarni o'z ichiga oluvchi takror ishlab chiqarish

funktsiyasini tashkil etadi. Uy xo'jaligining barcha funktsiyalari u yoki bu darajada takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan va ular bilan bog'liq funktsiyalari 10.5-rasmda keltirilgan.

Uy xo'jaligining yana bir iqtisodiy funktsiyasi – iste'mol funktsiyasi hisoblanadi. Dj.M. Keynsning fikricha, iste'mol funktsiyasi har qanday xo'jalik faoliyatining yagona maqsadi hisoblanadi⁸⁵. Uy xo'jaliklari real faoliyat ko'rsatuvchi iqtisodiyotning kichik yacheykasi bo'lib, uning iqtisodiy xulqi determinantlari bo'lgan – daromad, ehtiyojlar, manfaatlar va davlat tomonidan tartibga solish chora –tadbirlari bir – biri bilan o'zaro aloqaga kirishadi.

Jamiyatning iqtisodiy bo'g'ini sifatida uy xo'jaliklari o'zlarining byudjetiga, asosiy va aylanma fondlariga ega bo'ladilar, ma'lum bir sarf - xarajatlarni amalga oshirish evaziga ma'lum bir samara (foйда) oladilar. Bunda uy xo'jaliklari bevosita uning naflilik funktsiyasiga kiruvchi asosiy iste'mol ne'matlarini ishlab chiqaradilar. Bu bir paytning o'zida ishlab chiqarish va iste'mol funktsiyalarini amalga oshirish jarayoni hisoblanadi. Uy xo'jaliklari doirasida xarid qilingan, ishlab chiqarilgan yoki boshqa usullar bilan olingan resurs va tovarlardan foydalanilgan holda, oraliq va yakuniy bazaviy ne'matlarni ishlab chiqarish amalga oshadi. Uy xo'jaliklarining iste'mol xulqi ularning iste'mol salohiyatidan kelib chiqadi. Iste'mol salohiyatining shakllanishi uy xo'jaligi iste'mol sohasidagi xulqini yuzaga chiqaradi, uning moddiy asoslarini yaratadi, iste'mol tarkibi va tavsifini belgilab beradi. Uy xo'jaliklarining iste'mol salohiyati ehtiyojlar tarkibi va hajmi, tovar va xizmatlarga narx darajasi va nisbati, tovar va xizmatlarni tanlash va ularni sotib olish imkoniyatlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi davlat ijtimoiy siyosatga ko'p jihatdan bog'liqdir. Uy xo'jaliklari iste'mol salohiyatining asosiy indikatori bo'lib, ularning real daromadlari hisoblansa, iste'mol salohiyati amalga oshuvchi iste'mol xarajatlari – iste'mol xulqini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Uy xo'jaliklarining pul daromadlari uy xo'jaliklari iste'mol salohiyatining resurs qismini to'laqonli tarzda aks ettira olmaydi.

⁸⁵ Кейнс Дж. М. Избранные произведения. Пер. с англ., предисл., коммент., сост. А.Г. Худокормов. М.: Экономика. - 1993. - 543 с.

Ularning yakuniy iste'molining tarkibi o'z mehnati asosida va natural ko'rinishda olingan mahsulot va xizmatlarni hisobga olgan holda shakllanadi.

Uy xo'jaligining daromadlari darajasi uning iste'molchi sifatidagi xulqiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Biroq, daromad darajasi bilan iste'mol talablari o'rtasida teskari bog'liqlik ham majud. Unga ko'ra erishilgan iste'mol darajasi resurslarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan uy xo'jaligining iqtisodiy xulqi qoidalariga hal qiluvchi tarzda ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, uning taraqqiyotini ta'minlashda foydalaniluvchi ta'sir vositalari va usullari orqali davlat uy xo'jaliklarining iste'mol borasidagi xulqiga uzil – kesil ta'sir ko'rsatadi. Iste'molchi xulqining huquqiy asoslarini yaratish orqali davlat iste'molchilar huquqlarining to'g'ridan – to'g'ri himoyachisi, yuqori o'sish sur'atlarini va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, antimonopol va soliq siyosatini amalga oshirish, bandlikka ko'maklashish, narxlarni tartibga solish, ijtimoiy siyosat orqali bilvosita iste'molchi manfaatlarini himoya qiladi.

Uy xo'jaliklarining iste'mol borasidagi xulqi ko'p jihatdan uning iqtisodiy faoliyatiga:

- ishlab chiqarish – mehnat va tadbirkorlik;
- mulk oldi –sotdisi;
- tovar va xizmatlarning bozor va nobozor ayirboshlanishi evaziga olinuvchi daromadlar (pul daromadlari va pulsiz daromadlar) darajasiga bog'liqdir⁸⁶.

Uy xo'jaligi bozor tavsifiga ega bo'lmagan ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanmasligi ham mumkin. Bunday holatlarda u boshqa institutsional birliklardan mehnatga haq to'lash yoki transfertlar ko'rinishida daromad oladi xolos. Bunday daromadlar uy xo'jaliklari tomonidan mehnat resursini sotish evaziga olinadi. Uy xo'jaliklari bevosita bozor tavsifiga ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarsa, u holda uning daromadlari o'zlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni boshqa institutsional birliklarga sotish evaziga ham

⁸⁶ Рынок труда и доходы населения./ под ред. Н.А. Волгина. <https://studfile.net/preview/1099606/>

shakllanadi. Shuningdek, uy xo'jaliklari o'z shaxsiy iste'mollari uchun nobozor tavsifidagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishlari ham mumkin. Ushbu holatda natural ko'rinishdagi daromadlar shakllanadi. Bundan tashqari, uy xo'jaliklari daromadlarining ma'lum bir qismi transfertlar hisobiga shakllanadi.

Iqtisodiy xulqqa ega bo'lgan o'ziga xos subyekt sifatida uy xo'jalik-larining oldida byudjetni iste'mol va jamg'arish o'rtasida taqsimlash vazifasi turadi. Iste'molga istak uyg'otuvchi omillar sifatida hayotiy muhim ehtiyojlarni qondirish xizmat qilsa, jamg'arishga motiv bo'lib - uzoq muddatli foydalaniladigan uy-ro'zg'or buyumlari va uy-joy xarid qilish, qarilikni ta'minlash va shu kabilar hisoblanadi. Jamg'arishning asosiy motivi bo'lib kelajakda qoldiriladigan iste'mol xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari yuqori turmush darajasiga erishish asnosida o'z jamg'armalari bilan bozorning investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Uy xo'jaligi resurslarini iqtisodiyotga jalb qilish va ularning investitsion faolligini oshirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning garovi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy o'sish va mamlakat uy xo'jaliklari iqtisodiy farovonligi bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqdir. Uy xo'jaliklari real daromadlarining o'sishi bilan ularning ixtiyorida samarali foydalanish mumkin bo'lgan ortiqcha pul mablag'lari paydo bo'ladi. Uy xo'jaliklarining jamg'armalari aholi turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uy xo'jaliklari jamg'arish jarayonlarining asosiy ishtirokchisi sifatida ehtiyojlarni shakllantiradiki, ularni qondirish uchun ishlab chiqarishni rivojlantirishni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklarining jamg'arish va investitsion funksiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Uy xo'jaliklarining jamg'armalari iqtisodiyotda investitsion bazasining asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.⁸⁷ Aholi jamg'armalari haqiqatda olingan daromad bilan uning ishlatilishi o'rtasidagi farq natijasida shakllanadi. Uy xo'jaliklarining jamg'armalari bir tomondan ularning turmush darajasini ifoda etuvchi muhim ko'rsatkichlardan biri, boshqa bir

⁸⁷ Батракова А.Г. Сбережения домашних хозяйств: сущность, группировки и роль в современной экономики //Деньги и кредит.-2006.-№11. -с.66.

tomondan esa ular investitsiyalash jarayonlarining muhim manbai hisoblanib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida katta o‘rin tutadi.

Uy xo‘jaliklari jamg‘arish hosil qilishlari uchun, birinchidan, daromad yetarli bo‘lishi, ya’ni joriy iste’mol sarflaridan ortib qolishi, ikkinchidan, jamg‘arish uchun yetarli motivlar bo‘lishi zarur. Jamg‘arish uchun uning obyektiv imkoniyatlaridan tashqari, unga subyektiv intilish ham bo‘lishi kerak. Intilish bo‘lmaganda jamg‘arilishi mumkin bo‘lgan daromad ortiqcha iste’molga sarflanishi mumkin. Intilish jamg‘arish motivlarini keltirib chiqaradi.

Dj. M. Keynes quyidagi jamg‘arish motivlarini ko‘rsatib o‘tgan: har ehtimolga qarshi zahira hosil etish, o‘zi haqida g‘amxo‘rlik qilish, qarilikni ta’minlash, foiz tarzida daromad ko‘rish, kelajak xarajatlarini oshirish, mustaqillik va o‘z bilganicha qarorlarga kelish, pul bilan o‘zgarish qilish imkoniga ega bo‘lish, meros qoldirish, xasislikdan qoniqish⁸⁸. Jamg‘arishda mentallik, ya’ni milliy xususiyat ham bor. Bu O‘zbekiston sharoitida marosimlar o‘tkazish, boylikni to‘plash uchun pul jamg‘arish (elga osh berish udumi bor) meros uchun jamg‘arishning kuchliligi kabi xususiy motivlar bo‘lib, ular uy xo‘jaliklarida kuzatiladi. Ayrim uy xo‘jaliklarining motivlariga turli kombinatsiyasi xos bo‘ladi. Bu ularning daromadi va nimani afzal ko‘rishiga bog‘liq.

Tartibli va tartibsiz jamg‘arish bor. Birinchisi – moliya institutlari ishtirokida jamg‘arish, ikkinchisi – uy xo‘jaligining o‘z uyidagi jamg‘arish. Aholiga ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlar nafliligining ortishi natijasida tashkil topgan tartibli jamg‘arish kuchayib, tartibsiz jamg‘arish qisqaradi.

Uy xo‘jaliklari jamg‘armasi ikkiyoqlama ahamiyatga ega. Bu jamg‘arma mikrodarajada ularning iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi, makrodarajada iqtisodiy o‘rishga xizmat qiluvchi investitsiyalarga manba bo‘ladi. Investitsiyalar uy xo‘jaligining o‘ziga tegishli ishlab chiqarishga yuborilganda u erdagi ishlab chiqarish fondlari ko‘payadi, ammo sig‘imi g‘oyat kichik bo‘lganidan fondlarning o‘rishi sezilarli bo‘lmaydi. Investitsiyalar asosan yakka tartibdagi mehnat faoliyati

⁸⁸ Кейнс Дж. М. Общая теория процента и денег. – М., 2009. С. 127.

sektorida yuz beradi. Shu sababli unda ishlab chiqarish fondlarining yangilanishi, binobarin, o'sishi kuzatiladi. Natijada yakka tartibdagi mehnat faoliyatida yaratilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar ko'payadi. Bu jarayon YaIMning o'sishiga katta hissa qo'shadi.

Uy xo'jaliklarida investitsiyalarning ahamiyati oshib borayotganidan kelib chiqib, jamg'arish harakatini kuchaytirishlari zarur. Buning uchun quyidagilar talab qilinadi:


1. Jamg'arish salohiyati yuqori bo'lgan uy xo'jaliklarining guruhlarida jamg'arishini rag'batlantirish;

2. Jamg'arish miqyosiga qarab ularning manbaidan olinadigan soliqlarni qisqartirish;

3. Banklardagi jamg'armalarni ko'paytirish uchun turli jamg'arma turlarini ko'paytirish va ulardan foydalanishni qulaylashtirish;

4. Chet el valyutasi hisob varag'idagi jamg'armalar uchun beriladigan foiz stavkalarini so'mdagi omonat uchun belgilangan stavkalarga yaqinlashtirish.

Ushbu choralar aholi jamg'arishini faollashtirib, uning milliy iqtisodiyot rivojiga qo'shadigan hissasini oshiradi.



10.6-rasm. Uy xo'jaligi jamg'armalarning ko'rinishlari

Uy xo'jaliklarining makroiqtisodiyotdagi o'rni jamg'arish bilan cheklanmaydi, balki inson kapitalini takroran hosil etishni ham o'z ichiga oladi. Pul mablag'laridan foydalanish strategiyalariga ko'ra, jamg'armalarning quyidagi ko'rinishlari bilan farqlanadi (10.6-rasm).

Uy xo'jaliklari ko'pincha bo'sh pul mablag'laridan foydalanish borasida aralash strategiyadan foydalanishni ma'qul ko'radilar. Uy xo'jaliklarining jamg'armalarini ixtiyoriy va majburiy turlarga ajratishimiz mumkin. Ixtiyoriy jamg'armalar uy xo'jaligi a'zolarining kelgusidagi o'z iste'mollarini qondirish maqsadida, ongli tarzda joriy iste'mollaridan voz kechishlarini anglatadi. Majburiy jamg'armalar mamlakat iqtisodiyotidagi takror ishlab chiqarish jarayonlarining izdan chiqishi bilan bog'liq bo'lib, ular inflyatsiya sharoitida vujudga keladi.

Uy xo'jaliklarining jamg'armalari moliyaviy aktivlarning bir qismi bo'lgani holda, ular uchta asosiy: investitsion, takror ishlab chiqarish va kreditlash funksiyalarini bajaradi. Jamg'armalarning investitsion funksiyasi bu uning investitsiyalarning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Uyushgan jamg'armalar investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qilishi bilan bir qatorda, jamg'ar-

malarning o'sishi korxonalarning investitsion imkoniyatlarini pasaytirgani holda, samarali talabning qisqarishini keltirib chiqaradi.

Uy xo'jaliklarining investitsion xulqi ko'p jihatdan, qimmatli qog'ozlar borasida davlatning soliq siyosatiga bog'liq hisoblanadi. Shuni qayd etish lozimki, bu boradagi amaldagi qonunchilik investitsiyalashga nisbatan iste'molni ko'proq rag'batlantirgani holda, uy xo'jaliklarining investitsion xulqini rag'batlantirish tizimiga ega emas. Jamg'armalarning kreditlash funksiyasi bu uy xo'jaliklari tovar – pul aylanmasi jarayonidan o'z daromadlarining bir qismini davlat tomonidan chiqarilgan qiymat belgilarini xarid qilishga yo'naltirish orqali uyushmagan jamg'armalarini shakllantiradilar va davlatni shu yo'l bilan kreditlaydilar. Agar uy xo'jaliklarining jamg'armalari uyushgan shaklga ega bo'lsa, bunday holatlarda ular bank va ishlab chiqarish tuzilmalarini kreditlaydilar.

Investitsiyalashning ichki manbalarini jalb etilishini rag'batlantirish borasida tegishli shart –sharoitlar yaratish orqali aholi investitsion faolligini oshirish, davlatning eng muhim iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Uy xo'jaliklarining investitsion faolligini oshirish uchun barcha ichki jamg'armalarning investitsiyalarga transformatsiyalanishini ta'min etuvchi mexanizmni barpo etishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish talab etiladi. Bunday siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi uchta asosiy tashkil etuvchilarining bo'lishi talab etiladi:

- jamg'arish imkonini beradigan daromadlar darajasi;
- investorga va iqtisodiyotga foyda keltiruvchi investitsion muhitning mavjudligi;
- uy xo'jaliklarining o'z ixtiyorlaridagi mavjud vaqtincha bo'sh pul mablag'larini biror – bir moliyaviy institut yoki davlatga ishonib topshirishga moyilligi.

Uy xo'jaliklarining iste'mol va moliyaviy xulqi juda murakkab va ko'p omilli hodisa hisoblanadi. Xarid qilish, jamg'arishga (investitsiyalash) tayyorlik va uni amalga oshirish imkoniyatlariga iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va shu kabi

ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Murakkab iqtisodiy vaziyatda ko'pchilik uy xo'jaliklari bozor uchun an'anaviy bo'lgan – ayirboshlash va taqsimlash mexanizmlari doirasida kun ko'rishlari qiyin bo'lib qoladi. Doimo bir – birlariga mahsulot va mehnat bilan ko'mak berib kelgan uy xo'jaliklari murakkab iqtisodiy vaziyatdan chiqishning muhim manbai bo'lgan tizimini tashkil etadilar. Iste'mol qilish bilan bog'liq motivlar bunday o'zaro munosabatlar tizimining amal qilishini belgilab beradi.

Avlodlar hamjihatligi, qarindosh –urug'chilik aloqalari, do'stlik rishtalari eng avvalo, iste'molchi xulqining namoyon bo'lishini taqozo etuvchi jamiyatni vujudga keltiradi. Tovar ko'rinishini olmagan mahsulot va xizmatlarni ayirboshlash mazkur hamjamiyatga barqarorlik va hayotiylik baxsh etadi va uning murakkab iqtisodiy sharoitdan chiqishga imkon beradi. Uy xo'jaliklari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning mazkur ko'rinishida iqtisodiy o'zaro yordam ko'rsatish, mavjud vosita va mablag'larning kooperatsiyasini amalga oshirish, norasmiy kreditlash kabilardan keng foydalaniladi. Biroq, ushbu o'zaro munosabatlar faqatgina, iqtisodiy tavsiflar bilan cheklanib qolmaydi, balki axloqiy qoidalar, diniy qadriyatlarga asoslanuvchi norasmiy majburiyatlar bilan belgilanadi.

Ayniqsa ota-onalar va bolalar o'rtasida nobozor tavsifga ega bo'lgan ayirboshlash munosabatlari faol kechadi. Uy xo'jaliklari tomonidan barpo etilgan o'zaro yordam ko'rsatishga asoslangan tarmoqlar ishtirokchilar foydasini maksimallashtirish vositasi hisoblanmaydi. Bu tarmoq tezkor o'zaro yordam ko'rsatish tizimi ishtirokchilarining hayotiy imkoniyatlarini tenglashtirish mexanizmidir.

Demak, uy xo'jaliklarining investitsion – jamg'arish funksiyasi murakkab iqtisodiy vaziyatdan chiqishning asosi hisoblanadi, uy xo'jaliklarining jamg'armalari esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy manbaini ifoda etadi. Iste'mol funksiyasini ro'yobga chiqara borib, uy xo'jaliklari jamiyat talabini shakllantiradilar. Mazkur institut doirasida real ehtiyojlar va amaldagi iste'mol

shakllanadi. Bugungi kunda uy xo‘jaliklari o‘zida daromadlarni qayta taqsimlash va talabni shakllantirishning asosiy omilini ifoda etadi.

Bozor iqtisodiyoti tizimida uy xo‘jaliklarining o‘rni iqtisodiy adabiyotlarda ma’lum bo‘lgan resurslar, mahsulot va daromadlar doiraviy aylanish modeli yordamida tadqiq qilinishi mumkin. Ma’lum bir cheklashlar bilan bo‘lsada, mazkur model bizga bozor iqtisodiyotining asosiy subyektlarining o‘zaro aloqalari borasida ma’lum bir tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi.

Resurslar, mahsulotlar va daromadlarning doiraviy aylanish modelida “uy xo‘jaligi” sektori muhim o‘rin tutishi ma’lum bo‘lsada, uning mazkur modeldagi o‘rni to‘laligicha o‘z bahosini topmagan. Uy xo‘jaliklari bevosita yoki bilvosita iqtisodiy resurslarga egalik qilib yakuniy hisobda esa mazkur resurslarning asosiy ta’minotchilari bo‘lib hisoblanadilar va bir vaqtning o‘zida iqtisodiyotda asosiy iste’mol xarajatlarini amalga oshiruvchi guruh sifatida ishtirok qiladilar. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor xo‘jaligi sharoitida daromad va xarajatlarning doiraviy aylanish modelining tizimli paradigmasi quyidagi ketma –ketlikda namoyon bo‘ladi: uy xo‘jaligi – korxona – davlat.

Doiraviy aylanish modelida uy xo‘jaliklari resurslarni sotish evaziga olgan daromadlarini joriy iste’mol xarajatlariga va jamg‘armalarga sarflaydilar, ya’ni o‘z iste’mol xarajatlarini ma’lum bir muddatga ortga surgan holda kechiktirilgan talabni amalga oshiradilar. Aholi jamg‘armalari firmalar tomonidan foydalanilishi yoki moliyaviy aktivlar bozoriga yo‘naltirilishi mumkin, biroq, moliya bozorida aholi jamg‘armalarining nechog‘liq ishtirok etishi, aholining moliya – kredit institutlariga ishonchiga bog‘liq. “Shu tariqa, uy xo‘jaliklari firmalar bilan resurslar bozorida taklif tomonidan va mahsulotlar bozorida esa talab tomonidan turib, o‘zaro aloqaga kirishadilar”.

Birinchi ishlab chiqarish bosqichida ular resurslar ishlab chiqarish omillariga aylanib, tovar va xizmatlar yaratiladi. Bu jarayonda uy xo‘jaligi ikki xil yo‘nalishda ishtirok etadi: birinchidan, o‘z resurslarini firmalardagi ishlab chiqarish jarayoniga kiritishadi; ikkinchidan, ularni o‘zlari mustaqil ishlatadilar.

Uy xo'jaliklarining takror ishlab chiqarishning taqsimlash bosqichidagi ishtiroki g'oyat murakkab kechadi, chunki taqsimlashning o'zi ko'p bosqichli bo'lib, unda ko'pchilik subyektlar qatnashadi. Taqsimlash jarayonida uy xo'jaligi yaratilgan mahsulot va xizmatlar bozor qiymatidan o'z ulushini oladiki, bu bozor iqtisodiyotidagi taqsimlash qonuniga binoan yuz beradi. Bu ulush miqdori uy xo'jaliklarining takror ishlab chiqarishdagi ishtiroki darajasiga bog'liq bo'ladi. Taqsimlash jarayonida mahsulot va xizmatlarning bir qismini uy xo'jaliklari olsa, boshqa qismi firmalarga tegadi. Bu qismlar qayta taqsimlanib, ulardan olingan chegirmalar davlat va nodavlat tashkilotlarning ulushiga aylanadi. Taqsimlashdan so'ng keladigan ayirboshlash bosqichida tovar va mahsulotlar pulga ayirboshlanadi, ya'ni bu yerda oldi-sotdi munosabatlari paydo bo'ladi.

Iste'mol bosqichida tovar va xizmatlarning muayyan maqsad yo'lida ishlatilishi, ya'ni sarflab yuborilishi yuz beradi. Bu jarayonda firmalarning ishlab chiqarish iste'moliga nisbatan ehtiyoji qondiriladi, ya'ni ular ilgari sarflangan resurslar o'rnini to'ldiradilar va yangidan qo'shimcha resurslarni ishlab chiqarishga yuboradilar. Uy xo'jaliklarining iste'mol jarayonidagi munosabati boshqa subyektlar bilan emas, balki xo'jalikning o'zida birlashgan iste'molchilar o'rtasida kechadi, ammo iste'mol ishchi kuchini takroran yaratib, firmalarga yetkazib berishga xizmat qiladi. Uy xo'jaligida qisman bo'lsa-da, ishlab chiqarish iste'moli bo'ladi va bu oilaviy ishlab chiqarishdagi resurslarni tiklash va ko'paytirishga qaratiladi.

Har qanday islohotlarning pirovard maqsadi kishilarning kunlik turmush sifatini, oilalarning farovon hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan. Islohotlar natijasi o'laroq iqtisodiy rivojlanish uy xo'jaliklari faolligini ta'minlashi, bu esa bozor mexanizmida o'z aksini topishi zarurligini taqozo qiladi. Buning natijasida uy xo'jaliklari zahirida kishilar ijtimoiy va mehnat faolligining ortishiga, ishlab chiqarishning amaldagi tarkibi va undagi o'zgarishlarga, faoliyat samaradorligiga, resurslar sarfining natijadorligiga bog'liq holda rivojlanishini ta'minlab beradi.

Uy xo'jaliklari faolligining oshishi daromadlarning hosil bo'lishi va o'sib borishining obyektiv asosini tashkil etadi. Buning uchun jamiyatda barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak-ki, natijada to'laqonli bozor mexanizmi-ning amal qilishi ruy beradi.

Metodologik jihatdan qaralganda, uy xo'jaliklari bajarayotgan iqtisodiy va ijtimoiy funktsiyalarning to'laqonli amal qilishi ishlab chiqarish kuchlari holatiga, yaratilgan shart-sharoitlar ko'lamiga, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amal qilishiga, iqtisodiyotning erkinlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuni nazarda tutib uy xo'jaliklari faolligi uslubiy tahlil etilganda, birinchidan uni ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida, ikkinchidan uning ilmiy tuzulishiga qarab alohida kategoriya sifatida, uchinchidan uy xo'jaliklarining faollik darajasi o'zgarib borish xususiyatiga ega sifatida talqin etish talab etiladi. Chunki, iqtisodiyotning umummilliy va insoniy qadriyatlar kabi jihatlari bozor tizimida turli ta'sirlar doirasida o'ziga xos ravishda ifoda etiladi.

Uy xo'jaliklar iqtisodiy salohiyatga bog'liq bo'lsada, ularni o'rganishda ma'lum subyektlar uy xo'jaligini ham nazarda tutish kerak, chunki yalpi milliy uy xo'jaligi miqdoran aniqlansada, uni amalda kimlar o'zlashtirishini bildirmaydi. Shundan kelib chiqqan holda uy xo'jaliklari faoliyat natijasini kimga tegishli bo'lishini inobatga olish talab qilinadi, chunki har qanday tizimda uy xo'jaliklar kimlarningdir mulkiga aylanib, o'zgarib boradi. Bular ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar yoki davlatdan iborat bo'ladi.

Hozirgi davrda uy xo'jaliklarining daromad topishga bo'lgan intilishining yuzaga chiqishi uchun ma'lum rag'bat talab etiladi. Bu rag'bat subyektni tirikchilik ne'matlarini yaratishga undaydi va oxir oqibat faoliyat natijasi daromad ko'rinishida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, subyekt o'z faoliyati natijasidan qanoat hosil etishi uchun iqtisodiy munosabatga kirishi, o'zida mavjud resurslarni ishlab chiqarish omillariga aylantirib, ularni u yoki bu darajada ishlata bilishi talab qilinadi. Bu holat iqtisodiyotning obyektiv qonunlari bilan belgilanadiki, samarali ishlatilgan

omil natija keltirish xususiyatiga ega bo'ladi. Shuni nazarda turib uy xo'jaliklari faoliyat natijasini taqsimot munosabatlari doirasida qarash talab qilinadi.

Uy xo'jaligi faolligiga ta'sir etuvchi, manfaat uyg'otuvchi motivlar mavjud bo'ladi. Uy xo'jaligi a'zolari o'z qobiliyatini ishlatish jarayonida daromad olishi bilan birga hayotdan qoniqish hosil etishi ham muhim hisoblanadi. Hayotdan qoniqish ne'matlardan bahramand bo'lish darajasi insonning individual qarashlari va hayotiy tushunchalaridan kelib chiqib, turlicha baholanadi. Individual qarashlardan kelib chiqib, ayrimlar uchun moddiy jihatdan ko'proq boyishi hayotiy zaruratga aylansa, boshqalar uchun boylik nisbiy ahamiyatga ega bo'ladi. Shunga nisbatan kishilarning iqtisodiy manfaati uy xo'jaligida tashkil topadi. Chunki, iste'molni qondirish uchun resurs sarflash kerak.

Uy xo'jaliklari faoliyat natijasi jamiyatda yaratilgan va yaratilayotgan mahsulot miqdori va uning tarkibiy tuzilishiga bog'liqdir. Endilikda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot (tovar va xizmatlar) iqtisodiyot darajasiga, ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishiga, uy xo'jaliklari faolligi borasidagi iqtisodiy siyosatga va bozor munosabatlarining amal qilishi darajasiga bog'liq bo'lib, faoliyat yo'nalishiga va iqtisodiy faollikka ta'sir etadi.

Uy xo'jaligi faoliyat natijasi pirovardida daromad topishga bo'lgan manfaat bilan belgilanar ekan, bunda ishlab chiqarilgan mahsulotning mazmuniga makroiqtisodiy jihatdan ham e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi. Chunki yaratilgan mahsulot va uning harakati uy xo'jaliklari daromadiga va bunga mos ravishda faollikning vujudga kelishiga turtki beradi. Uy xo'jaliklari faoliyat natijasini pul va natural ko'rinishda mavjud bo'lishini inobatga olsak, ular mahsulot, pulli va bepul xizmatlar, kapital, ish haqi, renta, foiz puli va shunga o'xshash shakllarda mavjud bo'ladi.

10.3. Uy xo'jaliklarining yalpi daromad va xarajatlari bo'yicha tabaqalanishining hozirgi holati


Uy xo'jaliklarining daromadlari ish haqi bilan birga, tadbirkorlik daromadlari, mulk daromadlari (renta, foiz, ijara to'lovlari, dividendlar), davlat

transfert to'lovlari (pensiylalar, stipendiyalar, nafaqalar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi bepul xizmatlar) va boshqa manbalardan olinuvchi daromadlarni qamrab oladi.

Uy xo'jaliklarining joriy pul daromadlari bilan bir qatorda ularning iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi bo'lib, mol-mulk kabi moddiy aktivlar bilan ta'minlanganlik hisoblanadi. Mazkur aktivlar, uy xo'jaliklarining daromadlari bilan iste'mol darajasi o'rtasidagi uzoq muddatli aloqalarni ifodalanganligi, aholining ijtimoiy tabaqalanishi va aholi turmush darajasini ifoda etuvchi muhim indikator ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Murakkab iqtisodiy vaziyatda uy xo'jaliklarining pul ko'rinishiga ega bo'lmagan moddiy aktivlari ularning yangi makroiqtisodiy shart-sharoitlarga moslashishiga imkon beruvchi strategik resurslar hisoblanadi.

Uy xo'jaliklarining umumiy daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tashkil topadi. O'zbekistonda 2019 yilda aholining umumiy daromadlari 344,7 trln. so'mni tashkil qildi va nominal o'sish sur'ati 121,9%ni tashkil etdi. Tahlillarga ko'ra, aholining pul daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning mehnat faoliyatidan va transfertlardan olingan daromadi pasayib borish tendentsiyasiga ega. Yollanma ishchilarning mehnat faoliyatidan olingan daromadi tadqiq etilayotgan davrda 41,5%dan 27,1%gacha, transfertlardan olingan daromadi 28,4%dan 25,3%gacha pasaygan. Bu davrda aksincha aholining mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromad ulushi 25,8%dan 42,0% gacha o'sgan. Mamlakatimizdagi aholi daromadlari tarkibining tahlili shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati va mulkdan olingan daromadlarning ulushi o'sib bormoqda. Tadqiq etilgan davrda aholining umumiy daromadlari tarkibida ularning ulushi 49,8%dan 2019 yilga kelib 59,5%ga o'sdi (10.7-rasm).

Hududlar bo'yicha yollanma ishchilarning daromadi turlicha, masalan Xorazm viloyatida 25,8%dan, Navoiy viloyatida 45,4%gacha o'zgarib turadi. Yollanma ishchilarning daromadining uchdan bir qismi Toshkent shahriga 41,5, Toshkent viloyatiga 21,8% va 9,1% bilan Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.



10.7-rasm. O'zbekiston Respublikasida aholini umumiy daromadlarining tarkibi (foizda)⁸⁹

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning keyingi asosiy manbai- bu mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar bo'lib, ushbu daromadlar ulushiga ko'ra aholi umumiy daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va ularning ulushi 36,7 % ni tashkil etmoqda. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining 0,37% ga o'sishiga olib keladi⁹⁰. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Samarqand (11,1%), Toshkent (11,0%), Andijon (10,2%), va Farg'ona (9,2 %), viloyatlari ulushiga to'g'ri keladi. Kamroq ulushga Jizzax viloyati (3,7%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,2%) hamda Sirdaryo (2,6%) viloyatlari hisoblanadi. Daromadlarni uy xo'jaliklari guruhlariga bo'yicha taqsimlanishi to'g'risidagi to'la ma'lumotlarga biz Jjini koeffitsientidan foydalangan holda ega bo'lamiz. Respublikamizda Jini koeffitsienti 2000 yilda 0,39 dan, 2018 yilga kelib 0,26 gacha pasaydi.

⁸⁹ Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг ушбу йиллар бўйича маълумоти.

⁹⁰ “Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати” йиллик статистик тўплам. 2019 йил Б.278.

O'zbekistonda YaIMning barqaror va yuqori o'sish sur'atlari kuzatilayotgan bir paytda, kambag'allik darajasining yanada yuqori sur'atlar bilan qisqarishini kuzatishimiz mumkin. Agar statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2005 yildan 2019 yilgacha bo'lgan oraliqda respublikamizda real YaIMning o'sishi 3,4 marta ortgan bo'lsa, aholining real daromadlari esa 3,8 barobarga ortdi. Natijada 2019 yilda kambag'allik darajasi turli hisob-kitoblarga ko'ra, 12-15%ni tashkil qildi.⁹¹ Mazkur davrda O'zbekistonda aholi jon boshiga YaIMning bir foizga o'sishi kambag'allik darajasining 0,5 % ga qisqarishiga to'g'ri kelgan (10.1-jadval).

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish qanday darajada aholi turmush darajasi o'sishiga ta'sir etayotganligi to'g'risida to'liq ma'lumotlarni aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM va MD ko'rsatkichlari orqali aniqlashimiz mumkin. Masalan, O'zbekistonda 2019 yilda aholi jon boshiga YaIM ishlab chiqarish 10,3 mln.so'mni tashkil qildi. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilda O'zbekistonda YaIMni aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichi Bangladeshga nisbatan 2,3 barobar, Pokistonga nisbatan 1,4 va Hindistonga nisbatan 1,27 baravar yuqoridir.

10.1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida YaIM va aholining yalpi daromadlarini o'sish dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan foizda)⁹²

Ko'rsatkichlar	2005 y.	2010 y.	2015 y.	2019 y.
YaIM hajmi	107,0	108,4	108,1	105,6
Aholining yalpi daromadlari	125,4	131,4	117,2	121,9
Aholi jon boshiga yalpi daromadlar	125,2	127,9	115,2	119,7
Aholi jon boshiga real yalpi daromadlar	117,7	119,2	109,1	104,5

Ayni vaqtda aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi O'zbekiston Respublikasiga nisbatan Xitoyda 2,3 barobarga, Turkiyada 3,2, barobarga va Rossiya 4,0 barobarga yuqoridir⁹³. Mazkur kuzatishlar mamlakatimiz uchun o'ta

⁹¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси - Тошкент. // Халқ сўзи, 2020 йил 24 январь.

⁹² Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг ушбу йиллар бўйича маълумоти

⁹³ www.cia.gov

muhimdir, zero O‘zbekiston yaqin istiqbolda kambag‘allik darajasini eng past darajagacha tushirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Boshqa mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, YaIMning o‘rish sur‘atlari qancha yuqori bo‘lsa, kambag‘allikning qisqarish sur‘atlari shunchalik yuqori bo‘ladi. Bu o‘rinda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘rishga nisbatan kambag‘allikning egiluvchanlik ko‘rsatkichi nisbatan past degan xulosaga kelishimiz mumkin.

O‘zbekistonda aholining kam ta‘minlanganligi va uni kambag‘al aholi qatlamga tushib qolishiga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatadi:

- demografik omillar (oilada 16 yoshgacha bo‘lgan ko‘p farzandli oilalarning mavjudligi);
- ijtimoiy omillar (ta‘lim darajasi va oila a‘zolarining sog‘ligi);
- iqtisodiy omillar (bandlik, oilaning yalpi daromadi va mehnat migratsiyasi);
- hududiy omillar (shahar yoki qishloqda, rivojlangan yoki kam rivojlangan hududda yashashi).

“Aholi daromadlarining o‘rishi xarajatlar tarkibining yanada mukammalroq bo‘lishiga olib keldi. Xarajatlar tarkibini tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi yillarda aholi daromadlarining o‘rishi bilan bir qatorda xarajatlar tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi barqarorlashib, nooziq-ovqat va xizmatlarga qilinayotgan xarajatlarning salmog‘i ortib bormoqda”. Uy xo‘jaliklarining va uning ijtimoiy guruhlari yalpi xarajatlari – bu turli xo‘jalik subyektlaridan tovarlar va xizmatlarni sotib olish xarajatlari, moliya-kredit tizimiga to‘lovlar, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar mahsulotlarini iste‘mol qilish va ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish, ko‘rilgan zarar, qarzni qoplash va qimmatli qog‘ozlarni sotib olish xarajatlari yig‘indisini tashkil etadi.

Uy xo‘jaliklarining yalpi xarajatlari, uning tarkibi, hajmi va dinamikasi – mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini va aholi turmush darajalarini ifoda etuvchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Yalpi xarajatlarning o‘rini belgilab beruvchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bu ularning YaIMdagi ulushidir.

Daromad o'zgarishiga iste'molchilarning munosabati iste'mol tavsifi daromad darajasiga bog'liq ekanligini E.Engel tomonidan batafsil yoritib berilgan. Jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi daromad darajasiga bog'liq holda uy xo'jaliklarining turli guruhlarida xarajatlaridagi ma'lum bir o'ziga xosliklarni qayd etib o'tamiz. Amalga oshirilgan tahlillarimizga ko'ra, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga xarajatlar darajasi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi daromad darajasiga bog'liqligini ko'rsatmoqda. Yalpi tasarrufdagi daromadni o'sishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan xarajatlarni kamaytiradi biroq sanoat mahsulotlari, xizmatlarga to'lovlar va jamg'armalar oshadi.

Iste'mol uy xo'jaligi a'zolarining ehtiyojlarini qondirish bilan uzviy bog'liq, shuning uchun iste'mol nazariyasi iqtisodiyot fanining eng muhim bo'limlaridan biridir. Birinchidan, iste'mol iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, u iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va uzoq muddatda farovonlik darajasini belgilaydi. Ikkinchidan, iste'mol dinamikasi obyektiv va subyektiv omillarning xilma-xilligidan kelib chiqadi va iqtisodiyotda siklik tebranishlar davrlarini tavsiflaydi. Uchinchidan, iste'mol xarajatlari iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlarida bandlikning darajasi va taqsimotiga ta'sir etib, ishlab chiqarish hajmi va strukturasi bevosita va bilvosita aniqlaydi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlarining yalpi xarajatlardagi ulushi uning turmush darajasini, va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini ifoda etuvchi ko'rsatkichdir. Yalpi xarajatlarda uchinchi o'rinni xizmatlar uchun to'lovlar va boshqa to'lovlar egallaydi. Bu turdagi xarajatlar bozor munosabatlarining rivojlanishi, aholi turmush darajasining o'sishi natijasida tadqiq etilyotgan davrda 16,1 foizdan 20,4 foizgacha o'sgan.

Bu uy xo'jaliklar turmush darajasining o'sayotganligidan dalolat beradi. Yurtimizda oilalarning sifatli va uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari bilan ta'minlanish darajasi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, bugungi kunda har 100 ta oilaga o'rtacha 154 ta televizor, 101 ta xolodilnik, 34 tadan ziyod konditsioner, 50 ta shaxsiy kompyuter, 44 tadan ortiq yengil avtomobil to'g'ri kelmoqda.

Aholining turmush farovonligini o'sishi unda oliy ma'lumotga ega bo'lgan aholi ulushini o'sishida namoyon bo'lmoqda. Respublikamizda 2005 yilda 10,8% aholi oliy ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich 17,2%ni tashkil etdi. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug'ullanuvchi aholi soni o'sib bormoqda. 2018 yilga kelib tadqiqot natijalariga ko'ra Respublikamizning 62,4% aholisi jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug'ullanadi. Internet bilan bog'langan uy xo'jaliklari umumiy uy xo'jaliklarining 79,9%ni tashkil etmoqda.

O'zbekistonda iste'moldagi miqdoriy samara ustuvor, chunki halqaro nuqtai nazardan qaralganda xonadonlar daromadi katta emas. Buni jahon banki ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Demak, iste'mol samarasiga erishish uchun daromadlarni oshirish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi tomonidan aholining ijtimoiy guruhleri bo'yicha olib borilgan tanlov tadqiqotlari aholining boshqa ijtimoiy guruhleri xarajatlari tarkibini qiyoslash imkoniyatini bermoqda. Barcha ijtimoiy guruhlar, (tadbirkorlardan tashqari) yalpi xarajatlarining katta qismi oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish sarflariga to'g'ri kelmoqda.

Masalan, nafaqaxo'rlar oilasida bu xarajatlar 72,7 foiz, tadbirkorlar oilasida esa 37,3 foizni tashkil etadi. Bu holat bozor iqtisodiyotiga xos bo'lib, tadbirkorlar mulkdorlar sifatida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi va bozor uchun tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish natijasida daromad oladi.

Bu daromad aholining boshqa ijtimoiy guruhleri daromadidan keskin farq qiladi va uning tarkibida oziq-ovqat xarajatlari o'z-o'zidan past darajani, ya'ni 37,7 foizni tashkil etadi. Dehqon xo'jaliklarida bu ko'rsatkich 66,3 noiste'mol xarajatlar esa 15,1 foizga to'g'ri keladi. Dehqon xo'jaliklarida xizmatlar uchun to'lovlar, soliq to'lovlari va spirtli ichimliklarga sarflar eng kam xarajatlar tarkibini tashkil etadi. Xizmatchilar daromadlari hajmining o'sishi natijada uning yalpi xarajatlari hajmi va tarkibida o'zgarishlar yuz bermoqda. Unda noiste'mol tovarlarni sotib olish xarajatlarining ulushi ko'payib, iste'mol tovarlarini sotib olish xarajatlarining ulushi kamayib bormoqda (10.2-jadval).

10.2-jadval.**Aholi xarajatlarini boshqa ijtimoiy guruhlarning xarajatlari tarkibiga qiyoslash
(2019 yil, %da)**

O'zbekiston Respublikasi	Shu jumladan						
	Jami xarajatlar	Oziq-ovqat xarajatlari	Noiste'mol xarajatlari	Xizmatlar	Spirтли ichimliklar	Soliqlar	Boshqa xarajatlar
	100	52,1	19,7	5,8	1,2	10,1	11,0
Shu jumladan							
Dehqonlar	100	66,3	15,1	4,4	0,9	3,4	10,0
Ishchilar	100	57,4	17,7	8,4	1,8	12,3	2,6
Xizmatchilar	100	57,3	17,9	6,0	1,2	12,4	5,2
Tadbirkorlar	100	37,3	23,0	5,1	1,1	12,4	21,2
Nafaqaxo'rlar	100	72,7	16,8	6,9	1,3	1,9	0,5

Jamg'arish ustuvorliklari uy xo'jaliklarini bozor sharoitlariga moslashish darajasiga bog'liq. Ko'pchilik uy xo'jaliklari ko'proq darajada samarali ustuvorlik sifatida notashkiliy jamg'arish shakllarini tanlashadi. Tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi uy xo'jaliklarida 200 mlrd. dollar moliyaviy resurslar noijtimoiy jamg'arish shakllarida shakllangan⁹⁴.

COVID-19 pandemiyasi oqibatida kelib chiqqan global iqtisodiy inqiroz mamlakatimizda uy xo'jaliklarining iste'mol va jamg'arish borasidagi ustivorliklariga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganligini ko'rishi-miz mumkin. Xususan, Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan so'rovlar natijasiga ko'ra, so'rovda qatnashgan uy xo'jaliklarining aksariyat qismi o'z jamg'armalari "o'zini o'zi alohidalash" sharoitida ko'pi bilan 2 oy muddatga etishini ta'kidlab o'tishgan. Bunday holat mamlakatimizda uy xo'jaliklarining moliyaviy savodxonligini oshirish dolzarb vazifa ekanligini ko'rsatadi⁹⁵.

⁹⁴ Уй хўжаликларининг молиявий хулқи характериға қараб қуйидаги уй хўжаликлари моделини ажратиб кўрсатишимиз мумкин: фақатгина ижобий хулқиға боғлиқ бўлган жамғарувчи уй хўжаликлари; фақатгина салбий хулқиға боғлиқ бўлган антижамғарувчи уй хўжаликлари; Котов В. Качественные сдвиги в инструментарии финансирования стратегических важных предприятий Узбекистана. Материалы VIII Форума экономистов Т: ИПТД. 2017.-С.9.

⁹⁵ Турмуш даражаси ва инфляция. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, 2020й.
https://cbu.uz/upload/iblock/926/Turmush_darazhasi_va_inflyatsiya.pdf


Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit uy xo'jaliklariga qanday jamg'arish ustuvorliklarini tanlash xulqini belgilab beradi. Shu munosabat bilan uy xo'jaliklari tomonidan jamg'arishning u yoki bu shaklini tanlash xulqiga quyidagi qator omillar ta'sir etadi: moliyaviy inqirozlar natijasida ko'pchilik uy xo'jaliklar o'z jamg'armalarini yo'qotishlari, turli moliyaviy piramidalarni inqirozga uchrashi, bank korxonalarini inqirozga duch kelishi, moliyaviy bozorlar infratuzilmasini yo'qligi, bank xizmatlarini to'la konfidentsial emasligi va kapitalni chetga chiqishi.

Uy xo'jaliklarining investitsiyaga yo'naltirilgan xulqi juda cheklangan tavsifga ega. Bu jarayonni kuchaytirish uchun: uzoq muddat foydalaniladigan milliy sanoat tovarlariga iste'mol kreditini kengaytirish; ko'chmas mulkka, birinchi navbatda uy-joyga ipoteka kreditini rivojlantirish; moliya bozorida erkin harakat qiladigan, anonimlik shartida milliy obligatsion zayomlarni chiqarish. O'tkazilgan tahlillarimiz va kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, shahar va qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi uy xo'jaliklari a'zolarining mavjud shart-sharoitlar va daromadlar darajasidan qoniqish darajasi borasida ma'lum bir tafovutlar borligini ko'rsatmoqda.

10.4. Mamlakatda aholi o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati imkoniyatlaridan foydalanish mazkur jarayonlarning iqtisodiy mexanizmlarini samarali yo'lga qo'yish va takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni taqozo etadi. Eng avvalo, aholi o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin (10.8-rasm).

Quyida bayon etilgan yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha asosiy talab – yo'lga qo'yiladigan iqtisodiy mexanizmning bevosita aholi farovonligi darajasiga ta'siri bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlarning har biriga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.



10.8-rasm. Aholi o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari

Aholiga tadbirkorlik faoliyatini o'rgatish, tegishli bilim va ko'nikmalar hosil qilish. Tadbirkorlik qobiliyatini iqtisodiy resurs sifatida ikkita asosiy qismga ajratish mumkin:


1) muayyan shaxslarning iqtidori va tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishi tufayli oldindan mavjud bo'lgan, "avtonom qobiliyat";

2) maqsadga muvofiq tarzda maxsus dasturlar orqali o'qitiladigan hamda tegishli bilimlar berish orqali rivojlantiriladigan qobiliyat.

Birinchi turdagi tadbirkorlik qobiliyati – bu millatning "oltin fondi" hisoblanadi. Har bir zamonda o'zining tabiatan shakllangan mashhur va yetakchi kishilari – taniqli tadbirkorlari, shu bilan bir qatorda, mazkur faoliyatni o'zining hayot tarzi sifatida tanlagan shaxslar guruhi ham mavjud bo'ladi. Ushbu guruh jamiyatdagi o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning katalizatori bo'lib xizmat qiladi.

Lekin, shu bilan birga, iqtisodiyotning asosiy "og'irlik markazi" ikkinchi guruh, ya'ni maqsadga muvofiq tarzda maxsus dasturlar orqali o'qitiladigan hamda tegishli bilimlar berish orqali rivojlantiriladigan qobiliyatga ega tadbirkorlarga tushadi. Chunki, ushbu guruhdagi tadbirkorlarning sonini

jamiyatning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda oshirish, ko‘paytirish mumkin. Buning uchun tadbirkorlikka moyil shaxslarni aniqlash, ajratish (selektsiya), o‘qitish va malakasini oshirish ishlari muntazam va tizimli tarzda yo‘lga qo‘yilishi lozim.



10.9-rasm. O‘zini o‘zi band qilgan sifatida ro‘yxatdan o‘tish tartibi⁹⁶

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi PQ-4742-son “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi belgilab berildi.

Shuningdek, o‘zini o‘zi band qilgan sifatida ro‘yxatdan o‘tish tartibi belgilandi (10.9-rasm).

Shu o‘rinda, e‘tiborli jihat, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar yollanma ishchilarni jalb qila olmasligi hamda ish beruvchiga ega bo‘la olmasligi to‘g‘risidagi talab saqlanib qolgan. Bu ayni paytda to‘g‘ri qabul qilingan qaror hisoblanadi, chunki agar o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga yollanma ishchilarni jalb qilish huquqi berilsa, u holda qat’iy belgilangan soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlarning katta qismi o‘z tadbirkorlik shaklidan voz kechib,

⁹⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 июндаги ПҚ-4742-сон “Тадбиркорлик фаолияти ва ўзини ўзи банд қилишни давлат томонидан тартибга солишни соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. — www.lex.uz

mazkur shakldagi faoliyatga o'tishi ro'y berishi mumkin. Bu esa, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga emas, balki susayishiga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa, qaror bilan Internet tarmog'i orqali xizmatlar ko'rsatuvchi (ishlar bajaruvchi) o'zini o'zi band qilgan shaxslarga (frilansing) qator huquqlar berildi. Jumladan:

- ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun chet eldagi jismoniy va yuridik shaxslar – norezidentlardan xorijiy valyutadagi to'lovlarni Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga tegishli ma'lumotlarni kiritmagan holda O'zbekiston Respublikasining banklaridagi hisob raqamlariga qabul qilish;

- kontrakt tuzmasdan, kelishuv to'g'risidagi ommaviy taklifni (oferta) qabul qilish yoki elektron yozishmalar almashish yohud hisob-kitob fakturalarni (invoys), shu jumladan elektron shaklda taqdim qilish yo'li bilan chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish).

Agar frilansingga taqdim etilgan mazkur huquqlar qatorida ularga yollanma ishchi yollash huquqi ham taqdim etilsa, u holda amaldagi mavjud kichik tadbirkorlik subyektlari alohida o'zini o'zi band qilgan shaxslarga bo'linib ketishi hamda bu bilan tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarni masofadan turib ro'yxatga olish uchun quyidagi imkoniyatlarni nazarda tutuvchi mobil ilovani ishlab chiqish hamda joriy qilish belgilab berildi:

- buyurtmalarni qabul qilish va ko'rsatilgan xizmatlar (tovarlar) uchun to'lovlarni amalga oshirish;

- yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatishda (tovarlarni sotishda) elektron hisob-kitob fakturalarni taqdim qilish;

- mobil ilova yordamida ixtiyoriy asosda daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish hamda ushbu ma'lumotlardan keyinchalik, shu jumladan kredit olish va (yoki) soliqlarni hisobdan chiqarish maqsadida foydalanish;

- o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini) reklama qilish;

- ko‘rsatilayotgan xizmatlar (tovarlar) sifatini baholash va iste’molchilar tomonidan fikr-mulohazalar qoldirish.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni osonlashtirish, shu jumladan quyidagi bir qator imkon yaratuvchi servislardan real vaqt rejimida foydalanishga yordam beradigan “Biznes navigator” axborot tizimini joriy qilish belgilab berildi:

- tadbirkorlik faoliyatining tegishli hududdagi raqobatbardosh turini tanlash;
- kredit olish uchun zarur bo‘lgan biznes-reja loyihasi va hujjatlar to‘plamini shakllantirish;


- tegishli tadbirkorlik faoliyati uchun taqdim etilgan imtiyoz va preferentsiyalar to‘g‘risida ma’lumot olish;

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ko‘chmas mulk obyektlarini tanlash.

Albatta, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun bu kabi yengillik va qulayliklarning yaratilishi mazkur faoliyatning jozibadorligini oshirib, bu ijobiy holat hisoblanadi. Lekin, shu o‘rinda, mazkur jarayonlarning tadbirkorlik faoliyati rivojiga salbiy ta’sirlarini ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar uchun belgilab berilgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari (1-ilova) mazmunan kichik tadbirkorlik faoliyati turlariga yaqin yoki bir xil bo‘lishi mumkin. Buning natijasida esa, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar faoliyatidagi erkinliklar yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlik subyektlari uchun “teskari oqim” samarasini hosil qilishi mumkin.

Shunday holatlarni hisobga olgan holda, qarorda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun nazarda tutilgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi, ishtirokchilari soni kamida uch nafar bo‘lgan oilaviy korxonalar aylanmadan soliqni belgilangan miqdordan 50 foizga kamaytirilgan stavkada to‘lashi belgilab

qo'yilgan. Lekin, jiddiy va aniq mexanizmlar ishlab chiqilmasa, mazkur chora ham "teskari oqim" samarasining salbiy ta'siridan qutqarib qolmasligi mumkin.



10.10-rasm. Mehnat resurslarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish yo'nalishlari

B.Yusupov mehnat resurslarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish yo'nalishlari bo'yicha tadqiqot olib borgan. Uning fikricha, "mehnat resurslarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirishi maqsadga muvofiq (10.10-rasm):

birinchi yo'nalish – barcha toifadagi mehnat resurslarini bevosita tadbirkorlik bilan shug'ullanishga rag'batlantirish;


ikkinchi yo'nalish – amaldagi tadbirkorlarni muayyan, maqsadga yo'naltirilgan mehnat resurslari toifasini yollashga rag'batlantirish;

uchinchi yo'nalish – muayyan toifalarni yollashga ixtisoslashgan tadbirkorlik shakllarini tashkil etish"⁹⁷.

Rasmdan ko'rinadiki, B.Yusupov mehnat resurslarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha davlat siyosatini ham ajratib ko'rsatgan.

⁹⁷ Юсупов Б.А. Ўзбекистонда кичик бизнес иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2020.

Ushbu yondashuvdan kelib chiqqan holda, fikrimizcha, aholi tarkibini tadbirkorlik faoliyatiga mansublik jihatidan turli darajalarga guruhlash mumkin (10.11-rasm).



10.11-rasm. Aholi tarkibining tadbirkorlik faoliyatiga mansublik jihatidan turli darajalardagi guruhlari chegaralari⁹⁸.

Rasmdan ko'rinadiki, mamlakatning jami aholisi (1-chegara) asosan 2 qismga bo'linadi: mehnatga layoqatli va mehnatga layoqatsiz shaxslar. Tabiiyki, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar mehnatga layoqatli shaxslar tarkibida bo'ladi. Lekin, shuni ta'kidlash joizki, ularning tadbirkorlik faoliyatiga mansublik darajasi turlicha bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatiga mansublikning eng kuchli darajasi – bu o'zini o'zi band qiluvchi tadbirkorlar (2-chegara) hisoblanadi. Faol tadbirkorlar o'zida tadbirkorlikning barcha belgilarini mujassam etib, nafaqat o'zlari va yaqinlarini, balki aholining keng ommasini ham ish va daromad bilan ta'minlaydilar. Biroq, bu guruh tadbirkorlarning soni juda cheklangan bo'lib, uni ko'paytirish uchun muayyan tizimli chora-tadbirlarni (masalan, o'qitish, maxsus ko'nikma va malaka hosil qilish, tegishli shart-sharoitlarni yaratish va h.k.) amalga oshirish taqozo etiladi.

Tadbirkorlik faoliyatiga mansublikning navbatdagi darajasi – bu o'zini o'zi band qiluvchi tadbirkorlar (3-chegara) hisoblanadi. Mazkur tadbirkorlarda tadbirkorlikning belgilari nisbatan pastroq darajada namoyon bo'ladi: ular

⁹⁸ Юсупов Б.А. Ўзбекистонда кичик бизнес иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2020.

aholining katta qismini ish bilan ta'minlay olmasalarda, o'zlari va yaqinlari uchun u qadar keng bo'lmagan, sodda tavsifdagi faoliyatga asoslangan bandlikni ta'minlay oladilar. Mazkur guruh faol tadbirkorlik chegarasini kengaytirish uchun juda qulay va samarali hisoblanadi. Buning uchun maxsus yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi (dastur) ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Tadbirkorlik faoliyatiga mansublikning eng quyi darajasi – bu tadbirkorlikka intiluvchi shaxslar hisoblanadi. Biroq, ushbu intilish u qadar kuchli bo'lmagan, agar muayyan qo'llab-quvvatlashlar amalga oshirilmasa, u befarqlikka aylanishi mumkin. Mazkur chegaradagi aholining ayrim qismida tadbirkorlik faoliyatining ijobiy natija va muvaffaqiyatlarini ko'rib, bu qiziqish biroz kuchaysa, boshqa qismida esa, aksincha, tadbirkorlikdagi qiyinchilik va omadsizliklarni ko'rib, bu qiziqish pasayib ketadi. Shunga ko'ra, tadbirkorlik salohiyati jihatidan ushbu guruh eng ko'p kuch va e'tibor talab qiluvchi shaxslar majmuidan iborat.

Mehnatga layoqatsiz shaxslarni ham shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: kelgusida layoqatga ega bo'luvchilar va layoqat chegarasidan chiqqanlar. Kelgusida layoqatga ega bo'luvchilar – bular hali mehnat yoshiga yetmagan, biroq keyinchalik yoshi etganda mehnat qilish, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan shaxslar. Layoqat chegarasidan chiqqanlar – bular yosh yoki mehnatga layoqatsizlik sababli nafaqaga chiqqanlar, mehnat qila olmaydigan nogironlar va h.k. Tabiiyki, ushbu guruh tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug'ullana olmaydi.

Aholi tarkibini tadbirkorlik faoliyatiga mansublik jihatidan turli darajalarga guruhlash bu boradagi davlat siyosatini ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarni hisobga olishni taqozo etadi:

1) eng avvalo mehnatga layoqatlilar tarkibidagi faol tadbirkorlik qobiliyati mavjud bo'lgan barcha shaxslar uchun to'liq tadbirkorlik faoliyati shart-sharoit va imkoniyatlari yaratilgan bo'lishi kerak (2-chegara);

2) mazkur chegarani imkon qadar o'zini o'zi band qiluvchi tadbirkorlar hisobiga kengaytirib borish kerak (2+3-chegaralar);

3) imkon qadar mehnatga layoqatlilar tarkibidagi tadbirkorlik qobiliyati mavjud bo'lgan barcha shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi kerak (2+3+4-chegaralar).

Bo'lajak tadbirkorlarga biznes-g'oyalar berish. Biznes-g'oya – bu tadbirkorni asosiy faoliyatga yo'naltiruvchi kuch, o'ziga xos mayoq hisoblanadi. Aholi orasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga qiziquvchilar, ishtiyoqmandlar ko'plab uchrashi mumkin, lekin ularning barchasi ham o'z ixtiyoridagi iqtisodiy resurslarni safarbar etishga imkon yaratuvchi biznes-g'oyaga ega bo'lmastligi mumkin. Bu esa jamiyatdagi tadbirkorlik resursidan to'liq va samarali foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

Bugungi kunda amaldagi va bo'lg'usi tadbirkorlarni biznes-g'oya bilan ta'minlashning muayyan mexanizmi ta'minlangan. Jumladan, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Yoshlar ittifoqi va Markazlar bilan birgalikda aholining, ayniqsa yoshlarning biznes g'oya va startaplarini amaliyotga tatbiq etishga har tomonlama ko'maklashish maqsadida ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda “biznes inkubatorlar”ni tashkil etish choralari ko'rish vazifasi yuklatilgan⁹⁹.

Lekin, ta'kidlash lozimki, aksariyat vosita va dastaklar tadbirkorlik loyihalari tashabbuskorlarning biznes-g'oyalarini ro'yobga chiqarish uchun qaratilgan bo'lib, bo'lg'usi tadbirkorlar uchun istiqbolli tayyor biznes-g'oyalarni taqdim etish amaliyoti juda sust.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarni moliyaviy mablag'lar va moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlash. Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchilarni moliyaviy mablag'lar va moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlash darajasiga bog'liq. Moliyaviy mablag'larning bir qator quyidagi manbalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) tadbirkorning o'z (xususiy) mablag'lari;

⁹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги ПҚ-4231-сон “Худудларда аҳолини тадбиркорликка кенг жалб қилиш ва оилавий тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. -<https://lex.uz>

- 2) korxona ustav kapitali sifatida kiritilgan mablag‘lar;
- 3) hamkorlarning mablag‘lari;
- 4) homiylik va hayriya mablag‘lari;
- 5) asosiy faoliyatdan olingan daromad;
- 6) bank kreditlari va qarzar;
- 7) subsidiya va subventsiyalar va h.k.

Hududdagi aholi turmush darajasi hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga mutassadi tashkilot va idoralar tomonidan zarur holatlarda moliyaviy mablag‘larning taqdim etish jarayonlarida turmush darajasini oshirishga oid shartlarning qo‘yilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Muvaffaqiyatli tadbirkorlarning o‘z bilim, tajriba va ko‘nikmalarini “yangi avlod”ga o‘tkazishini ta‘minlash. Hudud yoki milliy darajada tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bu boradagi asosiy bilim, tajriba va ko‘nikmalarning keng targ‘ib etilishi va “tadbirkorlik virusi”ning tarqatilishiga bog‘liq. Ko‘pincha tegishli boshqaruv darajalarida mazkur jarayonga yetarli e‘tibor qaratilmasligi natijasida tadbirkorlik faoliyatini takror ishlab chiqarish doirasi torayib borib, iqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtirishi mumkin.

Hozirda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining ko‘plab yo‘nalishlarida “ustoz-shogird” an‘analari, “hunarmandchilik maktablari”, ilg‘or tajriba va muvaffaqiyat asoslarini targ‘ib etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar qo‘llab kelinmoqda. Shu o‘rinda, fikrimizcha, tadbirkorlar tomonidan o‘z bilim va tajribalarini ularning “yangi avlodi”ga o‘tkazish, ya‘ni bevosita tadbirkorlar tomonidan o‘z shogirdlarini tarbiyalashda faoliyat natijalarini turmush farovonligi ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘lash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining asosiy natijalari sifatida shaxsiy, oilaviy va hududiy darajadagi keng ma‘nodagi farovonlikning oshishi bilan bog‘lash amaliyotini joriy etish. Odatda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishdan ko‘proq mahalliy (hududiy) darajadagi boshqaruv organlari (hokimiyatlar) manfaatdor hisoblanadi. Chunki, mazkur tuzilmalar faoliyati

natijasida hosil bo'luvchi ijtimoiy-iqtisodiy naf (masalan, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, bandlik darajasining ortishi, daromadlarning o'sishi, obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmaning yaxshilanishi va h.k.) ko'proq mahalliy darajada iste'mol qilinadi va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, mahalliy (bevosita muayyan mahalla, qishloq, shaharcha, tuman va boshqalar) darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda asosiy natijalari sifatida shaxsiy, oilaviy va hududiy darajadagi keng ma'nodagi farovonlikning oshishi bilan bog'lash amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu o'rinda "keng ma'nodagi farovonlik" tushunchasi aholining moddiy va ijtimoiy sharoitlari (oziq-ovqat va kiyim-kechak ta'minoti, mehnat sharoitlari, bandlik, mehnatni tashkil qilish, turar joy, ijtimoiy ta'minot va h.k.) bilan bir qatorda uning sog'lig'i, demografik sharoitlari, ma'lumot darajasi va ma'naviy kamoloti kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Umumiy holda, milliy farovonlik darajasining oshishi ijtimoiy sohaning rivojlantirilishiga bog'liq. Zero, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ta'sirida ijtimoiy xizmatlar (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va h.k.)ga ehtiyojlarning o'sishi bunday xizmat turlarini taqdim etuvchi muassasalar sonining ko'payishi hamda moddiy-texnik bazasining takomillashuviga olib keladi.

Bob bo'yicha xulosalar

Iqtisodiy kategoriya sifatida uy xo'jaligini mol – mulkdan birgalikda foydalanish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish, o'z hayotiy faoliyatining shart-sharoitlarini va unda inson kapitalini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishini ta'min etish uchun boshqa iqtisodiy subyektlar (firmalar, davlat) bilan mavjud resurslarni ayirboshlash yuzasidan o'zaro aloqalarga kirishuvchi, ko'p funktsional, iqtisodiy jihatdan alohidalashgan va ommalashgan iqtisodiy subyekt sifatida baholash mumkin.

Uy xo'jaliklarining barcha funktsiyalari u yoki bu darajada bir – biri bilan bog'liq va ayni paytda ular bir-birini taqozo qiladi. Bunda uy xo'jaliklarining

funktsiyalari o'zining yo'nalishiga bog'liq holda, ikki: uy xo'jaliklarining ichki ehtiyojlariga va tashqi jihatlariga, jamiyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Uy xo'jaliklarining jamg'armalari moliyaviy aktivlarning bir qismi bo'lib, ular uchta: investitsion, takror ishlab chiqarish va kreditlash funktsiyalarni bajaradi. Jamg'armalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy manbaini ifoda etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari faolligini tadqiq etish umumiy metodologik qoidalardan tashqari bozor iqtisodiyotining tabiatidan kelib chiqadigan tamoyillarga ham tayanadi. Bulardan eng asosiylari bo'lib, birinchidan, tizimli tahlil talabiga rioya etish, ikkinchidan, uy xo'jaliklari faoliyat natijasi bozor va nobozor usullarga bog'liqligini birgalikda o'rganish, uchinchidan, uy xo'jaliklari faollik darajasi farqlanishini o'rganish, to'rtinchidan, uy xo'jaliklari faolligiga globallasuvi jarayonlarining ta'sirini e'tirof etishdir.

Uy xo'jaliklarining daromadlari ish haqi bilan birga, tadbirkorlik daromadlari, mulk daromadlari (renta, foiz, ijara to'lovlari, dividendlar), davlat transfert to'lovlari (pensiylar, stipendiyalar, nafaqalar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi bepul xizmatlar) va boshqa manbalardan olinuvchi daromadlarni qamrab oladi.

Daromadlar uy xo'jaliklarining xarid fondini hosil qiladi. Shu bois uy xo'jaligi uchun pul daromadini topish, xarid qurbini kafolatlash shartdir. "Daromad – bu o'z sohibining ixtiyorida bo'lgan zaruriy ne'matlar iste'molini ta'minlashning pul yoki moddiy asosini tashkil etadigan hamda yangidan daromad keltirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etuvchi ne'matlar yig'indisidan tashkil topgan resurslardir"¹⁰⁰. Bu yerda daromad birinchidan, moddiylashtiriladi, ikkinchidan, uning mohiyati ishlatilishi jihatidan qaraladi.

Uy xo'jaliklarining umumiy daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi hamda doimiy asosda, takror-lanuvchi xususiyatga

¹⁰⁰ Хасанов Р. Бозор даромадлари: моҳияти таркибий тузилиши ва табақаланиши. – Т. Т.М.И. Босмаҳона-си 2004. 19-20-б.

ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushum-lardan tashkil topadi.

Milliy iqtisodiy tizimda uy xo'jaliklari quyidagi vazifalarni bajaradi: a) bozorda firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning xaridori sifatida harakat qiladi; b) bir xil firmalarni ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlaydi; v) real va moliyaviy aktivlarni olish orqali iqtisodiyotda yaratilgan jami daromadning bir qismini tejab qoladi. Iqtisodiy munosabatlar xilma-xil, ular takror ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida, boshqaruvning barcha darajalarida mavjud. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning har qanday sohasida doimiy ravishda vujudga keladigan bir jinsli iqtisodiy munosabatlar mustaqil iqtisodiy kategoriya mazmunini tashkil qiladi.

Bu kategoriyalardan biri uy xo'jaliklar moliyasi real hayotdagi xo'jalik munosabatlarini ifodalab, obyektiv xarakterga ega va muayyan ijtimoiy maqsadni ko'zlaydi. Ma'lumki, moliyaviy munosabatlar, qoida tariqasida, pul tavsifiga ega.

Naqd pul va (yoki) ularning ekvivalentlari harakati uchun shartlar mavjud bo'lmagan hollarda, moliyaviy munosabatlar mavjud emas (bu holda ba'zi bir xususiy operatsiyalardan, masalan, barter shartnomalari bilan rasmiylash-tirilgan bitimlar kabi mavhumlashadi).


Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaligini pul mablag'laridan foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emas, ya'ni uy xo'jaligi darajasida moliyaviy munosabatlarning paydo bo'lishi uchun haqiqiy asos mavjud.

Biroq, ma'lumki, barcha pul munosabatlarini ham moliyaviyga kiritish mumkin emas. Bularga, masalan, uy xo'jaligini doimiy ravishda kiradigan (T - P - T) ayirboshlash munosabatlarini kiritish qiyin.

Shu sababli, bir qator iqtisodchi olimlarning pozitsiyasi, faqat mablag'lar fondlarini shakllantirish va taqsimlash natijasida yuzaga keladigan pul munosabatlarini moliya deb hisoblash mumkin, deb hisoblaydigan bir qator iqtisodchilarning pozitsiyasi juda asosli ko'rinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaligi moliyaviy munosabatlardan tashqarida bo'lolmaydi, u doimiy ravishda uy xo'jaligi ichida ham, uy xo'jaligidan tashqari bozor subyektlari bilan ham yuzaga keladigan munosabatlarga kirishadi.

Uy xo'jaligining ichki moliyasiga uning ishtirokchilari o'rtasida turli maqsadlarga ega bo'lgan oilaviy pul fondlarini shakllantirish bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar kiradi: joriy iste'mol darajasini saqlab qolish uchun sug'urta zahirasi; kapital xarajatlar darajasini oshirish uchun pul zahirasi; uni keyingi investitsiya qilish maqsadida pul fondi va boshqalar.



10.12 - rasm. Uy xo'jaligining tashqi moliyaviy aloqalari tizimi

Uy xo'jaligining tashqi moliyaviy munosabatlari tizimi 10.12- rasmda ko'rsatilgan.

Ko'rib turganimizdek, uy xo'jaligi quyidagi moliyaviy munosabat-larga kirishishi mumkin:

birgalikdagi pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydala-nish bo'yicha boshqa uy xo'jaliklari bilan (bularga uy xo'jaliklari ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan o'zaro almashinuv munosabatlari kirmaydi);

moddiy ishlab chiqarish yoki xizmatlar ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yurituvchi hamda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot-ning bir qismini uning qiymat shaklida taqsimlash bo'yicha uy xo'jaligi a'zolariga nisbatan ish beruvchi sifatida faoliyat yurituvchi korxonalar bilan;

tijorat banklari bilan iste'mol kreditlarini jalb qilish, ularni qaytarish bo'yicha; vaqtincha bo'sh pul mablag'larini bank hisobvaraqlariga joylashtirish borasida;

sug'urta tashkilotlari bilan har xil turdagi sug'urta fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha;

davlat bilan byudjet va byudjetdan tashqari fondlarni shakllanti-rish va ulardan foydalanish bo'yicha.

Yuqorida sanab o'tilgan munosabatlar "uy xo'jaliklari moliyasi" kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tashkil qiladi. Demak, uy xo'jaligi moliyasi - bu uy xo'jaligi va uning alohida ishtirokchilari o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati jarayonida ishtirok etadigan mablag'lar fondlarini yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha pul munosabatlari yig'indisidir.

Ko'p pul topish jasurlik; ularni asray bilish-donishmandlik, oqilona sarf qilish esa-bu san'atdir.

Bertold Averbax

11-BOB. XALQARO MOLIYA


- 1. Xalqaro moliyaning asoslari va rivojlanish tendentsiyalari.**
- 2. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar.**
- 3. Valyuta kursi va valyuta bozorlari.**
- 4. To'lov balansi va uni tartibga solish yo'llari.**
- 5. Xalqaro hisob-kitob shakllari.**
- 6. Xalqaro kredit.**
- 7. O'zbekiston Respublikasida valyuta munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari.**
- 8. Xorijiy investitsiyalar xalqaro moliyaviy munosabatlarni jadallash-tirish asosi sifatida.**

11.1. Xalqaro moliyaning asoslari va rivojlanish tendentsiyalari

Xalqaro moliya, bir tomondan, xorijiy moliyaviy aktivlar sifatida mamlakatlardan tashqarida vujudga kelgan pul oqimlarini, boshqa bir tomondan esa, qabul qiluvchi mamlakatlarning mamlakat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri, portfel va boshqa investitsiyalar shaklida sarmoya kiritgan norezidentlar oldidagi majburiyatlarini anglatadi (11.1-rasm).

Xalqaro moliya, fan sohasi sifatida, mazkur munosabatlarni o'rganish va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Xalqaro moliyaning rivojlanishi bir qator omillarning ta'siri ostida yuz beradi:

- mamlakatlar o'rtasida moliyaviy resurslarning notekis taqsimlanishi;
- global ko'lamdagi siyosiy va iqtisodiy ekspansiyaning maqsadlari
- joriy to'lov balansidan kelib chiqqan holda, milliy iqtisodiyotlarning esport qiluvchi va import qiluvchilarga bo'linishi;
- xalqaro likvidlik hajmining o'sib borishi;
- jahon moliyaviy tizimini tartibga solish darajasi va yo'nalishlari;



11.1-rasm. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro moliyaning o‘rni


- moliya bozorlarini erkinlashtirish;
- moliyaviy infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- innovatsion axborot texnologiyalarini joriy etish;
- valyuta kurslari va shu qatori boshqa moliyaviy instrument turlarining volatilligi.

Xalqaro moliyaviy oqimlarning yuqori dinamikasi va hajmi; ichki investitsiyalarda xorijiy kapitalning o‘tib borayotgan ulushi; mamlakatlar YaIMda xorijiy kapital ulushining yuqori darajasi xalqaro moliya ko‘lamining muttasil o‘tib borayotganligidan dalolat beradi.

Xalqaro moliya globallashtiruvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchi sanaladi.

Xalqaro moliyaviy oqimlarning o'sish dinamikasi jahon yalpi mahsuloti, tovarlar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlaridan bir muncha yuqori ko'rsatkichlarga egaligi bilan ajralib turadi.


Xalqaro moliya birinchi navbatda milliy iqtisodiyotni tashqi moliyalashtirish orqali xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va diversifikatsiya qilishni ta'minlaydi; turli davlatlarning rezidentlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilishiga zamin yaratadi; xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarning kuchayishiga asos yaratadi; xalqaro moliya bozorlarida yuridik va jismoniy shaxslarning operatsiyalarni amalga oshirishlarini qo'llab-quvvatlaydi (11.2-rasm).



11.2-rasm. Xalqaro moliya va uning tuzilmasi

Shu bilan bir qatorda, moliyaviy globallashuv (integratsiya) sharoitida bir mamlakatda yoki bir guruh mamlakatlarda paydo bo'lgan inqirozli holatlarning boshqa mamlakatlarga tarqalish xavfi ortib boradi. Globallashuv sharoitida mamlakatlarning moliyaviy o'zaro bog'liqligi ortib borishi moliyaviy xatarlar tahdidining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, xalqaro moliyaning o'zi ko'pincha xalqaro iqtisodiy va siyosiy raqobat vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro moliyaning asosiy vazifasi jahon moliyaviy resurslarini rasmiy va xususiy tashkilotlar, jahon xo‘jaligi iqtisodiy aloqalarining faol ishtirokchilari yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida qayta taqsimlashdan iboratdir (11.3-rasm).




11.3-rasm. Xalqaro moliyaning isnitutsional asoslari

Moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash xalqaro moliya tashkilotlari; xalqaro kredit tashkilotlari; xalqaro moliya bozori (valyuta, kredit, fond va boshqa segmentlar) orqali ikki tomonlama va ko‘p tomonlama asosda amalga oshiriladi.

Xalqaro moliya tizimi quyidagi unsurlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) dunyo YaIMi;
- 2) jahon (zahira, jamoaviy, milliy) valyutalari;
- 3) jahon valyuta tizimi;
- 4) mamlakatlarning milliy va qo‘shma byudjet tizimlari;
- 5) xalqaro (tashqi qarzlar) - davlat va xususiy;
- 6) xalqaro soliqqa tortish;



11.4-rasm. Jahon moliya tizimi

- 7) xalqaro hisob-kitob va to'lov tizimlari;
- 8) xalqaro moliyaviy axborot(MHXS, insayderlik axborotlari, axborot va reyting agentliklari);
- 9) xalqaro moliya bozorlari (valyuta, pul, kredit, fond, oltin - moliyaviy aktiv sifatida, hosilaviy moliyaviy vositalar, sug'urta) (11.4-rasm).

Xalqaro moliya subyektlari mamlakatlarning davlat va hukumat organlari (Markaziy banklar, moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi davlat milliy organlari); xalqaro shartnomalar asosida tashkil etilgan, o'z ustavi, doimiy muvofiqlashtirish va boshqarish organlariga ega bo'lgan, xalqaro huquq normalari asosida faoliyat yurituvchi xalqaro tashkilotlar; yuridik shaxslar (trans milliy

kompaniyalar va transmilliy banklar, xususiy moliyaviy va nomoliyaviy tashkilotlar, birjalar); jismoniy shaxslar (shaxsiy moliya).

Xalqaro moliya quyidagi kategoriyalarni o'zida ifodalaydi:

- iqtisodiy-xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy resurslar fondlarini shakllantirish;
- institutsional-moliyaviy resurslarning pul oqimlari harakatlanuvchi xalqaro ko'lamdagi moliya institutlari to'plami;
- moliyaviy-jahon bozorida kapital harakati orqali jahon miqyosida mamlakatlarning YaIMni qayta taqsimlash borasidagi munosabatlar.

Xalqaro moliya quyidagilarga bo'linadi:

- mulkiy munosabatlar borasida: xususiy va davlat;
- bozor nuqtai nazaridan: xalqaro bozorlarda sotilishi va sotib olinishi mumkin bo'lgan bozor tavsifiga ega bo'lgan va nobozor tavsifidagi (moliyaviy yordam) munosabatlar;
- moliyaviy resurslar kelib chiqqan mamlakatlarning rivojlanish darajasiga ko'ra:
- rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan bozorlarning xalqaro moliyasi.

Xalqaro moliyaviy munosabatlar mazkur munosabatlarning turli subyektlari, ularning paydo bo'lishi va faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi huquqiy bazaning rang-barangligi, xalqaro moliyaviy munosabatlarga doimiy hamroh bo'lgan turli xil siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar bilan belgilanuvchi murakkab tuzilmaga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Xalqaro moliyaviy munosabatlarning tarkibiy bo'linmalarini ajratish hanuzgacha oxiriga yetkazilmagan. Ba'zi mualliflar xalqaro moliyaviy munosabatlar tuzilmasini ushbu munosabatlarning bir xil subyektlari guruhlariga bo'yicha ajratishni taklif qiladilar: davlat darajasida davlatlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar sifatida, unda davlatlarning o'zlariga tegishli moliyaviy resurslar ishlatiladi; turli mamlakatlarning rezident korporatsiyalari, shu jumladan TMKlarning

resurslaridan foydalanish nazarda tutiluvchi korporativ darajada. Ushbu xalqaro korporativ munosabatlar jahon moliya bozorining faoliyati orqali bozor munosabatlari shakli ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Ushbu tasnifning uchinchi guruhiga jismoniy shaxslar o‘rtasidagi transchegaraviy moliyaviy munosabatlarni ifoda etuvchi shaxsiy (xususiy) moliyadan tashkil topuvchi xalqaro moliyaviy munosabatlar kiradi.

Xalqaro moliyaviy munosabatlarni tasniflash borasidagi yana bir yondashuv V. V. Kovaleva tahriri ostida nashr qilingan “Moliya” darsligida keltirib o‘tilgan, mazkur holatda xalqaro moliyaviy munosabatlar tizimi barcha uch guruh subyektlari (davlatlar, korporatsiyalar va aholi) o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni jamlovchi aloqalar shaklida tasvirlangan¹⁰¹. Ushbu o‘rinda, yuqori darajada uchta bo‘g‘in ajratib ko‘rsatiladi:

- moliyaviy yordam (davlatlar o‘rtasida, davlatlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar);
- moliya bozori (turli mamlakatlar rezidentlari-korporatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar; davlatlar va norezident korporatsiyalar o‘rtasida, turli mamlakatlar rezidentlari-jismoniy shaxslar va korporatsiyalar o‘rtasida);
- oltin va valyuta zahiralar (turli mamlakatlarning Markaziy banklari o‘rtasida yuzaga keladigan oltin va valyuta zahiralarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlar; bir tomondan Markaziy banklar va boshqa bir tomondan jahon moliya bozori subyektlari o‘rtasida; jahon moliya bozori subyektlari o‘rtasida).

Globallashuv sharoitida xalqaro moliyaviy munosabatlarning o‘rni tobora oshib borishi bilan bir qatorda, ularga xos bo‘lgan muammolar ham chigallashib boraveradi, bu o‘z navbatida xalqaro moliyaviy munosabatlarning amalda namoyon bo‘lish shakl va ko‘rinishlarini batafsil tadqiq qilishni taqozo qiladi. Xalqaro moliya munosabatlar tuzilmasini turli pozitsiya, turli xil belgilar va ularning kombinatsiyalaridan foydalangan holda aniqlashtirish mumkin.

¹⁰¹ Финансы: учебник / отв. ред. В. В. Ковалев. М.: Проспект, 2013. С. 677.

Dastavval, subyektivlik belgisi asosida davlat xalqaro moliyaviy munosabatlari ajratiladi. Bu xalqaro ommaviy huquq subyektlari o'rtasida, ya'ni davlatlar o'rtasida mavjud bo'lgan moliyaviy munosabatlar; bir tomondan davlatlar va boshqa bir tomondan o'zlarining davlat mustaqilligi (suvereniteti) uchun kurashayotgan xalqlar va Millatlar o'rtasida ; bir tomondan davlatlar va boshqa bir tomondan xalqaro moliyaviy tashkilotlar o'rtasida (XVF, Jahon banki, YeTTB va boshqalar) o'rtasida.

Xalqaro moliya munosabatlarining ikkinchi guruhi xususiy yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli moliyaviy resurslarning transchegaraviy oqimi natijasida vujudga keladi. Xalqaro moliyaviy munosabatlar guruhining subyektlari qatoriga milliy iqtisodiyotning moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan sektorlarining turli korxonalari, TMKlar, TMBlar, shuningdek norezidentlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydigan shaxslar (turli mamlakatlar aholisi) kiradi. Bu guruh xalqaro xususiy moliyaviy munosabatlar ham deb ataladi. Ushbu guruh subyektlarining o'zaro munosabatlari jahon moliya bozori doirasida bozor tamoyillari va qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Aksariyat mamlakatlarning davlat moliyasi ko'pincha xalqaro moliya bozorida xususiy moliya bilan o'zaro aloqada bo'lganligi sababli, xalqaro moliyaviy munosabatlarning uchinchi guruhini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu moliyaviy munosabatlar guruhining eng rivojlangan shakllariga turli darajadagi davlat organlari (Markaziy hukumatlar, federal subyektlar, munitsipalitetlar) tomonidan xorijiy banklar va boshqa norezident moliya tashkilotlaridan qarz olish, shuningdek qarz majburiyatlarini (asosan obligatsiyalar) davlat organlari tomonidan jahon moliya bozorida joylashtirish kiradi. Bundan tashqari, ushbu qarz majburiyatlariga investitsiya kirituvchilar asosan TMB va moliyaviy kompaniyalar, shuningdek turli mamlakatlarning Markaziy banklari va boshqa norezidentlar hisoblanadilar.

Qaytarib berishlilik belgisidan foydalanish xalqaro moliyaviy munosabatlarni ikkita guruhga ajratish imkonini beradi: qarz (kredit) tavsifidagi moliyaviy

munosabatlar va mulk huquqlarining transchegaraviy harakati bilan bog'liq (qisqa muddatli) moliyaviy munosabatlar. Ikkinchisi ko'pincha kapitalning harakati (migratsiyasi) bilan bog'liq munosabatlar ham deb ataladi.

Mamlakatlar o'rtasidagi qarz moliyaviy munosabatlari turli shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- davlatlar (davlat organlari) o'rtasida boshqa mamlakatlar hukumatlarining rasmiy kreditlari, shu jumladan rasmiy rivojlanish yordami, deb nomlanuvchi kreditlari ko'rinishida;
- davlatlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar (XVJ, Jahon banki va boshqalar) o'rtasidagi kreditlar ko'rinishida;
- turli mamlakatlarning markaziy banklari o'rtasida kredit va zaymlar ko'rinishida;
- davlatlar va boshqa mamlakatlarning markaziy banklari o'rtasida kredit va zaymlar ko'rinishida;
- bir tomondan davlatlar, boshqa bir tomondan xususiy korporatsiyalar (TMK, TMB) va jismoniy shaxslar o'rtasida bozor tamoyillari asosida kreditlar va obligatsiya zaymlari ko'rinishida;
- turli mamlakatlarning korporatsiyalari (yuridik shaxslari) o'rtasida bozor kreditlari va zaymlari, shuningdek xalqaro veksellar bo'yicha beriladigan eksport-import operatsiyalari bo'yicha joriy qarzlar ko'rinishida.

Mamlakatlar o'rtasidagi qarz moliyaviy munosabatlari ularga tegishli bo'lgan shartlar asosida ikki guruhga bo'linadi:

- ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalar asosida yuzaga keladigan rasmiy munosabatlar (bozorga xos bo'lmagan shartlar);
- bozor bitimlarini tuzishdan kelib chiquvchi, bozor tavsifiga ega bo'lgan moliyaviy munosabatlar.

Rasmiy qarz munosabatlari uchun qarz oluvchi mamlakat amal qilishi lozim bo'lgan muhim siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlarning mavjudligi xosdir. Xususan, mamlakatlar hukumatlari do'stona mamlakatlar yoki ular muhim siyosiy

va iqtisodiy manfaatlarga ega bo'lgan mamlakatlar hukumatlariga kreditlar berib, o'zlarining bir qator tashqi siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirishga intiladilar.

XVJ iqtisodiy tavsifdagi juda qattiq talablar asosida kreditlar beradi, ko'pincha qarz oluvchi mamlakatning ichki iqtisodiy va ijtimoiy siyosatiga aralashish holatlari ham kuzatiladi.

Bozor tavsifidagi xalqaro moliyaviy qarz munosabatlari odatda, siyosiy va ichki iqtisodiy shart-sharoitlardan bir muncha holi hisoblanadi. Ular uchun ayni damda bozorda qaror topgan shart-sharoitlar muhim: foiz stavkalari, risk darajasi, qarzni so'ndirish tartibi, kafolatlarning mavjudligi va shu kabilar.

Xalqaro moliyaviy qarz munosabatlari natijasida mamlakatlarning tashqi milliy qarzi shakllanadi va u quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi:

- davlat tashqi qarzi (davlat boshqaruvi organlarining tashqi kreditorlar oldidagi qarzi);
- mamlakat Markaziy bankining tashqi qarzi;
- mamlakatning tashqi korporativ qarzi (xususiy rezident korporatsiyalarning tashqi kreditorlarga qarzi).

Mamlakatning tashqi qarzi mamlakatning xalqaro moliya tizimidagi mavqeini aks ettiruvchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Uning asosida mamlakatning tashqi qarz yukini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar hisoblanadi: tashqi milliy qarz hajmining YaIMga nisbati, tashqi qarzning eksportga nisbati, davlat byudjeti xarajatlarining umumiy miqdorida foiz xarajatlarining ulushi va boshqalar.

Davlatlararo moliyaviy munosabatlar orasida XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan va mustamlakachilik qaramligidan ozod bo'lgan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning past darajasida bo'lgan mamlakatlarning xalqaro yordamga muhtojligi bilan ajralib turuvchi qarzsiz ko'rinishdagi munosabatlar alohida o'rin tutadi.

Xalqaro rivojlanishga ko'maklashish deb ataluvchi, xalqaro moliyaviy munosabatlarning mazkur guruhini rivojlanishga rasmiy ko'maklashish kreditlaridan farqli o'laroq, xalqaro moliyaviy ko'mak, deb ham atashimiz mumkin. Mazkur xalqaro moliyaviy munosabatlarning ishtirokchilari donor-mamlakatlar va retsipient-mamlakatlarga bo'linadi. Qarzsiz tavsifga ega bo'lgan moliyaviy ko'mak ko'rsatish borasidagi munosabatlar ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarga bo'linadi. Asosan ikki tomonlama asosda moliyaviy yordam ko'rsatuvchi eng yirik donorlar AQSh va Yaponiya hisoblansada, keyingi yillarda Germaniya, Italiya, Frantsiya va Buyuk Britaniya kabi donor mamlakatlarning ham ulushi o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Qarzsiz ko'rinishdagi xalqaro moliyaviy ko'mak odatda, **maqsadli grantlar** shaklida taqdim qilinadi. Beg'araz tavsifga ega bo'lgan moliyaviy ko'mak grantlari donor mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda fuqarolarning ta'lim olishlarini moliyalashtirish, qochqinlarga yordam berish, bevosita va bilvosita rivojlanayotgan mamlakatlar muammolari bilan bog'liq tadqiqotlarni moliyalashtirish (tropik kasalliklarga qarshi kurash, qishloq xo'jaligi zararkundalari, atrof-muhitni muhofaza qilish, va boshqalar), favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlarda oziq-ovqat va gumanitar yordam ko'rsatish maqsadlarida ajratiladi.

Ko'p tomonlama moliyaviy yordam, qoida tariqasida, xalqaro tashkilotlarning loyihalarini amalga oshirish, masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar aholisini ommaviy emlash, giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish, BMT vakolati va uning boshqaruvi ostida operatsiyalarni amalga oshirish va shu kabilar uchun taqdim qilinadi.

Kapital migratsiyasi bilan bog'liq xalqaro moliyaviy munosabatlar, XIX asrning oxirlarida bir mamlakatdan kapitalni olib chiqish va uni boshqa mamlakatlarda joylashtirish natijasida yuzaga kelgan. Milliy moliya va tovar bozorlarini liberallashtirish bilan tavsiflanuvchi globallashtirish natijasida ko'plab mamlakatlarda XX asr oxiri va XXI asr boshlarida xorijiy kapitalning faoliyat

ko'rsatishi uchun imtiyozli rejimlarni yaratish natijasida moliyaviy resurslarning transchegaraviy migratsiyasi keskin oshdi. Chet el kapitalini turli mamlakatlarning hududlarida (va bozorlarida) joylashtirish **to'g'ridan-to'g'ri va portfel xorijiy investitsiyalar** shaklida amalga oshiriladi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar natijasida norezidentlarda investitsiya kiritilgan hududda moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish aktivlariga (fabrikalar, kompaniyalar, banklar, uy-joy, yer va qishloq xo'jaligi yerlari, infratuzilma obyektlari va boshqalar) ga egalik qilish huquqi yoki tabiiy resurslar: foydali qazilma konlari, o'rmon resurslari va boshqalardan foydalanish huquqi paydo bo'ladi.

Xorijiy portfel investitsiyalari milliy moliya bozorlarida sotiladigan moliyaviy aktivlarga egalik huquqini shakllantiradi. Bunday aktivlarga, avvalambor, ma'lum bir mamlakatning rezident kompaniyalari va banklari tomonidan chiqarilgan aksiyalar va obligatsiyalar (korporativ qimmatli qog'ozlar), davlat organlari tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlari (davlat qimmatli qog'ozlari), valyuta va valyuta qimmatliklari, bozorda moliyaviy aktivlar sifatida sotiladigan oltin va boshqa qimmatbaho metallar kiradi.

Xorijiy portfel investorlari orasida barqaror daromad olish uchun o'z kapitalini rezidentlarning moliyaviy aktivlariga sarflaydigan strategik investorlarni va asosiy motivatsiyasi maksimal daromad olish bo'lgan spekulativ investorlarni ajratish odatiy holdir. Spekulativ kapital kurs farqlari ko'rinishida, moliyaviy aktivlarning bozor narxlarining sezilarli tebranishlari bo'yicha yuqori daromad olishi mumkin. U muayyan mamlakat hududiga tezda oqib kirish va tezda oqib chiqib ketishi ham mumkin.

Kapitalning transchegaraviy harakati natijasida vujudga keluvchi xalqaro moliyaviy munosabatlar:

- korporatsiyalar-ushbu mamlakat rezidentlari va norezident korporatsiyalar;

- mamlakatning davlat organlari va norezident korporatsiyalar o'rtasidagi aloqalar sifatida maydonga chiqadi.

Ushbu moliyaviy munosabatlar guruhining institutsional asosini muayyan bir mamlakat hududida jamlangan moliyaviy resurslarni boshqa mamlakatlarning milliy bozorlarida joylashtirish bilan shug'ullanuvchi investorlar, ya'ni iqtisodiyotning real sektorida faoliyat ko'rsatuvchi TMK, TMBlar turli moliyaviy korporatsiya va investitsion fondlar tashkil qiladi. Institutsional xalqaro investorlar orasida turli xil investitsiya loyihalariga to'plangan kapitalni kirituvchi turli xil xususiy (korporativ) va suveren (davlat) fondlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ushbu moliyaviy munosabatlar guruhining milliy iqtisodiyot, milliy moliya va pul tizimlari uchun ahamiyati noaniq va ziddiyatlidir. Bir tomondan, xorijiy kapitalning oqimi, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar shaklida, iqtisodiy o'sishga, mamlakatning texnologik salohiyatini oshirishga, iqtisodiyot tuzilishini diversifikatsiya qilishga va qabul qiluvchi mamlakatning (ya'ni kapitalni import qiluvchi mamlakat) investitsiya sharoitlarini hisobga olgan holda, qabul qilingan ishlab chiqarish bilan bog'liq sohalarni rivojlantirishni jadallashtirishga imkon beradi. Portfel investitsiyalarining oqimi mavjud bozor moliyaviy resurslari hajmini kengaytiradi, milliy kapital kompaniyalarining bozor kapitallashuvini oshiradi. Kapital qo'yilmalarning erkin transchegaraviy harakatisiz mamlakatlarning ravnaq topishini tasavvur qilish qiyin. Bunga yaqqol misol sifatida Xitoy, Hindiston, Braziliya kabi davlatlarni misol qilib keltirish mumkin.

Boshqa tomondan, mamlakatga ortiqcha kapital oqimi kapitalni import qiluvchi mamlakatning siyosiy va moliyaviy suvereniteti darajasini pasaytiradi, uning iqtisodiy va moliyaviy xavfsizligi darajasini pasaytiradi.

Milliy moliya bozorlariga spekulativ qisqa muddatli kapitalning kirib kelishi qabul qiluvchi mamlakatlar pul tizimlarining beqaror-ligini oshiradi, milliy pul birliklari valyuta kurslarining keskin tebranishlarini keltirib chiqaradi, milliy pul bazasini mo'rtlashtiradi, milliy regulyatorlar, shu jumladan Markaziy

banklarni moliya bozorini barqarorlashtirish uchun oltin va valyuta zahiralaridan sezilarli darajada foydalangan holda, favqulodda choralar ko'rishga majbur qiladi.

Xalqaro moliyaviy munosabatlarning muayyan guruhlar doirasida sanab o'tilgan ziddiyatlar globallashtirish jarayonining obyektiv tomoni hisoblanadi va xalqaro siyosat omili sifatida mamlakatlar va mamlakatlar guruhlar o'rtasida intensiv moliyaviy munosabatlarni shakllantirishga ta'sir qiluvchi siyosiy omil, shu bilan bir qatorda, moliyaviy rag'batlantirish, moliyaviy va iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan ham chuqur o'rganishni talab qiladi.

Umuman olganda, mamlakatlarning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liqligini chuqurlashtirish xalqaro siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishiga hissa qo'shadi. Bunda mazkur munosabatlar milliy manfaatlarga zid bo'lmazligi muhim sanaladi.

Xalqaro moliyaviy munosabatlarning alohida guruhini alohida mamlakatlar va **offshor zonalar** o'rtasidagi munosabatlar tashkil qiladi. Bir qator uncha katta bo'lmagan va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash borasida yetarlicha moliyaviy resurslarga ega bo'lmagan mamlakatlarning taraqqiyotini ta'minlash, shu bilan birgalikda katta mamlakatlarning qoloq hududlarini rivojlantirishning muhim dastagi sifatida xizmat qilgan offshor zonalar, XX asrning oxirlariga kelib, mamlakatlar o'rtasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning muhim mexanizmiga aylanib ulgurdi. Bundan tashqari, aytish mumkinki, offshor zonalar transmilliy kapitalni shakllantirishning eng muhim mexanizmlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ofshor zonalar noqonuniy olingan mablag'larni legallashtirish borasida juda qulay vosita ekanligini amalda ko'rsatgan bo'lsada, global moliyaviy inqiroz iqtisodiyotning haddan tashqari "offshorlashuvi" mamlakatlarining moliyaviy resurslarini sezilarli darajada qashshoqlashtirishi, mablag'larning mamlakatdan noqonuniy chetga chiqib ketishi va soliq salohiyatini pasaytirishi mumkinligini ko'rsatdi.

Xalqaro moliyaviy munosabatlarni tasniflashning eng muhim jihati ularning legitimlik darajasi hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan xalqaro moliyaviy munosabatlarning barcha guruhlari qonuniydir, chunki ular ommaviy ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomaviy munosabatlar, xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikka asoslangan holda amalga oshadi. Shu bilan bir qatorda, xalqaro kelishuvlar va milliy qonunchilik hujjatlariga ko'ra, narkotik moddalarining noqonuniy savdosi, odam savdosi, noqonuniy qurol-yarog' savdosi, qaroqchilik kabi xalqaro moliyaviy munosabatlarning ta'qiqlangan ko'rinishlari ham mavjud. Bunday noqonuniy hatti-harakatlarga qarshi kurashish xalqaro hamjamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan noqonuniy moliyaviy operatsiyalar va jinoyatchilikdan olingan daromadlarni yuvish, shuningdek xalqaro terrorizmni moliyalashtirish ko'lamining ortib borishi natijasida bir guruh mamlakatlar tomonidan 1989 yilda pul yuvishga qarshi kurash bo'yicha maxsus xalqaro Konventsia qabul qilindi, shu bilan bir qatorda, ixtisoslashgan xalqaro tashkilotning paydo bo'lishiga olib keldi. maxsus xalqaro tashkilot - FATF - (Financial Action Task Force on Money Laundering) tashkil qilindi.

Xalqaro huquq nuqtai nazaridan noqonuniy xalqaro moliyaviy munosabatlardan tashqari, mamlakatlar o'rtasida shunday moliyaviy munosabatlar guruhi mavjudki, bunday munosabatlar xufyona moliyaviy munosabatlar, deb yuritiladi. Xalqaro moliyaviy munosabatlarining ushbu guruhiga boshqa mamlakatlar hududida ayrim mamlakatlar o'zlarining muayyan tashqi siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishishlari borasida yuzaga keladigan turli moliyaviy munosabatlar kiritiladi, xususan boshqa mamlakatlarning manfaati uchun ishlovchi lobbistik guruhlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xalqaro moliyaviy munosabatlarning yana bir alohida ko'rinishi borki, bugungi kunda dunyo mamlakatlari u yoki bu mamlakatga bosim o'tkazish maqsadida ulardan keng qo'llanadilar. Bu moliyaviy munosabatlarning aksi bo'lgan moliyaviy sanksiyalardir.

Xalqaro moliyaviy sanksiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi. Eng ko‘p qo‘llaniluvchi sanksiyalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- **kredit cheklovlari** - ushbu turdagi sanksiyalar joriy qilingan mamlakat banklari va korporatsiyalariga kredit berish hajmi va muddatlari bo‘yicha kredit olish cheklanadi (uzoq muddatli kreditlarni ta‘qiqlash, yakka tartibdagi kredit bitimlarini to‘xtatish);
- **kredit blokadas**i sanksiyalarga duchor bo‘lgan mamlakat aholisiga kredit berishni to‘liq ta‘qiqlashni, shu jumladan ushbu mamlakat aholisining qarz qimmatli qog‘ozlarini jahon bozorida joylashtirishning oldini olishni nazarda tutadi;
- **moliyaviy blokada** sanksiyaga tushgan mamlakat bilan moliyaviy va pul munosabatlarini to‘liq to‘xtatish, shu jumladan uning aholisi, davlat idoralari uchun hisob-kitob xizmatlarini to‘xtatish, hisob-kitoblarni muzlatish va ba‘zan moliyaviy aktivlarni olib qo‘yish va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda moliyaviy sanksiyalar global raqobatda ba‘zi mamlakatlarning boshqalarga iqtisodiy va siyosiy bosim o‘tkazish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, xalqaro moliyaviy munosabatlarining zamonaviy tuzilmasi mamlakatlar, korporatsiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar, shaxslar o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik va o‘zaro yordamni, shuningdek global dunyoda xususiy, milliy manfaatlar va raqobatni aks ettiruvchi turli xil moliyaviy aloqalarning murakkab tarmog‘idir.

11.2. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar

Qat’iy belgilangan paritet tizimiga o‘tilgunga qadar, ya’ni oltin va oltindeviz standarti sharoitida barcha global xarakterga ega bo‘lgan moliyaviy muammolar xalqaro konferentsiyalarda hal qilinar edi. Boshqacha aytganda, jahon moliya tizimining rivojlanishi ustidan doimiy monitoring olib boruvchi, uning amal qilish tamoyillarini ishlab chiquvchi va mamlakatlarga iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun moliyaviy ko‘mak beruvchi organlar mavjud emas edi. 1944 yilda AQShdagi Bretton Vuds konferentsiyasida Xalqaro valyuta fondi (XVF) va

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining (XTTB) tashkil etilishi xalqaro moliya va valyuta tizimining rivojlanishida muhim qadam bo'ldi.

“Jahon banki” atamasi tarkiban Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (International Bank for Reconstruction and Development) va Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasini (International Development Association) qamrab oladi. “Jahon banki guruhi” atamasi esa, 5 ta tashkilotni, xususan, XTTB, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi-XRA (IDA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (International Financial Corporation), Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (Multilateral Investment Guarantee Agency), Xalqaro investitsion bahslarni tartibga solish markazini (International Center for Settlement of Investment Disputes) o'z ichiga oladi¹⁰².

XTTBga a'zo bo'ladigan davlatlarning bir vaqtda XVFGa a'zo bo'lishi talab etiladi. XTTBga a'zolik esa, o'z navbatida, Jahon banki guruhining boshqa tashkilotlariga a'zo bo'lish uchun dastlabki shart-sharoitlardan hisoblanadi.

XTTBning Kelishuvlar moddasining 1-moddasiga muvofiq, uning maqsadlari sirasiga quyidagilar kiradi:

- a'zo davlatlarning xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishga ko'maklashish;
- kafolatlar berish, xususiylar va boshqa investorlarning investitsiyalari va ssudalarida ishtirok etish orqali xususiylar va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish;
- jahon savdosining muvozanatli o'sishini va a'zo davlatlar to'lov balansining muvozanatliligini qo'llab-quvvatlash.

XTTBning faoliyati o'rta daromadli va kreditga layoqatli rivojlanayotgan davlatlarda ssudalar, kafolatlar, riskni boshqarish mahsulotlari, maslahat xizmatlari orqali qashshoqlikni qisqartirishga qaratilgan. Bugungi kunda mazkur tashkilotga a'zo davlatlar soni 189 tani tashkil qiladi, O'zbekiston mazkur institutga 1992 yil 21 sentyabrdan beri a'zo hisoblanadi.

¹⁰² www.worldbankgroup.org

XTTBning asosiy mablagʻlari hozirgi kunda oʻrta va uzoq muddatli qarz majburiyatlarini emissiya qilish orqali xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar hisobidan shakllanadi. XTTB qimmatli qogʻozlari yuqori kredit reytingiga (AAA) ega boʻlib, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlariga joylashtiriladi. XTTBning kreditlari qarz oluvchi davlat milliy valyutasida emas, balki devizlarda, yaʼni xalqaro darajada toʻlov vositasi sifatida tan olingan valyutalarda ajratiladi.

XRA (IDA) 1960 yilda tashkil topgan boʻlib, dunyoning sust rivojlangan, qashshoq davlatlariga moliyaviy koʻmak beradi.

XRA Kelishuvlar moddasining 1-moddasiga muvofiq, uning maqsadi iqtisodiy rivojlanishni ragʻbatlantirish, samaradorlikni oshirish va shuning asosida, sust rivojlangan aʼzo mamlakatlarda aholi turmush tarzini oshirish, shuningdek, anaʼnaviy kreditlarga nisbatan ogʻir boʻlmagan qulay shartlarda moliyaviy koʻmak berish hisoblanadi.

XRA foizsiz kreditlar va iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirishga qaratilgan grantlar ajratish orqali qashshoqlikni qisqartirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va aholi turmush tarzini oshirishni koʻzda tutadi. XRA Jahon banki tarkibidagi birinchi kredit muassasasi boʻlgan xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) faoliyatini toʻldiradi. XTTB oʻrta daromadli va kreditga layoqatli mamlakatlarga kreditlar va maslahat xizmatlarini koʻrsatadigan mustaqil tashkilot sifatida tashkil etilgan. XTTB va XRA faoliyati koʻp jihatdan umumiy sanaladi va ular loyihalarini baholashda bir xil qatʼiy standartlarni qoʻllaydilar. XRA dunyodagi eng qashshoq 75 mamlakat uchun eng yirik yordam manbalaridan biri boʻlib, ulardan 39 tasi Afrikada, shuningdek, ushbu mamlakatlarda asosiy ijtimoiy xizmatlarni koʻrsatadigan donorlik mablagʻlarining eng yirik manbai hisoblanadi. XRA imtiyozli shartlar asosida kreditlar beradi, kreditlari 25-38 yil muddatga nol yoki juda past foizlarda beriladi va 5 yildan 10 yilgacha boʻlgan imtiyozli davrni oʻz ichiga oladi. XRA, shuningdek, qarz inqirozi tahdid qilayotgan mamlakatlarga grantlar ajratadi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) 1956 yilda tashkil etilgan bo'lib, uning bosh maqsadi rivojlanayotgan davlatlarda xususiy sektor investitsiyalarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hisoblanadi.

XMK hukumat kafolatini talab qilmagani bois, benefitsiarlarining kreditga layoqatliligini sinchkovlik bilan tahlil qiladi. Shuningdek, XMK kreditlarining moliyaviy shartlari, XTTB va XRA bilan taqqoslaganda, sezilarli darajada og'ir hisoblanadi. XMK kreditlarining katta qismi 7-12 yil muddatga qat'iy va suzuvchi stavkalarda turli valyutalarda ajratiladi.

Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (MIGA) 1988 yilda tashkil etilgan bo'lib, Jahon banki guruhining eng yosh a'zosi hisoblanadi. Bu tashkilotning bosh maqsadi – notijorat (siyosiy) risklarga qarshi kafolat berish orqali rivojlanayotgan davlatlardagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga ko'maklashishdir. Bundan tashqari, u rivojlanayotgan davlatlar hukumatlariga xorijiy investitsiyalarga ko'maklashish dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar beradi.

Xalqaro investitsion bahslarni tartibga solish markazi esa, davlatlar va xususiy investorlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash orqali investitsiya sohasidagi bahslarni hal qiladi va muvofiqlashtiradi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) –Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassassasi bo'lib, a'zo davlatlar valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish va to'lov balansidagi defitsit tufayli yuzaga keladigan valyuta qiyinchiliklarini xorijiy valyutada qisqa va o'rta muddatli kreditlar berish orqali ularga moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan⁷⁰. 1944 yildagi Bretton-Vud valyuta konferentsiyasida tashqi savdo defitsiti bilan kurashda mamlakatlarga yordam berish uchun XVF tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan va 44 ta ishtirokchi mamlakatlar tomonidan 1945 yil 21 dekabrda kuchga kirgan XVF Nizomi (kelishuv moddalari) ishlab chiqilgan.

XVF ning Nizomiga ko'ra asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro valyuta moliyaviy muommalar ustida birgalikdagi ishlar va maslahatlar mexanizmi bilan ta'minlovchi doimiy muassasa doirasida valyuta-moliya sohasida xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga yordam berish;

2. Real daromadlar va bandlikning yuqori darajasiga erishish, shuningdek, barcha a'zo-davlatlar ishlab chiqarish resurslarini rivojlantirish hisobidan kengaygan va balanslashgan xalqaro savdoni o'sish jarayonlariga yordam berish;

3. Raqobatda ustunlikka erishish maqsadidagi valyuta devalvatsiyasini qo'llanilishiga yo'l qo'ymaslik va a'zo davlatlar o'rtasida soddalashtirilgan valyuta rejimini qo'llab-quvvatlash, valyuta barqarorligiga yordam berish;

4. A'zo-davlatlar o'rtasida joriy operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarning ko'p tomonlama tizimlarini yaratish, shuningdek, jahon savdosi o'sishiga to'siq bo'ladigan valyuta cheklovlarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish;

5. A'zo-davlatlarning milliy yoki xalqaro darajadagi farovonligiga zarar keltirish mumkin bo'lgan choralarni qo'llamasdan, bir xildagi kafolatlar yaratishga rioya qilingan xolda, Fond umumiy resurslarini vaqtinchalik taqdim etilishi hisobidan ularning to'lov balansidagi disproportsiyani to'g'rilash imkoniyatini ta'minlash;

6. Yuqorida ko'rsatib o'tilganlarga muvofiq a'zo davlatlar to'lov balanslari muvozanati buzilishdagi davomiylilikni qisqartirish, shuningdek, ushbu buzilishlar ko'lamini kamaytirish.

Bretton-Vud valyuta konferentsiyasi ishtirokchilari tomonidan XVF ga quyidagi uchta asosiy funktsiya yuklatilgan:

- "Foydalanish kodeksi"ga amal qilinishini nazorat qilish (davlatlararo to'lov aylanmasi va xalqaro valyuta siyosati masalalarida yaqin hamkorlik);
- fond a'zolariga davlatlararo to'lov aylanmasi va xalqaro valyuta siyosati masalalarini amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida moliyaviy resurslar berish;
- xalqaro valyuta masalalari bo'yicha hamkorlik va a'zo-mamlakatlarga o'zaro maslahatlar uchun forumlar tashkil etish.

Keyinchalik a'zo mamlakatlar tomonidan davr talabi va sharoitidan kelib chiqib, XVF uchun quyidagi qo'shimcha funktsiyalar belgilab berildi:

- milliy valyutalar almashinuvi bo'yicha kelishilgan soddalashtirilgan tizimi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- yanada samarali hamkorlik o'rnatish uchun o'z a'zolariga iqtisodiyotni qayta tashkil qilishga kreditlar berish;
- a'zo mamlakatlarga qo'shimcha xizmatlar (xodimlar malaka va ko'nikmalarini oshirish, ixtisoslashgan sohalar bo'yicha texnik ko'mak, axborot ta'minoti) ko'rsatish.

Bugungi kunda XVF tomonidan quyidagi 3 ta funktsiyani bajarishga asosiy e'tibor qaratilgan:

1. Iqtisodiy nazorat -qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishishni ta'minlash borasidagi siyosat bo'yicha amalga oshirishlari lozim bo'lgan chora-tadbirlar yuzasidan a'zo davlatlarga tavsiyalar berish;

2. Kreditlash -to'lov balansi muammolarini yechishda yordam berish, ya'ni, xorijiy valyutadagi tushumlardan tashqari to'lanadigan to'lovlar miqdori-ning oshib ketishi natijasida mamlakatlarga xorijiy valyuta yetishmasligi holatlarida a'zo-davlatlarni vaqtinchalik moliyalashtirish;

3. Salohiyatni oshirish -asoslangan iqtisodiy siyosatni olib borishdagi zarur bo'lgan institutlarni rivojlantirish hamda ularga bilim va tajriba to'plashda hamkorlik qilish uchun a'zo davlatlarga texnik ko'mak va kadrlar tayyorlashda yordam ko'rsatish.

XVF umumiy xolda ikki turdagi kreditlashni, imtiyozsiz foiz stavkalaridagi va qashshoq mamlakatlar uchun imtiyozli shartlarda, ya'ni, juda past foizlardagi, ayrim holatlarda 0 stavkada amalga oshiradi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Shveytsariya, Polsha, Serbiya, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Ozarbayjon va Turkmaniston kabi 9ta davlatni o'z ichiga olgan XVJning Shveytsariya guruhiga kiradi.

XVF mutaxassislarining mamlakatga tashriflari muntazam ravishda o'tkazilmoqda, ularning asosiy maqsadi - iqtisodiyotning joriy holatini o'rganish, amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish va tavsiyalar berish hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, XVJ rahbarlarining O'zbekiston Respublikasiga tashriflari faollashdi.

O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri texnik yordam ko'rsatish missiyalari hisoblanadi, ularning asosiy vazifasi xo'jalik yurituvchi subyektlarning institutsional salohiyatini oshirishdir. 2020 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) Direktorlar kengashi O'zbekistonga koronavirus pandemiyasining mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirlarini yumshatish maqsadida 375 mln. AQSh dollari miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratish to'g'risida qaror qabul qilgan. Imtiyozli kreditlar 10 yillik muddat bilan (5 yillik imtiyozli davrni o'z ichiga olgan holda) 125 mln. AQSh dollariga teng foizsiz tezkor kreditlash liniyasi (Rapid Credit Facility) va 5 yillik muddat bilan (3 yillik imtiyozli davrni o'z ichiga olgan holda) foiz stavkasi yillik 1,05 foizga teng bo'lgan 250 mln AQSh dollari miqdoridagi tezkor moliyalashtirish instrumentini (Rapid Financing Instrument) o'z ichiga oladi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) ning bosh qarorgohi Londonda joylashgan bo'lib, 1990 yil 29 maydagi Kelishuvga asosan Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha islohotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot hisoblanadi. 2015 yilning 13 martiga qadar holatiga YeTTB aksiyadorlari tarkibiga 64 ta mamlakat, Yevropa ittifoqi va Yevropa investitsion banki kirgan. YeTTB faoliyatida quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- kreditlar berish;
- a'zo mamlakatlar korxonalari aksiyadorlik kapitaliga investitsiyalar kiritish;
- kelishuvlarga muvofiq maxsus fondlarga resurslarni joylashtirish;

- kafolatlar berish.

YeTTB ning faoliyati, jumladan, uning kreditlari yoʻnalishlari: siyosiy va iqtisodiy islohotlar (tarmoq va tarkibiy oʻzgarrishlar) oʻtkazilishiga; xususiy tadbirkorlik va raqobatni rivojlantirishga; huquqiy tizim va moliya sektorini mustahkamlashga; infratuzilmani rivojlantirishga; atrof-muhitni himoya qilishga; korporativ boshqaruvning zamonaviy tizimlarini joriy etishga.

YeTTB moliyalashtirishning umumiy shartlari quyidagilardan iborat: loyihalar qiymati 5 milliondan 250 million yevrogacha; moliyalashtirish hajmi yangi korxonalar tashkil etish boʻyicha loyihalar qiymatini 30 foizgacha, faoliyat yuritayotgan korxonalar uzoq muddatli kapitallashuv summasining 35 foizigacha; loyihalarni moliyalashtirishda sindikatlashgan kreditlash usullardan foydalanish.

Kreditlashning shartlari: minimal miqdori 5 milliondan 15 million yevrogacha; qatʼiy va suzib yuruvchi foiz stavkalar; kredit turlari katta, subordinatsiya qilingan oraliq yoki konvertirlashuvchi; kreditlar asosan xorijiy valyutalarda yoki YeTTB operatsiyalari amalga oshiriladigan mamlakat valyutasida; toʻlash muddatlari 5 yildan 15 yilgacha. YeTTB ning aktsiyadorlik kapitalida ishtirok etishdagi shartlar quyidagilardan iborat:

- sanoat, moliya va infratuzilma sohasida kiritiladigan mablagʻ miqdori 2 milliondan 100 million yevrogacha;
- YeTTB faqat subnazorat aktsiyalar paketiga ega boʻlishi; kapitaldan chiqib ketishning aniq strategiyasi mavjudligi;
- tadbirkorlikda katta tajribaga ega korxonalarga 2,5 million AQSh dollarigacha hajmda toʻgʻridan-toʻgʻri mablagʻ kiritish mexanizmi qoʻllanishi mumkin; kapital faoliya yuritayotgan korxonalarga yoki yuqori sifatli biznes rejasi va mablagʻlarni investitsiyalashda zarur tajribaga ega boʻlgan yangi kompaniyalarga kiritilishi mumkin;
- aktsiyadorlik kapitalidagi ishtirokining maqsadli darajasi-25foiz – 30foiz, qisqa muddatli qoʻyilmalarda 40 foizgacha; maʼqul boʻlgan investitsion sikl uch dan besh yilgacha, etti yilgacha ham uzaytirilishi mumkin.

11.3. Valyuta kursi va valyuta bozorlari

Valyuta ayirboshlash kursi mamlakat iqtisodiyotini boshqa mamlakatlar bilan bog'lovchi asosiy omillardan biridir.

Bir valyutaning boshqa valyuta birligidagi bahosi valyuta kursi deb ataladi. U mamlakat iqtisodiyotiga, hatto aholining turmush tarziga ham ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, valyuta kursining o'zgarishi mamlakat eksport tovarlarining raqobatbardoshlik darajasiga ta'sir qiladi, ikkinchidan, milliy valyuta almashuv kursining pasayishi import tovarlari va xizmatlarining milliy valyutadagi bahosining oshishiga olib keladi va shuning asosida aholi xarid quvvatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Valyuta kursi inflyatsiyani hisobga olishiga ko'ra nominal va real almashuv kurslariga bo'linadi. **Nominal ayirboshlash kursi** - bu ikki mamlakat valyutasining nisbiy bahosidir. **Real ayirboshlash kursi** - bu ikkita mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning nisbiy bahosi. Real ayirboshlash kursi nominal kurs va tovarlarning milliy valyutadagi narxiga bog'liq bo'lib quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$R = e \times P / P^*$$

Bunda, e - nominal ayirboshlash kursi, P - bitta mamlakatdagi baholar darajasi, P^* - esa boshqa mamlakatdagi baholar darajasini ifodalaydi. Bunda :

$$e = R \times P^* / P$$

Ma'lumki, milliy valyuta kursining 3 asosiy rejimi mavjud:

1. Erkin suzish rejimi.
2. Qat'iy belgilangan kurs rejimi.
3. Boshqariladigan suzish rejimi.

Agar milliy valyutaning kursi erkin tarzda valyuta bozorida talab va taklif asosida shakllansa, bu erkin suzib yuruvchi kurs rejimini anglatadi. Bunda mamlakat Markaziy banki milliy valyuta kursining ma'lum holati uchun javob bermaydi. Bu kurs rejimi erkin ayirboshlanadigan barcha zahira valyutalariga tegishli. Shunday mamlakatlar borki, ularda joriy operatsiyalar bo'yicha valyuta-

viy cheklovlar bekor qilingan, ammo boshqariladigan suzish rejimi qo'llaniladi. Bunday davlatlarga misol qilib Meksika, Quvayt, BAA kabi davlatlarni ko'rsatish mumkin. Lekin bu holat valyutalarning almashinish sharti bilan rejimi o'rtasidagi aloqadorlikni inkor etish uchun yetarli emas.

Qat'iy belgilangan kurs rejimida mamlakatning milliy valyuta kursi xorijiy valyutaga nisbatan ma'lum nisbatda o'rnatiladi va Markaziy bank kursning belgilangan nisbati uchun javob beradi. Ammo qat'iy belgilangan valyuta kurslari valyuta operatsiyalarini keng ko'lamda rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, lekin uning iqtisodiyotga ijobiy jihatlari ham bor. Ana shunday ijobiy jihatlaridan biri shundaki, qat'iy belgilangan kurs rejimida valyuta riski muammosi chuqurlashmaydi.

70-yilning o'rtalaridan boshlab markaziy banklarning kurs siyosatida o'zgarishlar paydo bo'ldi. Rasman erkin suzish rejimini tan olgan markaziy banklar (Avstriya, Italiya markaziy banklari va boshqalar) valyuta kursiga ta'sir qilish uchun valyuta intervensiyasini tez-tez amalga oshira boshladilar. Bu holat XVF ekspertlari tomonidan "boshqariladigan suzish" degan nomni oldi.


Valyuta bozori – bu xorijiy valyutaga nisbatan talab va taklif to'qnash keladigan bozordir¹⁰³. Valyuta bozori pul bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi. Pul bozori esa, o'z navbatida, kapitallar bozori bilan birgalikda moliya bozorini tashkil etadi.

Valyuta bozori, shuningdek, tashkiliy va tashkiliy-texnik nuqtai-nazardan ham qaralishi mumkin. Tashkiliy nuqtai-nazardan valyuta bozori talab va taklif asosida valyuta va valyutaviy qiymatliklarni sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalar amalga oshiriladigan rasmiy moliyaviy markazlar sifatida o'zini namoyon qiladi. Tashkiliy-texnik nuqtai-nazardan valyuta bozori turli mamlakatlardagi banklar va birjalarni bog'lovchi zamonaviy telekommunikatsiya vositalari majmuini anglatadi.

Valyuta bozorlarini quyidagi belgilarga muvofiq tasniflash mumkin:

¹⁰³ Симионов Ю.Ф., Носко Б.П. Валютные отношения: Учебное пособие.— Ростов н/Д: Феникс, 2001. — 320 с.

- 1) yoyilish ko‘lamiga qarab: xalqaro va milliy valyuta bozorlari;
- 2) valyutaviy cheklovlarga nisbatan: erkin va erkin bo‘lmagan valyuta bozorlari;
- 3) valyuta kurslari turiga ko‘ra: bir rejimli va turli rejimli valyuta bozorlari;
- 4) tashkiliy darajasiga ko‘ra: birja va birjadan tashqari valyuta bozori (11.5-rasm).




11.5-rasm. Valyuta bozorlarining tasniflanishi

Xalqaro valyuta bozorlari dunyoning barcha davlatlari valyuta bozorlarini qamrab olib, pul oqimlari, tovar va xizmatlar harakatini, kapitalning qayta taqsimlanishini, xalqaro to‘lov aylanmasida keng foydalaniladigan valyutalar bilan operatsiyalarni ta‘minlaydi.

Hozirgi paytda jahon valyuta bozorlari sifatida Osiyo (markazlari – Tokio, Gongkong, Singapur, Melburn), Yevropa (markazlari – London, Frankfurt- Mayn,

Tsyurix) va Amerika (markazlari – Nyu-York, Chikago, Los Anjeles) bozorlari ajratib ko‘rsatiladi (11.6-rasm).

Milliy valyuta bozori – bu, birinchidan, bir davlatning valyuta bozori, ya’ni ushbu davlat hududida amal qiladi; ikkinchidan, mazkur davlat hududida joylashgan banklar tomonidan mijozlariga xorijiy valyutada xizmat ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar majmuidan iborat bo‘ladi.



11.6-rasm. Xalqaro valyuta bozorlari markazlari

Milliy valyuta bozorlari mamlakat ichkarisida pul oqimlarining harakatini ta’minlaydi va jahon moliya bozorlari bilan aloqalarga xizmat qiladi.

Valyutaning konvertirlanishi umuman ta’minlanmagan sharoitda milliy valyuta bozori samarali faoliyat ko‘rsata olmaydi. Konvertirlikka ega bo‘lmagan pul birligi faqatgina davlatlararo munosabatlarda shartli hisob-kitob vositasi sifatida foydalanilishi mumkin. Bunday sharoitda “qora” bozorda “xufyona” kurs, ya’ni xorijiy valyutaning rasmiy konvertirlik bo‘lmagan sharoitdagi bozor bahosi shakllanishi mumkin.

Erkin valyuta bozori hech qanday valyutaviy cheklovlersiz amal qilgani holda, erkin bo‘lmagan valyuta bozorida valyutaviy cheklovlar mavjud bo‘ladi.

Bir rejimli valyuta bozori – bu valyuta kursining erkin suzish rejimi amal qiladigan bozor bo‘lib, undagi kotirovkalar birja savdolarida talab va taklif asosida o‘rnatiladi. Bunday valyuta bozori uzoq yillar mobaynida barqaror iqtisodiy rivojlanishning ta‘minlanishi, shuningdek, valyutani tartibga solish va valyutaviy nazoratning bozor mexanizmiga xos shakllarini qo‘llanishi uchun yetarlicha shart-sharoit yaratilgan davlatlarda shakllanadi.

Turli rejimli valyuta bozori – bu ko‘p pog‘onali valyuta kurslari rejimiga ega bo‘lgan bozordir. Ushbu valyuta bozori davlatning kapital harakatini tartibga solishga qaratilgan maqsadlariga xizmat qiladi va ssuda kapitali bozorining mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan ta‘sirini cheklash va nazorat qilishga imkon beradi.

Birja valyuta bozori – valyuta birjalari ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan tashkiliy bozordir. Valyuta birjasi – bu valyuta va xorijiy valyutadagi qimmatli qog‘ozlar savdolarini tashkil qiluvchi tashkilotdir. U tijorat tashkiloti emas, ya‘ni uning faoliyati yuqori foyda olishga qaratilmagan.

Birjadan tashqari valyuta bozori mohiyatiga ko‘ra banklararo valyuta bozori bo‘lib, uning tashkilotchilari dilerlar hisoblanadi. Birjadan tashqari valyuta bozorida quyidagi operatsiyalar amalga oshiriladi:

- xorijiy valyutalarni sotib olish va sotish operatsiyalari;
- naqd xorijiy valyutalar bilan amalga oshiriladigan valyuta-almashuv operatsiyalari;
- forward operatsiyalari;
- valyuta optsionlari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari.

Mazkur bozorda valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun vakolatli banklar o‘z resurslari va jalb qilingan valyuta mablag‘laridan foydalanishlari mumkin.

Valyuta bozorlaridagi operatsiyalarning asosi bo‘lib, tashqi savdo bo‘yicha xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro turizm, kapitallar va kreditlarning davlatlararo

harakati hamda chet el valyutasini oldi-sotdi qilish bilan bog'liq boshqa hisob-kitob operatsiyalari hisoblanadi.

Valyuta operatsiyalari vujudga kelishi uchun obyektiv asos bo'lib, tashqi savdo, kapitallar va kreditlarning harakati xizmat qiladi. Xalqaro mehnat taqsimoti yuzaga kelishi eksport-import operatsiyalarining yuzaga kelishiga asosiy sabab bo'ladi.

Valyuta operatsiyalarining keng ko'lamda rivojlanishi tijorat banklariga ushbu bozorda erkin harakat qilishga va ayni vaqtda ularni tartibga solishga imkoniyat tug'diradi.


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, milliy iqtisodiyotni faqat shu mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan barcha ehtiyojlarni qondirib bo'lmaydi. Demak, mamlakatlar o'rtasida eksport-import operatsiyalari albatta amalga oshishi yuz beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, valyuta bozorlarining ahamiyati milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuviga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

11.4. To'lov balansi va uni tartibga solish yo'llari

Mamlakat to'lov balansining holati bugungi kunda nafaqat mamlakatning xalqaro operatsiyalarini aks ettiruvchi oddiy hujjat, balki ushbu mamlakat iqtisodiyotining ochiqlik darajasi, uning iqtisodiy-geografik va investitsion imkoniyatlari, oltin-valyuta zahiralar va mavjud valyuta munosabatlarining qay darajada ekanligi hamda xalqaro raqobatbardoshligi haqida aniq xulosalar shakllantirish imkonini beruvchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

To'lov balansi bu shunday hujjatki, unda mamlakatning xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan aloqalari natijasida yuzaga keladigan valyuta tushumlari va to'lovlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi. To'lov balansi – ma'lum vaqt oralig'ida rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi barcha o'tkazmalarning o'lchovidir (11.7-rasm).



11.7-rasm. To'lov balansi

To'lov balansining standart komponentlari hisobvaraqlarning ikki asosiy guruhi bo'yicha ajratilishi mumkin:

- joriy operatsiyalar hisobvarag'i, unda tovarlar, xizmatlar, olingan daromadlar va joriy transfertlarni qamrab oluvchi iqtisodiy bitimlar hisobga olinadi;
- kapitallar va moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq operatsiyalar hisobvarag'i, unda kapital transfertlari, nomoliyaviy aktivlarni sotib olish, shuningdek, moliyaviy talablar va majburiyatlar bilan bog'liq operatsiyalar hisobga olinadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda to'lov balansi moddalarining uch asosiy analitik guruhlari ajratib ko'rsatiladi:

- 1) savdo balansi;
- 2) joriy operatsiyalar balansi;
- 3) umumiy to'lov balansi yoki rasmiy hisob-kitoblar balansi.

Joriy operatsiyalar hisobvarag'ining muhim tarkibiy qismi – bu savdo balansi bo'lib, tovarlar eksporti va importi o'rtasidagi farqni ifoda etadi. Savdo balansining o'zgarishi turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, eksportning importdan oshishi mamlakat tovarlariga jahon bozorlarida talabning oshganligi bilan izohlanadi. Agar butun dunyo mazkur mamlakatning eksport tovarlarini xarid qilsa, shuningdek, uning rezidentlari mahalliy tovarlarni import tovarlaridan afzal bilsa, demak xulosa qilish mumkinki, mamlakat iqtisodiyotining holati yaxshi hisoblanadi. Aksincha, savdo balansining defitsiti mazkur mamlakat eksport tovarlarining yetarli darajada raqobatbardosh emasligi va aholi turmush tarzini himoya qilish uchun zaruriy choralar ko'rish lozimligidan dalolat berishi mumkin. Bunday tahlil agar savdo balansidagi o'zgarish haqiqatda mazkur davlat tovarlariga bo'lgan talabning ortishi yoki kamayishi hisobiga yuz bersa maqsadga muvofiq sanaladi. Biroq savdo balansiga boshqa omillarning ta'siri ham sezilarli bo'lishi mumkin. Jumladan, qulay investitsion muhit mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish bilan birga xorijdan sotib olinadigan asosiy vositalar miqdorining ham ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu holat ham savdo balansi defitsitini yuzaga keltiradi, lekin mamlakat iqtisodiyotiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Joriy operatsiyalar balansi kengroq axborotni o'zida jamlab, tovar va xizmatlar harakati bilan bog'liq aktivlar oqimini aks ettiradi. Joriy operatsiyalar bo'yicha ijobiy saldo tovar, xizmat va xadyalar harakati bo'yicha kredit debetdan yuqoriligini anglatadi. Boshqacha aytganda, ijobiy saldo mamlakat boshqa mamlakatlarga nisbatan netto investor hisoblanadi. Aksincha joriy operatsiyalar bo'yicha defitsit mamlakatning sof qarzdor ekanligidan dalolat beradi.

Joriy operatsiyalar balansi defitsitining uzoq muddatli xorijiy kapital hisobidan moliyalashtirilishi muvozanat mezonini sifatida to'lov balansining umumiy saldosi tushunchasining paydo bo'lishiga olib keldi.

To'lov balansining davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

Birinchidan, to'lov balansiga muvozanatsizlik xos bo'lib, bu holat yoki defitsit, yoki haddan tashqari aktiv qoldiq ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu nomutanosiblik valyuta kursi dinamikasiga, kapital oqimiga, iqtisodiyotning holatiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, XX asrning 30-yillarida oltin-deviz standarti joriy qilingandan so'ng, to'lov balansini muvozanatlashtirishning baho mexanizmi ish bermay qo'ydi. Shu sababli ham, to'lov balansini davlat tomonidan ma'lum tadbirlar orqali boshqarilishi maqsadga muvofiq bo'lib qoldi.

Uchinchidan, xo'jalik aloqalari tobora globallashib borayotgan hozirgi davrda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida to'lov balansining roli borgan sari ortib bormoqda. To'lov balansini muvozanatlashtirish vazifasi-davlatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, inflyatsiyani jilovlab turish va ishsizlikni kamaytirish kabi vazifalar bilan bir qatorda e'tirof etilmoqda.

To'lov balansini muvozanatlashtirish, odatda, bir qancha ichki va tashqi omillarning to'lov balansiga ta'sirini baholashni taqozo etadi. Aktiv balansga ega bo'lgan davlatlar, xalqaro hisob-kitoblarga kirishuvchi mamlakatlarda makroiqtisodiy barqarorlikni mavjud bo'lishidan manfaatdor bo'ladi.

Defitsitli to'lov balansiga ega bo'lgan davlatlar esa, aktiv balansga ega bo'lgan o'z hamkorlaridan import bo'yicha cheklovlarni kamaytirish, mazkur mamlakatlarga kapital chiqarilishini rag'batlantirish kabilarni talab qiladi.

To'lov balansida defitsit mavjud bo'lgan davlatlar tomonidan, eksportni rag'batlantirish, import qilinayotgan tovarlarni kamaytirishga, xorijiy kapitalni jalb qilishga, kapitalni olib chiqib ketishni chegaralashga qaratilgan quyidagi tadbirlar qo'llaniladi:

Deflyatsion siyosat. Bu siyosat, ichki talabni kamaytirishga yo'naltirilgan holda, o'z ichiga byudjet mablag'larini aholi ehtiyojlariga kamroq sarflash, baholarni va ish haqlarini muzlatish kabilarni qamrab oladi. Uning asosiy instrumentlaridan biri bo'lib, moliyaviy va pul-kredit choralari hisoblanadi: byudjet defitsitini kamaytirish, Markaziy bankning hisob stavkalarini o'zgartirishi (diskont siyosati); kredit cheklovlari; pul muassasining o'sib borishiga chegara qo'yish. Iqtisodiy pasayish, ishsizlikning yuqori ko'rsatkichi va to'la foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari sharoitida deflyatsiya siyosatini qo'llash, ishlab chiqarish va bandlikning yanada pasayishiga olib keladi. Bu esa, aholining turmush darajasiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatib, vaziyatni yumshatish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar qo'llanilmasa, ijtimoiy nizolar keltirib chiqarishi mumkin.

Devalvatsiya. Bu milliy valyuta kursining rasman pasaytirilishidir. Bu tadbir milliy eksportni rag'batlantirish va importni jilovlash bilan bog'liq maqsadlarda amalga oshiriladi. Ammo, to'lov balansini tartibga solishda devalvatsiyaning roli, uni o'tkazish tartiblari va ularga hamkorlik qiluvchi mamlakatning umumiy iqtisodiy va moliyaviy siyosatiga bog'liq bo'ladi. Devalvatsiya faqatgina, raqobatbardosh tovarlarning eksport salohiyati va jahon bozoridagi qulay vaziyatlarning mavjudligi sharoitidagina tovarlar eksportini rag'batlantirishi mumkin. Devalvatsiyaning importni cheklashga ta'siri esa, mamlakatning importni cheklash bo'yicha keskin choralar qo'llash imkoniyatlarining pasayishidan kelib chiqadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hamma mamlakatlarda ham import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish siyosati muvaffaqiyatli chiqavermaydi.

Devalvatsiya importni cheklashi bilan, mamlakat ichida tovarlar ishlab chiqarish xarajatlari ortishiga, narxlarning ko'tarilishiga va oqibatda, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik qobiliyatining yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun, bu tadbir mamlakatga vaqtinchalik ustuvorlik berishi mumkin, ammo u to'lov balansining defitsitini keltirib chiqaruvchi sabablarni to'liq bartaraf etishga qodir emas.

Valyuta cheklovlari. Ushbu tadbir eksport qiluvchilarning xorijiy valyutalardagi tushumlaridan foydalanishni cheklash, xorijiy valyutani import qiluvchilarga sotishni litsenziyalash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, u valyuta operatsiyalarini maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan banklarda amalga oshirilishi hamda to'lov balansidagi defitsitni kamaytirish maqsadida, kapital eksportini chegaralash va uning oqib kelishini rag'batlantirish, tovarlar importini chegaralashga qaratilgan tadbirlar yig'indisi sifatida ham e'tirof etiladi. XX asrning 70-yillari oxiri 80-yillarining boshlarida joriy operatsiyalar bo'yicha yuritilayotgan siyosatning erkinlashuviga qaramasdan, konvertirlanadigan valyutaga ega bo'lgan mamlakatlarning deyarli 90 foizida kapitallarning xalqaro harakatida turli xil cheklovlar mavjud bo'lgan. Elning ko'pchilik davlatlari ushbu cheklovlarni faqatgina o'tgan asrning 90-yillariga kelib bekor qildi.

Moliya va pul–kredit siyosati. To'lov balansidagi defitsitni bartaraf etish maqsadida eksport qiluvchilarga byudjet subsidiyalari beriladi, proteksionistik maqsadlarda import bojlari oshiriladi, mamlakatga pul oqimining kirib kelishini rag'batlantirish maqsadida qimmatli qog'ozlar egasi bo'lgan xorijliklardan olinadigan soliqlarni bekor qilish kabi chora-tadbirlardan keng foydalaniladi.

11.5. Xalqaro hisob-kitob shakllari

Xalqaro hisob-kitoblar – bu turli davlatlarning o'zaro va ularning yuridik shaxslari va fuqarolari o'rtasida iqtisodiy va boshqa munosabatlarda vujudga keldigan pullik talablar va majburiyatlarning tartibga solinishi va amalga oshirilishidir. Xalqaro hisob-kitoblar deganda, turli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar natijasida yuzaga keladigan pullik talablar va majburiyatlar yuzasidan to'lovlarni amalga oshirish tizimi tushuniladi.

“Xalqaro hisob-kitoblar” tushunchasi:

– jahon amaliyotida ishlab chiqilgan va xalqaro hujjatlar va udumlar bilan mustahkamlab qo'yilgan hisob-kitoblarni amalga oshirish va to'lovlarni o'tkazish shartlari va tartibini;

– xalqaro hisob-kitoblarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha banklarning amaliy faoliyatini qamrab oladi.

Tovarlar ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonlarining baynalmilallashuvi, xalqaro hisob-kitoblarning mazmunida yangi o‘zgarishlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Xalqaro hisob-kitoblar keng qamrovli bo‘lib, u eksport-import operatsiyalari, tijorat tusiga ega bo‘lmagan to‘lovlar - sayyohlik, sport, fuqarolar tomonidan xorijiy davlatlarga pul o‘tkazishlar, xorijiy davlatlarda diplomatik va savdo vakolatxonalarini ochish, o‘zga davlatlar hududida harbiy qismlarni saqlash hamda kapitallar va kreditlarning harakati bo‘yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro hisob-kitoblarning samaradorligiga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

- davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar;
- valyuta qonunchiligi;
- xalqaro savdo qoidalari va udumlari;
- bank amaliyoti;
- tashqi savdo shartnomalari va kredit bitimlarining shartlari;
- pullik hisob-kitoblar ishtirokchilarining to‘lovga qobilligi.

O‘tish davri qiyinchiliklarini boshdan kechirayotgan davlatlarda xalqaro hisob-kitoblarning tovarlar, xizmatlar va bajarilgan ishlar bo‘yicha to‘lovlarning o‘z vaqtida kelib tushishini kafolatlovchi shakllari keng qo‘llanilishi mumkin.

Tashqi savdo shartnomalarida valyuta-moliyaviy va to‘lov shartlari yaqqol aks ettirilib, ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- baho valyutasi;
- to‘lov valyutasi;
- to‘lov sharti;
- hisob-kitob shakli.

Baho valyutasi - bu tovarning bahosi o‘lchanadigan valyuta. Ushbu valyutani tanlashda tovarning turi, hukumatlararo shartnomalarning shartlari, va ayniqsa, valyutaning barqarorligi hisobga olinadi. Shartnomada ko‘rsatilgan baho

tarkibiga tovarlarni ishlab chiqarish, uni yuklash, import qiluvchi mamlakat portiga tushirish, omborxonalarga joylashtirish, import qiluvchiga uni yetkazib berish xarajatlari kiradi. Tovarlar bahosini shartnomada belgilashning 5 asosiy usuli mavjud:

1. Qat'iy belgilangan baholarni o'rnatish. Ushbu baho shartnoma imzolalanayotgan vaqtda o'rnatiladi va shartnoma ijro etilishi mobaynida o'zgarmasdan qoladi.

2. Tovarlar bahosini, shartnoma imzolalanayotgan paytda yuzaga kelgan bozor bahosida hisobga olish. Agar xomashyo eksport qilinayotgan bo'lsa, ularning biron-bir tovar birjasida (London yoki Nyu-York tovar birjalari va h.k.) xorijiy bahosi asosida shartnoma ijro etiladi.

3. Baho qat'iy belgilab qo'yilishi. Ammo, shartnoma imzolalanayotgan paytda tovarlarning bahosi keskin o'zgarsa, belgilangan baho o'zgartiriladi.

4. Tovarlar bahosi qat'iy belgilab qo'yiladi, ammo xarajatlar tarkibida o'zgarish bo'lgan taqdirda belgilangan baho o'zgartiriladi. Bu usul, ko'pchilik hollarda, asbob- uskunalarini sotishda qo'llaniladi.

5. Aralash shakl. Tovarlarning ma'lum qismi qat'iy belgilangan baholarda, ma'lum qismi o'zgartiriladigan baholarda sotiladi.

To'lov valyutasi – bu haqiqatda import qiluvchining majburiyati to'lanadigan valyuta. Agar, to'lov valyutasi nobarqaror valyuta bo'lsa, unda shartnomada tovarlarning bahosi barqaror valyutada o'lchanadi.

To'lov shartlari – bu to'lov naqd valyutalarda yoki naqdsiz shaklda, ochiq hisob-raqamlari orqali, kredit shaklida yoki veksellar orqali amalga oshirilishi mumkinligini kelishib olishdir.

Hisob-kitob shakllari tovarni jo'natishga oid hujjatlar va to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish, uzatish va to'lash usullari sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro hisob-kitoblar 2 guruhga bo'linadi: *hujjatlashtiriladigan; hujjatlashtirilmaydigan* to'lovlar.

Hujjatlashtiriladigan to'lovlarga:

1. Hujjatlashtirilgan akkreditiv;
2. Inkasso bilan amalga oshiriladigan hamma to'lovlar kiradi.


Hujjatlashtirilmaydigan to'lovlarga:

1. To'lov topshiriqnomasi;
2. Cheklar;
3. SWIFT kiradi.

Hujjatlashtirilmaydigan to'lovlarni turkumlashda mezon shartlarini to'lov shartlari o'taydi. Agar, har qanday hisob-kitob quyidagi 3 to'lov asosida amalga oshirilsa, bu hujjatlashtirilmaydigan hisob-kitob bo'lib hisoblanadi:

1. Oldindan to'lash;
2. Tovarni olgandan so'ng to'lash;
3. Ochiq hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblar.

Jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan asosiy hisob-kitob shakllari sifatida bank o'tkazmasi, inkasso va hujjatlashtirilgan akkreditivni ajratib ko'rsatish mumkin. Ta'kidlash lozimki, xalqaro hisob-kitoblarning sezilarli qismi (80%) inkasso va akkreditiv hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu hisob-kitob shakllarida importyor shartnomadagi to'lov shartlariga muvofiq to'lovni amalga oshiradi, eksportyor esa, shartnomada ko'rsatilgan tovarni yetkazib bersagina to'lovni qabul qiladi. Bank o'tkazmasi – bir bank tomonidan boshqa bank topshirig'iga ko'ra ma'lum pul summasini o'tkazmani qabul qiluvchiga to'lanishidir.



1. O'tkazmani amalga oshirish to'g'risida topshiriq.
2. O'tkazmaning amalga oshirilishi.

3. Benefitsiarni uning hisobraqamiga mablag' ajratilganligi xususida xabardor qilish.

Tashqi savdo shartnomasining "To'lov shartlari" bo'limida yetkazib beriladigan tovar bo'yicha hisob-kitoblar bank o'tkazmasi shaklida amalga oshirilishi ko'rsatilishi lozim. Bundan tashqari, o'tkazmani qabul qiluvchining rekvizitlari (hisobraqami, eksportyor bankining nomi, manzili) va to'lov muddati ko'rsatilishi kerak.

To'lov topshiriqlarini xorijiy bank-korrespondentga uzatishning eng keng tarqalgan vositalari bo'lib, telegraf, SVIFT tizimi va xorijiy banklar bilan Micro Cash Register modem aloqalari tizimi hisoblanadi.

SWIFT (SWIFT– Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication) - bu butunjahon bank-moliya telekommunikatsion tarmog'i bo'lib, bank-moliya axborotlarini tezlik bilan uzatishga mo'ljallangan. U ma'lumotlarni uzatish va operatsiyalarni amalga oshirish tizimi bo'lgani uchun, uni hisob-kitoblarning mustaqil shakli sifatida hisobga olish maqsadga muvofiq emas.

SWIFT xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishning an'anaviy usullari bilan taqqoslaganda bir qator afzalliklarga ega, jumladan, tezkor (bankdan bankka ma'lumot yetkazish vaqti juda qisqa), ishonchli va tejamkor hisoblanadi.

Micro Cash Register tizimi Bank of New York, Bankers Trust Company, Commerzbank, Dresdner Bank kabi yirik banklar tomonidan taklif etiladi.

Hisob-kitoblarning inkasso shaklida bank mijozining topshirig'iga ko'ra yetkazib berilgan tovar (ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ishlar) uchun importyor-dan to'lovni qabul qiladi va bu mablag'larni eksportyor hisobraqamiga o'tkazadi. Hisob-kitoblarning inkasso shaklini qo'llash Xalqaro savdo palatasining unifikatsiyalashgan qoidalari asosida tartibga solinadi.

Inkasso bo'yicha unifikatsiyalashgan qoidalarga muvofiq, bank ushbu operatsiyani eksportyor ko'rsatmasi asosida amalga oshiradi.

Inkasso bo'yicha operatsiyada talab etiladigan hujjatlarni ikki guruhga ajratish mumkin: moliyaviy hujjatlar (o'tkazma veksel, oddiy veksel, to'lovni qabul qilish uchun foydalaniladigan boshqa hujjatlar) va tijorat hujjatlari (yuk hujjatlari, guvohnomalar va b.). Ushbu hujjat turlariga binoan, inkasso sof va hujjatlashtirilgan inkassoga bo'linadi. Sof inkasso faqat moliyaviy hujjatlarni taqozo etgani holda, hujjatlashtirilgan inkassoda tijorat hujjatlari, ba'zan moliyaviy hujjatlar ham talab etiladi.

Inkasso bo'yicha hisob-kitoblarni quyidagicha ifodalash mumkin.


1. Tovarni yuklab jo'natish.

2a-2b. Inkasso topshirig'i (zaruriy hujjatlar va importyordan pulni olish shartlari borasidagi ko'rsatma bilan birgalikda).

2.Importyorni inkasso to'lovi bo'yicha xabardor qilish.


3.To'lovni amalga oshirish bo'yicha topshiriq.

4.To'lov hujjatlarini berish (ular asosida importyor tovarlarni qabul qiladi).



Hisob-kitoblarning inkasso shakli importyor uchun qulay hisoblanadi, chunki u haqiqatda yetkazib berilgan tovar uchun to'laydi, inkasso bo'yicha operatsiyani amalga oshirish xarajatlari esa yuqori emas.

Hisob-kitoblarning inkasso shakli ayrim kamchiliklardan holi emas, birinchidan, banklar orqali hujjatlar aylanmasi uzoq davom etadi; ikkinchidan, importyor unga taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha to'lovdan bosh tortishi yoki xorijga valyuta o'tkazish uchun ruxsatga ega bo'lmasligi mumkin.



Hujjatlashtirilgan akkreditiv shunday bitimki, unga ko‘ra bank-emitent mijozi (importyor) topshirig‘iga ko‘ra benefitsiar foydasiga u taqdim etgan hujjatlar bo‘yicha to‘lovni amalga oshirish yoki trattani aktseptlash majburiyatini oladi.

Hisob-kitoblarning akkreditiv shakli eksportyor manfaatlariga to‘liq javob beradi, ya’ni eksport tushumining o‘z vaqtida kelib tushishini ta’minlaydi.

Hujjatlashtirilgan akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblar quyida keltirilgan.

1. Importyorning bank-emitentga akkreditiv ochish to‘g‘risidagi arizasi.

2a-2b. Benefitsiar (eksportyor)ni uning foydasiga akkreditiv ochilganligi to‘g‘risida xabardor qilish.

3. Tovarni yuklab jo‘natish.

4a-4b. Akkreditiv uchun zarur bank hujjatlarini taqdim etish.

5a-5b. Olingan hujjatlar bo‘yicha to‘lovni amalga oshirish va benefitsiar hisobraqamiga eksport tushumini o‘tkazish.

5v. Importyor hisob raqamini debetlash va unga to‘lov uchun asos bo‘lgan hujjatlarni berish.

Akkreditivning turli-tuman ko‘rinishlari bo‘lib, uni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Bank-emitent tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi nuqtai-nazaridan: a) chaqirib olinadigan akkreditiv – benefitsiarni ogohlantir-masdan xohlagan paytda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin; b) chaqirib olinmaydigan akkreditiv – manfaatdor tomonlar roziligisiz akkreditivni o'zgartirmaslik yoki bekor qilmaslik borasida bank emitent qat'iy majburiyat oladi.

2. Akkreditiv bo'yicha boshqa bankning qo'shimcha majburiyati nuqtai-nazaridan: tasdiqlangan va tasdiqlanmagan akkreditiv. Agar bank-emitent boshqa bankdan chaqirib olinmaydigan akkreditivni tasdiqlashni so'rasa, bu tasdiq bank-emitentning to'lov, trattani aktseptlash bo'yicha majburiyatiga qo'shimcha ravishda tasdiqlovchi bankning qat'iy majburiyatini anglatadi.

3. Akkreditivni yangilash imkoniyati nuqtai-nazaridan revolver akkreditiv – hujjatlar to'liq foydalanib bo'lingach yoki har bir hujjat taqdim etilgandan so'ng, dastlabki akkreditiv summasini tiklash sharti bilan shartnoma qiymatining ma'lum qismiga ochiladi. Akkreditivning bu turi uzoq muddat davomida muntazam tovarlarni yetkazib turishni ko'zda tutuvchi yirik summadagi shartnomalar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi va muomala xarajatlari qisqartirish imkonini beradi.

4. Akkreditivning ikkinchi benefitsiar (tovarning bevosita yetkazib beruvchisi) tomonidan foydalanilishi imkoniyati nuqtai-nazaridan: o'tkazma (transferabel) akkreditiv – benefitsiar topshirig'iga ko'ra akkreditiv to'liq yoki qisman ikkinchi benefitsiarga o'tkazilishi mumkin. Biroq o'tkazma akkreditiv bir marotaba o'tkaziladi.

5. Valyutaviy qoplashning mavjudligi nuqtai-nazaridan: qoplangan va qoplanmagan akkreditiv. Qoplangan akkreditivni ochishda bank-emitent akkreditiv summasini avizolovchi bankka o'tkazadi. Akkreditivni qoplashning boshqa shakli sifatida hisobraqamdagi zarur mablag'larni operatsiyalarda foydalanilishini cheklash, sug'urta depozitlari kabilarni keltirish mumkin.

Xalqaro hisob-kitoblarda qatnashuvchi subyektlar bo'lib, hukumatlar, davlat organlari, Markaziy banklar, tijorat banklari, maxsus moliya-kredit institutlari

(Pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, kredit ittifoqlari, lombardlar va h.k.), korporatsiyalar, xalqaro va hududiy moliya-kredit tashkilotlari (XVF, XTTB, YETTB, OTB va h.k.) hisoblanadi.

Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha birinchi o'rinni tijorat banklari egallaydi. Sababi shundaki, xalqaro operatsiyalarning asosiy qismi – tashqi savdo operatsiyalari va kapitallar hamda kreditlarning harakati bo'yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblarga to'g'ri keladi. Ushbu hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi tijorat tuzilmalarining milliy va chet el valyutalaridagi joriy hamda depozit hisob-raqamlari, tijorat banklarida joylashgan. Markaziy banklar esa, tijorat tuzilmalariga kredit-hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega emas. Demak, tijorat banklari orqali tijorat tusidagi operatsiyalarning asosiy qismi amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishdagi mavqei, ularning moliyaviy jihatdan mustahkamligiga, elektron aloqa tizimlari bilan yaxshi jihozlanganligiga, obro'siga, rivojlangan, keng tarmoqli xorijiy filiallar va bo'linmalari, ko'p sonli vakillik hisob-raqamlariga ega ekanligiga bog'liq. Tijorat banklarining xorijiy bank va korporatsiyalar bilan amalga oshiradigan har qanday operatsiyalari talab va majburiyatlar orqali o'tadi.

Tashqi iqtisodiy bitimlarning, shu jumladan, tashqi savdo bitimlarining amalga oshishi, ya'ni ularni o'z vaqtida va kam xarajat sarflagan holda amalga oshirish shartnomalari moliyaviy va to'lov shartlariga bog'liq. Shu sababli, tashqi savdo munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlar, shartnomani imzolash paytida, uning barcha jihatlarini puxta kelishib oladilar. Bunda, odatda, eksport qiluvchi va import qiluvchi manfaatlarining qarama-qarshiligi yuz beradi. Masalan, eksport qiluvchi to'lov summasining ma'lum qismini oldindan to'lab qo'yilishini, ko'pchilik hollarda talab qiladi. Ushbu to'lov summasining miqdorini aniqlashda qarama-qarshilik yuzaga keladi. Eksport qiluvchi imkoniyat darajasida ko'proq summani oldindan to'lashni talab qiladi, import qiluvchi esa, iloji boricha, kamroq summani oldindan to'lashga harakat qiladi, chunki bu summa ma'lum vaqt import

qiluvchining xo‘jalik aylanmasidan chiqib ketadi. Yoki hisob-kitob shakllarini tanlash masalasini olaylik. Eksport qiluvchi imkon qadar to‘lov kafolatlanadigan hisob-kitob shaklini tanlashni taklif qiladi. Masalan, hujjatlashtirilgan akkreditiv ana shunday hisob-kitob shakli. Import qiluvchi uchun esa, bu shakldan foydalanish maqbul emas. Chunki, bunda import qiluvchining chiqimi ko‘payadi. Masalan, hozirgi kunda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining tijorat banklari hujjatlashtirilgan akkreditiv xizmati ko‘rsatganligi uchun 3-5 foiz miqdorida xizmat haqi oladi.

11.6. Xalqaro kredit

Xalqaro kredit – bu tovar va valyuta ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berishlilik, muddatlilik, foiz to‘lashlilik shartlari asosida berish bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ssuda kapitali harakatidir.

Xalqaro kredit munosabatlarining subyektlari sifatida tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, regional va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari qatnashadi.

Xalqaro kreditni yuzaga kelishiga sabab bo‘lib, ishlab chiqarishning milliy doiradan chiqishi, xo‘jalik aloqalari baynalminallashuv jarayonining tezlashishi, xalqaro kapitallarning markazlashuvi hamda ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hisoblanadi.

Xalqaro kredit munosabatlarini tashkil qilish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Qaytarib berishlilik: agar olingan mablag‘lar qaytarilmasa, pul kapitalini qaytarib bermaslik shakli namoyon bo‘ladi, ya’ni moliyalashtirish yuzaga keladi;
2. Muddatlilik, ya’ni kredit shartnomasida ko‘rsatilgan muddatda kreditni qaytarilishini ta’minlash;
3. Ta’minlanganlik, ya’ni olingan kreditni to‘lashning kafolatlan-ganligi;
4. Maqsadlilik, ya’ni ssudani aniq obyektlarga yo‘naltirishni ko‘zlash va uni birinchi navbatda kreditor davlatning eksportini rag‘batlantirish uchun qo‘llash;

5. Foiz to'lashlilik.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy aloqalarda ssuda kapitallari harakatini o'ziga xos xususiyatini namoyon etib, quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

1. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni talablarini qondirish uchun ssuda kapitallarini mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlash. Ssuda kapitallari xalqaro kredit mexanizmi orqali foydasi ko'proq, daromadliroq bo'lgan tarmoqlarga intiladilar. Shu orqali kredit milliy daromadni o'rtacha daromadga tenglashishiga imkoniyat yuzaga keltiradi va uning massasini oshishiga olib keladi.

2. Haqiqiy pullarni kredit pullarga almashtirish, naqdsiz to'lovlarni rivojlantirish va tezlashtirish hamda naqd valyuta aylanmasini xalqaro kredit operatsiyalari bilan almashtirish orqali xalqaro hisob-kitoblar muomalasidagi sarf-xarajatlar iqtisod qilish. Xalqaro kredit asosida xalqaro hisob-kitoblarning kredit vositalari - veksellar, cheklar, shu jumladan, bank o'tkazmalari, depozit sertifikat-lari va boshqalar yuzaga keldi. Ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabat-lardagi muomalasi vaqtini tejash orqali kapitalning ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilishi davrini uzaytiradi va shuning asosida, ishlab chiqarishni kengay-tirish va foydaning o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Kapitalning jamlanishi va markazlashishini tezlashtirish. Xorijiy kredit-larni jalb qilish tufayli qo'shimcha qiymatni kapitalga aylanish jarayoni tezlashadi, shaxsiy jamg'armalar chegarasi kengayadi, bir davlat tadbirkorlarining kapitallari boshqa davlatlarning mablag'lari qo'shilishi oqibatida ko'payadi. Xalqaro kredit avvaldan yakka korxonalarni aktsionerlik jamiyatlariga aylanishiga, yangi firmalar va monopoliyalarni paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Xalqaro kreditning funktsiyalarining ahamiyati katta va u milliy va jahon xo'jaligi rivojlanishiga qarab o'zgarib turadi. Hozirgi sharoitda xalqaro kredit iqtisodiyotni tartibga solish funktsiyasini bajarmoqda va o'zi ham tartibga solinish obyekti bo'lib hisoblanmoqda.

Xalqaro kredit o'z funktsiyalarini bajarishda ikkiyoqlama - ijobiy va salbiy rol o'ynaydi.

Xalqaro kreditning iqtisodiyotdagi ijobiy o‘rni - uni takror ishlab chiqarishni rivojlanishini ta’minlashda va kengaytirishda namoyon bo‘ladi. Xalqaro kredit tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro kredit ishlab chiqarishni baynalminallashuviga va ayirboshlashuviga, jahon bozorini tashkil topishiga va rivojlanishiga, xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashuviga olib keladi.

Xalqaro kredit takror ishlab chiqarish jarayonini quyidagi yo‘nalishlar orqali tezlashtiradi.

Birinchidan, kredit mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini rag‘batlantiradi, shu orqali bozorda kon’yunkturani ko‘taruvchi talabni yuzaga keltiradi. Tashqi savdo kreditda xalqaro norma bo‘lib hisoblanmoqda. Ayniqsa uzoq davr mobaynida tayyorlanadigan, iste’mol qilinadigan va bahosi baland tovarlar uchun. Mahsulotlarning bahosini va jahon savdosida mashina va asbob-uskunalarining ulushini oshishi eksportyorlarni ham, importyorlarni ham tashqi savdo kreditlariga bo‘lgan qiziqishlarini orttirmoqda.

Hozirgi zamon sharoitida kreditor-mamlakatdan eksport yetkazib beruvchi “bog‘liqlik” kreditining salmog‘i oshdi. Kreditlanayotgan davlatning tovarlarini sotib olish uchun qilinadigan xarajat zayomning sharti bo‘lib hisoblanmoqda. Xuddi shu orqali xalqaro kredit kreditor-mamlakat firmalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqaro kredit chet el xususiy investitsiyalari uchun qulay muhit yuzaga keltiradi, chunki odatda kreditor-mamlakat investorlariga imtiyozlar berish majburiyatlari qo‘yiladi; infratuzilmani tashkil etish, shu jumladan, chet el va qo‘shma korxonalarni faoliyat ko‘rsatishi, xalqaro kapitalga aloqasi bor milliy korxona va banklarning pozitsiyasini kuchayishiga yordam beradi.

Uchinchidan, kredit - mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga xizmat qiluvchi xalqaro hisob-kitob va valyuta operatsiyalarini to‘xtovsizligini ta’minlaydi.

To'rtinchidan, kredit - mamlakat tashqi savdo operatsiyalarini iqtisodiy samaradorligini oshiradi va tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa turlarini rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Xalqaro kreditning iqtisodiyotdagi salbiy o'rni - bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda uning qarama-qarshiligini kuchayishida namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotida nomutanosiblik chuqurlashadi, kredit-tovarlarni qayta ishlashni tezlashtiradi, mamlakatlar o'rtasida ssuda kapitallarini qayta taqsimlaydi hamda iqtisodiy ko'tarilish va davriy pasayish davrlarida ishlab chiqarishni juda tezlashtiradi. Xalqaro kredit ijtimoiy ishlab chiqarishdagi nomutanosiblikni kuchaytiradi, buning oqibatida daromadli tarmoqlar rivojlanishi osonlashadi, shu bilan birgalikda chet el kapitali jalb qilinmagan tarmoqlarning rivojlanishi sekinlashadi.

Kredit siyosati kreditor mamlakatning jahon bozoridagi o'rnini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, xalqaro kreditni qarz sifatida olgan mamlakatdagi daromadlarni qarz bergan mamlakatga olib o'tishda foydalaniladi. Shu bilan birga ssudani qaytaruvchi har yilgi foiz to'lovlari, jamiyatning sof daromadini miqdorini ko'paytiruvchi, ishlab chiqarishni o'sishini ta'minlovchi jamg'armalarning tashkil topishi, shu jamg'armalarning tashkil topish manbalari qarzdor mamlakatlarga salbiy ta'sir etadi.

Ikkinchidan, xalqaro kredit qarz oluvchi mamlakat tomonidan kreditor mamlakatlar uchun qulay iqtisodiy va siyosiy muhit yaratishni taqazo etadi.

Yetakchi mamlakatlar o'z o'rnini yanada mustahkamlash uchun banklar, hukumatlar, xalqaro va regional valyuta-kredit va moliya tashkilotlari orqali vaqti-vaqti bilan ularga mos kelmagan siyosat yuritayotgan davlatlarga nisbatan kredit diskriminatsiyasini va kredit blokadasini qo'llashadi.

Kredit diskriminatsiyasi - bu kredit olishda, undan foydalanishda yoki xalqaro kreditni to'lashda ma'lum bir qarz oluvchilarga iqtisodiy va siyosiy bosimni yuzaga keltiruvchi og'ir va murakkab shartlarning qo'yilishidir.

Kredit diskriminatsiyasining asosiy usullari bo'lib, kredit bo'yicha cheklashlar, foiz stavkasini, komission yig'implarni oshirish, kutilmagandan kreditdan foydalanishni to'xtatish yoki kredit summasini kamaytirish hamda iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi chora-tadbirlarni ko'rish hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqaro kreditdan foydalanishda uning ikkiyoqlama roli namoyon bo'ladi, bir tomondan mamlakatlarning o'zaro foydali aloqalarini rivojlantirsa, boshqa tomondan - raqobat kurashi vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqarishning va ayirboshlashning baynalminallashuvi, jahon xo'jaligi aloqalarini yangi shakllarini vujudga kelishi xalqaro kredit shakllarini xilmaxilligini rivojlanishiga obyektiv asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro kredit shakllarini bir necha turga bo'lib guruhlash mumkin (11.8-rasm):

1. Manbalari bo'yicha tashqi savdoni ichki, tashqi (chet) va aralash kreditlash va moliyalashtirish bo'yicha farqlanadi.

2. Tashqi iqtisodiy bitimning qarz mablag'lari hisobidan qoplanishi bo'yicha:

- tijorat krediti (asosan tashqi savdo va xizmatlar bilan bog'liq kreditlar);
- moliyaviy kredit (istalgan boshqa maqsadlarda foydalaniladigan, shu jumladan, kapital quyilmalar, investitsion obyektlarni qurish, qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish, tashqi qarzni to'lash, valyuta intervensiyasi maqsadlaridagi kreditlar);
- "oralik" kreditlar (kapitallar, tovar va xizmatlarning chiqib ketishining aralash shakllariga xizmat qilishga mo'ljallangan).

Xalqaro kreditni ko'rinishi bo'yicha 2 ta asosiy shaklga bo'lib ko'rsatish mumkin:

1. Xalqaro bank krediti;
2. Xalqaro tijorat krediti.


Xalqaro bank krediti asosan valyuta (pul) ko‘rinishida bo‘ladi. Xalqaro tijorat krediti esa, odatda tovar ko‘rinishiga ega.

Ana shu 2 ta asosiy kredit shaklidan kelib chiqadigan bir qancha kreditlar mavjud:

1. Firma (tijorat) krediti - odatda eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to‘lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishiga tushuniladi. Tashqi savdoda tijorat krediti tovarli operatsiyalarga bog‘liq hisob-kitoblarda keng qo‘llaniladi. Tijorat kreditining muddati (odatda 2-7 yil) turlicha bo‘ladi va jahon bozori kon’yunkturasi shartlariga, tovarlar turlariga va boshqa bir qator faktorlarga bog‘liqdir. Mashina va asbob-uskunalar (texnologiya, jihozlar)ning eksportini kengayishi xalqaro kredit muddatini uzayishiga olib keldi. Tijorat krediti odatda veksel yoki ochiq schyotlar bo‘yicha beriladigan kreditlar orqali rasmiylashtiriladi.

2. Vekselli kreditda eksportyor tovarni sotish haqida bitim tuzib, o‘tkazma veksel (tratta)ni importyorga jo‘natadi, importyor tijorat hujjatlarini olib aktseptlaydi, ya’ni unda ko‘rsatilgan muddatda to‘lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

3. Ochiq schyotlar bo‘yicha kredit. Bu kredit eksportyor va importyor o‘rtasidagi kelishuvga asoslanadi. Eksportyor jo‘natilgan xar bir tovarlar qiymatini importyorning hisobiga qarz sifatida qayd qilib boradi. Importyor shartnomada ko‘rsatilgan vaqtda kredit summasini to‘lab boradi. Ochiq schyotlar bo‘yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo‘lgan firmalar o‘rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.



11.8-rasm. Xalqaro kredit turlari

Tijorat kreditining yana bir turiga importyorning avans to'lovi (sotib oluvchining avansi)ni kiritish mumkin. Bunda shartnoma tuzilayotgan paytda importyor tomonidan chet ellik mol yetkazib beruvchiga odatda mashina, asbob-uskunalar (texnologiya)ning qiymatidan 10-15 foizi oldindan to'lanadi.

Xarid avansi eksportni kreditlashning bir shakli bo'lib hisoblanadi va shu vaqtning o'zida importyorning majburiyatini ta'minlovchi vositadir. Chunki importyor o'zi buyurtma bergan tovarni sotib olishga majbur bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shug'ullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli o'laroq, xarid avansidan shu davlatlarning qishloq xo'jalik mahsulotlarini olib chiqib ketishda foydalanmoqdalar.

Avans to'lagan tomonning aybi bilan shartnoma bajarilmay qolsa, sarf-xarajatlar undirilgan holda mablag' qaytariladi. Agar shartnoma avans olgan tomonning aybi bilan bajarilmay qolsa, u sotib oluvchiga barcha xarajatlarni to'lagan holda mablag'ni qaytarishi shart.

Avans - shartnomani bajarilishini voz kechish mumkin bo'lgan bitimga nisbatan rag'batlantiradi. Voz kechish mumkin bo'lgan bitimda esa, zarar ko'rgan tomonning xarajatlarini to'lash majburiyatlaridan ikkinchi tomon ozod bo'ladi. Ba'zan xarid - sotib oluvchining avansi to'lovni kechiktirishga o'zaro moslashadi, buning ustiga teng ulushlar bilan ma'lum intervallarga bo'linadi (oy, chorak, yil).

Tijorat krediti sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi munosabatni namoyon qilsada, u odatda bank krediti bilan qo'shib ketadi. Mashina va asbob-uskunalarini sotishda tijorat krediti uzoq muddatga beriladi (7 yilga), bu esa, o'z navbatida, eksportyorning anchagina mablag'ini jalb qilinishiga olib keladi. Shu sababli, eksportyor bank kreditiga murojaat qiladi.

Tijorat krediti hajmi va moliyalashtirish shartlari bo'yicha mashina va asbob-uskunalarini eksportini kreditlash muammosini to'liq echa olmaganligi sababli bank kreditlarining roli oshadi.

Bank krediti - eksport va importni kreditlashda ssuda shaklida namoyon bo'ladi va u tovarlar, tovar hujjatlari, veksellarni, hamda trattani garovga olgan holda beriladi. Ba'zan banklar o'zlariga chambarchas aloqada bo'lgan yirik eksportyor-firmalarga blankli kredit, ya'ni ta'minlanmagan kreditlar berishadi.

Xalqaro savdoda bank kreditlari tijorat kreditlariga nisbatan ustunlikka ega. Ular kredit oluvchini olgan mablag'laridan tovarlar sotib olishga mustaqil foydalanish imkoniyatini tug'diradilar, mol yetkazuvchi firmadan kredit so'rashdan ozod etadilar hamda oxirgi tovarlarga hisob-kitoblarni bank kreditidan foydalanib to'laydilar. Xususiyy banklar ko'pincha davlat mablag'larini va uning kafolatini olgan holda eksport kreditlarini 10-15 yilga bozor stavkasidan pastroq stavkada beradilar. Lekin, banklar qoida bo'yicha, kreditdan o'z mamlakatlari hududidagina foydalanishni chegaralab, uning intilishini ma'lum maqsadli qilib qo'yadilar,

masalan, faqat o'zlarini qiziqtirgan firmaning tovarlarini sotib olishga yo'naltiradilar. Shu orqali bank krediti firma krediti xususiyatlarini o'zida mujassam etadi.

Eksport krediti - eksportyor bankining importyor bankiga yetkazib berilgan mashina, asbob-uskuna va boshqa investitsiya qilingan tovarlarni kreditlashga aytiladi. XX asrning 60-yillaridan boshlab eksportni kreditlashning shakli sifatida xarid krediti (5-8 va undan ortiqroq yil muddatga) yuzaga keldi.

Xarid kreditining o'ziga xos xususiyati bo'lib, eksportyor bankning to'g'ridan to'g'ri milliy eksportyorni kreditlamasdan, balki chet ellik xaridorni, ya'ni, importyor mamlakat firmasi va uning bankini kreditlash hisoblanadi. Shu orqali importyor kerakli tovarlarni yetkazgan mol yetkazib beruvchilar to'lovni xaridorga yoki bankka qarz sifatida qayd qiladi. Odatda, bunday kreditlar ma'lum bir firmaning tovarlari va xizmatlaridan foydalanishda qo'llaniladi. Bunday kreditlash shartnomasida eksportyor ishtirok etmaydi, bu esa o'z navbatida kreditning bahosini oshirish imkoniyatini yo'qotadi. Bank kreditining xaridorga bo'lgan narxi, qoida bo'yicha ssuda kapitallari bozoridagi zayom mablag'lari narxidan ancha past bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

11.7.O'zbekiston Respublikasida valyuta munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston valyuta siyosati istiqlolning dastlabki davrlarida milliy valyuta – “so'm”ni muomalaga kiritish va uning barqarorligini ta'minlash, respublikaga valyuta resurslarini o'z vaqtida tushishi va undan samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, valyuta munosabatlari sohasida qonuniy va me'yoriy bazani takomillashtirishga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik valyuta siyosati mexanizmlari va dastaklarini rivojlantirish, institutsional asoslarini takomillashtirish va pirovardida bozor mexanizmlarini joriy qilishga qaratilgan islohotlar bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasida valyutani tartibga solish tizimini tashkil topishi 1991 yildan, ya'ni “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida” va “O'zbekiston Respub-

likasida xorijiy investitsiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining qabul qilinishi bilan boshlandi. 1993 yilning may oyida "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinganidan so'ng, Markaziy bank tomonidan Moliya vazirligi va valyuta nazoratining boshqa organlari bilan hamkorlikda valyutani tartibga solish masalalari yuzasidan me'yoriy hujjatlar bazasi deyarli to'liq qaytadan yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi hududida 1994 yilning 15 oktyabridan boshlab, rezident va norezident yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi barcha to'lovlar va hisob-kitoblar, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollardan tashqari, faqat milliy valyuta – so'mda amalga oshirilishi belgilandi, shuningdek, erkin ayirboshlanadigan valyutada savdo qilishva xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan, xorijiy fuqarolarga taqiqlab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasining ichki erkin almashtirishini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1193-sonli Farmoni chiqqandan so'ng, xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish va ular bilan respublika ichki bozorini to'ldirish, eksportga mahsulot va tovarlar ishlab chiqarish, O'zbekistonda ishlab chiqarish faoliyatidan belgilangan tartibda olingan foyda va dividendlarning bir qismini repatriatsiya qilish, respublika iqtisodiyotining bazaviy va yetakchi tarmoqlaridagi ustuvor loyihalarni amalga oshirishda qatnashuvchi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar konvertatsiya masalasida ko'proq imkoniyatga ega bo'ldi. Bundan tashqari, 1995 yilning 1 iyulidan boshlab, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxona va tashkilotlarga kredit berish milliy valyutada amalga oshiriladigan bo'ldi.

Respublika hududiga naqd xorijiy valyutani olib kirish va olib chiqib ketish tartibini takomillashtirish va erkinlashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 24 oktyabrdagi "Respublikada naqd xorijiy valyuta muomalasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining chiqishi muhim turtki bo'ldi. Unga ko'ra, norezidentlarning bojxona deklaratsiyasiga

muvofig olib kirgan naqd xorijiy valyutasi miqdorida, rezidentlarning 500 AQSh dollari ekvivalenti miqdorida naqd xorijiy valyutani respublika hududidan erkin olib chiqib ketishiga ruxsat berildi. 1998 yilning 1 aprelidan boshlab, O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga 2000 AQSh dollariga teng miqdorda naqd xorijiy valyutani olib chiqishga, shuningdek, rezident va norezidentlarga naqd xorijiy valyutani belgilangan tartibda bojxona deklaratsiyasini to'ldirish sharti bilan respublikaga erkin olib kelishlariga ruxsat etildi.

1999 yil 1 yanvardan boshlab, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar barcha korxonalar uchun, markazlashtirilmagan eksportdan olingan valyuta tushumining 50 foizi vakolatli banklarga majburiy ravishda sotilishi belgilandi.¹ Bundan tushgan mablag'lar esa, 1999 yilda oziq-ovqat tovarlarini barqaror import qiluvchi Markaziy bankning litsenziya egalariga konvertatsiyaga, shuningdek, davlat ehtiyojlari uchun iste'mol tovarlarini tender asosida xarid qilishga yo'naltiriladigan bo'ldi.

2000 yildan boshlab hukumatimiz tomonidan valyuta bozorini erkinlashtirishga doir muhim chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Bu holat O'zbekiston Hukumati va Markaziy bankning valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan izchil siyosatidan dalolat berar edi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 28 apreldagi "Valyuta va eksport-import operatsiyalari bo'yicha hisob va hisobot tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 171-sonli Qaroriga muvofiq, 2000 yil 1 maydan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistika hisoboti va boshqa hisobotlar, shuningdek, bojxona to'lovlarini hisoblab chiqish O'zbekiston Respublikasi-ning banklararo valyuta bozorida belgilanadigan birjadan tashqari valyuta bozori kursi bo'yicha amalga oshiriladigan bo'ldi. Natijada turli valyuta operatsiyalarini o'tkazishda foydalaniladigan birja va birjadan tashqari valyuta kurslari unifikatsiyalandi (birxillashtirildi). Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 iyundagi 245-sonli "Birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlari

to'g'risida"gi Qarorida 2000 yil 1 iyuldan boshlab birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish mexanizmini joriy etish belgilandi. Bu esa, O'zbekistonda joriy valyuta bozorining birja va birjadan tashqari valyuta bozoriga ajratilishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 30 iyundagi 250-sonli "Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish va valyuta almashtirish operatsiyalarini kengaytirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi valyuta ayirboshlash operatsiyalarini rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi. Ushbu Qarorga muvofiq, 2000 yil 1 iyuldan boshlab naqd xorijiy valyutada yetarlicha resurslarga ega bo'lgan vakolatli banklarga respublika hududida o'zlarining ixtisoslashtirilgan ayirboshlash shoxobchalari orqali naqd O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 7 oktyabrdagi 499- xorijiy valyutani erkin xarid qilish va sotish operatsiyalarini amalga oshirish huquqi berildi. 2001 yilning 1 noyabriga kelib, O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasida banklararo savdo sessiyalari har kuni o'tkazila boshlandi, shuningdek, savdo maydonchasida xorijiy valyutani sotish va sotib olish bo'yicha savdolarini o'tkazish amaliyoti bekor qilindi. Natijada birja savdolarida o'rnatib kelinayotgan turli xil kurslar birxillashtirildi.

Shuningdek, mazkur sanadan boshlab, savdo sessiyalarida ishtirok etish uchun mablag'larni oldindan deponentlash xorijiy valyuta xaridi uchun buyurtmadagi summaning 100 foiz so'mdagi ekvivalenti emas, netting bo'yicha, ya'ni xorijiy valyutani sotishdan tushadigan so'mdagi mablag'larni chegirgan holda amalga oshiriladigan bo'ldi. Bu esa, vakolatli banklarning, qolaversa, xo'jalik subyektlari pul mablag'larining aylanmadan tashqariga chiqadigan miqdorini kamayishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2002 yil 27 iyuldagi 222-V-sonli, 89-sonli va 2002-62-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida naqd xorijiy valyutani qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq respublikamizda naqd xorijiy valyutani qabul qilish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solinadi. Unga muvofiq, respublikamiz hududida

sotilgan tovarlar (ish, xizmatlar) to'lovi uchun AQSh dollari, ingliz funt sterlingi, yevro va yapon ienasi qabul qilinishi mumkin. 2002 yil 1 oktyabrdan boshlab iste'mol mollari importi bilan shug'ullanuvchi korxonalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha vakolatli banklar uchun o'rnatilgan limitlar bekor qilindi. Bunday ijobiy o'zgarish, o'z navbatida, valyuta birjasida valyuta aylanmasi hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. 2003 yilning iyuniga kelib, O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy banki tomonidan, XVF kelishuvining VIII moddasiga oid majburiyatlarni bajarish, xususan, ichki valyuta bozoridagi almashuv kurslarini birxillashtirish, chet el valyutasini sotib olish tartibini yanada soddalashtirish, korxona va tashkilotlar bilan bo'ladigan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni takomillashtirish, naqd chet el valyutasi bozorini erkinlashtirish nazarda tutilgan "Xalqaro joriy operatsiyalar bo'yicha milliy valyutani konvertirlanishini ta'minlash bo'yicha ish Rejasi" ishlab chiqildi va Xalqaro valyuta fondi boshqaruviga taqdim etildi.

Mazkur Ish rejasini bajarilishini ta'minlash maqsadida Hukumat va Markaziy bank tomonidan bir qator chora-tadbirlar qabul qilindi va amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi "Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish va almashtirish kurslarini birxillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 260-sonli Qaroriga muvofiq, 2003 yil 16 iyundan boshlab import iste'mol tovarlari va xizmatlarni (shu jumladan, transport va aloqa) sotishdan olingan so'mdagi tushumni erkin muomaladagi valyutaga konvertatsiya qilish shakllanayotgan talab va taklifdan kelib chiqib belgilangan tartibda banklararo savdo sessiyalarida belgilanadigan kurs bo'yicha amalga oshiriladigan bo'ldi. Mazkur qaror chiqquniga qadar vakolatli banklar mijozlarining import iste'mol tovarlarini sotib olish bo'yicha xorijiy valyutaga bo'lgan talablarini 50 foizlik majburiy sotuvdan tushgan xorijiy valyutadagi mablag'lar hisobidan

Markaziy bankning har bir mijozga belgilab bergan limiti doirasida qondirar edi. Mazkur qarorning ijrosi import tovarlari bo'yicha limitlar amaliyotining bekor

qilinishi va ularni sotib olish uchun zarur bo'lgan xorijiy valyuta mablag'lari mijozlarning buyurtmalariga asoslanib tijorat banklarining banklararo savdo sessiyasidagi ishtiroki bilan amalga oshirila boshlandi.

Bundan tashqari, yuqorida qayd etilgan Ish rejasining 9-bandini bajarish, shuningdek, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibini yanada erkinlashtirish va milliy valyutaning joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 15 avgustdagi 355-sonli "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda valyuta operatsiyalarini erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha chet el valyutasidagi operatsiyalarga oid bir qator cheklovlar bekor qilindi.

2017 yilga qadar joriy to'lov balansi operatsiyalari uchun so'mni xorijiy valyutaga erkin konvertatsiya qilish va birjadan tashqari valyuta bozorini erkinlashtirish borasida evolyutsion yondashuv bilan chora-tadbirlar amalga oshirib kelindi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, 2017 yil respublikamizda valyuta siyosatini erkinlashtirishda o'ziga xos o'rin tutadi.

Dastavval, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son farmoni bilan 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilinib, unda valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash vazifalari belgilandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoniga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish hamda o'z mablag'larini o'zining xohishiga ko'ra erkin tasarruf etish huquqlarini ro'yobga chiqarishni to'liq ta'minlash; valyuta resurslaridan foydalanishda bozor instru-

mentlarining rolini oshirish, valyuta bozorida barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish, valyuta siyosatining noan’anaviy tarmoqlarda eksportni rivojlantirishda, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashda rag‘batlantiruvchi rolini oshirish; valyuta siyosatining yangi sharoitlarida tayanch tarmoqlar korxonalari samarali faoliyat yuritishi uchun ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish kabilar respublikamizda valyuta bozorini yanada liberallashtirish sohasida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Shuningdek, yuqoridagi Farmon bilan 2017 yilning 5 sentyabridan boshlab quyidagi tartib o‘rnatildi:

- O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari joriy xalqaro operatsiyalar (tovar, ish va xizmatlar importi, foyda repatriatsiyasi, kreditlarni qaytarish, xizmat safari xarajatlarini to‘lash vaboshqa savdo xarakteriga ega bo‘lmagan o‘tkazmalar) bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish uchun tijorat banklarida chet el valyutasini cheklovsiz sotib olishlari mumkin;

- jismoniy shaxslar chet el valyutasini tijorat banklari orqali erkin sotishi va sotib olishi hamda sotib olingan mablag‘larni hech qanday cheklovlersiz tasarruf etishi mumkin;

- iste‘mol tovarlari importi bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga chet el valyutasini jismoniy shaxslar uchun o‘rnatilgan tartibda, banklardagi hisobvaraqlar orqali sotib olishga ruxsat beriladi;

- mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha eksportchi korxonalarning chet el valyutasidagi tushumini majburiy sotish bo‘yicha talab bekor qilinadi;

- chet el valyutasida daromad oluvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, fermer xo‘jaliklari o‘z bank hisobvaraqlaridagi naqd mablag‘larni faqat milliy valyutada echib olishga haqlidirlar, chet el valyutasidan chet elda asosli foydalanish hollari bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3270-sonli qaroriga muvofiq, 2017 yilning 1 oktyabridan ustav kapitalining (fondining) minimal miqdori yangi tashkil etiladigan tijorat banklari (100,0 mlrd. so‘m), mikrokredit tashkilotlari (2,0 mlrd. so‘m) va lombardlar (500 mln. so‘m) uchun milliy valyutada belgilandi. Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va “Asaka” ATBning avval xorijiy valyutada shakllantirilgan ustav kapitallarini belgilangan tartibda xorijiy valyutani sotish yo‘li orqali milliy valyutaga o‘tkazish choralari ko‘rildi. Mazkur tijorat banklari tomonidan valyuta mablag‘larini sotishdan olingan daromad (foyda) soliqqa tortish bazasiga kiritilmasligi va ularning aktsiyadorlari ulushini oshirishda foydalanilishi belgilandi.

Milliy iqtisodiyotdagi mavjud vaziyatdan kelib chiqib va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda, Markaziy bank tomonidan tayyorgarlik bosqichida asosiy e‘tibor quyidagi jihatlariga qaratildi:

Birinchidan, inflyatsion bosimni pasaytirish va valyuta bozorida spekulyativ talabning o‘shirishini oldini olish. Ushbu maqsad pul-kredit siyosatini qat’iylashtirish, ya’ni qayta moliyalash stavkasini 9 foizdan 14 foizgacha oshirish orqali amalga oshirildi.

Ikkinchidan, bank tizimining barqarorligini mustahkamlash uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

- davlat mablag‘lari hisobiga tijorat banklarining ustav kapitali oshirildi (670 mln. AQSh dollari miqdorida xorijiy valyutada), natijada bank tizimining umumiy kapitallashuv darajasi 40 foizdan oshdi;

- Markaziy bankning tijorat banklariga likvidlilik taqdim etish mexanizmlari ishga tushirildi;

- bankning prudentsial nazorati choralari kuchaytirildi, shu jumladan har bir bankning valyuta siyosatining yangi sharoitlariga chidamliligini aniqlash maqsadida har bir bank stress-testdan o‘tkazildi;

■ lahzalik likvidlilik koeffitsientiga nisbatan minimal talablar joriy etdi va yil oxiriga kelib u 20% darajaga yetkazildi.

Uchinchidan, yirik va strategik korxonalar moliyaviy holati va xorijiy valyutadagi mavjud qarzlarini hisobga olgan holda qo‘llab-quvvatlandi. Xususan, milliy valyuta devalvatsiyasining korxonalar moliyaviy holatiga salbiy ta‘sirini oldini olish maqsadida ajratilgan kreditlarni restrukturizatsiyalash amalga oshirildi.

To‘rtinchidan, kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rildi.

Beshinchidan, ichki bozorni ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlarga to‘ldirish va tovarlarni olib kirishda bojxona va boshqa to‘lovlarning oshishi hisobiga narxlarning keskin ko‘tarilishining oldini olish uchun import stavkalari pasaytirish nuqtai-nazaridan qayta ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, ichki bozorda barcha hisob-kitoblarni va to‘lovlarni faqat milliy valyutada amalga oshirish tartibini o‘rnatish orqali so‘mga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish choralari ko‘rildi.

Yuqoridagi tayyorgarlik chora-tadbirlari respublika bank tizimida va umuman iqtisodiyotda jiddiy talofatlarsiz valyuta kursini shakllantirishga “silliq” o‘tishni amalga oshirishga imkon berdi.

Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5877- sonli farmoniga muvofiq, valyuta siyosati sohasi uchun istiqbolli yo‘nalishlar belgilab olindi. Xususan:

- banklararo valyuta bozorini modernizatsiya qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta intervensiyasi sohasidagi siyosatini tegishli ravishda takomillashtirish;
- tijorat banklarining market-meyker sifatidagi rolini oshirish;
- valyuta kursining moslashuvchan shakllanishga o‘tish;

- valyuta intervensiyasi uslublarini takomillashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bozor faoliyatiga aralashishni minimallashtirishga qaratilgan va ayirboshlash kursini aniqlashda uning fundamental o‘zgarish trendiga ta’sir o‘tkazmaydigan Valyuta intervensiyasi strategiyasini ishlab chiqish shular jumlasidandir.

Fikrimizcha, inflyatsion targetlash rejimiga o‘tishni samarali tashkil etish uchun valyuta bozorini erkinlashtirish bilan bog‘liq bir qator sharoitlar ta’minlanishi zarur. Xususan, ushbu maqsadda valyuta bozori ishtirokchilariga valyuta xatarlarini xedjirlash imkonini beruvchi hosilaviy instrumentlar bozorini rivojlantirish, banklarning market-meyker sifatida bozordagi faolligini rag‘batlantirish va ularning ayirboshlash kursini shakllantirishdagi rolini oshirish, valyuta intervensiyalari siyosatini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki intervensiyalari maqsadlari va usullarini belgilab beruvchi strategiya va taktikalarni ishlab chiqish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy islohotlar va taraqqiyot maqsadlariga xizmat qiladigan valyuta munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy etish va eksportga ishlovchi korxonalar samarali faoliyat yuritishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash va unga nisbatan jamoatchilik ishonchini mustahkamlash, milliy iqtisodiyotda dollarlashuv darajasini kamaytirish va kapitallar harakatini tartibga solishning samarali tizimini shakllantirish valyuta siyosatini erkinlashtirishning zamonaviy bosqichda ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib hisoblanadi.

11.8. Xorijiy investitsiyalar xalqaro moliyaviy munosabatlarni jadallashtirish asosi sifatida

Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan tezkor o‘zgarishlar, yangilanishlar va rivojlanishlar har bir davlatdan faol iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan samarali islohotlarni amalga oshirish va uni takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Bunday yuqori darajadagi e’tibor va mas’uliyatni talab etgan holda olib boriladigan ichki hamda tashqi siyosatda milliy iqtisodiyotning ustuvor strategik

manfaatlarini joriy davr va uzoq istiqbolda ham ro'yobga chiqarish shuningdek himoyalashga erishish keng ko'lamli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish bilan ta'minlanadi, biroq, bu tadbirlarni ichki hamda tashqi sarmoyalarni faol jalb etmasdan turib amalga oshirib bo'lmashligini nazarda tutsak, jahonda investitsiyalar iqtisodiyotning bugungi barqarorligi va jadal o'sishini ta'minlovchi bosh omil sifatida e'tirof etilayotganligi bejizga emasligini anglash mumkin bo'ladi. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki davrlaridan boshlab, mamlakatda yaratiladigan yalpi ichki mahsulotning o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan ichki va tashqi investitsiyalarga katta e'tibor berib kelinmoqda. Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalar hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi. Investitsiya faoliyatining samarali tashkil etilishi uning huquqiy jihatdan ta'minlanganlik darajasiga ham bog'liqdir. O'tgan yillar davomida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish, chet el investorlari ishtirokidagi korxonalarning samarali faoliyat yuritishi uchun bir qator islohotlar amalga oshirildi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi dastavval Respublikamizda ham investitsiyalarni muvofiqlashtirib turuvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va hayotga izchil tadbiriq etila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunda: "Investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui" sifatida ifodalanadi. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun ilgari investitsiyaga oid qonun hujjatlarida mavjud bo'lmagan yangi tartib va qoidalar bilan yanada takomillashtirildi. Xususan:

- investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy tamoyillari belgilandi;

- qonun hujjatlarining investor uchun noqulay o'zgarishlariga qarshi kafolatlari yanada mustahkamlandi;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini tartibga solish bo'yicha vakolatlari kengaytirildi;

- "Investitsiya vizasi" va uni rasmiylashtirish tartibi bo'yicha norma kiritildi;

- O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan investitsiya shartnomasi tuzish tartibi belgilandi.

Qonunda ilk bor investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy tamoyillari mustahkamlab qo'yildi. Bu esa investitsiya sohasida huquqiy tartibga solishning mazmuni va yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur tamoyillar investitsiya qilish va investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llaniladi. Investitsiya faoliyati investorning o'z resurslarini investitsiya obyektiga safarbar etishga asoslanar ekan, mazkur faoliyat investorning maqsadiga ko'ra tashkil etilishi va moliyalashtirilishini taqozo etadi. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning zarurligi shuning bilan izohlanadiki, investitsiya faoliyatiga yo'naltirilgan har qanday sarmoya, pirovardida, o'z-o'zidan investor manfaatlarini ta'minlab bera olmaydi. Bilamizki, investorlar doimo amalga oshirgan investitsiya faoliyatidan katta foyda va samara olishni ko'zlaydilar. Bu orqali o'z kapitalini ko'paytirish va uni bozor risklari ostida qiymatining yo'qolishidan himoyalashni xohlaydilar. Buning uchun ular eng optimal variantdagi investitsiya loyihasiga kapitalini yo'naltirib, uning harakatini muntazam boshqarib borish orqali ko'zlangan maqsadiga erishishga intiladilar.

Shunga ko'ra, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning zarurligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni tashkil etishda investorning o'z maqsadiga egaligi;

- investitsiya faoliyati orqali investorning o'z kapitalini yanada ko'paytirishga intilishi;

■ investitsiya faoliyatini tashkil etish uning doimiy boshqaruvisiz samarali amalga oshirilmasligi;

■ investitsiya faoliyatining samarali kechishiga turli riskli omillarning ta'siri yuzaga kelishi mumkinligi;

■ investitsiya faoliyatida investordan tashqari yana ko'plab boshqa ishtirokchilarning qatnashishi hamda ularning ham manfaatlari mavjudligi;

■ har qanday investitsiya faoliyati, albatta, davlat va jamiyat manfaatlarining rivojlanishi uchun xizmat qilishga yo'naltirilganligi;

■ bozorda kuchli raqobat sharoitining hukm surishi;

■ investorning investitsiya resurslari cheklanganligi, shu boisdan uni eng samarali investitsiyalash obyektida cheklangan vaqtda maksimal foydalanishga bo'lgan intilishi va boshqalar.

Yangi O'zbekiston sharoitida milliy iqtisodiyotimizda qulay investitsiya muhitini yaratish, xususan raqobat muhiti, xususiy mulk daxlsizligi, moliya bozorlari, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini yaxshilash hamda sud hokimiyatining to'laqonli mustaqilligini ta'minlash to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Investitsiya muhitini yaxshilash sohasida asosiy qadam xususiy va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha shart-sharoitlarni yaratish, to'liq va samarali institutsional asosni shakllantirish hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi global o'zgarishlar va barcha sohada rivojlanish tendentsiyalari har bir davlatning o'z iqtisodiy rivojlanishini tashqi iqtisodiy faoliyatsiz, uning rivojlanishini esa faol investitsiya siyosatisiz ta'minlay olmasligini yaxshi bilgan holda o'rta va uzoq muddatga mo'llangan samarali investitsiya siyosatini olib borishga asosiy e'tibor qaratishi zarurligini taqozo etmoqda. Shunga muvofiq ravishda so'nggi yillarda O'zbekistonda ham tashqi iqtisodiy faoliyatga uyg'un tarzda faol investitsiya siyosatini olib borish va uni yanada takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qulay investitsiya muhitini shakllantirmasdan va xorijiy

investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi. Shu maqsadda O'zbekiston xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish jarayonini faollashtirish uchun real shart-sharoit yaratish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Investitsion faoliyatning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini ta'minlash jarayoni investitsion faoliyatni amalga oshirishning ma'lum shakliga ustuvorlik berishni talab etadi. Investitsion imtiyozlar, uning natijalari, investitsiya muhiti-ning jalb etilayotgan investitsiya hajmiga ta'siri kabi qator holatlar investitsion faoliyatni amalga oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar shakliga ustuvorlik berish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Jahon Banki tadqiqotlariga ko'ra, bir qator davlatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'sishi mehnat unumdorligining oshishi (ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida), ilmiy-tadqiqotlarga sarmoyalarning ko'payishi hamda yuqori maoshli va barqaror ish o'rinlarini yaratilishi orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Masalan, xizmat ko'rsatish sohasiga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi Chexiyada 3 yildan so'ng mehnat unumdorligini 43,6 foizga va sotish hajmini 33 foizga oshirgan bo'lsa, Indoneziyada mehnat unumdorligini 13,5 foizga, ish bilan bandlikni 24 foizga, ish haqini 41 foizga va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eksportdagi ulushini 13,9 foizga o'sishiga xizmat qilgan. Shuningdek, ko'plab davlatlar, shu jumladan, rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishi texnologiyalarning kirib kelishi orqali yalpi unumdorlikni oshirish va milliy iqtisodiyotimizda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ortib borishi orqali iqtisodiy salohiyatni tiklashga xizmat qilishini namoyon etmoqda. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish jarayonida transchegaraviy ahamiyat kasb etishi ishlab chiqarish omillarini maqsadli rivojlantirishning kompleks tavsifini ifodalaydi.

Mamlakatimizda jalb etilayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun kafolatlar yaratish hamda ularning

ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishni talab etadi. salohiyatining ichki tuzilmaviy unsurlariga asoslanadi. Investitsiya jarayonining o'zi esa investitsiya xarajatlari, asosiy va joriy aktivlarga investitsiyalangan kapital qiymatining o'sishi yoki ushbu kapital qiymatining o'sishining moliyaviy mazmuni olingan daromad bilan belgilanadi. Umuman investitsion faollikning samaradorligi nafaqat moliyaviy balki, iqtisodiy yoki ijtimoiy tavsifdagi samaradorlik bilan ham belgilanadi.

Iqtisodiyot transformatsiyasi va xalqaro integratsiyalashuvi, iqtisodiyotda tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlar tobora kuchayib borgan sari yangi xo'jalik subyektlarining paydo bo'lishi, ularning va mavjud larining kuchli raqobat va turli omillari ta'siri yuqori bo'lgan sharoitda yashab qolishi va rivojlanishi tobora murakkablashib boraveradi.

Bu holat investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga nisbatan bo'lgan talab va mas'uliyatni ham yanada oshirishga olib keladi, o'z navbatida, yangidan-yangi usullarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy maqsadi sifatida quyidagilarni belgilash zarur:

- mamlakatning iqtisodiy o'sishi va uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashish;
- iqtisodiy suverenitetni ta'minlash va iqtisodiy ustunliklardan imkon qadar samarali foydalanishga erishish.

Bu masalalarni yechish uchun katta miqdorda ichki va tashqi investitsiyalar jalb etishda, aynan kapital bozoridagi raqobatbardoshlik yoki investitsion raqobatbardoshlik, mamlakatning investitsion ta'minlanganlik darajasini aniqlash va innovatsion rivojlanish bosqichiga o'tish imkoniyatlarini belgilash muhimdir. Kapital importi va eksportini davlat tomonidan muvofiqlashtirishda nafaqat investitsion resurslar va milliy ishlab chiqarish salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikka ko'proq e'tibor qaratilishi lozim. Bunday sharoitda davlat tomonidan aynan jahon

bozorida milliy biznesning raqobatbardoshligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan xalqaro kapital shakli oqimining o‘shishiga shart-sharoit yaratilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunini samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o‘rinbosarlaridan iborat bo‘lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu mexanizm investorlarning barcha so‘rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining ko‘magi bilan tuzilgan, Respublikada faoliyat yuritayotgan investorlar bilan bevosita muloqotni ta‘minlaydigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining rolini ta‘kidlash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, jahon amaliyoti va tajribasi shuni ko‘rsatadiki, biznesning investitsiya va innovatsion faoliyatiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar bilan, ya‘ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me‘yorlarni nashr etish bilan hal qilishning imkoni yo‘q. Xususiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan to‘siqlarni aniqlash va engib o‘tish bo‘yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faol ish olib borilmoqda.

Birinchidan, iqtisodiy o‘shishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur‘atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo‘lida bo‘lgan modelini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri bo‘lgan infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalarining jadal o‘shishini ta‘minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va

loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni ragʻbatlantirish ham faol tarzda olib borilmoqda.

Uchinchidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byu rokratik toʻsiqlar va cheklolarni toʻliq bartaraf etish uchun investorlar va davlat oʻrtasidagi munosabatlar maqbullashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada taʼminlash va korruptsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va soʻrovlari bilan ishlashni tashkil etish sifati yaxshilanmoqda.

Toʻrtinchidan, ish kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarajatlarining kamayishi kuzatilmoqda.

Beshinchidan, kelgusida texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin boʻlgan Oʻzbekistonning istiqbolli sohalariga yoʻnaltirilgan investitsiya siyosati strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda raqobatdosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni taʼminlaydigan, eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan hamda yangi ish oʻrinlarini yaratishga xizmat qiladigan sanoat korxonalarini tashkil etish boʻyicha yirik xorijiy investitsion loyihalarni amalga oshirishga eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq.

Oʻzbekistonda chet el investitsiyalari kiritish shakllari quyidagi koʻrinishlarda amalga oshiriladi:

- Oʻzbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xoʻjalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sugʻurta tashkilotlari va boshqa korxonalarning ustav jamgʻarmalarida va boshqa mol-mulkida ulush qoʻshib qatnashish;
- chet ellik investorlarga toʻliq qarashli boʻlgan xoʻjalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sugʻurta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish;

- mol-mulk, aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish;
- intellektual mulkka, shu jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga, shuningdek ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish;
- kontsessiyalar, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan kontsessiyalar olish;
- savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turar joy binolariga ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek erga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali.

Shuningdek amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni invest.gov.uz portali orqali olish mumkin.

Mamlakatimizning kompleks rivojlanishini ta'minlash va investitsion muhit jozibadorligini oshirish bo'yicha, eng avvalo, mamlakat va uning hududlari salohiyatini o'rganish, ularni baholash, ta'sir ko'rsatadigan omillarni tasniflash, o'zaro bog'liqlik kasb etgan jihatlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun esa, rivojlangan mamlakatlarda qo'llangan va yuqori natijalar keltirgan tajribalarni tahlil etish, muvaffaqiyatga olib kelgan usul va uslublar, omillarni O'zbekiston va uning hududlari miqyosida tatbiq etish muhimdir.

Jahonda xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha mamlakatlararo keskin kurash ketmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi, sifati va qulay shartlardan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan-yilga investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko'rinishlari yaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda erkin iqtisodiy zonalar yoki hududlar jahon iqtisodiy amaliyotida mustahkam oʻrnashib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi va ularni faoliyati, aloxida ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlashimiz lozim.

Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilishning jahon tajribasi shuni koʻrsatadiki, bunday zonani tashkil qilgan mamlakat uchun mazkur hududlar yuqori iqtisodiy samara berib, mintaqaning koʻplab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda muhim dastak hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy munosabatlar tizimida erkin iqtisodiy hududlar asosan xalqaro savdoni jadallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, texnologiyalar almashinuvi, axborot almashish va integratsiyalashgan iqtisodiy jarayonlarni chuqurlashtirish tufayli jadal iqtisodiy oʻsish omili sifatida namoyon boʻladi (11.1-jadval).

Erkin iqtisodiy zonalar – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan maʼmuriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti boʻlgan maxsus ajratilgan hudud¹⁰⁴.

Erkin iqtisodiy zonalar rivojlanish tarixi uzoq oʻtmishga taqalib, ular XIX asr boshlarida Gʻarbiy Yevropa, Buyuk Britaniya, Germaniya erkin savdo portlari, ochiq shaxarlar, bojsiz zonalar shaklida boʻlib, u yerda yaratilgan malum imtiyozlar asosida savdo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ijobiy tasir etgan. XX – XXI asrlar boʻsagʻasida “Erkin (maxsus) iqtisodiy zonalar (hududlar)” (EIH) jahon xoʻjaligi rivojlanishining asosiy koʻrinishlaridan biriga aylanib, dunyoning koʻplab davlatlarida tashkil topdi.

Oʻtgan asrimizning 90-yillarining oʻrtalarida dunyo mamlakatlarida turli xildagi 4 mingdan ortiq EIH faoliyat koʻrsata boshlagan edi. Gʻarb mutaxassislarining fikricha, 2004 yilda jahon tovar aylanmasining 30–35 %i ana shu

¹⁰⁴ маһба: <https://sez.gov.uz/uz/page/info>

EIHLarga to'g'ri kelgan. Xalqaro korporatsiyalar o'z faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida EIHLar uchun imtiyozli sharoitlar yaratib, foyda olish mumkin bo'lgan soha sifatida foydalanishmoqda.

EIHLar milliy mamlakatlarning ba'zi bir qismlarida foydalanilmaydigan imtiyoz va rag'batlarning o'ziga xos tizimlarini qo'llaydigan iqtisodiy hududning bir qismidir, ya'ni EIH geografik jihatdan u yoki bu darajada rivoj topgan alohida bir hududdir.

Rivojlangan davlatlar uchun EIHLar ushbu hududda faoliyat ko'rsatuvchilarning hayotiy turmush darajasini va ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatuvchi "maxsus" hudud hisoblanadi. Shuning uchun ham bu hududlar "maxsus iqtisodiy hududlar" deyiladi.

Ma'lumki, EIHLarni ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishdagi ahamiyati kattadir. Ularning faoliyat ko'rsatishi tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va erkinlashtirish bilan bog'liqdir. U yoki bu davlatlar iqtisodiyoti tashqi dunyoga ochiqligida EIHLarning ahamiyati katta bo'lib, bojxona, soliq va investitsiya rejimlarni o'rnatishda, shuningdek tashqi va ichki investitsiyalar faoliyati uchun qulaydir. EIHLar jahon xo'jaligida kapital migratsiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon mamlakatlari ichida ro'y birayotgan iqtisodiy jarayonlarni faollashtirishda (xorijiy kapitalni jalb qilish, sanoat sohasida EIHLar faoliyatini yanada kuchaytirishda) uchta muhim vazifani ko'rishimiz mumkin:

sanoat eksportini rag'batlantirish va shu orqali valyuta mablag'larini jalb qilish;

aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish;

milliy xo'jalikni rivojlantirish maqsadida EIHLarning yangi usullarini amaliyotda qo'llash.


Jahon iqtisodiyotida EIHLarning tashkil topish sabablari va maqsadlari har bir mamlakatda o'zgacha bo'lib, bir-biriga mutlaqo o'xshamasligi mumkin.

Masalan, AQSh, Buyuk Britaniyada erkin iqtisodiy hududlar depressiyaga uchragan hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan mintaqaviy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan. Rivojlanayotgan davlatlarda ham EIHLar tashkil topadi. Bu esa qoloq rivojlanmagan hududlarni jadal tarzda rivojlanayotgan hududlarga aylantirish imkoniyatini beradi (sanoati rivojlangan davlatlardan farqli ravishda ushbu mamlakatlarda ko'proq xorijiy kapital jalb qilinadi).

Jahon iqtisodiyotida EIHLarning tashkiliy, huquqiy tizimi turli-tumandir. Shuning uchun ham u yoki bu EIHLarni aniq tasniflash qiyin, chunki ular ko'plab hududlarning xususiyatlariga ega. (11.9-rasm).

Alohida iqtisodiy hududlarning tipologik tavsifi

AIH tipi	Tipologik belgilar						
	Maqsad	AIH obyektlari	Iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasi		AIHlarning belgisi		Imtiyozlar tizimi
			Ekstravertiv	Introvertiv	Ixtisoslashgan	Ko'p profilli	
Sanoat-ishlab chiqarish	Ekspart va mahalliy bozorlar uchun chuqur qayta ishlangan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Yer uchastkalari	Eksportga mo'ljallangan chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishga investitsiyalar	Import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarga investitsiya kiritish	Ma'lum bir ishlab chiqarishga ixtisoslashgan	Qayta ishlovchi ishlab chiqarishlarning har qanday ko'rinishi	Soliq Moliyaviy Ma'muriy Bojxona (kelishuvlar bo'yicha)
Texnikaviy-joriy etuvchi	Yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va mahalliy ishlab chiqarishga joriy etish	Yer uchastkalari, jamoaviy foydalanish markazlari, binolar	"Texnologiyalar importi" hisobiga rezidentlarni texnologik jihatdan qurollantirish uchun shart-sharoitlar yaratish	Hudud korxona va tashkilotlarining ilmiy ishlanmalarini tijoratlashtirish	Texnologik jihatdan ixtisoslashuv	Ustuvor texnologik yo'nalishlar kelishuv asosida aniqlanadi	Soliq Moliyaviy Ma'muriy Bojxona (kelishuvlar bo'yicha)
Turistik-rekreatsioon	Turizm, sanatoriya-kurort sohasi va aralash tarmoqlarni rivojlantirish	Yer uchastkalari	Xalqaro turizm markazlarini yaratish	Zamonaviy turistik-rekratsion yoki kurortlar majmuasini shakllantirish	Faqat turistik sohaga ixtisoslashuv, turistik xizmat turlari bo'yicha cheklovlar yo'q		Soliq Moliyaviy Ma'muriy
Port	Transport logistik infratuzilmani rivojlantirish va eksportchi korxonalar uchun qo'shimcha rag'batlar yaratish	Yer uchastkalari	Asbob-uskuna va butlovchi qismlarni import qilish. Tovarlarini olib chiqishda boj to'lovlaridan ozod qilish	Tovarlar eksporti. Tovarlarini olib kirishda boj to'lovlari va QQSdan ozod qilish	Ma'lum bir mahsulotlarni tashish yoki port xizmatlari	Kompleks transport-logistika zonasi	Soliq Moliyaviy Ma'muriy Bojxona (kelishuvlar bo'yicha)



11.9-rasm. Erkin iqtisodiy zonalarning amalda bo'lish shakllari

EIHLarni tashkil topishida ikkita kontseptual (hududiy va funktsional) yondashuv qo'llaniladi. Birinchi yondashuvda barcha rezident korxonalar xo'jalik faoliyatining imtiyozlaridan keng foydalansalar, ikkinchi yondashuvda esa rezident korxonalar mamlakatning qaysi tumanida joylashishidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyatining ma'lum ko'rinishlari bo'yicha imtiyozli rejimlardan foydalanishi mumkin xolos.

Birinchi yondashuvga misol qilib Xitoydagi erkin iqtisodiy hududlarni, Braziliyadagi "Manaus" hududini, rivojlanayotgan davlatlardagi eksport-ishlab chiqarish hududlarini ko'rsatish mumkin.

Ikkinchi yondashuvga misol qilib, offshor firmalarni, "dyuti fri" magazinlarini ko'rsatish mumkin.

EIHLarning eng oddiy ko'rinishlaridan biri erkin bojxona (bojsiz) hududlari (EBH) hisoblanadi. Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Ular XVII-XVIII asrlardan buyon mavjud. Bu hududlarga tranzit yoki konsignatsion omborlar, eksportga mo'ljallangan tovarlarni qadoqlash va kam miqdorda qayta ishlash sohalari kiradi. Bunday hududlar ko'pincha bond omborlari yoki erkin bojxona hududlari deb ham ataladi. EBHLari tovar olib kirish va olib chiqishda bojdand ozod qilinadi.

Erkin savdo hududlari (ESH) ham dunyoda keng tarqalgan bo'lib, 1934 yilda chiqarilgan maxsus qonun-qoidalar asosida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. ESHlar AQShda ko'proq rivoj topgan. ESHlarning maqsadi xalqaro savdoni rag'batlantirish, savdo operatsiyalarini tezlashtirish, savdo xarajatlarini kamaytirishdan iboratdir. AQSh qonunchiligining tashqi iqtisodiy faoliyatida ESHlarga nisbatan imtiyozlar belgilangan. Qonunda har bir rasmiy portda kamida bitta erkin tashqi savdo hududi tashkil etilishi belgilab qo'yilgan. AQSh qonunchiligiga muvofiq mamlakat hududidagi erkin savdo hududlari umumiy va maxsus (subhudud) hududlarga bo'linadi. Umumiy hududlar kichik hududda (bir necha kv. km. masofada) joylashib va milliy boj hududidan tashqarida bo'ladi. Ularda kiritilgan tovarlarni omborlarga joylashtirish va qayta ishlash ishlari amalga oshiriladi (qadoqlash, sortlarga ajratish va h.k.).

Maxsus hududlar (subhududlar) umumiy hududdan tashqariga chiquvchi alohida yirik kompaniyalar uchun tashkil qilinadi. Subhududlarda eksport uchun yoki

import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. 90-yillarning o'rtalariga kelib AQShda 500 dan ortiq erkin savdo hududlari faoliyat ko'rsatgan.

Oddiy erkin savdo hududlari qatoriga yirik xalqaro aeroportlardagi maxsus "dyuti fri" magazinlarini kiritish mumkin. Siyosiy rejim nuqtai nazaridan ular davlat chegaralaridan tashqarida deb hisoblanadi. Erkin savdo hududlari qatoriga imtiyozli holatga ega bo'lgan an'anaviy erkin portlarni ham kiritish mumkin.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish xududlari ikkinchi avlod hududlari bo'lib hisoblanadi. Ular erkin savdo hududlariga faqat tovar emas, kapital ham olib kirilishi, shuningdek ularda faqat savdo bilan emas balkim ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug'ullanilishi mumkin. Sanoat ishlab chiqarish hududlari maxsus boj rejimiga ega bo'lgan hududlarda tashkil qilinadi. Ularda eksport uchun yoki import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. Bunday hududlar soliq va moliyaviy imtiyozlarga ega bo'ladi.

Eksport ishlab chiqarish hududlari (EICH) ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda keng tarqalgan. Bunday xududlarning zamonaviy modeli 1959 yilda Irlandiyaning Shennon aeroportida tashkil qilingan hududiy tizimiga asoslanadi. Bunday hududlardan hozirgi kunda "yangi industrial davlatlar" katta samara ko'rmoqda. Eksport ishlab chiqarish hududlarining tashkil topishi mantiqan olganda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liq. 50-60-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat eksportini rag'batlantirish va xorijiy kapital oqimi yordamida bandlik darajasini oshirish zarurati tug'ilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida texnika kiritish hududlari uchinchi avlod xududlari hisoblanadi (70-80-yillar). Ular stixiyali tarzda davlat yordamida yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil topishi mumkin. Ularda yagona soliq va moliyaviy tizimdan foydalanuvchi milliy va xorijiy tadqiqotchilar, loyihachilar, ilmiy-ishlab chiqarish firmalari faoliyat ko'rsatadi.

Hozirgi kunda texnika kiritish hududlari asosan, AQSh, Yaponiya, Xitoyda faoliyat ko'rsatmoqda. AQShda ularni texnoparklar, Yaponiyada-texnopolislar, Xitoyda-yangi va ilg'or texnologiyalar hududlari deb ham yuritiladi.

Jahon iqtisodiyotida turli moliyaviy, iqtisodiy, sugʻurta va boshqa sohalar boʻyicha xizmat koʻrsatuvchi firma va tashkilotlar uchun tadbirkorlik faoliyatining imtiyozli sharoitlari yaratiladigan xududlar servis hududlar deb ataladi. Servis xudud qatoriga offshor hududlar (OH) va soliq gavanlari (SG) kiradi. OH va SGLar tadbirkorlarni qulay valyuta-moliya va fiskal sharoitlar, bank va tijorat sirlarining yaxshi saqlanishi hamda davlat boshqaruvining kamligi bilan oʻziga jalb qiladi.

Offshor hududda roʻyxatga olingan soliq va boshqa imtiyozlarga ega boʻlgan kompaniyalarga qoʻyiladigan asosiy talab – offshor markaz joylashgan davlatning rezidenti boʻlmaslik va bu davlat hududida daromad olmaslikdir.

Soliq gavanlarining offshor hududlardan farqi shundaki, u erdagi firmalar (xorijiy va mahalliy firmalar ham) faoliyatining barcha turlari yoki shugʻullanishda imtiyozlarga ega boʻladi.

Offshor kompaniyalar faoliyat koʻrsatayotgan davlatlar qatoriga Lixtenshteyn, Panama, Normandiya orollari, Men orollari (Britaniya), Antil orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, Shveytsariya va boshqalar kiradi. 80-yillarda ushbu davlatlar qatoriga Malta, Mavrikiya, Gʻarbiy Samoa, Isroil, Malayziya (Labuan oroli) va boshqalar ham qoʻshilgan edi.

Offshor hududlardagi sanoat, savdo, bank sugʻurta va boshqa kompaniyalar umuman soliqqa tortilmaydi (Irlandiya, Liberiya) yoki kichik miqdordagi soliqlar toʻlaydi (Lixtenshteyn, Antil orollari, Panama, Men oroli va boshqalar).

Masalan, Shveytsariyada offshor biznesga nisbatan kam soliq miqdori belgilangan. Bu soliq maʼlum holatlarda umuman toʻlanmasligi ham mumkin. Shuningdek, offshor hududlar valyuta cheklashlarining yoʻqligi bilan, daromadni olib chiqish erkinligi, xorijiy investorlar uchun bojlarning yoʻqligi bilan ham ajralib turadi. Offshor hududlarni tashkil qiluvchi davlatlar qoʻshimcha xorijiy kapital jalb qilish, roʻyxatga olingan korxonadan foyda olish, mahalliy mutaxassislar uchun qoʻshimcha ish joylarini tashkil qilishi orqali foyda koʻradi.

Odatda, offshor biznes bank sugʻurta ishi, dengiz kemachiligi, koʻchmas mulk operatsiyalari bilan trest faoliyati, eksport-import operatsiyalari bilan konsaltingda jamlanadi.

Majmuaviy hududlar alohida bir ma'muriy rayonlar hududida xo'jalik yuritish rejimiga nisbatan alohida, imtiyozli rejim o'rnatish yo'li bilan tashkil qilinadi. Ularga Xitoyning 5 ta maxsus iqtisodiy hududlari: Braziliyadagi "Manaus" hududi, Argentinaning "Olovli yer", sanoati rivojlangan davlatlarning kam rivojlangan xududlaridagi erkin tadbirkorlik hududlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Turli ko'rinishdagi EIHlarning o'xshash tomonlaridan biri tadbirkorlar uchun moliyaviy va bojxona, soliq imtiyozlari, shuningdek umumiy tartibga nisbatan ustunlikka ega bo'lgan qulay investitsiya iqlimining mavjudligidir.

EIHlarda imtiyoz va rag'batlantirishlar o'zlarining ba'zi jihatlari bilan farq qilib, ularni to'rt asosiy guruhga ajratib o'rganish mumkin:

tashqi savdo imtiyozlari. Bunga alohida bojxona-tarif rejimi kirib (ekport-import bojarini kamaytirish yoki bekor qilish) unda tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartiblari soddalashtiriladi.

soliq imtiyozlari. Bunda faoliyatning ma'lum ko'rinishlari soliq imtiyozlari orqali rag'batlantiriladi. Ya'ni soliq bazasi (daromad, mulk qiymati va h.k.lar), shuningdek uning tarkibiy qismlari (amortizatsiya ajratmalari, ish haqiga xarajat, transport), soliqqa tortilishdan yoki vaqtinchalik ozod qilinadi.

moliyaviy imtiyozlar. O'z ichiga turli shakldagi subsidiyalarni oladi. Ularga kommunal xizmatlarni arzonlashtirish, yer maydonlari va ishlab chiqarish binolari uchun ijara haqini kamaytirish kabi imtiyozli kreditlar kiradi.

ma'muriy imtiyozlar. Bunga korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish va xorijiy fuqarolarning kelib-ketishlarini yengillashtirish, shuningdek xizmat ko'rsatish uchun ma'muriyat tomonidan maxsus hududlarning ajratilishi kiradi.

EIHlar tashkil qilishning jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularning umumiy yutuqlari va xususiyatlarini, shuningdek rivojlanishining o'ziga xos tomonlari haqida ma'lum bir xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Sanoati rivojlangan davlatlardagi erkin iqtisodiy hududlarning muvaffaqiyati ularning yaxshi rejalashtirilganligiga va boshqaruv tizimining moslashuvchanligiga bog'liqdir. Jahon xo'jaligidagi iqtisodiy holatlarning o'zgarib turishi erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, ularga mos javob qaytarishni talab qiladi.

EIHLar tashkil qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan foydalidir. Bu hududlar ko‘plab ish o‘rinlari tashkil qilishda, xalqaro tovar ayirboshlashni jonlantirishda, tashqi savdo natijalarini yaxshilaydi, ilmiy-ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan davlatlarda EIHLar bir qator o‘xshashliklarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, bu davlatlarda eksport uchun ishlab chiqarish hududlari (EICHH) keng tarqalgan. Yuqorida aytilganidek, EICHH tashkil qilishga qator iqtisodiy sabablar, avvalambor, eksport uchun sanoat tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakatga xorijiy kapital, ilg‘or fan-texnika, zamonaviy texnik axborotlar vositalarini jalb qilish zarurati turtki beradi.

Ikkinchidan, erkin iqtisodiy hududlardagi xo‘jalik yuritish rejimi xorijiy ishbilarmonlar uchun erkinroq va imtiyozli bo‘ladi. Bu erkin iqtisodiy hududlar orasida xalqaro raqobatning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlardan kelib chiqadi.

Uchinchidan, erkin iqtisodiy hududlar faoliyatida tovar-sanoat diversifikasiyasi ro‘y beradi.

O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarining quyidagi turlarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan:

erkin savdo zonalar;

erkin ishlab chiqarish zonalar;

erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalar.

Erkin savdo zonalar – konsignatsiya omborlarini, erkin bojxona zonalarini, shuningdek tovarlarga ishlov berish, ularni o‘rash-joylash, saralash, saqlash zonalarini o‘z ichiga oladi.

Erkin savdo zonalar chegaraga tutash punktlarda, aeroportlarda, temir yo‘l uzellarida yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududining boshqa joylarida tuziladi.

Erkin ishlab chiqarish zonalar – tadbirkorlikni rag‘batlantirish, iqtisodiyotning ustun tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish, istiqbolli

texnologiyalarni joriy etish maqsadida xo‘jalik-moliyaviy faoliyatning alohida tartiboti joriy etiladigan hududlardir.

Erkin ishlab chiqarish zonalarini eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish zonalarini, agropoliislarni, tadbirkorlik zonalarini, industrial-iqtisodiy zonalarini va boshqa zonalarini o‘z ichiga oladi.

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo‘lib, u yerda ilmiy-ishlab chiqarish va o‘quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o‘rnatiladi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Xalqaro moliya, bir tomondan, moliyaviy munosabatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda aks etishi, ikkinchi tomondan - jahon iqtisodiyotining moliyaviy quyi tizimining paydo bo‘lishi va rivojlanishi natijasida vujudga keldi.

Xalqaro moliyaning davlat moliyasi, korxonalar va uy xo‘jaliklari moliyasidan o‘ziga xos farqli jihati shundaki, xalqaro moliya milliy doiradan tashqariga chiquvchi ko‘plab subyektlar orqali ifodalanadi. Bu shuni anglatadiki, ma’lum bir joyda to‘plangan va jahon iqtisodiyotining ma’lum bir subyektiga tegishli bo‘lgan yagona pul mablag‘larining xalqaro jamg‘armasi mavjud emas.

Xalqaro moliyaviy resurslar odatda doimiy muomalada bo‘ladi va xalqaro moliyaviy bozorni tashkil qiladi.

Xalqaro moliyaviy resurslarning hammasi ham xalqaro moliyaviy bozorlarda muomalada bo‘lmaydi. Xususan, moliyaviy ko‘mak talab va taklif qonunlarini inkor qilgan holda, muayyan bir shartlar asosida moliyaviy ko‘mak oluvchilarning holatini hisobga olgan holda taqdim qilinadi.

Oltin - valyuta zahiralarini mazkur zahira egalari ma’lum bir iqtisodiy qiyin vaziyatga tushib qolganlaridagina xalqaro moliyaviy bozorlarda muomalaga chiqariladi. Lekin keyingi paytda, dunyoning aksariyat mamlakatlari o‘zlarining oltin-valyuta zahiralarining muayyan bir qismini bo‘shatgan holda, moliyaviy vositalarning boshqa turlaridan foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Xalqaro moliya tarkibida umumdavlat va xususiy moliyani ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Xalqaro davlat moliyasi obyektlari xalqaro (ommaviy) huquq normalariga muvofiq tan olingan subyektlar, ya'ni: suveren davlatlar; mustaqil davlat yaratish uchun kurashayotgan xalqlar va millatlar; davlatlararo tashkilotlar; davlat tuzilmalari (masalan, Vatikan); erkin shaharlar.

Xalqaro xususiy moliyaning asosiy subyektlari davlatning milliy va xorijiy jismoniy va yuridik shaxslari (va ularning muassasalari), shuningdek ular tomonidan tashkil etilgan tashkilotlardir.

Jahon moliya bozorini uning funktsiyalari va moliyaviy aktivlarning aylanish shartlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin.

Funktsional jihatdan u valyuta, derivativlar, sug'urta xizmatlari, aktsiya va kreditlar bozoriga bo'linadi; o'z navbatida ushbu bozorlarda turli segmentlarni ajratish mumkin: masalan, sug'urta bozorida - qayta sug'urtalash, kredit bozorida - qarz qimmatli qog'ozlari va bank kreditlari segmentlari va boshqalar.

Ishlab chiqarish jarayonlarining globallasuvi xalqaro moliya bozorlari globallasuvining asosini tashkil qiladi, bunda rezident korxona uchun ichki, milliy bozor o'z ahamiyatini yo'qotadi va endilikda u xalqaro darajadagi ehtiyojlarni qondirishga mo'ljal oladi.

Xalqaro moliya bozorlarining globallasuvining yana bir sababi-qashshoqlik va qoloqlikni engish kabi jahon taraqqiyotining global muammolarini hal qilish uchun moliyaviy resurslarni izlab topish zarurati; tinchlik, quolsizlanish va jahon yadro urushining oldini olish muammolari (tinchlik va demilitarizatsiya muammosi); oziq-ovqat; tabiiy (energiya va xom ashyo) resurslar; ekologik; demografik; inson potentsialini rivojlantirish va boshqalar.

Soliq to'lashdan qochish- hanuzgacha yagona o'zini oqlab kelayotgan intellektual faoliyatdir.


J. M. Keynes

12-BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

- 1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi.**
- 2. Soliqlarning asosiy unsurlari va tamoyillari.**
- 3. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalari.**
- 4. Soliqlar va maxsus soliq rejimlari.**
- 5. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish.**

12.1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo'lishi va uning faoliyati davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda soliq kategoriyasi davlat iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini ta'kidlash lozim. Soliq tushunchasi tor ma'noda davlat ixtiyoriga soliq to'lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi (12.1-rasm).




12.1-rasm. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati

Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi individlarning hammasi ham real sektor (ishlab chiqarish sohasi)da faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy

samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda, jamiyatni norentabel (mudofaa, tibbiyot, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurati soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning obyektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holatda: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari bilan ifodalash mumkin (12.2-rasm).




12.2-rasm. Soliqlarning iqtisodiy kategoriya sifatida belgilari

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bularga respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoat, qishloq xo'jaligi va moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu yerda davlat kuchli ijtimoiy - siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, nafaqaxo'rlar, talabalar, ko'p bolali onalar va boshqalarni

ko'proq mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi va ularga boshqa xarajatlarni davlat hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston davlati jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'q-dorilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o'rnatish, uni boshqarish funktsiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham obyektiv zarur qilib qo'yadi.

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funktsiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim (12.3-rasm). Davlat uchun byudjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga egadir.



12.3-rasm. Soliqlarning asosiy belgilari

Soliqlar, yig'imglar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir.

Soliqlar qadimgi davrlardan e'tiboran olingan, ammo u vaqtlarda soliqlar ozod va erkin bo'lmagan kishining belgisi bo'lib xizmat qilgan. Adam Smit (shotland

faylasufi va iqtisodchisi, 1723-1790 y.) o‘zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776 y.) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlarning ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to‘lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

N.I. Turgenev o‘zining “Soliq nazariyasi tajribasi” nomli kitobida (1818 y.) shuni ta’kidlaydiki, “Bilimli bo‘lishning muvaffaqiyatlari ularning xalqlar urf odatlariga foydali ta’siri darajasiga qarab soliqlar tizimining takomillashuviga ham ta’sir etgan”, “...soliqlar bilimga ega bo‘lish bilan birga paydo bo‘lib, uning belgisi bo‘lib qoldi. ...Soliqlarning tayinlanishi, taqsimlanishi va yig‘ilish usuliga qarab xalq orasida tarqalgan ma’lumotlar to‘g‘risida; yig‘iladigan soliqlar miqdoriga qarab uning boyligi haqida fikr yuritish mumkin, bu bilimlilik va ma’rifatni anglatadigan ikki eng asosiy xususiyatdir”¹⁰⁵.

Bu so‘zlardan yana bir bor amin bo‘lish mumkinki, soliqlar qadimiy moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini ta’minlash va ular oldidagi vazifalarning bajarilishini moddiy ta’minlash manbai sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funktsiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo‘ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o‘zgarmay qoldi.

Shu o‘rinda soliqlarga turli iqtisodchilar tomonidan berilgan ta’riflarni keltirib o‘tish o‘rinlidir. “Soliqlar, - deb yozadi D.Rikardo, - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer resursi va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to‘lanadi”.¹⁰⁶ Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, D. Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o‘z navbatida, A.Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma’lum darajada rivojlanishiga o‘zining hissasini qo‘shgan.

Soliqlar bo‘yicha yana bir ta’rif, S. G. Pepelyaev tomonidan berilgan: “Soliq - ommaviy hokimiyat subyektlarining to‘lov qobiliyatini ta’minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik,

¹⁰⁵ Тургенев, Николай Иванович. Опыт теории налогов / соч. Николая Тургенева. - СПб. : тип. Н. Греча, 1818. - [4], XIV, X, 368, [3] с.

¹⁰⁶ Риккардо Д. Начало политической экономики и налогового обложения. Сочинения./ т. 1. /Пер. с англ. - М.: Госполитиздат, с.380.

yakka tarzda holisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki yig'im tavsifiga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir".¹⁰⁷

Hozirgi paytda iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarning iqtisodiy mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar chop etilgan. Masalan, "Siyosiy iqtisod" izohli lug'atida soliqlar "...korxona, tashkilot va aholini, mamlakat moliyaviy resurslarini tashkil etishdagi ishtirokini tavsiflovchi majburiy to'lovlar tizimi" deb izohlanadi.

Professor D. G. Chernikning fikricha, "Soliqlar - davlat tomonidan xo'jalik subyektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'implarni o'zida aks ettiradi".¹⁰⁸

Professor B. G. Boldirev boshchiligida yozilgan "Kapitalizm moliyasi" o'quv qo'llanmasida soliqlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Soliqlar - davlat tomonidan undirib olinadigan, jismoniy va huquqiy shaxslarning majburiy to'lovlari"¹⁰⁹. Haqiqatan ham yuqorida keltirilgan ta'riflar eng sodda va keng omma uchun qulay va tushunarli bo'lishi mumkin. Lekin bu ta'riflar o'zida soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini to'laligicha aks ettira olmaydi. Bundan tashqari, ushbu to'lovlar nima maqsadda undirib olinishi hamda qachon undirib olinishi to'g'risida yetarli ma'lumotlar bera olmaydi.

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi. Biroq bu ta'rif soliqlarning mohiyatini to'laligicha yoritmaydi hamda soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini o'zida aks ettira olmaydi. Bundan tashqari iqtisodiy munosabat sifatida, bu munosabatlar obyekti bo'lib nima hisoblanadi? degan savollarga javob bera olmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, prof. O. Olimjonovning fikriga ko'ra, soliqlar quyidagicha ta'riflansa, soliqlarning mohiyati kengroq yoritiladi va maqsadga muvofiq bo'ladi: "Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan

¹⁰⁷ Пепеляев С.Г. Основы налогового права. -М., 1995. с.24.

¹⁰⁸ Черник Д.Г. Налоги в рыночной экономике. -М.: Финансы, 1992. №3 с.19.

¹⁰⁹ Болдырев Б.Г. Финансы капитализма. - М.: Финансы, 1987. 21.

ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlaridir".¹¹⁰

Bizningcha, soliqlarga berilgan mana shu ta'rif eng maqbul ta'rif bo'lib, soliqlarning mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va rolini, soliqlarning harakat jarayonini nazariy jihatdan chuqurroq yoritib, soliqlar haqida aniqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Soliqlarga olimlar tomonidan berilgan bir qancha ta'riflarni o'rganib chiqdik. Shu o'rinda bu ta'riflar ma'lum ma'noda bir-birini takrorlab, to'ldirib va boyitib kelmoqda. Yuqoridagi ta'riflar soliqlarni to'liq va aniq yoritish, ularning barcha jihatlarini batafsil qamrab olmaydi. Shuning uchun soliq toifasini har tomonlama, kengroq va batafsilroq, uning mohiyati va ahamiyatini, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o'rnini, soliqlarni nazariy jihatlarini aniqroq yoritib oladigan ta'rifni keltirish muammosi mavjuddir.

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar, davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Biz soliqlarning iqtisodiy mohiyatini to'liq tushunishimiz uchun, dastavval soliq so'zining tarixan mavjud bo'lgan iqtisodiy ma'nosini to'g'ri tushunib tahlil qilib olishimiz lozim.

Soliq tushunchasi - iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning o'ziga xos tomoni shundaki - u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munitsipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq - davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan biron bir muayyan

¹¹⁰ Olimjonov O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. Hayot va iqtisod. 1992 y.

manfaat ko‘rishi bilan bevosita bog‘lanmagan tarzda undiriladigan pul yig‘imidir (12.4-rasm).

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi.


Yuqoridagi ta’riflarni tahlil qilgan holda quyidagilarni ifodalash mumkin:

- a) soliqlarni belgilash huquqi faqat davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi - parlamentga beriladi;
- b) soliqni fuqaro emas, mulkdorlar to‘laydi;
- v) soliq davlat byudjetiga daromad olish uchun belgilanadi;
- g) soliq to‘lash majburiy xususiyatga ega.

Demak, soliqlar - byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi Oliy majlis bilan tasdiqlangan huquqiy va me’yoriy qonunlar bilan ta’minlanadi. Shunday ekan, soliqlarni to‘lamaslikka, soliq obyektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko‘rsatishga na huquqiy va na jismoniy shaxslarning haqqi yo‘q.

Soliq to‘lash xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar bilan davlat o‘rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki, soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo‘libgina qolmay:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;
- ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda investitsiyalarni ko‘paytirishga;
- raqobatbardosh mahsulot hissasini ko‘paytirishga;
- kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga;
- xususiy korxonalar ochish bilan bog‘liq bo‘lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga;
- umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.




12.4-rasm. Soliqlarning tasniflanishi

Jamiyat rivojlanishi tarixida hali birorta davlat soliqlarsiz mavjud bo'lgan emas. Bozor iqtisodiyotida ham davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Imtiyozlar yordamida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va hokazo. Shuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablag'larning eng kam miqdori davlat vazifasi bajarilishiga taalluqli eng kam xarajat hajmi bilan bog'liq bo'ladi va shu hajm bilan chegaralanadi.

Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim kategoriyasi bo'lib, albatta yanada kengroq kategoriya - davlat byudjeti bilan chambarchas bog'langan. Chunki soliqlar byudjetning shakllanishida ishtirok etadi.¹¹¹

Soliqlar moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida to'planib borishini ta'minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini rag'batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi. Yuqoridagilarning barchasi davlat soliq siyosatida o'z aksini topadi. Soliq siyosati-bu davlatning soliq tizimini shakllantirish bo'yicha iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy davlat choralari tizimini ifoda etadi, bunda davlat, jamiyatning ayrim ijtimoiy guruhlar moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, shuningdek moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash orqali davlat iqtisodiyotini rivojlantirishni ta'minlash asosiy maqsad sifatida ko'riladi (12.5-rasm).

¹¹¹ Vahobov A., Sirojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti. –T.: TMI, 2002. 36 – bet.




12.5-rasm. Davlat soliq siyosati maqsadlari

Davlat soliqlarni davlat byudjetini shakllantirish uchun amalga kiritadi, soliqlar birorta aniq xarajatlarni qoplash maqsadiga ega emas, bu ayrim turdagi daromadlardan tushadigan tushumlardan amalga oshiriladigan xarajatlar ularga bog'liq bo'lib qolishining oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq bir qancha hollarda umumiy soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularning amalga kiritilishi iqtisodiy faoliyatda ijobiy rol o'ynashi mumkin.


12.2.Soliqlarning asosiy unsurlari va tamoyillari

Soliqqa tortish tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan soliq unsurlari soliq solishda ifodalanadigan asosiy tushunchalar bo'lib, ular soliq to'lovchilar va davlat byudjeti o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi (12.6-rasm).



12.6-rasm. Soliq tizimlari

Soliq nazariyasida soliqqa oid munosabatlarni to'liq va teranroq ifoda etish uchun iqtisodiy voqeliklarni har bir kichik guruhlariga muayyan nomdagi iboralar bilan izohlanadi. Soliq unsurlari ham huddi shunday soliqqa oid iqtisodiy hodisalarni izohlashga xizmat qiluvchi yaxlit tushuncha hisoblanadi. Soliq unsurlari tushunchasi soliq solish tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning o'zi ham kichik tizimni tashkil etadi, ya'ni soliq unsurlari ham bir necha iqtisodiy kategoriyalarni yaxlit holatdagi harakatini bildiradi (12.7-rasm).



12.7-rasm. Soliq tizimi unsurlari

2020 yil 1 yanvardan amalda bo'lgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan soliqning barcha unsurlari aniqlab qo'yilgan taqdirdagina ushbu soliqlar belgilangan deb hisoblanadi.¹¹²

Bunday soliq unsurlariga quyidagilar kiradi:

- 1) soliq solish obykti;
- 2) soliq bazasi;
- 3) soliq stavkasi;
- 4) soliq davri;

¹¹² O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri) 30.12.2019 yil.

- 5) soliqni hisoblab chiqarish tartibi;
- 6) soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- 7) soliqni to'lash tartibi.

Soliq solish obyekt. Soliq solish obyekt mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo'lgan boshqa holat bo'lib, u mavjud bo'lganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchida soliq majburiyatini vujudga keltiradi.

Har bir soliq belgilanadigan mustaqil soliq solish obyektiga ega bo'ladi.

Soliq bazasi. Soliq bazasi soliq solish obyektining qiymat, fizik yoki boshqa xususiyatini ifodalaydi. Har bir soliq uchun soliq bazasi va uni aniqlash tartibi soliq kodeksi bilan belgilanadi.


Soliq stavkasi. Soliq stavkasi soliq bazasining o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan soliqning foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorini ifodalaydi.

Soliq davri. Soliq davri deyilganda tugagandan keyin soliq bazasi aniqlanadigan hamda to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi hisoblab chiqariladigan kalendar yil yoki boshqa davr tushuniladi.

Soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi - soliq bazasidan, soliq stavkasidan, shuningdek mavjud bo'lgan taqdirda, soliq imtiyozlaridan kelib chiqqan holda soliq davri uchun soliq summasini hisob-kitob qilish qoidalarini belgilaydi. Soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Ayrim hollarda bu majburiyat soliq organiga yoki soliq agentiga yuklatilishi mumkin. Soliq to'lovchilar va soliq agentlari soliqlar hamda yig'implarni mustaqil ravishda to'laydi. Soliqni to'lash soliqning to'liq summasi bo'yicha yoki joriy to'lovlar tartibda amalga oshiriladi.

Agar soliq bo'yicha soliq davri bir necha hisobot davrini tashkil etsa, ulardan har birining natijalari bo'yicha joriy to'lovlar to'lanadi. Joriy to'lovlarni to'lash majburiyati soliqni to'lash bo'yicha majburiyatga tenglashtiriladi.



12.8-rasm. Soliq munosabatlari ishtirokchilari

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni banklar orqali naqd pulsiz shaklda to'laydi.

Soliqlar va yig'implarni turlari bo'yicha hisoblab chiqarish tartibi hamda to'lash muddatlari soliq kodeksi bilan belgilanadi.

Soliq imtiyozlari. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan

afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari deb aytiladi.

Soliq to'lovchiga soliqlarni to'lash bo'yicha muddatni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) imkoniyati berilishi soliq imtiyozlari hisoblanmaydi va soliq imtiyozlari Soliq kodeks bilan taqdim etiladi.

Soliq munosabatlarining subyektlari. Soliq to'lovchilar, soliq agentlari va vakolatli organlar soliq munosabatlarining subyektlaridir (12.8-rasm).

Soliq agentlari. Zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish va byudjet tizimiga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb aytiladi.

Soliq solish tamoyillari. Soliq solish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliq solish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Soliq solish tamoyillarini A.Smit o'zining "Xalqlar boyligining sabablari va tabiati to'g'risida tadqiqot" nomli kitobida (1776 y.) ilk bor asoslab bergan va unga ko'ra:

-Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zlari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

-Har bir odam to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqti va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lishi zarur.

-Har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtda va tartibda undirilishi kerak.

-Har bir soliq shunday tarzda o'rnatilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining xamyonidan ketadigan pul davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'ga nisbatan ortiq bo'lishiga yo'l qo'yilmasin, deb ta'kidlab o'tilgan.

Bugungi kunda soliq solish tizimining quyidagi tamoyillari mavjud:

-Soliq solishning yetarlilik tamoyili. Soliq solishning yetarlilik tamoyiliga muvofiq soliq solish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan milliy iqtisodiyot samaradorligiga erishishni kafolatlay olsun. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy


himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlashi lozim. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda ayni chog'da o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi. Umuman olganda, yetarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'iy ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi (12.9-rasm).

-Soliq solishning tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish tamoyili. Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarishini rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirish, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh maxsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim. Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zahiralari, banklardagi pul mablag'larining barakasi uchishiga olib keladi.

Soliq solish bazasi va uning hajmlarini noto'g'ri belgilash xodimlarning malaka oshirishga, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bilan shug'ullanishga va boshqa sohalarga bo'lgan intilishiga salbiy ta'sir etadi. Soliq solishning iqtisodiy omillarga ta'siri ikki xil ko'rinishda bo'ladi, ya'ni qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg'arish, investitsiyalash, yangi g'oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko'rinishlari bilan shug'ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, progressiv (oshib boruvchi) soliq solishda bunday oqibatning rag'batlantirishga zid ta'siri yaqqol ifodalanadi.

Soliqlarning ta'siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib ketishiga olib kelishi

mumkin, bu hol pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishiga ham ta'sir etmay qolmaydi.



12.9-rasm. Soliqqa tortish tamoyillari

-Soliq solishning adolatlik tamoyili. Soliq solishning adolatlik tamoyiliga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy obyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlik tamoyili bir qancha asosiy guruhdagi soliq solish tamoyillariga bo'linadi. Bularni ikki guruhga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizantal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizantal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq

to'lovchilarga nisbatan soliq solishning taxminan teng shartlarini qo'llashni nazarda tutadi.

-Soliq solishning oddiylik va holislik tamoyili. Bu tamoyil soliq solish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirish, shuningdek soliqlarning eng muxim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilash, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi.

-Soliq solishning boshqarishga qulaylik tamoyili. Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

-Soliq solishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi.


-Soliq solishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyili. Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi huddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan ho'jalik faoliyati shart sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo'yilgudek bo'lsa, bu hol Respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, yengil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta'sir qiladi.

12.3.Soliqlarning funktsiyalari va vazifalari

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi obyektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, milliy daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi. Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funktsiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriya'ning o'z funktsiyasi mavjud. Soliq ham mustaqil kategoriya sifatida o'zi bajaradigan funktsiyalarga ega

bo'lib, bu funktsiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funktsiya deyilganda, odatda kategoriyaning hayotda ko'p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy harakatlarini tushunish lozim.

Soliqlarning funktsiyalari to'g'risida turli xil qarashlar mavjud. Sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodchilari o'rtasida soliqlar ikki funktsiya'ni bajaradi, degan qarash keng tarqalgan edi. Bu ikki funktsiya sifatida fiskal va nazorat funktsiyalari tan olinardi. Ularning fikriga ko'ra, eng asosiy funktsiya bu soliqlarning fiskal funktsiyasidir, chunki fiskal funktsiyasiz nazorat funktsiyasining mavjud bo'lishi mumkin emas.



12.10-rasm. Soliq funktsiyalari

G'arb iqtisodchilari ko'pchiligining nazariyalari angliyalik iqtisodchi J. M. Keynsning kontseptsiyasiga asoslanadi. Bu kontseptsiyaga ko'ra, soliqlar fiskal funktsiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funktsiyalariga ega, soliqning bu funktsiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanish zarurligidan kelib chiqadi.

Neokeynschilik yoʻnalishi vakillari boʻlgan L. Xarrot, N. Kaldor, A. Xansen va P. Samuelsonlarning fikriga koʻra, soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funktsiyasiga ega. Ular soliq stavkalarini oʻzgartirish va turli imtiyozlar berish yoʻli bilan bu funktsiyani bajarish mumkin deb hisoblaydilar.

Soliqlarning daromadlarni boshqarish funktsiyasi yuzaga kelishiga frantsuz iqtisodchisi E. D. Jirardenning nazariyasi asos boʻlgan. Bu nazariyaga koʻra, soliqlar yordamida soliqqa tortishning progressiv shkalasini qoʻllash yoʻli bilan jamiyat aʼzolari oʻrtasidagi mulkiy tengsizlikka barham berish mumkin. Hozirgi kunda bu nazariyaʼning davomchilari boʻlib, amerikalik iqtisodchilar A. Ilersik, G. Koul, frantsuz iqtisodchilari M. Klyudo, J. Furaste hisoblanishadi. Ularning fikriga koʻra, davlat soliqlardan va transfert toʻlovlaridan foydalanish yoʻli bilan jamiyat milliy daromadini kambagʻallar foydasiga qayta taqsimlaydi. Bu nazariyalar soliqlarning daromadlarni tartibga solish funktsiyasi mavjud degan xulosa kelib chiqishiga sabab boʻldi.

I. Malmiginning fikriga koʻra, soliqlar uch funktsiyani bajaradi, yaʼni fiskal, taqsimlash va ragʻbatlantirish. Uning fikriga koʻra birinchi funktsiya davlat daromadlari manbalarining tashkil topishi bilan bogʻliq, ikkinchisi huquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini taqsimlashni nazarda tutadi. Ragʻbatlantirish funktsiyasi turli imtiyozlar va yengilliklar berish yoʻli bilan amalga oshiriladi.¹¹³

Oʻz-oʻzidan koʻrinib turibdiki, gʻarb iqtisodiy adabiyotlaridagi daromadlarni boshqarish funktsiyasi I.Malmiginda taqsimlash funktsiyasi sifatida namoyon boʻlmoqda.

Soliqlarning funktsiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini koʻrsatadi. Shunday ekan, funktsiya doimo yashab, soliq mohiyatini koʻrsatib turishi zarur. Bugun paydo boʻlib ertaga yoʻq boʻlib ketadigan holatlar soliq funktsiyasi boʻla olmaydi. Demak, funktsiya kategoriyasi doimiy, qatʼiy takrorlanib turadigan voqelikni ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funktsiyasini aniqlash kerak.

¹¹³ Мальмигин И. Налоги как элементы финанса. Пер. с англ. - М., 1997 . стр. 69

Soliqlarning funktsiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funktsiyalari xos deb ta'rif berishadi.


Fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funktsiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Soliqning fiskal funktsiyasi.
2. Tartibga solish funktsiyasi.
3. Rag'batlantirish funktsiyasi
4. Soliqning nazorat funktsiyasi.
5. Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funktsiyasi (12.10-rasm).

1. **Soliqlarning asosiy funktsiyasi - fiskal funktsiya** hisoblanib (lotincha fiscus so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), bu funktsiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo'lagini davlat apparati, mamlakat mudofaasi, noishlab chiqarish sohasining umuman o'z daromadlari manbaiga ega bo'lmagan qismini (ko'pgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishini ta'minlash uchun o'zining mablag'i etishmaydigan tarmoqlarni (fundamental organ, teatrlar, muzeylar, ko'plab o'quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish yo'li bilan davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish soliqlarni fiskal funktsiyasining eng muhim unsuri hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funktsiyaning ahamiyati oshib boradi. Ishlab chiqarish ijtimoiy tushaligining chuqurlashishi fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish munosabati bilan asosan soliqlar hisobiga shakllantiriladigan moliyaviy resurslar oqimini ko'paytirish-ning real zarurati yuzaga keladi. Davlat iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarga ko'proq e'tibor bergan sari ko'p moliyaviy resurslarni sarflamoqda, lekin soliq tizimi o'zining fiskal funktsiyasi va vazifalarini bajarishi jarayonida ishlab chiqarish o'sishiga, jamg'arish jarayoniga

halal bermasligi, ijtimoiy adolatni buzmasligi hamda milliy iqtisodiyotning umumiy tuzilmasida buzilishlar va chetga chiqishlar sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, bozor jarayoniga putur yetkazmasligi kerak (12.11-rasm). Soliqlarning ushbu funktsiyasi orqali hosil bo'ladigan pul resurslari davlat fondi (davlat byudjeti) orqali qayta taksimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yo'naltiriladi. Jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo'llanadi, ya'ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarning bir qismi qayta taqsimlanadi. Bunday yondashuvlar soliqqa tortiladigan daromad aniqlanayot-ganida soliqqa tortilmaydigan minimum miqdoridagi daromad qo'shilmaydi, ayni paytda ortiqcha daromadlar soliqqa qonun xujjatlarda belgilangan stavkalar bo'yicha soliqqa tortiladi.




12.11-rasm. Soliqlarning tasniflanishi

Ayrim soliq turlari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda joylarda korxonalar faoliyatining iqtisodiy shart-sharoitlarini o'zgartirishga majbur etib, moliyaviy resurslarni makrodarajada qayta taqsimlashga olib keladi.

2. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funktsiyasi ularning iqtisodiyotdagi **tartibga soluvchanlik** roli hisoblanadi, ya'ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan milliy iqtisodiyot tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funktsiya orqali soliq tizimiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoya'ning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma'qul bo'lgan boshqa tarmoqqa qo'yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga soluvchi sifatidagi funktsiyasining ahamiyati bozor sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko'rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o'zi asta-sekin yo'qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo'lgan yo'nalishda rag'batlantirish zarurati saqlanib qoladi.


3. **Rag'batlantirish funktsiyasi** soliq tizimining eng muhim funktsiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga, shuningdek xorijiy investitsiyalar faoliyatini jonlantirishni rag'batlantiradi (12.12-rasm).



12.12-rasm. Soliqlarning rag'batlantirishg funktsiyasi

Soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi orqali davlat milliy iqtisodiyot taraqqiyotini rag'batlantiradi, bu bilan fiskal funktsiya'ni bajarish uchun bazani kengaytiradi, ishlab chiqarishni soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi orqali rag'batlantirib, davlat oqilona soliq siyosatini olib borish bilan soliq yukini kuchaytirmasdan xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

4. Soliqlarning nazorat funktsiyasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliqqa tortish obyekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini taxliliy ishlarni amalga oshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi (12.13-rasm).



12.13-rasm. Soliqlarning nazorat funktsiyasi

5. Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funktsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funktsiya orqali xarajatlar hajmi va soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarur. Shunday qilinsa, soliqlarning byudjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Biz soliq funktsiyalarini qisqacha ko'rib chiqishimiz soliqlar moliya resurslarini tiklash, xo'jalik faoliyatini tartibga solish va daromadlarni ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlar uchun qayta taqsimlash bo'yicha muhim vazifalarni bajaradi deb xulosa chiqarishimiz uchun imkon beradi.

Soliqlar bajaradigan vazifalar ko'pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligida umumiy o'xshashliklarga ega. Ana shunday an'anaviy soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar ta'minlab berish. Soliqlarning fiskal funktsiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko'p jihatdan bog'liq. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, soliqlarning fiskal funktsiyasi shunchalik faol bo'ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlari ko'payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi.

2. Mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko'maklashish. O'zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo'naltirilayotganligi tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarda kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirishning qudratli vositasi bo'lishi kerak.

3. Aholining mehnat faolligini rag'batlantirish. Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. Chunki ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq stavkalari-

ning eng yuqori chegarasini sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bogʻliq salbiy oqibatlarining oldini olishi mumkin. XX asrning 70-80 yillarda Shvetsiyada soliq stavkalarini aholi daromadlariga progressiv ravishda qoʻllash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migratsiyasiga olib kelgan.

4. Iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat tamoyillari oʻrtasidagi muvofiqlikka erishish. Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qoʻyilmalarini amalga oshirar ekan, ular oʻzlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez oʻzgarmaydigan boʻlishi kerak. Soliq tizimiga mustahkam ishonch boʻlgan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning harakati oshib boradi.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, soliqlarning byudjetga ijobiy taʼsiridan tashqari, muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Narx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi va hokazolar yangi paydo boʻlgan tijorat tuzilmalarini moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlash zaruratini yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq stavkalarini tabaqalashtirish yoʻli orqali hal etish mumkin.

Shunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, oʻrta va uzoq muddatli vazifalarga boʻlinadi. Bu vazifalar mazmuniga koʻra bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat byudjetining tushumlariga boʻlgan ehtiyojlarni qondirishga, balki davlat daromadlarini byudjetning oʻrta muddatli rejada hayotiyiligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

12.4. Soliqlar va maxsus soliq rejimlari

Oʻzbekiston Respublikasi hududida 2020 yil 1 yanvardan amalda boʻlgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan quyidagi soliq turlari mavjud:¹¹⁴

1) qoʻshilgan qiymat soligʻi;

¹¹⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahrir) 30.12.2019 yil.

- 2) Aksiz solig'i;
- 3) foyda solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq.

O'zbekiston Respublikasi hududida soliq va yig'imlar belgilanishi yoki bekor qilinishi mumkin. Shuningdek, yig'implarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to'lash tartibi Soliq kodeksida hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilanadi. Yuqorida belgilangan soliq turlari davlat byudjetini to'ldirishda asos bolib xizmat qiladi.

Avtotransport yig'imini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi soliq kodeksi bilan tartibga solinsa, davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi **maxsus soliq rejimlari belgilangan:**

- 1) aylanmadan olinadigan soliq;
- 2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;
- 3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonun hujjatlarida yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog'liq holda muayyan muddat uchun belgilangan bo'lib, maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etish, pasaytirilgan soliq stavkalari va boshqa soliq imtiyozlarini qo'llashni nazarda tutadi.

Soliqlar orqali davlatning muayyan maqsad, vazifalarini bajarishda byudjet mablag'larini asosiy qismini shakllantirib boradi va bozor iqtisodiyotini tartibga solishda asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi.

12.5. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish

Soliq tizimi iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga erishishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

2018 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish kontsepsiyasi soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, tadbirkorlik-ni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhitni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishni davom ettirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, soliq tizimida ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, soliq islohotlarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan quyidagi kamchilik va muammolar mavjud:

birinchidan, soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish tamoyillari eskirgan bo'lib, soliq to'lovchilarga kompleks xizmatlar ko'rsatishni, shuningdekular tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishini ta'minlamayapti;

ikkinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda ma'muriy xarajatlar (sarflanadigan vaqt va mablag') darajasi yuqori bo'lib qolmoqda;

uchinchidan, soliq sohasida imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlar mavjud emas;

to'rtinchidan, xufiyona iqtisodiyot darajasini qisqartirishga qaratilgan, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish jarayonlarini rag'batlantiruvchi jamoatchilik nazorati mexanizmlari mukammal emas;

beshinchidan, soliq to'lovchi bilan soliq organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini ta'minlovchi yagona standart va dasturiy mahsulotlar mavjud emas;

oltinchidan, soliq hisobi sifatini pasaytiradigan, soliq bazasining kengayishi va barqaror soliq tushumlarini ta'minlashga to'sqinlik qiladigan idoralararo axborot hamkorligi sust yo'lga qo'yilgan;


yettinchidan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohasida hamda soliq organlari xodimlari faoliyatini baholashda tizimli kamchiliklar mavjud.

Ushbu kamchilik va muammolar soliq tizimini jadal rivojlantirish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish hamda soliqlar va majburiy to'lov-larning talab darajasida yig'ilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi maqsad, vazifa va asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Strategiyaning asosiy maqsadi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish-ning muhim omili sifatida tadbirkorlik subyektlari va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, soliq solish jarayonlarini avtomatlashtirgan holda, davlat soliq organlarida zamonaviy yo'naltirilgan servis soliq xizmatlari ko'rsatishni tashkil qilish hisoblanadi (12.14-rasm).

Quyidagilar Strategiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:



12.14-rasm. Soliq ma'murchiligi

Davlat byudjetiga soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlash;
soliq organlari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish va soliq ma'muriyatchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ko'rsatilayotgan soliq xizmatlari sifatini yaxshilash;

barcha toifadagi soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy ravishda bajarish asosida ularning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida ishonchli munosabatlarni yaratish;

soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qisqartirish, barcha toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlarni ta'minlaydigan transparent va barqaror soliq tizimini shakllantirish;

soliq to'lovchilar faoliyatiga aralashishni, shuningdek, davlat soliq xizmati organlarida "inson omili"ni hamda korruptsiya holatlarining salbiy ko'rinishlarini kamaytirish imkonini beradigan tavakkal-tahlil va masofaviy tahliliy ishlar tizimi asosida soliq nazorati tizimini shakllantirish.

Strategiyani quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish ko'zda tutilgan:

1. Soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini qisqartirish:

1. Soliq va soliq rejimlarini birxillashtirish, shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish.

2. Soliq yukini (kamaytirish va baravarlashtirish) optimallashtirish.

3. Soliq imtiyozlarining samaradorlik darajasini baholash asosida ularni taqdim etishning aniq mezon va mexanizmlarini belgilash.

4. Soliq va buxgalteriya hisobi o'rtasida farqni imkon qadar kamaytirish.

5. Joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining byudjetning daromad qismini shakllantirishda rolini kuchaytirish va hissasini oshirish.

6. Xorijiy davlatlar tajribasi hisobga olingan holda, tavakkalchiliklarni baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lamini qisqartirish.

7. Soliq qonunchiligi sohasidan tashqarida faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarni norasmiy sektordan chiqishiga (qonuniylashtirishiga) ko'maklashish.

8. Transfert narxni belgilash sohasida soliq ma'muriyatchiligining yangi uslublarini joriy etish.

9. 2021yilga kelib jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lovchilarni 1,5 baravar, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilarni 2 baravar hamda resurs soliqlari va mol-mulk solig'i to'lovchilarni 2 baravar ko'paytirish.

2. Xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan soliq xizmatlarini rivojlantirish:

1. Soliq to'lovchilar soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishi uchun ularga qulay shart-sharoitlarni yaratib berish.

2. Birlamchi hisob hujjatlarini raqamlashtirish va birxillashtirish hamda soliq hisobotlari shakllarini soddalashtirish.

3. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning eksterritorial tamoyilini rivojlantirish.

4. Soliq xizmatlari sifatini va soliq organlari faoliyatini jamoatchilik tomonidan mustaqil baholash (teskari aloqa) mexanizmini yaratish.

5. Soliq organlari faoliyatining shaffofligi va soliq solish sohasidagi ma'lumotlarning ochiqqligi.

6. Soliq nizolarini sudgacha hal qilish tizimini rivojlantirish.

7. Korxonalarning to'lovga layoqatsizligini va ularni tugatishni hal etish tartib-taomillarini soddalashtirish (xarajatlar, vaqt va qoidalar auditi).

8. Soliq maslahatchilari institutini takomillashtirish.

9. Soliq to'lovchilarga maslahat ko'rsatish xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini markazlashtirish va standartlash.

3. Soliq tavakkalchiliklarini baholash tizimini joriy qilish va soliq hisobini takomillashtirish:

1. Nazorat faoliyatini amalga oshirishda tavakkalchiliklarni tahlil qilish va boshqarishning zamonaviy tizimini joriy etish.

2. Soliq nazoratining shaffofligini ta'minlash, korruptsiya omillarini kamaytirish.

3. Hududlarning soliq imkoniyatlarini baholash usullarini joriy qilish va byudjet daromadlarini prognozlashtirish.

4. Umumiy ovqatlanish va savdo sohasida, shuningdek, ko'chmas mulk bo'yicha soliq solinadigan obyektlarni to'liq hisobga olinishini ta'minlash.

5. Soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini 90 foizgacha yetkazish.

4. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish:

1. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va maslahatlar berishga yo'naltirilgan soliq organlari tashkiliy tuzilmasini yaxshilash.

2. Soliq to'lovchilarni segmentatsiyalash asosida davlat soliq xizmati organlarining eng maqbul modelini joriy etish.

3. Soliq xizmati organlarida zamonaviy biznes-tahlil (Business Intelligence) tizimini, shuningdek, strategik va protsessual boshqaruvni joriy etish.

4. Soliq xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligi ko'rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqqan holda ularni rag'batlantirish.

5. Kadrlarni tayyorlash va tanlash tizimini takomillashtirish.

6. Soliq organlari xodimlari motivatsiyasini mustahkamlash.

7. Soliq ma'muriyatchiligi jarayonini avtomatlashtirish.

5. Davlat soliq xizmati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish:

1. Kadrlar siyosatida korrupsiyaga qarshi komponentlarni kuchaytirish.

2. Soliq sohasida korrupsiya xavflarini nazorat qilish va ularning oldini olish tizimini joriy etish.

3. Korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari asosida normativ-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish (taftish qilish).

4. Soliq organlarida shaffoflik (oshkorlik) va hisobdorlikni kengaytirish, korrupsiya ko'rinishlariga jamoatchilikda murosasizlik hissini shakllantirish.

Strategiyani amalga oshirish natijasida:

1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sur'ati o'sishiga erishiladi.

2. O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi pozitsiyalari, shuningdek, ishbilarmonlik faolligining indeks ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

3. Soliqlarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo'yicha yalpi ichki mahsulot, daromad, qo'shilgan qiymatga nisbatan ulushi o'zgaradi.

4. Mahalliy va xorijiy investorlar o'rtasidagi soliq imtiyozlari hajmi bo'yicha tafovuti qisqarishi ta'minlanadi.

5. Soliq to'lovchilarning ma'lumotlardan foydalanishda hamda ko'rsatilayotgan servis xizmatlaridan qanoat hosil qilish darajasi oshadi.

6. Nizolarni sudga qadar hal etish ko'lamini kengayadi.

7. Soliq sohasida huquqbuzarliklar soni kamayishiga erishiladi.

8. Soliq to'lovchilarning haqiqatdagi va taqdim etilgan ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar kamayadi.

9. Soliq tekshiruvlari soni qisqaradi.

10. Nazorat tadbirlari natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar miqdori pasayadi.

11. Soliqlarning undirilish darajasi oshadi.

12. Soliq idoralari o'rtasida hujjatlarning aylanishi kamayadi, ijro intizomi oshadi, kadrlarning qo'nimsizligi bartaraf etiladi va kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilanadi.

13. Soliq organlari xodimlari tomonidan huquqbuzarliklar sodir etish hollari bartaraf etiladi.

14. Soliq xizmatlarini standartlashtirish va tartibga solish darajasi ortadi.

Bolalar tish tozalashni qanchalik yomon ko'rsalar, kattalar ham soliqlardan shunchalik nafratlanadilar.

Pol Samuelson

13-BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I VA UNING MOHIYATI

- 1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi.**
- 2. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti.**
- 3. Qo'shilgan qiymat solig'i imtiyozlari.**
- 4. Soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi.**

13.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi

Hozirgi vaqtda O'zbekiston va xalqaro soliq amaliyotida qo'shilgan qiymat solig'i asosiy va davlat byudjetida tutgan o'zni jixatdan salmoqli o'rin egallovchi hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali soliq hisoblanadi. Korxona kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xomashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, “Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o'tgan yili soliq to'lovchilar ixtiyorida 2 trillion so'm qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag' qolishi, albatta, ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda kata qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi”¹¹⁵.

¹¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020 yil.
<http://uza.uz/uz/politics>.

Bugungi kunda qo'shilgan qiymat solig'i bozor iqtisodiyotida muhim o'ringa ega bo'lib, soliq stavkalarinig pasaytirilishi iqtisodiyotning rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xomashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat byudjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya byudjet amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari suradi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta frantsuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M.Lorening taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llaniladi. Frantsiyada qo'shilgan qiymat solig'i haqiqatda 1968 yildan boshlab joriy etiladi.

XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur direktiva 1977 yilda qabul qilinadi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obyekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, ko‘pchilik hollarda, qo‘shilgan qiymat solig‘ini “Yevropacha” soliq deb ham atashadi. Buning asosiy sabablari shundaki, ***birinchidan***, qo‘shilgan qiymat solig‘i dunyoda birinchi marta Yevropa davlati bo‘lgan Frantsiyada joriy etildi; ***ikkinchidan***, 1977 yilda qabul qilingan direktivaga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘i bir vaqtning o‘zida Yevropaning bir nechta davlatlarida joriy etildi; ***uchinchidan***, qo‘shilgan qiymat solig‘i G‘arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Hozirgi vaqtda qo‘shilgan qiymat solig‘i Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarning davlat byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog‘i 40 foizdan yuqori bo‘lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 50 foizdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko‘rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi.

Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o‘zaro uyg‘unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O‘zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovar aylanmadining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya va Qozog‘iston Respublikalariga to‘g‘ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o‘rtasida qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg‘unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekiston soliq tizimida qo‘shilgan qiymat solig‘i 1992 yildan buyon amal qilmoqda. Bugungi kunda qo‘shilgan qiymat solig‘i aylanmadan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga Aksiz solig‘i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq aylanmadan olinadigan soliqdan farqli ravishda faqat qo‘shilgan qiymatdan

undiriladi. Aylanmadan olinadigan soliq esa bir marotaba umumiy aylanmadan olinar edi. Qo'shilgan qiymat solig'i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbai sifatida qo'shilgan qiymat solig'i hozirga qadar o'zining muhim o'rni va amaliy ahamiyatini saqlab kelmoqda. 2022 yil davlat byudjetida bilvosita soliqlar 73 164,9 mlrd so'm bo'lib, Davlat byudjeti umumiy daromadlarining 36,6%ini hamda YaIMga nisbatan 8,7%ni tashkil etadi. Bilvosita soliqlar bo'yicha asosiy tushumlar (72,9%) QQS hisobidan ta'minlanib, 53 300,0 mlrd so'm miqdorida yoki joriy yilda kutilayotgan tushumga nisbatan 32,3%ga ko'p daromad tushishi prognoz qilinmoqda¹¹⁶. Ushbu ko'rsatkichlar qo'shilgan qiymat solig'ini byudjet daromadlarining asosiy manbai ekanligini bildiradi.

13.2. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qiluvchi quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb yuritiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- 2) tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so'mdan oshgan yohud ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- 3) O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, agar tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasi e'tirof etilsa;
- 4) faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;
- 5) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha – oddiy shirkatning ishlarini

¹¹⁶ <https://review.uz/oz/post/opublikovan-byudjet-dlya-grajdan-na-2022-god>

yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;

6) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tuvchi shaxslar. Mazkur shaxslar bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e‘tirof etiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq majburiyatlari ushbu bo‘limda belgilangan hollarda va tartibda soliq agentlari tomonidan bajariladi.

Quyidagilar soliq to‘lovchilar deb hisoblanmaydi:

1) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari – o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida;

2) aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchi shaxslar.

Soliq to‘lovchilar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlarida qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish hisobida turadi.

Quyidagilar **soliq solish obyekti**dir:

1) realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan tovarlar (xizmatlar) ni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish.

Faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmani bunday doimiy muassasaning faoliyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan o‘z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish;

2) yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy voris (huquqiy vorislar) ga o‘tkazish;

3) ishonchli boshqaruvning muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga berish va ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, ishonchli boshqaruvchining o‘zi ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkni qaytarishi;

4) milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish.

Tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalar quyidagilardan iborat:

- 1) tovarga bo'lgan mulk huquqini pullik asosda, shu jumladan tovarning qarz shartnomasi bo'yicha o'tkazish;
- 2) tovarni bepul berish;
- 3) mol-mulkni moliyaviy ijara (lizing)ga berish;
- 4) tovarni bo'lib-bo'lib to'lash shartlari asosida berish.

Tovarni realizatsiya qilishdan farq qiluvchi har qanday faoliyat, shu jumladan quyidagilar xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb yuritiladi:

- 1) pullik asosda xizmatlar ko'rsatish;
- 2) bepul xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan mol-mulkni soliq to'lovchining bepul foydalanishi uchun berish.

Tovarlarni bepul berish yoki bepul xizmatlar ko'rsatish quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda biriga rioya etilganda iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi deb yuritiladi:

- 1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan bo'lsa;
- 2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlash yoki rivojlantirish uchun zarur bo'lsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqligi asoslantirilgan bo'lsa;
- 3) qonun hujjatlarining qoidalaridan kelib chiqsa.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llash maqsadida quyidagilar ham tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmadir:

- 1) yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali)ga hissa sifatida tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);
- 2) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) ishtirokchilari o'rtasida shunday shartnoma doirasida tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);
- 3) quyidagilarga tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish):

a) yuridik shaxs ishtirokchilari tarkibidan ishtirokchi chiqqanda (chiqarilganda) yoki uning yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yohud ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) yuridik shaxs tomonidan qaytarib sotib olinganda, ishtirokchiga;

b) emitent bo'lgan yuridik shaxs tomonidan aktsiyadordan ushbu emitent chiqargan aktsiyalarni qaytarib sotib olishda, aktsiyadorga;

v) yuridik shaxs tugatilganda, aktsiyadorga yoki ishtirokchiga;

4) xarajatlari foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan xizmatlar ko'rsatish;

5) jismoniy shaxslarga mehnatga haq to'lash yoki dividendlar to'lash hisobiga tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

6) soliq to'lovchi tomonidan o'ziga tegishli mol-mulk (xizmatlar)ni, agar bunday mol-mulk (xizmatlar) bo'yicha soliq summasi to'liq yoki qisman hisobga o'tkazilgan bo'lsa, boshqaruv organi a'zolariga, xodimlarga, ularning oila a'zolariga yohud boshqa shaxslarga soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy maqsadlarda foydalanish uchun berish (xizmatlar ko'rsatish);

7) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish, agar tovarlar va (yoki) mol-mulk qayta ishlash mahsuli shaklida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

8) erkin bojxona hududining bojxona tartib-taomiliga soliq to'lamasdan joylashtirilgan tovarni yo'qotish, boshqa holatlarda soliqni to'lash zarur bo'lgan taqdirda;

9) qaytarilishi lozim bo'lgan, ko'p marta muomalada bo'ladigan idishlarning sotuvchi tomonidan berilishi, agar idish bunday idishdagi mahsulotni yetkazib berishga doir shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasa.

Tovarlar (xizmatlar)ni olish huquqini beruvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb yuritiladi.

Tovarlarni realizatsiya qilish joyi. Quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda bittasi bajarilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizatsiya qilish joyi deb yuritiladi:

1) tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa va bitim natijasida uning hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo'lsa;

2) tovar jo'natish yoki transportda tashish boshlangan paytda O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa.

Xizmatlarni realizatsiya qilish joyi. Xizmatlarning xaridori O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyatni amalga oshirsa yoki tursa, O'zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb yuritiladi.

Agar xizmatlarning xaridori O'zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxs (uning filiallari yoki vakolatxonalari)ni yoki jismoniy shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish asosida haqiqatda hozir bo'lsa, mazkur hudud xaridorning faoliyatni amalga oshirish joyi deb yuritiladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan taqdirda, xaridorning O'zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda hozir bo'lishi yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan joy yoki uni boshqarish joyi, uning doimiy muassasasi joylashgan yer (agar xizmatlar ushbu doimiy muassasa orqali olingan bo'lsa), jismoniy shaxsning yashash joyi asosida belgilanadi.

Quyidagi hollarda ham O'zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb yuritiladi, agar:

1) xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan ko'chmas mol-mulk bilan bevosita bog'liq bo'lsa. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, arxitektura loyihasini ishlab chiqish, qurilish faoliyatini tayyorlash va muvofiqlashtirish, arxitektura va qurilish faoliyati ustidan mualliflik va (yoki) texnik nazorat bilan bog'liq bo'lgan qurilish, montaj qilish, qurilish-montaj xizmatlari, ko'chmas mol-mulkka doir ishga tushirish-sozlash, ta'mirlash, restavratsiya qilish ishlari, ko'kalamzorlashtirish ishlari, shuningdek, ko'chmas mol-mulkni ijaraga berish kiradi;

2) xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda bo'lgan ko'char mol-mulk bilan bevosita bog'liq bo'lsa, bundan transport vositalarini ijaraga berish

mustasno. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, ko'char mol-mulkni montaj qilish, sozlash, yig'ish, ishlov berish, qayta ishlash, ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish, saqlash kiradi;

3) umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar, dam olish va boshqa shunga o'xshash xizmatlar, turizm, mehmonxona xizmatlari va joylashtiruv, madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sport, o'qitish (ta'lim) sohasidagi, shu jumladan malaka imtihonlari o'tkazish, seminarlar, malaka oshirish kurslarini, pullik ko'rgazmalar, konferentsiyalar, simpoziumlar va boshqa shunga o'xshash tadbirlarni tashkil etishga doir xizmatlar haqiqatda O'zbekiston Respublikasi hududida ko'rsatilsa.

4) tashish va (yoki) transportda tashish bo'yicha xizmatlar yohud bevosita tashish va (yoki) transportda tashish bilan bog'liq xizmatlar quyidagilar tomonidan ko'rsatiladigan bo'lsa:

a) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, agar jo'natish punkti va (yoki) belgilangan punkt O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa. Mazkur qoida ushbu transport vositalarida tashish (transportda tashish)ni nazarda tutuvchi, kemada vaqtincha yuk tashishga doir shartnoma bo'yicha (ekipaj bilan bo'lgan vaqtga) transport vositalarini berish chog'ida ham qo'llaniladi. Bunda, agar havo kemalaridan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan punktlar o'rtasida tashish uchun foydalaniladigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududi kemada vaqtincha yuk tashish shartnomasiga ko'ra havo kemalarini foydalanishga berish bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb yuritilmaydi;

b) chet ellik shaxslar tomonidan, agar jo'natish punkti va belgilangan punkt O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa;

5) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyigacha tashish chog'ida bojxona tranzitining bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni tashish va (yoki) transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar yoki chet el yuridik

shaxsining doimiy muassasasi yohud yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilsa;

6) havo kemalariga bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo hududida ko'rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmatlari ko'rsatilsa;

7) O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tabiiy gazni quvurlar orqali tashishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatilsa;

8) ijaraga berish paytida O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan transport vositalarini qisqa muddatli ijaraga berish bilan bog'liq xizmatlar. Agar xizmatlar transport vositalarini uzoq muddatli ijaraga berish bilan bog'liq bo'lsa, transport vositalarining joylashgan eridan qat'i nazar, xizmatlarni sotib oluvchining faoliyatini amalga oshiradigan joyi (joylashgan yeri) bunday xizmatlarning realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi. Bunda havo va dengiz kemalariga, vertolyotlarga va temir yo'l transportining harakatdagi tarkibiga nisbatan shartnoma, agarda u 90 kungacha bo'lgan muddatga tuzilgan bo'lsa, qisqa muddatli deb hisoblanadi. Boshqa transport vositalariga nisbatan bunday shartnomalar 30 kungacha bo'lgan muddatga tuzilgan bo'lsa, qisqa muddatli deb hisoblanadi;

9) televideniyada va (yoki) radioda, ommaviy axborot vositalari va boshqa shakllarda reklamani joylashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining hududida amalga oshiriladigan xizmatlar;

10) Soliq kodeksning 282-moddasida ko'rsatilgan elektron shakldagi xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan yoki faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslar tomonidan olinsa. Bunda, agar quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda bittasi bajarilsa, O'zbekiston Respublikasining hududi jismoniy shaxs tomonidan elektron shakldagi xizmatlarni olish joyi deb yuritiladi;

a) xaridorning yashash joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lsa;

b) xaridor tomonidan xizmatlarga haq to'lash uchun foydalaniladigan bank yoki xaridor tomonidan xizmatlarga haq to'lash amalga oshiriladigan to'lov tizimlarining operatori O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa;

v) xaridor xizmatlarni olish chog'ida foydalangan tarmoqning manzili O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa;

g) xizmatlarni olish yoki xizmatlarga haq to'lash uchun foydalaniladigan telefon raqami mansub bo'lgan mamlakatning xalqaro kodi O'zbekiston Respublikasi tomonidan berilgan bo'lsa.

Agar xizmatlar ko'rsatish asosiy xizmatlarni realizatsiya qilishga nisbatan yordamchi xususiyatga ega bo'lsa, bunday realizatsiya qilish joyi deb asosiy xizmatlar realizatsiya qilingan joy yuritiladi.

13.3. Qo'shilgan qiymat solig'i imtiyozlari

Qo'shilgan qiymat solig'ida boshqa soliq turlariga nisbatan ko'proq imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular soliq kodeksida to'rt guruhga bo'lib berilgan. Ular quyidagicha:

1) Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma (243-modda);

2) Soliq solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar (244-modda);

3) Soliq solishdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari (245-modda);

4) Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish(245-modda);

Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalar quyidagilar hisoblanadi:

1) maktabgacha ta'lim muassasalari (tashkilotlari)da bolalarga qarash bo'yicha xizmatlar;

2) bemorlar va keksalarni parvarish qilish bo'yicha xizmatlar;

3) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolar, diniy tashkilotlar hamda birlashmalar tomonidan udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlar;

4) protez-ortopediya buyumlarini, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inventar, shu jumladan ushbu buyumlar va inventarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilish, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash,

nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar;

5) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlarini ushbu muassasalar tomonidan realizatsiya qilish;

6) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat bo'lgan hamda nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlar;

7) pochta markalarini (kollektsiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

8) pensiyalar va nafaqalar to'lashga doir xizmatlar;

9) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Mazkur soliq solishdan ozod etish tegishli moliya organining byudjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi;

10) o'qitish (ta'lim) sohasidagi xizmatlar, shu jumladan test sinovlari va imtihonlar o'tkazishni tashkil etish xizmatlari, xususan:

boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, texnik va kasb-hunar, oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasidagi ta'lim xizmatlari;

ta'lim muassasalari (tashkilotlari), shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha ta'lim berish bo'yicha xizmatlar;

maktabgacha ta'lim va tarbiya dasturlari doirasida ta'lim va tarbiyalash faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda bolalarga qarash va ularni parvarishlash bo'yicha xizmatlar, to'garaklarda, sektsiyalar (shu jumladan sport sektsiyalari) va studiyalar voyaga yetmagan bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha xizmatlari;

11) tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlari (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno). Ushbu bandga muvofiq tibbiy xizmatlar jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

tibbiy yordamga va sanitariya xizmati ko'rsatishga doir xizmatlar;

tashxis qo'yish, profilaktika va davolash bo'yicha xizmatlar;

stomatologik xizmatlar, shu jumladan tishlarni protezlash bo'yicha xizmatlar;

12) veterinariya xizmatlari. Ushbu bandga muvofiq veterinariya xizmatlari jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

veterinariyaga oid xizmatlar ko'rsatish, hayvonlarga tashxis qo'yish va ularni davolash bo'yicha xizmatlar;

hayvonlar va inson uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan aholini himoya qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan himoya qilish;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya va veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlash;

13) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar;

14) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish xizmatlarini, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlarini. Ushbu bandga muvofiq:

a) sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari jumlasiga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriyalar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonolari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko'rsatiladigan, ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ko'rsatilishidan qat'i nazar, yo'llanmalar yoki joysiz davolanish uchun beriladigan hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlar kiradi;

b) jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlari jumlasiga, xususan, sport inshootlarida, maktablarda, klublarda sport turlari bo'yicha o'quv guruhleri hamda jamoalarida sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishga oid xizmatlar, umumjismoniy tayyorgarlik xizmatlari, sport musobaqalarini yoki bayramlarni, sport-tomosha tadbirlarini o'tkazish

bo'yicha xizmatlar, shuningdek mazkur tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish uchun sport inshootlarini ijaraga berish kiradi;

15) yo'lovchilarni yagona tariflar bo'yicha tashish xizmatlarini ko'rsatish:

a) umumiy foydalanishdagi yo'lovchi tashish shahar transportida va yo'lovchi tashish avtomobil transportida (bundan taksi, shu jumladan yo'nalishli taksi mustasno);

b) shahar atrofidagi yo'nalishda temir yo'l xizmatida;

16) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo'jaliklari, yer resurslari va davlat kadastr, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta'mirlash boshqarmalari hamda bo'limlarining bevosita aholi tomonidan haq to'lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga uy-joy mulkdorlari shirkatlari orqali haq to'lash kiradi;

17) tovarlar (xizmatlar)ni, agar tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bepul amalga oshirilsa;

18) qimmatbaho metallardan ishlangan bank va o'lchovli quymalarini, qimmatbaho metallardan ishlangan quyma (investitsiya) tangalarni (numizmatika maqsadlari uchun foydalaniladigan tangalardan, shuningdek qimmatbaho metallardan ishlangan chet el tangalaridan tashqari), zargarlik buyumlari;

19) bojsiz savdo bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlar;

20) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va vakolatli organlar, tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni, agar bunday xizmatlar ko'rsatish shart ekanligi qonun hujjatlarida belgilangan bo'lsa, faoliyatning muayyan sohasida ushbu organlar va tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan alohida vakolatlarni bajarish doirasida davlat boji yoki boshqa to'lovlar undiriladi;

21) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproqqa oid va geobotanika ishlari;

22) byudjet mablagʻlari hisobidan har yillik mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida koʻrsatiladigan geologiya xizmatlari;

23) xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlar va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlar hisobidan olinadigan tovarlar (xizmatlar)ni, agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan boʻlsa;

24) Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qoʻriqlash boʻlinmalari xizmatlari;

25) telekommunikatsiya tarmoqlarida operativ-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat koʻrsatishga doir xizmatlar;

26) metsenatlik koʻmagi tarzida beriladigan (koʻrsatiladigan) tovarlar (xizmatlar)ni;

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishga doir aylanma soliq toʻlovchilarda bunday faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyalar va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar mavjud boʻlgan taqdirda, agar uning amalga oshirilishini litsenziyalash lozim boʻlsa yoki ruxsat etuvchi hujjatlar talab etsa, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladi.

Soliq solinadigan aylanmalarni soliq kodeksiga muvofiq soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshiradigan soliq toʻlovchilar, aylanmalarning alohida hisobini yuritishi shart hisoblanadi.

Quyidagi moliyaviy xizmatlar soliq solishdan ozod etiladi:

1) bank operatsiyalari, xususan:

yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablagʻlarini omonatlarga jalb etish;

yuridik va jismoniy shaxslarning jalb etilgan pul mablagʻlarini banklar nomidan hamda ularning hisobidan joylashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan bank kartalari boʻyicha hisob-kitoblar uchun xizmat qiluvchi bank hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish, shuningdek bank kartalariga xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq operatsiyalar;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning topshirig'iga ko'ra ularning bank hisobvaraqlari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

yuridik va jismoniy shaxslarga kassa xizmatlarini bank kassalari yoki maxsus asbob-uskunalar (bankomat, avtomatik depozit mashinalar va hokazo) orqali ko'rsatish;

chet el valyutasining naqd puldagi va naqd pulsiz oldi-sotdisi (shu jumladan chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalariga doir vositachilik xizmatlari ko'rsatish);

bank kafolatlarini bajarish (bank kafolatini berish va bekor qilish, bunday kafolat shartlarini tasdiqlash va o'zgartirish, bank kafolati bo'yicha to'lov, bunday kafolatga doir hujjatlarni rasmiylashtirish va tekshirish);

majburiyatlarning pul shaklida bajarilishini nazarda tutuvchi uchinchi shaxslar uchun kafillik berish;

akkreditivlarni ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

to'lov tizimlari, dasturlaridan va uskunalaridan foydalangan holda hisob-kitoblar (to'lovlar)ni amalga oshirish;

2) hisob-kitoblar ishtirokchilari o'rtasida axborot va texnologik hamkorlikni, shu jumladan hisob-kitoblar ishtirokchilariga bank kartalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha axborotni to'plash, unga ishlov berish va uni taqdim etish yuzasidan xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar;

3) yuridik shaxslarning ustav fondi (ustav kapitali)dagi ulushlarini, kooperativlarning pay fondlaridagi va investitsiya pay jamg'armalaridagi paylarni, qimmatli qog'ozlar hamda hosila moliyaviy vositalarni realizatsiya qilish, bundan soliq solinishi lozim bo'lgan hosila moliyaviy vositalarning asos aktivini realizatsiya qilish mustasno. Soliqqa tortish maqsadlarida hosila moliyaviy vositani realizatsiya qilish deganda uning asos aktivini realizatsiya qilish, shuningdek kontrakt bo'yicha mukofotlar summalarini, variatsiyaga oid marja summalarini to'lash, hosila

moliyaviy vositalar shartlariga muvofiq asos aktiv to'lovi bo'lmagan hosila moliyaviy vosita taraflarining boshqa davriy yoki bir martalik to'lovlari tushuniladi;

4) realizatsiya qilinishi soliq solishdan ozod etiladigan hosila moliyaviy vositalar asosida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha huquqlar (talablar)dan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish);

5) forfeyting va faktoring operatsiyalari;

6) zayomlarni pul shaklida berishga doir shartnomalardan va (yoki) kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar yuzasidan kreditorning huquqlari (talablari)dan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish, olish) bo'yicha, shuningdek boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi asosida dastlabki shartnoma yuzasidan qarz oluvchining har bir yangi kreditor oldidagi majburiyatlarining bajarilishga doir operatsiyalar;

7) kreditlar, zayomlarni pul shaklida va qimmatli qog'ozlar bilan berish, shu jumladan ular bo'yicha foizlar bilan birga berish;

8) mol-mulkni moliyaviy ijara (lizing)ga berishga doir xizmatlarning ushbu xizmatlar bo'yicha foizli daromadlar olishga taalluqli qismi bo'yicha;

9) qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog'ozlarni saqlash, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni o'tkazish hamda ularning reestrini yuritish, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha operatsiyalar kiradi;

10) tranzaktsiyalarni bir vaqtning o'zida to'lov ishtirokchilari o'rtasida vositachilik haqlarini taqsimlagan holda amalga oshirish bilan bog'liq to'lov tizimlarining moliya xizmatlari.

Soliq solishdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari. Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;

qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqlari; sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, syurveyer hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

sug'urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) ning yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan mablag'lar;

qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

sug'urta to'lovi (sug'urta to'voni);

preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;

sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish.

Quyidagilarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish soliq solishdan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirilayotgan tovarlar;

3) davlat, hukumat, xalqaro tashkilotlar yo'nalishlari bo'yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko'rsatish uchun olib kiriladigan tovarlar;

4) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

5) qonun hujjatlariga muvofiq alohida qimmatga ega madaniy meros obyektlari jamoasiga kiritilgan, davlat madaniyat muassasalari tomonidan olingan yoki ular tomonidan sovg'aga olingan madaniy qimmatliklar. Ushbu soliq solishdan ozod etish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tegishli tasdiqnomasi mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi;

6) o'xshashi O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar;

7) xalqaro kitob almashinuvi bo'yicha davlat kutubxonalari va muzeylari tomonidan olinadigan bosma nashrlarning barcha turlari, shuningdek xalqaro notijorat almashinuvini amalga oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan davlat tashkilotlari tomonidan olib kiriladigan kinematografiya asarlari;

8) milliy valyuta va chet el valyutasi, qonuniy to'lov vositalari bo'lgan banknotlar (bundan kolleksiya qilish uchun mo'ljallanganlari mustasno), shuningdek qimmatli qog'ozlar;

9) xalqaro moliya institutlarining qarzlar va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlar hisobidan olib kiriladigan tovarlar, agar qarzga doir bitimda bu tovarlar olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi nazarda tutilgan bo'lsa;

10) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining

texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

11) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xom ashyo. Mazkur norma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

13.4. Soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi. Soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalari

Tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan o'zi ishlab chiqargan yoki olgan tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan soliq kodeksi va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan tushum soliq to'lovchining ushbu tovarlar (xizmatlar)ga pulda va (yoki) natura shakllaridagi to'lov, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan haq to'lash sifatida olingan barcha daromadlaridan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida soliq to'lovchining chet el valyutasida ifodalangan tushumi (xarajatlari) soliq kodeksning 242-moddasida belgilangan tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Agar sotuvchi va xaridor o'rtasidagi shartnomada tovarlar (xizmatlar)ga chet el valyutasida belgilangan summaga teng bo'lgan summadagi milliy valyutada haq

to'lash nazarda tutilgan bo'lsa hamda bunda realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar)ga haq to'langan sana ularni realizatsiya qilish bo'yicha aniqlanadigan aylanma amalga oshirilgan sanaga to'g'ri kelmasa, mazkur sanalarda chet el valyutasi kurslaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tushum summasidagi ijobiy yoki salbiy farq soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday ijobiy yoki salbiy farq boshqa daromadlar yoki boshqa xarajatlar tarkibida sotuvchi tomonidan hisobga olinishi lozim.

Soliq bazasini aniqlash tartibi. Soliq bazasi - Aksiz solig'ini (aksiz to'lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda, bitim taraflari tomonidan qo'llanilgan narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar)ning qiymati sifatida aniqlanadi.

Xaridorlarga realizatsiya qilish bo'yicha aylanmani amalga oshirish sanasida chegirmalar (boshqa tijorat bonuslari) bergan soliq to'lovchi soliq bazasini bunday chegirmalar (tijorat bonuslari) chegirib tashlangan holdagi narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Soliq bazasi quyidagi hollarda tovarlar (xizmatlar)ning O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq aniqlanadigan bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi:

- 1) tovarlar (xizmatlar)ni boshqa tovarlar (xizmatlar)ga ayirboshlab realizatsiya qilishda;
- 2) tovarlar (xizmatlar)ni bepul berish (ko'rsatish)da;
- 3) yuridik shaxsning mol-mulkidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishda.

Agar bitimning narxi tovarlar (xizmatlar)ning bozor qiymatidan past yoki yuqori bo'lsa, soliq organlari soliq bazasiga tuzatish kiritishga haqli. Soliq to'lovchi bunday qaror yuzasidan bitimning narxi bozor narxlariga muvofiqligini va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qaratilmaganligining asoslarini taqdim etish yo'li bilan nizolashishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan (import qilingan) tovarlarni realizatsiya qilish chog'ida soliq bazasi ushbu tovarlarni olib kirish (import qilish)

chog'ida byudjetga haqiqatda to'langan soliq hisoblab chiqarilgan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, unga soliqni kiritmagan holda, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, Soliq kodeksiga muvofiq hisoblab chiqarilgan Aksiz solig'i hisobga olingan holda aniqlanadi.

Obyektlarni qurishda, shu jumladan obyektlarni foydalanish uchun tayyor qilib qurish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni, shuningdek uzoq texnologik (bir hisobot davridan ortiq) davriylikdagi boshqa uzoq muddatli shartnomalarni bajarishda soliq bazasi har bir kalendar oyning oxirida haqiqatda bajarilgan ishlar hajmining soliq bazasi kiritilmagan holda aniqlanadigan qiymati asosida aniqlanadi. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, soliq bazasi bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning qiymatidan kelib chiqqan va buyurtmachi materiallarining qiymatini soliq bazasiga kiritmagan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarga mehnat haqi hisobiga yoki dividendlar to'lovlari hisobiga tovarlar berilganda (xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek soliq bazasi tovarlar (xizmatlar)ning aniqlanadigan qiymatidan kelib chiqqan va soliqni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Tovarlar (xizmatlar)ni olishga bo'lgan huquqni beruvchi vaucherni realizatsiya qilish chog'ida vaucherning soliq hisobga olingan holdagi qiymati soliq bazasi bo'ladi.

Olib sotish uchun jismoniy shaxslardan olingan avtomobillar va uy-joy ko'chmas mulk obyektlari realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summamini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va sotib olish qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilganda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari. Mol-mulk moliyaviy ijara (lizing)ga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) ning soliq bazasi barcha davriy ijara (lizing) to'lovlari summasi (shu jumladan, qaytarib sotib olish summasi, agar shartnomada shunday summa nazarda tutilgan bo'lsa) sifatida, ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi)ning foiz hisobidagi daromadi chegirib tashlangan va soliq hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining shartlari bajarilmaganligi sababli moliyaviy ijara (lizing) obykti qaytarilgan taqdirda, soliq bazasi ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan obyekt qaytarilgan sanada bunday obyekt uchun o'zi to'lamagan ijara (lizing) to'lovlarining summasi miqdorida foiz hisobidagi xarajat chegirib tashlangan va soliq hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Soliq solishdan ozod etilgan, olib kirilgan texnologik asbob-uskunalar moliyaviy ijara (lizing)ga berilganda soliq bazasi mazkur asbob-uskunalarni sotib olish narxi va realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqib aniqlanadi.

Vositachilik (topshiriq), transport ekspeditsiyasi shartnomalari bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilganda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari. Komitent (ishonch bildiruvchi)ning topshirig'iga ko'ra komitent (ishonch bildiruvchi)ga tegishli bo'lgan tovarlar realizatsiya qilingan taqdirda, vositachilik (topshiriq) shartnomasining shartlariga muvofiq bo'lgan shartlar asosida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo'yicha komitent (ishonch bildiruvchi) bunday uchinchi shaxsga xizmatlar ko'rsatganda soliq bazasi quyidagicha aniqlanadi:

1) vositachi (ishonchli vakil)ning soliq bazasi – uning soliqni o'z ichiga oladigan vositachilik haqi miqdorida;

2) komitent (ishonch bildiruvchi)ning soliq bazasi – komitentning topshirig'iga ko'ra vositachi tomonidan realizatsiya qilingan tovarlarning qiymati, shuningdek soliqni kiritmagan holda vositachi tomonidan uchinchi shaxs bilan

tuzilgan bitim bo'yicha komitent bunday uchinchi shaxsga ko'rsatgan xizmatlarning qiymati miqdorida.

Soliq solishdan ozod etish soliq solishdan ozod etiladigan tovarlar (xizmatlar) ni realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan vositachilik (topshiriq), transport ekspeditsiyasi shartnomalari asosida xizmatlar ko'rsatishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Vositachilik (topshiriq) shartnomasi shartlariga muvofiq bo'lgan shartlar asosida komitent uchun uning topshirig'iga ko'ra, olingan tovarlar vositachi tomonidan komitentga berilgan taqdirda, uchinchi shaxs tomonidan vositachi bilan tuzilgan bitim bo'yicha bunday uchinchi shaxs komitent uchun xizmatlar ko'rsatganda vositachining soliq bazasi uning soliqni o'z ichiga oladigan vositachilik haqi miqdorida aniqlanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasida belgilangan, transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha mijoz bo'lgan taraf uchun tashuvchi va (yoki) boshqa yetkazib beruvchilar tomonidan xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq bazasi transport ekspeditsiyasi shartnomasida nazarda tutilgan, uning soliqni o'z ichiga oladigan haqi miqdorida aniqlanadi.

Korxona mol-mulk majmuasi sifatida realizatsiya qilinganda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari. Korxona mol-mulk majmuasi sifatida realizatsiya qilinganda, soliq bazasi ushbu bandeda belgilangan tartibda, uni realizatsiya qilishning soliqni o'z ichiga oladigan narxi miqdorida, ushbu korxona mol-mulkining har bir soliq obykti bo'yicha alohida aniqlanadi.

Agar korxonani realizatsiya qilish narxi uning tarkibiga kiradigan jami mol-mulkning balans qiymatidan past bo'lsa, korxonani realizatsiya qilish narxining mazkur mol-mulkning balans qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadigan tuzatish koeffitsienti qo'llaniladi.

Agar korxonani realizatsiya qilish narxi uning tarkibiga kiradigan jami mol-mulkning balans qiymatidan yuqori bo'lsa, korxonani realizatsiya qilishning debitorlik qarzi summasiga va qimmatli qog'ozlar qiymatiga kamaytirilgan narxining realizatsiya qilingan korxona tarkibiga kiradigan mol-mulkning debitorlik

qarzi summasiga va qimmatli qog'ozlarning qiymatiga kamaytirilgan balans qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadigan tuzatish koeffitsienti qo'llaniladi. Ushbu qismga muvofiq tuzatish koeffitsientini hisob-kitob qilishda qimmatli qog'ozlarning qiymati, agar u faqat bozor qiymati bo'yicha qayta baholangan bo'lsa, chiqarib tashlanadi.

Mol-mulkning har bir turini realizatsiya qilish narxi uning balans qiymatining ushbu bandning ikkinchi yoki uchinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadigan tuzatish koeffitsientiga ko'paytmasi sifatida aniqlanadi.

Ushbu bandning uchinchi qismida nazarda tutilgan holatda, debitorlik qarzi-ning summasiga doir tuzatish koeffitsienti qo'llanilmaydi. Agar bunday holda qimmatli qog'ozlarning qiymati qayta baholangan bo'lsa, mazkur koeffitsient ularning qiymatiga nisbatan ham qo'llanilmaydi.

Korxona sotuvchisi tomonidan korxona sotilgan narxni ko'rsatgan holda jamlama hisobvara-q-faktura tuziladi.

Jamlama hisobvara-q-fakturada asosiy mablag'lar, nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan va ishlab chiqarish uchun mo'ljallanmagan mol-mulkning boshqa turlari, debitorlik qarzining summolari, qimmatli qog'ozlarning qiymati hamda balans aktivlarining boshqa pozitsiyalari mustaqil pozitsiyalarga ajratiladi. Jamlama hisobvara-q-fakturaga inventarizatsiya dalolatnomasi ilova qilinadi.

Jamlama hisobvara-q-fakturada har bir mol-mulk turining narxi ushbu bandning beshinchi qismida nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda balans qiymatining tuzatish koeffitsientiga ko'paytmasiga teng deb qabul qilinadi.

Realizatsiya qilinishiga soliq solinadigan mol-mulkning har bir turi bo'yicha tegishli ravishda soliq stavkasi va tegishli soliq summasi ko'rsatiladi.

Transportda tashishni amalga oshirishda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari. Yo'lovchilarni, bagajni, yuklarni yoki pochmani temir yo'l, avtomobil, havo yoki daryo transportida tashishlar amalga oshirilganda soliq bazasi soliqni qo'shmagan holdagi tashish qiymati sifatida aniqlanadi.

Imtiyozli tariflar bo'yicha yo'l hujjatlari realizatsiya qilinganda soliq bazasi ushbu imtiyozli tariflardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Safar boshlanguniga qadar xaridorlarga ishlatilmagan yo'l hujjatlari uchun pullar qaytarilgan taqdirda, qaytarilishi lozim bo'lgan summaga soliqning barcha summasi kiritiladi.

Safar tugatilganligi sababli yo'l davomida yo'lovchilarga yo'l hujjatlari qaytarilgan taqdirda, qaytarilishi lozim bo'lgan summaga yo'lovchilar yurishi kerak bo'lgan qolgan masofaga tegishli miqdordagi soliq summasi kiritiladi. Bunday holda soliq bazasini aniqlashda yo'lovchilarga haqiqatda qaytarilgan summalar hisobga olinmaydi.

Muddatli bitimlar bo'yicha tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari. Muddatli bitim deganda shartnomada belgilangan muddat tugagach bevosita ushbu shartnomada ko'rsatilgan narx bo'yicha tovarlar yetkazib berilishi (xizmatlar ko'rsatilishi)ni taqozo etadigan bitim tushuniladi.

Muddatli bitimlar bo'yicha tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganda soliq bazasi ushbu tovarlar (xizmatlar)ning bevosita shartnomada ko'rsatilgan, lekin realizatsiya qilingan sanadagi bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan qiymatdan past bo'lmagan qiymati sifatida aniqlanadi.

Uyushgan bozorda muomalada bo'lmagan hosila moliyaviy vositalar realizatsiya qilinganda soliq bazasi asos aktivning bevosita shartnomada ko'rsatilgan, lekin realizatsiya qilingan sanadagi bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan qiymatdan past bo'lmagan qiymati sifatida aniqlanadi.

Uyushgan bozorda muomalada bo'lgan va asos aktiv yetkazib berilishini nazarda tutuvchi hosila moliyaviy vositalarning asos aktivi realizatsiya qilinganda, soliq bazasi, agar ushbu bandning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, asos aktivni realizatsiya qilish amalga oshirilishi kerak bo'lgan hamda ushbu hosila moliyaviy vositani birja tasdiqlagan tasniflash shartlariga muvofiq belgilangan qiymat sifatida aniqlanadi.

Uyushgan bozorda muomalada bo'lgan va asos aktiv yetkazib berilishini nazarda tutuvchi opsiyon kontraktlarning asos aktivi realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu asos aktivni realizatsiya qilish amalga oshirilishi kerak bo'lgan va hosila moliyaviy vositani birja tasdiqlagan tasniflash shartlariga muvofiq belgilangan qiymat sifatida, lekin realizatsiya qilish sanasidagi bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilganidan past bo'lmagan qiymatda aniqlanadi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasini aniqlash tartibi. Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi quyidagilarni qo'shgan holda hisoblab chiqarilgan ushbu tovarlarning qiymati sifatida aniqlanadi:

- 1) tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlandigan bojxona qiymati;
- 2) tovarlar O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotganda to'lanishi lozim bo'lgan Aksiz solig'i va bojxona boji.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidan ilgari olib chiqilgan tovarlarning qayta ishlash mahsulotlari ushbu hududga olib kirilayotganda soliq bazasi bunday qayta ishlashning qiymati sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan bir nomdagi, turdagi va markadagi tovarlarning har bir guruhi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarning bir turkumi tarkibida bir vaqtning o'zida ham aksiz to'lanadigan, ham aksiz to'lanmaydigan tovarlar mavjud bo'lsa, soliq bazasi mazkur tovarlarning har bir guruhiga nisbatan alohida aniqlanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar turkumi tarkibida bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidan ilgari olib chiqilgan tovarlarning qayta ishlash mahsulotlari mavjud bo'lsa, soliq bazasi xuddi shunday tartibda aniqlanadi.

Tovarlar (xizmatlar) chet ellik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinganda soliq agentlari tomonidan soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining hududi realizatsiya qilish joyi bo'lgan tovarlar (xizmatlar) soliq to'lovchilar sifatida soliq organlarida hisobda turmagan chet ellik shaxslar tomonidan realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq agentlari tomonidan ushbu tovarlar (xizmatlar)ni aksizlar (aksiz to'lanadigan tovarlar uchun) va soliq hisobga olingan holda realizatsiya qilishdan olingan daromadning summasi sifatida aniqlanadi.

Soliq agentlari deb ushbu bandning birinchi qismida ko'rsatilgan tovarlar (xizmatlar)ning xaridorlari (ularni oluvchilar) bo'lgan O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, yakka tartibdagi tadbirkorlar (ushbu bandning to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari e'tirof etiladi.

Chet el yuridik shaxslari bilan hisob-kitoblarda O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki chet el yuridik shaxslarining doimiy muassasalari topshiriq, vositachilik shartnomalari yoki boshqa vositachilik shartnomalari asosida ishtirok etsa, bunday shaxslar soliq agentlari deb e'tirof etiladi. Mazkur hollarda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan bunday tovarlarning aksizlar (aksiz to'lanadigan tovarlar uchun) va soliq hisobga olingan holdagi qiymati sifatida aniqlanadi.

Chet el yuridik shaxslari realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi deb e'tirof etiladigan elektron shakldagi xizmatlarni ko'rsatgan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga yoki O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslariga topshiriq, vositachilik shartnomalari yoki shunga o'xshash shartnomalar asosida elektron shakldagi xizmatlar ko'rsatgan taqdirda, bunday xizmatlarning mazkur xaridorlari soliq agentlari deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishga doir har bir operatsiya amalga oshirilganda soliq bazasi tilga olib o'tilgan qoidalar hisobga olingan holda alohida aniqlanadi.

Agar kontraktlarning shartlariga muvofiq xizmatlar chet ellik shaxslar tomonidan soliqni hisobga olmasdan taqdim etilsa, ushbu xizmatlar bo'yicha soliq bazasi soliq agentlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatidan kelib chiqqan holda, soliqni hisobga olmasdan aniqlanadi. Bunday holda soliq agenti tegishli soliq summasini mustaqil tarzda hisoblab chiqarishi va byudjetga o'tkazishi shart.

Davlat mol-mulki bilan operatsiyalar amalga oshirilganda soliq agentlari tomonidan soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi hududida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mol-mulki ijaraga berilganda, davlat mulkini ijaraga berish bo'yicha vakolatli organ soliq agenti deb e'tirof etiladi. Bunday hollarda soliq bazasi bunday mol-mulkning soliq hisobga olingan holdagi ijara shartnomasida belgilangan ijara to'lovi miqdorida soliq agenti tomonidan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida davlat mol-mulki realizatsiya qilingan (berilgan)da soliq bazasi soliq agenti tomonidan aniqlanadi. Bunday hollarda ushbu mol-mulkning xaridorlari (uni oluvchilar) soliq agenti deb e'tirof etiladi, bundan yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan jismoniy shaxslar mustasno. Bunday hollarda soliq bazasi sotib olinayotgan (olinayotgan) davlat mol-mulkining soliq hisobga olinmasdan shartnomada belgilangan qiymati miqdorida soliq agenti tomonidan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida musodara qilingan mol-mulk, sudning qaroriga binoan realizatsiya qilinadigan mol-mulk, egasiz qimmatliklar, xazinalar va sotib olingan qimmatliklar, shuningdek meros olish huquqi asosida davlatga o'tkazilgan qimmatliklar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu mol-mulk (qimmatliklar)ni Aksiz solig'ini (aksiz to'lanadigan tovarlar uchun) va soliqni hisobga olgan holda realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi sifatida soliq agenti tomonidan aniqlanadi. Bunday hollarda ushbu mol-mulkni realizatsiya qilishni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan organ, tashkilot yoki yakka tartibdagi tadbirkor soliq agenti deb e'tirof etiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq stavkasi 15 foiz miqdorida O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 258-moddasida belgilangan. Shuningdek, “Nol” darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan aylanmalar ham belgilangan.

Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solish quyidagilar realizatsiya qilinganda amalga oshiriladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib - taomiliga olib chiqilgan tovarlar;

2) ilgari O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududidan bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash natijasida olingan (hosil bo‘lgan) tovarlar (qayta ishlash mahsulotlari, chiqindilar va (yoki) qoldiqlar);

3) O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan g‘amlab qo‘yilgan narsalar. Havo kemalaridan risoladagidek foydalanilishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan yoqilg‘i va yonilg‘i-moylash materiallari g‘amlab qo‘yilgan narsalar deb yuritiladi;

4) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog‘ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita O‘zbekiston Respublikasi hududiga etib kelish joyidagi bojxona organidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yohud transportda tashish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar;

5) xalqaro tashishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar.

Nol darajali stavkani qo‘llash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar soliq hisoboti bilan birga taqdim etiladi.

Eksport operatsiyalarini tasdiqlash. Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iborat:

1) kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi);

2) tovarlarni chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish uchun belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar belgilangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan, tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo'yicha realizatsiya qilinganda eksportni tasdiqlash uchun komitent (ishonch bildiruvchi) tomonidan qo'shimcha tarzda soliq to'lovchining vositachi yoki ishonchli vakil bilan tuzilgan vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko'chirma nusxasi) taqdim etiladi.

Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning turiga qarab boshqa hujjatlar taqdim etilishi mumkin. Soliq to'lovchining amalga oshiriladigan faoliyat turiga qarab nol soliq stavkasini qo'llash huquqini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati hamda ularni taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlarga soliq solish.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlarga qayta ishlash mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqish sharti bilan nol stavka bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlarga qayta ishlash mahsulotlarini keyinchalik bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq erkin muomalaga chiqarish rejimiga joylashtirgan holda belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq solinishi lozim.

Xalqaro tashishlar bilan bog'liq xizmatlarga soliq solish.

Nol stavka bo'yicha soliq solish quyidagilarni realizatsiya qilish chog'ida amalga oshiriladi:

1) tovarlarni xalqaro tashish bo'yicha xizmatlarni. Tovarlar xalqaro tashish deganda tovarlarning jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan taqdirda tovarlarni havo kemalari, temir yo'l transporti va (yoki) avtotransport vositalari orqali tashish tushuniladi;

2) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog'ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga etib kelish joyidagi bojxona organidan to O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoki transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar;

3) tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, bosharti yo'lovchilar, pochta va bagajni jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, yo'lovchilar, pochta va bagajni tashish bo'yicha xizmatlar;

4) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga eksport qilinadigan tovarlarni tashish yoki transportda tashish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududidagi qayta ishlash mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo'lgan tashuvchilar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar. Ushbu bandning qoidalari, bosharti tashish hujjatlarida bojxona organlarining belgilari qo'yilgan bo'lsa, qo'llaniladi;

5) havo kemalariga bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo hududida ko'rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati.

Ayrim hollarda nol darajali stavkaning qo'llanilishi. Tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish aylanmasi to'langan soliqni qoplash (qaytarish) yo'li bilan nol darajali stavkasi bo'yicha tortiladi, agar ushbu tovarlar (xizmatlar) quyidagicha olinsa:

1) chet el diplomatik vakolatxonalarining va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalar diploma-

tik va ma'muriy-texnik xodimlari (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a'zolari) shaxsiy foydalanishi uchun;

2) Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida tovarlar (xizmatlar)ni sotib olayotgan soliq to'lovchilar tomonidan, agar bitimda nol darajali stavka qo'llanilishi nazarda tutilgan bo'lsa.

Agar tegishli chet davlatning qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi-ning diplomatik vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga, ushbu vakolatxonalarning diplomatik hamda ma'muriy-texnik xodimlari (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a'zolari)ga nisbatan xuddi shunday tartib belgilangan bo'lsa yohud bunday norma O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa, nol darajali stavkani qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya jihatdan tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga, shu jumladan bunday xizmatlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan aholi nomidan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining bo'linmalari tomonidan olishga, nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadi.

Nol darajali stavka qimmatbaho metallarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan qimmatbaho metallarni olish bo'yicha vakolatli organga realizatsiya qilinadigan bunday metallarga nisbatan qo'llaniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari. Hisobvaraq faktura va uni to'ldirish tartibi

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni korxona ortib boruvchi yakun bilan ro'yxatdan o'tgan joyidagi Davlat soliq idoralariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan va yil yakunlari bo'yicha yillik moliyaviy hisobotni topshirish muddatida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari hisoblangan mikrofirma va kichik korxonalar yilning har choragida hisobot davri-

dan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda taqdim etadi.

Soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitoblari bilan bir vaqtda hisobot davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvara-q-fakturalar reestrini ham taqdim etadilar. Hisobvara-q-fakturalar reestrining shakli davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Hisobotlarni o'z vaqtida topshirmaslik korxona va korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan Davlat soliq idoralari tomonidan ma'muriy jazo choralarini qo'llanishiga olib keladi.

Hisobvara-q-faktura mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan tovarlarni yuklab jo'natilishi, ish va xizmatlar ko'rsatilishi sanasi (kuni)dan kechiktirmasdan yoziladi.

Hisobvara-q-fakturada - uning tartib raqami va yozilgan sanasi, jo'natiladigan tovarlar bo'yicha shartnomalar raqami va sanasi hamda soliq to'lovchi va xaridor-ning nomi, manzili STIRi va shu kabi rekvizitlari ko'rsatiladi.

Jadvalli shaklni to'ldirishda quyidagilarni qayd etish kerak:

- 1-ustunda, tovarlar (ish va xizmatlar) nomi;
- 2-ustunda tovarlarning o'lchov birligi (dona, metr, kg, va xokazo);
- 3-ustunda yuklab jo'natiladigan tovarlarning miqdori yoki soni;
- 4-ustunda tovarlarning shartnoma bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'isiz narxi;
- 5-ustunda tovarlarning jami yetkazib berish qiymati (qo'shilgan qiymat solig'isiz);
- 6-ustunda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi, agar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lsa chiziqcha tortib qo'yiladi;
- 7-ustunda jo'natilayotgan tovarlar bo'yicha tegishli stavkalarga ko'ra hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasi;
- 8-ustunda, jo'natilayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i bilan hisoblangan summasi.

Soliq kodeksiga ko'ra, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan oborotni amalga

oshirayotgan yuridik shaxslar 6- va 7- ustunga “Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiz” degan shtampini qo‘yishadi, agar shtamp bo‘lmasa qo‘lda yozib qo‘yishadi va 8 ustunni to‘ldirishmaydi.

Agarda korxona aktsiz osti tovarlar ishlab chiqarsa unda hisobvaraq-fakturaga qo‘shimcha ustunlar kiritiladi va ushbu ustunlarda aktsiz stavkasi va summasi aks ettiriladi (chunki aktsiz summasi ham qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladi). Hisobvaraq-faktura korxona rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi hamda muhr bilan tasdiqlanadi.

Hisobvaraq-faktura yetkazib beruvchi korxona tomonidan 2 nusxada to‘ldiriladi, 1-nusxasi xaridorga beriladi va u xaridorga qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini belgilangan tartibda hisobga kiritish uchun huquq beradi, 2-nusxasi esa korxonaning o‘zida qoladi.

Ta’kidlash joizki, bevosita aholiga pullik xizmatlar (ishlar)ni ko‘rsatadigan korxonalar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishda kassa cheki yoki xizmatlar ko‘rsatilishi (ishlar bajarilishi)ni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar hisobvaraq-faktura hisoblanadi. Bunda bu hujjatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i ajralib turishi lozim.

O‘z mahsulotlari (tovarlar, ishlar xizmatlar)ni uzluksiz yetkazib beradigan korxonalar bo‘yicha hisobvaraq-fakturalar iste’molchilarga hisobvaraqni rasmiylashtirish bilan bir vaqtda, lekin bir oyda bir martadan kam bo‘lmagan tarzda yoziladi. Bunda hisobvaraq-fakturalarning yozilishi mahsulot sotilgan hisobot davrida amalga oshiriladi.

Banklar uchun, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan operatsiyalar bajarilganda, hisobvaraq-faktura bo‘lib mijoz shaxsiy hisobvarag‘idan ko‘chirma hisoblanadi. Soliq kodeksning 247–257-moddalariga muvofiq soliq bazasini aniqlashda soliq summasi soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi tovarlar (xizmatlar) ni realizatsiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan, tegishli soliq davriga taalluqli bo‘lgan aylanmalarni amalga oshirish sanasidan kelib chiqqan holda, tegishli soliq davrida soliq bazasini

ko'paytiradigan yoki kamaytiradigan barcha o'zgartishlar hisobga olingan holda har bir soliq davrining yakunlariga ko'ra hisoblab chiqariladi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliqning umumiy summasi soliq kodeksiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq bazasining soliq stavkasiga mos keladigan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Agar soliq kodeksiga muvofiq soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning har bir guruhi bo'yicha alohida aniqlansa, soliq summasi mazkur soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqariladi. Bunda soliqning umumiy summasi bunday soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqarilgan soliq summalarini qo'shish orqali hisoblab chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasining 30.12.2021 yildagi O'RQ-742-son 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, 2022 yilda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha:

1. Soliqni hisoblash va to'lash tartibi, shuningdek soliq stavkasi saqlab qolinmoqda.

2. Tushumidan qat'iy nazar QQS to'lovchi korxonalar doirasi soliq maslahatchilari tashkilotlari, auditorlik tashkilotlari va notijorat (shu jumladan byudjet) tashkilotlari hisobiga kengaytirilmoqda. Bunda notijorat tashkilotlari faqatgina tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda QQS to'lovchisi hisoblanadilar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari QQS to'lashi lozim bo'lgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydoni ellik gektardan yigirma besh gektargacha pasaytirilmoqda.

3. Quyidagilar bo'yicha imtiyozlar bekor qilinmoqda.

jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xizmatlari (byudjet tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan jismoniy tarbiya va sport xizmatlari bundan mustasno); qiymati qat'iy summada belgilangan bank operatsiyalari.

4. Moliyaviy va sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga bir oyda bir marta hisobvaraq-fakturani taqdim etish huquqi berildi. Shu munosabat

bilan Soliq kodeksida ular uchun xizmatlar ko'rsatilgankalendar oyining oxirgi kuni tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmani amalga oshirish sanasi deb hisoblanishi belgilanmoqda.

5. Ilgari tovarlarni (xizmatlarni) olish chog'ida hisobga olish uchun qabul qilingan, QQS summasiga tuzatish kiritilishi lozim bo'lgan holatlarro'yxati kengaytirildi. Ushbu tovarlar soliq organlarida hisobga qo'yilmagan shartnomalar asosida ijaraga olingan yoki bepul foydalanilayotgan ko'chmas mulk obyektlarida saqlanganda ham hisobga olingan QQSga tuzatish kiritiladi.

6. Eksport qilinadigan tovarlar uchun ishlatilgan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) QQS summasini soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga chet el valyutasi tushumi kelib tushishidan qat'i nazar hisobga olish tartibi belgilandi. Ushbu norma oxirgi bir yil davomida valyuta tushumlarini o'z vaqtida ta'minlab kelayotgan va eksport shartnomalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorligi bo'lmagan intizomli soliq to'lovchilarga tatbiq etiladi.

Tovarlar "eksport" bojxona rejimi ostida chiqarilgan kundan e'tiboran 180 kalendar kuni ichida valyuta tushumi yoki uning bir qismi eksport qiluvchining O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi hisobvarag'iga kelib tushmagan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'ining hisobga olingan summasi yoki uning mos qismi belgilangan tartibda hisobdanchiqariladi.

7. Qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy summasini o'rnini qoplash (qaytarish) uchun soliq organlariga ariza bilan alohida murojaat qilish haqidagi majburiy talab bekor qilinmoqda.

Soliq to'lovchi o'zni qoplanishi lozim bo'lgan soliq summasini qaytarishga doir soliq hisobotini taqdim etishda soliq organlarini bu haqda xabardor qilgan holda, soliqning salbiy summasi o'rnini qoplash (qaytarish) uchun murojaat qilish huquqiga ham ega bo'ladi.

8. Barcha toifadagi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari uchun yagona soliq davri etib bir oy belgilanmoqda.

9. 2022 yilning 1 apreldan 31 dekabrga qadar tajriba tariqasida "Navoiy kon-

metallurgiya kombinati” AJ, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Uzbekistan Airways” AJ misolida shunday tartib joriy etiladiki, unga ko‘ra QQS salbiy summasi tovarlarni import qilishda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga kamaytiriladi.

Soliqlar har yili o'zgarmaydigan davlatdagina, fuqarolarning xavfsizligi ta'minlanishi va mulk huquqi himoya qilinishi mumkin.

Napoleon I

14-BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I

- 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti.**
- 2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozlari.**
- 3. Soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi.**
- 4. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.**

14. 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti

Ma'lumki, soliq qonunchiligida soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar ikkiga bo'lingan, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslardir.

Jismoniy shaxslarga – yuridik shaxs maqomini olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi.

Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida byudjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq bu – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – davlat byudjeti daromad manbalaridan biri bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq to'lovchilari deb (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) quyidagilar e'tirof etiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar;
- 2) O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar.

Soliq solish obyekti- soliq to'lovchining jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining (bundan keyin ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyekti deb hisoblanadi. Soliq solish obyekti soliqlarni to'g'ri hisoblab chiqarish va belgilangan soliq imtiyozlarini tadbqiq etilishida muhim oringa egadir.

Quyidagilar jami daromad tarkibiga kiradi:

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar. Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti)ga muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga hisoblanadigan hamda to'lanadigan quyidagi barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb yuritiladi:

-mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlardan, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

-ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

-rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

-kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya);

-ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;

-haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to'lovlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar ham kiradi:

-predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lovlar (bundan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar mustasno);

-yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar;

O'zbekiston Respublikasining Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatining, harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralar

xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar.

Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar. Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti;
- 2) yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi nizomida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;
- 3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalari va maoshlarga ustamalar;
- 4) ta'tilga qo'shimcha haqlar hamda moddiy yordam;
- 5) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;
- 6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov;
- 7) mehnat natijalari bilan bog'liq bo'lmagan bir yo'la beriladigan mukofotlar.

Kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya). Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadga kiritiladigan kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsientlar bo'yicha to'lovlar). Bunda yuridik shaxslar xodimlarining cho'l va suvsiz joylarda, baland tog'li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun ish haqiga koeffitsientlar hisoblashning eng yuqori summasini aniqlash hisoblash sanasida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida belgilanadi;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

4) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek doimiy ishi ishlarning vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan ustamalar;

6) ish beruvchi joylashgan yer (yig'ilish punkti)dan ishlash joyigacha borish va u erdan qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan holda yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi yoki maosh miqdorida to'lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxta (kon)da harakatlanishining me'yoriy vaqti uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;

9) xizmat safarlari vaqtida qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

11) xizmat safarlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;

12) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash uchun Soliq kodeks 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymatini qoplash.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'til uchun to'lov, shuningdek ushbu ta'tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lovi;

b) noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'til uchun to'lov;

v) o'qish bilan bog'liq ta'til va ijodiy ta'tillar uchun to'lov;

g) o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'til uchun to'lov;

2) asosiy ish haqi qisman saqlab qolinganda holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar;

3) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to'lov;

4) O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to'lov;

5) qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) ma'lum muddatga avvalgi ish joyi bo'yicha lavozim maoshi miqdori saqlab qolinganda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turgan xodimlarga maoshdagi farq to'lovi;

7) xodimlarga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolinganda vaqt uchun to'lov;

- 9) mehnat layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘shimcha to‘lov;
- 10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqti uchun yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajarganlik uchun to‘lov;
- 11) o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun to‘lov;
- 12) asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o‘quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga to‘lov;
- 13) ish beruvchining mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo‘shimchalar, stipendiyalar;
- 14) oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislariga ta‘til vaqti uchun ish beruvchi hisobidan to‘lanadigan nafaqalar.

Mulkiy daromadlar. Mulkiy daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) foizlar;
- 2) dividendlar;
- 3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- 4) soliq to‘lovchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mazkur qiymatni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilish qiymati, ko‘chmas mulk bo‘yicha esa – kadastr qiymati hamda realizatsiya qilish narxi o‘rtasidagi ijobiy farq daromad deb e’tirof etiladi;
- 5) sanoat mulki obyektlariga, selektsiya yutug‘iga oid patent (litsenziya) egasi bo‘lgan soliq to‘lovchining patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;
- 6) royalti;

7) ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulk bo'yicha ishonchli boshqaruvchidan olingan daromad;

8) REPO operatsiyalari bo'yicha daromad;

9) qimmatli qog'ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning hosila moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar bo'yicha daromad;

10) chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

11) oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaga) muvofiq ishtirok etishdan olingan daromadlar;

12) mulkiy xususiyatga ega boshqa daromadlar.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar. Soliq to'lovchi tomonidan moddiy naf tarzida olingan daromadlar quyidagilardan iborat:

1) soliq agenti tomonidan soliq to'lovchi manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to'lash, shu jumladan:

soliq to'lovchining bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalari (tashkilotlari) da o'qitish, tarbiyalash haqini to'lash;

soliq to'lovchilarga berilgan uy-joyning kommunal xizmatlar haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari, yotoqxonadagi joylar haqi yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash;

sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymati, dam olish, statsionar va ambulator davolanish haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash;

soliq agentining soliq to'lovchi daromadi bo'lgan boshqa xarajatlarini to'lash;

2) soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekin, shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha berilgan mol-mulk va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati;

3) tovarlar (xizmatlar)ni soliq to'lovchilarga realizatsiya qilish narxi hamda shu tovarlar (xizmatlar)ning hisoblab chiqarilgan qiymati o'rtasidagi salbiy farq;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo'l, havo, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning soliq agenti oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalari;

6) soliq agenti tomonidan to'lovlar hisobiga to'lanib, soliq to'lovchidan ushlab qolinishi lozim bo'lgan, lekin ushlab qolinmagan summalari.

Soliq to'lovchi tomonidan soliq agentidan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, ushbu tovarlar (xizmatlar)ning qiymati ularni sotib olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan soliq agentidan aksiz to'lanadigan tovarlar yoki qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, bunday tovarlar (xizmatlar)ning qiymatida Aksiz solig'ining va qo'shilgan qiymat solig'ining tegishli summasi hisobga olinadi.

Boshqa daromadlar. Soliq to'lovchining boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan soliq to'lovchilarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

2) hayvonlar (qoramollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliqlar va boshqalarni)ni tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan, ipak qurtini, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

3) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha) olingan mol-mulk, mulkiy huquqlarning qiymati;

4) musobaqalar, ko'riklar va tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

5) yutuqlar;

6) grant beruvchidan olingan grantlar, shu jumladan chet davlatlar grantlarining summalari;

7) soliq to'lovchilarning yaratilgan ilm-fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun olgan daromadlari;

8) xalqaro sport musobaqalaridagi sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

9) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar;

10) quyidagicha ko'rsatiladigan moddiy yordam:

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga ko'rsatiladigan;

xodimga mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligi yohud sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetganligi bilan bog'liq holda ko'rsatiladigan;

bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan ko'rsatiladigan;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzida ko'rsatiladigan moddiy yordam;

11) ishlamaydigan pensionerlarga soliq agenti tomonidan to'lanadigan to'lovlar;

12) ma'naviy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha pullik to'lovlar;

13) narxlarga tuzatish kiritish tufayli olingan daromad;

14) talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromad;

15) soliq to'lovchining aniqlangan ko'rsatilmagan boshqa daromadlari.

Daromadlarning hammasi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga totilavermaydi, chunki soliq imtiyozlariga ega bo'lishi mumkin.

14.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozlari

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) moddiy yordam summalari:

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalari – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

2) soliq agenti tomonidan quyidagi yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summalari, bundan turistik yo'llanmalar mustasno:

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironligi bo'lgan shaxslarga, shu jumladan ushbu ish beruvchida ishlamaydigan nogironligi bo'lgan shaxslarga to'liq yoki qisman qoplash summolari;

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek sanatoriy-kurort hamda sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshgacha bolalari (o'qiydiganlarga – o'n sakkiz yoshgacha) uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari;

3) o'z xodimlariga hamda ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalari, shuningdek ish beruvchining davolashga hamda tibbiy xizmat ko'rsatishga, nogironlik profilaktikasi va nogironligi bo'lgan shaxslarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olishga oid xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun ish beruvchilar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida esa – uning oila a'zolariga, ota-onasiga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, bu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi-dan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalari;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

7) soliq to'lovchilarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan quyidagilarni sotishdan olingan daromadlar mustasno:

qimmatli qog'ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondi (ustav kapitali)dagi ulushlari (paylari);

noturar joylarni;

o'ttiz olti kalendar oydan kam muddatda soliq to'lovchining mulkida bo'lgan turar joylar;

8) uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida etishtirilgan hayvonlar (qoramollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliqlar va hokazolar)ni tirik holda hamda ularni so'yib mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan (bundan sanoatda qayta ishlash mustasno) chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno;

9) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

10) ish beruvchidan soliq davri mobaynida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo'lgan qiymatdagi:

xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar;

ilgari mazkur ish beruvchining xodimlari bo'lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolari tomonidan olingan sovg'alar hamda boshqa turlardagi yordam;

11) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekinga olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan quyidagilar mustasno:

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot hamda san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflari-ning merosxo'rlari (huquqiy vorislari)ga to'lanadigan pul mukofotlari;

yaqin qarindosh bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi ko'chmas mulk, avtotransport vositalari, qimmatli qog'ozlar, yuridik shaxslarning ustav fondlari (ustav kapital-lari)dagi ulushlar;

12) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar;

13) jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar va yutuqlar;

14) nodavlat notijorat tashkilotlaridan, xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek vakolatli organning xulosasi mavjud bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi xalqaro shartnomalari doirasida soliq to'lovchi grant beruvchidan bevosita olgan grantning summasi;

15) soliq to'lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug'urtalash (hayot sug'urtasi sohasining barcha toifalarida) bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lash uchun O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliya-tini amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslarga yo'naltiriladigan qismi, quyidagi shartlarda:

sug'urta badallari o'sib bormaydigan tartibda to'langanda va bir yo'la to'lanadigan sug'urta summasi shartnoma bo'yicha sug'urta davri boshlanishi sanasidan 12 oydan so'ng olinganda. Sug'urtalangan shaxsning muayyan yoshgacha yashashi yoki hayotni uzoq muddatli sug'urtalash shartnomasida ko'rsatilgan muddatdan boshqacha tarzdagi sug'urta hodisasi sodir bo'lgan taqdirda, sug'urta summasi ushbu ko'rsatilgan shartlarga amal qilmagan xolda to'lanishi mumkin;

shartnoma bo'yicha sug'urta davri boshlanish sanasidan kamida 12 oydan so'ng renta (annuitet) olinganda va rentani (annuitetni) to'lash sanasida shartnoma bo'yicha haqiqatda jamlangan mablag'lar (zahira) summasi ko'rsatib o'tilgan renta (annuitet)ning to'rt baravaridan kam bo'lmaganda;

renta (annuitet) to'lash shartnoma bo'yicha sug'urta davri boshlanishi sanasidan 12 oy o'tmasdan boshlanganda, bunda dastlabki renta (annuitet)ni to'lash boshlanadigan vaqtda haqiqatda to'langan sug'urta badallari summasi shartnoma bo'yicha sug'urta mukofotining yillik miqdoridan kam bo'lmasligi kerak va rentalar

(annuitetlar)ni to'lash sanasiga haqiqatda jamlangan mablag'lar (zahira) summasi ko'rsatib o'tilgan rentaning to'rt baravaridan kam bo'lmaganda.

Mazkur bandning shartlari buzilganda yohud shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda va sug'urtachi sug'urta badalini to'liq yoki qisman qaytarganda, qaytarilgan sug'urta badali sug'urtachi tomonidan soliqqa tortiladi.

16) soliq to'lovchining quyidagilarga yo'naltiriladigan, soliq solinishi lozim bo'lgan ish haqi va boshqa daromadlari:

O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish (o'zining, yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining yoki eri (xotini)ning ta'lim olishi) uchun to'lov;

soliq bazasining 50 foizidan oshmagan holda, metsenatlik ko'magini ko'rsatish;

olingan ipoteka kreditlari va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni soliq davri davomida jami o'n besh million so'mgacha bo'lgan miqdorda qoplashga, basharti yakka tartibdagi uy-joyning yoki ko'p qavatli uydagi xonadonning qiymati uch yuz million so'mdan oshmasa hamda u dastlabki badalning va (yoki) ipoteka krediti bo'yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun byudjetdan ajratilgan subsidiyalarni hisobga olgan holda olingan bo'lsa. Mazkur imtiyoz qarz oluvchiga va birga qarz oluvchilarga, imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan barcha soliq to'lovchilarga berilgan, soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlarni kamaytirish summasi soliq davri davomida jami o'n besh million so'mdan oshmagan taqdirda, tatbiq etiladi;

fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi ixtiyoriy ravishda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari;

17) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha) olingan ulushlar, paylar va aktsiyalar tarzidagi daromadlar, agar bu ulushlar, paylar va aktsiyalarni berish yaqin qarindoshlar o'rtasida amalga oshirilsa.

Yuridik shaxs tashkil etmagan chet el tuzilmasiga nisbatan yoki qaysi chet el yuridik shaxsi uchun ro'yxatdan o'tish mamlakatining qonun hujjatlariga muvofiq kapitalda ishtirok etish nazarda tutilmagan bo'lsa, o'sha chet el yuridik shaxsiga nisbatan nazorat qilish huquqi, agar bunday huquqlar ularni bir oilaning a'zolari va

(yoki) yaqin qarindoshlar bo'lgan shaxslar o'rtasida o'tkazish natijasida olingan bo'lsa, daromad olish yoki daromadni tasarruf etish huquqining yuzaga kelishi deb e'tirof etilmaydi;

18) paxta yig'im-terimi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinadigan soliq to'lovchilarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari;

19) soliq to'lovchi bo'lgan qimmatbaho metallar qidiruvchilarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qazib olish yo'li bilan ega bo'lgan qimmatbaho metallarni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari.

Jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod etish. Quyidagilarning daromadlariga soliq solinmaydi:

1) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari – agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha.

Ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarning jami daromadini kamaytirish. Quyidagi soliq to‘lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo‘lsa, o‘sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) soliq solishdan ozod etiladi:

1) “O‘zbekiston Qahramoni”, “Sovet Ittifoqi Qahramoni”, “Mehnat Qahramoni” unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Bu imtiyoz tegishincha “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, “Sovet Ittifoqi Qahramoni”, “Mehnat Qahramoni” daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va ishtirokchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaxslar. Bu imtiyoz urush nogironi (ishtirokchisi)ning tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yohud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlar (ishtirokchilar)ga nogiron (ishtirokchi)ning imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yohud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yohud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining otionalari va beva xotinlari (beva erlari). Bu imtiyoz “Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” yoki “Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” shtampi qo‘yilgan yohud pensiya guvohnoma-

sini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati yoki O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarning tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchi yoki ichki ishlar organlari xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmat yohud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilar yohud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

5) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar. Bu imtiyoz har bir bola uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor hamda boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Bu imtiyoz er (xotin)ning vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnomalar, yangi nikohdan o'tmaganlik hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogironligi bo'lgan shaxs, doimiy parvarishni talab etadigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota yoki ona. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Soliq imtiyozlari tegishli hujjatlar tuman va shahar davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan taqdirda, soliq imtiyozi unga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar soliq to'lovchi bir nechta asos bo'yicha soliq imtiyoziga doir huquqqa ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta soliq imtiyozi beriladi.

Soliq imtiyozini qo'llash soliq to'lovchining asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi mavjud bo'lmagan taqdirda esa – yashash joyidagi soliq organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, soliq to'lovchi imtiyozga bo'lgan huquqni yo'qotgan paytidan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.

“O'zbekiston Qahramoni”, “Sovet Ittifoqi Qahramoni”, “Mehnat Qahramoni” unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchchala darajadagi “Shuhrat” ordeni bilan taqdirlangan shaxslarga soliq imtiyozlari soliq to'lovchining foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga nisbatan ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo'yicha hisoblansa, soliq imtiyozini qo'llash asosiy ish joyi bo'yicha amalga oshiriladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha hisoblansa, soliq imtiyozi jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida soliq to'lovchining yashash joyidagi soliq organlari tomonidan qo'llaniladi. Shunga o'xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

14. 3. Soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq bazasi quyidagilar hisoblanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun – belgilangan soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun – soliq imtiyozlari qo‘llanmagan holdagi jami daromadlari.

Soliq bazasini aniqlashda soliq to‘lovchining ham pul shaklida, ham natura shaklida olgan daromadlari yoki daromadlarni tasarruf etish uchun yuzaga kelgan huquqlari, shuningdek moddiy naf tarzidagi daromadlari hisobga olinadi. Bunda soliq to‘lovchining alohida turdagi daromadlari belgilangan shartlarda va tartibda jami daromad tarkibida hisobga olinishi yoki hisobga olinmasligi mumkin.

Soliq to‘lovchining chet el valyutasida ifodalangan daromadlari, haqiqatda daromadlar olingan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha milliy valyutaga qayta hisob-kitob qilinadi.

Turli soliq stavkalari bo‘yicha solinadigan soliq bazasi alohida aniqlanadi.

Soliq bazasi, soliq davri boshidan e‘tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq bazasi nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga muvofiq aniqlanadigan yig‘ma foydasini ham o‘z ichiga oladi. Soliq bazasiga qonun xujjatlarda belgilangan hollarda va tartibda tuzatish kiritiladi.

Transfert narxni belgilashda soliq nazorati amalga oshirishda nazarda tutilgan hollarda soliq to‘lovchining daromadlariga qonun xujjatlarida belgilangan tartibda tuzatish kiritiladi.

Agar soliq to‘lovchining daromadidan uning o‘z farmoyishiga, sudning yoki boshqa organlar va tashkilotlarning qaroriga ko‘ra ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq bazasini kamaytirmaydi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i soliq to‘lovchilarning daromad olgan yoki aniqlangan sanasi soliq solish amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini soliq agentlari tomonidan daromadning to‘lov manbayidan soliqni ushlab qolib, davlat

byudjetiga o'tkazib berishlari kerak bo'ladi. Jismoniy shaxslarning daromad olingan sana quyidagicha aniqlanadi:

1) daromadni to'lash kuni, shu jumladan daromadni soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlariga o'tkazish yoki daromadlar pul shaklida olinganda – daromadni soliq to'lovchining topshirig'iga ko'ra uchinchi shaxslarning hisobvaraqlariga o'tkazish kuni;

2) daromadlar natura shaklida olinganda – daromatlarni natura shaklida berish kuni;

3) daromadlar moddiy naf tarzida olinganda – tovarlar (xizmatlar)ni, qimmatli qog'ozlarni sotib olish kuni. Agar sotib olingan qimmatli qog'ozlarga haq to'lash ushbu qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqi soliq to'lovchiga o'tganidan keyin amalga oshirilsa, daromadning haqiqatda olingan sanasi sotib olingan qimmatli qog'ozlarning qiymatiga tegishli to'lovni to'lash kuni sifatida aniqlanadi;

4) bir turdagi qarama-qarshi talablarni hisobga olish kuni;

5) belgilangan tartibda soliq agenti tomonidan umidsiz qarz hisobdan chiqarilgan kun;

6) xodim safardan qaytganidan keyin bo'nak hisobot tasdiqlangan oyning oxirgi kuni.

Mehnatga haq to'lash tarzida daromad olinganda bunday daromadning olingan sanasi deb, soliq to'lovchiga mehnat shartnomasi (kontrakti) asosida mehnat majburiyatlarini bajarganligi uchun, unga daromadlar hisoblangan oyning oxirgi kuni hisoblanadi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ish qidirish davriga kompensatsiya to'langan sana hisoblanadi.

Kalendar oy tugaguniga qadar mehnat munosabatlari bekor qilingan taqdirda, soliq to'lovchi tomonidan mehnatga haq to'lash tarzida olingan daromadning haqiqatda olingan sanasi deb unga daromad hisoblangan oxirgi ish kuni hisoblanadi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi foydasining summasi tarzidagi daromadlar uchun daromadning haqiqatda olingan kuni deb chet el kompaniyasi yoki tuzilmasi ro'yxatdan o'tkazilgan mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq moliya yili uchun moliyaviy hisobot tuziladigan davrning tugallanish sanasi to'g'ri

keladigan kalendar yildan keyingi soliq bo'yicha soliq davrining oxirgi sanasi hisoblanadi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi ro'yxatdan o'tkazilgan mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish majburiyatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, bunday kompaniya foydasining summasi tarzidagi daromadning haqiqatda olingan sanasi deb foyda aniqlanadigan kalendar yilidan keyingi kalendar yilning oxirgi kuni hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning daromadlariga 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga quyidagi soliq stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

№	Soliq obykti	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Soliq kodeksiga muvofiq aniqlanadigan, xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).	6
3	Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo'yicha olingan daromadlar, 1 va 2-bandlarda ko'rsatilmagan boshqa daromadlar	20

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash -jismoniy shaxslarning hisoblangan ish haqi fondidan soliq solinmaydigan daromadlari chegirilgandan so'ng qolgan ish haqi fondiga belgilangan 12 foiz soliq stavkasi qo'llanilgan holda hisoblanadi. Shuningdek, korxona va tashkilotlarda tashkil etilgan kasaba uyushmalariga ish haqi fondidan 1 foiz miqdorida to'lov ham hisoblanadi. Bundan

tashqari, ish haqi fondidan mikrofirmalar va kichik korxonalar 12 foiz, byudjet tashkilotlari 25 foiz, “SOS – O‘zbekiston Bolalar mahallalari” uyushmalari 7 foiz va ixtisoslashtirilgan tsexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar 4,7 foiz miqdorida ijtimoiy soliq hisoblanadi va bu soliqni jismoniy shaxsning daromadidan emas, balki korxona va tashkilotlarning hisobidan to‘lanadi.

Soliq stavkalarinig pasaytirilgan satavkalarini qo‘llash uchun yuqoridagi me`yorlarga to‘g‘ri kelishi va asosli hujjatlar bolishi talab qilinadi.

Soliq quyidagilar tomonidan hisoblab chiqariladi va to‘lanadi:

- 1) soliq to‘lovchiga daromad to‘laydigan soliq agentlari tomonidan;
- 2) soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda.

Soliq to‘lovchilarning alohida toifalari soliqni - qat’iy belgilangan miqdorda to‘lashni yoki jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida to‘lashni tanlashga haqli hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda hisoblovchi va to‘lovchilarga nisbatan quyidagilar tatbiq etiladi:

1) tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi kalendar yilida yuz million so‘mdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlarga. Agar kalendar yilida tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi belgilangan miqdordan oshsa, yakka tartibdagi tadbirkor Soliq kodeksda nazarda tutilgan tartibda aylanmadan soliq yohud qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lashga o‘tadi.

2) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslarga;

3) yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirayotgan oila a‘zolariga;

4) “Hunarmand” uyushmasi a‘zolari bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlariga.

Soliq kodeksiga muvofiq soliq to‘lovchilar soliq to‘lash tartibini quyidagilar orqali tanlashga haqli:

1) tadbirkorlik subyektining davlat ro'yxatidan o'tkazilishi chog'ida tanlangan soliq to'lash tartibini ko'rsatish;

2) doimiy yashash joyi bo'yicha soliq organlariga joriy yilning 25 yanvaridan kechiktirmasdan tanlangan soliq to'lash tartibi to'g'risida bildirish xati taqdim etish.

Hisoblab chiqarilgan soliq summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan majburiy oylik badallar summasiga kamaytiriladi.

Soliq agentlari tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi.

Soliq agentlari soliq hisobining registrlarida jismoniy shaxslarning ulardan soliq davrida olgan daromadlari, jismoniy shaxslarga to'lov manbaida qo'llanilgan soliq imtiyozlari, hisoblab chiqarilgan va ushlab qoling soliq hisobini yuritadi.

Soliq hisobi registrlarining shakllari, ularda soliq hisobining tahliliy ma'lumotlarini hamda birlamchi hisobga olish hujjatlari ma'lumotlarini aks ettirish tartibi soliq agenti tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi. Mazkur shakllarda soliq to'lovchini identifikatsiya qilish imkonini beradigan ma'lumotlar, soliq to'lovchilarga to'lanadigan daromad turlari va to'lov manbaida unga qo'llanilgan soliq imtiyozlari, ularni to'lash sanasi, soliq to'lovchining maqomi, soliqni ushlab qolish va to'lash sanasi ko'rsatilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlarga soliq solish soliq agentlari tomonidan soliq bazasi hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq agentlari soliq to'lovchining mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlaridan, moddiy naf tarzidagi daromadlaridan, mulkiy daromadlaridan va boshqa daromadlaridan hisoblangan soliq summasini ushlab qolishi shart hisoblanadi.

Soliqning hisoblangan summasini soliq to'lovchidan ushlab qolish, soliq agenti soliq to'lovchiga to'layotgan har qanday pul mablag'lari hisobidan, bu pul mablag'lari soliq to'lovchiga yoki uning topshirig'iga binoan uchinchi shaxslarga to'lanayotganda amalga oshiriladi.

Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish soliq bazasi hamda soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda, daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan e'tiboran har oyda ortib boruvchi yakun bilan soliq to'lovchining ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa soliq agentlaridan sovg'a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslarning soliq summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs yillik jami daromadi to'g'risida deklaratsiya topshirganda soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan soliq summaları to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi soliq agentiga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, soliq imtiyozlari qo'llanilmagan holda ushlab qolinadi. Ma'lumotnoma va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilgan taqdirda, soliq summasi ilgari asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida soliqni hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan e'tiboran ilgarigi va yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilingandan keyin xodimga ilgarigi ish joyidan to'lov amalga oshirilganda, bunday to'lovlarga soliq imtiyozlari qo'llanilmagan holda soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan soliqning yakuniy summasi jami yillik daromad to'g'risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma'lumotlari bo'yicha soliq organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

Soliq hisobotini taqdim etish tartibi va muddatlari.

Soliq agentlari o'zlarining soliq bo'yicha hisobda turgan joydagi soliq organiga quyidagilarni taqdim etishi shart:

1) soliq davri tugaganidan keyin o‘ttiz kun ichida – soliq organlariga to‘lov manbaidan soliq solinmagan moddiy naf tarzida daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida tasdiqlanadigan shakldagi ma’lumotnomani;

2) har oyda, hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa – yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida hisoblangan va haqiqatda to‘langan daromadlar summolari hamda ushlab qolingan soliqning summolari to‘g‘risidagi tasdiqlangan ma’lumotlarni.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar yil yakunlari bo‘yicha hisoblangan va amalda to‘langan daromadlarning summolari hamda ushlab qolingan, soliq summolari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo‘lgan, xodimlari 25 nafardan ortiq bo‘lgan alohida bo‘linmalarga va filiallarga ega soliq agentlari, bundan yirik soliq to‘lovchilar mustasno, ushbu alohida bo‘linmalar va filiallar xodimlariga nisbatan soliq hisobotini – alohida bo‘linmalar va filiallar hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan soliq agentlari, o‘zlarining yollanma xodimlariga oid soliq hisobotini o‘zi soliq bo‘yicha hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

To‘lov manbaida hisoblab chiqarilgan soliq summasi soliq to‘lovchiga daromadlarni to‘lash bilan bir vaqtda, lekin soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay soliq agenti tomonidan to‘lanadi.

Daromadlar natura shaklida amalga oshirilganda soliq natura tarzidagi to‘lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida to‘lanadi.

Ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish tartibi.

Soliq agenti tomonidan soliq to‘lovchining daromadidan ortiqcha ushlangan soliq summasi soliq to‘lovchining yozma arizasiga asosan qaytarilishi lozim.

Soliq agenti tomonidan bir soliq davri ichida ortiqcha ushlangan soliq summasi qaytariladi.

Soliq to'lovchiga ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish daromadlaridan bunday soliq agenti tomonidan ushlab qolinadigan soliq to'lovchi bo'yicha ham, boshqa soliq to'lovchilar bo'yicha ham kelgusi to'lovlar hisobidan byudjet tizimiga o'tkazilishi lozim bo'lgan ushbu soliq summasi hisobidan, soliq agenti soliq to'lovchining tegishli arizasini olgan kundan e'tiboran uch oy ichida soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchiga ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish soliq agenti tomonidan soliq to'lovchining arizasida ko'rsatilgan bankdagi hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

Soliq agenti bo'lmaganda yohud ushbu bandning ikkinchi qismida belgilangan soliq davri tugaganda, soliq to'lovchi soliq davrining yakuniga ko'ra soliq deklaratsiyasini bir vaqtning o'zida taqdim etgan holda, ilgari soliq agenti tomonidan ortiqcha ushlangan va byudjet tizimiga o'tkazilgan soliq summasini qaytarish to'g'risida soliq organiga ariza berishga haqli.

Soliq davrida O'zbekiston Respublikasining rezidenti maqomini olgan soliq to'lovchi ushbu soliq davrida norezident maqomida to'lagan soliq summasini qayta hisob-kitob qilishga va qaytarib olishga haqli. Soliq summasini soliq to'lovchiga qaytarish soliq to'lovchi soliq davri yakuniga ko'ra soliq deklaratsiyasini taqdim etgan taqdirda yashash joyi (turgan joyi) bo'yicha hisobga qo'yilgan soliq organi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu deklaratsiyaga mazkur soliq davrida O'zbekiston Respublikasining rezidenti maqomini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinishi kerak bo'ladi.

14. 4. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Ijtimoiy soliqni soliq to'lovchilari quyidagilar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari va filiallari;
- ijtimoiy soliq to'laydigan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari.

Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning soliq solish obyektidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxsga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham soliq solish obyektidir.

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini va (yoki) yakka tartibdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish soliq solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyeksi hisoblanmaydi:

-ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'ligiga boshqacha shikast etganligi bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash tarzidagi, soliq kodeksi bilan belgilangan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari;

-paxta yig'im-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to'lashga doir xarajatlar.

Soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi - mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar muvofiq to'lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi ularning O'zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlari xodimlari uchun ish haqi miqdorining oshishi inobatga olingan holda qayta hisoblab chiqariladigan, ular O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ishga yuborilguniga qadar oxirgi ish joyida mehnatga haq to'lash tarzida olgan daromadlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxsga to'lanadigan chet ellik xodimlar-

ning daromadlari bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi chet ellik xodimlarga to'lanadigan daromadlar summasi sifatida, biroq O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnoma bo'yicha xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo'lmagan summada belgilanadi.

Ijtimoiy soliqning stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilagan:

№	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Soliq to'lovchilar, bundan 2–4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
2.	Byudjet tashkilotlari	25
3.	“SOS – O'zbekiston Bolalar mahallalari” uyushmalari	7
4.	Ixtisoslashtirilgan tsexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	4,7

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.

Soliq soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari bo'yicha, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar bo'yicha soliqni to'lash majburiyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turilgan joydagi soliq organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining

norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan yil yakunlari bo'yicha soliqning hisoboti hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi.

Soliqni to'lash har oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari.

Soliq soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan (yollangan ishchilar) – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

3) faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda;

oilaning boshqa a'zolari tomonidan (bundan o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar mustasno) – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

4) "Hunarmand" uyushmasining hunarmandchilik faoliyati subyektlari bo'lgan, qishloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan a'zolari tomonidan o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

5) "Usta-shogird" maktablari o'quvchilari tomonidan ular yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrida – yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda majburiy tartibda to'lanadi. Belgilangan miqdordagi soliqning to'lanishi mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek maydoni to'rt sotixdan kam bo'lmagan dehqon xo'jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol

yohud ellik boshdan kam bo'lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida soliq to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to'laydi, boshqa a'zolari va ko'rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to'laydi. Belgilangan miqdordagi soliqning to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining va jismoniy shaxsning mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati subyektlari bo'lgan "Hunarmand" uyushmasining a'zolari soliq to'lashdan ozod etiladi, ushbu bandning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan qolgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun esa soliq miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozlarga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki tugatilgan taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq yuzaga kelgan yoki tugatilgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan –har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay;

yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari tomonidan – hisobot yilining 1 oktyabrigacha amalga oshiriladi. Bunda soliqning miqdori to'lov kuniga belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan soliqni to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

To'lov topshiriqnomasi (kirim orderi)da soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami va to'lov kiritilayotgan davr ko'rsatilishi shart. Bunda oila a'zolari – oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari va xodim yollagan yakka

tartibdagi tadbirkorlar bo'yicha to'lov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila a'zosi uchun va yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun alohida-alohida yoziladi. Agar to'lov topshiriqnomasida davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun – yil) uchun to'langan deb hisoblanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatib turilganligi to'g'risida soliq organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Soliq organlari tomonidan olingan, har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Agar faoliyatini to'xtatib turgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini soliq organiga belgilangan muddatlarda topshirmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha soliqni hisoblash to'xtatilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 30.12.2021 yildagi O'RQ-742-son 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha:

1. Soliq to'lovchilar safi, soliq stavkalari, soliqni hisoblab chiqarish tartibi, shuningdek shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga 0,1 % ajratmalar va soliq hisobotini taqdim etish muddati saqlab qolinmoqda.

2. Soliqqa tortilmaydigan daromadlar tarkibi quyidagilar hisobiga kengaytirilmoqda:

yosh oila bo'lgan er-xotinning olgan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lashga yo'naltirilgan ish haqiga va boshqa daromadlari. Ushbu soliq imtiyozlari er-xotin yoki ulardan biri belgilangan yoshga to'lguniga qadar, Soliq kodeksida kvartiralarining qiymati va byudjetdan ajratilgan subsidiyalar bo'yicha belgilangan shartlar inobatga olinmagan holda qo'llaniladi;

soliq to'lovchining professional va oliy ta'lim tashkilotlarida o'qish uchun tijorat banklari tomonidan ajratilgan ta'lim kreditlariga (foizlari bilan) qoplashga yo'naltirilgan ish haqi summalari va boshqadaromadlari;

soliq to'lovchining uy-joylarni talabalarga ijaraga berishdan olingan daromadlari;

soliq to'lovchining soliq davri davomida bazaviy hisoblash miqdorining 8-baravarigacha bo'lgan miqdordagi xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallari hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish uchun nodavlat ta'lim tashkilotlariga yo'naltirgan ish haqi summalari va boshqa daromadlari.

Ijtimoiy soliq bo'yicha:

1. Soliq to'lovchilar ro'yxati, soliq stavkalari, soliqni hisoblab chiqarish tartibi hamda soliq hisobotlarini taqdim etish muddatlari saqlabqolinmoqda.

2. "Hunarmand" uyushmasi a'zosi bo'lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlari ijtimoiy soliqni har oyda to'lashdan bir yilda bir marotaba bazaviy hisoblash miqdorining bir barobaridan kam bo'lmagan miqdorda majburiy to'lovlarni to'lashga o'tkazilmoqda.

3. 2022 yil 1 yanvardan 2023 yil 1 yanvarga qadar respublika tumanlarida (Toshkent shahri bundan mustasno) faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasi bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida belgilanmoqda.

Bolalarga soliqlar to'g'risida tushuntirishning yang yaxshi yo'li-bu muzqaymog'ining 12 foizini yeb qo'yishdir.

Amaliyotchi soliqchilar latifasi.

15-BOB. AKSIZ SOLIG'I VA UNING MOHIYATI

1. Aksiz solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti.

2. Soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi.

15.1. Aksiz solig'i to'lovchilari va soliqqa solish obyekti

O'zbekistonda aksiz solig'i 1992 yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga joriy qilingan. Uning qo'shilgan qiymat solig'idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Aksiz solig'i individual tavsifga ega bo'lib, faqat aksiz osti tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Aksiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida byudjetga undirish shakli hisoblanadi.

Aksiz solig'ini davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushining pasayish tendentsiyaga ega ekanligi shu bilan izohlanadiki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi 390-son "Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarini o'zaro munosabatlarini takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan "O'zDEUAvto" aksionerlik jamiyatining ishlab chiqarayotgan avtomobillari (Lasetti, Neksiya, Damas, Matiz), billurdan qilingan mahsulotlar, mebel, video va audioapparatura hamda kumushdan yasalgan pichoq va sanchqilarga hisoblangan aksiz soliqlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, iste'mol tovarlarining assortimentini ko'paytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish uchun korxonalarning o'z ixtiyorlarida qoldiriladigan bo'ldi. Shuning hisobiga hozirgi vaqtda Aksiz solig'ining ulushi davlat byudjeti daromadlari tarkibida kam salmoqni egallamoqda. Aksiz solig'i to'liq respublika byudjetining daromadlar qismiga kelib tushadi va uning soliq yuki iste'molchilar zimmasida bo'ladi.

Aksiz solig'ini to'lovchilar bo'lib quyidagi shaxslar hisoblanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlar (aksiz to‘lanadigan tovarlar)ni ishlab chiqaruvchilar;

2) tabiiy gazni iste’molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;

3) benzin, dizel yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilardir. Shuningdek, aksiz solig‘ini qo‘llash maqsadida yakuniy iste’molchilar deganda o‘z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

4) oddiy shirkat ishtirokchisi bo‘lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to‘lanadigan tovarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bo‘yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxslar;

5) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to‘lanadigan tovarlarni olib o‘tuvchilar. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur shaxslar soliq to‘lovchilar bo‘lib hisoblanadi;

6) telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlari (aksiz to‘lanadigan xizmatlar) ni ko‘rsatadigan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

7) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.

Soliq solish obyekti. Aksiz solig‘i solinadigan obyektlar quyidagilardan iboratdir:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan aksiz to‘lanadigan tovarlarni boshqa tovarlar (xizmatlar)ga ayirboshlash uchun berish:

tovarga bo‘lgan mulk huquqini berish;

garov bilan ta‘minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul berish;

aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar)ni jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to'lash yoki dividendlar to'lash hisobidan berish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) ga hissa sifatida yohud oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) bo'yicha sherik (ishtirokchi)ning hissasi sifatida berish;

3) aksiz to'lanadigan tovarlar:

a) ishtirokchi (muassis)ga u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yohud yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) qaytarib sotib olinganda ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo'lgan emitent tomonidan aktsiyadordan ushbu emitent chiqargan aktsiyalar qaytarib sotib olingan taqdirda aktsiyadorga berish;

v) yuridik shaxsni tugatishda aktsiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan qayta ishlash uchun topshirish, shuningdek qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan, shuningdek aksiz to'lanadigan shunday xom ashyo va materiallarning mahsuli bo'lgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga ishlab chiqaruvchi tomonidan topshirish;

5) aksiz to'lanadigan tovarlardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

7) benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

8) aksiz to'lanadigan xizmatlar ko'rsatish;

9) O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning buzilishi, yo'qotilishi, bundan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan hollar mustasno. Aybdor tomonidan tovarning qiymati sug'urta orqali

to'langan yoki uning o'rni qoplangan taqdirda, aksiz solig'i sug'urta orqali to'lash (o'rnini qoplash) ulushida to'lanadi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizatsiya qilish, bundan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan, qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketish sharti bilan berish;

3) ixtisoslashtirilgan gaz ta'minoti korxonalari orqali aholiga suyultirilgan gazni maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilish;

4) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to'lanadigan tovarlarni:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish;

davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirish;

agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa, xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kirish;

5) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilish. O'zbekiston Respublikasi hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirishning eng yuqori normalari qonun hujjatlarida belgilanadi;

6) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

15.2. Soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi

Soliq bazasi belgilangan soliq stavkalariga qarab aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar)ning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar)ga nisbatan soliq stavkalari *mutloq (qat'iy) summada belgilangan bo'lsa*, soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar)ning naturada ifodalangan *hajmidan* kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar)ga soliq stavkalari *foizlarda (advalor) belgilangan bo'lsa*, soliq bazasi bo'lib *realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar)ning qiymati*, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan qiymati hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar mehnatiga haq to'lash, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga bepul yoki boshqa tovarlar (xizmatlar)ga ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi ushbu bandning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlarning qiymatini hamda qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallarning qiymatini o'z ichiga oladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan hamda realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Chetdan olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi import qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning natura holidagi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan aralash soliq stavkalari belgilangan

bo'lsa, soliq bazasi bojxona qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan, aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan va (yoki) aksiz to'lanadigan tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish chog'ida realizatsiya qilingan va (yoki) shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning naturada ifodalangan hajmi soliq bazasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 30.12.2021 yildagi O'RQ-742-son 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, aksiz solig'i bo'yicha:

1. Aksiz solig'ini hisoblash va to'lash tartibi saqlab qolinmoqda. Qatiy summada belgilangan Aksiz solig'i stavkalari 2022 yil 1 iyundan o'rtacha 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda.

Shu tariqa, ishlab chiqariladigan alkogol va tamaki mahsulotlariga 2021 yil oktyabr oyidan belgilangan soliq stavkalari 2022 yil 1 iyunga qadar saqlab qolinadi.

2. Neft mahsulotlari, shu jumladan yakuniy iste'molchiga sotiladigan neft mahsulotlariga soliq stavkalari bir marta 2022 yil 1 iyundan 10% ga indeksatsiya qilinmoqda.

3. Polietilen granulalariga aksiz solig'i stavkasi, ularni import qilishda ham joriy qilgan holda 20 foizdan 10 foizgacha pasaytirilmoqda.

4. Suyultirilgan gaz ishlab chiqaruvchilariga aksiz solig'i bekor qilinmoqda.

Davlatni yovvoyilikning eng quyi darajasidan farovonlikning eng yuksak cho'qqisiga olib chiqishning asosiy yo'llaridan biri –bu yengil soliqlar va boshqarishdagi sabr-qanoatdir.

Adam Smit

16-BOB. FOYDA SOLIG'I VA UNING MOHIYATI

- 1. Foyda solig'ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.**
- 2. Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obyekti va soliq bazasi.**
- 3. Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar.**
- 4. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar.**
- 5. Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni byudjetga to'lash muddatlari.**

16.1. Foyda solig'ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari 1991 yilga qadar asosan davlat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to'lov bo'lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo'lgan qismini byudjetga olib ketar edi. Qolgan mablag'lar esa korxona tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig'iga ko'ra tegishli fondlarga taqsimlanar edi.

Respublikamiz ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tishi tufayli mamlakatimiz iqtisodiyotida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Natijada mulkchilikning turli shakllari rivojlanishi, korxonalarning imkoniyatini oshishi, bozor infratuzilmasi rivojlanishi bilan majburiy ajratmalarning avvalgi tizimi korxonalarning xo'jalik yuritish samaradorligini ta'minlay olmay qoldi hamda ular bevosita va bilvosita investitsiya dasturlariga to'sqinlik qila boshladi. Chunki, foydadan ajratma o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra faqat davlat korxonalari foydasidan ajratilishi lozim edi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish xususan, foydadan ajratmalar o'rniga daromad solig'ini joriy etish zarurati paydo bo'ldi va 1992 yildan boshlab barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar "daromad" solig'ini to'lashga o'tdilar.

O'zbekiston Respublikasi rubl mintaqasida qolib turgan vaqtda daromad solig'ini olishga o'tish pul qadrsizlanishi tufayli ish haqi o'sishini cheklash uchun davlat tomonidan majburiy chora bo'ldi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlasha boshladi. Natijada mahsulotga talab pasayib, sotishdan olingan tushum xajmi kamaygani holda, ular o'z ishlab chiqarishlari yo'nalishini o'zgartirishga, foyda olmasalar ham juda katta miqdorda ishchilarga ish haqi to'lashga majbur bo'ldilar. Bunday holatda amaliyotda korxonalar hisobot davrida foyda bilan faoliyatlarini yakunlamasada, daromad solig'ini ish haqi fondidan belgilangan stavkada to'lashga majbur edilar.

1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalar foydasidan olinadigan foyda solig'i joriy etildi. Shuningdek, 2008-2019 yillar davomida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i deb nomlanib, amalda qo'llanib kelindi.

2020 yil 1 yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 17-moddasiga ko'ra foyda solig'i- soliqlarning turlariga kirib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Foyda solig'i stavkalarini yildan-yilga pasayib borayotganligi – bu korxona va tashkilotlarning daromadlarini ortishiga, ishlab chiqarish faoliyati kengaytirishda zamonaviy asbob-uskunalarni sotib olishga va aylanma mablag'larini kengaytirishga olib keladi. Shuningdek, daromadning ko'p qismi korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investitsion faolligini oshiradi, yangi ishchi o'rinlar ochish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hamda ish va xizmatlar ko'rsatish uchun yanada keng moliyaviy imkoniyat yaratadi.

16.2. Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obykti va soliq bazasi

Foyda solig'ining soliq to'lovchilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;
- 2) O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari;

3) O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oluvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;

4) soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchilari bo'lgan yuridik shaxslar;

5) soliq davrida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so'mdan ortiq bo'lgan yoki o'z ixtiyori bilan foyda solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

6) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxsi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'ining mazkur guruh mas'ul ishtirokchisi tomonidan hisoblab chiqarish uchun zarur bo'lgan qismi bo'yicha soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bajaradi.

Soliq solish obyekti. Soliq to'lovchi tomonidan olingan foyda - foyda solig'i bo'yicha soliq solish obyekti hisoblanadi.

Foyda solig'ini hisoblash maqsadida quyidagilar foyda deb hisoblanadi:

- 1) yuridik shaxs uchun – jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq;
- 2) faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident uchun – doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jami daromad (shu jumladan bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar) va xarajatlar o'rtasidagi farq;
- 3) norezident uchun – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar;
- 4) yakka tartibdagi tadbirkor uchun – jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq;
- 5) zimmasiga oddiy shirkat ishlarini yuritish yuklatilgan shaxs uchun – birgalikda ishlab chiqarilgan tovar (ko'rsatilgan xizmat)ni realizatsiya qilishdan olingan daromad va birgalikda ishlab chiqarilib realizatsiya qilingan tovar (xizmat)ga to'g'ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq.

Soliq bazasi. Soliq solish obyektiga muvofiq aniqlanadigan, soliq solinishi lozim bo'lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi.

Soliq bazasini belgilangan tartibda va shartlarda aniqlashda soliq to'lovchi daromadlari va (yoki) xarajatlari (zararlari)ning ayrim turlari maxsus qoidalar bo'yicha inobatga olinishi yoki inobatga olinmasligi mumkin.

Soliq to'lovchi foydani va zararni hisobga olishning umumiy tartibidan farq qiladigan tartibi nazarda tutilgan operatsiyalar bo'yicha daromadlar (xarajatlar)ning alohida-alohida hisobini yuritadi.

Soliq bazasi, soliq davri boshlanganidan e'tiboran ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan hisobot (soliq) davrida ko'rilgan zararlar soliq solish maqsadlarida soliq bazasini belgilangan tartibda va shartlarda kamaytiradi.

16.3. Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar

Jami daromad yuridik shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan daromatlardan iboratdir. Jami daromad, qo'shilgan qiymat solig'i va Aksiz solig'ini inobatga olmagan holda aniqlanadi.

Soliqqa tortish maqsadida jami daromadga har qanday shaklda va (yoki) har qanday faoliyatdan olinishi lozim bo'lgan daromadlar (bundan buyon matnda olingan daromadlar deb yuritiladi), xususan, quyidagi daromadlar kiradi:

- 1) tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromad;
- 2) kredit (qarz, mikro kredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo'yicha mukofot tarzidagi daromad;
- 3) sug'urta, qayta sug'urta tashkilotining sug'urta, qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha daromadi;
- 4) REPO operatsiyalari bo'yicha daromad;
- 5) qimmatli qog'ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo'yicha olingan daromad;

6) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad;

7) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan mol-mulkni berish bo'yicha pul mukofoti tarzidagi daromad;

8) mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;

9) royalti;

10) tekinga olingan mol-mulk (olingan xizmatlar);

11) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zahiralarining va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad;

12) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad, bundan ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar mustasno;

13) talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromad;

14) ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromad;

15) xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromad;

16) birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromad;

17) qarzdor tomonidan e'tirof etilgan yohud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar, penyalar va boshqa sanksiyalar, shuningdek zararlar (ziyon)ning o'rnini qoplash summalari;

18) kursdagi ijobiy farq;

19) dividendlar va foizlar;

20) ishonchli boshqaruv muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqarishdan olingan daromad;

21) shakllantirilish xarajatlari tarkibiga qabul qilingan, qayta tiklangan zahiralar summalari;

22) aktsiyador, ishtirokchi yuridik shaxs foydasiga o'z ulushi (ulushi bir qismi)ning qiymatini olishdan voz kechgan taqdirda, mazkur yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) kamayishi munosabati bilan olgan daromad;

23) korxonani mol-mulk majmui sifatida sotishdan olingan daromad;

24) narxlarga tuzatishlar kiritish tufayli olingan daromad;

25) nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

26) alohida hisobi mavjud bo'lmagan va (yoki) ulardan maqsadli foydalanilmagan maqsadli mablag'lar tarzidagi daromad (bundan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladigan byudjet mablag'lari mustasno);

27) boshqa daromadlar.

Daromadlar soliq to'lovchi tomonidan olingan daromadlarni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar va boshqa hujjatlar, shu jumladan elektron hujjatlar, shuningdek soliqni hisobga olishga doir hujjatlar asosida aniqlanadi.

Jami daromad soliqqa tortish maqsadlarida pul, natura shaklida va (yoki) boshqa shakllarda kelib tushgan barcha tushumlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan olingan, qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlar qiymati milliy valyutada ifodalangan daromadlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, mol-mulkning va pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan nomulkiy huquqlarning qiymati va (yoki) yuridik shaxslarni qayta tashkil etish chog'ida huquqiy vorislik tartibida olinadigan (o'tkaziladigan), qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslar o'zining qayta tashkil etilish sanasiga qadar olgan majburiyatlarining qiymati yangi tashkil etilgan, qayta tashkil etilayotgan va qayta tashkil etilgan yuridik shaxslarning daromadlari deb e'tirof etilmaydi.

Agar daromadni buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq e'tirof etish daromadni aniqlash va e'tirof etish tartibidan farq qilsa, mazkur daromad soliq solish maqsadlarida hisobga olinadi.

Agar buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash chog'ida aktivlar va (yoki) majburiyatlarning qiymati o'zgarganligi munosabati bilan buxgalteriya hisobida aks ettirilgan daromadlarga soliq solish maqsadidagi daromadlar sifatida qaralmaydi, bundan haqiqatda olingan daromadlar mustasno.

Daromadni e'tirof etish sanasi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq aniqlanadi.

Soliq to'lovchining daromadlariga tuzatish kiritish soliq kodeksning 332-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar muayyan bir daromad daromadlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo'lsa, jami daromadni aniqlashda mazkur daromad faqat bir marta kiritiladi.

Asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromadlar. Asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromad deb buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan foydaga aytiladi.

Asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natija (foydani yoki zarar)ni aniqlashda ilgari qayta baholangan asosiy vositalarning hamda boshqa mol-mulkning narxini oshirish summasining ushbu asosiy vositalarni va boshqa mol-mulkni oldingi narxni pasaytirish summasidan ortiq summalari asosiy vositalar hamda boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad tarkibiga kiritiladi.

Tekinga olingan mol-mulk (xizmatlar). Soliq to'lovchi tomonidan tekinga olingan mol-mulk va (yoki) xizmatlar soliq to'lovchining daromadi deb e'tirof etiladi.

Mol-mulk (xizmatlar)ni tekin asosda olish chog'ida oluvchi shaxsning daromatlari, ushbu mol-mulk (xizmatlar)ning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tekin olingan mol-mulk (xizmatlar)ning bozor qiymati hujjat bilan tasdiqlanishi kerak. Xususan, quyidagilar shunday hujjatlar bo'lishi mumkin:

- 1) yuklab jo'natishga, yetkazib berishga yoki topshirishga doir hujjatlar;
- 2) mahsulot yetkazib beruvchilarning narxga doir ma'lumotlari (prays-varaqlar);
- 3) ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar;
- 4) birja xabarlar;
- 5) davlat statistika organlarining ma'lumotlari.

Qarz beruvchiga foizli daromad to'lash majburiyatisiz qarz (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam) olish chog'ida qarz oluvchining daromadi qarz (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam) olish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Qarz beruvchining daromadini aniqlashning xuddi shunday tartibi qarz (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam) olish sanasida stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan kam bo'lgan foizlar to'lash sharti bilan berilgan qarzlarga (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordamga) nisbatan qo'llaniladi.

Shu jumladan quyidagi operatsiyalarga:

- 1) banklararo operatsiyalarga va kredit tashkilotlari tomonidan berilgan kreditlar;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga ko'ra, shuningdek O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan beriladigan qarzlarga (ssudalar);
- 3) soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining bir ishtirokchisi tomonidan ayni shu konsolidatsiyalashgan guruhning boshqa ishtirokchisiga beriladigan qarzlarga (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar.

Talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar quyidagilarning o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi:

1) talab qilish huquqini oluvchi soliq to'lovchi uchun – qarzdordan talab bo'yicha asosiy qarzdan olinishi lozim bo'lgan summa, shu jumladan talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish sanasidagi asosiy qarzdan ortiq summa bilan talab qilish huquqini olish qiymati o'rtasidagi ijobiy farq;

2) talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechgan soliq to'lovchi uchun – talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish qaysi qiymat bo'yicha amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha qiymat bilan soliq to'lovchining dastlabki hisobga olish hujjatlariga binoan talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish sanasida qarzdordan olinishi lozim bo'lgan talabning qiymati o'rtasidagi ijobiy farq;

3) qarzni talab qilish huquqini bundan buyon amalga oshiruvchi soliq to'lovchi uchun – talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish qiymati bilan mazkur talabni sotib olish xarajatlarning summasi o'rtasidagi ijobiy farq.

Talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechishdan olingan daromad talab qilish huquqidan voz kechish amalga oshirilgan hisobot (soliq) davrida e'tirof etiladi.

Talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasiga ko'ra olingan salbiy farq soliq to'lovchining zarari deb e'tirof etiladi va soliq bazasi aniqlanayotganda chegirib tashlanadi.

Ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromad.

Ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) joriy soliq davrida o'rni qoplangan, shu jumladan bunday talablarga bo'lgan huquqlardan o'zganing foydasiga qayta voz kechish yo'li bilan o'rni qoplangan, oldin xarajatlar jumlasiga kiritilgan, umidsiz (tavakkal qilingan) deb e'tirof etilgan talablarning summalari;

2) chiqimlar (xarajatlar)ning o'rnini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan olingan mablag'larning summalari;

3) sugʻurta tashkiloti yoki zarar yetkazgan shaxs tomonidan toʻlangan zararni kompensatsiya qilish summalari;

4) ilgari chegirmalar jumlasiga kiritilgan chiqimlarning oʻrnini qoplashdan olingan boshqa kompensatsiyalar.

Olingan kompensatsiya u qaysi hisobot (soliq) davrida olingan boʻlsa, oʻsha hisobot (soliq) davrining daromadi boʻladi.

Xizmat koʻrsatuvchi xoʻjaliklardan olingan daromadlar. Xizmat koʻrsatuvchi xoʻjaliklar deganda faoliyati soliq toʻlovchining asosiy faoliyatiga xizmat koʻrsatishga qaratilgan va soliq toʻlovchining asosiy faoliyati doirasida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish bilan bogʻliq boʻlmagan xoʻjaliklar tushuniladi.

Xizmat koʻrsatuvchi xoʻjaliklar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) yordamchi xoʻjaliklar;

2) uy-joy-kommunal xoʻjaligi obyektlari: uy-joy fondi, mehmonxonalar (turistik mehmonxonalar bundan mustasno), tashrif buyuruvchilar uchun uylar va yotoqxonalar, tashqi obodonlashtirish obyektlari, sunʼiy inshootlar, choʻmilish havzalari, plyajlarning inshootlari hamda asbob-uskunalar, aholini gaz, issiqlik va elektr bilan taʼminlash obyektlari, uy-joy-kommunal xoʻjaligi obyektlariga texnik xizmat koʻrsatish hamda ularni taʼmirlash uchun moʻljallangan uchastkalar, tsexlar, bazalar, ustaxonalar, garajlar, maxsus mashinalar va mexanizmlar, omborxonalar;

3) ijtimoiy-madaniy soha obyektlari: sogʻliqni saqlash va madaniyat obyektlari, bolalar maktabgacha taʼlim obyektlari, bolalarning dam olish oromgohlari, sanatoriylar (profilaktoriylar), dam olish bazalari, pansionatlar, jismoniy tarbiya va sport obyektlari, aholiga maishiy xizmat koʻrsatish sohasining ishlab chiqarishga oid boʻlmagan obyektlari (hammomlar, saunalar, kirxonalar, tikuvchilik ustaxonalari hamda maishiy xizmatlar koʻrsatuvchi boshqa ustaxonalar);

4) oʻz xodimlari yoki oʻzga shaxslarga xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi umumiy ovqatlanish punktlari, oʻquv kombinatlari va shunga oʻxshash boshqa xoʻjaliklar, ishlab chiqarishlar hamda xizmatlar.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olingan daromadlar xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar tomonidan tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan mablag'larning summasi bilan xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning umumiy faoliyatiga bog'liq xarajatlarning summasi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Chegirib tashlanishi lozim bo'lgan xarajatlar xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning faoliyati bilan bog'liq xarajatlar deb e'tirof etiladi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlarning daromadlardan ortib ketishi xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan ko'rilgan zarar deb e'tirof etiladi.

Uzoq muddatli kontraktlar bo'yicha daromadlar. Agar tuzilgan kontraktlar shartlarida xizmatlarni bosqichma-bosqich topshirish nazarda tutilmagan bo'lsa, uzoq texnologik siklli ishlab chiqarish (bir soliq davridan ortiq) bo'yicha mazkur xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad hisobga olish ma'lumotlari asosida daromadni bir me'yorda e'tirof etish tamoyili inobatga olingan holda soliq to'lovchi tomonidan taqsimlanadi.

Uzoq muddatli kontraktning hisobot davrining oxiriga kelib haqiqatda ijro etish kontraktning bajarish boshlangandan e'tiboran qilingan xarajatlarning solishtirma miqdorini kontraktning bajarishga doir xarajatlarning umumiy summasida hisob-kitob qilish asosida aniqlanadi.

Hisobot davrining oxiridagi daromad qilingan xarajatlarning hisob-kitob qilingan solishtirma miqdori va kontrakt bo'yicha daromadning (kontrakt narxlari) umumiy summasidan kelib chiqib aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo'yicha ilgari hisobga olingan daromadlar joriy hisobot davrida xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadni aniqlash chog'ida chegirib tashlanadi.

Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar. Quyidagilar daromad sifatida hisobga olinmaydi:

- 1) ustav fondi (ustav kapitali)ga qo'shilgan hissa tarzida olingan mablag'lar;
- 2) aktsiyalar (ulushlar)ni joylashtirish narxining ularning nominal qiymati (dastlabki miqdori)dan ortiqcha summasi;
- 3) ishtirokchilar tarkibidan chiqish (chiqib ketish) chog'ida ustav fondi (ustav kapitali)ga qo'shilgan hissa doirasida olingan yoki ishtirokchining ulushi miqdorini

kamaytirish, shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulkini ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash chog'ida olingan mablag'lar;

4) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

5) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherik (ishtirokchi)ning shartnoma sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi ulushi qaytarilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, ushbu sherik (ishtirokchi tomonidan) qo'shilgan hissa miqdorida olingan mablag'lar;

6) realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar) uchun oldindan to'lov (bo'nak) tarzida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar;

7) qonun hujjatlariga muvofiq ushbu majburiyatlarning ta'minoti sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar, ularga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tgan paytga qadar;

8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi-ning xalqaro shartnomalariga muvofiq tekinga olingan mol-mulk va xizmatlar;

9) Maqsadli mablag'lar bo'yicha nazarda tutilgan talablar bajarilishi sharti bilan olingan grantlar, insonparvarlik yordami va maqsadli tushumlar;

10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta summasi) tarzida olingan mablag'lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishi munosabati bilan, shuningdek vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan komitent yohud boshqa ishonch bildiruvchi uchun amalga oshirilgan xarajatlarning o'rnini qoplash hisobidan kelib tushgan mol-mulk (pul mukofoti bundan mustasno). Bunday xarajatlar, agar tuzilgan shartnomalar shartlarida bu xarajatlarning o'rnini qoplash nazarda tutilgan bo'lsa, vositachidan yoki ishonchli vakildan chegirib tashlanmaydi;

12) moliyaviy ijara (lizing) obyektining qiymati o'rnini ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining qismi tarzida qoplash;

13) mol-mulk ijarasiga doir shartnoma bo'yicha olingan mol-mulk, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;

14) telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek ulardan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar;

15) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritiladigan mol-mulk;

16) kredit yoki qarz shartnomalari bo'yicha mablag'lar yoki boshqa mol-mulk (mablag' jalb qilishni rasmiylashtirish usulidan qat'i nazar, boshqa shunday mablag'lar yoki boshqa mol-mulk, shu jumladan qarz qimmatli qog'ozlar), shuningdek bunday jalb qilingan mablag'larni to'lash hisobidan mablag'lar yoki boshqa mol-mulk;

17) kontsessiya bitimi bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq olingan mol-mulk;

18) davlat muassasalari tomonidan barcha darajalardagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining qaroriga ko'ra olingan mol-mulk;

19) O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha olingan daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tomonidan va O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo'yicha daromadlar;

20) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan penyalar va jarimalarning summasi.

Yuridik shaxslarni eng asosiy maqsadi daromad yoki foyda olish bo'lsa, ushbu maqsadga erishish uchun daromadlari bilan bir qatorda xarajatlarni ham hisobga olish zarurati paydo bo'ladi. Shuningdek, Soliq kodeksining 44-bobida yuridik shaxslarning xarajatlari keltirilgan.

Yuridik shaxslarning soliq bazasini aniqlashda ushbu shaxslarning jami daromadidan daromad olish bilan bog'liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi, shuningdek chegirib tashlanmaydigan xarajatlar ham mavjud.

Soliq to'lovchi tomonidan O'zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko'rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari xarajatlar deb e'tirof etiladi.

Asoslangan xarajatlar deganda bahosi pul shaklida ifodalangan, iqtisodiy jihatdan o'zini oqlagan chiqimlar tushuniladi.

Har qanday chiqimlar, basharti ular hech bo'lmaganda quyidagi shartlardan biriga muvofiq kelgan taqdirda, iqtisodiy jihatdan o'zini oqlagan chiqimlar deb e'tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida qilingan bo'lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlab turish yoki rivojlantirish uchun zarur bo'lsa yohud xizmat qilsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan aloqasi aniq asoslangan bo'lsa;

3) qonun hujjatlarining qoidalaridan kelib chiqsa.

Hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar deganda quyidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlar tushuniladi:

1) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

2) tegishli xarajatlar amalga oshirilgan chet davlat hududida qo'llaniladigan tartibga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

3) boshqa shaklda rasmiylashtirilgan, shu jumladan xizmat safari to'g'risidagi buyruq, yo'l hujjatlari, shartnomaga muvofiq ko'rsatilgan xizmat haqidagi hisobot bilan rasmiylashtirilgan hujjatlar.

Shuningdek, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni sotib olish va hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi, shu xarajat sifatida e'tirof etilmaydi.

Agar ayni bir xarajatlar xarajatlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo'lsa, soliq bazasini hisob-kitob qilishda mazkur xarajatlar faqat bir marta chegirib tashlanadi.

Soliq to'lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan xarajatlari milliy valyutada qiymati ifodalangan xarajatlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Agar buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq xarajatni e'tirof etish Soliq kodeksiga muvofiq xarajatni aniqlash va e'tirof etish tartibidan farq qilsa, mazkur xarajat soliq solish maqsadlarida Soliq kodeksda belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Soliq solish maqsadlarida, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash chog'ida aktivlar va (yoki) majburiyatlarning qiymati o'zgarganligi munosabati bilan buxgalteriya hisobida aks ettirilgan chiqimlarga xarajatlar sifatida qaralmaydi, bundan haqiqatda to'langan xarajatlar mustasno.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, uzoq muddatli aktivlarning dastlabki qiymatiga va zahiralarining tannarxiga kiritiladigan xarajatlar amortizatsiya ajratmalari vositasida va bunday zahiralarining tannarxi orqali chegirmalar jumlasiga kiritilishi lozim.

Amortizatsiya xarajatlari. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ushbu band maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e'tirof etilmaydi va amortizatsiya qilinmaydi:

- 1) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- 2) mahsuldor chorva mollari;
- 3) axborot-kutubxona fondi;
- 4) muzey ashyolari;
- 5) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiya qilingan asosiy vositalar;
- 6) moddiy madaniy meros obyektlari;

7) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'lkalar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo'lgan obodonlashtirish inshootlari;

8) qiymati ilgari to'liq xarajatlar jumlasiga kiritilgan mol-mulk;

9) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o'tkazilmagan kapital qo'yilmalar;

16.1-jadval.

Amortizatsiya normalari			
Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Amortizatsiya guruhlarining (kichik guruhlarining) nomi	Amortizatsiyaning normasi, foizlarda
I		Binolar va inshootlar	
	1	Binolar	5
	2	Inshootlar	10
II		Quvurlar, elektr uzatish va telekommunikatsiyalar liniyalari	15
III		Mashinalar va uskunalar (transport uskunalaridan tashqari)	20
IV		Transport uskunolari	
	1	Havo va kosmik uchish apparatlari va ular bilan bog'liq uskunalar, kemalarva qayiqlar, lokomotivlar va harakatdagi tarkib (temir yo'ltarkibi)	10
	2	Avtotransport vositalari, avtomobil kuzovlari (korpuslari), tirkamalar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunolari	20
V		Kompyuterlar va periferiyauskunolari	40
VI		Boshqa guruhlarga kiritilmagan amortizatsiya qilinadigan aktivlar	15

10) notijorat tashkilotlarning ta'minoti mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan hamda notijorat faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan mol-mulki, bundan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan mol-mulk mustasno;

11) kelib tushgan mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (barpo etilgan) mol-mulk.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymati amortizatsiya ajratmalari va (yoki) investitsiyaviy chegirmalar orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Amortizatsiya ajratmalari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, ushbu bandeda nazarda tutilgan xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlarning qiymati nomoddiy aktivlarni amortizatsiya qilish xarajatlari jumlasiga kiritiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar, bundan nomoddiy aktivlar mustasno, soliq solish maqsadlarida guruh (kichik guruh)lar bo'yicha taqsimlanadi va ularni sotib olish (yaratish)ga doir chiqimlar amortizatsiya ajratmalari orqali amortizatsiyaning cheklangan normalari bo'yicha xarajatlar jumlasiga kiritiladi (16.1-jadval).

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo'yicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo'llash orqali, biroq soliq kodeksda belgilangan cheklangan normadan ko'p bo'lmagan tarzda hisoblanadi.

Soliq solish maqsadlarida amortizatsiya'ni belgilanganidan pastroq normalar bo'yicha hisoblashga, agar bu soliq solish maqsadlarida hisob siyosatida mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa, yo'l qo'yiladi.

Soliq bazasiga, nazarda tutilgan normalarga zid ravishda, to'liq hisoblanmagan amortizatsiya summasi miqdorida tuzatishlar kiritish amalga oshirilmaydi.

Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalarni sotib oladigan soliq to'lovchi ushbu obyektlar bo'yicha amortizatsiya normasini, mazkur obyektidan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda, belgilashga haqlidir.

Agar asosiy vositadan haqiqatda foydalanish muddati avvalgi mulkdorlarda asosiy vositalarning ushbu bandeda tasniflanishi asosida belgilanadigan foydali tarzda foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lovchi texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan foydali tarzda foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo'lmagan muddatga belgilashga haqli.

Ilgari foydalanishda bo'lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, amortizatsiya'ni hisoblash ushbu bandning oltinchi qismida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Amortizatsiya qilinadigan mol-mulk tekin olingan taqdirda, uning tekin olingan mol-mulk tarzida jami daromadga kiritilgan qiymati amortizatsiya qilinadigan mol-mulkning dastlabki qiymati bo'ladi va bunda O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq dastlabki tarzda e'tirof etish chog'ida shunday aktivlarning qiymatini ko'paytiruvchi haqiqiy chiqimlar inobatga olinadi.

Nomoddiy aktivlarni amortizatsiya qilish xarajatlari. Nomoddiy aktivlarning qiymati nomoddiy aktivlardan foydali tarzda foydalanish muddati mobaynidagi amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Nomoddiy aktivlardan foydali tarzda foydalanish muddatini aniqlash patent, guvohnomaning amal qilish muddatidan va (yoki) intellektual mulk obyektidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq yoki qo'llanilishi mumkin bo'lgan chet davlat qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish muddatlariga doir boshqa cheklovlardan kelib chiqqan holda yohud nomoddiy aktivlardan foydali tarzda foydalanishning tegishli shartnomalarda shartlashilgan muddatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi tomonidan amortizatsiya ajratmalari ularning dastlabki qiymatidan va foydali tarzda foydalanish muddatidan kelib chiqib hisob-kitob qilingan normalar bo'yicha har oyda hisoblanadi.

Foydali tarzda foydalanish muddatini aniqlash mumkin bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya normalari besh yillik muddatga belgilanadi.

Agar nomoddiy aktivlarni olish yoki ishlab chiqarish xarajatlari soliq to'lovchining soliq bazasini hisoblab chiqarish chog'ida xarajatlar jumlasiga kiritilgan bo'lsa, bu xarajatlar amortizatsiya qilinishi lozim bo'lgan nomoddiy aktivlarning qiymatiga kiritilmaydi.

Investitsiyaviy chegirma. Soliq to'lovchi amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo'yicha investitsiyaviy chegirmalarni belgilangan tartibda va shartlarda qo'llashga haqli. Investitsiyaviy chegirma amortizatsiya xarajati deb e'tirof etiladi.

Investitsiyaviy chegirma quyidagi miqdorda qo'llaniladi:

1) yangi texnologik uskunalar qiymati, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash xarajatlari va (yoki) axborot tizimlarini yaratishga doir investitsiya loyihalari doirasida mahalliy ishlab chiqarishning dasturiy ta'minotini sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'lar summalarining 10 foizi miqdorida;

2) ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga yo'naltiriladigan mablag'lar summasining 5 foizi miqdorida.

Soliq kodeks 317-moddasida keltirib o'tilgan chegirib tashlanmaydigan xarajatlar bo'yicha investitsiyaviy chegirma berilmaydi.

Investitsiyaviy chegirma yangi texnologik uskunani ishga tushirish amalga oshirilgan yohud o'z ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash amalga oshirilgan, ishlab chiqarish yangi qurilish shaklida kengaytirilgan, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilish amalga oshirilgan, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar, axborot tizimlarini yaratish bo'yicha investitsiya loyihalari doirasida mahalliy ishlab chiqarishning dasturiy ta'minoti sotib olingan hisobot (soliq) davrida qo'llaniladi.

Investitsiyaviy chegirma maqsadlarida:

1) tovarlar (xizmatlar)ni ishlab chiqarish jarayonida soliq to'lovchi tomonidan foydalaniladigan, chiqarilgan kundan e'tiboran uch yildan ko'p bo'lmagan muddat o'tgan mashinalar, apparatlar, qurilmalar, mexanizmlar yangi texnologik uskunalar deb e'tirof etiladi;

2) asosiy vositalarning texnologik yoki xizmatga oid mo'ljallanilgan maqsadini o'zgartirishga, ularning unumdorligini oshirishga yoki boshqa sifat

xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar modernizatsiya qilish deb e'tirof etiladi;

3) ilg'or texnika va (yoki) texnologiya'ni joriy etish asosida asosiy vositalarning yoki ularning ayrim qismlarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ma'nan eskirgan va jismonan ishdan chiqqan uskunalarni yangi, nisbatan sifatli uskunalarga almash-tirishga doir kompleks tadbirlar texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash deb e'tirof etiladi. Texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash ishlab chiqarishlarning yangilarini barpo etish va amaldagilarini kengaytirishni ham o'z ichiga oladi;

4) ishlab chiqarishni takomillashtirish hamda uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish bilan bog'liq bo'lgan hamda ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paytirish, tovarlar (xizmatlar) sifatini yaxshilash va (yoki) ularning nomenkla-turasini o'zgartirish maqsadida rekonstruktsiya qilish loyihasi bo'yicha amalga oshiriladigan, tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun foydalani-ladigan, mavjud binolarni va inshootlarni qayta qurish ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilish deb e'tirof etiladi;

5) tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida foydalanish maqsadida yangi binolar va inshootlarni qurish ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirish deb e'tirof etiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlarni ta'mirlash xarajatlari.

Soliq to'lovchi tomonidan amortizatsiya qilinadigan aktivlarni ta'mirlash uchun amalga oshirilgan xarajatlar qaysi hisobot (soliq) davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha hisobot (soliq) davrida soliq solish maqsadlarida haqiqiy chiqimlar miqdorida xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Agar ijaraga oluvchi va ijaraga beruvchi o'rtasidagi shartnomada ijaraga oluvchining amortizatsiya qilinadigan aktivlarga doir xarajatlarining o'rnini ijaraga beruvchi tomonidan qoplash nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu amortizatsiya qilina-

digan aktivlarni ta'mirlash xarajatlari ijaraga oluvchining mazkur xarajatlariga nisbatan ham qo'llaniladi.

Foizlar va ayrim chiqimlar bo'yicha xarajatlar.

Soliq to'lovchining qarz majburiyatlari (kreditlar, tovar va tijorat kreditlari, qarzlar, bank omonatlari, bank hisobvaraqlari yoki rasmiylashtirish usulidan qat'i nazar, boshqa jalb qilingan mablag'lar) bo'yicha foizlar tarzidagi xarajatlari (bundan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida kapitallashtirish uchun ruxsat berilgan xarajatlar mustasno) haqiqiy stavkadan kelib chiqib, chegirib tashlanadi.

Yuridik shaxsning nazorat qilinadigan qarzi bilan bog'liq xarajatlari ushbu bandning birinchi qismi qoidalari hisobga olingan holda, ushbu bandeda belgilangan eng ko'p qiymatlardan oshmaydigan miqdorda chegirib tashlanadi. Mazkur qoida quyidagilarga nisbatan qo'llaniladi:

- 1) qarz mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlarga;
- 2) neustoykalar (jarimalar, penyalar)ning summalari, javobgarlikning boshqa choralari qo'llanilganligi natijasida, shu jumladan shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun zararlar o'rnini qoplash natijasida to'lanishi lozim bo'lgan summalarga.

Foizlar va ayrim chiqimlar bo'yicha xarajatlar maqsadlarida yuridik shaxsning quyidagi qarzlarini nazorat qilinadigan qarzlar deb e'tirof etiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo'lmagan, mazkur soliq to'lovchi aktsiyalari (ustav fondidagi paylar, ulushlar)ning 20 foizidan ortig'iga bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan chet ellik yuridik yoki jismoniy shaxs oldidagi qarzi;

- 2) chet ellik shaxsning o'zaro bog'liq shaxsi deb e'tirof etiladigan boshqa shaxs oldidagi qarzi;

- 3) 1 va (yoki) 2-bandlarida ko'rsatilgan shaxslar oldida kafillik qiluvchi, kafil sifatida ish yurituvchi shaxs yoki ushbu soliq to'lovchining ushbu bandning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan qarzini to'lashni ta'minlash yuzasidan majburiyatni boshqacha tarzda o'z zimmasiga oladigan boshqa shaxs oldidagi qarz.

Nazorat qilinadigan qarz soliq davridagi quyidagi qarzlarning jami summalari o'z ichiga oladi:

qarz mablag'lari bo'yicha;

javobgarlikning boshqa choralari qo'llanilganligi natijasida, shu jumladan shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun zararlarning o'rni qoplanishi natijasida to'lanishi lozim bo'lgan neustoykalar (jarimalar, penyalar) summalari bo'yicha.

Soliq davrida mavjud bo'lgan qarz deganda, qaysi xo'jalik operatsiyasi natijasida joriy hisobot (soliq) davrida qarz yuzaga keladigan yoki ko'payadigan bo'lsa, o'sha har bir xo'jalik operatsiyasining qiymat ko'rsatkichlari summasi, shuningdek joriy hisobot (soliq) davrining boshida to'lanmagan qarzning summasi tushuniladi.

Agar chet ellik shaxs yoki boshqa shaxslar oldidagi nazorat qilinadigan qarz miqdori soliq to'lovchining xususiy kapitalidan uch baravardan ortiq bo'lsa, faqat lizing faoliyati bilan shug'ullanuvchi banklar va soliq to'lovchilar uchun esa o'n uch baravardan ortiq bo'lsa, xarajatlarning chegirib tashlanishi lozim bo'lgan eng ko'p miqdorini aniqlashda belgilangan qoidalar qo'llaniladi.

Soliq to'lovchi nazorat qilinadigan qarzning har bir turi bo'yicha eng ko'p summalarni har bir hisobot (soliq) davrining oxirgi sanasida hisoblab chiqarishi shart. Hisob-kitob nazorat qilinadigan qarz bo'yicha ayrim chiqimlar (xarajatlar) ning soliq davri boshlanganidan e'tiboran o'sib boruvchi yakun bilan aniqlangan summasini tegishli hisobot (soliq) davrining oxirgi sanasida hisob-kitob qilinadigan kapitallashtirish koeffitsientiga bo'lish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kapitallashtirish koeffitsienti tegishli nazorat qilinadigan, to'lanmagan qarz miqdorini ushbu chet el tashkilotining soliq to'lovchi ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi ulushiga muvofiq bo'lgan xususiy kapital miqdoriga bo'lish hamda olingan natijani uchga, banklar va faqat lizing faoliyati bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar uchun esa o'n uchga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Xususiy kapital miqdorini aniqlashda soliq to'lovchining aktivlari summasi va majburiyatlari miqdori (soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz summalari, shu

jumladan ular bo'yicha kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash summolari hisobga olinmaydi) tegishli hisobot (soliq) davrining oxirgi kunidagi buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Nazorat qilinadigan qarzning har bir turi bo'yicha ushbu bandning oltinchi – to'qqizinchi qismlariga muvofiq hisob-kitob qilingan, biroq haqiqatda hisoblangan xarajatlardan ko'p bo'lmagan summalar xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Geologik jihatdan o'rganish, qidirish va tabiiy resurslarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun xarajatlar. Yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan qazib olishni boshlashdan oldin geologik jihatdan o'rganish, qidirish, foydali qazilmalarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan xarajatlardan, shu jumladan baholash, jihozlash, imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusni to'lashga doir xarajatlar, shuningdek Soliq kodeksiga muvofiq chegirib tashlanishi lozim bo'lgan boshqa xarajatlar amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini tashkil etadi.

Bunda soliq kodeksda nazarda tutilgan hollarda, bunday chiqimlar belgilangan normalar doirasida xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Xarajatlar foydali qazilmalarni qazib olish boshlangan paytdan e'tiboran soliq to'lovchining jami daromadidan amortizatsiya ajratmalari tarzida chegirib tashlanadi.

Amortizatsiya ajratmalarining har yilgi summasi, soliq to'lovchining xohishiga ko'ra belgilanadigan amortizatsiya normasini qo'llash yo'li bilan, amortizatsiya qilinadigan aktivlar guruhi bo'yicha to'plangan xarajatlar summasining 15 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda hisoblab chiqariladi.

Nomahsuldor quduq tugatilgan yohud soliq to'lovchi yer qa'ri uchastkasidagi ishlarni iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi, geologik jihatdan istiqbolsizligi yoki boshqa sabablarga ko'ra tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, basharti yer qa'ridan foydalanish huquqi to'liq tugatilsa, soliq to'lovchi bunday huquq tugatilgan hisobot (soliq) davrida qilingan xarajatlar summasini chegirib tashlashga haqli.

Ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlar. Yangi mahsulot (tovarlar, xizmatlar)ni yaratish yoki ishlab chiqarila-

yotgan mahsulot (tovarlar, ishlar)ni takomillashtirish, ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etishning yangi texnologiyalari, usullarini yaratish yoki qo'llanilayotgan shunday texnologiyalarni, usullarni takomillashtirish jumlasiga kiradigan xarajatlar ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga doir xarajatlar deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchining ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlari, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni olishga oid xarajatlardan tashqari, tegishli ilmiy tadqiqotlar va (yoki) tajriba konstruktorlik ishlanmalarining natijasidan qat'iy nazar, bunday tadqiqotlar va ishlanmalar (xizmatlarning alohida bosqichlari) tugallangan va (yoki) qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taraflar imzolaganidan keyin chegirib tashlanadi.

Agar soliq to'lovchi ilmiy tadqiqotlar va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalari yuzasidan amalga oshirilgan xarajatlar natijasida intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mutlaq huquqlarni olsa, mazkur huquqlar nomoddiy aktivlar deb e'tirof etiladi.

Shartnoma bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini ijrochi (pudratchi yoki subpudratchi) sifatida bajaruvchi soliq to'lovchilarning xarajatlarni soliq solish maqsadlarida e'tirof etishga nisbatan tatbiq qilinmaydi.

Umidsiz qarzlar bo'yicha xarajatlar. Umidsiz qarzlar bo'yicha xarajatlarni aniqlash maqsadlarida, sudning qaroriga ko'ra, bankrotlik, tugatish, qarzdor vafot etganligi tufayli majburiyatlar tugatilganligi oqibatida yoki da'vo muddati o'tganligi oqibatida to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz umidsiz qarz deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchi oldingi hisobot (soliq) davrlarida soliq solinadigan daromadlar olish bilan bog'liq bo'lgan umidsiz qarzlarni chegirib tashlashga haqli.

Umidsiz qarzlarni chegirib tashlashga faqat qarz hisobdan chiqarilgan va soliq to'lovchining buxgalteriya hisobotida aks ettirilgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Zahira fondlarini shakllantirish xarajatlari. Banklar va bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir litsenziya asosida bank operatsiyalarining ayrim

turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, shuningdek sug'urta tashkilotlari qonun hujjatlari talablariga muvofiq zahira fondlarini tashkil etadi.

Zahira fondlariga ajratmalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va normalar doirasida xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Sof foyda hisobidan shakllantiriladigan zahira fondlarini tashkil etish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Haqiqiy xarajatlar, ularga nisbatan zahira fondi shakllantirilgan bo'lsa, tashkil etilgan zahira fondi summasi hisobidan hisobdan chiqariladi.

Kafolatli ta'mirlash va kafolatli xizmat ko'rsatish yuzasidan kelgusi xarajatlar uchun zahirani shakllantirish xarajatlari. Tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchi kafolatli ta'mirlash va kafolatli xizmat ko'rsatish yuzasidan kelgusi xarajatlar uchun zahira tashkil etishga haqli. Bunday zahirani shakllantirishga doir ajratmalar ushbu badda nazarda tutilgan tartibda chegirmalar jumlasiga kiritiladi. Soliq to'lovchi bunday zahirani tashkil etish to'g'risidagi qarorni mustaqil ravishda qabul qiladi va soliq solish maqsadlari uchun hisob siyosatida ajratmalarning eng yuqori miqdorini aniqlaydi.

Zahira xaridor bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq kafolatli muddat davomida xizmat ko'rsatish va ta'mirlash nazarda tutilgan tovarlar (xizmatlar)ga nisbatan tashkil etiladi. Mazkur tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish sanasidagi zahiraga ajratmalar summasi xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Tashkil etilgan zahiraning miqdori kafolatli ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarning mazkur tovarlar (xizmatlar)ni o'tgan uch yil davomida realizatsiya qilishdan olingan tushum hajmidagi ulushi sifatida aniqlanadigan, hisobot (soliq) davrida mazkur tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan tushum summasiga ko'paytirilgan eng ko'p miqdordan oshmasligi kerak. Agar soliq to'lovchi tovarlar (xizmatlar)ni kafolatli ta'mirlashni va xizmat ko'rsatishni bajarish sharti bilan realizatsiya qilishni uch yildan kam muddatda amalga oshirayotgan bo'lsa, tashkil etilayotgan zahiraning eng ko'p miqdorini hisob-kitob qilish uchun mazkur tovarlar

(xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan tushumning bunday realizatsiya qilishning haqiqiy davridagi hajmi inobatga olinadi.

Ilgari tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishni kafolatli ta'mirlash va xizmat ko'rsatish sharti bilan amalga oshirmagan soliq to'lovchi mazkur chiqimlar uchun kutilayotgan xarajatlarning miqdoridan oshmaydigan miqdordagi zahirani tashkil etishga haqli. Kutilayotgan xarajatlarning deganda kafolat muddati inobatga olingan holda kafolat majburiyatlarini bajarish rejasida nazarda tutilgan xarajatlarning tushuniladi.

Soliq davri tugagach, soliq to'lovchi tashkil etilgan zahiraning miqdoriga kafolatli ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarning mazkur tovarlar (xizmatlar)ni o'tgan davrda realizatsiya qilishdan olingan tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda tuzatish kiritishi kerak.

Soliq to'lovchi tomonidan soliq davrida kafolatlar berish sharti bilan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha kafolatli ta'mirlash va xizmat ko'rsatish uchun to'liq foydalanilmagan zahira summasi soliq to'lovchi tomonidan keyingi soliq davriga o'tkazilishi mumkin. Bunda keyingi soliq davrida yangi tashkil etilayotgan zahiraning summasiga zahiraning oldingi soliq davridagi qoldig'i summasi miqdorida tuzatish kiritilishi kerak. Agar yangi tashkil etilayotgan zahiraning summasi oldingi soliq davrida tashkil etilgan zahira qoldig'ining summasidan kam bo'lsa, ular o'rtasidagi farq soliq to'lovchining joriy soliq davridagi daromadlari tarkibiga kiritilishi lozim.

Agar soliq to'lovchi zahira tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilsa, kafolatli ta'mirlashga doir haqiqiy xarajatlarni hisobdan chiqarish tashkil etilgan zahira hisobidan amalga oshiriladi. Agar tashkil etilgan zahiraning summasi soliq to'lovchi tomonidan amalga oshirilgan ta'mirlash xarajatlarning summasidan kam bo'lib qolsa, ular o'rtasidagi farq chegirmalar jumlasiga kiritilishi lozim.

Soliq to'lovchi tovarlar (xizmatlar)ni kafolatli ta'mirlash va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish sharti bilan sotishni tugatish to'g'risida qaror qabul qilganda, ilgari tashkil etilgan va foydalanilmagan zahiraning summasi kafolatli ta'mirlash va

kafolatli xizmat ko'rsatishga doir shartnomalarning amal qilish muddatlari tugaganidan keyin daromadlar tarkibiga kiritilishi lozim.

Chegirib tashlanmaydigan xarajatlar. Soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli organ tomonidan belgilangan moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan, ular mavjud bo'lmaganda esa, soliq to'lovchi tomonidan belgilangan normalardan ortiqcha tovarlar yo'qolishi;

2) umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa tashkilotlarga joylarni tekin berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlarning qiymatini to'lash;

3) soliq to'lovchining soliq kodeksning 376-moddasida nazarda tutilgan, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblangan xarajatlari;

4) dala (safar) ta'minoti, xodimning shaxsiy avtotransportidan xizmat maqsadlarida foydalanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lovlar;

5) pensiyalarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

6) moddiy yordamlar;

7) xayriya yordami tarzida berilgan mablag'lar, bundan metsenatlik ko'magini ko'rsatish uchun yo'naltirilgan mablag'lar mustasno;

8) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalardan ortiqcha tarzda atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilar joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari;

9) loyihalar va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, obyekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etishga doir xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari hamda ushbu xarajatlarning o'rnini kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobidan qoplash imkoni bo'lmagan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

10) aybdorlari aniqlanmagan talon-taroj qilishlar va kamomadlardan yoki aybdor taraf hisobidan zarur summalarining o'rnini qoplash imkoni bo'lmagan taqdirda ko'rilgan zararlar;

11) boshqa shaxslar uchun to'langan soliqlar;

12) soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va yig'imlar;

13) soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlar (sog'liqni saqlashga oid, sport va madaniy tadbirlar, dam olishni tashkil etish hamda boshqa shunga o'xshash tadbirlar)ga doir xarajatlari, bundan tadbirlarni o'tkazishga doir majburiyatlar qonun hujjatlari bilan soliq to'lovchining zimmasiga yuklatilgan hollar mustasno;

14) kasaba uyushmalari qo'mitalariga yordam ko'rsatish;

15) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xizmatlar (shaharlarni va shaharchalarni obodonlashtirish bo'yicha xizmatlar, qishloq xo'jaligiga yordamlashish va xizmatlarning boshqa turlari) ko'rsatganlik uchun qilingan xarajatlar;

16) ushbu bo'limda nazarda tutilgan hollardan tashqari soliq solinmaydigan daromad olish bilan bog'liq xarajatlar;

17) haqiqatda xizmatlar ko'rsatmasdan, tovarlarni jo'natmasdan turib amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha xarajatlar, agar bunday fakt sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan va unda ushbu xarajatlarni amalga oshirgan soliq to'lovchining nomi ko'rsatilgan bo'lsa;

18) daromad olishga qaratilgan faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar, agar qonun hujjatlariga muvofiq bunday xarajatlarni amalga oshirish majburiyati soliq to'lovchining zimmasiga yuklatilmagan bo'lsa;

19) byudjet tizimiga kiritilishi lozim bo'lgan (kiritilgan) penyalar, jarimalar va boshqa sanksiyalar;

20) sotib olishga, ishlab chiqarishga, qurilishga, montaj qilishga, o'rnatishga doir va amortizatsiya qilinadigan aktivlarning qiymatiga qo'shiladigan boshqa xarajatlar, shu jumladan qo'shimcha qurish, qo'shimcha jihozlash, rekonstruktsiya

qilish, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash hollarida amalga oshiriladigan, amortizatsiya chegirmalari vositasidagi xarajatlar jumlasiga kiritiladigan xarajatlar;

21) soliq to'lovchining amortizatsiya qilinmaydigan mol-mulkning boshlang'ich qiymatiga buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kiritiladigan xarajatlari;

22) Soliq kodeksda chegirmalar jumlasiga kiritish normalari belgilangan xarajatlarning mazkur normalar qo'llanilgan holda hisoblab chiqarilgan chegirmaning eng yuqori summasidan ortiq bo'lgan summa;

23) shakllantirilishi ushbu bo'limda va (yoki) qonun hujjatlari talablarida nazarda tutilmagan zahiralar, zahira fondlari va boshqa fondlarga ajratmalar;

24) soliq to'lovchi tomonidan hisoblangan dividendlar summalari;

25) soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslarning foydasiga to'lanadigan ixtiyoriy sug'urta badallari;

26) soliq to'lovchi tomonidan soliq kodeksning 310-moddasiga muvofiq soliq solish maqsadlarida xarajatlar deb e'tirof etiladigan xarajatlarning summasidan ortiqcha hisoblangan foizlar va ayrim chiqimlar;

27) tekin berilgan mol-mulk (xizmatlar) qiymati va bunday berish bilan bog'liq bo'lgan (shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i summasi kiritilgan) xarajatlar, bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra mol-mulkni o'tkazish, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tizimining texnik vositalarini o'tkazish va ulardan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish mustasno;

28) ishonchli boshqaruv muassisining ishonchli boshqaruv shartnomasini bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari, agar ishonchli boshqaruv shartnomasiga ko'ra muassis naf oluvchi bo'lmasa;

29) notijorat tashkilotlariga va xalqaro tashkilotlarga to'lanadigan badallar, yig'imlar va boshqa to'lovlar, bundan bunday badallarni, yig'imlarni va boshqa to'lovlarni to'lash qonun hujjatlarida (shu jumladan chet davlatlarning qonun

hujjatlarida) nazarda tutilgan va (yoki) ushbu badallarni, yig'implarni va boshqa to'lovlarni to'lagan soliq to'lovchilar tomonidan faoliyatni amalga oshirishning sharti yohud mazkur tashkilotlar tomonidan soliq to'lovchilar o'z faoliyatini yuritishi uchun zarur xizmatlar taqdim etishning sharti bo'lgan hollar mustasno;

30) soliq to'lovchi tomonidan tashkil etilgan zahira mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan xarajatlar, agar bunday zahiralarini tashkil etishga doir xarajatlar Soliq kodeksda yoki boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chegirmalar jumlasiga kiritilgan bo'lsa;

31) mol-mulk narxining pasayish (qadrsizlanish) summalari;

32) oddiy shirkat shartnomasi doirasida sheriklar (ishtirokchilar) tomonidan shartnoma sheriklarining (ishtirokchilarining) umumiy mulkdagi ulushni qaytarish yoki bunday mol-mulkni bo'lish chog'ida ko'rilgan zararlar;

33) soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi tomonidan ushbu guruhning mas'ul ishtirokchisiga soliqni (bo'nak to'lovlarini, joriy to'lovlarni, penyalarni, jarimalarni) soliq kodeksida soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun belgilangan tartibda to'lash uchun berilgan pul mablag'lari, shuningdek soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi tomonidan shu guruhning ishtirokchisiga ushbu soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan soliq (bo'nak to'lovlari, joriy to'lovlar, penyalar, jarimalar) summasi aniqlashtirilishi munosabati bilan berilgan pul mablag'lari;

34) tovar-moddiy qimmatliklarni yaroqsizligi sababli (saqlash muddati o'tganligi, jismoniy va (yoki) ma'naviy eskirganligi, shunga o'xshash boshqa sabablarga ko'ra) hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, bundan favqulodda holatlar (tabiiy ofat, yong'in, avariya, yo'l-transport hodisasi va hokazolar) oqibatida ko'rilgan zararlar mustasno);

35) muddati o'tgan va kechiktirilgan kreditlar (qarzlar) bo'yicha muddatli qarz uchun kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha foizlar;

36) xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penyalar va sanksiyalarning boshqa turlari.

16.4. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan (16.2-jadval).

16.2-jadval.

Foyda solig'i stavkalari		
№	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Banklar	20
2	Quyidagi soliq to'lovchilar: tsement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan	20
3	O'zi ishlab chiqargan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo'yicha soliq kodeksning 57-moddasida nazarda tutilgan mezonlarga javob beruvchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo'jaligi korxonalari	0
4	Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar	0
5	Qo'shimcha manbalardan daromadlar oluvchi byudjet tashkilotlari	0
6	Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foyda	0
7	Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko'rsatishdan olingan foyda	20
8	Tovarlarni (xizmatlar)ning elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat subyektlarining milliy reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar	7,5
9	Yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va umumiy xodimlar sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash jamg'armasi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to'lovchilar	0
10	O'zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olinadigan daromadlar	0
11	Dividendlar tarzidagi daromadlar	5
12	Qolgan soliq to'lovchilar, bundan 1–11-bandlarda ko'rsatilganlar mustasno	15

Faoliyati davomida tsement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi, polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi, faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan soliq to'lovchilar faoliyatning barcha turlari bo'yicha belgilangan soliq stavkasini qo'llaydi.

O'zi ishlab chiqargan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo'yicha soliq kodeksning 57-moddasida nazarda tutilgan mezonlarga javob beruvchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo'jaligi korxonalari, agar o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya

qilishdan olingan daromadlari jami daromadning 90 foizdan ko'prog'ini tashkil etsa, faoliyatning barcha turlari bo'yicha 0 foiz miqdorida soliq stavkasini qo'llashga haqlidir.

Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchi kodeksning 59-moddasida belgilangan mezonlarga rioya etmagan taqdirda, mazkur shartlarga rioya etmaganlik ro'y bergan soliq davrining boshlanishidan e'tiboran ushbu band birinchi qismining 12-bandida belgilangan soliq stavkasini ilgari o'tgan soliq davrlari uchun aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan holda qo'llaydi.

Tovarlar (xizmatlar)ning elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat subyektlarining milliy reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar, agar ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 90 foizini tashkil etsa, 7,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llashga haqli.

Qo'shimcha manbalardan daromad oluvchi byudjet tashkilotlari, basharti bo'shatilayotgan mablag'lardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda byudjet tashkilotlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, o'z xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun maqsadli tarzda foydalansa, 2023 yilning 1 yanvariga qadar 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llaydi.

O'zida ishlovchilarning umumiy o'rtacha yillik sonining 3 foizidan ko'prog'i nogironligi bo'lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi ushbu badda belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi.

Tovarlar (ishlar)ni eksportga realizatsiya qilishdan olingan foydaga 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, agar tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishdan olinadigan daromadlar jami daromadning kamida 15 foizini tashkil etsa, qo'llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, shu jumladan tovar vositachi (ishonchli vakil) orqali realizatsiya qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, Soliq kodeksining 261-moddasida nazarda tutilgan tovarlarning eksportini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda, qo'llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar (xizmatlar) eksportga chiqarilgan kundan e'tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, qo'llanilmaydi.

Tovarlar (xizmatlar)ning elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat subyektlarining milliy reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar qoidolari quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan xomashyo tovarlar eksporti;

2) xalqaro tashishlar xizmatlariga, bundan avtotransportda tashishlar mustasno;

3) tovarlarni quvurlar orqali va gaz quvurlari orqali tashish bo'yicha xizmatlar.

Foydali qazilmalarni qazib olish sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan ayrim soliq to'lovchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

16.5. Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni byudjetga to'lash muddatlari

Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan aniqlanadi va qo'yidagi ketma-ketlikdagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1) mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.

YaF=SST-IT, bu yerda:

YaF-yalpi foyda, SST-sotishdan olingan sof tushum, IT-sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

2) asosiy faoliyatdan olingan foyda.

AFF=YaF-DX+BD-BZ, bu yerda:

AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX-davrlar xarajatlari, BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, B3-asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3) umumxo 'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).

$$UF = AFF + MD - MX,$$

bunda: UF-umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; MD-moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX-moliyaviy faoliyat xarajatlari;

4) solig to'laguncha olingan foyda.

$$STF = UF + FF - FZ,$$

bunda: STF-solig to'laguncha olingan foyda; FF-favqulodda vaziyatdan olingan foyda; FZ-favqulodda vaziyatdan ko'rilgan zarar.

Yilning sof foydasi, korxona foyda solig'ini va undan keyin obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lagandan so'ng korxonaning o'zida qoladi.

Hisobot (solig) davrining yakunlari bo'yicha solig summasi solig to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Hisobot davri yakunlari bo'yicha solig summasi solig davrining boshidan oshib boruvchi yakun bilan, agar ushbu bandda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, solig bazasining solig stavkasiga muvofiq bo'lgan foizlardagi ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Solig to'lovchi solig kodeksning 342-moddasida belgilangan hollarda va tartibda foyda solig'ini yoki chet davlatda to'langan daromadlardan olinadigan xuddi shunday turdagi to'langan soliqni hisobga o'tkazish yo'li bilan solig summasini kamaytirishga haqli.

Agarda me'yoriy xujjatlarda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, solig hisoboti barcha solig to'lovchilar tomonidan har bir hisobot va solig davri o'tganidan keyin solig bo'yicha hisobda turgan joyidagi solig organiga taqdim etiladi.

Foyda solig'i hisoboti quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo'yicha – hisobot davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo'yicha – soliq davri o'tgandan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Byudjet tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan soliq bo'yicha soliq hisoboti soliq davri yakunlariga ko'ra taqdim etiladi, bundan matlubot kooperativlari mustasno. Bunda o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha jami daromad mavjud bo'lmagan taqdirda soliq hisobotini taqdim etish talab qilinmaydi.

Foyda solig'ini to'lash tartibi. Soliqni to'lash hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha, tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlar hisobga olingan holda besh milliard so'mdan oshadigan soliq to'lovchilar ushbu bandning uchinchi – oltinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan har oylik bo'nak to'lovlarini hisobot davri har bir oyining yigirma uchinchi kunidan kechiktirmay to'laydi.

Joriy soliq davrining birinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi o'tgan soliq davrining oxirgi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovi summasiga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining ikkinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi joriy yilning birinchi hisobot davri uchun soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'i summasining uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining uchinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi yarim yillik yakunlariga ko'ra soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi va birinchi chorak yakunlari bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi o'rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining to'rtinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi to'qqiz oylik yakunlariga ko'ra soliq hisoboti bo'yicha

hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi va yarim yillik yakunlari bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi o'rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Agar hisoblab chiqarilgan har oylik bo'nak to'lovining summasi manfiy yoki nolga teng bo'lsa, ko'rsatilgan to'lovlar tegishli chorakda amalga oshirilmaydi.

Soliq to'lovchilar, shu jumladan yangidan tashkil etilgan, jami daromadi joriy hisobot davri mobaynida besh milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar har oylik bo'nak to'lovlarini bunday oshib ketish sodir bo'lgan to'liq chorak o'tganidan keyin to'laydi.

Bo'lish yoki ajratib chiqarish yo'li bilan qayta tashkil etish natijasida yangidan tashkil etilgan yuridik shaxs, jami daromadining miqdoridan qat'i nazar, har oylik bo'nak to'lovlarini, agar bo'lish yoki ajratib chiqarish yo'li bilan qayta tashkil etilgan yuridik shaxs soliq bo'yicha har oylik bo'nak to'lovlarini bunday qayta tashkil etish amalga oshirilgan soliq davrida hisoblab chiqargan bo'lsa, ikkita kelgusi soliq davri mobaynida to'laydi.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha hisobot (soliq) davri mobaynida to'langan har oylik bo'nak to'lovlari summasi hisobot (soliq) davri uchun soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliqni to'lash chog'ida hisobga olinadi.

Har oylik bo'nak to'lovini hisoblab chiqarish soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jami yillik daromadning miqdoridan qat'i nazar, soliq hisobotini soliq bo'yicha faqat soliq davri yakunlari yuzasidan taqdim etuvchi soliq to'lovchilar har oylik bo'nak to'lovlarini to'lamaydi.

Soliq to'lovchi tugatilganda soliq tugatish yakunlanguniga qadar to'lanishi lozim.

Yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organi har oylik bo'nak to'lovlarini hisoblashni ro'yxatdan o'tkazuvchi organdan bunday axborot olingan oydan e'tiboran to'xtatib turadi.

Faoliyat tiklangan va tugatish jarayoni to'xtatilgan taqdirda, har oylik bo'nak to'lovlarini hisoblash ularni hisoblash to'xtatilgan oydan e'tiboran tiklanadi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi. Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlari summalarini, shuningdek soliq summalarini to'lashni, shunday guruhni tuzish to'g'risidagi shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan joyda, mazkur summalarni ushbu guruhning va ular alohida bo'linmalarining ishtirokchilari bo'yicha taqsimlamasdan amalga oshiradi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha soliq hisoboti soliq organiga soliq kodeksini 339-moddasining beshinchi qismida belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining qolgan ishtirokchilari o'zi hisobda turgan joydagi soliq organiga soliq hisobotini taqdim etmaydi.

Agar soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari ushbu guruhning konsolidatsiyalashgan soliq bazasiga kiritilmaydigan daromadlarni olsa, ular o'zi hisobda turgan joydagi soliq organlariga soliqning faqat ushbu daromadlarga nisbatan hisoblab chiqarilgan qismi bo'yicha soliq hisobotini taqdim etadi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliq hisoboti shu guruhning mas'ul ishtirokchisi tomonidan soliq hisobi ma'lumotlari hamda umuman soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha konsolidatsiyalashgan soliq bazasi asosida faqat konsolidatsiyalashgan soliq bazasiga nisbatan soliqni hisoblab chiqarish qismi bo'yicha tuziladi.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi tomonidan ushbu guruh faoliyat ko'rsata boshlagan soliq davrining birinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan soliq bo'yicha har oylik bo'nak to'lovlarining summasi shu guruh barcha ishtirokchilarining ushbu guruh tuzilishidan oldingi soliq davrining uchinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovlari summasi sifatida aniqlanadi.

Agar soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnoma soliq organi tomonidan soliq davri boshlanganidan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari tomonidan soliq davri boshidan buyon o'tgan hisobot davrlarining yakunlari bo'yicha to'langan bo'nak (joriy) to'lovlari soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining bo'nak joriy to'lovlari soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining tegishli ishtirokchisi hisobiga o'tkazilishi (qaytarilishi) lozim.

Foyda soliqni hisobga olish. Chet davlatning qonun hujjatlariga va (yoki) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq haqiqatda to'langan (ushlab qolingani) foyda solig'ining summasi yoki ushbu chet davlatda olingan daromadlardan olinadigan aynan o'xshash turdagi soliq O'zbekiston Respublikasida foyda solig'ini to'lash hisobidan soliq to'lovchida ushbu bandeda belgilangan tartibda va miqdorlarda hisobga olinishi lozim.

Foyda solig'i summasi yoki O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlardan olinadigan aynan o'xshash turdagi soliqni hisobga olish bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasida soliq solinishi lozim bo'lgan daromad bo'yicha;
- 2) O'zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnoma mavjud bo'lganda;
- 3) bunday soliq to'langanligi (ushlab qolinganligi)ni tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lganda.

Foyda solig'ining yoki O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan (ushlab qolingani), aynan o'xshash turdagi soliq hisobga olinadigan summasining miqdori soliq to'lovchi ko'rsatilgan daromad olinishi lozim bo'lgan (olingani) soliq davri uchun to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i summasidan oshib ketishi mumkin emas.

Chet davlat vakolatli organining ma'lumotnomasi yoki soliq O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida to'langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida foyda solig'i yoki aynan o'xshash turdagi soliq to'langanligi (ushlab qolingani) tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Agar ushbu bandning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlar chet tilida tuzilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining davlat tilidagi tarjimasi mavjud bo'lishi shart.

Chegirib tashlanadigan xarajatlarni aniqlash. Soliq bazasini aniqlash chog'ida O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatdan doimiy muassasa orqali soliq solinadigan daromadlar olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar, ular O'zbekiston Respublikasida yoki uning hududidan tashqarida qilinganidan qat'i nazar, doimiy muassasaning chegirmalari jumlasiga kiritiladi, bundan Soliq kodeksiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar mustasno.

O'zbekiston Respublikasining norezidentiga o'zining doimiy muassasasi tomonidan to'lanadigan quyidagi ko'rinishdagi summalar ham chegirilmaydi:

1) ushbu norezidentning mulkidan yoki intellektual mulkidan foydalanganlik yoki foydalanish huquqini berganlik uchun royalti, gonorarlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar;

2) ushbu norezident tomonidan doimiy muassasaga ko'rsatilgan xizmatlar uchun xarajatlar;

3) ushbu norezident tomonidan doimiy muassasaga berilgan zayomlar bo'yicha pul mukofotlari;

4) ushbu norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi orqali faoliyatidan daromadlar olish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar;

5) ushbu norezidentning mazkur moddaning to'rtinchi qismida belgilangan, O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlari.

Agar qo'llaniladigan O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi qoidalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi norezidenti doimiy muassasasining soliq solinadigan daromadini aniqlashda shu norezidentning boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlarni chegirib tashlashga yo'l qo'yilsa, bunday xarajatlar

summasi shunday norezident tomonidan o'z tanloviga binoan quyidagi usullardan biri bo'yicha aniqlanadi:

- 1) xarajatlarni mutanosib ravishda taqsimlash usuli;
- 2) xarajatlarni chegirmalarga bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) kiritish usuli.

Ushbu band uchinchi qismining maqsadida ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan boshqaruv va boshqaruv xodimlarining mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlari boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlari deb e'tirof etiladi. Bunda ushbu norezidentning boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlari jumlasiga quyidagilar kiritilmaydi:

1) norezidentning bevosita doimiy muassasasi tomonidan O'zbekiston Respublikasida yoki norezidentning vakolatxonasi tomonidan O'zbekiston Respublikasida Soliq kodeksiga muvofiq chegirmalar jumlasiga kiritiladigan boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlari;

2) norezidentning bevosita vakolatxonasi yoki doimiy muassasalari tomonidan boshqa davlatlarda qilingan, O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan doimiy muassasasining faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlari;

3) O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlari.

Norezident hisobot (soliq) davri mobaynida o'z tanloviga ko'ra boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlarni soliq hisobotiga ilovada ko'rsatiladigan doimiy muassasaning chegirmalariga kiritish usullaridan faqat bittasini qo'llaydi.

Norezidentning boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlari O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasaning chegirmalariga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda kiritiladi.

Har bir korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritmasin asosiy maqsadi foyda olish va barqaror ustunlikka erishish hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning pirovard natijasida korxona va tashkilotlar ma'lum bir foyda (zarar)ga ega bo'ladi. Faoliyati natijasida foydaga ega bo'lganda, davlat byudjeti bilan korxona o'rtasida foyda solig'i munosabatlari

yuzaga keladi. Shu asosda to'lov majburiyatlari yuzaga keladi hamda soliq to'lovlari to'g'ridan-to'g'ri davlat byudjetiga to'lab beriladi.

O'zbekiston Respublikasining 30.12.2021 yildagi O'RQ-742-son 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, foyda solig'i bo'yicha:

1. Soliq to'lovchilar safi, soliq stavkalari, soliqni hisoblab chiqarish tartibi va soliq hisobotini topshirish muddatlari saqlab qolinmoqda.

2. 2022 yil 1 yanvardan foyda solig'ini hisoblash maqsadida amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tan olishning alohida tartibi joriy qilinmoqda. Foyda solig'i bo'yicha soliq bazasini aniqlash maqsadida amortizatsiya qilinadigan aktivlarga Soliq kodeksda keltirilgan mezonlariga javob beradigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar kiritiladi.

Birlik (to'plam) uchun qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 50-baravari miqdoridan yuqori bo'lgan, soliq to'lovchida mulk huquqi asosida turgan va soliq to'lovchi tomonidan tovarlarni ishlab chiqarishda (xizmatlar ko'rsatishda) yoki ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun uzoq vaqt (davomiyligi o'n ikki oydan ortiq vaqt) mobaynida foydalaniladigan mol- mulk soliq solish maqsadlarida asosiy vosita deb e'tirof etiladi. Bunda, soliq to'lovchiga soliq davri uchun soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatida mol-mulk qiymatini asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun mol-mulkning eng kam chegarasini belgilash huquqi berildi.

Soliq to'lovchining tovarlar ishlab chiqarishda (xizmatlar ko'rsatishda) yoki ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun uzoq vaqt (davomiyligi o'n ikki oydan ortiq vaqt) mobaynida foydalaniladigan intellektual faoliyat natijalari va boshqa intellektual mulk obyektlari (ularga bo'lgan mutlaq huquqlar) nomoddiy aktivlar deb e'tirof etiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang'ich qiymatini aniqlash tartibi, boshlang'ich qiymatning o'zgarishlari, shuningdek amortizatsiya qilinadigan aktiv bo'yicha amortizatsiyani hisoblash tartibi belgilanmoqda.

Xususan, amortizatsiya qilinadigan aktivlarning dastlabki qiymatiga qarz majburiyatlari bo'yicha foizlar kiritilmaydi. Ijaraga beruvchining (qarz beruvchi-

ning) roziligi bilan ijaraga va (yoki) bepul foydalanishga berilgan amortizatsiya qilinadigan aktivga ijaraga oluvchi (qarz oluvchi) tomonidan amalga oshirilgan ajratib bo'lmaydigan yaxshilash shaklidagi, qiymati ijaraga beruvchi (qarz beruvchi) tomonidan qoplanmaydigan kapital qo'yilmalar ham amortizatsiya qilinadigan aktiv deb e'tirof etiladi.

Amortizatsiyani hisoblashning vaqtincha to'xtatib turish tartibi joriy qilinmoqda, xususan, o'n ikki oydan ortiq vaqt rekonstruktsiya qilishda yoki modernizatsiyalashda, bundan rekonstruktsiya qilish yoki modernizatsiyalash jarayonida bunday aktivdan soliq to'lovchi tomonidan o'z faoliyatida foydalanilishi davom ettiriladigan hollar mustasno.

O'zbekiston Respublikasi asosiy fondlarining statistik tasniflari hisobga olingan holda amortizatsiya qilinadigan aktivlar guruhi qayta ko'rib chiqildi va amortizatsiyaning yillik normalari (foiz hisobida) o'rtacha 2 baravarga oshirildi.

Keltirilgan amortizatsiya normalari faqatgina foyda solig'ini hisoblab chiqarishda qo'llaniladi. Bunda, buxgalteriya hisobi maqsadlarida buxgalteriya to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amortizatsiya hisoblash usullari qo'llaniladi.

Shu bilan birga, soliq to'lovchilarga Soliq kodeksida belgilangan me'yorlardan past miqdorlarda amortizatsiya hisoblash huquqi berilgan, ya'ni buxgalteriya to'g'risidagi qonunchilikka asosan.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) amortizatsiya qilinadigan aktivning chiqib ketishidan olinadigan daromaddan uning qoldiq qiymatini chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

2020 yil 31 dekabr holatiga ko'ra soliq to'lovchida mavjud bo'lgan amortizatsiya qilinadigan aktivlarning qoldiq qiymati bunday amortizatsiya qilinadigan aktivlarning boshlang'ich (tiklanish) qiymati va 2021 yil 1 yanvargacha hisoblangan (jamg'arilgan) amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. 2020 yilning 31 dekabridan keyin ishga tushirilgan amortizatsiya qilinadigan aktivning qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymati va soliqni hisoblab chiqarish maqsadida

hisoblangan (jamg'arilgan) amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

3. Amortizatsiya normalarini oshirish bilan bir qatorda bir martalik investitsiyaviy chegirmalar (amortizatsiya mukofotlari) miqdori binolar uchun 5 foizdan 10 foizgacha, yangi texnologik uskunalar uchun esa 10 foizdan 20 foizgacha oshirilmoqda.

Investitsion chegirma amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang'ich qiymatiga nisbatan qo'llaniladi va amortizatsiya xarajatlari sifatida aks ettiriladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktiv u bo'yicha investitsiyaviy chegirma qo'llanilgan sanadan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan, bepul berilgan va boshqacha tarzda chiqib ketgan taqdirda, investitsiyaviy chegirmaning amal qilishi bekor qilinadi (bundan amortizatsiya qilinadigan aktivning favqulodda vaziyatlar tufayli chiqib ketishi mustasno). Bunda, bunday aktivning chiqib ketishi ro'y bergan hisobot (soliq) davrida investitsiyaviy chegirma jamg'arilgan amortizatsiya summasiga kamaytiriladi.

4. Zararlarni joriy soliq davri soliq bazasining 60foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda 10 yil mobaynida kelgusiga o'tkazish bo'yicha cheklovlar bekor qilinmoqda.

5. Tijorat banklari tomonidan shakllantirilayotgan zahiralar Markaziy bank tomonidan belgilangan normalar 80 foizi miqdorida foyda solig'i hisoblanganda xarajatlarga kiritiladi.

6. O'quv-tarbiya muassasalariga yoki etim bolalarga va ota-onaqaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga moddiy yordam ko'rsatishga xarajatlar chegiriladigan xarajatlar deb hisoblanadi.

7. Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezidentning soliq to'langandan keyin o'z tasarrufida qoladigan sof foydasi dividendlarga tenglashtiriladi va 10 foiz soliq stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi.

Sof foyda deganda jami daromad va doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq xarajatlar o'rtasidagi farq tushuniladi. Bunda joriy soliq davri uchun sof foyda ayni bir doimiy muassasa doirasida avvalgi soliq davrlarida ko'rilgan zararning

(zararlarning) umumiy summasiga, basharti ilgari bunday zarar (zararlar) sof foydani aniqlashda hisobga olinmagan bo'lsa, kamaytiriladi.

8. Foyda solig'ini hisoblashda ijobiy va salbiy kurs farqlarini aniqlash tartibi belgilanmoqda.

Valyuta qimmatliklari tarzidagi mol-mulkni va qiymati chet valyutasida ifodalangan talab qilish tarzidagi mol-mulkni qo'shimcha baholashda yoki qiymati chet el valyutasida ifodalangan majburiyatlarning qiymatini pasaytirishda yuzaga keladigan kursdagi farq ijobiy farq deb e'tirof etiladi.

Valyuta qimmatliklari tarzidagi mol-mulkning va qiymati chet valyutasida ifodalangan talab qilish tarzidagi mol-mulkning qiymatini pasaytirishda yoki qiymati chet el valyutasida ifodalangan majburiyatlarni qo'shimcha baholashda yuzaga keladigan kursdagi farq salbiy farq deb e'tirof etiladi. Bunda, berilgan (olingan) bo'naklarni qayta baholashdan yuzaga keladigan kursdagi ijobiy (salbiy) farq soliq solish maqsadlarida hisobga olinmaydi.

9. Soliq organlariga agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past bo'lsa aynan qo'shilgan qiymat solig'i kabi foyda solig'i bo'yicha soliq bazasiga tuzatish kiritish huquqi berilmoqda

17-BOB. MOL-MULK SOLIG‘I

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i to‘lovchilari va soliq solish obyekti.

2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi.

3. Yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i to‘lovchilari va soliq solish obyekti.

4. Yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi.

17.1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i to‘lovchilari va soliq solish obyekti

O‘zbekistonda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi bo‘ldi. Mol-mulk solig‘i dastlab, O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida” gi Qonuniga asosan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to‘lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi. Hozirgi vaqtda ushbu soliqning huquqiy asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan me‘yoriy xujjatlar hisoblanadi. O‘zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i to‘g‘ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko‘ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo‘yicha tushumlar summasi to‘liq mahalliy byudjetlarga tushadi va u byudjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad ***birinchidan***, korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va

foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uygʻotish boʻlsa, **ikkinchidan**, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni ragʻbatlantirishdan iborat. Chunki, korxonalarning maʼnaviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilgʻor texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Xoʻjalik yurituvchi subyektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq toʻlashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalaridan qutilishiga undaydi. Bu esa, oʻz navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk soligʻi daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Mulkida uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun moʻljallangan yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlari va qurilishi tugallanmagan yashash uchun moʻljallanmagan obyektlar soliq solish obyekti deb tan olinadigan mol-mulki boʻlgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan holdagi yoki etmagan holdagi dehqon xoʻjaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻining soliq toʻlovchilari (bundan buyon ushbu bobda soliq toʻlovchilar deb yuritiladi) deb eʼtirof etiladi.

Agar mol-mulk mulkdorining joylashgan erini aniqlash imkoni boʻlmasa, shuningdek koʻchmas mulk mulkdori vafot etgan taqdirda, bu mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida boʻlsa, oʻsha shaxs soliq toʻlovchi deb eʼtirof etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulk jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻining (bundan buyon ushbu bobda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyekti hisoblanadi.

1) uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari;

2) tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari;

3) qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlar.

Qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlarga ushbu obyektning qurilishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

4) boshqa imoratlar, binolar va inshootlar.

17.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining kadastr qiymati soliq bazasi hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi qirq ikki million so'mdan kam bo'lishi mumkin emas.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning shartli qiymati Toshkent va Nukus shaharlarida, shuningdek viloyat markazlarida – ushbu bandning ikkinchi qismida ko'rsatilgan summaning besh baravari miqdorida, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa – ikki baravari miqdorida soliq bazasi hisoblanadi.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo'yicha soliq to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq bazasi har bir obyekt bo'yicha alohida hisoblab chiqiladi.

Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi:

1) "O'zbekiston Qahramoni", "Sovet Ittifoqi Qahramoni", "Mehnat Qahramoni" unvonlariga sazovor bo'lgan, uchchala darajadagi "Shuhrat" ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning.

Mazkur imtiyoz tegishincha “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, “Sovet Ittifoqi Qahramoni”, “Mehnat Qahramoni” daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar.

Mazkur imtiyoz urush nogironi (qatnashchisi)ning tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yohud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlar (qatnashchilar)ga esa nogiron (qatnashchi)ning imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yohud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki mayib bo‘lganligi oqibatida yohud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari).

Ushbu imtiyoz “Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” yoki “Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” shtampi qo‘yilgan yohud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi.

Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, soliq imtiyozi ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va harbiy xizmat nazarda tutilgan boshqa idoralarning tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchi-ning yoki ichki ishlar organlari xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma asosida beriladi.

Sobiq SSSR, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yohud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yohud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlari (beva erlari)ga soliq imtiyozi faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

4) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddat.

Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida energiya ta'minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida taqdim etiladi.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi:

1) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining. Mazkur imtiyoz fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) pensionerlar. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

Ko'rsatib o'tilgan soliq imtiyozlariga ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozini olishga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq solish obyekti joylashgan erdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Belgilangan soliq imtiyozlari mulkdorning tanloviga ko'ra faqat bitta yashash uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk obyektiga tatbiq etiladi, bundan ushbu band birinchi qismining 4-bandida ko'rsatilgan shaxslar mustasno.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk soliq stavkalari¹¹⁷

№	Soliq solish obyektlari	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lganlari bundan mustasno), boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,2
2.	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni:	
	200 kv.m dan va 500 kv.m ga qadar bo'lgan	0,25
	500 kv.m dan ortiq bo'lgan	0,35
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,25
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yohud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari	2

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan uy-joylarga nisbatan soliq stavkasi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida mulkning shartli qiymatiga nisbatan ikki baravar miqdorida qo'llaniladi.

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari o'rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan oraliqdagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilashga haqli.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq belgilangan soliq stavkalari bo'yicha to'lanadi.

Normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanadi.

¹¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri) 30.12.2019 yil.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin.

Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'iy nazar, soliq solish obyekti joylashgan erdagi soliq organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq summasi mol-mulkning 1 yanvardagi holatiga ko'ra, bo'lgan kadastr qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir necha mulkdorlarning umumiy ulushli mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq har bir mulkdor tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa, unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq mulk huquqi yuzaga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun soliq merosxo'rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan taqdirda, soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran tugatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga imzo qo'ydirilgan holda yoki to'lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1 martdan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq davri uchun soliqni to'lash teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktyabrga qadar amalga oshiriladi.

6.3.Yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to'lovchilari deb quyidagilar aytiladi:

1) O'zbekiston Respublikasi hududida ko'chmas mulkga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O'zbekiston Respublikasi hududida ko'chmas mulkka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar.

Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan erini aniqlashning imkoni bo'lmasa, ushbu mulkka egalik qiluvchi va (yoki) undan foydalanuvchi shaxs soliq to'lovchi hisoblanadi.

Agar yuridik shaxs ko'chmas mulkni moliyaviy ijara (lizing)ga olgan bo'lsa, u ham soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi. Ko'chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko'chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlar;

2) qurilishi tugallanmagan obyektlar. Qurilishi tugallanmagan obyektlarga qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsat-

nomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

3) temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

4) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk obyektlari, ko'chmas mulk obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o'tgach.

Quyidagi ko'chmas mulk obyektlari soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyatini amalga oshirish doirasida foydalaniladigan obyektlar;

2) turar joy-kommunal xo'jaligining va belgilangan maqsadi bo'yicha foydalaniladigan boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi obyektlari. Turar joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari obyektlari jumlasiga shaharlar va shaharchalarni sanitariya tozalash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish obyektlari, tashqi yoritish, kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun va aholiga vodoprovod (suv olish va tozalash inshootlari bilan), kanalizatsiya (tozalash inshootlari bilan), gaz, qozonxonalar va issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlar (ularning inshootlari bilan), shuningdek turar joy-kommunal xo'jaligi obyektlariga texnik jihatdan xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash uchun mo'ljallangan binolar kiradi;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari;

4) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari;

5) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlar;

6) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar. Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar jumlasiga kiritish tegishli ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yoki yong'in xavfsizligi organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

7) yer uchastkalari.

17.4. Yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solish bazasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) bino va inshootlar bo'yicha – o'rtacha yillik qoldiq qiymati.

Ko'chmas mulkning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Bunda to'liq amortizatsiya qilingan bino bo'yicha uning uch yilda kamida bir marta aniqlanadigan qayta baholangan (bozor) qiymati soliq bazasidir;

2) qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha – tugallanmagan qurilishning o'rtacha yillik qiymati;

3) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk obyektlar bo'yicha – mazkur obyektlarning o'rtacha yillik qiymati (realizatsiya qilinmagan qismi bo'yicha).

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan soliq bazasi ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymatidir.

Soliq solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

$$\begin{array}{l} \text{O'rtacha yillik} \quad 31 \text{ yanvar} \quad + \quad 28(29) \text{ fevral} \quad + \quad \dots \quad + \quad 30 \text{ noyabr} \quad + \quad 31 \text{ dekabr} \\ \text{qiymat} \quad \quad \quad = \text{-----} \end{array}$$

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha soliq bazasi mazkur obyektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Soliq bazasi har bir soliq solish obyekti bo'yicha alohida aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan soliqni to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritishning imkoni bo'lmasa, soliq bazasi soliq to'lanishi nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning jami sof tushum hajmidagi ulushiga qarab aniqlanadi.

Soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot obyektlari;

2) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va saqlash uchun, shuningdek ipak qurti etishtirish uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulk.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulk solig'idan ozod qilinadi:

1) yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;

2) qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar, ular foydalanishga joriy etilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi 2020 yil uchun 2 foiz miqdorida belgilangan bo'lib, ushbu soliq stavkasi yil yakunida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek, qurilishi normativ muddatda tugallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanadi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek tugallanmagan qurilish obyektlariga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin hamda soliq kodeksida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari ularga tatbiq etilmaydi.

Soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,2 foiz miqdorida belgilanadi:

1) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

2) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi. Soliq to'lovchilar soliqni aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq hisoboti soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan esa soliq hisoboti davridan keyingi yilning **15 fevraliga** qadar bo'lgan muddatda taqdim etiladi.

Agar ko'chmas mulk, temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlardan tashqari, soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, soliq hisoboti ko'chmas mulk joylashgan erdagi soliq organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar (bundan O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar mustasno) soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi.

Bo‘nak to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e‘tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay soliq organlariga mo‘ljallanayotgan soliq bazasidan (tegishli yil uchun mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (o‘rtacha yillik qiymati)dan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo‘yicha majburiyatlari soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to‘lovchilar soliq summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e‘tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Bo‘nak to‘lovini to‘lovchilar uchun hisoblab chiqarilgan bo‘nak to‘lovlar quyidagicha to‘lanadi:

aylanmadan soliq to‘lovchilar tomonidan – yillik soliq summasining to‘rt dan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 10-kunidan kechiktirmay;

aylanmadan soliq to‘lovchilar hisoblanmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan – yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo‘ljallanayotgan soliq bazasi o‘zgargan taqdirda soliq to‘lovchi soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma‘lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo‘nak to‘lovlarga soliqning o‘zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi, bo‘nak to‘lovlar hisobga olingan holda, soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o‘tkaziladi.

Soliq davrida soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar summasi soliq hisobotida ko‘rsatilgan byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo‘nak to‘lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan soliq har yili

bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasining 30.12.2021 yildagi O'RQ-742-son 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha:

1. Soliq to'lovchilar ro'yxati, shuningdek yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va to'lash tartibi saqlanib qolinmoqda.

Mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarishda bino va inshootlar bo'yicha soliq bazasi (liniyali obyektlar va tugallanmagan qurilish obyektlari bundan mustasno) bu obyektlarga 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatdan past bo'lishi mumkin emasligi bo'yicha quyidagi miqdordagi tartibkiritilmoqda:

Toshkent shahrida – ikki million besh yuz ming so'm;

Nukus shahrida va viloyat markazlarida – bir million besh yuz ming so'm; boshqa shaharlarda va qishloq joylarda – bir million so'm.

Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari belgilangan minimal qiymatga, tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 0,5 gacha bo'lgan kamaytiruvchi koeffitsient kiritishi mumkin.

Agar obyektning 1 kv. metri qiymati belgilangan minimal qiymatdan past bo'lsa, soliq to'lovchi ko'chmas mulk obyektlari qiymatini mustaqil baholashni amalga oshirish uchun baholovchilarni jalb etishga haqli. Bunda mustaqil baholash natijalari soliq bazasi sifatida e'tirof etiladi.

Agar baholash natijalari qiymati 1 kv.metr uchun belgilangan minimal qiymatdan ko'p bo'lib chiqsa, ushbu holda soliq to'lovchilar soliqni hisoblab chiqish maqsadida, 1 kv.metr uchun belgilangan minimal qiymatni qo'llash huquqiga ega.

Soliq to'lovchilarga quyidagi huquqlar beriladi:

a) 2022 yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani 2022 yil 1 fevralga qadar ko'chmas mulk obyektlariga 1 kv.metr minimal qiymat miqdorini hisobga olmagan holda, 2022 yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi

aniqlashtirilgan ma'lumotnomani 2022 yil 1 aprelga qadar, penya hisoblash ko'rinishidagi javobgarlik chorasini qo'llamasdan taqdim etish. Shuningdek, soliqning bir qismini to'lash ham 2022 yilning 1 fevraliga qadar amalga oshiriladi.

Bunda, soliq to'lovchilar 2022 yil 1 fevralga qadar kadastr organlari bilan ko'chmas mulk obyektlari maydonlarini taqqoslashni amalga oshirish, shuningdek ko'chmas mulk obyektlarini mustaqil baholash o'tkazish rejalashtirilganligi to'g'risida soliq organlarini xabardor qilishlari shart;

b) 1 kv. metr obyektning qiymati belgilangan minimal qiymatdan kam bo'lgan taqdirda, ko'chmas mulk qiymatini 2022 yil 1 oktyabrga qadar mustaqil baholashni o'tkazish, 2022 yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnomani, shuningdek mustaqil baholash natijalarini mustaqil baholash yakunlangandan keyin 30 kun davomida soliq organlariga taqdim etish.

2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2 foizdan 1,5 foizga pasaytirilmoqda. Shuningdek, normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektlariga nisbatan soliq stavkasi 4 foizdan 3 foizga kamaytirilmoqda.

Yuridik shaxslar uchun pasaytirilgan soliq stavkasini bazaviy soliq stavkasiga bosqichma-bosqich yetkazish davom etmoqda. Buning uchun Soliq kodeksining 415-moddasi to'rtinchi qismida nazarda tutilgan obyektlarga nisbatan belgilangan pasaytirilgan soliq stavkasi 0,4 foizdan 0,5 foizgacha oshirilmoqda. Yuridik shaxslar uchun pasaytirilgan soliq stavkasi avval soliq imtiyozlari berilgan obyektlarga nisbatan 2020 yil 1 yanvardan kiritilgan.

3. Qonun hujjatlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga nisbatan oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sirchan choralar qo'llanilishi mumkin bo'lgan obyektlarni soliqqa tortish tartibi saqlanib qolinmoqda. Bunda, ushbu obyektlarga Soliq kodeksining 414-moddasida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydi.

4. Yangi neft va gaz quduqlarini, ularni foydalanishga topshirilgan oydan boshlab, dastlabki ikki yil davomida yuridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliqdan ozod etilishi nazarda tutilmoqda. Ushbu soliq imtiyoz amal qilish muddati

yakunlangandan keyingi uch yil davomida mazkur quduqlarga nisbatan belgilangan soliq stavkasining 50 foizga kamaytirilgan stavkasi qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining 30.12.2021 yildagi O'RQ-742-son 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soliqni hisoblash va to'lash tartibi saqlanib qolinmoqda.

2. Turar joy fondi obyektlariga, shuningdek ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylariga 2021 yilda amal qilgan soliq stavkalari 1,1 baravarga indeksatsiya qilinmoqda. Bunga jismoniy shaxslar uchun ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar tomonidan 2018 yilda belgilangan soliq solish obyektlarining (soliq bazasining) kadastr qiymatining miqdori saqlab qolingani sabab bo'lmoqda.

2022 yilda jismoniy shaxslar uchun 2018 yilda belgilangan kadastr qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblangan soliq miqdori, 2021 yil uchun hisoblangan soliq miqdoridan 1,3 baravardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

3. Tadbirkorlik faoliyati uchun yohud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish tartibi ushbu obyektlarga yuridik shaxslar uchun belgilangan mol-mulk solig'ini qo'llagan holda (1,5 foiz) saqlanib qolinmoqda.

4. Qonun hujjatlari bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan oshirilgan soliq stavkalarini o'rnatish yo'li bilan ta'sir choralari ko'rilishi mumkin bo'lgan obyektlarni soliqqa tortish tartibi saqlab qolinmoqda.

5. Etim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan ozod etish nazarda tutilmoqda. Ushbu imtiyoz etim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ular yigirma uch yoshga to'lgunga qadar davlat tomonidan ajratilgan turar-joy xonalariga tatbiq etiladi.

Bu dunyoda, birgina, soliq va o'limdan qochib qutilib bo'lmaydi.

Benjamin Franklin.

18-BOB. YER SOLIG'I

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi.

3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti.

4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi.

18.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti

O'zbekistonda 1990 yilda "Yer to'g'risida" qonun qabul qilindi va ushbu qonunga ko'ra erga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilandi hamda yer uchun haq yillik yer solig'i sifatida undiriladigan bo'ldi.

1991 yilda "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida", 1993 yilda "Yer solig'i to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, unda yer solig'ini undirishda soliqqa tortish obyekti, subyektlari, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartiblari ko'rsatib berildi. 2020 yilda "Soliq kodeksi"ning yangilanishi hamda 2020 yil 01 yanvardan yangi tahrirdagi soliq kodeksining kuchga kiritilishi bilan yer solig'ining to'laqonli huquqiy asoslari yaratildi. Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Yer solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va erdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Demak, ushbu soliqning joriy etilishidan maqsad – yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish,

tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infratuzilma rivojlanishini ta'minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik eng asosiy maqsad hisoblanadi.

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara to'lovi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imoratlar va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlarini inobatga olgan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Quyidagi yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i-ning soliq solish obyektidir:

1) dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib sotib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmaydi, bundan ushbu band birinchi qismining 7-bandida ko'rsatilganlar va ko'p kvartirali uylarda joylashgan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari mustasno.

18.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari bo'yicha yer uchastkalarining maydoni **soliq bazasidir.**

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari bo'yicha soliq bazasi ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yer maydonlari bo'yicha soliq bazasi o'z xodimlariga yer uchastkalarini bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'idan quyidagilar ozod qilinadi:

1) "O'zbekiston Qahramoni", "Sovet Ittifoqi Qahramoni", "Mehnat Qahramoni" unvonlariga sazovor bo'lgan, uchchala darajadagi "Shuhrat" ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, "Sovet Ittifoqi Qahramoni" va "Mehnat Qahramoni" daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironi

(qatnashchisi)ning tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yohud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlar (qatnashchilar)ga esa nogiron (qatnashchi)ning imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

4) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yohud nogiron bolasi bilan birga alohida uyda yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi, shuningdek fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan) fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironligi bo'lgan shaxsning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

7) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar – qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddat.

Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida energiya ta'minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida beriladi.

Yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organda ro'yxatdan o'tkazgan jismoniy shaxslarga beriladi. Bunda mazkur soliq imtiyozlari soliq to'lovchining tanlovi bo'yicha faqat bitta yer uchastkasiga berilishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan soliq imtiyozlariga ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Soliq stavkalari 1 kv.m uchun mutlaq miqdorlarda belgilanadi. Soliq stavkalarining aniq miqdori O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan belgilanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining ahamiyatli tomoni shundan iboratki, ushbu soliq jismoniy shaxslarning daromad ko'rish yoki zarar ko'rishidan qat'iy nazar hisob-kitob qilib byudjetga to'lanishidadir.

Hududlar va faoliyat amalga oshiriladigan joyning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilash huquqiga ega.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yohud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo'yicha undiriladi hamda soliq kodeksning 436-moddasida ko'rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek normativ muddatida qurilishi tugallanmagan obyektlar joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo'yicha to'lanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq uch baravar miqdorda to'lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yohud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida belgilanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari har yili 1 martdan kechiktirmay soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasini jismoniy shaxslarga imzo qo'ydirib yoki to'lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshiradi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquq yuzaga kelganda (tugatilganda) soliq organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida soliqni qayta hisob-kitob qilishi hamda soliq to'lovchiga soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishi kerak.

Soliq to'lash tartibi. Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e'tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran tugatiladi (kamaytiriladi).

Soliq bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Soliq bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, bu soliq mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan e'tiboran to'lanish boshlaydi.

Soliq davri uchun soliqni to'lash jismoniy shaxslar tomonidan 15 aprel va 15 oktyabrga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

18.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara to'lovi tarzda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara to'lovi yer solig'iga tenglashiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig'i to'laydi.

Soliq to'lovchilar-mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi. Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (lizing) berilgan (olingan) ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha ijaraga oluvchi (lizing oluvchi) soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Soliq solish obyekti-mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solish obyektidir.

Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyekti sifatida hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;

2) aholi punktlarining, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, shahobcha yo'llar, sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi umumiy foydalanishdagi yerlar);

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, istirohat bog'lari, sayilgohlar, xiyobonlar, dam olish uylari, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

5) davlat qo'riqxonalar, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalar, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, buyurtma qo'riqxonalar (bundan ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklar, davlat biosfera rezervatlari va milliy bog'larning yerlari;

6) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros obyektlari, xotira bogʻlari egallagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stantsiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida boʻlgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yigʻish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) koʻp kvartirali uylar egallagan yerlar, bundan yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;

13) suv fondi;

14) zahiralar.

Agar aholi punktlarining, bogʻdorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi yer uchastkalaridan xoʻjalik faoliyatini yuritish uchun foydalanilsa, ular belgilangan tartibda soliq solish obyekti hisoblanadi.

18.4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻining soliq bazasidir:

qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar boʻyicha – soliq kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni;

qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha – soliq kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari

chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymati, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa – yer uchastkasining umumiy maydoni.

Yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, soliq bazasi yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq bazasi yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda soliq imtiyoziga bo'lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq bekor qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq tugatilganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

Soliq to'lovchi soliq to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkasi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmaganda, soliq bazasi soliqni to'lash nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy sof tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq imtiyozlari. Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati 0,1 MVt va ko'proq) uskunalari egallagan yer uchastkalari bo'yicha ular ishga tushirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga soliqdan ozod etiladi.

Yuridik shaxslarning soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish obyektlari egallagan yerlar;

sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stantsiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari (magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stantsiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minora-lar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar);

magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamay-tiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stantsiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmon-larning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sochadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; erozziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlar-ning temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari; cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar; shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonolari atrofidagi o'rmonlar; suv ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o'rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar;

tomchilatib sug'orish qo'llaniladigan yerlar – tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan oyning boshidan e'tiboran besh yil muddatga;

qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar – vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o'zlashtirish ishlari bajarila-digan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar – vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'iy nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tqazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan soliq imtiyozi muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tqazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

ilmiy tashkilotlarning, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'lgan yerlar va o'rmon fondining yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Ushbu belgilangan soliq imtiyozlari belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq stavkalari. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha soliq stavkalari 1 gektar uchun mutlaq miqdorda belgilanadi. Soliq stavkalarining aniq miqdori O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan belgilanadi.

Yer uchastkalarigacha bo'lgan masofa shahar va tuman markazlarining ma'muriy chegarasidan boshlab avtomobil yo'llari bo'ylab aniqlanadi. Yer uchastkasi ikki shaharga yaqin joylashgan hollarda, shaharning yuqoriroq funktsional maqsadiga mos keluvchi koeffitsient qabul qilinadi.

2. Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'i hisoblanganda 3-jadvalda keltirilgan stavkalarga urning hosildorligi bilan bog'liq ravishda koeffitsientlar

qo'llaniladi: tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lganda - 0,75, 41 dan 70 ballgacha - 1,0 va 70 balldan yuqori bo'lganda - 1,25.

1 va 2-bandlarda ko'rsatilgan koeffitsientlar tegishli soliq organlari tomonidan taqdim etiladigan yer uchastkalaridan foydalanish huquqini ro'yxatga oluvchi davlat organlarining ma'lumotlariga asosan qo'llaniladi.

3. Shaharlar va posyolkalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan konlar va karyerlar bilan band yerlar uchun soliq mos hududlar uchun stavkalarga 0,1 koeffitsient qo'llagan holda to'lanadi.

4. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun taqdim etilgan yer uchastkalari uchun soliq yuridik shaxslar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

5. Jamoa va yakka garajlar bilan band yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan yer solig'i yakka uy-joylar qurilishi uchun ajratilgan yer uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

6. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblashda 1-jadvalda ko'rsatilgan bazaviy stavkalar belgilangan normalar doirasidagi yerlarga, belgilangan normalardan ortiq bo'lgan yer uchastkalari uchun esa bazaviy stavkalarga - 1,5 oshirish koeffitsienti qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash uchun yer uchastkalarining quyidagi normativlar qo'llaniladi:

Toshkent shahri, Nukus shahri, va viloyatga bo'ysunadigan shaharlar - 0,06 gektar;

boshqa aholi punktlari (dehqon xo'jaliklari bundan mustasno) - 0,1 gektar.

7. Ko'p qavatli turar-joy binolaridagi turar-joy bo'lmagan xonalar uchun yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i turar-joy bo'lmagan binolarning maydoni qavatlar soniga qarab hisoblanadi.

8. Qurilishi tugallanmagan obyektlar joylashgan yer uchastkalari uchun, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i ikki barobari miqdorida to'lanadi.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar bo'yicha soliq stavkalari qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa – 1 gektar uchun mutlaq miqdorda belgilanadi.

Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,1 koeffitsient qo'llaniladi:

yagona ishtirokchilari nogironlarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etadigan hamda nogironlarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar egallagan yerlar;

elektr uzatish liniyalari, ularning podstantsiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, erga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'l stantsiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stantsiyalari, yong'inga qarshi va avariya qarshi stantsiyalar, quvurlarni katodli himoyalash stantsiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, quvurlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar band etgan yerlar;

samolyotlarning uchish-qo‘nish maydonlari, yerda boshqarish yo‘lkalari va to‘xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalari egallagan yerlar;

O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar – qurilishning normativ muddati davrida;

konservatsiyaga qo‘yilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar – ularning konservatsiyasi davrida.

Ushbu bandning uchinchi qismi yuridik shaxslarga belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkalariga tatbiq etiladi.

Yer uchastkasi mulkdori, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, soliq yuridik shaxslar tomonidan yerning sifati yomonlashguniga qadar mavjud bo‘lgan bonitent balidan kelib chiqqan holda to‘lanadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yaxshilangan taqdirda (bonitet bali oshganda), soliq yuridik shaxslar tomonidan tuproq bonitirovkasi o‘tkazilgan yildan keyingi yilning boshidan yangi bonitet balidan kelib chiqqan holda, qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymati bo‘yicha, agrotexnik tadbirlar tugagan davrlarda qayta hisob-kitob qilinmasdan to‘lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma‘muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliq qishloq xo‘jaligi yerlari uchun belgilangan soliq stavkalarining ikki baravari miqdorida to‘lanadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar egallagan yer uchastkalari uchun, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq ikki baravar soliq stavkalari bo‘yicha to‘lanadi.

Bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin hamda soliq kodeksning 428-moddasida ko‘rsatilgan soliq imtiyozlari ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga ushbu qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektlarning qurilishiga vakolatli bo'lgan organing ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi.

Yer maydonlaridan hujjatlarsiz yohud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining to'rt baravari miqdorida belgilanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi. Soliq har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va soliq hisoboti yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga quyidagi muddatlarga taqdim etiladi:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha – joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha – joriy soliq davrining 1 mayiga qadar.

Soliq to'lovchilar soliqni soliq kodeksning 427-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq bazasi (hisoblab chiqarilgan soliq summasi) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinzorlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlari bo'yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

Soliq kodeks 426-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan obyektlar joylashgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar mazkur obyektlarning joylashgan eri bo'yicha soliq organlariga soliq solish obyekti hisoblanmaydigan, yuridik shaxsda mavjud bo'lgan yer uchast-

kalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnomani taqdim etadi.

Soliqni to'lash tartibi. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

aylanmadan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha;

aylanmadan soliq to'lovchi bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha.

Soliq davri davomida soliq to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

-hisobot yilining 1 sentyabriga qadar – yillik soliq summasining 30 foizi;

-hisobot yilining 1 dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi.

O'zbekiston Respublikasining 30.12.2021 yildagi O'RQ-742-son 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, yer solig'i bo'yicha:

1. Yuridik va jismoniy shaxslardan yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi, shuningdek qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorida belgilangan soliq stavkasi saqlab qolinmoqda.

2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun 2021 yilda amalda bo'lgan yer solig'ining bazaviy stavkalari o'rtacha 1,07 baravarga indeksatsiya qilinmoqda. Bunda soliq stavkalarining aniq miqdorini mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan bazaviy stavkalar asosida tumanning iqtisodiy rivojlanishi va nufuzidan kelib chiqib oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda aniqlash tartibi saqlab qolinmoqda.

3. Soliq yukining keskin oshishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, 2022 yilda jismoniy shaxslar (tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalaridan

tashqari) uchun hisoblangan soliq summasi 2021 yilda hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi belgilandi.

4. Pasaytirilgan soliq stavkasini bazaviy soliq stavkasiga bosqichma-bosqich yetkazish davom etmoqda. Buning uchun Soliq kodeksining 429- moddasida nazarda tutilgan yuridik shaxslarning alohida obyektlar bilan band bo'lgan yer uchastkalari uchun soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan pasaytiruvchi koeffitsient 0,25 dan 0,3 gacha oshirilmoqda. Yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalaridan iborat bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan ushbu toifadagi soliq to'lovchilar uchun soliq yukini 2021 yil darajasida saqlab qolish maqsadida, yer solig'i stavkasiga 0,25 koeffitsienti saqlab qolinmoqda. Liniyalı obyektlarga nisbatan (Soliq kodeksining 429-moddasi oltinchi qismi-ning ikkinchi-beshinchi xatboshilari) respublikaning har bir tumani va shahri bo'yicha o'rtacha belgilangan soliq stavkasiga 0,3 koeffitsienti qo'llaniladi.

5. Qonun hujjatlarida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'iga nisbatan oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin bo'lgan obyektlarni soliqqa tortish tartibi saqlanib qolinmoqda. Bunda, ushbu yer uchastkalariga Soliq kodeksining 428-moddasidako'rsatilgan soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydi.

6. Geologiya-qidiruv va (yoki) qidiruv ishlari uchun ajratilgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i soliq solish obyektidan chiqarib tashlanmoqda.

7. Soliq to'lovchilarga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yer solig'i bo'yicha joriy soliq davri uchun soliq hisobotlarini 2022 yil 1 fevralga qadar taqdim etish huquqi berilmoqda. Bunda, ushbu soliqni to'lash, aylanmadan soliq to'lovchilar toifasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan yillik summaning o'n ikkidan bir qismi miqdorida 2022 yilning 20 yanvariga qadar amalga oshiriladi.

Qo'shinni saqlash va boshqa davlat xarajatlarini qoplash uchun zarur mablag'ni qaerdan olamiz? Buni sizga tushuntiraman, lekin avvalo shuni alohida ta'kidlashni istardimki, bizda demokratiya bo'lsa ham davlat byudjeti uchun baribir pul kerak bo'ladi. Chunonchi, davlat harbiy qo'shinsiz mavjud bo'la olmaydi va pul mablag'larisiz biz qo'shinni ushlab tura olmaymiz. Shu tariqa, soliqqa tortish birgina monarxiyaga xos emas, boshqaruvning har qanday shakli soliq yig'ishni talab qiladi... Biz o'z egasiga foyda keltiruvchi har qanday mol-mulkka soliq joriy qilishimiz va buni imperiyaning barcha joylarida qo'llashimiz lozim. Zero, hech bir shaxs va hech bir hudud soliqlardan holi bo'lmasligi to'g'ri hisoblanadi, ular o'zlari ham, boshqalar kabi, davlat soliq yig'ish orqali hammaga taqdim etayotgan imtiyozlardan birdek foydalanadilar.

Imperator Oktavian Avgustning maslahatchisi Agrippa (e.av.63–12 yy.)

19-BOB. AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ VA UNING MOHIYATI

- 1. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.**
- 2. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish obyekti va bazasi.**
- 3. Soliq to'lovchilari va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi.**

19.1. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq davrida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lash o'rniga aylanmadan olinadigan soliq to'lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.

Ushbu soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tishi to'g'risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o'n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

Soliq davrida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq davrida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshganda, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tadi.

Ushbu yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to'lash o'rniga qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tishga haqli. Soliq solish tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so'mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda bildirishnoma yuboradi.

Bildirishnoma tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so'mdan oshgan sanadan besh kun muddatda taqdim etilmaganda yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan olinadigan soliq to'laydi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish chog'ida tanlangan soliq solish tartibini ko'rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to'lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashni soliq kodeksning 237-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun va bir vaqtning o'zida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasi boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.

Qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tgan soliq to'lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo'yicha tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so'mdan oshmagan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga kamida o'n ikki oydan keyin qayta o'tishga haqli.

Soliq davri davomida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish ro'y bergan oydan keyingi oyning birinchi sanasi boshlab qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar, 365 ga bo'lingan va ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar bo'lgan kunlar soniga ko'paytirilganda bir milliard so'mga teng summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro'yxatdan o'tilgan yildan keyingi yildan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi soliq to'lovchilar, shu jumladan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadni realizatsiya qilish bo'yicha umumiy aylanma (bitim summalari)dan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslar, ularni samarasiz foydalanayotganligi bo'yicha xulosa kiritilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo'lgan yuridik shaxslar, investitsion loyihaning amalga oshirilmaganligi to'g'risida xulosa berishga vakolati bo'lgan vakolatli organning xulosasi chiqarilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan obyektlar qurilishini (bundan joriy va kapital ta'mirlash mustasno) bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma rasmiylashtirilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Soliqni to'lash soliq to'lovchini quyidagilardan ozod etmaydi:

soliq kodeks bilan uning zimmasiga yuklatilgan soliq agentining majburiyatlarini bajarishdan;

agar soliq kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, hisobvaraqa-faktura taqdim etish, xaridlarni hisobga olish kitobini va sotishlarni hisobga olish kitobini yuritish majburiyatidan.

O'zbekistonda 2005 yildan buyon amalda bo'lgan yagona soliq to'lovi o'rniga 2020 yildan boshlab aylanmadan olinadigan soliq joriy qilindi.

19.2. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish obyekti va bazasi

Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish obyekti- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan daromadlari soliq solish obyekti.

Soliq solish maqsadida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

-qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan xizmatlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bajarilgan hamda tasdiqlangan xizmatlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi daromadi sifatida belgilanadi;

-mol-mulkni moliyaviy ijara (lizing)ga beruvchi yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

-vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

-tovarlar (xizmatlar)ni tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun -tovarlar (xizmatlar)ning tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog'liq

xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlar (xizmatlar)ga nisbatan tatbiq etilmaydi;

-notijorat tashkilotlarining soliq kodeks 318-moddasining birinchi qismida ko'rsatilmagan daromadlari.

Soliq solish obyekti bo'lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlar (xizmatlar)ni quyidagilarga:

a) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yohud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirilganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo'lgan emitent tomonidan aktsiyadordan ushbu emitent chiqargan aktsiyalar qaytarib sotib olinganda aktsiyadorga berish;

v) yuridik shaxs tugatilganda aktsiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

2) tovarlar (xizmatlar)ni jismoniy shaxs mehnatiga haq to'lash hisobidan yoki dividend to'lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va (yoki) mulk qayta ishlash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

4) ko'p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo'lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda yetkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa, berish.

Tovarlar (xizmatlar)ni olish huquqini taqdim etuvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish deb e'tirof etiladi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha daromadlar Soliq kodeksning 303-moddasida nazarda tutilgan tartibda jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Balansning valyuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyekti deb e'tirof etiladi. Kursdagi

salbiy farqning summasi kursdagi ijobiy farq summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytirmaydi.

Soliq to'lovchilar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yohud qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lash davrida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tguniga qadar olingan daromadlar jami daromadga kiritilmaydi.

Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish bazasi- soliq solish obyektiga muvofiq hisoblab chiqarilgan jami daromad soliq bazasi deb e'tirof etiladi, bundan quyidagilar mustasno:

1) O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo'yicha daromadlar;

2) soliq agentida soliq solinishi lozim bo'lgan dividendlar;

3) qaytariladigan ko'p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlar (xizmatlar)ni sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo'lsa;

4) amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tugatishda ularni qo'shimcha baholashda olingan, oldingi narxni tushirishlardagi summadan ortiqcha summa hisobidan olingan daromadlar;

5) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromatlarga ular shakllangan davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazilganligi inobatga olingan holda soliq solinadi;

6) tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishdan olingan daromadlar, agar tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishdan olingan daromadlar umumiy daromadning 15 foizidan ko'prog'ini tashkil etsa.

Soliq solinadigan baza ushbu bandning birinchi qismida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasi;

2) komissiya shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga realizatsiya qilingan tovar ulushi;

3) turizm faoliyati subyektlari uchun – turistik xizmatlarni onlayn bronlash-tirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo'naltirilgan mablag'lar summasi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasi bo'lib soliq solish obyektiga muvofiq hisoblab chiqilgan, uning tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan jami daromadi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs o'z tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni tuzishda o'zining yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat ko'rsatayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish holatining o'zidan yaqqol kelib chiqmasa, ko'rsatishi shart.

Soliq solishda yakka tartibdagi tadbirkorning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan, uning tadbirkorlikni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkini sotishdan olingan daromadlari hisobga olinmaydi.

Daromadlarga tuzatish kiritish. Hisobot soliq davrida soliq bazasini ko'paytirish yoki kamaytirish daromadlarga tuzatish kiritish deb e'tirof etiladi.

Daromadlarga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;
- 3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovlardan foydalanganda;
- 4) ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Ushbu bandning birinchi qismida nazarda tutilgan daromadlarga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Daromadlarga tuzatish kiritishda tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovar

(xizmatlar)ni sotuvchi tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadga tuzatish kiritishni soliq kodeksning 257-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Daromadlarga bitim shartlari o'zgargan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Daromadlarga tuzatish kiritish soliq to'lovchi umumbelgilangan soliq solish tartibidan aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tgan hollarda ham amalga oshiriladi, bundan tuzatish kiritiladigan daromadlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llash hollari mustasno.

19.3. Soliq to'lovchilari va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi

Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar deb quyidagilarga aytiladi:

1) soliq davrida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) soliq davrida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirish (import)ni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2) Aksiz solig'i to'lanadigan tovarlar (xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

3) yuridik shaxslar – qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, basharti ularda ellik gektar va undan ortiq sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydoni mavjud bo'lsa;

4) benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

5) lotoreyalarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

6) oddiy shirkat ishlarini yuritish o'z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo'yicha;

7) bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslar, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi bo'yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

8) markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan obyektlarni (joriy va kapital ta'mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslar.

Alohida-alohida hisob yuritish. Turli soliq solish obyektlari va (yoki) soliq stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanadigan soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliqni to'lashi shart.

Alohida-alohida hisob yuritish qoidalari chakana savdo sohasidagi mustaqil yuridik shaxs bo'lmagan turli aholi punktlarida joylashgan bir qancha savdo nuqtalariga ega soliq to'lovchilarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Soliq kodeksi 297-moddasi uchinchi qismining 4, 5, 6, 10, 11, 12, 13, 14, 17, 18, 21, 22, 23, 25 va 27-bandlarida ko'rsatilgan daromadlarga, shuningdek foizlar tarzidagi daromadlarga soliq to'lovchining hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha umumiy jami daromadlaridagi ulushi ustunlik qiladigan faoliyat turi uchun belgilangan soliq stavkalari bo'yicha soliq solinadi.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi. Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq to'lovchi tomonidan mustaqil aniqlanadi.

Agar ushbu bandeda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, hisobot davri yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq davri boshidan ortib boruvchi yakun bilan soliq bazasining mos soliq stavkasiga foiz ulushi sifatida hisoblab chiqariladi. Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga

quyidagi muddatlarda taqdim etiladi: 1) hisobot davri yakunlari bo'yicha – hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay; 2) soliq davri yakunlari bo'yicha – soliq davridan keyingi davrning 15 fevralidan kechiktirmay. Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliqni to'lash tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 30.12.2021 yildagi O'RQ-742-son 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha:

1. aylanmadan olinadigan soliqning soliq to'lovchilari safi, soliqstavkalari hamda soliqni hisoblash tartibi saqlab qolinmoqda.

2. amalda har choraklik bo'lgan soliq hisoboti davri har oylikka o'tkazilmoqda.

3. qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lashga o'tish tartibi aniqlashtirilmoqda:

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar qaysi sana oldinroq kelishiga qarab, ular import shartnomasi tuzilgan yoki tovarlarni olib kiritilgan (import qilingan) sanadan boshlab;

Aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va (yoki) foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, lotoreyalarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, alkohol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shoxobchalari va soliq maslahatchilari tegishli ruxsatnomalar (litsenziyalar)ni olgan yoki faoliyatini boshlaganligi to'g'risida vakolatli organi xabardor qilgan sanadan boshlab;

yuridik shaxslar - qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, bosharti ularda yigirma besh gektar va undan ortiq sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydoni mavjud bo'lsa, ko'rsatilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq yoki uning maydoni o'zgarganligini tasdiqlovchi hujjatlar ro'yxatga olingan sanadan boshlab;

oddiy shirkat ishlarini yuritish o'z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga – oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo'yicha oddiy sheriklik shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab;

bozorlar va savdo komplekslari, notijorat tashkilotlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan, byudjet tashkilotlari esa tashkil topgan sanadan e'tiboran to'lashga o'tadi.

4. Soliq organlariga, agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliqbo'yicha soliq bazasiga tuzatish kiritish huquqi berilmoqda, aynan qo'shilganqiymat solig'idagidek.

20-BOB. RESURS SOLIQLARI VA ULARNING MOHIYATI

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish obyekti va bazasi.

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq stavkasi va uni hisoblash.

3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish obyekti va bazasi.

4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq stavkasi va uni hisoblash.

20.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish obyekti va bazasi

O'zbekiston sharoitida suv qadrlil hisoblanadi. Chunki, respublikamizda qishloq ho'jaligi asosan sug'oriladigan yerlardan iborat. Suv har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi.

1998 yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar "suv uchun to'lov" to'lashar edi. Iste'molchilarning suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra 1998 yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. 2020 yilda Davlat byudjetiga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumi 15340,2 mlrd.so'm tushishi prognozlashtirilgan bo'lib¹¹⁸, bu byudjet daromadlarining 15,6 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda 1024-sonli qaroriga asosan ushbu soliq tushumi mahalliy byudjetlarning Davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida to'liq miqdorda mahalliy byudjetlar daromadiga

¹¹⁸ O'zbekiston Respublikasining Qonuni 589-sonli. 09.12.2019 yil.

o'tkazildi. Hozirda ham ya'ni, 2020 yilda ham ushbu soliq turi bo'yicha tushadigan mablag'lar mahalliy byudjetga tushumlarning asosiylaridan biri hisoblanib kelmoqda.

Soliq solish obyekti - Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir.

Yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer yuzidagi boshqa havzalar va shuningdek, turli xil kanallar va hovuzlar kiradi.

Yer osti manbalariga artizan quduq va skvajinalar, vertikal va gorizantal zovur tarmoqlari kiradi.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi:

1) notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan suv resurslari;

2) sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

3) atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olingan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida chiqarib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qayta quyiladigan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

5) gidroelektrostantsiyalar gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv resurslari;

6) issiqlik elektr stantsiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv resurslari;

7) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho'rlarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslari.

Soliq bazasini aniqlash tartibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va soliq stavkasini qo'llash uchun soliq bazasini aniqlash lozim bo'ladi. Soliq kodeksining 443-moddasida foydalanilgan suvning hajmi soliq bazasi bo'lib hisoblanishi belgilab berilgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, tadbirkorlik faoliyatida yer usti va yer osti suv resurrlaridan foydalanilganda sarflangan suvning hajmi soliq solish bazasi bo'lib hisoblanadi.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (dastlabki) hisobi hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblari ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suvni iste'mol qilishning texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda yashil daraxtzorlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilganda, soliq bazasi manbaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi. Suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga joriy soliq davrining 15 yanvariga qadar taqdim etishi kerak. Soliq organlari uch kun ichida ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazishi lozim.

Issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Binolarning bir qismi, alohida inshootlar ijaraga berilganda soliq bazasi suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida inshootlarni ijaraga olgan va suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq bazasini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmining farqini solishtirish amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonchasida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti soliq to'laydi.

Yuridik shaxslar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarga taalluqli qism bo'yicha soliq bazasini soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq bazasi soliq organlari tomonidan ushbu bandning to'qqizinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq aniqlanadi.

Soliq to'lovchi soliq to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan suv resurslari hajmining hisobini alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq bazasi qaysi faoliyat bo'yicha soliq to'lash sof tushumning umumiy hajmida nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan suvning hajmi ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun soliq bazasi hisoblanadi. Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab

chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi deganda iste'mol idishidagi tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan suvning hajmi tushuniladi.

Soliq to'lovchilar tarkibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste'mol qilishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

faoliyatini O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalari orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar; suvdan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;

dehqon xo'jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlari uchun foydalanadigan suv uchun soliqni to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Shuningdek, o'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilardir. O'zbekistonda asosiy, davlat byudjeti daromadlarini ushbu manba bo'yicha ob-havo qiladigan, ya'ni ta'minlab beradigan soliq to'lovchilar bo'lib, Shirin GRES, Taxiyyatosh GRES, Toshkent GRES va boshqa shu kabi GESlar hisoblanishadi.

Soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan to'lovchilar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalaniladigan suv hajmidan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari kerak bo'ladi.

Yuridik shaxslar suvdan foydalanish joyida davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'i nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydilar.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar o'z faoliyatida ishlatiladigan suv uchungina soliq to'lovchilar hisoblanadi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan binolar bir qismi, ayrim xonalar boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga topshirilganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni "Suvoqava" tizimi korxonalari yoki suv xo'jaligi organlari yohud boshqa korxonalar bilan suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan ijaraga beruvchilar to'laydilar.

Bino (xona)ni ijaraga olgan va o'zlari suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mustaqil ravishda to'laydilar.

Amaldagi korxonalar va tashkilotlar hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaradigan yuridik shaxslar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydilar. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarish chog'ida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni ular uchun ushbu ishlar bajariladigan korxona va tashkilotlar to'laydilar. Yangi qurilish maydonchasida qurilish ishlarini bajarish chog'ida qurilish paytida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni qurilish tashkiloti to'laydi.

Mulkchilik va bo'ysunish shaklidan qat'i nazar issiq suv va bug' uzatuvchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni ular tomonidan yuzadagi va yer osti manbalaridan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlatilgan suv resurslari hajmi uchun to'laydilar.

20.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq stavkasi va uni hisoblash

Belgilangan limitlar doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq miqdorlarda belgilanadi. Soliq stavkalarining miqdori O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan belgilanadi.

Belgilangan limitlar doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq miqdorlar soliqlarni hisoblashda va byudjet daromadlarini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

20.1-jadval.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari (2022 yil).

T/r	Soliq to‘lovchilarva soliq solish obyektlari	1 kub. m. uchun soliq stavkasi,(so‘mda):	
		yer usti suv resurslari manbalari	yer osti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barchatarmoqlari-dagi korxonalar,(bundan 2 va 3-bandlarda ko‘rsatilganlari mustasno),shuningdek yakka tartibdagi Tadbirkorlar	240	290
2.	Sanoat korxonalari	520	620
3.	Elektr stantsiyalari vakommunal xizmat ko‘rsatish Korxonalari	80	100
4.	Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni o‘stirish (etishtirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi,shu jumladan dehqon xo‘jaliklari	40	40
5.	Avtotransport vositalariniyuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	2 190	2 190
6.	Alkogolsiz ichimliklarnihamdapivo va vinodantashqarialkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	27 700	27 700

Suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan ortiqcha suv olinganda, bunday ortiqcha qism bo‘yicha soliq stavkalari belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda, shuningdek avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yer usti manbalaridan olingan suvdan foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi.

Soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Dehqon xo‘jaliklari uchun soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

Soliq hisoboti suvdan foydalanish yoki suvni iste‘mol qilish joyidagi soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi:

O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo‘jaligi korxonalari mustasno – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan – joriy soliq davrining 15 dekabrighacha;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – soliq davridan keyingi yilning 20 yanvarighacha.

Soliq organlari soliq to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasini dehqon xo‘jaliklariga soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiradi.

Soliq to‘lash tartibi. Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarni to‘laydi, bundan qishloq xo‘jaligi korxonalari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek dehqon xo‘jaliklari mustasno.

Bo‘nak to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining 20 yanvarighacha, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste‘mol qilish joyidagi soliq organlariga mo‘ljallanayotgan soliq bazasidan (foydalaniladigan suv hajmidan) va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo‘yicha majburiyatlari soliq davri ichida yuzaga kelgan soliq to‘lovchilar soliq summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e‘tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Hisoblab chiqarilgan bo‘nak to‘lovlar:

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko'proqni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (bundan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar mustasno) – har oyning 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan kamroqni tashkil etadigan, aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmagan yuridik shaxslar, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – har chorak uchinchi oyining 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Soliq davri davomida mo'ljallanayotgan soliq bazasi o'zgarganda, soliq to'lovchi soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo'nak to'lovlarga soliqning o'zgargan summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda soliqni to'lash soliq to'lovchilar tomonidan, bundan dehqon xo'jaliklari mustasno, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar summasi soliq hisobotida ko'rsatilgan byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo'nak to'lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisob-kitob qiladi.

Dehqon xo'jaliklari tomonidan soliqni to'lash yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

Bo'nak to'lovlari davlat byudjetiga o'z vaqtida tushishi bu davlat o'z oldida turgan vazifalarning bajarilishini moliyalashtirishga xizmat qiladi va soliq tushumlarining o'z vaqtida tushishini ta'minlaydi.

20.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish obyekti va bazasi

Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim vosita – bu davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq turli xil to'lovlardir. Jaxon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, rentals, royalti va soliqlar tashkil etadi. Bonuslar – bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'lmasada, davlat byudjeti daromadlarini oshirishning zarur unsurlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar hajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi subyektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bu bitim tuzilgan vaqtda yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar hisoblanadi.¹¹⁹

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanuvchilar ikki xil bonusni to'laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonusi. Renta tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarning ikkinchi ko'rinishi hisoblanib, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish vaqtida undiriladigan to'lov hisoblanadi. Rentals kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan avval undiriladi. Royalti tabiiy resurslardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko'rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning qat'iy ulushi o'zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, royalti – bu mineral xomashyoni qazib olish xajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz hisobida bitim shartlariga muvofiq belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xomashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan muntazam to'lovlardir.

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlar soliq

¹¹⁹ O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida" gi Qonuni, 20-modda.

amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga yuqori rentabellikka erishadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun aktsiz soliqlari ham amal qiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o‘tdi. O‘zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xomashyo resurslari to‘plangan. O‘zbekistonda 100 ga yaqin, aniqrog‘i 95 turdagi mineral xomashyoni o‘zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan.

Respublikamiz qonunchiligiga ko‘ra mavjud yer osti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentyabrdagi “Yer osti boyliklari to‘g‘risida” gi Qonuniga muvofiq 1995 yildan boshlab yer osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning xajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to‘lay boshladilar.

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad – umumdavlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a‘zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

O‘zbekistonda 2002 yil 13 dekabrda “Yer osti boyliklari to‘g‘risida” gi Qonun-ning yangi tahriri tasdiqlandi va ushbu qonunning asosiy vazifasi sifatida yer osti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilandi.

Soliq kodeksiga ko‘ra, yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta‘minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Respublikamizda yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq yer osti boyliklari-ning 53 turiga nisbatan belgilangan bo‘lsada, byudjetga soliq tushumi faqatgina 4-5 turdagi yer osti boyliklariga mutloq ravishda bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

2019 yilda yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqning tushumlari tarkibida oltin 44,4 foizni, tozalangan mis 37,5 foizni, neft 4,2 foizini, tabiiy gaz va gaz kondentsati 10,1 foizini kumush 1,9 foizni tashkil etadi.

Agarda hududlar bo'yicha tahlil qilinganda jami yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining 40,9 foizi Toshkent viloyatiga, 46,2 foizi Navoiy viloyatiga, 13,0 foizi Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri kelgani holda qolgan 1,9 foizi respublikamizning boshqa xududlari zimmalariga to'g'ri keladi.

Soliq solish obyekti. Foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir.

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning hajmi foydali qazilmalarining haqiqiy yo'qotishlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmaning zahirasi qaysi foydali qazilmaning miqdoriga kamaytiriladigan bo'lsa, o'sha foydali qazilmaning hisoblangan miqdori va foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish)ning to'liq texnologik sikli yakunlangach aniqlangan, haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma miqdori o'rtasidagi farq foydali qazilmaning haqiqiy yo'qotishlaridir.

Soliq solish obyekti foydali qazilmaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Quyidagilar yer qa'ridan foydalangan uchun soliqning soliq solish obyektidir: qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar (shu jumladan birga qo'shib chiqadigan);

foydali qazilmalardan, mineral xom ashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar;

sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan qazib olingan uglevodorodlar shu jumladan birga qo'shib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi qazib olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar;

ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi:

qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni yopiq texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi;

soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan (ajratib olingan) hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar. Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda daryo o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan (ajratib olingan) noruda foydali qazilmalar, bundan qayta ishlangan va realizatsiya qilingan foydali qazilmalar hajmi mustasno.

Soliq bazasi. Soliq bazasi yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga, shu jumladan asosiy foydali qazilmani qazib olishda birga chiqadigan foydali komponentlarga nisbatan aniqlanadi.

Soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati sifatida aniqlanadi.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo'yicha pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) ularning naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali alohida aniqlanadi.

Hisobot davrida foydali qazilma realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida foydali qazilmani realizatsiya qilishning o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Foydali qazilma umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni qazib olish (ajratib olish)ning ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi. Bunda, soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan

foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida shakllangan o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Qazib olingan foydali qazilmaning bir qismi realizatsiya qilinib, qolgan qismidan o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda, foydali qazilma bo'yicha soliq bazasi realizatsiya qilingan ushbu foydali qazilmaning o'rtacha olingan realizatsiya qilish narxidan kelib chiqib aniqlanadi.

Foydali qazilmadan o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday foydali qazilmalar uchun soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmani ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar. Yer qa'ridan foydali qazilmalarni qazib oluvchi, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib oluvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni qidirishni, foydali qazilmalarni qazib olishni, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar deb e'tirof etiladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo'yicha soliq to'lovchilar bo'lmaydi.

20.4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq stavkasi va uni hisoblash

Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) 0 foizli stavka bo'yicha soliq solish foydali qazilmalarning normativ yo'qotishlariga taalluqli qismi bo'yicha amalga oshiriladi. Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) konlarda foydali qazilmalarni qazib olishning qabul qilingan sxemasi va texnologiyalari bilan

texnologik bog‘liq holdagi, vakolatli organ tomonidan qonun hujjatlarda belgilangan tartibda tasdiqlanadigan normalar doirasidagi yo‘qotishlar normativ yo‘qotishlardir.

Asl, rangli, noyob va radioaktiv metallarni qazib olishni amalga oshiruvchi alohida soliq to‘lovchilar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

Soliqni to‘lash tartibi. Soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda soliq hisoblab chiqariladi.

Foydali qazilmalarning alohida turlari bo‘yicha soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan, lekin belgilangan soliq summasidan kam bo‘lmagan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turgan joydagi, noruda foydali qazilmalar bo‘yicha esa – qazib olish amalga oshirilgan joydagi soliq organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

yuridik shaxslar tomonidan – ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

jismoniy shaxslar tomonidan – yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

yuridik shaxslar tomonidan – har oyda keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;

jismoniy shaxslar tomonidan – soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay.

O‘zbekiston Respublikasining 30.12.2021 yildagi O‘RQ-742-son 2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha:

1. “Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq” bo‘limi yangi tahrirda bayon etildi va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibini takomillashtirishni nazarda tutmoqda.

2. Foydali qazilmalarning barcha turlari bo'yicha (uglevodorodlar va metallardan tashqari) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi saqlanib qolmoqda.

3. Soliq solinadigan qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalarning hajmini belgilash tartibi aniqlashtirilmoqda. Xususan, soliq solish obyekti qazib olish (ajratib olish), birlamchi ishlov berish, qayta ishlash va transportda tashishning butun texnologik sikli doirasida yuzaga keladigan texnologik yo'qotishlarni hisobga olgan holda, qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida, bunday normalar mavjud bo'lmaganda esa - soliq to'lovchitomonidan tasdiqlangan normalar doirasida aniqlanadi.

4. Uglevodorodlar bo'yicha soliq solish bazasini aniqlash bo'yicha quyidagi tartib kiritilmoqda:

qazib olingan uglevodorodlar hajmini realizatsiya qilishda – o'rtacha o'lgangan realizatsiya qilish narxidan kelib chiqqan holda;

qazib olingan tabiiy gaz va (yoki) neftni mustaqil ravishda yohud qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida qayta ishlash amalga oshirilganda – ushbu foydali qazilmalardan olingan mahsulotlarni realizatsiya qilish narxidan kelib chiqib, ularga soliq to'lovchi tomonidan dastlabki ishlov berish, qayta ishlash va transportda tashish xarajatlarini chegirib tashlangan holda.

5. Metallar bo'yicha (qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallar, nodir unsurlar va nodir yer unsurlarini) soliq bazasi quyidagicha aniqlanadi: a) oltin, kumush, platina, palladiy, mis, rux, qo'rg'oshin va molibden

bo'yicha – o'rtacha arifmetik birja narxi va o'rtacha olingan realizatsiya qilish narxi o'rtasida olingan eng yuqori narxdan kelib chiqib. Bunda:

ruda (kontsentratni) realizatsiya qilishda (oltin va misdan tashqari) – eng yuqori narx ushbu rudaning (kontsentratning) tarkibida mavjud bo'lgan metall hajmiga nisbatan unga ishlov berish (uni boyitish), uni qayta ishlash (affinaj) va (yoki) transport xarajatlari chegirib tashlangan holda qo'llaniladi.

oltin va misni realizatsiya qilishda – eng yuqori narx ushbu ruda, kontsentrat va (yoki) qayta ishlashning yakuniy mahsuloti (tayyor mahsulot) tarkibida mavjud

bo'lgan metall hajmiga nisbatan unga ishlov berish (uni boyitish), qayta ishlash (affinaj) va transport xarajatlari chegirib tashlanmagan holda qo'llaniladi. Bunda soliq to'lovchi oltin va mis bo'yicha soliq bazasini ushbu xarajatlarni chegirib tashlagan holda belgilashga haqli;

mustaqil ravishda yohud qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida ajratib olingan kumush, platina, palladiy, rux, qo'rg'oshin yoki molibdenni realizatsiya qilishda – eng yuqori narx bo'yicha, soliq to'lovchi tomonidan unga ishlov berish (uni boyitish), qayta ishlash va (yoki) transport xarajatlari chegirib tashlangan holda.

b) boshqa metallar bo'yicha – ularga ishlov berish (ularni boyitish), qayta ishlash (affinaj) va (yoki) transport xarajatlari chegirib tashlangan holda o'rtacha olingan realizatsiya qilish narxidan kelib chiqqan holda.

Soliq to'lovchilarning alohida toifasi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oshirilgan soliq stavkalarini belgilash tartibi saqlanib qolinmoqda. Xususan, 2022 yil 1 yanvardan boshlab qo'yidagi miqdorlarda soliq stavkalari belgilandi:

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ uchun oltin bo'yicha – 10 foiz, paladiy, kumush va mis bo'yicha – 15 foiz; “O'zbekneftgaz” AJ uchun neft, tabiiy gaz va gaz kondensati bo'yicha 15 foiz. Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar doirasida belgilangan soliq stavkalari saqlanib qolinmoqda.

Bunda agar, davlat ulushi ustun mavqega ega bo'lgan korxonalar (“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” va “O'zbekneftgaz” AJ) 2022 yil 1 yanvardan keyin qazib olish boshlagan yer qa'ri uchastkasida uglevodorodlarni, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarni, nodir unsurlarni va nodir yer unsurlarini qazib olishni (ajratib olishni) amalga oshirsa, ushbu konlarga nisbatan ular O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 452-moddasi birinchi qismida belgilangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun pasaytirilgan soliq stavkalarini qo'llashi mumkin.

6. Yuridik shaxslar uchun soliq davri sifatida amaldagi kalendar yili o'rniga

chorak belgilanmoqda.

Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i (yangi soliq).

1. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'ini hisoblash va to'lash tartibi Soliq kodeksining "Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i" XVIII-bo'limida nazarda tutilgan.

2. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i to'lovchilari quyidagilarni qazib oluvchi yuridik shaxslar hisoblanadi:

qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallar, nodir unsurlar va nodir yer unsurlari va (yoki) ularni texnogen mineral hosilalardan ajratib oluvchilar; uglevodorod xom ashyosi (tabiiy gaz, gaz kondensati va neft).

GLOSSARIY

Aylanma kassa mablag'i - moliya yilida O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori.

Aksiya - o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Axborotni oshkor qilish - qimmatli qog'ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni qaysi maqsadda olishidan qat'i nazar, mazkur axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta'minlash.

"Amerikacha" yopiq auktsion savdosini o'tkazish tizimi – kesib tashlanadigan narxdan yuqori darajadagi narxlar qayd etilgan buyurtmalar buyurtma narxlari bo'yicha, raqobatsiz buyurtmalar esa – o'rtacha narxlar bo'yicha qondiriladi.

Auditorlik tekshiruvi – moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.

Auditor - auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs.

Auditorlar reestri - auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditorlarning auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro'yxati, bundan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan shakllantiriladigan reestr mustasno.

Auditorlik tashkiloti - auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va turdosh xizmatlar ko'rsatish bo'yicha auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti.

Auditorlik tashkilotlarining reestri - auditorlik tashkilotlarining auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro'yxati.

Auditorlik faoliyati - auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati.

Audit qo'mitasi - xo'jalik yurituvchi subyektning kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan, qoida tariqasida, kamida bir nafar mustaqil a'zoni o'z ichiga oladigan, moliyaviy hisobotni tuzishning to'g'riligi ustidan nazorat o'rnatilishi, mustaqil auditorlik tashkilotining tanlanishi, auditorlik tekshiruv o'tkazilishi jarayonlarini kuzatish, shuningdek ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari natijalarini olish hamda o'rganish uchun mas'ul bo'lgan qo'mita.

Balanslangan byudjet – xarajatlar va tushumlar summasi tengdir.

Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchi - O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan qonun bilan belgilangan miqdorda ajratiladigan byudjet mablag'larini taqsimlovchi yuridik shaxs.

Birja obligatsiyasi - chiqarilishi fond birjasi tomonidan ro'yxatga olinadigan va fond birjasining kotirovkalash varag'iga kiritilgan, aktsiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan qarz emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Benefitsiar mulkdor - pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs.

Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion - davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo'lib, uni tashkil etish chog'ida narx g'olibni aniqlashning yagona mezonini bo'ladi.

Byudjetdan ajratiladigan mablag'lar - O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilar uchun nazarda tutiladigan pul mablag'lari.

Byudjet jarayoni - byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning shakllantirilishini, tuzilishini hamda ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayoni.

Byudjet jarayoni ishtirokchilari - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar.

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchi - birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchi va ikkinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchi.

Byudjet sohasidagi vakolatlar - byudjet jarayoni ishtirokchilarining byudjet munosabatlari sohasidagi vakolatlari.

Byudjet ssudasi - qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag‘lari.

Byudjet so‘rovi - o‘rta muddatli davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni olishga bo‘lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari – qonunchilikda nazarda tutilgan manbalar hisobidan byudjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag‘lar.

Byudjet tizimi byudjetlari - O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari.

Byudjetlararo transfertlar - O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg‘armalariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan mablag‘lar;

Boshqa majburiy to'lovlar deganda davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi).

Boshqaruv personali – idora qilish funktsiyalarini amalga oshiradigan, personalni boshqaradigan, zaruriy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish, korxona, tashkilot va muassasalar faoliyati jarayonlarini rejalashtirish, nazorat qilish va tartibga solish, tegishli qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni tayyorlash bilan shug'ullanuvchi xodimlar.

Byudjetni tartibga solish – bu turli darajadagi byudjetlar o'rtasida daromadlar manbasining qonun bilan birlashtirilgan taqsimlanishi, ya'ni davlat byudjeti daromadlarini taqsimlash tartibi (turli darajadagi byudjetlar o'rtasida moliyaviy resurslar qisman qayta taqsimlanishi).

Byudjet daromadlari – qonunchilikda belgilangan tartibga binoan davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari (davlatning byudjet tizimi byudjetlariga) ixtiyoriga beg'araz va qaytarib bermaslik shartlari bo'yicha kelib tushayotgan pul mablag'lari.

Byudjet dotatsiyalari – o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet jarayoni – hokimiyat ijro va vakillik organlarining fiskal siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda byudjet tizimini boshqarish faoliyatining majmui.

Byudjet yili – tasdiqlangan byudjetning ijrosi amalga oshiriladigan davr.

Byudjetdan mablag' ajratish – turli darajadagi byudjetlardan tasdiqlangan xarajatlar parametrlariga binoan va davlat oldida turgan vazifalarni moliyalashtirishga mo'ljallangan pul mablag'lari.

Byudjet mablag‘larining bosh tasarrufchisi – ijro etuvchi hokimiyat organi (vazirlik yoki idora) hisoblanib, u birinchi bo‘lib to‘g‘ridan-to‘g‘ri byudjet mablag‘larini oladi, davlat byudjeti mablag‘larini qaramog‘idagi idoralar – byudjet mablag‘larining tasarrufchilari va oluvchilari o‘rtasida taqsimlash huquqiga ega.

Byudjet mablag‘larining tasarrufchisi – ijro etuvchi hokimiyat organi bo‘lib, byudjet mablag‘larini uni oluvchilar o‘rtasida taqsimlash huquqiga ega; ularga byudjet ajratmalari to‘g‘risidagi bildirishnomani yetkazadi, byudjet mablag‘larini oluvchilarning smetalarini tasdiqlaydi, ular byudjet mablag‘larini maqsadli ishlatishi ustidan nazorat o‘rnatadi.

Byudjet mablag‘larini oluvchilar – byudjet ro‘yxatiga binoan joriy yilda byudjet mablag‘larini olish huquqiga ega bo‘lgan byudjet tashkiloti yoki boshqa muassasadir.

Byudjetdan moliyalashtirish – korxona, muassasa, tashkilotlarga ularning xarajatlarini to‘liq yoki qisman qoplash uchun davlat byudjetidan qaytarilmaydigan mablag‘larni ajratish.

Byudjet nazorati: 1) davlat moliyaviy nazoratining muhim qismi bo‘lib, byudjet jarayonida amalga oshiriladi; 2) byudjet tizimining byudjet mablag‘lari tashkil etilishi, taqsimlanishi va foydalanilishining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samarali ekanligini davlat organlari tomonidan tekshirish tadbirlari tizimi sifatida qaraladi; 3) aniqlangan qonunbuzarliklarning oldini olish, fosh etish va bartaraf qilish bo‘yicha choralarni ko‘rishga, davlat byudjetini shakllantirish va xarajatlarni amalga oshirishda yangi imkoniyatlarni topishga, soliq-byudjet intizomini yaxshilashga yo‘naltirilgan.

Byudjetni prognozashtirish – asosiy byudjet ko‘rsatkichlarining prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirish, byudjetning daromadlar va xarajatlar qismlarining rivojlanishi mumkin bo‘lgan yo‘llarini ehtimolli baholash majmuasi.

Byudjet profitsiti – byudjet daromadlarining xarajatlaridan oshib ketishi (byudjetning ijobiy saldos).

Byudjetni rejalashtirish – moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, davlatning moliyaviy siyosati talablariga bo‘ysunadi. Bunday rejalashtirish-

ning iqtisodiy funksiyasi markazlashgan rejalashtirish orqali yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni moliyaviy tizimning bo'g'inlari orasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umummilliy dasturini byudjetlarni va turli darajadagi byudjetdan tashqari fondlarni tuzish va ijro etish jarayonida ishlab chiqishdir.

Byudjet ssudalari – yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarish sharti bilan yoki respublika byudjetidan yuridik shaxs-rezidentga yoki xorijiy davlatga ajratiladigan mablag'.

Byudjet subventsiyalari – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet tasnifi – byudjet tizimining barcha darajalaridagi byudjetlari daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, ushbu byudjetlarning taqchilliklarini moliyalashtirish manbalari va davlat qarzi turlarini bir xil belgi bo'yicha qonunga muvofiq guruhlash bo'lib, undan byudjetlarni tuzish va ijro etishda tasnif obyektlariga guruh kodlarini berish orqali foydalaniladi. Tasnif barcha darajadagi byudjetlar ko'rsatkichlarining qiyosiylikini, ularni iqtisodiy va statistik tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Byudjet tashkiloti – ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan boshqaruvchilik, ijtimoiy-madaniy, ilmiy-texnik yoki boshqa notijorat tushdagi funktsiyalarni bajarish uchun tuzilgan tashkilot bo'lib, uning faoliyati daromadlar va xarajalar smetasi asosida byudjetdan yoki byudjetdan tashqari jamg'armalardan moliyalashtiriladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar – byudjetdan alohida tashkil etiladigan, maqsadli xususiyatga ega bo'lgan, umumdavlat yoki mahalliy ahamiyatga molik tadbirlarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan mustaqil moliya muassasalari tizimi; davlat tomonidan ba'zi ijtimoiy ehtiyojlar uchun mustaqil ravishda kompleks sarflanadigan jalb etilayotgan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va ishlatish shakli.

Byudjet taqchilligi – byudjet xarajatlarining daromadlardan oshib ketishi (byudjetning salbiy saldos).

Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablagʻlari oluvchilar yigʻindisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini, byudjet jarayonida ular oʻrtasida, shuningdek, byudjetlar hamda byudjet mablagʻlari oluvchilar oʻrtasida vujudga keladigan oʻzaro munosabatlarni oʻzida ifodalaydi.

Byudjet tuzilishi – byudjet tizimini tashkil etish, uni tuzish tamoyillari. Byudjet tuzilishi davlat byudjeti va mamlakat byudjet tizimining tashkil etilishini, uning alohida boʻgʻinlari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni, byudjet tizimiga kiruvchi byudjetlarning faoliyat yuritishi huquqiy asoslarini, byudjetlarning tarkibiy tuzilishini, byudjet mablagʻlarini shakllantirish va foydalanish tartib-taomillarini va boshqalarni belgilaydi.

Byudjet transfertlari – byudjetdan bevosita yoki vakolatli organ orqali yuridik yoki jismoniy shaxsga begʻaraz ajratiladigan pul mablagʻlari.

Byudjet xarajatlari – davlat va mahalliy oʻzini-oʻzi boshqarish organlarining vazifa va funktsiyalarini bajarish uchun yoʻnaltirilayotgan pul mablagʻlari; davlat pul mablagʻlari fondini taqsimlash va uni tarmoq, maqsadli va hududiy yoʻnalishlarda foydalanish yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Byudjetning kassa ijrosi – mamlakat hududida byudjet mablagʻlari toʻplanishini tashkil etish, ularni saqlash va sarflash, shuningdek, hisob va hisobotini yuritish.

Byudjetlarning joriy xarajatlari – davlat hokimiyati organlari, mahalliy oʻzini-oʻzi boshqarish organlari, byudjet tashkilotlarining joriy faoliyatini taʼminlash uchun, boshqa byudjetlar va iqtisodiyotning alohida tarmoqlari joriy faoliyatiga ajratmalar, dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar koʻrinishida davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashni amalga oshirish uchun moʻljallangan byudjet xarajatlari qismi. Joriy xarajatlar byudjet xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi.

Byudjetlarning kapital xarajatlari – innovatsion va investitsion faoliyatni taʼminlovchi byudjet xarajatlarining qismi boʻlib, tasdiqlangan investitsiya dasturiga binoan faoliyat yuritayotgan yoki yangi tashkil etilayotgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiya-lash uchun moʻljallangan xarajatlarni oʻzida mujassamlashtiradi.

Vaqtinchalik kassa uzilishi - joriy moliya yilining muayyan davrida byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlaridan vaqtinchalik oshib ketishi.

Veksel - veksel beruvchining yohud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi - byudjet tashkilotining yoki byudjet mablag'lari oluvchining xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan hujjat bo'lib, unda qonunchilikdagi o'zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar har oy uchun aks ettiriladi.

“Gollandcha” yopiq auktsion savdosini o'tkazish tizimi – barcha buyurtmalar yagona minimal ruxsat etilgan narx – kesib tashlanadigan narxda qondiriladi.

Gorizonta1 tenglashtirish hududlarning soliq imkoniyatlari tengsizliklarini hududiy tuzilmalar o'rtasida proporsional taqsimlash orqali amalga oshirishni nazarda tutadi.

Davlat byudjeti – davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat byudjetining xarajatlari – davlat tomonidan byudjetdan o'z funksiyalari va vazifalarini bajarish uchun pul mablag'lari oqimini yo'naltirish.

Davlat buyurtmachisi - davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Davlat xaridlari - davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayoni.

Davlat xaridlari to'g'risidagi shartnoma - davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining ijrochisi o'rtasidagi davlat xaridlari bo'yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv.

Davlat xaridlarining subyektlari - davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, xarid komissiyasi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot va ekspert, ekspert tashkiloti.

Dastlabki malaka tanlovi - xarid qilish hujjatlarida belgilangan texnik, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarga muvofiq bo'lgan xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazishga qo'yiladigan malakali xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tanlab olishning xarid komissiyasi tomonidan o'tkaziladigan tartib-taomili.

Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi – to'lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlariga ko'ra xarajatlarni guruhlash.

Davlat byudjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi – byudjet tashkilotlarining turlari, xo'jalik subyektlari va byudjet ajratmalarini ularning bevosita oluvchilari o'rtasida taqsimotini aks ettiruvchi tadbirlari bo'yicha guruhlash.

Davlat byudjeti xarajatlarining funktsional tasnifi – davlat boshqaruvi organlari, joylardagi mahalliy hokimiyat organlari, boshqa byudjet tashkilotlari tomonidan ijro qilinadigan asosiy funktsiyalari bo'yicha guruhlash.

Davlat zayomlari – kredit munosabatlarining turi bo'lib, unda davlat (yoki uning mahalliy organlari) zayom beruvchi yoki kreditor rolida namoyon bo'ladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari – Davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat maqsadli jamg'armalari – davlatning alohida xarajatlarini moliyalashtirish uchun va mamlakatning byudjet tizimi tarkibida jamlanadigan, mablag'lar tushumi va maqsadli ishlatilishi ustidan davlat nazoratini ta'minlash maqsadida amaldagi qonunchilik asosida shakllantiriladigan jamg'armalar.

Davlat moliyalashtirishi – xo'jalik subyektlariga byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobiga qaytarilmaydigan moliyaviy resurslarni taqdim etish usuli.

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish – aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi bo'lib, uning natijasida davlat ichki qarzlarini paydo bo'ladi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish – aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi bo'lib, uning natijasida davlat tashqi qarzlarini paydo bo'ladi.

Davlat qarzi – davlatning tashqi va ichki kredit operatsiyalari bo'yicha qarzдорlik summasi.

Davlat qarzini bekor qilish – davlat tomonidan chiqarilgan zayomlar bo'yicha (ichki, tashqi yoki umuman tashqi qarz bo'yicha) majburiyatlardan butunlay voz kechish.

Dastlabki byudjet nazorati turli darajadagi byudjetlarni, byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarini, dotatsiyalar, subvensiyalar va byudjetdan boshqa mablag'lar olingunga qadar hisob-kitoblarni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash bosqichida, byudjet va soliq masalalari bo'yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish bosqichida amalga oshiriladi. U ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo'lib, moliyaviy resurslar noto'g'ri, samarasiz sarflanishining oldini olishga, daromadlarni oshirish imkoniyatlarini aniqlashga va loyihalashtirilayotgan byudjet ko'rsatkichlarining hududlar va butun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlari bilan muvofiqligini ko'rsatishga yordam beradi.

Diller – yuridik shaxs, amaldagi qonunchilikka binoan investitsion institut (qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi) yoki bank, u O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan obligatsiyalar bo'yicha operatsiyalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolaydi.

Davlat byudjetining birlamchi profitsiti - muayyan davr uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti xarajatlaridan davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlarni chiqarib tashlagan holda hisoblanadigan Davlat byudjeti profitsiti.

Davlat byudjetining birlamchi taqchilligi - muayyan davr uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti xarajatlaridan davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlarni chiqarib tashlagan holda hisoblanadigan Davlat byudjeti taqchilligi.

Davlat byudjeti profitsiti - muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi.

Davlat byudjeti taqchilligi - muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi.

Davlat moliyaviy nazorati - byudjet to'g'risidagi qonunchilikning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida davlat moliyaviy nazorati obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlarini va boshqa hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish hamda taqqoslash.

Davlat moliyaviy nazorati obyektlari - O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, byudjet mablag'larini taqsimlovchilar, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar, davlat maqsadli jamg'armalari, belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalar va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish - aktivlarni jalb etish, bu bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

Davlat xaridlari - byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari.

Davlat qarzi - O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi mablag'larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan majburiyatlari.

Daromadlar va xarajatlar smetasi - byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat.

Donorlar - O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lmagan yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz asosda mablag'lar ajratadigan davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumat tashkilotlari, chet el fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari.

Davlat-xususiy sheriklik - davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasi - iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va (yoki) ilg'or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasining kontseptsiyasi - davlat sherigi va (yoki) xususiy tashabbuskor tomonidan tayyorlangan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun tanlovni asoslab beradigan, loyihaning qiymatini, loyihani moliyalashtirish manbaini hamda rentabelligini belgilaydigan, uni amalga oshirishning samaradorligi va dolzarbligi asoslarini o'z ichiga olgan hujjat.

Davlat-xususiy sheriklik obyekti - loyihashtirilishi, qurilishi, barpo etilishi, yetkazib berilishi, moliyalashtirilishi, rekonstruktsiya qilinishi, modernizatsiyalashtirilishi, ekspluatatsiya qilinishi va xizmat ko'rsatilishi davlat-xususiy sheriklik loyihasini ro'yobga chiqarish doirasida amalga oshiriladigan mol-mulk, mulkiy komplekslar, ijtimoiy infratuzilma, yer uchastkalari, shuningdek davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida joriy etilishi lozim bo'lgan ishlar (xizmatlar) va innovatsiyalar.

Davlat-xususiy sheriklik obyektidan erkin foydalanilishi uchun to'lov - davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq davlat-xususiy sheriklik obyektidan foydalanish (uni ekspluatatsiya qilish) va (yoki) ushbu obyektga xizmat ko'rsatish davrida undan erkin foydalani-lishini ta'minlaganlik uchun xususiy sherikka davlat sherigi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar.

Davlat sherigi - O'zbekiston Respublikasi va (yoki) davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan boshqa yuridik shaxslar yoki ularning birlashmalari.

Dotatsiya - byudjet tizimi byudjetlariga ularning o'z daromadlari etishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Davlat qimmatli qog'ozlari - O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

Depo hisobvarag'i - deponentning qimmatli qog'ozlarini saqlash va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan, investitsiya vositachisining va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining hisobga olish registrilaridagi yozuvlar yig'indisi.

Depo hisobvarag'idan ko'chirma- deponentning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan beriladigan hujjat.

Depozitar operatsiyalar - hisobga olish registrilarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar.

Depozitar tilxatlar - nominal qiymatga ega bo'lmagan qimmatli qog'oz bo'lib, u taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning muayyan soniga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlaydi va uning egasining ushbu qimmatli qog'oz emitentidan depozitar tilxat o'rniga taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning tegishli sonini olishini hamda taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlar bilan mustahkamlangan

huquqlarning depozitar tilxat egasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi.

Depozit sertifikat - bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

Deponent - depo hisobvarag'iga ega bo'lgan shaxs.

Joriy davlat qarzi – to'lov muddati kelgan majburiyatlar bo'yicha davlatning qarzi.

Jamlanma xarajatlar smetasi - byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan o'z tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi.

Joriy nazorat – byudjet ijrosi, byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari ijrosi sharoitida byudjet yili davomida byudjet-soliq intizomining buzilishini aniqlash, moliyaviy me'yorlarga, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'larini shakllantirish va ishlatish bo'yicha belgilangan ko'rsatkichlarga rioya qilinishini qayd etish maqsadida amalga oshiriladi.

Zayomlarni unifikatsiyalash – bir nechta zayomlarni bittasiga birlashtirish, oldin chiqarilgan zayom obligatsiyalari yangi zayom obligatsiyalariga almashtiriladi.

Zahiradagi g'olib - xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha xarid komissiyasining qaroriga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

Idora ichidagi nazorat – vazirlik va idoralarning nazorat-taftish bo'linmalari tomonidan bir vazirlik yoki idora doirasida olib boriladigan nazorat. Bunda byudjetning tashkiliy tasnifi bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'larini sarflanishi, shuningdek byudjet ssudalari, subsidiyalar, subventsiyalari va byudjetdan boshqa moliyaviy yordamni ishlatishi tekshiriladi.

Ikkinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchi - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga birlashtiriladigan va o'ziga ajratiladigan byudjet mablag'larini taqsimlovchi yuridik shaxs.

Ijtimoiy ta'minot – mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni o'z qaramog'iga to'liq yoki qisman olish davlat dasturi.

Ijtimoiy himoya – 1) keng ma'noda – ijtimoiy siyosatning maqsadlari va ustuvor vazifalarini hayotga kiritish bo'yicha, jamiyatning har bir a'zosiga muhim ijtimoiy huquqlarni ta'minlovchi, qonuniy birlashtirilgan iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirish bo'yicha davlatning faoliyati; 2) tor ma'noda – aholining eng zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy xarakterga ega maqsadga yo'naltirilgan aniq chora-tadbirlar kompleksi.

Investor – diler bo'lmagan yuridik shaxs, amaldagi qonunchilikka binoan obligatsiyalarni mulk sifatida sotib oladi va ularning ishlab chiqarish shartlari va parametrlarini boshqara oladi.

Iqtisodiy tahlil – byudjet nazoratini amalga oshirishning muhim metodi bo'lib, barcha darajadagi byudjetlarning daromadlar va xarajatlar qismlari ijrosini, byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi ijrosini nazarda tutadi.

Investitsiya aktivlari - qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari va qonunchilikka muvofiq investitsiya aktivlari deb e'tirof etiladigan boshqa mol-mulk.

Investor - qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Infratuzilma obligatsiyalari - ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va (yoki) rekonstruktsiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablag'larini jalb etish maqsadida xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar.

Kliring - qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar bo'yicha o'zaro majburiyatlarni aniqlash, aniqlashtirish va hisobga olish.

Korporativ obligatsiyalar - aktsiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar.

Kontsessiya - davlat-xususiy sheriklikning shakllaridan biri bo'lib, bunda davlat xususiy sherikka kontsessiya shartnomasida nazarda tutilgan xo'jalik faoliyatining muayyan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma bergan holda mulkni va yer uchastkalarini taqdim etadi.

Kameral tekshiruv – nazorat organi joylashgan joyda, korxona, tashkilot va muassasa tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va nazorat subyektida tekshiruvchilar to'g'risida mavjud bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilma – asosiy fondlar, binolar, uskunalarni sotib olish yoki takomillashtirish uchun pul mablag'lari xarajatlari.

Konversiya – zayomlarning daromadlilikiga tegishli bo'lgan birlamchi sharoitlarning o'zgarishi.

Jamlangan byudjet – tegishli ma'muriy-hududiy birliklardagi barcha darajalardagi byudjetlarning, davlat byudjet tizimining jamlanmasi. Byudjet ko'rsatkichlarining statistik jamlanmasi bo'lib, daromadlar va xarajatlar bo'yicha, mablag'lar kelib tushishi bo'yicha va ulardan mamlakat hududlari va byudjet tizimi bo'yicha foydalanilishiga doir agregatlangan ma'lumotlarni tavsiflaydi.

Mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mehnatga haq to'lash fondi – tannarxga kiritiladigan mehnatga haq to'lash, mukofotlar to'lash, pullik taqdirlash moliyaviy xarajatlarning maqsadli manbasi.

Moliya yili – 12 oydan tashkil topgan hisobot davri bo'lib, uning yakunida buxgalteriya kitoblari yopiladi va daromadlar va xarajatlar hisobga olinadi. Moliya yili kalendar yil bilan mos bo'lmasligi mumkin.

Mustaqil nazorat – ixtisoslashtirilgan auditorlik firmalari va xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Pensiya – belgilangan (pensiya) yoshga etganida, nogironlik yuz berganda, boquvchisi yo‘qotilganda, shuningdek belgili muddat xizmat qilgani uchun va davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat yoki sobiq xodimlarning sobiq ish beruvchilari tomonidan muntazam pul daromadlari bilan ta‘minlanishi.

Personal – korxona, tashkilot, muassasalarning yollanib ishlaydigan va xodimlarning umumiy hajmiga kiritilgan barcha xodimlar majmui.

Personalning umumiy chegaraviy soni – korxona, tashkilot va muassasa-ning mehnatni tashkil etish va texnologik rivojlanishning mavjud darajasida qo‘yilgan maqsadlariga erishish va vazifalarni bajarish imkonini beruvchi personalning maksimal soni.

Portfel investitsiyalar – xorijiy firmalar kapitalini korxonalar aktsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarga daromad olish maqsadida joylashtirish.

Renking - auditorlik tashkilotlarining faoliyatini tavsiflovchi muayyan ko‘rsatkichlar bo‘yicha guruhlariga ajratilgan auditorlik tashkilot-larining tartibga solingan ro‘yxatlarini shakllantirish.

Smeta – maqsadga yo‘naltirilganligi nuqtai nazaridan pul mablag‘larining tashkil topishi va sarflanishi haqidagi axborotni o‘zida mujassamlashtiruvchi moliyaviy hujjat.

Smeta-byudjet moliyalashtirishi – byudjet muassasalariga pul mablag‘larini qaytarilmaslik va beg‘araz shartlarda ajratish.

Smetali moliyalashtirish – muassasa va tashkilotlar xarajatlarini tasdiqlan-gan smetaga muvofiq qoplash metodi.

Soliq – 1) byudjetga majburiy badal bo‘lib, qonunchilikda belgilangan tartib-da soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi; 2) soliqlar, o‘z moddiy mazmuniga ko‘ra, milliy daromadning xo‘jalik subyektlari va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undirilgan qismidir. Soliq – muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xusu-siyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari.

Soliq davri – u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi hisoblab chiqariladigan davr.

Soliq solinadigan baza soliq solish obyektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar – qonunchilikda nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yohud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati.

Soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to'lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Soliqli daromadlar – soliq salohiyatining amalga oshirilgan qismi.

Stavka – soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdor.

Subsidiyalar – boshqa darajadagi byudjetga, jismoniy yoki yuridik shaxsga maqsadli xarajatlarni hissali moliyalashtirish shartlarida beriladigan byudjet mablag'lari.

Sug'urta - muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar.

Sug'urta badali - sug'urta mukofotining sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda, miqdorlarda va shartlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida to'lanadigan bir qismi.

Sug'urta mukofoti - sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan tartibda va muddatlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida to'lanadigan sug'urta uchun to'lov.

Sug'urta summasi - muayyan summa bo'lib, sug'urtalovchi sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) sug'urta shartnomasi bo'yicha ushbu summa doirasida to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Sug'urta tavakkalchiligi - taxmin qilinayotgan voqea bo'lib, ushbu voqea yuz bergan taqdirda sug'urta amalga oshiriladi.

Sug'urta tarifi - sug'urta obyektini va sug'urta tavakkalchiligining xususiyatini hisobga olgan holda belgilanadigan, shuningdek sug'urta shartlariga muvofiq sug'urta summasi birligidan olinadigan sug'urta mukofoti stavkasi.

Sug'urta tovonini (sug'urta to'lovi) - sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qildiruvchiga, sug'urtalangan shaxsga (naf oluvchiga) har bir sug'urtalangan shaxs uchun sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi.

Sug'urta turi - sug'urta tashkiloti tomonidan bir yoki bir nechta sug'urta klasslari doirasida ishlab chiqilgan va taqdim etiladigan aniq sug'urta xizmati.

Sug'urta faoliyati - sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani va qayta sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati.

Sug'urta qiymati - agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasini tuzish chog'ida taraflarning kelishuvi bilan aniqlanadigan, sug'urtaga topshiriladigan mol-mulkning qiymati.

Tarkibiy taqchillik – hukumatning iqtisodiy rivojlanishni amalga oshirish maqsadida davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni pasaytirish choralarini qo'llash natijasida yuzaga keladigan taqchillik bo'lib, u ijtimoiy jarayonlar inqirozining ifodasi emas, balki davlatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish tarkibida progressiv siljishlar amalga oshirilishi natijasidir.

Tartibga soluvchi daromadlar - byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlar. Soliq bo'lmagan to'lovlarga

byudjet tizimi byudjetlariga kelib tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'lmagan to'lovlar kiradi.

Taftish – yakuniy byudjet nazoratining yetakchi shakli bo'lib, byudjet nazoratining chuqur va keng qamrovli metodini namoyon etadi. Taftish – korxona, tashkilot va muassasalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining, shuningdek moliya organlarining byudjetni tuzish va ijro etish bo'yicha ishlarining o'zaro bog'langan tekshiruvlari majmuidir. Taftish hujjatli va faktik nazorat yordamida amalga oshirilib, xo'jalik operatsiyalarini, byudjet mablag'lari ajratilishining asoslanganligi, maqsadga muvofiq va iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini aniqlaydi, moliyaviy intizomga rioya qilinishini, davlat mulkining saqlanishini, hisob va hisobot yuritishning ishonchliligini tekshiradi.

Tender - davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo'lib, uning natijalariga ko'ra davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

Umumiy fiskal balans - O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjetini hamda davlat dasturlarini amalga oshirish uchun chetdan jalb qilingan va O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti hisobidan qoplanadigan qarz mablag'lari evaziga amalga oshiriladigan xarajatlarni o'z ichiga olgan jamlanma balans.

Umumdavlat nazorati davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. U davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlaydi, soliq to'lovchilarning byudjet oldidagi majburiyatlari bajarilishini va byudjet ajratmalari maqsadli ishlatilishini tekshiradi.

Fiskal siyosat – 1) hukumat tomonidan qo'yilgan makroiqtisodiy maqsadlarga erishish uchun hukumatning xarajat va soliq funksiyalarini ongli ravishda qo'llash; 2) byudjet, soliq va boshqa moliyaviy imkoniyatlarni boshqarish sohasidagi chora-tadbirlar yordamida hukumat tomonidan tadbirkorlik faolligini tartibga solish.

Franshiza - sug'urta qildiruvchi zararlarining bir qismi bo'lib, sug'urta shartnomasiga muvofiq uning o'rni sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydi.

Fond birjasi - ommaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxs.

Foydalanganlik uchun to'lov - tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste'mol qiluvchilardan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish doirasida xususiy sherik tomonidan yig'ib olinadigan to'lovlar.

Fiskal tavakkalchiliklar - byudjet jarayoni ishtirokchilari uchun byudjet tizimi byudjetlari mablag'larini shakllantirish va sarflashda moliyaviy resurslardagi yo'qotishlarni baholash.

Xarajatlar moddasi - byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari-ning iqtisodiy yo'nalishi va to'lovlarning aniq turlari bo'yicha belgilovchi byudjet tasnifining bir qismi.

Xarajatlar smetasi - byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat.

Xarid qilish tartib-taomili - davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq harakatlar majmui.

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxsi - qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan va (yoki) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatadigan, shu jumladan yozma kelishuv asosida ta'sir ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan shunday huquqqa ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Xususiy sherik - O'zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan, davlat sherigi bilan davlat-xususiy

shariklik to'g'risida bitim tuzgan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs yoki yuridik shaxslarning birlashmasi.

Siklli taqchillik – ishlab chiqarishning siklli pasayishi natijasida kelib chiqadigan va iqtisodiyotdagi inqiroz holatlarini, hukumatning moliyaviy holatni nazorat qila olmasligini ifoda etuvchi taqchillik.

O'zaro hisob-kitoblar – mahalliy byudjetlarga kelib tushadigan yoki mahalliy byudjetlardan davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan va byudjet tuzilishida hisobga olinmagan o'tkazib beriladigan summalar.

O'rta muddatli davr uchun fiskal strategiya - o'rta muddatli davr uchun soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi hujjat.

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti (Davlat byudjeti) - davlatning davlat vazifalari va funktsiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi.

Yakuniy nazorat moliya yili yoki hisobot davri tugagandan so'ng amalga oshiriladi, unda soliqlar, bojlar va boshqa to'lovlarni to'plash bo'yicha rejalashtirilgan son va sifat ko'rsatkichlarini (daromadlar va xarajatlar-ning har bir turi bo'yicha) bajarilishi, davlat pul mablag'larini sarflash, byudjet tashkilotlari smetalarining ijrosi tekshiriladi.

Yagona g'azna hisobvarag'i - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladigan milliy yoki chet el valyutasidagi maxsus bank hisobvarag'i.

Qarzga xizmat ko'rsatish me'yori (koeffitsienti) – tashqi qarz holatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri. Bu ko'rsatkich mamlakatning qarziga xizmat ko'rsatish to'lovlarining foiz ko'rinishini tovar va xizmatlarning eksportidan tushumlarga nisbati ko'rinishida bo'ladi. Bu ko'rsatkich davlat qarzini va davlat tomonidan kafolatlangan tashqi qarzni tavsiflaydi.

Qayta sug'urta - sug'urta shartnomasi bo'yicha qabul qilingan sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lash tavakkalchiligini boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) bilan tuzilgan qayta sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan to'liq yoki qisman sug'urta qilish.

Qayta sug'urtalovchi - boshqa sug'urta tashkilotidan qayta sug'urta qilish uchun sug'urta tavakkalchiliklarini qabul qiladigan sug'urta yoki qayta sug'urta tashkiloti.

Qayta sug'urta shartnomasi - sug'urtalovchi o'zining sug'urta shartnomasiga doir barcha majburiyatlarini yoki ularning bir qismini qayta sug'urtalovchiga qaysi shartnomaga muvofiq o'tkazsa o'sha shartnoma.

Qimmatli qog'ozlar - hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori - yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlari tizimi.

Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari - qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek birjalar va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi - qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining mijoz (mijoz) - deponent yoki qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining xizmatlaridan foydalanuvchi boshqa shaxs.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat - qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha litsenziyalanadigan yoki vakolatli organni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi.

Qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar - qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, hadyasi, merosi, ustav fondiga kiritilishi va qimmatli qog'ozlar egasining

almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar, shuningdek qimmatli qog'ozlar garovi.

Qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers - qimmatli qog'oz bo'lib, u o'zida nazarda tutilgan muddatda qimmatli qog'ozlarning muayyan sonini qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlaydi.

Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish - qimmatli qog'ozlarni ularning dastlabki egalariga berish.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi - depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni saqlashning, bunday qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishning va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakatining yagona tizimini ta'minlovchi davlat depozitariysi.

Qimmatli qog'ozlarning muomalasi - qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar.

Qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchi - qimmatli qog'ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning topshirig'iga ko'ra qimmatli qog'ozlarni hisobga olishni va ularga bo'lgan huquqlarni tasdiqlashni qimmatli qog'ozlarning egasi bo'lmagan holda amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi.

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish - yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarining obyekti sifatida qimmatli qog'ozlar paydo bo'lishiga qaratilgan harakatlari.

Qimmatli qog'ozlar egasi - qimmatli qog'ozlar o'ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Qimmatli qog'ozlar egalarining reestri - ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko'ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar emitentining nomi, ushbu qimmatli qog'ozlarning soni, nominal qiymati, turi va xili, shuningdek reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslarga axborot yuborish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan ro'yxati.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi - emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish.

Qimmatli qog'ozlarning emissiya risolasi - emitent va u chiqaradigan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek investorning qimmatli qog'ozlar olish to'g'risidagi qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat.

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari - o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan opsiyonlar, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar, depozitar tilxatlar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar.

G'aznachilik – Davlat byudjetining ijrosini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli moliyaviy organ.

G'aznachilik bo'linmalari - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari, tumanlar va shaharlar bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari.

G'aznachilik memorial orderi - mablag'larni bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan boshqa shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazish uchun foydalaniladigan to'lov hujjati.

Hujjatli nazorat birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari, byudjet tashkilotlari xarajatlar smetalari va unga qo'shimcha hisob-kitoblar va boshqalar asosida amalga oshiriladi.

Hujjatli tekshirish – korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliya- xo'jalik faoliyatining byudjet tekshiruvini amalga oshirish.

Huquqiy nazorat huquq-tartibot organlari tomonidan qo'zg'atilgan jinoyat ishi asosida taftish, sud-buxgalteriya ekspertizasi va boshqa ko'rinishlarda amalga oshiriladi.

Hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchi - o'z tasarrufida Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetidan, viloyatlar viloyat byudjetlaridan, Toshkent shahri shahar byudjetidan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan mablag'

oluvchi tashkilotlarga ega bo'lgan yuridik shaxs, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetidan, viloyatlar viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahri shahar byudjetidan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi.

Hududiy moliya organlari - Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari.

Elektron davlat xaridlari - axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli.

Elektron do'kon - davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarni elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo'yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli.

G'olib - xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko'ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

Eng yaxshi takliflarni tanlash - xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli.

E'lon - davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko'rsatilgan, maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladigan bo'lajak davlat xaridlari to'g'risidagi axborot.

Egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar - mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi o'z egasining ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishini talab etadigan qimmatli qog'ozlar.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar - bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo'lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlar.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reestri - ro'yxatdan o'tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining ro'yxati.

Emitent - emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxs.

FAN BO‘YICHA TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, <https://constitution.uz/uz>
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, <https://lex.uz/docs/111189>
3. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi, <https://lex.uz/docs/2304138>
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, <https://lex.uz/docs/-4674902>
5. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742 son Qonuni, <https://lex.uz/docs/5801127>
6. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni (yangi tahrir). 13.04.2016 y. № O‘zRQ-404 (yangi tahrir), <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>
7. O‘zbekiston Respublikasining 10.12.2019 yildagi O‘RQ-591-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/4636594>
8. O‘zbekiston Respublikasining 11.11.2019 yildagi O‘RQ-582-son “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Qonuni, <https://lex.uz/docs/4590452>
9. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi 474-I-son “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida” qonuni, <https://lex.uz/docs/40158>
10. O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/5382974>
11. O‘zbekiston Respublikasining 30.11.2021 yildagi O‘RQ-733-son ““Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” qonuni, <https://lex.uz/docs/-5748712>
12. O‘zbekiston Respublikasining 01.07.2019 yildagi O‘RQ-546-son “O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/4394324>
13. O‘zbekiston Respublikasining 25.02.2021 yildagi O‘RQ-677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/5307886>
14. O‘zbekiston Respublikasining 23.11.2021 yildagi O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/5739117>

15. O‘zbekiston Respublikasining 03.06.2015 yildagi O‘RQ-387-son ““Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/2662539>

16. O‘zbekiston Respublikasining 10.12.2019 yildagi O‘RQ-591-son ““O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/4636594>

17. O‘zbekiston Respublikasining 26.04.2012 yildagi O‘RQ-327-son “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/2004956>

18. O‘zbekiston Respublikasining 19.09.2022 yildagi O‘RQ-791-son ““Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida” Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/6199819>

19. O‘zbekiston Respublikasining 13.12.2002 yildagi O‘RQ- 444-II-son “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), <https://lex.uz/docs/77871>

20. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni (O‘RQ-598-son 25.12.2019 yil), <https://lex.uz/docs/-4664142>

21. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-604-son 17.02.2020 yil), <https://lex.uz/docs/-4737511>

22. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-537-son 10.05.2019 yil), <https://lex.uz/docs/-4329270>

23. O‘zbekiston Respublikasining 25.22.2021 yildagi O‘RQ- 677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/5307886>

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi PF-6207 sonli “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5371091>

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.08.2021 yildagi PF-6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/5607471>

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 yildagi PF-5992-son “2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/4811025>

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-aholisini-izhtimoiy-himoya-qilish-strategiyasini-tasdiqlash-togrisida_393010

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022 yildagi PF-175-son “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/pdfs/6130265>

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2022 yildagi PF-198-son “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/6171343>

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi PF-6207-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/5371091>

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.03.2021 yildagi PQ-5012-son “Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, <https://lex.uz/docs/-5317637>

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2017 yildagi PQ-2847-son “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, <https://lex.uz/docs/3145558>

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.07.2019 yildagi PQ-4389-son “Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori, <https://lex.uz/docs/4415356>

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.08.2022 yildagi PQ-353-son “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, https://uza.uz/uz/posts/mahalla-institutining-zhamiyat-hayotidagi-rolini-mustahkamlash-va-moliyaviy-imkoniyatini-yanada-kengaytirish-chora-tadbirlari-tog'risida_399486

37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi PQ-4742-son “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-4849607>

38. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2020 yildagi 506-son “2020 — 2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori, <https://lex.uz/uz/docs/4966572>

39. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.10.2017 yildagi 870-son “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori, <https://lex.uz/docs/3392654>

40. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.08.2022 yildagi 431-son “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risi”dagi Qarori, <https://lex.uz/docs/6143603>

41. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Nizom.

42. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik /Toshkent Moliya instituti. - Toshkent: “Noshir”, 2011. 712 b.

43. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti,2021. 464 b.
44. Xudoyqulov S. K. Moliya va soliqlar, darslik. T.: “Iqtisodiyot”-2020 y.
45. Tursunova M.R. Moliya va soliqlar (soliqlar va soliqqa tortish). O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2019. – 210 b.
46. Tojiyev R.R., Nasriddinov F.N. Xalqaro moliya: Darslik. –T.: TDIU, 2007. -185 b.
47. Tursunova M.R. Moliya va soliqlar (soliqlar va soliqqa tortish). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019. – 210 b.
48. Sirojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi.Darslik / O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.- Toshkent: infoCOM.UZ MCHJ nashriyoti-2010.-500 b.
49. Fuqarolar uchun byujet, 2022. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot nashri.
50. The basics of finance: an introduction to financial markets, business finance, and portfolio management / Frank J. Fabozzi, Pamela Peterson Drake. p. cm. – (Frank J. Fabozzi series; 192)
51. Anisimov A.A. Makroekonomika. –M.: Yuniti-Dana, 2016.– 600 c.
52. Fisher S. R. Dornbush, R. Shmalenzi., “Ekonomika”-M.: “Delo”. 1993.654 s.
53. Finanso‘. Uchebnik / Pod red. prof. V.V. Kovalyova. – M.: PBOYuL M.A. Zaxarov, 2001, S. 10.
54. Finanso‘ : uchebnik / Yu. S. Dolganova, N. Yu. Isakova, N. A. Istomina [i dr.]; pod obh. red. kand. ekon. nauk, dots. N. Yu. Isakovoy ; Min-vo obr. i nauki RF. -Ekaterinburg : Izd-vo Ural. un-ta, 2019 — 336 s.
55. Finanso‘, denejnoe obrahenie i kredit: Uchebnik / M.V. Romanovskiy i dr.; Pod red. M.V. Romanovskogo, O.V. Vrublevskoy. — M.: Yurayt Izdat, 2006. - 543 s.
56. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi - <https://lex.uz/>

57. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti - <https://mf.uz/uz/>
58. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining rasmiy sayti - <https://mineconomy.uz/>
59. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti - <https://soliq.uz/>
60. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti- <https://stat.uz/uz/>
61. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti- <https://cbu.uz/oz/>
62. O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi rasmiy sayti- [https://www.mehnat/uz/](https://www.mehnat.uz/)
63. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligining rasmiy sayti - <https://uza.uz/uz>
64. Iqtisodiy sharh jurnali - <https://review.uz/oz/journals/7-2022>
65. Iqtisodiyot va ta’lim ilmiy jurnali- <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal>
66. Экономическое обозрение журналы- <https://review.uz/journals/2022>

MUNDARIJA

KIRISH	3
1 - BOB. MOLIYANING MOHIYATI VA FUNKTSIYALARI.....	7
1.1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	7
1.2. Moliyaning funktsiyalari	14
1.3. Takror ishlab chiqarish va moliya	19
1.4. Moliya genezisi (taraqqiyoti).....	24
Bob bo'yicha xulosalar	33
2-BOB. MOLIYAVIY SIYOSAT.....	40
2.1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari	40
2.2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari).....	48
2.3. Hozirgi bosqichdagi moliya siyosati va uning o'ziga xos xususiyatlari	56
Bob bo'yicha xulosalar	72
3- BOB. MOLIYA TIZIMI VA UNING BO'G'INLARI	77
3.1. Moliya tizimining soha va bo'g'inlari.....	77
3.2. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi.....	90
Bob bo'yicha xulosalar	108
4-BOB. MOLIYA BOZORI VA MOLIYA BOZORI INSTRUMENTLARI	112
4.1. Moliya bozorining mohiyati va iqtisodiyotda tutgan o'rni	112
4.2. Moliya bozorining tuzilmasi va tarkibiy qismlari	124
4.3. Moliya bozorida bitim va operatsiyalar mazmuni, ularning turlari	134
Bob bo'yicha xulosalar	144
5-BOB. MOLIYAVIY BOSHQARUV	149
5.1. Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati	149
5.2. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari	155
5.3. Moliyaviy oqimlarni boshqarish.....	166
Bob bo'yicha xulosalar	173
6-BOB. MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH	180
6.1. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash	180
6.2. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solish.....	194
Bob bo'yicha xulosalar	208
7-BOB. MOLIYAVIY NAZORAT	214
7.1. Moliyaviy nazoratning mazmuni, vazifa va tamoyillari	214
7.2. Moliyaviy nazorat turlari, shakl va usullari.....	222
7.3. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifa va funktsiyalari.....	230
7.4. Nodavlat moliyaviy nazorat.....	246
Bob bo'yicha xulosalar	253
8-BOB. XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYASI	259
8.1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy	259
8.2. Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy resurslaridan	265
8.3. Asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishining mohiyati,.....	269
8.4. Korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi	291

8.5. Korxona balansining tarkibi va tuzilishini tahlil qilish	296
8.6. Korxona balansining likvidligi va to'lov qobiliyatini tahlil qilish	303
8.7. Korxona moliyaviy barqarorlik va ish faolligi tahlili	311
8.8. Korxona foydasi va rentabelligi, hamda bozor faolligi tahlili	326
Bob bo'yicha xulosalar	340
9-BOB. DAVLATNING BYUDJET-SOLIQ (FISKAL) SIYOSATI	347
9.1. Davlat byudjeti va uning iqtisodiy mazmuni	347
9.2. O'zbekistonda byudjet tuzilishi va byudjet tizimi	356
9.3. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tushunchalari va ularning tarkibi	366
Bob bo'yicha qisqacha xulosalar	377
10-BOB. UY XO'JALIKLARI MOLIYASI	380
10.1. Uy xo'jaliklarining iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni	380
10.2. Takror ishlab chiqarish jarayonida uy xo'jaliklarning funktsional vazifalari va faoliyat yo'nalishlari	391
10.3. Uy xo'jaliklarining yalpi daromad va xarajatlari bo'yicha tabaqalanishining hozirgi holati	405
10.4. Mamlakatda aholi o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	413
Bob bo'yicha xulosalar	423
11-BOB. XALQARO MOLIYA	428
11.1. Xalqaro moliyaning asoslari va rivojlanish tendentsiyalari	428
11.2. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar	443
11.3. Valyuta kursi va valyuta bozorlari	451
11.4. To'lov balansi va uni tartibga solish yo'llari	456
11.5. Xalqaro hisob-kitob shakllari	461
11.6. Xalqaro kredit	470
11.7. O'zbekiston Respublikasida valyuta munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari	478
11.8. Xorijiy investitsiyalar xalqaro moliyaviy munosabatlarni jadallashtirish asosi sifatida	487
Bob bo'yicha xulosalar	506
12-BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI	508
12.1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi	508
12.2. Soliqlarning asosiy unsurlari va tamoyillari	519
12.3. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalari	526
12.4. Soliqlar va maxsus soliq rejimlari	536
12.5. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish	538
13-BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I VA UNING MOHIYATI	545
13.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi	545
13.2. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti	548
13.3. Qo'shilgan qiymat solig'i imtiyozlari	555
13.4. Soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi. Soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalari	564
14-BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD	564

SOLIG'I.....	583
14. 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti	583
14.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozlari	591
14. 3. Soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi.....	599
14. 4. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....	607
15-BOB. AKSIZ SOLIG'I VA UNING MOHIYATI.....	614
15.1. Aksiz solig'i to'lovchilari va soliqqa solish obyekti	614
15.2. Soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi.....	618
16-BOB. FOYDA SOLIG'I VA UNING MOHIYATI.....	620
16.1. Foyda solig'ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	620
16.2. Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obyekti va soliq bazasi	621
16.3. Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar	623
16.4. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar	650
16.5. Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni byudjetga to'lash muddatlari ..	652
17-BOB. MOL-MULK SOLIG'I.....	664
17.1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti	664
17.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi	666
17.4. Yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi	673
18-BOB. YER SOLIG'I.....	680
18.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti	680
18.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi	682
18.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilari va soliq solish obyekti	686
18.4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq bazasi va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi	688
19-BOB. AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ VA UNING MOHIYATI	698
19.1. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.....	698
19.2. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish obyekti va bazasi	701
19.3. Soliq to'lovchilari va stavkasi hamda soliqni hisoblash tartibi	705
20-BOB. RESURS SOLIQLARI VA ULARNING MOHIYATI.....	709
20.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish obyekti va bazasi	709
20.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq stavkasi va uni hisoblash	714
20.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish obyekti va bazasi	718
20.4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq stavkasi va uni hisoblash	722

GLOSSARIY	727
FAN BO‘YICHA TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	
.....	754
MUNDARIJA.....	760

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
ГЛАВА 1 . СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ ФИНАНСОВ	7
1.1. Социально-экономическая сущность финансов	7
1.2. Функции финансов	14
1.3. Репродукция и финансы	19
1.4. Генезис (развитие) финансов	24
Выводы по главе	33
ГЛАВА 2. ФИНАНСОВАЯ ПОЛИТИКА	40
2.1. Содержание и принципы финансовой политики	40
2.2. Составляющие (направления) финансовой политики	48
2.3. Финансовая политика на современном этапе и ее характеристики	56
Выводы по главе	72
ГЛАВА 3 . ФИНАНСОВАЯ СИСТЕМА И ЕЕ СВЯЗИ	77
3.1. Отрасли и звенья финансовой системы	77
3.2. Государственная финансовая система ведущих зарубежных стран	90
Выводы по главе	108
ГЛАВА 4 . ФИНАНСОВЫЙ РЫНОК И ИНСТРУМЕНТЫ	112
4.1. Природа финансового рынка и его роль в экономике	112
4.2. Структура и составляющие финансового рынка	124
4.3. Содержание сделок и операций на финансовом рынке, их виды	134
Выводы по главе	144
ГЛАВА 5. ФИНАНСОВЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ	149
5.1. Сущность финансового менеджмента	149
5.2. Органы финансового управления и их обязанности	155
5.3. Управление финансовыми потоками	166
Выводы по главе	173
ГЛАВА 6. ФИНАНСОВОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ	180
6.1. Финансовое планирование и прогнозирование	180
6.2. Финансовое регулирование социально-экономических процессов	194
Выводы по главе	208
ГЛАВА 7. ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ	214
7.1. Содержание, задачи и принципы финансового контроля	214
7.2. Виды, формы и методы финансового контроля	222
7.3. Задачи и функции органов государственного финансового контроля	230
7.4. Негосударственный финансовый контроль	246
Выводы по главе	253
ГЛАВА 8 . ФИНАНСЫ СУБЪЕКТОВ ЭКОНОМИКИ	259
8.1. Финансы хозяйствующих субъектов	259
8.2. Финансы субъектов государственного управления	259
8.3. Финансы субъектов внешнеэкономической деятельности	259
8.4. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.5. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.6. Финансы субъектов образования	259
8.7. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.8. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.9. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.10. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.11. Финансы субъектов образования	259
8.12. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.13. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.14. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.15. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.16. Финансы субъектов образования	259
8.17. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.18. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.19. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.20. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.21. Финансы субъектов образования	259
8.22. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.23. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.24. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.25. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.26. Финансы субъектов образования	259
8.27. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.28. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.29. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.30. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.31. Финансы субъектов образования	259
8.32. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.33. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.34. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.35. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.36. Финансы субъектов образования	259
8.37. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.38. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.39. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.40. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.41. Финансы субъектов образования	259
8.42. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.43. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.44. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.45. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.46. Финансы субъектов образования	259
8.47. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.48. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.49. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.50. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.51. Финансы субъектов образования	259
8.52. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.53. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.54. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.55. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.56. Финансы субъектов образования	259
8.57. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.58. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.59. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.60. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.61. Финансы субъектов образования	259
8.62. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.63. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.64. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.65. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.66. Финансы субъектов образования	259
8.67. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.68. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.69. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.70. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.71. Финансы субъектов образования	259
8.72. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.73. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.74. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.75. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.76. Финансы субъектов образования	259
8.77. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.78. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.79. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.80. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.81. Финансы субъектов образования	259
8.82. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.83. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.84. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.85. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.86. Финансы субъектов образования	259
8.87. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.88. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.89. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.90. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.91. Финансы субъектов образования	259
8.92. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.93. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.94. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.95. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259
8.96. Финансы субъектов образования	259
8.97. Финансы субъектов здравоохранения	259
8.98. Финансы субъектов социальной защиты	259
8.99. Финансы субъектов жилищно-коммунального хозяйства	259
8.100. Финансы субъектов культуры, искусства, спорта, туризма	259

CONTESTS

INTRODUCTION	3
CHAPTER 1 . NATURE AND FUNCTIONS OF FINANCE	7
1.1. Socio-economic essence of finance	7
1.2. Functions of finance	14
1. 3. Reproduction and finance	19
1.4. Genesis (development) of finance	24
Chapter conclusions	33
CHAPTER 2. FINANCIAL POLICY	40
2.1. Content and principles of financial policy	40
2.2. Components (directions) of financial policy	48
2.3. Financial policy at the current stage and its characteristics	56
Chapter conclusions	72
CHAPTER 3 . FINANCIAL SYSTEM AND ITS LINKS	77
3.1. Sectors and links of the financial system	77
3. 2. Public financial system of leading foreign countries	90
Chapter conclusions	108
CHAPTER 4 . FINANCIAL MARKET AND FINANCIAL MARKET INSTRUMENTS	112
4. 1. The nature of the financial market and its role in the economy	112
4.2. Structure and components of the financial market	124
4.3. Contents of transactions and operations in the financial market, their types	134
Chapter conclusions	144
CHAPTER 5. FINANCIAL MANAGEMENT	149
5.1. The essence of financial management	149
5. 2. Financial management bodies and their duties	155
5. 3. Management of financial flows	166
Chapter conclusions	173
CHAPTER 6. FINANCIAL PLANNING AND FORECASTING	180
6.1. Financial Planning and Forecasting	180
6. 2. Financial regulation of socio-economic processes	194
Chapter conclusions	208
CHAPTER 7. FINANCIAL CONTROL	214
7.1. Content, tasks and principles of financial control	214
7.2. Types, forms and methods of financial control	222
7.3. Tasks and functions of state financial control bodies	230
7.4. Non-state financial control	246
Chapter Conclusions	253
CHAPTER 8 . FINANCE OF ECONOMIC SUBJECTS	259
8. 1. Financial 259 of economic entities 259from the financial resources of the economic entity 265activity 391Taxation object and base of tax for use of subsoil 718	